

O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI TARIXI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**B. NAZAROV, A. RASULOV,
Q. QAHRAMONOV, SH. AXMEDOVA**

O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI TARIXI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
monidan Universitetlarning 5220100 – filologiya (o'zbek filologiyasi),
pedagogika institutlarining – o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

*Cholpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2012*

YDK 821.512.133(09)(075)

KBK 83.3(50⁴)

O' 16

Mas'ul muharrirlar:

T. Mirzayev – filologiya fanlari doktori, professor

B. Karimov – filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

B. To'xliyev – filologiya fanlari doktori, professor

T. Qahhor – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O' -16 **O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi:** darslik/B. Nazarov [va boshq.]; mas'ul muharrirlar: T.Mirzayev, B.Karimov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 432 b.
ISBN 978-9943-05-515-5

Darslik O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universitetlari olimlari hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi talabi va shartnomasiga muvofiq yaratildi. Unda o'zbek adabiy tanqidining fan va san'at sifatidagi estetik mohiyati, paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyot tarixining o'ziga xos tamoyillari bosqichma-bosqich o'rganilib umumlashtirilgan. O'zbek adabiy tanqidi rivojiga munosib hissa qo'shgan qator yetakchi adabiyotshunos-munaqqidlar ilmiy-ijodiy faoliyati yoritilgan. Shuningdek, adabiy tanqidning janriy tarkibi tasnif etilib, taqriz, adabiy-tanqidiy maqola, adabiy portret, tanqidiy-biografik ocherk, esse, adabiy-tanqidiy maktub, adabiy suhbat kabi janrlar tahlil etilgan. Har bir mavzu reja, mavzuni mustahkamlovchi savollar, tayanch tushunchalar bilan ta'minlangan.

Darslik universitetlar va pedagogika institutlari o'zbek filologiyasi fakultetining talaba, aspirant, o'qituvchilari va barcha qiziquvchilarga mo'ljallangan.


YDK: 821.512.133(09)(075)

KBK 83.3(50⁴)

ISBN 978 9943-05-515-5

© B. Nazarov va boshq. 2012

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012



MUALLIFLARDAN

Yurtimiz mustaqillikka erishganiga yigirma bir yil to'ldi. Milliy istiqlol mafkurasi hayotning hamma sohalarida o'z aks-sadosini beryapti. Jumladan, adabiyotshunoslik, uning tarkibiy qismi bo'lgan adabiy tanqid ilmi ham shu yangilanish mafkurasi asosida hodisalarni qayta baholash evaziga tobora teranlashib bormoqda.

Oliy o'quv yurtlarida adabiyot o'qitishni yangilash masalasi o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolardan sanaladi. Ma'lumki, oliy ta'lim tizimidagi adabiy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri adabiyotshunoslik va adabiy tanqid ilmining o'rganilishidir.

Darsliklarning yangi avlodini yaratish davr talabidir. Shu ma'noda bugun adabiy tanqid tarixini badiiy ijodning barcha masalalari bilan, jamiyat hayoti, uning moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratish yo'lidagi kurashi bilan bog'lab o'rganish va o'rgatish lozim.

Oliy o'quv yurtlari uchun adabiy tanqid bo'yicha darslik yo'qligi bu sohani talabalarga puxta o'rgatishni qiyinlashtirmoqda. Shu bois adabiy tanqid tarixini milliy mafkura nuqtayi nazaridan talabalarga yetkazish mazkur darslikning mundarijasini tashkil etadi. Bunda adabiy tanqidning fan va san'at uyg'unligidan iborat ijtimoiy-estetik hodisa ekanligi, o'zbek adabiy-tanqidiy tafakkurining uyg'onishi, shakllanishi va rivojlanish tarixi, adabiy tanqidning taraqqiyot bosqichlari yoritiladi. O'zbek adabiy tanqidining yorqin namoyandalari ilmiy-tanqidiy faoliyatlarini hamda adabiy tanqidning janrlarini o'rganish ko'zda tutiladi. Binobarin, darslikda o'zbek adabiy tanqidi tarixini istiqlol mafkurasi asosida yaxlit bir tizim sifatida o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Dastlabki tajriba mahsuli bo'lgan darslik kamchiliklardan xoli emasligi tabiiydir. Shuning uchun uni mukammallashtirish yo'lidagi takliflar mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

BIRINCHI BO'LIM

ADABIY TANQID FAN SIFATIDA. UNING IJTIMOYIY-ESTETIK MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI

REJA:

1. Adabiy tanqid ildizi, mohiyati, falsafa, estetika, lingvistika bilan bog'liqligi.
2. Adabiy tanqid – adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi: mushtarak va xos xususiyatlar. Tanqidning fan va san'atlik mohiyati.
3. Adabiy tanqid metodologiyasi.
4. Adabiy tanqidning boshqa fanlar bilan munosabati.
5. O'zbek adabiy tanqid tarixi fanining maqsad va vazifalari.

«Adabiy tanqid» tushunchasi, lug'aviy va istilohiy ma'nolari. Adabiy tanqid ilmda o'ziga xos hodisa sifatida dastlab Platon, Aristotel, Aristarx faoliyatlarida antik zamonda namoyon bo'ldi. Aslini olganda, tanqidning ilk unsurlari xalq og'zaki ijodida boshlangan. O'tmishda badiiy asar haqida ikki xil: og'zaki va yozma shakllarda fikr bildirib kelindi. Ilk badiiy asar yaratuvchisi xalq bo'lganidek, ularga ilk munosabat bildiruvchi ham xalqning o'zidir.

Hayotning barcha jabhalari, jumladan, kishilarning tabiiy ofatga qarshi kurashdagi jasoratini, muayyan maqsad yo'lidagi intilishlari, qahramonlik fazilatlarini va rang-barang ruhiy holatlarini ifoda etuvchi asarlar maydonga kelishi va xalqning bu asarlarga, ularda tasvirlangan voqea-hodisalarga munosabati, bahosi, ma'qullashi yoki inkori, ulardan zavqlanishi yoki aksincha qoniqmasligi tabiiy edi. Adabiy tanqidning paydo bo'lishida mana shu tabiiy jarayon yotadi.

Demak, badiiy asar paydo bo'lishi bilan unga baho berilishi (qanchalik oddiy bo'lishidan qat'i nazar) zamiridagi estetik uzv adabiy tanqidning dunyoga kelishini taqozo etadi. Bunday hol umum jahon miqyosidagi adabiy tanqidiy tafakkurning paydo bo'lishi uchun umumiy qonuniyat sanaladi. Shu tariqa adabiy tanqidning ilk namunulari folklor asarini yaratuvchilar hamda uni tinglovchilar toifasiga mansubdir deyish mumkin. Shunday holat o'zimizning baxshilar va ular ijrosidagi asarlarni tinglovchilar uchun ham xos bo'lgan. Bu hol adabiy tanqid hodisasining qadimiyligidan guvohlik beradi, albatta.

Jumladan, Fozil Yoʻldosh oʻgʻlidan «Sanobar», «Farhod va Shirin» dostonlarini tinglagan xalq baxshiga oʻz taassurotlarini bildirgani haqidagi maʼlumotlar fikrimizni tasdiqlaydi.

Yillar, davrlar osha yozma adabiyot bilan parallel ravishda goh uning tarkibida, goh unga alohida munosabat tarzida yozma adabiy-tanqidiy fikrlar yuzaga keldi va shakllanib bordi. Bora-bora u jamiyat va adabiyot rivojida mustaqil va mustahkam mavqega ega boʻldi. Binobarin, tanqid deganda biz nimani tushunamiz?

Arabiy lugʻatlarning shahodat berishicha, «naqd» soʻzining bosh maʼnosi – «saralamoq», yaʼni yaxshini yomondan yoki aslni soxtadan ajratish demakdir. «Naqada» oʻzagidan kelib chiqqan tanqid istilohi muhokama qilmoq, tekshirmoq, oʻrganmoq, nimaningdir haqqoniyligi va toʻgʻriligini isbotlamoq, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, badiiy asarni baholash, izohlash kabi maʼnolarni ifodalaydi.

Maʼlumki, Sharq mumtoz poetikasi anʼanaviy ilmi qofiya, ilmi aruz, ilmi badeʼdan tarkib topgan edi. Tanqid ham ana shu uchlik ichida boʻlgan. Vazn, qofiya, ifoda, tasvir, bayondagi gʻalizliklar uni yaxshi tushunuvchilar tomonidan beeʼtibor qolmagan. Badiiy asardagi kamchilikni koʻrsatadigan «ilmi naqd» tarzida anʼana kasb eta borgan. Biroq boshda u dastlab ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi badeʼda har birining oʻzida naqd qismi sifatida mavjud boʻlgan.

XIII asrning yirik adabiyotshunosi Shamsiddin Muhammad binni Qays Roziy «Al- Moʻjam» kitobida ilmi naqdni alohida fasl qilib ajratgan. Olim bu ilmning ahamiyati, vazifalari haqida ham maxsus fikr yuritadi.

1483- yili Alisher Navoiy homiyligida bitilgan Atoulloh Husayniyning «Badoyi us-sanoye» asarida ham badiiy asar kamchiligi muammosi alohida bobda bayon etilgan. Alisher Navoiy zamondoshi Husayn Voiz Koshifiyning «Badoyiʼ ul afkor fi sanoyiʼ ul ashʼor» kitobi ham Sharq tanqid ilmi tarixini yoritish uchun muhim manba hisoblanadi. Bu asarning badiiy sanʼatga bagʻishlangan anʼanaviy kitoblardan farqi shundaki, uning birinchi bobi badiiy sanʼatlar, ikkinchi bobi ilmi naqd, yaʼni adabiy tanqidga bagʻishlangan. Koshifiy bu adabiy ilmni yanada mukammallashtirdi, kitobda naqdnning lugʻaviy va istilohiy maʼnosi, bu adabiy ilmning vazifalari aniq taʼriflangan: «Nazm aytmak bayonidakim uni naqd ilmi derlar va adabiy ilmlarning biri deb bilurlar va naqd lugʻatda «saralamoq» va «sof» tangani qalbaki tangadan ajratmoq degani. Istilohda eng yaxshi sheʼrni yomonidan ajratish va ularni oʻzaro farqlash ilmidan iborat

va bu ilmni shuning uchun naqd deganlarki, tanga naqqodi (saralovchi) qalbaki tangalar orasidagi haqiqiy tangani ajratsa, bu ilm sohibi (tanqidchi) ham pokiza va beayb suxanni noshoista va ayblik suxanlar orasidan saralab aytishi kerak. Har holda kimki she'r ayblaridan ogoh bo'lmasa, unga beayb she'rni namuna qilib ko'rsatishi lozim»¹. Ko'rinib turibdiki, olimning adabiy tanqid oldiga qo'ygan talabi hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Yunon tilidagi «sritike» so'zi bilan ifodalangan (uni ruslarda ilk bor Kantemir 1799-yilda «kritik» shaklida taomilga kiritgan) tanqid, V.G.Belinskiy talqinicha, «hukm qilmoq», keng ma'noda esa, mulohaza bildirmoq, fikr yuritmoq ma'nolarida qo'llangan. Shu sababli tanqid faqat san'at va adabiyot asarlarigagina xos bo'lmay, turli fanlarga, jumladan, tarix, axloq va boshqa sohalarga ham taalluqlidir. Demak, tanqid tushunchasi doirasining kengligi uning hayotdagi barcha hodisa-voqealarga tegishli ekanini ko'rsatadi. Shu jihatdan tanqid hayotning qaysi bir sohasiga tegishli bo'lsa, o'sha jabha nomi bilan ham atalishi an'anaviydir. (Masalan, ijtimoiy tanqid, iqtisodiy tanqid kabi).

Rus va Yevropadagi qator xalqlarda realistik adabiy tanqidning san'at va fan sintezidan iborat holda shakllana boshlashi XVII asr oxiri va XVIII asr boshlariga to'g'ri keladi. Adabiy tanqid harakatdagi estetik tafakkur tarzida adabiy jarayon mohiyatini tahlil qilish va baholash xususiyatini kasb etgan; ijtimoiy-falsafiy estetik qarash shaklida adabiyot va jamiyat munosabatlari qay darajada in'ikos topganini zamon mafkurasi prizmasidan o'tkazgan holda umumlash-tirish san'ati darajasiga ko'tarilgan. Binobarin, san'at qanchalik ichki xilma-xillikka ega bo'lsa, tanqid ham o'sha sohalarga tegishlilik kasb etadi. Bunga teatr va kino tanqidini misol qilib ko'rsatish mumkin. Badiiy adabiyot muammolariga daxldor tanqid adabiy tanqididir. Chunki adabiy tanqidning qiziqish doirasini so'z san'ati – badiiy adabiyot tashkil etadi. Hozirgi tushunchamizdagi o'zbek adabiy tanqidining shakllanishi o'zbek vaqtli matbuotining tug'ilishi va rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. Vaqtli matbuot adabiyotga aloqador bu yangi sohani taraqqiy ettirishga katta hissa qo'shdi. Nashr etilgan badiiy va tarjima asarlariga vaqtli matbuot sahifalarida taqrizlar berildi. Bu taqrizlar adabiy tanqid uchun keng va izchil shakllanish yo'lini ochdi.

¹ *Sultonmurod Olim. Tanqid qadimiy // O'z AS. 1990, 25-may.*

XX asr boshlaridagi o'zbek vaqtli matbuoti sahifalarida adabiy tanqid haqida, uning ahamiyati, ijobiy ta'siri, umuman, adabiyotning taraqqiyotidagi roli haqida qimmatli maqolalar chop etildi. Masalan, «Sadoyi Turkiston» gazetasi «tanqid» istilohi va uning adabiyotga kirib kelayotgani haqida shunday ma'lumot beradi: «Ushbu kalima qo'limizda bo'lg'on lug'at kitoblarining ba'zilarida bo'lsa ham ba'zilarida yo'qdir. Turkiston viloyatida iste'mol qilinadurg'on lug'at kitoblarida bo'lmaganlik to'g'risida bu «tanqid kalimasi bizning istiloh orasida yangidir». Gazeta tanqid «Axbori kabir» lug'atida «alnoqid» so'ziga to'g'ri kelib «yaxshi narsaning orasidan yomonini ajratib chiqarib tashlamoq» ma'nosini bildirishi, lekin endilikda bu atamani tatar matbuoti va adabiyotida qo'llanilayotgan ma'nosida ishlatish lozimligini uqtiradi. Maqola muallifi Ahlullo Xaybullo o'g'li «tanqid»ning bu davrga kelganda butunlay yangi ma'no kasb etishini aytish bilan birga «badiiy asarlarga vaqtli matbuot orqali baho berish» deb ham tushunadi va shu mantiqdan kelib chiqqan holda asarlarning yutuq hamda kamchiliklarini ko'rsatishi lozimligini uqtiradi. Uningcha, «Tanqid demak bir musannifning yozib maydoni intishorga qo'ygan kitobinda kelishmag'on iboralarni matbuot vositasi ila yozib ko'rsatmoq demakdir»¹. Ahlullo bu bilan adabiyotning kelgusi taraqqiyoti bevosita vaqtli matbuotga uzviy bog'liqligini uqtiradi. Shu bilan birga u tanqidchi odob doirasidan chiqmasligini ham alohida ta'kidlaydi. E'tibor bersangiz, bundan taxminan yuz yil avval o'zbek tanqidchiligida ilk bor tanqidchi etikasi degan muhim masalaga ham diqqat qaratilgan. Muallif maqolada adabiy tanqidning rus, tatar, ozarbayjon vaqtli matbuotida faol ko'rinayotganligini e'tirof etadi va o'zbek tanqidchilarini ham ulardan o'rganishga da'vat etadi. Chindanda, ilk o'zbek vaqtli matbuoti adabiy tanqidning paydo bo'lish omillaridan biriga aylana bordi. Ilk o'zbek vaqtli matbuoti yangi tipdagi adabiy tanqidning shakllanishiga asos solish bilan birga uning muhim ijtimoiy mohiyatiga ham e'tibor berdi.

Adabiy tanqid adabiyotshunoslikning o'ziga xos tarkibiy qismi: mushtarak va xos xususiyatlar. Hodisaning mohiyati. Adabiy tanqidning xos xususiyati aniq badiiy asar haqida fikr-mulohaza yuritish, uni baholash bo'lib, uning jamiyat va inson kamolotidagi o'rmini belgilashdan iborat. Ayni vaqtda u adabiy jarayon taraqqiyotiga

¹ *Jalolov A., O'zganboyev X.* O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti taraqqiyotida vaqtli matbuotning roli. — T.: Fan. 1993, 83-bet.

jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Adabiyotshunoslik uch tarkibiy qismdan iborat: adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid.

Adabiyot tarixi badiiy adabiyotni retrospektiv ravishda, ya'ni «ortga nazar tashlab», o'tmishda kechgan hodisalarning sabab, oqibatlarini tekshiradi. Boshqacha aytganda, adabiyot tarixi badiiy adabiyotning uzoq yoki yaqin tarixga mansub qismini o'rganadi. Adabiyot tarixi so'z san'atining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini ham tadqiq etadi, umumlashtiradi, bir xalqning va umuman, kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida badiiy adabiyotning roli va ahamiyatini belgilaydi.

Adabiyot nazariyasi so'z san'atining mohiyatini, u yoki bu asar janri, poetikasini, shuningdek, tarkibiy qismlari qonuniyati, ularning so'z san'ati takomilidagi rolini tadqiq etadi, badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillari va ularga baho berish me'yorlarini belgilaydi. Adabiyot nazariyasi o'tmish va bugungi kun adabiy-tarixiy jarayonidan nazariy xulosalar chiqaradi, mavjud tajribalar asosida kelajak adabiyotining nazariy xossalari haqida bashorat qiladi.

Adabiy tanqid asosan harakatdagi adabiy jarayonni tekshiradi, yangi paydo bo'layotgan asarlar talqin vositasida taraqqiyot tamoyillari haqida xulosa chiqaradi, adabiy jarayonga, yangi mezonlar shakllanishiga ta'sir etadi. Adabiy tanqid zamonaviy badiiy asarlarni xalq hayoti, uning estetik ehtiyoj va talablari jihatidan o'rganadi, baholaydi, fazilat, nuqsonlarini aniqlaydi, yozuvchilarning ijodiy o'sishlariga va adabiyotning ravnaqiga ko'maklashadi. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, adabiy tanqidda tarixiy-funksional yondashuv tamoyili bo'lib, u vaqti-vaqti bilan o'tmishda yaratilgan badiiy qadriyatlarga murojaat etib turadi. Har bir davr, insonlardagi badiiy-estetik ehtiyoj insoniyat yaratgan buyuk asarlarni o'qib, uqib, talqin qilib, baholab borishni taqozo etadi.

Badiiy adabiyotni adabiy tanqid o'rganadi. San'atning rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, amaliy san'at kabi yo'nalishlarini adabiy-badiiy tanqid o'rganadi. Jurnalistlar, san'atshunoslar, kino-teatrshunoslar adabiy-badiiy tanqid sohasini o'zlashtiradilar. Adabiy va adabiy-badiiy tanqidning betakror xususiyatlari mavjud.

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarining o'zaro mushtarak jihati shundaki, ularning har uchovi ham estetik idrokning o'ziga xos jihatlari o'rganadi; ular xalq tarixi, xalq tili, xalq madaniyati, folklor va xalq estetik tasavvurlarining jonli taraqqiyot tarixi negizida rivoj topadi. Ko'p hollarda bir olim shaxsida, aytaylik, I. Sulton yoki M. Qo'shjonovlarda, ayni vaqtda ham adabiyotshunos, ham munaqqid fazilatlarini mujassam topadi.

Adabiyotshunoslikning uch tarkibiy qismi aro tafovutlarga kelganda shuni aytish zarurki, ayirmalar ko'proq zamon kategoriyasi hamda obyektga munosabatdagi farqdan kelib chiqadi. Binobarin, adabiy tanqidni adabiyotshunoslikdan farqlashga imkon beradigan estetik xususiyatlar quyidagilar:

Adabiyot tarixi, asosan, o'tmish adabiyotini, adabiy tanqid esa ko'proq shu kunda yaratilayotgan asarlarni, adabiyot nazariyasi esa ham o'tmish, ham bugunda asarlarning yaratilish qonuniyatlarini, asarni yuzaga keltiruvchi tarkib va qismlarning sababiyatini o'rganadi.

Adabiyotshunos va tanqidchi orasida ham muayyan farqlar bo'lib, ular quyidagilardan iborat: 1) adabiyotshunos, asosan, ilmiy tafakkur maydonida, tanqidchi esa ilmiy-publitsistik va badiiy tafakkurning mushtarak maydonida harakat qiladi; 2) adabiyotshunos fundamental muammo va xulosalar ustida, adabiy tanqidchi esa jonli adabiy jarayon ustida so'z yuritadi; 3) adabiyotshunos o'tmish va zamonaning muayyan xulosalangan adabiy jarayoniga, adabiy tanqidchi esa, aniq asarga va kechagi asarlarning bugungi adabiy jarayonga ta'sir ko'rsata oluvchi jihatlariga ko'proq urg'u beradi; 4) adabiyotshunos yaxshi ma'nodagi «akademizm»ga, bilvosita faollikka tayanadi, tanqidchi esa zamonaviy, tezkor ruhdagi bevosita faollikka asoslanadi; 5) adabiyotshunos mutaxassislar va soha talablarini nazarda tutadi, adabiy tanqidchi esa ommaga qarab so'zlaydi; shu kunning estetik talablariga alohida e'tibor beradi; 6) adabiyotshunos estetikani, adabiy tanqidchi estetika bilan bir qatorda adabiyotshunoslikning o'zini ham boyitadi; 7) tanqid xulosalarini tasdiqlab yoki inkor etib, adib, asar, muammolar haqida yangi ilmiy qarashlarni ilgari suradi va h.k.

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi, boyitadi. Shunday qilib, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidning maqsadi umumiy, ammo predmeti bir-biridan farq qiladi.

Adabiy tanqid metodologiyasi. Jahon adabiyotshunosligida har bir xalqning tanqid tarixiga taalluqli talay tadqiqotlar yaratilganiga qaramay, bu sohada hamma adabiyotlar uchun ma'qul va manzur tushadigan mushtarak metodika va metodologiya hali maydonga kelganicha yo'q. Hozircha ko'pchilikka manzur tushuvchi asosiy yo'nalishlardan biri tanqid tarixini adabiyot tarixining bosqichlari bilan aloqadorlikda o'rganishdir. Bu yo'nalishning ilmiyligi shundaki, u adabiy-tarixiy jarayonda adabiyot va san'atning tanqid bilan uzluksiz rivojlanishini nazarda tutadi.

Lekin ayni vaqtda adabiy tanqid tarixini faqat adabiyot tarixigagina bog'lab emas, uning o'z spesifik xususiyatlari asosidagi takomiliga tayanib o'rganish mumkin va hatto zarur ekanligini ta'kidlash o'rinlidir. Shuni unutmaslik kerakki, tanqid tarixi adabiyot tarixini e'tirof etishning o'zidagina iborat bo'lib qolmasligi lozim. Adabiyot va san'at tarixida tanqidga oid material yordamchi manba vazifasini bajargani kabi, tanqid tarixida ham adabiyot tarixiga oid material murojaat etiluvchi manba bo'lib xizmat qiladi. Bu tanqid tarixining badiiy adabiyot tarixi bilan chambarchas aloqasini hamda tanqid tarixining, nisbatan, mustaqilligini adabiy tanqidchilikning rivojini tayin etuvchi shart-sharoitning o'ziga xos xususiyatlarini, albatta, e'tiborga olmoq demakdir.

Adabiyot hayotni, jamiyatni, voqelikni, inson hayotini badiiy aks ettirib, barkamol yetuk obrazlar yaratishi lozim bo'lsa, tanqidning vazifasi voqelik, kishilar hayoti, ruhiyati yozuvchi tomonidan nechog'li go'zal, haqqoniy, yangi tarzda aks ettirgani, yutuq va kamchiliklarining tub sabablarini ko'rsatishdan iborat.

Adabiy tanqidning vazifasi va tabiatidan kelib chiquvchi bu talab tanqidchini badiiy adabiyotdan tashqari hayotni ham teran kuzatish va chuqur bilishga da'vat etadi. Bunda tanqidchi tanlagan tahlil usullari va uslublarining rang-barangligi muhim ahamiyatga molik. Zero, tanqidga oid asarning ta'sirchanlik darajasi va o'qimishlilikligi aslida xuddi shu usul va uslub jozibasiga bog'liq. Adabiy tanqid tajribasida badiiy tahlilning sotsiologik, struktural, qiyosan (qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik) tahlil qilish va boshqa tahlil shakllari uchraydi. Tanqidchi U.Normatov «Jahon adabiyoti» jurnalida (2000 yil, mart) yosh olim R. Rahmat bilan, shuningdek, «Jahon adabiyoti» jurnalining 2008-yil mart sonida H. Boltaboyev bilan «Yangi nazariy tamoyillar» haqidagi suhbatlarida XX asrda G'arb, jahon adabiyot-shunosligida o'nlab ilmiy: qiyosiy va psixoanalitik, psixologik va intuitiv, ritual-mifologik, formalistik, ontologik, ekzistensialistik: germenevtik va estetik kommunikativ, neomarksistik va falsafiy-struktural, poststruktural maktab va yo'nalishlar bo'lganini aytib, Abdulla Qodiriy XX asr boshlaridayoq «Yozuvchi bo'ladurg'on har bir kishi adabiyotdagi oqim va maktablarni yaxshi bilib olishi kerak»ligini ta'kidlaganiga e'tiborni qaratadi.

Ammo, afsuski, o'zbek adabiy tanqidchiligida XX asr boshlaridagina emas, undan keyin ham uzoq yillar sotsiologik tahlil usuli yetakchilik qilib keldi.

Mustaqillikdan so'ng o'zbek tanqidchiligi jahon miqyosidagi ilg'or mezonlarni, uslubiy yo'nalishlarni o'zlashtira boshladi. Iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy sohalaridagi islohotlar jamiyat hayotidagi o'zgarishlarni belgilovchi yetakchi kuch sifatida namoyon bo'ldi.

Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlar yangicha tafakkur tarzining mevalaridir. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, hozirgi sharoitda yangicha tafakkur tarzining vujudga kelishida **SHAXS**ning roli juda katta. Davlatimiz rahbari, siyosatchi, faylasuf, ijodkor va olimlar jamiyatda vujudga kelayotgan yangi tipdagi konsepsiyaning bevosita ijodkorlaridir. Ijtimoiy hayotdagi islohotlar ilm-fan va san'atda yangicha konsepsiyaning yuzaga kelishiga omil bo'layotir. Zamonaviy tafakkur tarziga turtki beradigan ilmiy va badiiy izlanishlar shakllanayotgan yangi tipdagi metodologik tamoyillarning asosiy prinsiplarini ham ko'rsatib bermoqda. Mana shu jarayonda adabiy tanqid konsepsiyasining yangilanishi, eng avvalo, yangicha ilmiy tafakkurining paydo bo'lishi bilan bog'liq tarzda kechayotir. «Yangicha ilmiy tafakkur» tushunchasi keng qamrovli bo'lib, mazkur soha, bir tomondan, falsafiy, ijtimoiy, mafkuraviy, badiiy-estetik qonuniyatlar bilan aloqador bo'lsa, boshqa tarafdin, adabiyotshunoslik ilmi konsepsiyalari, talab va mezonlari asosida o'z faoliyatini yangilash yo'lidan boradi. Albatta, «qayta qurish va oshkoralik», deb atalgan nisbatan erkinroq pallaga kelib, ya'ni 80-yillarda adabiy tanqidiy tafakkurda yangilanish ro'y bera boshladi, biroq, bu jarayon ham silliq kechgani yo'q, murakkablik va ziddiyatlar o'sha yillari e'lon etilgan tadqiqotlarda u yoki bu tarzda o'z aksini topdi. Bu hol, albatta, turlicha shakl va mazmunda namoyon bo'ldi.

80-yillar so'nggida yuzaga kela boshlagan yangicha tafakkur tarzi adabiy tanqidning asosiy tadqiq obyektlarini, mavzu yo'nalishlari, tadqiq va tahlil mezonlari, tamoyillarini belgilab berdi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng bu harakat izchil tus ola boshladi.

Adabiy tanqidning ilmiy-metodologik asoslari yangilanishi deganda, eng avvalo, falsafiy, ilmiy-nazariy, badiiy-estetik, moddiy-ma'naviy, psixologik, ijtimoiy-tarixiy va mafkuraviy asoslar nazarda tutiladi. Mazkur asoslarning sho'ro davridagidan mohiyat jihatdan yangilanishi-adabiy tanqid metodologiyasining yangilanish prinsiplaridan biri sifatida xarakterlidir. Istiqlol davri adabiy tanqidchiligini yangilanish tamoyillari asosida tushunish, bilish va anglashga intilish ustuvor konsepsiyaga aylana bordi. Demak, tanqidchilik ham tub mohiyat

e'tibori bilan dunyoni, hayotni, insonni anglash vositasidir. Mana shu juftlik – odam va olam, zamon va makon, hayot va o'lim, shakl va mazmun tushunchalarini falsafiy, ilmiy, adabiy-estetik jihatdan anglash hamda tahlil va talqin etish, baholash tanqid taraqqiyotining asosiy garovidir.

Ma'lumki, adabiy tanqidning falsafiy asosini bilishning dunyoqarash va konsepsiya bilan bog'liq bo'lgan umumiy qonun va kategoriyalari, tamoyil va yondashuvlar, umumiy ilmiy metodlardan foydalanish jarayonlari tashkil etadi. Ayonki, falsafa fani tabiat va jamiyat, inson, uning mohiyati, tafakkuri va dunyoqarashi taraqqiyoti bilan bog'liq eng umumiy qonuniyatlarni o'rganadi. Shunga binoan, ontologiya, sotsiologiya, gnoseologiya, mantiq, estetika va etika kabi fanlar falsafiy bilimlar doirasini tashkil etadi. Faylasuflar e'tiroficha, yaqin o'tmishda falsafaning barcha muammolariga partiyaviylik va sinfiylik mezonlaridan turib yondashish bu fanni o'ta siyosatlash-tirishga, umuminsoniy qadriyat va g'oyalar, xulosa va metodologik tamoyillarning hayot voqeligidan uzoqlashishiga sabab bo'ldi.

Sho'ro nazariyotchilari markscha-lenincha ta'limotni falsafa, estetika, etika, psixologiya, adabiyot va san'at qatorida adabiy tanqidning ham nazariy asosi sifatida olgan edi. Bu ta'limotga ko'ra, adabiy tanqid garchi ilmiy-estetik hodisa, deb e'tirof etilsa-da, lekin kommunistik g'oyaviylik uning mohiyatini belgilovchi yetakchi unsur sifatida talqin etilardi. Oqibatda kommunistik g'oyaviylik sinfiy va partiyaviy adabiy tafakkurni boshqarib turuvchi vositaga aylantirildi.

Sinfiylik va partiyaviylik nazariyachilari adabiyot va san'at ravnaqigagina emas, tanqid rivojiga ham juda katta zarar yetkazdi: tanqidning maqsad va vazifalari tamoman o'zgartirib yuborildi, bu soha g'oyaviy kurashning quroliga aylantirildi. Hatto estetik hodisalar sanaluvchi umuminsoniy tushunchalar: ijobiylik yoxud salbiylik, go'zallik va fojaviylik, ma'naviy barkamollik kabi ko'plab kategoriyalar ham sinfiylik mezonlariga bo'ysundirildi.

«Adabiy-badiiy tanqidning sinfiyligi, xususiy – badiiy ijodning ko'plab (garchi hammasidan bo'lmasa-da) turlaridan farqli o'laroq, bevosita namoyon bo'ldi. Va qoidaga ko'ra – faoliyatining tabiatidan kelib chiqib -mafkuraviy anglashiladi. Sinfiy kurashlar avjiga chiqqan davrlarda tanqidning partiyaviyligi yorqin namoyon bo'ladi. Qolaversa, kuchli, aniq maqsadni ko'zlagan tanqid adabiy-badiiy hayotdagi partiyaviylikning bayroqdoridir. Ilg'or tanqid hayotda ijtimoiy, ma'naviy, estetik yangiliklarning paydo bo'lishiga ko'maklashadi, ular uchun

kurashadi. U, odatda, o'zining sinfiyligini, partiyaviyligini yashirmaydi»¹. Mana shunday qarashlar asosida faoliyat yuritish sho'ro davri o'zbek tanqidchiligi uchun ham xos edi. «Hamma ijtimoiy fanlardek, adabiy tanqid tarixi ham (agar u haqiqiy fan bo'lishni istasa), marksizm-leninizmning insoniyat jamiyati, uning rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi, shu jumladan, jamiyat hayotida inson ongi va uning badiiy ijodi mahsulotlari roli haqidagi ta'limotga asoslanishi kerak»², — deb hisobladi.

Shunga qaramay, ko'plab iste'dodli tanqidchilar o'sha davrda yozilgan asarlarni badiiy-estetik mezonlar asosida baholashga urinishdi, badiiy jihatdan bo'sh, sayoz kitoblarga qarshi kurashishdi. Biroq hokim mafkura adabiy tanqidning erkin faoliyat yuritishiga, taraqqiy etishiga to'sqinlik qildi. Ba'zan iste'dodli tanqidchilar o'z qobiliyatlarini badiiy asarlar tahliliga emas, balki mafkuraviy kurash maydonidagi olishuvlarga sarflashga majbur bo'ldilar. Natijada yillar davomida nafaqat g'oyaviy, ayni chog'da, hukmron mafkura prinsiplariga bo'ysungan, uni o'zida ifodalagan va targ'ib qilgan adabiy tanqidchilik zamonga mos shakllandi. Tabiiyki, bu tanqid o'zining metodologik asoslarini ishlab chiqdi va adabiy jarayonga tatbiq etdi.

Istiqlol davri o'zbek tanqidchiligiga xos yangilanish, dunyo adabiyotshunosligiga murojaat etish — bu hol muhim tamoyillardan biriga aylanib bormoqda. Xo'sh, bu jarayon qanday amalga oshmoqda? Adabiy tanqidagi yangilanish nimalarda va qanday namoyon bo'lmoqda? Badiiy asar talqinida va yondashuvlarda qanday sifat o'zgarishlari yuz ko'rsatmoqda? Masalaga shu nuqtayi nazardan qaralsa, ko'plab yangilanishlar ko'zga tashlanadi. Chunonchi, bu davr tanqidchiligida, xuddi falsafadagi kabi, badiiy asar talqinida hayot birlamchi, adabiyot ikkilamchi, degan materialistik qarashdan voz kechilib, eng avvalo, odamni poetik kashf qilish, odam orqali olamni anglashga intilish tamoyili ustuvor mavqega ko'tarildi. Talqinda dialektik hurfikrlilik, ya'ni turlicha falsafiy bilimlar asosida yondashish kuchayib bormoqda.

Jumladan, ontologik, gnoseologik, ekzistensialistik, biografik qarashlar asosida yondashish asar talqinida rang-baranglikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu kabi yangilanishlar olimlar

¹ Баранов В.И., Бочаров А.Г., Суровцев Ю.И. Литературно-художественная критика. — М.: Высшая школа. С.12

² O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. 2 tomlik. — T.: Fan, 1987. 1-tom, 10-bet.

tomonidan adabiyot ilmi yutuqlari sifatida talqin etilmoqda. Falsafada «ontologiya» borliq, odam va olam tushunchalarini anglatadi va faqat moddiy borliqni emas, balki ma'naviy dunyoning ham mangu barhayotligini ifodalaydi. Ma'lumki, borliq moddiy va ma'naviy olamdan tashkil topgan bo'lib, uning «mangu barhayot»ligi, boqiyliги «yo'qlik»ning muqobili, zidi sifatida namoyon bo'ladi. Ular o'rtasidagi azaliy va mangu zidlik hamda bog'liqlik munosabatlari bu tushunchaning abadiyligi garovidir.

Adabiy tanqid e'tibor qaratgan yana bir dolzarb muammo – bu XX asr o'zbek adabiyotini qayta baholash masalasidir. Bu borada qisqa, lekin shiddatli kechgan bahs-munozaralardan keyin adabiy tanqid madaniy merosimizga uni bir butun milliy qadriyat sifatida baholash tamoyili asosida yondashmoqda.

XX asr o'zbek adabiyoti salaflari, jumladan, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, Mirtemir, M. Shayxzodadek atoqli ijodkorlar hayoti va ijodini, umuman, ular mansub bo'lgan davr adabiyotini qayta xolis baholash hamda ular qoldirgan boy adabiy merosga qadriyatlar silsilasi sifatida yondashuv adabiy tanqid metodologiyasining muhim tamoyillaridan biriga aylanib bormoqda. Umuman olganda esa, keyingi yillar adabiyotshunosligi va tanqidchiligida, ayniqsa, XX asr o'zbek adabiyotini bugungi yangilanayotgan tafakkur, yangicha ilmiy konsepsiya va metodologik tamoyillar asosida qayta baholash, undan bugungi kun uchun zarur xulosalar chiqarish asosiy tamoyillardan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiy tanqidagi yana bir muhim muammo adabiy jarayon bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu yaratilayotgan badiiy adabiyot namunalariga munosabat masalasidir. Badiiy asarni yangicha tamoyillar asosida tahlil va talqin qilish, birinchi galda, unga badiiy-estetik hodisa sifatida yondashuv kun tartibidagi asosiy masalalardan biri sanaladi. Bu adabiy tanqidning ham nazariy, ham amaliy faoliyatiga aloqador masalalardan biridir. Ayni shu masalada ham bahs-munozaralar, jiddiy izlanishlar kechmoqda. Badiiy asarda inson konsepsiyasi, adabiyotning estetik va ijtimoiylik tamoyillari xususidagi bahslar shular jumlasidandir. Badiiy asarga sof estetik hodisa sifatida yondashib, undagi ijtimoiylikni inkor qiluvchilar ham, aksincha, ijtimoiylikni butunlay inkor qilib bo'lmasligini yoqlovchilar ham o'z qarashlarini asoslashga urinishmoqda. Bu boradagi munozaralarning yechimi bevosita adabiy tanqidning amaliy faoliyati bilan bog'liqdir. Shu bois, adabiy tanqid faoliyatidagi ikkinchi muhim yo'nalishni amaliyot tashkil etadi. Chop etilayotgan

adabiy-tanqidiy materiallar amaliyot natijasi bo'lib, ular asosida tahlil yo'nalishlari, usullari xususida kuzatishlar olib borish, muayyan xulosalar chiqarish mumkin.

Adabiy tanqidning so'nggi davrida badiiy asarga germenevtik yondashuv ham kuchayib bormoqda. Poetik matnni talqin va tahlil etish Sharq tanqidchiligi, xususan, o'zbek tanqidchiligi uchun ham begona emas. XIX asrga kelib, talqin muammosiga alohida e'tibor bergan Yevropa uni «germenevtika» atamasi ostida rivojlantirdi. U qadimiy adabiy yodgorliklarni tushunib, ma'nosiga etib talqin etishning maxsus usuli sifatida namoyon bo'ldi. «Garchi juda ko'p o'zbek adabiyotshunoslari germenevtikaning qaysidir prinsiplarini o'z ilmiy faoliyatlarida qo'llasalar ham, o'sha fikrlash tarzi, gipotezalari, taqqoslari, hukm va xulosa chiqarish usullarining qaysidir jihati germenevtik tafakkurga daxldorligini xayollariga ham keltirmaydilar. Chunki biz yaqingacha dialektik materializm falsafasidagi gnoseologiya — bilish nazariyasini chuqur o'rganganimiz holda germenevtika-matn talqini ta'limotining jahon ilm-fanidagi atamasidan ham aksar holatlarda bexabar qoldik»¹.

Germenevtika atamasi «tushuntirish», «talqin qilish» degan ma'nolarni bildiradi. Uning ayrim yo'nalishlari qadimgi Gretsiyada yuzaga kelgan. Sharq adabiy-tanqidiy tafakkurida bu atama qo'llanmagan bo'lsa-da, uning mohiyatiga munosib yo'sinda fikrlash tarzi Mahmud Qoshg'ariy davrlaridayoq mavjud bo'lgan.

«Germenevtika» yunoncha so'zdan paydo bo'lib, «tushuntiraman, «talqin qilaman» degan ma'noni anglatgan. Qadimgi yunon mifologiyasida Germes ahli tijorat piri sifatida ko'rsatilgan. Qadimgi Yunonistonda ellinizm davrida savdo karvonlari o'tadigan yo'llarga Germes haykali tiklanganligi bejiz emas. Sharq-musulmon adabiyotida Surush obrazi bot-bot uchraydi. U hojatbaror, mushkullarni hal qiluvchi kuch sifatida ko'rsatiladi². Germes tilni, yozuvni kashf etgan kuch ham hisoblanib, tushuntirish, talqin masalalari uning nomi bilan bog'lanadi. Germes ilohlar mujdalarini odamlarga olib kelgan, ularni tushuntirib, talqin qilib bergan. Germenevtika-talqin nazariyasi, ma'noni anglatish ta'limoti bo'lib, aksariyat hollarda qadimgi

¹ *Karimov Bahodir*. XX asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi. DDA. — T.: 2002, — 11-bet.

² *Xo'jayev T.* Navoiy she'riyatidagi Surish obraziga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 2006, № 1, 23-bet.

matnlarni sharhlashda qoʻllanilgan. Ilk bor germanevtikadan «Iliada» va «Odissey» asarlari talqinida foydalanilgan. Keyinchalik Arastu va Aflotunlar germanevtika haqida asar yozdilar.

Gʻarbda germanevtika tarixi, maktablari, namoyondalari haqida. M. Baxtin, D.S. Lixachyov, M.B. Kagan, M.B Xrapchenko singari rus olimlari tadqiqotlar olib bordi. Yu. Borev, P. Gaydenko, D. Urnov, V. Xalizev singari rus adabiyotshunoslari aksiologiya, germanevtika tarixi, nazariyasi, amaliy qoʻllanishini oʻrgandilar. Germanevtikaning hozirgacha yaratilgan tarixi qiziqarlidir.

XVII asrda «germenevtika» termini Fridrix Shleyermaxer tomonidan germanevtika nazariy muammo sifatida ilm olamiga olib kirildi. F. Shleyermaxer germanevtika tarixiy talqin metodi sifatida, xususan, tarjima sanʼati prinsipi holatida qoʻllaydi. Talqinchi bilan talqin qilinayotgan asar muallifi aro individual yaqinlik, moslik boʻlsagina, haqiqiy talqin paydo boʻladi, degan prinsip F. Shleyermaxer tomonidan olgʻa surildi. Olim asarni boʻlak, qismlarga ajratib, ularni alohida-alohida talqin qilish yoʻlidan bordi. Oʻrganish, asarni butun holda qamrash jarayonida qismlardan olingan taassurotlar inkor etilib borilaveradi. XIX asrda yashagan V. Diltey (1833–1911) F. Shleyermaxer nazariyasini davom ettirdi. Talqinchi bilan talqin qilinuvchi aro moslik boʻlishi haqidagi nazariya V. Diltey tomonidan rivojlantirildi. Tushunish-gumanitar fanlar metodi, uning asosi-tushunish psixologiyasi, degan formula V. Diltey tomonidan yaratilgan. Maks Sheler, Martin Xaydegger (1889–1976) singari olimlar germanevtika nazariyasini murakkablashtirib bordilar.

Martin Xaydegger – XX asr germanevtika fanining ulkan namoyandasi. U ontologiya ilmining asoschilaridan. F. Shleyermaxer fikricha, germanevtika tushunish nazariyasi; V. Diltey qarashicha, germanevtika gumanitar fanlarning umumiy metodi boʻlsa, M.Xaydegger taʼrificha, germanevtika dunyoni anglashning oʻziga xos tizimi. Uningcha, til bilishning tarixiy ufqi, «yashash uyi». Til bizning mazmun-mohiyatimizni yuzaga olib chiqadi. Xaydegger fikricha, «germenevtika – borliqning sodir» boʻlishi. U shoir sheʼri, sermaʼno matnlar orqali oʻzini namoyon etadi. Agar inson anglashdan mosuvo, tushunishdan yiroq boʻlsa, uning tirikligidan maʼno yoʻq, deb hisoblaydi.

Gans Georg Gadamer germanevtikani gumanitar fanlar metodi deyish bilan cheklanmadi. U germanevtika asosida ontologik taʼlimotni yaratdi. Endi til germanevtik ontologiyaning asosi sifatida qabul qilindi. Ontologik metod adabiyotshunoslikda asar tili, strukturasi

yashovchanligi to'g'risida qarashdir. Yu. Borev «Talqin va baholash san'ati» kitobida badiiy asarni ontologik metod asosida yoritish usuli haqida yozib, badiiy asar yashovchanligini belgilovchi, ichki ziddiyatlar kurashiga asoslangan xususiyatlarning yetti qatlamini sanaydi¹.

Bizning davrimizda adabiy asarni tushunishning bu tarzi filologik tadqiqotlar va tanqidchilik sohasiga ham kirib, uning mohiyatini adabiy asarning asl matnini tiklash va uning adabiyot tarixidagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullaridan birini tashkil etadi. Germe-nevtikaning asosini tashkil etuvchi nazariy prinsiplar sifatida: 1) umumiy, kontekstual prinsipni: 2) shu soha doirasiga kiruvchi talqin usullarini: 3) muallif maqsadi va mulohazalarini hisobga olgan holda matnning tarixiy va turli ijtimoiy sharoitdagi o'rni, vazifasi, unda yuz berishi kutilgan o'zgarishlar va ularning talqinini qayd etish mumkin.

Ko'riladiki, hermenevtika ham adabiy tanqidga, ham umuman, adabiyotshunoslikka daxldor talqin usullaridan biridir. G'arb adabiyotshunosligidagi hermenevtika adabiy-badiiy hodisaga tafsilli (unsurma-unsur, uzvma-uzv, bo'lakma-bo'lak) yondashuv xususiyati bilan ajralib turadi. Badiiy talqin yoki sharh usuli qadimdan Sharq adabiyotshunosligida ham mavjud esa-da, bu usul talqinda hermenevtika qayd etgan imkoniyatlarga umumiyroq fikr bildirish, umumiyroq xulosalar bayon etishi bilan farqlanadi.

«Hermenevtika – interpretasiya nazariyasi, mohiyatni tushunish haqidagi ta'limot, – deb yozadi Yu. Borev. – gnoseologiya (bilish nazariyasi) va aksiologiya (qadriyatlar nazariyasi) singari, hermenevtika ko'lamlil falsafiy sistemaning ajralmas qismini tashkil etadi. Hermenevtika – bu ma'naviy-ruhiy faoliyatning shunday sohasiki, tanqid faqat u orqali o'tib o'zining vazifalarini anglashi mumkin». Olim hermenevtik metod orqali badiiy asar matnini interpretasiya qilishning muhim usullarini quyidagicha sharhlaydi: 1) Tanqidchining («men») matnini («boshqa») «uchinchi» taraf orqali (masalan, madaniy an'analar, voqelik bilan qiyoslash orqali) tushunishi. 2) «Ko'nikish» – matnning badiiy mantiqiga uni teran his etish, o'zidan o'tkazish orqali yetib borish. 3) Badiiy matnni identifikatsiya shaklida (kitobxon badiiy obrazlarni o'zining shaxsi va o'zining estetik tajribalari bilan qiyoslaydi) anglab yetish»².

¹ Борева Ю. Искусство и интерпретации в оценке. – М.: 1981. – С.61 – 62.

² Борева Ю. Критика и герменевтика // Эстетика. – М.: 1981 – С.349

Bugungi adabiy-tanqidiy maqolalarda, tadqiqotlarda matn bilan ishlashda ko'proq so'zga e'tibor berish, talqin qilish, sharhlash yetakchilik qila boshladiki, bu hol germeenvtika o'zbek tanqidchiligi metodologiyasining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib borayotganligidan dalolat bermoqda. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy asarlarida «Al-ibora» (germeenvtika) so'zlar ma'nosi, matn mohiyati haqidagi fan sifatida talqin qilinadi.

Germeenvtikaning nazariy-metodologik imkoniyatlarini, ilmiy xulosalar chiqarishdagi asosiy tamoyillarini o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi XX asr oxirlaridan o'zlashtira boshladi. Bu usulning nazariy muammolari yoritilgan A.Rasulovning, qodiriyshunoslikka tadbiiq etilgan B.Karimovning dastlabki tadqiqotlari XXI asr avvalida paydo bo'ldi.

Adabiy tanqid taraqqiyotining o'tish davridagi izlanishlarida sinergetika ham muhim rol o'ynamoqda. Sinergetika nazariyasining asosini tashkil etuvchi barqarorlik bilan beqarorlik (xaos), muvozanat bilan muvozanatsizlik, tartib bilan tartibsizlik, tizimlilik bilan tizimsizlik o'rtasidagi aloqadorlik qonuniyatlari adabiy tanqidida ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'lmoqda. Chunonchi, so'nggi o'n-o'n besh yil ichida, sirdan qaraganda, tanazzulga ishora etilayotgandek fikr uyg'otadigan turli bahs-munozaralar (jumladan, «Adabiyot o'ladimi?» degan masalaning qo'yilishi, sho'ro davrida yaratilgan asarlar haqida biri-birini inkor etuvchi chiqishlar, realizmga shubha bilan qarash holatlari, modernizm haqidagi qarama-qarshi fikrlar, sho'ro davri adabiyot nazariyasiga oid qarashlarning inkor etilishi va h.k.) zamirida adabiy tanqid taraqqiyotida yangicha konsepsiya etilib kelayotganligi, yangicha metodologik tamoyillar shakllanayotganligi, binobarin, mazkur soha yangicha adabiy-nazariy qonuniyatlar asosida rivojlana boshlaganini ilg'ash qiyin emas.

Bundan tashqari, adabiy tanqidida badiiy asarga ko'plab falsafiy, adabiy-estetik mezonlar asosida yondashishning kuchayishi, tahlilning turli usullaridan unumli foydalanishga intilish ilmiy bilishda metodologik plyuralizmga o'tilayotganligidan nishonadir.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yuqorida tilga olingan yondashuv va metodlarning barchasi falsafiy mazmunga egadir. Binobarin, adabiy tanqid metodologiyasining muhim jihatlaridan biri uning amaliyotda falsafaning umumiy qonun va kategoriyalarga, ilmiy bilish usullariga asoslanishida namoyon bo'ladi. Biroq, shuni unutmash zarurki, falsafa garchi ko'plab fanlar uchun umumiy metodologik asos hisoblansa-

da, ularning har birida, jumladan, adabiy tanqidda ham falsafa xususiylashgan, tanqid spetsifikasiga moslashgan holda zuhur bo'ladi. Aytaylik, tarixga oid matn bilan badiiy matn orasida juda katta farq bor va ularning talqini ham o'zgachadir. Binobarin, germeneytik yo'nalish adabiy tanqidda faqat o'ziga xos tarzda, ya'ni badiiy ijod qonuniyatlariga moslashgan va bo'ysungan holda namoyon bo'ladi. Boshqa falsafiy qonun va kategoriyalar haqida ham shunday fikrni aytish mumkin.

Adabiy tanqidning metodologik asoslaridan yana birini badiiy ijod qonuniyatlari, birinchi galda, estetik kategoriyalar tashkil etadi. Ma'lumki, ilmiy ijodda ilmiy tafakkur yetakchilik qiladi. Uning ifoda usuli ham ilmiy til orqali amalga oshiriladi. Aniq fanlarda, shuningdek, ijtimoiy fanlar ayrim sohalarida, jumladan, adabiyotshunoslikning adabiy tanqiddan boshqa yo'nalishlarida ilmiy fikr-mulohazalarni aniq va lo'nda bayon etishga intilish, nazariy umumlashmalar chiqarish mutaxassislariga tushunarli ilmiy atamalarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Badiiy ijodda hissiy bilish yetakchilik qiladi. Obrazlilik badiiy ijodning asosiy xususiyatidir. Ifoda usulida esa, badiiy til imkoniyatlari, turli badiiy tasvir vositalari, poetik ko'chimlar obrazlilikni ta'minlovchi asosiy unsurlar sanaladi.

Adabiy tanqidning muhim metodologik asoslaridan biri — ifoda usuli va uslubiy o'ziga xosligi uning ham ilmiy va ham badiiy ijodga birdek daxldorligidadir. Bir so'z bilan aytganda, adabiy tanqid ilmiy tafakkurning obrazli fikrlash tarzi bilan bog'liq ifodasi. «Aslida tanqid, o'z tabiatiga ko'ra, ikki jihatning uyg'unligidir: o'zining ayrim vazifalariga, o'ziga xos xususiyatlari va vositalariga ko'ra u adabiyotdir, boshqa jihatlariga binoan — fandır. Tanqidni adabiyot sifatida ta'riflab, uning ilmiy («ratsionalistik») asosini inkor etish oqibatida ko'plab javobsiz savollar paydo bo'ladi»¹.

Yu. Borevning o'z qarashiga dalil sifatida keltirgan A.S. Pushkinning «tanqid — fan», V.G. Belinskiyning «tanqid — harakatdagi estetika», degan tavsiflari yana bir bor tanqid tafakkur vositasi sifatida badiiy emas, balki ilmiy metoddan foydalanishini tasdiqlaydi.

Adabiy tanqid tahlil jarayonida badiiy asar vositasida odam va olam, ijtimoiy borliq va insoniy munosabatlar haqida ham mulohazalar yuritadi, ularning muayyan qonuniyatlarini ochishga harakat qiladi.

¹ Боров Ю. Эстетика. — М.: Потиздат, 1981.— С. 341—342.

Bu imkoniyat adabiy tanqid uslubining me'yoriy ilmiy qoidalariga bo'ysungan tadqiqdan tashqari erkin mushohada tarzidagi tahlil va talqin shaklida ham namoyon bo'lishiga olib keladi. Ayni holat adabiy tanqid tilining o'ziga xosligini ta'minlaydi va ifoda yo'sinida ilmiy til bilan birga badiiy til ham birdek ishtirok etadi. Bu esa, adabiy tanqidda badiiy ijoddagi kabi janrlar turkumining paydo bo'lishiga va yozuvchi yoki shoir uslubi singari munaqqidning individual uslubi shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiy tanqidning yangilanish tamoyillaridan yana biri asarning badiiy-estetik mohiyatini yangicha ilmiy tafakkur asosida talqin etishida ko'rinadi. Bu borada so'nggi davr adabiyotshunosligi va tanqidchiligida ancha-muncha izlanishlar olib borilmoqda. Mustaqillik davrida yaratilgan adabiyot nazariyasiga oid darslik va qo'llanmalarda, alohida nashrlarda¹ bu masalaga oid yangicha qarashlar o'z ifodasini topmoqda.

Xullas, o'zbek tanqidchiligi mustaqillik davrlaridan boshlab, adabiyotshunosligidagi ilg'or tamoyillarni, nazariy qarash, usul va metodlarni o'zlashtirishga alohida e'tibor bermoqda.

Adabiy tanqidning boshqa fanlar bilan munosabati. Adabiy tanqid tarixini badiiy ijod, so'z san'ati tarixidan ajratib o'rganish mumkin emas. Negaki, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning har biri takrorlanmas o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lsa-da, bir-biriga faol ta'sir ko'rsatib turadi. Ularning hayotga, shaxsga ko'rsatadigan ta'siridagi o'z o'rni, mustaqil vazifalari, bir-birinikiga o'xshamagan vositalari bor.

Binobarin, adabiy tanqid ilmiy muhokama va mushohada yo'sinidagi so'z san'ati hisoblanadi. N. Xudoyberganov to'g'ri ta'kidlaganidek, «so'z san'atining o'ziga xos yaratuvchi, kashf etuvchi ijod sahifasi ekanligini hech kim inkor etmaydi, ammo adabiy tanqidchilikning mustaqil ijod turi ekanligi hamon shubha uyg'otadiki, masalaga aniqlik kiritish maqsadida uning tuzilishi, shakllanishi, rivojlanish jarayonini chuqur o'rganish, tadqiq etish talab qilinadi. Ammo tarixga murojaat etish zarurati faqat shu bilan belgilanmaydi. Birinchidan, qaysi sohaning yoki shaxsning tarixi bo'lmasin, uni buzib talqin etish, yo'q narsani bor, aksincha, borini yo'q deb ko'rsatishga

¹ *Sulton I.* Adabiyot nazariyasi. — T.: O'qituvchi, 2005; Umurov H. Adabiyot nazariyasi. — T.: 2002; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — T.: 2004; Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. — T.: 2000. va h.k.

yo'l qo'yilmaydi. Ikkinchidan, tarixni hozirgi kun nuqtayi nazaridan o'zgartirib, bugunning talabiga muvofiq baholash butunlay zararlidir. Uchinchidan, uni baholash, tadqiq etishda o'sha davr taraqqiyotining asosiy xususiyatlari, tendensiyalaridan kelib chiqib, hozirgi zamonga mushtarak ijobiy hamda salbiy hodisalarni aniqlash, yaxshilarini qo'llab-quvvatlab, ularni yanada mustahkamlash, rivojlantirish, yomonlarni fosh etib, ularning ravnaq topishiga chek qo'yishga alohida e'tibor beriladi.

Yana shunisi borki, har uchala holat bir-biriga tabiiy ravishda birlashib, qo'shilib ketadi, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish yoxud ajratib tashlash mumkin emas¹.

Adabiy tanqidning o'ziga xos ijod turi, fan sohasi ekanligini ulkan adib va tanqidchilarning yaratgan qator asarlari isbotlab turibdi. Bunga Alisher Navoiy, Fitrat, A.Qodiriy, Oybek, P.Qodirov, O. Sharafiddinov, M.Qo'shjonov ijodlari yetarli darajada misol bo'la oladi.

Adabiyot hayotni, voqelikni badiiy o'zlashtirishda o'ziga xos obrazlilik vositalari bilan inson qalbi va aqliga ta'sir qilib, jamiyat rivojiga yordam beradi. Adabiy tanqid ham badiiy adabiyot vositasida shu vazifani bajaradi, kishilik taraqqiyoti va tafakkuri rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ana shu xususiyatning o'ziyoq adabiy tanqidiy asarlarda san'atga, badiiyatga xos ayrim fazilatlar bo'lishi mumkingina emas, zarurligini taqozo etadi. Buning uchun san'at asari haqida fikr yurituvchi tanqidchining o'zi muayyan darajada san'atkor bo'lmog'i dardor.

Har qanday fanga xos asosiy xususiyat, ya'ni «o'ziga tegishli» bo'lgan hodisani tadqiq qilish asnosida unga baho bermoq, fikrni asoslamoq va isbotlamoq adabiy tanqidga ham xosdir. Unga ko'ra adabiy tanqid muayyan adabiy hodisani tahlil qilar ekan, uning tahlilida izchil mantiq, asos va isbot birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Biroq adabiy tanqid tahlilda o'ziga xos va mos vositalardan foydalanmasa, o'zining ijtimoiy vazifasini bajara olmaydi.

Adabiy tanqid o'z mohiyatiga ko'ra falsafa bilan chambarchas bog'liq. Tanqid shu ma'noda falsafiyki, uning ma'rifiy va g'oyaviy, ijtimoiy va estetik vazifalari ma'lum darajada falsafa fanining vazifalari bilan mos tushadi.

¹ *Xudoyberganov N., Rasulov A. O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi tarixi.* – T.: O'qituvchi, 1990, – 36-bet.

Lekin adabiy tanqid aniq ijtimoiy fan bo'lgani tufayli o'zining maxsus tadqiqot predmetiga va o'ziga xos vazifalarga egadir. Shu bois tanqid falsafadan ham, boshqa ijtimoiy fanlardan ham, adabiyotshunoslik fanining o'zga sohalaridan ham farqlanib turadi. Adabiy tanqid jamiyat badiiy taraqqiyotini ilmiy bilishning aniq ko'rinishidir. Shu tufayli falsafa va tanqid orasidagi o'zaro munosabat ilmiy metodologiya va adabiyotshunoslik fanlari orasidagi o'zaro munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, adabiy tanqidchilikning barcha tur, shakl va janrlari: 1) mantiqiy izchillik; 2) ilmiy yaxlitlik; 3) tanqidiy dalillanganlik; 4) tuzilish jihatdan tugallik va mukammallik; 5) dialektik (jadaliy) taraqqiyotga asoslanganligi, hamda 6) muayyan darajadagi badiiy tafakkur unsurlariga ega bo'lishni taqozo etadi. Agar bularning birortasi yetishmasa, tanqidiy asar yoxud maqolada saktalik paydo bo'ladi.

Tanqid estetika bilan chambarchas bog'liq. Tanqid bilan estetikaning uzviy bog'liqligi – bu ikki fan vazifalarining o'zaro mushtarak tomonlarida ko'zga tashlanadi. Modomiki, tanqidning predmeti badiiy jarayon tamoyillari, uning xususiyatlari va aniq asarlarini tahlil etishdan iborat ekan, uning vazifasi ham voqelik va inson tabiatini estetik talqin etish hamda uni takomillashtirishdan iborat bo'ladi. Bu jihatdan estetika va tanqid – bir jonu bir tan. Shu umumiy vazifasini bajarishda tanqid: birinchidan, badiiy asar bilan voqelik; ikkinchidan, fan bilan san'atkor; uchinchidan, san'at bilan kitobxon; to'rtinchidan, san'atkor bilan kitobxon o'rtasida munosabat o'rnatadi. Bunda tanqid adabiy jarayon va badiiy asarning ichki estetik tamoyillari, yo'nalishlari va fazilatlarini tadqiq qilish asnosida o'z maqsadiga erishadi.

Hozirgi tanqidchilik, ayniqsa, analitik fazilati bilan ajralib turadi. U jiddiy adabiy-tarixiy, retrospektiv va nazariy umumlashmalar chiqarishdan tashqari, tarix, falsafa, sotsiologiya kabi bir-biriga yaqin fanlar bilan aloqani kuchaytirdi.

Ma'lumki, estetika fani ham uch tarkibiy qismdan tarkib topadi: 1) estetika tarixi; 2) estetika nazariyasi; 3) estetik tanqid.

Estetik tanqid misolida estetika va adabiy tanqid bir-biriga juda yaqinlashib, ba'zi jihatlardan hatto o'zaro uyg'unlashib ketadi. Zero, estetik tanqid quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi: a) estetikaga oid ilmiy adabiyotlar tanqidi; b) adabiyot va san'at asarlarini estetikaning mushtarak qonun-qoidalariga asoslangan tanqidi; v) tanqidni tanqid, ya'ni adabiy tanqidga doir ilmiy ishlarni estetika muammolari nuqtayi nazaridan tanqidi. Tanqidni tanqidida estetika va adabiy tanqid

o'zaro singib, bir-biriga bevosita ta'sir etib, ajib bir hamjihatlik kasb etadi. Chunonchi, estetika va adabiy tanqid estetik tarbiyani amalga oshirish ma'nosida deyarli bir xil maqsad uchun kurashadi. U ham bo'lsa, kitobxonni estetik tarbiyalashni ko'zlaydi.

Estetik bilishning umumiy estetik va xususiy adabiy-badiiy muammolarini, ya'ni estetika, adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning mushtarak nazariy va aniq badiiy muammolarini o'zaro taqozodorlikda va jamuljam dialektik birlikda tadqiq etish yangi-yangi ilmiy samaralarga yo'l ochadi.

G'arb tanqidchiligidagi hozirgi strukturalizm ilmiy usul (metod)larini ishlab chiqishda tilshunoslik, ruhshunoslik, antropologiya, kibernetika, matematika, axborotlar nazariyasi, statistika va hatto biokimyo, biofizika, gen muhandisligi, nanotexnologiya fanlari yutuq, imkoniyatiga tayanmoqda. Bunda olimlar, aksariyat hollarda, bilishning statistika, tilshunoslik, kimyo va biologiyaga xos ilmiy shakllari va usullarini e'tirof etgan holda badiiy tadqiqotda anatomiyalashtirish va alohida atomlarning mikrodunyosini tahlil etish tamoyilini yoqlab chiqmoqchi bo'ladilar. Strukturalizmning bu yo'li badiiy ijodning ichki dialektik butunligi va ijtimoiy estetik o'ziga xosligi nuqtayi nazaridan, umumiylikning xususiyligidan mohiyat e'tibori bilan farqlanishi va adabiy jarayonning jonliligi nuqtayi nazaridan ehtimol ma'lum darajada kerakli tamoyildir. Lekin fan va texnika taraqqiyotidagi barcha yangiliklar badiiy adabiyotni o'rganish ishiga tadbiiq etilaverilishi shart emas. Badiiy adabiyot o'z ichki qonuniyatlariga ega alohida bir dunyodir. Robot hech qachon haqiqiy badiiy asar yarata olmaganidek, texnik unsur badiiy adabiyotni hech qachon insondek, tanqidchidek tom ma'noda tahlil qilib berolmaydi.

Tanqid kitobxonlar qarshisida shu jihatdan, ayniqsa, mas'ulki, u san'at va adabiyot muhibii, ya'ni resipiyentining estetik talablari va estetik ehtiyoji darajasini chuqur va atroflicha o'rganib, ana shu o'rganish samaralarini hayotga tadbiiq etish ustida qayg'uradi.

V.G. Belinskiy tanqidiy ishlarini yaratganda falsafa, tarix, estetika, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, psixologiya, pedagogika, logika kabi qator fanlardan izchil o'rganib borgan; tanqidida faqat ijtimoiy fanlarga emas, tabiiy fanlar ham qatnashishi mumkinligini aytgan. U «og'machi va hayiquvchi tanqidga hech qanday mubolag'a va sukunatni bilmovchi, haqiqatga nisbatan cheksiz bo'lgan muhabbat»ni qarshi qo'yadi. Haqiqatan ham Belinskiyning ijodiy dahosi o'zida ijtimoiy pafos va falsafiy tafakkurni, estetik his va adabiy talantni,

ilmiy umumlashtirish va poetik fantaziyani birlashtira olganligini ko'ramiz.

Adabiy tanqid tarixi fanining maqsad va vazifalari. Harakatdagi estetika sifatida e'tirof etilgan tanqid estetika xazinasini boyitishga, badiiy adabiyot rivojiga, yozuvchi mahorati takomillashuviga, jamiyat estetik didining ko'tarilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, predmet nazariyasisiz uning tarixi bo'lmagani kabi tarixsiz nazariyaning ham bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda tanqid tarixini o'rganish, napfaqt adabiy jarayon haqida, balki badiiy adabiyot ta'sirida o'zgarishlar ro'y bergan jamiyat tarixini, undagi ma'naviy-axloqiy iqlimlarni, adabiy-estetik dunyosidagi zamon mohiyatini ham o'rganish demakdir.

Adabiy tanqid tarixining vazifasi uning tarixiy sharoitda o'ynagan roli, tutgan o'rni, izlanishlari va topilmalarini, jamiyat, shaxs va adibga ko'rsatgan ta'sirini aniq baholab berishdan iborat. Shundagina adabiy jarayon, uning asosiy tamoyillari, yo'nalish va qonuniyatlari, aniq adibning aniq asari va badiiy mahorati adabiy tanqidning tahlil va tadqiq predmetiga aylangan bo'ladi.

Adabiy tanqidning vazifasi yozuvchi ijodini, badiiy asarlarni tahlil etish, shu asosda adabiyot rivojiga turtki bo'ladigan mummolarni ko'tarib chiqish, tekshirish, ularning estetik mohiyatini ochish, baholash, umumlashtirishdan iborat.

Adabiy tanqidning ijtimoiy-axloqiy vazifasi yuksak san'at uchun kurash olib borish va shuning vositasida komil insonni tarbiyalashga xizmat etish zaruratidan kelib chiqadi.

Adabiy tanqidning maqsadi harakatdagi badiiy ijodning rang-barang muammolarini jamiyatning hayoti, uning moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratish yo'lidagi kurash bilan bog'lab o'rganish va tushuntirishdan iborat.

Zero, Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganidek: «Bizning maqsadimiz bir necha avlod mehnati bilan yaratilgan narsalarni yo'qotmaslik, ularning eng yaxshilarini saqlab qolish, demokratik me'yorlarga, milliy manfaatlarimizga, mustaqilligimizga mos kelmaydiganlarini qayta tashkil etishdan, mazkur tuzilmalarni yangi mazmun bilan boyitishdan iboratdir»¹.

Karimov I. O'zbekiston XX asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: O'zbekiston. 1997, 87-bet.

Tayanch tushunchalar: tanqid, naqd, estetika, strukturalizm, mantiq, psixologiya, adabiyot nazariyasi, antropologiya, g'arb tanqidchiligi, qiyosiy tahlil, sotsiologik tahlil, struktural tahlil, adabiy tanqid usullari, qiyosiy adabiyotshunoslik, psixoanaliz, ritual-mifologik maktab, germe-nevtika, san'at sotsiologiyasi, ekzistensializm, harakatdagi estetika.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Tanqid deganda nimani tushunasiz? Uning ogzaki va yozma shakllari haqida so'zlang. Uning «naqd» va «naqada» so'zlariga munosabati qanday?*
2. *Tanqid so'zining kelib chiqishi haqida nimalar bilasiz? Uning estetik hodisa sifatidagi mohiyati nimada?*
3. *Adabiy tanqid – adabiyotshunoslikning boshqa tarkibiy qismlaridan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?*
4. *Adabiy tanqidning boshqa fanlar bilan aloqasi nimalarda zuhur topgan?*
5. *Adabiy tanqid va estetik tanqidning o'zaro munosabatini izohlang.*
6. *Adabiy tanqidning g'oyaviy-estetik va ijtimoiy-axloqiy vazifalari nimalardan iborat?*

ADABIY TANQIDNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

REJA:

1. Adabiy tanqidning adabiy-tarixiy jarayonda o'rni.
2. Adabiy tanqid «harakatdagi estetika»dir.
3. Adabiy tanqid ilmiy – estetik hodisa sifatida.

Adabiy tanqidning adabiy-tarixiy jarayondagi o'rni. Adabiy tanqid hayotning badiiy o'zlashtirilish jarayonini o'rganuvchi va shu jarayonga faol ishtirok etuvchi, undagi oqimlarga ta'sir ko'rsatuvchi ilm, o'ziga xos ijod turidir. Bu esa uning o'ziga xos talablari, xususiyatlari qonuniyatlari hamda ma'naviyatga, badiiyatga, hayotga ta'sir etuvchi kuchi borligidan dalolat beradi. Adabiy tanqid mohiyatidagi ana shu xosliklarni aniqlamay turib, badiiy asar haqida chuqur ilmiy-estetik fikr yuritish mumkin emas.

Adabiy jarayonda tanqidning roli haqida V. Belinskiyning quyidagi fikri e'tiborga molik: «Adabiyot va san'at tanqid bilan qo'l ushlab boradi va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi»¹. Darhaqiqat, biron bir xalq va muayyan bir davrning adabiy-tarixiy jarayonini, adabiy tanqidning ishtirokisiz tasavvur etish mumkin emas. Hatto adabiy tanqidda yangi fikrlar aytish, yangi xulosalar chiqarish uchun unga, aslida badiiy asarlar asos bo'lsa-da, ba'zi xalqlarda ayrim tarixiy davrlarda, adabiy tanqidning yutuqlari adabiyot va san'atning yutuqlaridan ham salmoqliroq bo'lib, umumiy jarayondan bir qadar ilgarilagan va hatto adabiyot va san'atning yangi-yangi yutuqlari uchun nazariy zamin hozirlashga xizmat qilgan.

Masalan, V.G. Belinskiy «Tanqid haqida nutq» maqolasida aytgandek, XVIII–XIX asr nemis adabiyotida tanqidiy fikrning rivoji ko'p jihatdan badiiy adabiyot va san'atning taraqqiyot yo'llarini avvaldan tayyorlab bergan. I.S. Turgenyevning haqqoniy e'tiroficha, XIX asr rus adabiyoti taraqqiyotida tanqidchi V.G. Belinskiyning ayricha o'rni bor va u shu adabiyotning eng ko'zga ko'ringan vakillari qatorida katta rol o'ynaydi.

¹ *Belinskiy V.* Adabiy orzular. – T.: 1987, 78-bet.

«Ijtimoiy hayot va adabiy jarayonning shakllanishida adabiy tanqidning tutadigan mavqeyi – uning insoniylik pozitsiyasi barqaror xususiyatlaridan hisoblanadi. Tanqid muhokamalari, xulosalari, ijtimoiy ongga, adabiy taraqqiyotga muayyan shaklda, muayyan yo‘nalishda hamisha ta’sir o‘tkazadi. Bunga eng qadimgi va eng yangi tarixdan, o‘tmishdan va bugundan istagancha misollar keltirish mumkin. Basharti tarixda bir qator badiiy yodgorliklar tanqid tufayli abadiy yashab qoldi, desak, mubolaga bo‘lmaydi»¹. Aytaylik, Alisher Navoiyning «Majolisun nafois» asarida zamonasining shoirlari, o‘z ustozlari va izdoshlari to‘g‘risida ma’lumot berar ekan, ularning ijodiy o‘ziga xosliklariga alohida to‘xtaladi, ayrim asarlardagi muayyan badiiy nuqsonlar xususida tanqidiy mulohazalarini aytadi, ayni vaqtda mualliflar hayoti va ijodining muhim nuqtalarini yoritadi. Shu bois «Majolisun nafois» o‘z davrida ham, bugun ham ahamiyatini yo‘qotmay kelayotir. Yaratilganiga besh asr bo‘lgan bu asar o‘zbek mumtoz adabiyotining u yoki bu davrini tadqiq etish, o‘rganishda hamon nodir manba sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Yana bir misol: Hamzaning bizgacha etib kelmagan «Qahramon O‘g‘uz» dramasi haqida 1922-yilda «Qizil bayroq» gazetasida paydo bo‘lgan qisqagina taqriz orqaligina ma’lumotga egamiz. Yoki o‘z vaqtida O. Sharafiddinovning Abdulla Qahhorning «Tobutdan tovush» dramasi haqidagi maqolasi mafkura zug‘umiga qaramay, o‘zbek tanqidchiligidagi adolat prinsipining qaror topa borishida katta ta’sir ko‘rsatdi. Vaqtida aytilgan bitta salmoqli fikr ayrim hajmdor kitoblarga qaraganda ko‘proq ish qila olishi shundan namoyon bo‘lib turibdi. Behbudiy, Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Ayniy, Hamza, H. Olimjon ijodi, o‘tgan asrning 20–30-yillarida bildirilgan ayrim siyosiy aybnomalarga qaramay, Vadud Mahmud, Otajon Hoshim, Olim Sharafiddinov, Oybek, H. Yoqubov, M. Shayxzoda kabi tanqidchilar tomonidan «o‘z vaqtida aytilgan so‘z»lar adabiyotimiz tarixidagi o‘rinlarini belgilashda muhim rol o‘ynadi.

Ayrim hollarda mafkurabozlikka berilib, adabiyot ravnaqiga va adiblar qismatiga, hatto mudhish ta’sir o‘tkazib bo‘lsa-da, yuqoridagi misollar asosidagi tanqidning bu ijobiy roli adabiyot tarixining har bir bosqichiga oid talay misollar bilan qayta-qayta tasdiq etilishi mumkin.

Qayumov L. Adabiy tanqid va ijodiy jarayon // «Sharq yulduzi», 1972. № 3, 149-bet.

Adabiy tanqid san'atkor mahoratining takomillashuviga, kitobxon estetik didining kamol topishiga ko'maklashadi. U estetika an'alarini rivojlantirish bilan birga g'oyaviy-badiiy jihatdan beriladigan baho va mezonlarning ham teranlashuviga o'z ta'sirini o'tkarmog'i joiz.

Adabiy tanqid ilmiy-estetik tafakkur taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega. Shu sababli tanqid tarixini o'rganish faqat tarixiy-ma'rifiy jihatdan emas, balki ijtimoiy-estetik jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi: adabiy-badiiy tanqid tarixi saboqlari san'at va adabiyotning bugungi hamda ertangi taraqqiyoti, yo'llari va vazifalarini tayinlashga yordam beradi.

Adabiy-badiiy tanqidchilik oldida estetika an'alarini rivojlantirish vazifalari turadi. Demak, tanqid: 1) *ijtimoiy hayotda ham*; 2) *ijodkor faoliyatida ham*; 3) *kitobxon estetik kechinmalarida ham o'z o'rniga ega*. U: a) *ijtimoiy hayotdagi dolzarb masalalarni*; b) *ijodkor dunyoqarashi va mahoratini*; d) *kitobxonning estetik talab va badiiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda san'atning o'z-o'zini anglash shakli sifatida ko'rinadi, muayyan davr, xalq va millat estetik tafakkurining umumiy va ichki rivojlanish qonuniyatlarini oydinlashtiradi*. Zero, *Belinskiy ta'kidlaganidek, «adabiyotning vazifasi tanqidning vazifasidir. «Hukm qiluvchi tanqid bilan, hukm qilinuvchi adabiyotning mazmuni birlir».*

Adabiy tanqid «harakatdagi estetika»dir. Adabiy tanqid adabiyot hodisalarini, adabiy asarlarni tahlil qiladi, ularga baho berar ekan, o'zining ichki xususiyatlarini kashf eta boradi. Ilg'or adabiy tanqid 1) badiiy asarlarni keng targ'ib etishga; 2) xalqaro miqyosdagi ilg'or tamoyillardan muayyan xalq adabiy jarayonini voqif qilishga; 3) kitobxonlarning estetik idroki va zavqini oshirishga; 4) so'z san'atkorlarining shaxs va ijodkor sifatidagi takomiliga xizmat qiladi. V.G. Belinskiy adabiy tanqid va ijtimoiy fikr o'rtasidagi aloqani ko'zda tutib, haqqoniy tanqid hamisha jamiyatning o'y va orzularini ifodalaydi, degan edi. Tanqid, yuqorida qayd etilganidek, imkoniyatlar doirasida davr va ruhiyat uchun tamoman yangi haqiqatlarni kashf etib, zamonasining san'at va adabiyoti rivojida yangi bosqich boshlanishiga asos solishi mumkin. Ammo bu hodisa, Belinskiyning ta'biri bilan aytganda, «buyuk va nodir hodisadir».

Tanqid «o'z zamonasining go'zallik haqidagi hukmdor tushunchalarini aniqlash va ommalashtirish»ni ham o'z oldiga vazifa qilib oladi. «Nazariya go'zallik qonunlarining tizimli va uyg'un birligidir: ammo uning bir kemtik tomoni bor: u ma'lum vaqt doirasida qolib ketadi,

tanqid esa beto'xtov davom etadi, olg'a boradi, fan uchun, yangi materiallar, yangi ma'lumotlar yig'adi. Bu harakatdagi estetikadir...»¹.

Tanqidning yana bir xususiyati — uning publitsistika bilan chambarchas aloqadorligi. Adabiy jarayon hodisalarini va adiblarning ayrim asarlarini tahlil etib, ularning qimmatini keng ommaga tushuntirib berishga va ommaning estetik didini tarbiyalashga mo'ljallangan tanqid o'z o'quvchisiga vaqtli matbuot orqali murojaat etadi. Xalq va uning adabiyoti tarixida boshlanayotgan yangi davrlarda bu xususiyat, ayniqsa, bo'rtib ko'rinadi.

Yangi uyg'onish davri hisoblangan XX asr tongidagi o'zbek jadid tanqidchiligi, Istiqlol arafasi, hamda Mustaqillikning dastlabki yillaridagi o'zbek tanqidchiligi tarixi buning yorqin dalilidir. XIX asrning birinchi yarmida Belinskiy: «Tanqid allaqachon bizning ommaning (o'quvchilar va tomoshabinlar ommasining) ehtiyoji bo'lib qoldi. Hech bir jurnal yoki gazeta tanqid va bibliografiya bo'limisiz yashay olmaydi», — deb yozgan edi. Bu hol hamma madaniy xalqlar tarixi, shu jumladan, O'rta Osiyo xalqlari tarixidagi dalillar bilan ham tasdiq etiladi.

Shuni esda tutish kerakki, tanqidning adabiyotshunoslikdan uning mustaqil qismi sifatida ajralib chiqishi qator xalqlarda, asosan, XIX asrning ikkinchi choragida sodir bo'ldi. Hatto Belinskiy zamonasida ham, jumladan, uning asarlarida adabiyotshunoslik ko'pincha bir butun hodisa sifatida maydonga chiqqan. Inchunin, Belinskiyning ilg'or jurnallar (aytaylik: «Otechestvenniye zapiski») sahifalarida bosilgan aksariyat asarlari ko'p hollarda rus adabiyotining o'tmishini tahlil qilish bilan boshlanar edi.

Shu ma'noda o'tmish davrga oid asarlar tahlil etilgani hamda ular haqida mulohazalar yuritilgani bilan, bu mulohaza va chiqarilgan ayrim xulosalar bugungi adabiyot ravnaqi nuqtayi nazaridan hozirgi adabiy jarayon muammolari yo'nalishidagi maqolalar ham mansubligiga ko'ra adabiyotshunoslik yoxud adabiyot tarixi emas, adabiy tanqid namunalari hisoblana oladi.

Tanqidagi badiiylik va obrazlilik uning xos xususiyatlaridan biri bo'lib, ilmiy-tahliliy mazmunga singgan holda namoyon bo'ladi. Yozuvchi o'z qarashlarini, orzu-istaklarini obrazlar vositasida qalbining «dardi», his-hayajoni bilan o'quvchilar ommasiga yetkazsa, asosiy maqsad qilib o'quvchilar ruhiy olamiga, ruhiyatiga ta'sir qilishni

¹ *Belinskiy V.* Tanlangan asarlar. — T.: 1959, 234-bet.

nazarda tutsa, adabiy tanqidchi o'z fikr-mulohaza va qarashlarini faqat izchil mantiq vositasida muntazam va aniq bayon qilish yo'li bilangina emas, ularni ayni vaqtda ba'zan xayolga erk berish, obrazli va badiiy fikrlash bilan qo'shib olib boradi. Asosiy maqsad qilib kitobxon aqligagina emas, ruhiyati va tuyg'ulariga ham ta'sir qilishni nazarda tutadi.

Binobarin, tanqidchi badiiy asarlarni baholash jarayonida shu asar tufayli qalbdagi tug'iluvchi his-hayajonni ham ifodalab berishi lozim. Shu nuqtada adabiy tanqidning ilm va san'at bilan uyg'unlashgan o'ziga xos xususiyati ko'zga tashlanadi: tanqidchi ilmiy tafakkuriga, mantiqiga o'z badiiy tafakkurini singdirganda, ularning o'zaro birligini ta'minlaganda vazifasini teran ado etadi. Chunki his-hayajon va obrazlilik bilan charxlangan fikr sovuqqon, hissiz fikrga nisbatan o'quvchida kuchli ishonch hosil qiladi va ifoda etilayotgan tuyg'u ham muayyan balog'at kasb etadi.

Tanqidchi obrazli fikrlashi kerak, lekin obrazli fikrlash zo'rma-zo'raki bo'lmasligi, haddan ortiq estetchilikka berilib ketmasligi kerak. U ilmiy fikrlashga bo'ysunishi va bu tabiiy ravishda kechishi shart. Bunda tanqididagi obrazlilikni adabiyotdagi obrazlilik tushunchasiga tenglashtirmaslik, badiiy tafakkurni ilmiy tafakkurdan yuqori qo'ymaslik lozim. Rus yozuvchisi E. Vinokurov: «Men adabiy-tanqidiy maqolalar to'plamini roman kabi o'qishni xohlardim», — deganida tanqidiy asardan roman fazilatlarini emas, uning o'qishlilikidagi jozibani, fikrlash tarzidagi esse uslubini, fikrlar ifodalashdagi ommaboplikni nazarda tutadi. Tanqidchi, albatta, obrazli fikrlashi mumkin, obrazli fikrlashi shart ham, biroq obrazli tafakkur ilmiy tafakkurga bo'ysunishi va tabiiy bo'lmog'i lozim.

Afsuski, o'zbek adabiy tanqidchiligidagi ba'zan ilmiylik «o'ta» kuchli bo'lgani holda badiiylik zalvori deyarli sezilmaydigan maqolalar oz emas. Bunday tanqidchilar ilmiy «fikrlash», mantiqiy fikrlash»dan boshqasini tan olmaydilar. Oqibatda ularning asarlari «akademizm» illatiga muhtalo bo'lib, uni keng kitobxonlar ham, so'z san'atkorlari ham o'qishga qiynaladilar. Bunday asarlarda ehtirossiz, quruq hukm va xulosalar asosiy o'rinni egallaydi. Bu hukm va xulosalarga keltiruvchi rang-barang dunyo shu hukm va xulosalarni yaratuvchi jonli tahlil, tanqidchining o'z qalbi ko'rinmay qoladi. Holbuki, adabiy tanqidga xos obrazli tafakkurgina tanqidchilikni ilm bilan bir qatorda, san'at asari ham deb baholashga imkon beradi. Rost, obrazli tafakkur mashhur fiziolog I.P. Pavlovdan tortib, matematik Qori Niyoziy

asarlirigacha uchrab turadi. Ammo bu asarlarga biz san'at asarlari sifatida emas, fan asari sifatida qarash lozimligini yaxshi bilamiz. Adabiy – tanqidiy asarlarda esa san'at sifatlarini ham ko'rgimiz keladi. Bu shunchaki istak emas, ayni vaqtda biologik jarayon hamdir. Lekin bundan qat'i nazar, adabiy-tanqidiy fikrni badiiy tafakkur sintezidan o'tkazishning o'zigina adabiy tanqidni san'at deyish uchun asos bo'la olmaydi.

Ayni vaqtda tanqidchi obrazli fikr yuritsa-yu, san'atkor tomondan yaratilgan asarni hayot bilan taqqoslash asosida jonlantirib ko'rsata olmasa, u o'zini haqiqiy adabiy tanqidchi sifatini namoyon etolmaydi, chunki haqiqiy tanqidchi tahlil jarayonida kitobxonga badiiy asarni faqat tushuntirib berish bilan cheklanmaydi, o'qilgan narsani birgalikda o'zlashtirib olishga yordam beradi. Badiiy asardan kitobxon olgan zavq, qayg'u va shodlikni, badiiy taassurotni to'latadi, jonlantiradi. Kitobxonga ana shu taassurotni yuqori saviyada ravshan va tushungan holda yana bir karra boshidan kechirishga, mazkur asar haqida to'g'ri tasavvur hosil qilishga imkoniyat beradi.

Qisqasi, kitobxon tanqidiy asardagi munaqqidning jo'shqin hissiyotini, ehtirosini sezib turishi lozim. Ana shundagina tanqidiy asarlar qo'ldan-qo'lga o'tadi, tez tarqaladi. Tanqidchilar ham muayyan darajada san'atkorga o'xshab kitobxonlarning hurmat-ehtimomiga sazovor bo'ladilar. V.G. Belinskiy tajribasiga nazar solaylik. U qaysi janrdagi asarni tahlil qilmasin, shu janrda so'z san'atkori yaratgan obrazlarni, badiiyatni qaytadan yana bir marta yaratadi, ularni boyitadi, takomillashtiradi, tarashlaydi, kamchiliklarini aniqlaydi. O'z qalbi va estetik hissiyoti orqali shoir yaratgan badiiy asarga bamisoli qaytadan jon kiritadi.

Uning «qo'li tegishi» bilan badiiy asar bamisoli hayotdan yangi kuch-quvvat oladi: undagi obrazlar ravshanlanadi, teranroq ifodasini topadi, ta'sir kuchi oshadi. Jarayondagi adabiy oqimning, tamoyilning to'g'ri yo'nalishidan borishga yoki uni to'g'ri yo'lga solib yuborishga kuchli ta'sir etadi.

Asr boshlarida Fitrat va Cho'lpon kabi munaqqidlar ijodida obrazli tanqidiy taffakkurning turli ko'rinishlari uchraydi. I.Sulton, M. Qo'shjonov va O.Sharafiddinov, I.G'afurov kabi tanqidchilar ijodi haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Adabiy tanqidning bu xususiyati tanqidchining ma'lum ma'noda san'atkor ham bo'lishini taqozo qiladi.

Adabiy tanqidchi asarni ham tafsilotlarda, ham qismlarda yaxlit ko'ra bilish qobiliyatiga ega bo'lmog'i darkor. Bu qobiliyat tanqid-

chidan ilmiy teranlik qatorida hayotni ma'lum darajada obrazli anglashni talab qiladi. U badiiy asarni qayta yaratish jarayonida ijtimoiy va axloqiy muammolarni asardagi jonli obrazlar, xarakterlar tasvirini tahlil etish orqali namoyon etadi. Asarda ko'tarilgan masalalarning ijtimoiy-estetik mohiyatini ochadi. Shu ma'noda adabiy tanqid adabiyotshunoslikning muayyan bir qismi bo'lish bilan birga, badiiy adabiyotning o'zi kabi ma'lum darajada o'ziga xos insonshunosligi hamdir.

«Tanqidchilikning ahvoli bevosita butun adabiyotning ma'rifati darajasini ko'rsatadi, — deya tanqidni fan qatorida ko'radi A.S. Pushkin. So'ngra yana quyidagilarni e'tirof etadi, — tanqid san'at va adabiyot asaridagi latifliklar va kamchiliklarni kashf etuvchi fandir»¹. O'zbek adabiyotida A.Oripov, R.Parfi kabi noyob iste'dodlarning asarlari ayrim mafkuraviy korchalonlar hamda didi o'tmas ba'zi kitobxonlar tomonidan nohaq qoralanib va qabul qilinmay turgan kezlarda, didli, haqiqiy asarning qadriga yeta oladigan tanqidchilik bu asarlarning qadr-qimmatini to'g'ri belgilay oldi va ular ijodining ommalashuvida muhim rol o'ynadi. Mafkura botqog'iga botgan tanqidchilik Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir asarlarini yer bilan yakson qilib turgan bir paytda ilg'or millatparvar tanqidchilar (V.Mahmud, Oybek, H.Yoqubov va boshq.) ular asarlaridagi qadriyatni to'g'ri baholadi va bu tamoyil vaqt o'tishi bilan o'zbek tanqidchiligida ustuvor bo'lib qoldi.

Adabiy tanqidchilik ilmiy-estetik hodisa sifatida. O'zbek adabiy tanqidchiligi rang-barang, barakali, lekin murakkab, og'ir yo'lni bosib o'tdi, undagi ijobiy va salbiy hodisalarni tarixiylik talablari asosida haqqoniy tahlildan o'tkazish zarur. Endi har bir ishimizda milliy mafkura asos bo'lishi kerak. Chunki «milliy mafkura, avvalambor o'zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart»².

Eng muhimi shundaki, yozuvchi qaysi davrda yashab ijod etgan bo'lmasin, asosiy maqsad: uning asarlarida hayot haqiqati qanday uslub va vositalar orqali qay darajada yoritilgani yoxud yoritilmagani; qanday to'laqonli, yangi obraz, xarakterlar yaratilganini yoki yaratilmaganini; bu obrazlar davr ruhini chuqur aks ettira olganmi yoki yo'qligi; ular hozirgi zamonga qaysi qirralari bilan mushtarak bo'lib,

¹ *Pushkin A.S. Tanlangan asarlar*, — T.: 1982, 8-tom, 238-bet.

² *Karimov I. Adolatli jamiyat sari*. — T.: O'zbekiston, 1998, 14-bet.

o'quvchilar tafakkurini o'zgartirishga ishtirok etishi yoki etmasligini aniqlash; nihoyat, ularning barchasi mohiyatini barkamol ilmiy-estetik tahlil orqali ko'rsatish tanqidchilikning diqqat markazida bo'lmog'i lozim. Zero, I.A. Krilov ta'kidlaganidek: «Tanqid faqat tanqidchilikning ko'rsatkich barmog'i bilan asarning kamchilik, yutuqlarini ko'rsatishgina emas, balki uning nozik did, nafasat bilan yaratilganligini ko'rsatish hamdir». Bunda tanqid yozuvchining hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirgan yoki aylantira olmaganini baholay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi adabiy jarayonda, unda ro'y berayotgan xilma-xil o'zgarishlar, yangilanishlarning mohiyatini, sababini yoritish va natijalarini aniqlash ilmiy-estetik tahlil zimmasiga yuklatiladi. Aytiladigan har bir fikr, badiiy ijod, hayot hodisasi xususidagi mulohazalar va xulosalar ilmiy-estetik tahlilda namoyon bo'ladi. Ular tahlil orqali isbotlanmasa, o'z qadr-qimmatini topishi qiyin kechadi.

San'atga muhabbat bo'lmagan joyda tanqid ham bo'lmaydi. Shu o'rinda nemis faylasufi Vinkelmanning quyidagi so'zlari yodga tushadi: «Badiiyat donishmandi bo'lishni istaysizmi? San'atkorni seving, uning asarlaridan go'zallik axtaring».

Har bir maqola, taqriz, tadqiqot salmog'i, qimmatini tahlil mazmuni bilangina emas, tanqidchining asardan go'zallik izlay bilishi, uni aniqlash va dalillash hamda shularni kitobxonga ham o'tkaza bilish qobiliyati bilan belgilanadi. Tahlil ilmiy-estetik haqiqatni yuzaga chiqaradigan asosiy vosita bo'lib, asardan real voqelik tomon intiladi, ijtimoiy hodisalar va hayotdagi inson, uning ruhiyati bilan badiiy asarlarni bir-biriga taqqoslash orqali o'zligini ko'rsatadi. Shu sababli adabiy tanqid hayotda, so'z san'atida qanday go'zal, nodir va noyob xususiyatlar bo'lsa, ularni astoydil sevishtga; qayerda jaholat, nopoklik uchrasa, kuchli g'azabimizni uyg'otib, ularga qarshi kurashmoqqa turtki beradi.

Ammo ba'zan tanqidchilikda (uning ayrim vakillari qarashida) chetga og'ishlar kuzatilgan hollar ham bo'ladi. Ayniqsa, 60-80-yillarda ba'zan badiiyat haqida ilmiy asoslangan fikrlar aytish o'rniga, mantiqan go'yo to'g'ridek ko'rinsa-da, aslida badiiyat qonunlarini yetarli anglab yetmaslik tufayli tug'ilgan da'volarni pesh qilishga o'xshagan soxta talabchanlik sezilarli darajaga ko'tarilgan hollar sodir bo'ldi. Bu holatni N.Xudoyberganovning ayrim maqolalarida, shuningdek, O.Tog'ayevning A.Oripovning «Ayol» she'riga oid mulohazalarida kuzatish mumkin.

Endilikda adabiy tanqid ko'ngilchanlik va amalga qarab baholash berish illatidan forig' bo'lib bormoqda. Istiqloq davriga kelib, tanqidchilik sho'ro davridagi sinfiylik, partiyaviylik kabi illatlardan tamomila xoli bo'ldi.

Adabiy tanqid jiddiy faoliyatdir. Tanqidchi qaysi asar haqida so'z yuritmasin, mulohazalarni oshkora aytsa, xulosalar salmog'i, yo'nalishini kimningdir ko'ngli, istagi, amali va martabasiga moslamasa, asarni xolis ilmiy-estetik tahlildan o'tkazsa – adabiyot ravnaqida qanday mavqe egallay olishini to'g'ri belgilasa, o'zi va tanqidchilikning jamiyatdagi o'rni, hurmatini saqlagan bo'ladi. Aks holda buning teskarisi ro'y berishi tabiiydir.

Xullas, adabiy jarayonda, yozuvchilar faoliyatida qanday ijobiy yoki salbiy, murakkab yoxud ziddiyatli hodisa ro'y bermasin – barchasini, asosan, so'z san'ati, badiiylik talablarining ichki qonuniyatlari binoan yoritilishi zarur. Shundagina tanqidchi adabiy tanqid mohiyatini to'g'ri anglagan bo'ladi, to'g'ri umumlashma va xulosalar chiqaradi, o'zining va yozuvchilar bilan munosib saviyada bahslash olish qiyofasini namoyon etadi. Bunday iste'dod sohibi o'z uslubi, salmoqli fikr-o'yi, mulohazasi, hatto ohang va shakl-shamoyili bilan alohida ajralib turadigan maqolalar, taqrizlar, tadqiqotlar yaratib, faqat adabiy jarayongina emas, hayotni ham turfa ziddiyatlar va go'zalliklar garmoniyasida gavdalanitiradigan olam ichidagi ilmiy-estetik olamni kashf etadi, so'z san'ati haqidagi fanning chinakam zahmatkashi sifatida obro'-e'tibor qozonadi.

Tanqidchilikning yana bir xususiyati uning milliyligidadir. Badiiy adabiyotdagi milliylik kabi tanqidchilikdagi milliy asos va milliy qiyofa ham muhim ahamiyatga egadir. Lekin bundan qat'i nazar milliylik va umuminsoniylik dialektikasi hozirgi zamon adabiy tanqidchiligidagi o'zak masalalardan biri sanaladi. Zero, san'atning milliy o'ziga xosligi bilan umuminsoniylik dialektikasi, turli millatlar badiiy madaniyatlarining bir-biriga o'zaro ta'siri va bir-birini boyitishi hozirgi xalqaro miqyosdagi adabiy-badiiy jarayonning ichki ham tashqi estetik mohiyatiga tegishli jahonshumul muammolaridir.

Hozirgi turli xalqlarga mansub adabiy badiiy jarayonning o'zi milliy hayot va milliy ong estetik in'ikosi sifatida harakat qilsa-da, chinakam xalqchil tanqidchilik bu muammolarni o'z tahlilidan chetda qoldirmaydi.

Adabiy tanqid tor muammo va mavzular doirasida o'ralashib qolmasligi va umumestetik mezonlarni yo'qotib qo'ymasligi uchun

adabiy jarayonning yetakchi tamoyillarini tinmay kuzatib turishi, u yoki bu yozuvchi uslubiga xos qirralarni, ijodiy yoʻliga xos xususiyatlarini yoritishi, badiiy asarni hozirgi davrning ruhiy, maʼrifiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-maʼnaviy muammolari bilan aloqadorlikda talqin etishi kerak boʻladi.

Adabiyot, zamon-makon – inson muammolari va badiiy ehtiyojlarini qahramonlarini tarixiylik tamoyili asosida qay darajada aks ettirayotgani tanqidning diqqat markazida turishi va u badiiy asarning gʻoyaviy-estetik tahliliga shu nuqtayi nazardan yondashuvi muhim ahamiyatga egadir.

Tanqidiy fikr qanchalik haqqoniy va talabchan boʻlsa, hozirgi adabiyotimizning muhim masalalarini qanchalik dadillik bilan koʻtarsa – uning mavqeyi shunchalik kuchli, natijasi esa shunchalik samarali kechadi. 50-yillarda A.Muxtorning «Daryolar tutashgan joyda» qissasi, 60-yillarda A.Oripovning «Tilla baliqcha» sheʼri, 70-yillarda E.Vohidovning «Oʻzbekim» asari, 80-yillarda R.Parfining asarlari tufayli sodir boʻlgan tanqidiy chiqishlar ular kelgusi ijodida qanchalik katta rol oʻynagani maʼlum.

Tirnoq ostidan kir qidirish emas, mafkura zirhiga burkanish emas, shu xildagi xolis millatparavarlik ruhi bilan sugʻorilgan adabiy-tanqidiy kuzatishlar hozirgi kunda, mustaqillik gʻoyalarini mustahkamlash maʼnaviy-estetik ehtiyojga aylangan bir sharoitda, yanada rivojlantirilishi lozim. Shundagina adabiy tanqid ilmiy-estetik hodisa sifatida istiqloq davri oʻzbek adabiyotining taraqqivotiga samarali taʼsir koʻrsatadi.

«Xalqimizning kelajakka – tanlagan yoʻlimizning toʻgʻriligiga, erkin va ozod hayot qurish, Vatanimizni obod qilish, adolatli fuqarolik jamiyati barpo etishdek oliy maqsadimizga boʻlgan ishonchining yanada oshishiga adabiyot ham, shu jumladan, adabiy tanqid chin dildan xizmat qiladi»¹.

Xulosa qilib aytganda, 1) matbuot va adabiy jarayon bilan bogʻliqlik; 2) asarni hayotga qiyoslab oʻrganish; 3) tafakkurning oʻziga xos tarzi; 4) tashviqot vositasi sifatida ish koʻrishi; 5) oʻziga xos sodda va oʻtkir uslubga egaligi; 6) hozirjavoblik; 7) harakatdagi estetiika ekanligi; 8) asosan, badiiy adabiyotning ichki qonuriyatlariga tayanish; 9) ilmiy va badiiy sinkretizm adabiy tanqidning oʻziga xos xususiyatlaridir.

¹ Karimov I.A. Oʻzbek xalqiga yangi yil tabrigi// Oʻz AS.2000, 1- yanvar

Tayanch tushunchalar: harakatdagi estetika, hukm qiluvchi tanqid, obrazli tafakkur-ilmiy tafakkur bilan badiiy tafakkurning uyg'unlashuvi, adabiy tanqidda obrazlilik, adabiy tanqid ilmiy-estetik hodisa, adabiy tanqidda milliylik va umuminsoniylik dialektikasi, akademizm, adabiy tanqidda birlamchi va ikkinchi til.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Adabiy tanqid* – «harakatdagi estetika» deganda nimani tushunasiz?
2. *Adabiy tanqidda obrazlilik qanday namoyon bo'ladi?*
3. *Adabiy tanqidda ilmiy tafakkur bilan badiiy tafakkurning o'zaro uyg'unlashuvi qanday namoyon bo'ladi?*
4. *Adabiy tanqidning ilmiy-estetik hodisaligi nimalarda ko'rinadi?*
5. *Adabiy tanqidning joriy adabiy jarayondagi o'rni qanday?*



IKKINCHI BO'LIM

O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGINING SHAKLLANISH TAMOYILLARI (1900—1925)

REJA:

1. O'zbek adabiy tanqidi tarixini davrlashtirish masalasi.
2. Adabiy tanqidning shakllanishida matbuotning o'rni.
3. Yangi o'zbek tanqidchiligining ilk mustaqil odimlari.
4. Tanqidchilikda janriy izlanishlar.

O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixini davrlashtirish masalasi. Boshlanayotgan yangi davr adabiy-badiiy talablari va estetik ehtiyojlarini ifoda etib, zamonning yangi tipdagi badiiy adabiyoti, yangi inson va kitobxonni tarbiyalashni maqsad qilib qo'ygan adabiy tanqid O'zbekistonda XX asr boshlarida matbuot bilan birga tug'ildi. Uning yuzaga kelishida, avvalambor mumtoz adabiyot va adabiy-tanqidiy tafakkur an'analari, qolaversa, yangi matbuot sahifalarida bosilgan maqolalar hamda an'anaviy tarzda sharq qo'lyozmalari orqali kirib kelgan jahon ilmiy estetik qarashlaridagi namunalar muhim rol o'ynadi.

Yangi o'zbek adabiy tanqidchiligining maxsus hodisa sifatida tug'ilib, shakllanib, kamolot bosqichiga ko'tarilish yo'lida kechgan qiyinchilik va ziddiyatlar mohiyatini anglash uchun tarixning adabiy-madaniy sahifalarini birma-bir varaqlab, ko'zdan kechirish, erishilgan ilmiy-estetik yutuqlarni, mavjud nuqsonlarni tahlildan o'tkazish, adabiy-badiiy, ilmiy-estetik tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini haqqoniy o'rganish va yoritish zarur bo'ladi.

O'zbek tanqidchiligi ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Biz uning XX asr tongidan boshlangan tarixini yoritishni maqsad qilib qo'ydik. Shu o'tgan vaqt mobaynidagi adabiy tanqidning fazilatlarini o'zlashtirish, nuqsonlarini haqqoniy tahlildan o'tkazib, sabab va oqibatlarini aniqlash, adabiy tanqidning yozuvchilar va o'quvchilar ommasiga ta'siri doirasini yanada kengaytirish va mustahkamlash uchun zarurdir.

«Biz bugun yangi asrga qadam qo'ydik. Xo'sh, yangi asrga o'zbek adabiyotshunosligi qanday yo'llanma bilan kiradi? U o'zining qaysi

jihatlaridan voz kechadi va hatto qaysi gunohlaridan tavba qilib, qaysi fazilatlar bilan yangi davrga yuz tutadi? Kamchiliklar oz emas.

...Lekin shunga qaramay, bugun umidsizlikni yig'ishtirmoq kerak va ahillik bilan ishga kirishib, yangi adabiyotning rivojiga faol ko'maklashmoq kerak»¹. Bu fikrni adabiy tanqidga nisbatan ham qo'llash mumkin, chunki badiiy adabiyot bilan adabiy tanqid doimo birga harakat qiladi.

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar muayyan davrlarga ajratib o'rganilmasa, maqsadga olib boradigan to'g'ri yo'lni topish qiyin kechadi. Shunga ko'ra, adabiyot tarixi badiiy ijod va ijtimoiy hayotda ro'y bergan katta voqealar, tub burilishlarga asoslanib davriashtiriladi, ba'zan soddagina qilib: «20-yillar adabiyoti», «60-yillar adabiyoti» tarzida qismlarga ajratiladi. Bundan anglashiladiki, davrlashtirish tamoyillari hali qat'iy belgilangan emas. Yoki bu davrlashtirishning ko'p ham oson emasligidan mujda bo'lsa, ajab emas. Ammo shuni ayonki, ijtimoiy hayot va ijtimoiy ong taraqqiyoti qonuniyatlari, xususiyatlari hamma vaqt muayyan sohaning o'ziga xos mazmuni, mundarijasi, muammolari markazida turadi.

Tanqid rivoji adabiyot rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiyot ham, tanqid ham hayotdagi go'zallikni yoritadi va izlaydi, ularni turlicha shaklda ifoda etadi. V.G. Belinskiy bu haqda shunday yozadi: «San'atkor va adabiyotchi o'zining san'at va adabiyot haqidagi tushunchasini bevosita yaratgan asarlarining o'zi bilan ifoda etadi; tanqidchi esa san'at va adabiyot haqidagi tushunchasini mantiqli fikr vositasi bilan mushohada tarzida ifoda etadi. Bu holda san'at va adabiyot tanqid bilan qo'lga-qo'l berishib boradilar va bir-birlariga o'zaro ta'sir etadilar»².

Buyuk munaqqid qayta-qayta ta'kidlagan bu hodisa adabiy tanqid tarixi o'rganilmaguncha badiiy adabiyot tarixining haqqoniy va to'liq manzarasini yaratish mumkin emasligidan guvohlik beradi. Bu hol adabiy tanqid tarixini adabiyot tarixining ajralmas bir qismi qilib qo'yadi. Shu mantiqdan kelib chiqib «O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi» (1987) ikki jildligi mualliflari o'zbek adabiy tanqidi bosib o'tgan yo'lni zamon mafkurasiga tayangan ravishda quyidagicha o'rganadilar:

¹ Sharafiddinov O. Adabiyot mangu yashaydi // Jahon adabiyoti. 1998, № 1. 4-bet.

² Belinskiy V. Tanlangan asarlar. — T.: 1959, 244-bet.

1. O'zbek sovet adabiy tanqidining vujudga kelishi va ilk qadamlari (1917–1932).

2. O'zbek sovet adabiy tanqidi sotsialistik realizm estetikasi bilan qurollanish yo'lida (1932–1941).

3. Ulug' Vatan urushi davri o'zbek adabiy tanqidi (1941–1945).

4. Ulug' Vatan urushidan keyingi davr o'zbek adabiy tanqidchiligi (1945–1956).

5. Adabiy tanqid tarixida yangi bosqichning boshlanishi (1956–1961).

6. Adabiy tanqidning tez va keng rivojlanish yo'liga kirishi (1962–1972).

7. O'zbek adabiy tanqidi yangi bosqichda (1972–1980)¹.

Ko'rinadiki, bunday davrlashtirishga sohadagi o'ziga xosliklar emas, mamlakat tarixi, yoxud shu tarixdagi o'ziga xosliklar asos qilib olingan. U esa o'zbek adabiy tanqidining chinakam ilmiy tarixini – rivojlanish yo'lidagi haqiqiy manzarasini aks ettirmagan. Unda adabiy tanqidda kechgan jarayonlar sho'ro tarixi va mafkurasiga moslashtirib talqin etilgan. Chunonchi, o'zbek adabiy tanqidchiligining sotsialistik realizm bilan qurollanishi aslida uning mafkuraviylashtirilishidan iborat bo'lib, VKP (b) MKning 1925-yil 18- iyunda qabul qilgan «Partiyaning badiiy adabiyot sohasidagi siyosati to'g'risida»gi rezolutsiyasi, VKP (b) MKning «Adabiy-badiiy tashkilotlarni qayta qurish haqida»gi 1932-yil 23-apreldagi qarori, Butunittifoq Yozuvchilari uyushmasining I syezdida tasdiqlagan yo'l-yo'riqlari sho'ro adabiyotining mohiyati, omonatligi, noto'g'ri taraqqiyot yo'lini tanlaganligini ko'rsatdi. RAPP (O'zAPP) adabiyot sohasida dushman izlash, adabiy raqib yaratish mahoratini o'zlashtirdi. Leopold Averbax singari RAPP rahbarlari M. Sheverdin, Olim Sharafiddinov, Rahmat Majidiy, Sotti Husayn, Jamol Boybo'latov singari yoshlarni siyosiy hushyorlik ruhida «tarbiyalay boshladilar». 30-yillarning boshlaridan rus adabiyoti milliy adabiyotlarning rahnamosi, o'rnak universitetiga aylantirildi. Badiiy adabiyot, adabiy tanqid sohasida shaxsiy adovat, yomonotlik qilish tamoyili kuchaydi.

Sotsialistik realizmning sho'ro adabiyoti, tanqidchiligining asosiy metodi sifatida tasdiqlanishi sho'ro adabiyotining inqirozini belgilab berdi. Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi 60-yillar arafasigacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi uch bosqich esa aslida, o'zbek adabiy

¹ O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. – T.: 1987.

tanqidchiligining shiddat bilan izlanishi adabiy-tanqidiy tafakkurda o'zgarishlar ro'y berishi, yangi-yangi shakllarning o'zlashtirilishi va realizm uchun kurash yillari bo'ldi. Albatta, bu jarayon ham sho'ro va partiyaviy mafkuraga to'yingan holda kechgan esa-da, shaxsga sig'inish oqibatlarining tugatila boshlashi tufayli, har qalay adabiy tanqidda ham hur fikrning uyg'onayotganidan ayrim muvaffaqiyatlar berdi. Adabiy tanqid stalincha qatag'on qurbonlari ijodini qayta baholashga kirishdi, lirika, badiiy mahoratni o'rganishda estetik tahlilda ayrim yangi qadamlar tashlandi. Ayniqsa, tarixiy asarlarda o'zlikni anglash va erk tuyg'ularining jamiyatni uyg'otuvchi mohiyatini idrok etishga urinish kuchaydi. Qolaversa, adabiy jarayonda yuz berayotgan xilma-xil izlanishlar — ijodiy metod va janrlar rang-barangligi hodisalari mohiyatini, qiynala-qiynala bo'lsa-da, idrok eta bordi va estetik bahosini berishga, umumlashtirishga hamda ulardan tegishli xulosalar chiqarishga harakat qildi, qisman ma'lum natijalarga erishdi.

A.Rasulov va N.Xudoyberganovlar o'zbek tanqidi tarixini ikki davrga bo'lib o'rganishni tavsiya etadilar. Ular fikricha:

1. 1917–1955-yillarni o'z ichiga oluvchi bosqichda yangi o'zbek tanqidchiligining tug'ilishi, shakllanishi va maxsus fan sifatida tarkib topishi sodir bo'ldi.

2. 1956-yildan to 1990-yilgacha kechgan va kechayotgan vaqtni qamrab oladi. Bu davrda o'zbek tanqidchiligi fan va san'at uyg'unligidan tashkil topgan maxsus adabiy hodisa tarzida rivojlanib, ilmiy estetik kamolotga erishish jarayonini boshdan kechiradi¹.

Tabiiyki, mualliflar o'zbek adabiy tanqidi tarixini bu tarzda ikki davrga bo'lib o'rganish ham nihoyatda shartlidir. Chunki bunday davrlashtirishda salkam bir asr davomidagi o'zbek tanqidchiligida kechgan o'zgarishlar, yangilanishlar, ayrim tanazzul va boshqa holatlarni ilg'ash, anglash hamda ularning sabablarini aniqlash ko'rinmay qoladi. Jarayondagi murakkabliklarning deyarli bir tekislikka tushib qolishi ushbu davrlashtirishning eng kemtik nuqtalaridan biridir.

Mustaqillik davrida yaratilgan o'quv qo'llanmalarida ham davrlashtirish masalasiga e'tibor qaratilgan. B.Rahmonov XX asr o'zbek adabiy tanqidchiligining taraqqiyotini uchga, ya'ni «jadidchilik davri», «sho'ro davri» va undan keyingi yillar singari katta bosqichlarga bo'ladi².

¹ *Xudoyberganov N., Rasulov A. O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi.* — T.: 1990. 58-bet.

² *Rahmonov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi.* — T.: Yangi asr avlodi. 2004.

Bu davrlashtirishni munaqqid S. Sodiq tanqid qiladi. Sho'ro davri tanqidchiligi tarixini 20-yillar, 30-yillar, urush davri, undan so'nggi davr, 1956- hamda 1972-yildan keyingi bosqichlar tarzida kichik-kichik etaplarga taqsimlaganini to'g'ri emas deb hisoblaydi. Bu davrlashtirilishda muallif, asosan, bitta prinsipga, ya'ni jamiyat rivoji xususiyatlarini ko'proq inobatga olish tamoyiliga amal qilgan deb qaraydi.

S. Sodiq davrlashtirish masalasida o'zining ushbu taklifini o'rta tashlaydi:

1. O'zbek adabiy tanqidchiligining shakllanish davri (1914–1932)
2. Tahlil ko'lamining kengayishi bosqichi (1932 –1961).
3. Umumlashmalar tomon burilish pallasasi (1961–1991).
4. Talqinlarning yangilanish bosqichi (1991 yildan hozirgi kunga qadar)¹.

Bunday davrlashtirishda ham munozarali o'rinlar yo'q emas. Garchand S. Sodiq adabiyot rivojining o'ziga xosligi va tanqidchilikning ichki taraqqiyot qonuniyatlarini inobatga olish tamoyiliga tayangan bo'lsa-da, tasnifda jarayon tadrijiga belgilarining yetakchi xususiyatlari ko'rinmay qoladi.

Aslida yangi o'zbek adabiy tanqidchiligi XX asr hosilasi, u asr boshida jadidchilik bosnlagan milliy uyg'onish g'oyalaridan suv ichib bunyodga keldi va shakllanish jarayoniga kirdi.

Sho'ro zamonida sotsrealizm bayrog'i ostida mafkuraviy qurolga aylandi, nihoyat istiqlol arafasida asl o'zaniga qaytib, xolis yangi taraqqiyot yo'lini tutdi. Shu mantiqqa tayanilsa, XX asrda kechgan ijtimoiy-estetik jarayonlarga daxldorlik holatida o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixining taraqqiyot yo'lini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish ma'qul:

Birinchi bosqich – yangi o'zbek adabiy tanqidchiligining paydo bo'lishi va shakllanishi (1900–1927).

Ikkinchi bosqich – o'zbek adabiy tanqidi mafkuraviylashtirish va realizm uchun kurash jarayonida (1928–1961).

Uchinchi bosqich – tanqidda badiiyat va mahoratga e'tiborning kuchayishi (1962–1991).

To'rtinchi bosqich – o'zbek tanqidchiligida istiqlol davri (XX asrning 90-yillaridan keyingi davr).

¹ Sodiq S. Tanqidchiligimizning mashaqqatli yo'li / Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy-tanqidiy maqolalar to'plami. – T.: 2006.

XX asr o'zbek tanqidchiligi tarixining bunday davrlashtirish sabablari quyidagilardan iborat:

1. Asr boshidan tanqidiy tafakkurda badiiy adabiyot va u orqali jadidchilik maqsadlarini ilgari suruvchi qarashlar paydo bo'ldi. Sho'ro to'ntaruvini bo'lgani bilan uning g'oyalari boshda tanqidchilikka faol ta'sir ko'rsatganicha yo'q. Taxminan 1927-yilgacha tanqidchilikda jadid maqsadlari ham, sho'roviy maqsadlar ham aralash-quralash ilgari surilib keldi. XX asrning birinchi choragi tugash arafalarida O'zbekiston tanqidchiligida sho'ro siyosati kuchli hujumga o'tdi va tanqidchilikda yildan yilga o'z manfaatiga mos o'zgarishlar yasay boshladi. Istiqloq, ozodlik g'oyalari aks etgan asarlarga keskin xuruj boshlandi.

Shunga qaramay, bu bosqich o'zbek tanqidchiligining yuzini ko'rsatuvchi V.Mahmudning bir qator maqolalari, Oybekning «Cho'lpon. Sho'irni qanday tekshirish kerak?» (1927) kabi programm ahamiyatga ega maqolalar paydo bo'ldi.

2. Dastlabki bosqich tugashi arafalaridayoq sho'ro siyosati va mafkurasi tanqidchilikda ham asta-sekin hukmronlikni o'z qo'lga oldi. 1928-yildan tanqidchilikda sinfiylik va dunyoqarash masalasida, nihoyatda zararli va xato fikrlar ilgari surila boshladi. Bunday fikrlar partiyaviy hujjatlar bilan mustahkamlandi. 1934-yildagi yozuvchilarning 1-syezdi sotsialistik realizm qonuniyatlarini asoslab berdi. O'zbek tanqidchiligi mana shu jarayon ta'sirida qolishiga qaramay, sotsialistik realizm uchun kurashishiga qaramay, o'zining ilg'or vakillari qarashlari misolida, umuman, realizm prinsiplarini aniqlash va egallash yo'lida jiddiy izlanishlar o'lib bordi. Bu izlanishlarning samaralari 30, 40, 50-yillar maqolalari va tadqiqotlaridagi muvaffaqiyatlar va xatolarda aniq namoyon bo'ladi.

3. 50-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan tarixiy va adabiy-madaniy sharoitlarda o'zbek tanqidchiligiga O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, L.Qayumov, H. Abdusamatov, S.Mamajonov, N.Karimov. U.Normatov, N.Xudoyberganov kabi yangi kuchlar kirib keldi. Besh-olti yil mobaynida ular tanqidchilikning sifat jihatdan yangilanishiga o'zining samarali hissalarini qo'sha boshladilar. Bu hol, ayniqsa, 60-yillarning avvaliga kelib, nashr etilgan O. Sharafiddinovning «Zamon. Qalb. Poeziya» nomli maqolalar to'plami hamda M.Qo'shjonovning «Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati» nomli tadqiqotlarida yorqin namoyon bo'ldi. Ushbu manbalarda o'zbek tanqidchiligi badiiylik va mahorat muammolarini jiddiy va maxsus

o'rganishga kirishilganini ko'rsatgani bois, ular yaratilgan davrni o'zbek tanqidchiligining burilish nuqtalaridan biri — tanqidchilikda yangi bosqich boshlangani sifatida e'tirof etish to'g'ri bo'ladi. Bu borada turli yo'nalishdagi izlanishlar istiqolol arafasigacha davom etdi.

4. Va nihoyat 1990-yil avvali — Mustaqillik davridan boshlab o'zbek tanqidchiligi barcha yo'nalishlarda o'zining yangi va istiqbolli taraqqiyot bosqichiga kirdi.

Adabiy jarayon va uning xususiyatlarini ochib berish tanqidchilik zimmasida turadi. Badiiy ijod haqidagi fikr-mulohazalar ilmiy-estetik tahlilda haqqoniy o'z ifodasini topishi kerak. Bugun istiqolol mafkurasi har bir hodisaga xolis baho berishni talab qilyapti. Lekin afsuski, XX asr o'zbek adabiyoti, shu bilan birga, o'zbek adabiy tanqidi o'z rivojini 20-yillardan, aniqrog'i, to'ntarish ta'sirida boshladi, degan qarash ayrim darslik, qo'llanma, turli tadqiqotlarda hamon uchrab turdi. Bu to'g'ri emas, yoki eng kamida, eskirgan fikr. Ayniqsa, istiqolol-gacha chop etilgan ishlarda shunday mulohazalarga duch kelgan hozirgi talabalar bu narsani e'tiborda tutishlari lozim bo'ladi.

O'zbek adabiyoti va tanqidchiligini tarixi endi sho'rodan avvalgi va keyingi davrlarga bo'lib o'rganish eskirdi. XX asr o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixga bir butun adabiy hodisa deb, yaxlit tizim sifatida yondoshav lozim. Taraqqiyot va ichki imkoniyatlarni namoyon eta olishi masalasidan kelib chiqib hamda undagi sifat o'zgarishlarning nazarda tutilgani, shartli ravishda asr mobaynidagi ularning tarixiy yo'lini turli davr va bosqichlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

XX asrning, ayniqsa, birinchi choragida faol ijod etgan, 30-yillarda ham qator yetuk asarlar yaratgan, munavvar fikrlarni ilgari surgan, o'rni kelganda ba'zan yanglishgan, lekin millatga sadoqatini yo'qotmagan Kamiy, Ajziy, Ibrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Majidiy, So'fizoda, Sidqiy-Xondayliqiy, Tavallo, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Abdurahmon Sa'diy, Sotti Husayn va boshqalar faoliyati, merosini, o'rganish, shuningdek, alohida ilmiy tarixiy masalalarni qayta ko'rib chiqish va baholash borasida qator ishlar amalga oshirildi. Bu xususda «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» (B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, S.Ahmedov) kabi darsliklar, dissertatsiyalar yozildi, ilmiy risolalar va to'plamlar, adabiy-tanqidiy maqolalar e'lon qilindi. Bular-ku muhim va

o'rinli ishlar, davr adabiyotini butunicha olib tekshirish, shu yo'l bilan uning tarixiy taraqqiyot jarayonida tutgan o'rnini belgilashga xizmat qiladigan izlanishlar, biroq bular hali o'sha davr adabiy hayotini va adabiy-tanqidiy fikrini o'rganish sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarning hammasi emas.

XX asr boshlaridagi adabiy hayot o'zbek adabiyeti tarixiy taraqqiyotida qanday o'rin tutishi, boshqa bosqichlardagi taraqqiyot jarayonidan qaysi va qanday xususiyatlari bilan farq qilib turishi, jahon xalqlari adabiyotining shu davri bilan qiyosan xolis, ilmiy jihatdan aniq va tiniq ochilsa, ko'p chigal muammolar, jumladan, yozuvchi, shoirlar ijodini bor salobati va salmog'i bilan baholash imkoni tug'ilar, binobarin adabiy tanqidga doir qator muammolarning yechimi ham istiqbolli yo'nalish olgan bo'lar edi.

XX asr o'zbek tanqidchiligidagi adabiy-tanqidiy maqola va taqrizlar dastlab «TVG» («Turkiston viloyatining gazetisi»)da bosilgan deyilsa-da, uning ayrim namunalari XIX asrning oxirlaridan chop etila boshlanganini kuzatish mumkin.

XX asr tongida Behbudiyning «Padarkush» dramasi paydo bo'lishi o'zbek teatr tanqidchiligining tug'ilishiga olib keldi. Mirmuhsin Shermuhammedov, Hoji Muin kabi teatr tanqidchilari yetishib chiqdi. «Osiyo» gazetasida, «Teatr», «Oyina» jurnalida «Teatr nadur», «Turkiston viloyatining gazetisi»da «Teatr foydasi» kabi maqola va taqrizlar bosildi.

Shu vaqtgacha, asosan, tatar, ozarbayjon, rus dramalari haqida ayrim fikrlar bildirib kelingan bo'lsa, endi o'zbek muallifining dramatik asari haqida, o'zbek hayoti va millat muammolari bilan bog'liq ravishda muhim qarashlar aytila boshlandi. Tatar, turk, ozarbayjon, rus adabiyoti va san'atlari ta'sirida o'zbek milliy adabiyotida yo'l taassurotlaridan iborat ocherk, feleton, hikoya, qissa, roman kabi janrlarning ilk namunalari paydo bo'la boshladi. M. Shermuhammedov, Hamza, S.Ayniy, A.Qodiriy, Cho'lpon kabi ijodkorlar bu janrlardagi ilk milliy asarlarning mualliflari edilar. Bu yo'nalishdagi yangiliklar, o'z navbatida, tanqidchilikning ham jonlanishiga faol ta'sir ko'rsatdi.

Ma'rifatparvarlik jadid adabiyotining yetakchi tamoyiliga aylanan ekan, bu xususiyat shakllana boshlagan o'zbek milliy tanqidchiligining ham yetakchi xususiyatlaridan biri sifatida bo'y ko'rsatdi. Tanqidida paydo bo'lgan ayrim demokratik talablar asta-sekin o'zbek milliy adabiyotidagi demokratik yo'nalish shakllanishining faollashuviga ta'sir

eta bordi. Tanqidda davrning mavjud ijtimoiy tartibini tanqid qilish davr adabiyoti, ayniqsa, she'riyatidagi realistik unsurlarning chuqurlashuvida muayyan rol o'ynadi. Davr talabi va undagi tanqid ko'zining ochila borishi bois xalq orzularini har tomonlama aks ettirish adabiyotda asosiy mavzuga aylandi. Ammo davr adabiyotiga to'liq va yetarli baho berishga o'sha zamondagi adabiy tanqidning kuchi yetmas edi. Adabiy tanqid bu vaqtda hali san'at, musiqa, til, madaniyat, ijtimoiyot, tarix muammolari xususidagi mulohazalar doirasida qorishiq holda kechdi.

20-yillarning ikkinchi yarmidan adabiy tanqid ancha jonlandi. 30-yillardan adabiyot butunlay mafkuralasha borgani sari tanqidning ham ko'plab imkoniyatlari qo'ldan ketdi. To'g'ri, bu davrda ham qator go'zal asarlar yaratildi, lekin bundan qat'i nazar «Sovet tuzumi, uning markscha-lenincha mafkurasi, shubhasiz, adabiyotimizning kamoliga katta zarar keltirdi»¹. Tanqidchilik bu davrda katta iztiroblar bilan ayrim haqiqatlarni so'zlashga intilsa-da, asar mohiyatini, badiiyatini to'g'ri ochishga harakat qilsa-da, kundan kunga adabiyotshunoslik ilmida jadid adabiyoti va uning namoyandalari hayoti, ijodi chetlab o'tila boshlandi. Aksar hollarda esa, ularning hayoti, dunyoqarashi, ijodi buzib ko'rsatildi. Partiyaviylik va sinfiylik degan talab tanqid va adabiyot boshiga tushgan balo bo'ldi. Natijada XX asr boshlarigacha o'zbek adabiyoti bilan undan keyingi davrdagi adabiyot o'rtasida katta o'pirlilishlar va uzilish yuzaga keldi; sho'roni ulug'lovchi asarlargina ko'kka ko'tarila boshlandi. Shunday ekan, bu davr adabiyotini, tanqidchiligini barcha murakkabliklari bilan yoritish, barcha ijodkorlarning badiiylik mezonlariga javob beradigan asarlarini chop etish, o'zbek mumtoz adabiyotiga tutashtiruvchi ko'prikni tiklash zarur edi. Xuddi shu boradagi xayrli ishlarni E. Karimov va B. Qosimov kabi adabiyotshunoslar boshlab berdilar.

O'zbek adabiy tanqidining shakllanishida matbuotning roli.

Tanqidning muhim xususiyatlaridan biri uning publitsistik ruhi yoki publitsistika bilan chambarchas aloqasidir. Adabiy jarayon hodisalari va shu kunning ayrim asarlarini tahlil etib, qimmatli fazilatlarini keng ommaga tushuntirib berish asosida uning estetik didini tarbiyalashga mo'ljallangan tanqid o'z o'quvchisiga, asosan, matbuot — gazeta va jurnallar orqali murojaat etadi. V. Belinskiy o'z davridayoq:

Karimov N. Ma'naviy boylikka ehtiyoj // Jahon adabiyoti. 1998. № 1, — 14-bet.

«Tanqid allaqachon bizning ommaning ehtiyoji bo‘lib qoldi. Hech bir jurnal yoki gazeta tanqid va bibliografiya bo‘limisiz yashay olmaydi», deb yozgan edi.

XIX asrning so‘nggi choragi va XX asr boshlarida Turkistonda o‘zbek milliy vaqtli matbuoti tug‘ildi va tez sur‘atlar bilan rivojlana bordi. Vaqtli matbuotning tug‘ilishi, rivoj topishi bilan o‘zimizning dastlabki milliy jurnalistlarimiz yetishib chiqa boshladi. 1883-yildan chop etila boshlangan «Tarjumon» gazetasi jumladan o‘zbek madaniyati, san’ati, adabiyoti bilan birga, tanqidchilikning yuzaga kelishida muhim o‘rin tutadi. Shu o‘rinda «Turkiston viloyati gazetasi»ning yetakchi belgilari haqida to‘xtalinish joizdir. Unda «O‘sh shahri xususidagi risola» haqida bosilgan taqriz, aytish mumminki, shu janrning bizdagi dastlabki namunalaridan biridir.

Gazeta isyonkor o‘zbek shoiri Boborahim Mashrab ijodiyotiga oid maqola bilan matbuot sahifalaridagi o‘zbek adabiyotshunosligi ruknini boshladi. 1907-yildan unda M.Behbudiyning maqola va ocherklari nashr etildi. Gazeta XIX asrning oxirgi choragida o‘zbek demokrat shoirlari Furqat va Sattorxonni, 1903–1910-yillar mobaynida Muqimiy, Nodim, Rojiiy, Ibrat, Behbudiy, Hoji Muin, Vasliy, Ibrohim Davron, M.Shermuhammedov, M.So‘fizoda, Tavalio, A.Zohiriy, A. Qodiriy (Julqunboy) kabi ijodkorlarni to‘pladi. Ularning aksari tanqidchilik bilan ham shug‘ullanib, adabiy jarayonda faollik ko‘rsatdi. Garchi missionerlik maqsadi asosida ish ko‘rsa-da, muharrir N.P.Ostroumov o‘zbek adabiyoti namunalari va ular haqidagi maqolalarga muayyan sahifalar ajratdi. Chunonchi, «Padarkush» dramasi sahnalashtirilishi munosabati bilan 1914-yilda o‘zbek teatriga, sahna asarlariga bag‘ishlangan qator taqrizlar e‘lon qilindi. Bu jihatdan Hoji Muinning «Yangi asar» nomli maqolasi diqqatni tortadi. Unda «Padarkush» fojeasi kitob holda bosmadan chiqqanligi aytilib, asar mazmuni bayon qilinadi. Taqrizda Behbudiy asari o‘zbek dramaturgiyasining qaldirg‘och namunasi sifatida baholanar ekan, uning xalq madaniy, ma‘rifiy tafakkuri rivojiga ahamiyati ta‘kidlanadi.

M. Shermuhammedov ham maqolalarining birida bu fojia haqida ijobiy fikrlar bildiradi, xalqni «Padarkush»ni o‘qishga chorlaydi. «TVG»ning 1914-yil 71-sonida Mirmuhsinning «Sabzazor risolasi» nomli maqolasi e‘lon qilinadi. Unda to‘plam mundariyasi, qatnashgan shoirlar, ularning davr adabiy jarayonida tutgan o‘rni haqida ma‘lumotlar beriladi. Vasliy ijodiga bag‘ishlangan maqola Mirmuhsinning tanqidchilik iste‘dodidan darak beradi. Lekin «TVG» faoliyati

davomida o'zbek adabiyoti, madaniyati, tanqidini yoritishga ahamiyat bersa-da, chor hukumatiga sodiqligini unutmadi. Undagi aksar she'r va maqolalar Ostroumov «buyurtma»si bilan yozilib bosildi.

Bu davrga kelib, Turkistonda bir qator o'zbekcha gazetalar nashr etila boshlandi. «Taraqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Sadoi Turkiston» kabi gazetalarning paydo bo'lishida M. Behbudiyning ustози, jadidchilik harakatining asoschisi I.G'aspirali tashkil etgan «Tarjumon» gazetasining ta'siri beqiyosdir.



MAHMUDXO'JA BEHBUDIY (1875–

1919). Mahmudxo'ja Behbudiy o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining yo'lboshchisi, «mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi» (B. Qosimov), birinchi dramaturg, munaqqid, teatrshunos, noshir va jurnalist, o'tkir publitsist

edi. «Mahmudxo'ja Behbudiy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida birinchi o'rinni olurga loyiq zotdur», deb yozadi Hoji Muin ibn Shukrullo.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida dunyoga keladi. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida Samarqandga kelib qolgan. 1894-yilda otasi vafotidan keyin tog'asi qozi Muhammad Siddiqning tarbiyasida o'sib voyaga yetadi. Arab tilini o'rganadi, maktab, madrasada o'qiydi. 18 yoshidan qozixonada mirzolik qila boshlaydi. Samarqand, Buxoro madrasalarida yaxshigina tahsil ko'rgan yosh Mahmudxo'ja dunyoqarashining shakllanishida jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek G'aspiralining xizmati katta bo'lgan.

1899–1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Bir qancha mamlakatlarda bo'lib, u yerdagi maktablarning o'qitish usullari bilan tanishadi. Bu tanishuv izsiz ketmaydi, uning yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Natijada Behbudiy tashabbusi va g'ayrati bilan 1903-yilda Samarqand

atrofdagi qishloqlarda yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuza boshlaydi. Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealar bilan tinishib borish, millat va Vatanning ahvolidan, hayotidan ogoh bo'lish kerak edi. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyning teatr va matbuot sari boshladi.»Padarkush» dramasi shu tariqa maydonga keldi.

1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug'ullanadi. Uning say'-harakati bilan «Samarqand» gazetasi nashr etildi. Unda «Sayyohi hindi» asarining fors tilidan rus va o'zbek tillariga tarjima qilinganligi, tez orada kitob holda nashrdan chiqishi haqida e'lon-maqola berildi. Maqolada Fitratning bu asarini rus tiliga fors-tojik tilini yaxshi bilgan polkovnik A.Kondratov, ma'rifatparvar shoir va dramaturg Hoji Muin o'zbek tiliga o'g'irgani ma'lum qilinadi.

Shu yilning 20-avgustidan u «Oyina» jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik jurnal bo'lib, asosan, o'zbek tilida, unda ixcham forsiy she'r, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib borilardi. Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg'in shug'ullandi. «Nashriyoti Behbudiy» nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning «Sayyohi hindi» asarini nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo'lga qo'ydi.

«Oyina» jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq- huquqi, tarixi, til-adabiyot masalalari, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo'lgan. Masalan, jurnalning birinchi sonidayoq u «Ikki emas, to'rt til lozim» degan maqola bilan chiqqan edi. Behbudiy adabiy tanqidga katta e'tibor berdi. Bir necha asrluk sukunatdan keyin bu sohaning o'ziga xos xususiyatlarini tayin etib, adabiyotda uning teng huquqligi masalasini o'rta qo'ydi. «Tanqid saralamoqdur» (1914) deb nomlangan jiddiy maqolalaridan biri shu mavzuga bag'ishlangan edi.

«Oyina» jurnalining 32-sonida chiqqan bu maqola tanqidning o'sha davrdagi ahvoli to'g'risida ma'lumot beradi: «O'qilgan kitoblarni ma'nan taftish etib, undagi nuqsonlarni bayon etmak tanqid, taarruz va dushmanlik emas. Bizni Turkistonda yangi maktablar ancha bordur, yangi risolalar xiyla bosilib turibdur, jaridalarda maqola va ash'orlar o'qilib turibdur, ammo hanuz tanqid davriga etushganimiz yo'q».

Behbudiy gazeta va jurnallarning asosiy xususiyati tanqid, ya'ni saralamoqda deb hisoblaydi. «Sarrolar aqchani, tujjorlar matoni saralaganidek, muharrirlar ham umumiy hol va maishatg'a taalluq

nimarsalarni saralaydurki, boshqa soʻz ila «tanqid» atalur». Behbudiy tanqidning mohiyatini juda toʻgʻri tushungan holda, hali biz tanqid davriga yetishganimiz yoʻq deb afsuslanadi, tanqidning shaxsiy va ijtimoiy turlarini koʻrsatadi: «Ammo bir muallim yo mudarris va muharrirni ishidan, shaxsiyatidan xaloyiqgʻa zarar kelsa, andan ham bahs va tanqid yozmoq shaxsiy boʻlmaydur. Tanqid yangi yozilgan kitob, jarida va majallalargʻa-da joriy va nofeʻdur». Shu bilan birga tanqidda aytiladigan haq soʻzni hamma ham tushunavermasaligini quyidagicha ifodalaydi: «Ittifoqo, tanqid shaklinda bir nimarsa yozilsa, bizlarga qatigʻ tegar. Yozganlarimizni buzuqligi va fikrimizni xatoligi, ishimizni noqisligini biror kishi koʻrsatsa, achchigʻimiz kelur... Ammo oʻzimizni maqtab, risola, tahrir va maslakimizni bir kishi tanqid etdimi, chiday olmaymiz, diqqat ila munaqqid soʻzini tinglamaymiz»¹. Behbudiyning bu fikrlari bugungi kunda ham eskirmagan va qimmatini yoʻqotmaganligi yaqqol koʻrinib turibdi.

Vaqtli matbuot milliy adabiyot bilan birga oʻzbek tanqidchiligi rivoji uchun ham oʻziga xos minbarga aylana bordi. Nashr etilgan badiiy va tarjima asarlarga vaqtli matbuot oʻz sahifalarida taqrizlar bera boshladi; bu taqrizlar adabiy tanqidning rivojiga yoʻl ochdi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin: hozirgi adabiy tanqidning eng ommaviy, eng koʻp tarqalgan janrlaridan biri taqrizning tugʻilishi, rivojlanishi bevosita milliy uygʻonish davri bilan bogʻliq. Taqrizlarning gazetada alohida «Tanqid» rukni ostida chop etila boshlagani ham eʻtiborlidir.

Vaqtli matbuot oʻz sahifalarida adabiy tanqid, uning ahamiyati, yozilajak asarlarga ijobiy taʻsiri, umuman, adabiyotning taraqqiyotidagi roli haqida qimmatli ilmiy maqolalar chop eta bordi. Chunonchi, «Sadoi Turkiston» tanqid istilohi va uning adabiyot sohasiga ilk bor kirib kelayotganligi xususida Ahlullo maqolasida berilgan sharhni eslatish mumkin. Maqola muallifi bu davrga kelib, «tanqid» istilohining butunlay yangi maʼno kasb etganligini aytish bilan birga adabiyotning kelgusi taraqqiyoti bevosita vaqtli matbuot va adabiy tanqidga bogʻliqligini qayta-qayta taʻkidlaydi. Xulosa qilib aytganda; 1900–1927-yillardagi oʻzbek vaqtli matbuoti yangi adabiy tanqidning yuzaga kelishi va shakllanishida muhim rol oʻynadi.

Oʻzbek adabiy tanqidchiliginin ilk mustaqil qadamlari. «Butun jamiyatimiz tarixi kabi, adabiyotimiz tarixi kabi tanqidchiliginin tarixi

¹ Behbudiy Mahmudxoʻja. Tanlangan asarlar. — Maʼnaviyat. 1999.

ham bag'oyat murakkab bo'lgan, uning har lahzasi ijodiy fikr bilan dogmatizm, haqiqat bilan yolg'on, vijdoniylik bilan murosasozlik o'rtasidagi kurashga to'la», — deb yozadi O.Sharafiddinov¹. Binobarin, yaratilajak tanqid tarixi ana shu kurashni, rivojlanish yo'llaridagi murakkablikni yumshatmay, bo'yamay, ro'y-rost ko'rsatib bermog'i darkor. Shu mantiqqa suyangan holda asr boshidagi adabiy tanqid ham xolis, tahlil etilishi zarur. Bu silsilada H.Boltaboyevning Fitrat adabiy-tanqidiy qarashlariga bag'ishlangan qator maqolalari va Fitrat ilmiy merosi tadqiq etilgan doktorlik ishi; I. Yoqubov, U. Sultonov, B. Karimov, G'. Umrzoqov, U. Jo'raqulov, R. Tojibev qalamiga mansub «Otajon Hoshimning adabiy-tanqidiy faoliyati», «Cho'lponning adabiy-tanqidiy qarashlari», «Vadud Mahmudning 20-yillar adabiy tanqidchiligidagi o'rni», «G'ozni Yunusning ijodiy yo'li», «Fitratning tadqiqotchilik mahorati», «O'zbek adabiy tanqidi tarixidan» deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyalarida qimmatli kuzatish va xulosalar mavjudligini ta'kidlash o'rinlidir.

Adabiy tanqid XX asr boshlarida muhim yutuqlarga erishgan esada, jiddiy nuqsonlarga ham yo'l qo'ydi. Bu haqda fikr yuritishdan oldin asr boshlarida paydo bo'lgan turli tashkilotlar va ularning adabiyot hamda adabiy tanqidga munosabatini ko'rsatib o'tish joiz. Zero, XX asr 20-yillar adabiy jarayoni uchun mushtarak xususiyatlardan bir-biriga o'xshamagan turli adabiy tashkilotlarning mavjudligi edi. Buning natijasida ijodkorlarni proletar va dehqon yozuvchisi, inqilobiy yozuvchi va «poputchik» (yo'lovchi) kabi toifalarga ajratish odatga aylangan edi. Jumladan, o'sha davrdagi adabiy-tanqidiy maqolalarda G'ayratiy, U. Ismoilov, G'. G'ulom — proletariat yozuvchilari, H.Olimjon, Oydin, Sh.Sulaymon, S.Abdulla- inqilobiy yozuvchi, Elbek va Oybek —«poputchiklar» — deb baholangan edi. Bu davrdagi adabiy tanqid: 1) adabiy tanqidiy janrlar xususidagi izlanishlar; 2) mumtoz merosga munosabat; 3) yangi inson qiyofasini yaratish kabi yo'nalishda ish olib borganini kuzatish mumkin.

Adabiy tanqid shakllanish bosqichida ilk qadamlarini, asosan, taqrizdan boshlashini ta'kidlash joiz. Taqrizlar avval teatr spektakllari xususida, so'ng turli badiiy asarlar yoki, alohida to'plamlar haqida yozila boshladi. Bunga «Za-nay» imzoli muallifning «Xalil farang», «Cho'l bolasi» taxallusli muallifning «Yer yulduzlari», S.Ayniy qissa-

¹ Sharafiddinov O. Adabiyot mangu yashaydi // Jahon adabiyoti. 1998, № 1. 6-bet.

lari, A.Qodiriyning dastlabki romaniga yozilgan taqrizlar misol bo'la oladi.

Ayni chog'da, yaqin o'tmishdagi ijodkorlar va zamondosh adiblar hayoti, faoliyatiga bag'ishlangan maqolalar yuzaga kela boshladi. To'g'rukning «Eski shoirlarimizdan Muqimiy», L.Olimiyning «Unutilgan shoir» (So'fizoda haqidagi) kabi adabiy portret xarakteridagi, Fitratning «Muqaddimatul-adab», Cho'lponning «Tagor va tagorshunoslik», «500-yil» maqolalarida mumtoz badiiy xazina o'z qimmatini yo'qotmagani va uning yangi avlodga xizmat qila oladigan tomonlari, yangi adabiy hodisalarning ayrim xususiyatlari ochib beriladi.

Yozuvchi va tanqidchilarning ko'pi yangi o'zbek adabiyotining dolzarb masalalari haqida o'z mulohazalarini bildirdilar. Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon, A.Sa'diy, Elbek, yoshlardan H.Olimjon, G'.G'ulom, Mirtemir, Olim Sharofiddinov, Botu, Sh.Sulaymon, Sotti Husayn, A.Qahhor, Oltoy, O.Hoshimlar tanqidiy, ilmiy-ma'rifiy ishlari bilan matbuot sahifalarida tez-tez ko'rinib turdilar. Ular o'zbek adabiyotining shakllanishi haqida, o'zbek adabiyotidagi yangi fazilatlar haqida, ba'zan ayrim adabiy muammolar ustida bahs yuritdilar. Shu tariqa, adabiy tanqidning shakllanish jarayonida quyidagi ikki xususiyat ko'rinib turdi:

1. XX asr boshlaridagi o'zbek matbuotida «tanqid» rukni ostida, asosan, turli ijtimoiy-siyosiy, adabiy, axloqiy va diniy mavzudagi ilmiy, publitsistik maqolalar, fel'eton, ocherk, munozara shaklidagi chiqishlar kuzatildi.

2. Yigirmanchi yillarga kelib, matbuotda «Tanqid va adabiy mubohasalar», «Fanniy tekshirishlar», «Matbuot va adabiyot», «Sanoi nafisa olamida» kabi yangi ruknlar ochildi, ularda badiiy to'plamlar, sahna asarlari, darsliklarga oid taqrizlar e'lon qilindi, obzor va muammoli maqolalar bosildi. Adabiy jarayonga, o'zbek adabiyotiga doir doir bu xildagi maqolalar, taqrizlar qatorida qardosh xalqlar adabiyoti, ularning san'atkorlariga oid maqolalar ham yoritila boshladi.

Sharq va G'arb san'ati haqida, go'zallik masalalari xususida, shuningdek, V.Belinskiy, N.Chernishevskiy, V.Plexanov, A. Lunacharskiyning estetik qarashlariga bag'ishlangan maqolalar yozildi. Ayni vaqtda, adabiyot va san'atni siyosat yo'liga bo'ysundirish bilan bog'liq ko'rsatmalarni kengroq yoyish harakati boshlandi.

O'zbek adabiy tanqidi shakllanishida ozarbayjon publitsisti N.Narimonov, tatar adibi O.Ibrohimov ilmiy-nazariy qarashlarining ta'siri sezilarli bo'ldi. O'sha davr o'zbek matbuotida ularning maqolalari

bosilishi ijobiy hodisa edi. Ayni zamonda turli adabiy tur va janrlardagi asarlarni baholash zarurati adabiy-tanqidiy fikrning jonlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonda yashagan professional munaqqidlardan tashqari tanqidchilikda Cho'lpon, Qodiriy, Oybek, H.Olimjon kabi adiblarning faol ishtiroki o'zbek adabiy tanqidi shakllanishida muhim rol o'ynadi. XX asr avvalida adabiy tanqid vujudga kelishi va shakllanishi jarayonida bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki tamoyil ko'zga tashlanadi:

1. Badiiy adabiyot mohiyatini to'g'ri anglash yo'lidagi xolis izlanishlar. Bu silsilaga Fitrat, Cho'lpon, S.Ayniy, V.Mahmud, L.Olimiy, Olim Sharafiddinov, O.Hoshim kabi tanqidchi va adabiyoshunoslar hamda ular qatorida endigina tanqidchilik faoliyatini boshlagan Oybek, H.Yoqubov, Sh.Sulaymon izlanishlari kiradi.

2. Vulgar sotsiologizm asosidagi ochishlar: Bu guruhga mansub tanqidchi va adabiyotshunoslar madaniy merosga nigilistik munosabatda bo'lib, talqin uchun faqat ijtimoiyotni asos qilib oldilar. Zmonaviy adabiy jarayon va asarlar haqida fikr yuritganda, hukmron mafkuraga tayanib, sinfiylik va dunyoqarash masalasini badiiy ijodning bosh mezonlari sifatida noto'g'ri tushundilar. Masalan, tanqidchi S.Husayn o'zbek adabiyotining yosh xodimlarini tarbiyalashda, iste'dodlarni adabiyotga olib kirishda yaxshi tashabbus ko'rsatdi. Ammo A.Qodiriy ijodini vulgar sotsiologizm nuqtayi nazaridan biryoqlama va xato tahlil qildi. Bunday nuqsonlar Miyon Buzruk Solihov, Ziyo Said, Umarjon Ismoilov, Yunus Latif, J.Boybo'latov kabi tanqidchilar ijodida ko'p ko'zga tashlandi.

O'z davrining ziyoli kishilaridan biri, shoir, nosir, pedagog Elbek tanqidchilik sohasida ham samarali qalam tebratdi. Uning tanqid haqidagi qator fikrlari V.Belinskiydan ko'p narsani o'rganganini ko'rsatib turadi. U tanqid deganda, yaratilgan asarlardagi yutuq va kamchiliklarni shaxsiy g'araz yoki maqtovlarsiz, xolislik bilan aytilishi, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatilishni nazarda tutadi. «Tanqid demak, bir ishda yo bir narsada bo'laturg'on kamchiliklarni shul ishning ishlovchilariga ko'rsatib, tuzatdiruv va to'ldiruv uchun aytiladurg'on so'z demakdur»¹.

Ne'mat Hakim esa tanqidning: fanniy (ilmiy), satirik, adabiy-badiiy kabi turlari haqida gapirarkan, ilk bor uning ichki tasnifini amalga oshirishga harakat qiladi va ularning har biriga xos farqli

¹ O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. — T.: 1987. 1-tom, 55-bet.

xususiyatlarini tushuntiradi, shu tariqa adabiy tanqid xususidagi tushunchalarnikengaytiradi. U tanqidchilar orasida A.Sa'diy faoliyatini mu'qullaydi. Qator vulgar sotsiologik xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa-da, A.Sa'diy chindan ham jiddiy masalalar haqida birinchilardan bo'lib fikr yuritadi.

XX asr boshi adabiy tanqidchiligida: a) tanqidchining yozuvchi ijodi haqidagi kuzatishlari; b) yozuvchining badiiy asarlarga bahosi yoki yozuvchi tanqidi; d) tanqidchining tanqidchilar maqolalariga munosabati singari uch yo'nalish ko'zga tashlanadi.

Har uchala yo'nalishdagi tanqidiy ishlar orasida ilmiy, xolis mulohazalar qatorida ba'zan ur-kaltakchilik dalillar noprofessional, noxolis, ba'zida mafkura domiga batamom sho'ng'ib ketgan mulohazalar ham uchraydiki, bunday hol adabiy tanqidning tug'ilishi, shakllanishi va qaror topishi bir tekis emas, og'ir, murakkab, izlanishli, topish va yo'qotishli mashaqqatli yo'ldan borganligini ko'rsatadi. Lekin, eng asosiysi, xolis va adabiyotning mohiyatidan kelib chiqib aytilgan fikrlar, mulohazalar, shu yo'nalishdagi maqolalar tanqidchilikning kelajagi uchun asos bo'ldi.

O'tgan asrning 20-yillaridan e'tiboran adabiyot va adabiy tanqidning keskin sinfiy kurash sharoitida rivojlanishi – ularning muhim xususiyatidir. Bunga Cho'lpon asarlari yuzasidan olib borilgan jiddiy munozaralarni ko'rsatishning o'zi kifoya. Cho'lpon ijodi yuzasidan adabiy jarayondagi munozaralarda asosan ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi. Birinchisida shoir ijodiga xolis, poeziyaning ichki mohiyatidan kelib chiqib to'g'ri baho berildi. Bunga A. Qodiriy, V. Mahmud, A. Alaviya, qisman Z. Bashir va Oybeklarning taqriz, maqolalarini ko'rsatish mumkin.

Ikkinchisiga Ayn, Usmonxon, Miyonbuzruk Solihov, A.Sa'diy va boshqalar yozgan taqriz, maqolalar mansub bo'lib, ularda Cho'lpon ijodiga sof «markscha-lenincha» estetika nuqtayi nazaridan baho berildi, bu yo'nalish shoir qismatiningfojeaga giriftor etilishini tezlashtirishga sabab bo'ldi¹.

Afsuski, o'zbek adabiyoti va tanqidchiligining tug'ilishi hamda shakllanishi jarayonida, aniqrog'i, XX asrning 20–30-yillarida iste'dodlarga shunday yondashish qaror topa boshlagan edi va buning bosh sababchisi tuzum va mafkura edi, albatta. Badiiy ijodda g'oya-

¹ Bu haqda qarang: Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash – T.: Cho'lpon, 1994.

viylik bilan badiiylik bir-biriga uzviy birlashib, uyg'unlashib ketgandagina chinakam san'at asari paydo bo'ladi. Ularning birini ikkinchisidan uzib, yuqori qo'yish, badiiy ijod mohiyatini ijtimoiyot qonuniyatidagina kelib chiqib tushuntirish, talqin etish vulgar sotsiologizmga olib keladi, adabiy-badiiy, ilmiy-estetik tafakkur ravnaqiga putur yetkazadi.



MIYON BUZRUK SOLIHOV(1891–1938). Yangi tipdagi XX asr o'zbek adabiyotshunosligi shakllanishiga katta hissa qo'shgan, bu yo'nalishlarda jiddiy izlanishlar olib borgan olimlardan biri Miyon Buzruk Solihovdir. U o'tgan asrning 20-yillari oxiri va 30-yillar birinchi yarmida san'atshunoslik, folklorshunoslik yo'nalishlarida sermahsul ijodi bilan o'zbek ziyolilari safida mustahkam o'rin egallaydi. U 1891-yilda Toshkent shahrida dunyoga keladi. Miyon Buzruk, avval, eski maktabda, 1910–1915-yillarda esa Degrez ko'chasida joylashgan madrasada tahsil ko'rdi.

Ko'pchilik o'zbek jadid ziyolilarida kuzatilgani kabi 1917-yil voqealari Miyon Buzruk ongida ham o'zgarish yasadi. Shu davrdan e'tiboran u Turkiston milliy ozodlik harakatining faol a'zolaridan biriga aylanadi. Matbuotda ilk bor 1918-yildan ko'rina boshladi. «Izhor ul-haq» jurnalining bir necha sonlarida ijtimoiy-siyosiy ruhdagi turkum maqolalari bilan ishtirok etadi.

1920-yil kuzidan boshlab Afg'oniston, Hindiston, bir qator Arab mamlakatlarida safarda bo'ldi. Qardosh yurtlarning hayoti bilan tanishdi. Istanbul dorulfununida tahsil olib, 1927-yilda tugatdi. Xorijda ta'lim olgan yangi zamon o'zbek farzandlarining dastlabkilaridan biri Miyon Buzruk O'rta Osiyo Davlat universitetida dars beradi. Madaniy qurilish ilmiy tekshirish instituti (NIKS)da katta ilmiy xodim bo'lib ishladi. Toshkent Davlat pedagogika institutida o'qituvchilik ham qiladi. 1936–1937-yillarda Samarqand universiteti, Buxoro Davlat pedagogika institutida mehnat qildi.

Miyon Buzruk pedagogik ishni ilmiy-ijodiy ish bilan qo'shib olib bordi. 20–30-yillardan uning adabiyot, tarix, teatr san'ati, folklor va o'zbek tili muammolariga bag'ishlangan «O'zbek tarixiga oid to'rt

muhim kitob» (1927), «Bedil» (1928), «O‘zbek» (1928), «Adabiy til va istiloh» (1929), «Mehrobdan chayon» (1929), «O‘rta Osiyo va o‘zbek adabiyotiga umumiy qarash» (1930), «So‘fizoda va uning ijodi haqida» (1934), «Ijodiy yo‘limiz haqida» (1934), «O‘zbek teatri tarixi uchun materiallar» (1935) kabi qator maqola va kitoblari e‘lon qilinadi. Uning bu asarlari keyingi bosqichlarda bu masalalar xususida ilmiy tadqiqot olib boruvchilar uchun muhim manba vazifasini o‘taydi.

M.B.Solihov ijodida davr siyosati va mafkurasi ta‘sirining chuqur izlari mavjud ekanini ham unutmash lozim. Uning o‘zbek adabiyotida millatchilik ko‘rinishlari «fosh» etilgan (1933), dinning jamiyatdagi o‘rni xato va biryoqlama talqin qilingan (1934) ishlari ana shunday xarakterda edi.

Buxoro pedagogika institutidan Miyon Buzruk mehnat ta‘tiliga chiqib, oilasi yashayotgan Toshkentga qaytgan choqda 1937-yil 5-avgustda hibsga olinadi. Nohaq millatchilikda ayblanib, otishga hukm qilinadi. Hukm 1938-yil 10-oktabrda ijro etiladi. Qatag‘on qurboni bo‘lgan aksar o‘zbek ziyolilari qatorida Miyon Buzruk ham 1957-yilda oqlanadi.

Miyon Buzruk – dramaturgiya va teatr tadqiqotchisi. Miyon Buzruk ilmiy merosi uning adabiyotshunoslik, san‘atshunoslik, folklorshunoslik kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borganini ko‘rsatadi. Ular ichida o‘zbek mumtoz adabiyotga doir tadqiqotlari muhim o‘rinni egallaydi. Olimning «O‘rta Osiyo va o‘zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash» nomli kitobini ma‘lum ma‘noda bu bordagi dastlabki muxtasar qo‘llanma, deyish mumkin. Unda o‘zbek yozma adabiyotining XII asrdan XX asrgacha kechgan davri muhim muammolar asosida o‘rganilganki, bu masalada u Fitrat maslakdoshi darajasiga ko‘tariladi.

Masalan, deyarli ming yillik o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini «xavos» («elita») va «avom» («ommaviy») qismlarga ajratadi va shu nuqtayi nazardan o‘ziga xos tahlil qiladi.

Miyon Buzruk Solihov o‘zbek jadid adabiyotini o‘rgangan dastlabki olimlarimizdan biridir. U «O‘zbek teatri tarixi uchun materiallar» kitobida jadid dramaturgiyasi va teatri bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etdi. To‘g‘ri, unda davr bilan izohlanuvchi xato va kamchiliklar yo‘q emas. Lekin kitobdagi ilg‘or qarashlar jadidchilik, uning adabiyoti, teatri kabilarga qiziqish tobora ortayotgan hozirgi kunlarda ilmiy-nazariy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Miyon Buzruk «O‘zbek teatri tarixi uchun materiallar» asarida zamonaviy o‘zbek dramatur-

giyasi va teatrining maydonga kelishida ichki omillarni birmuncha nazardan chetda qoldirsa-da, tashqi ta'sirning roli masalasiga alohida e'tibor beradi. Miyon Buzruk tatar, ozarboyjon teatrlarining o'zbek jadid dramaturgiyasi va teatriga ta'siri xususida yozar ekan, uning avvalo, ikki mamlakat o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar bilan bog'liqligiga alohida urg'u beradi. Shuningdek, Miyon Buzruk mazkur asarda «Padarkush» pyesasining sahnaga qo'yilishi masalasiga ham atroflicha to'xtalgan. O'zbekistonda birinchi marta mahalliy kuchlar tarafidan sahnalashtirilgan «Padarkush» pyesasiga Aliasqar Asqarov rejissorlik qilganini aytadi. «Padarkush»ni ilk bor ozarboyjon rejissyori sahnalashtirgani tasodifiy bo'lmagan. O'zbek teatri asoschilarining tatar teatridan ko'ra, ozarboyjon teatriga ko'proq intilgani bejiz emas. Miyon Buzruk asarida Behbudiyning «Samarqandda teatr» nomli maqolasidan bir parcha keltiradi. Unda «Padarkush» pyesasining yozilishi va sahnalashtirilishi zamonaviy o'zbek dramaturgiyasiga katta bir turtki berganini ta'kidlaydi.

Miyon Buzruk «O'zbek teatri tarixi uchun materiallar» asarida Hamza Hakimzoda hayoti va ijodi, xususan, uning dramaturgiyasi bilan bog'liq masalalarini ham yoritadi. Shunisi e'tiborliki, olim Hamzaning 1917-yil Oktabr to'ntarishiga qadar bo'lgan ijodi va faoliyati haqida mulohaza yuritganida, aksar hamzashunoslardan farqli o'laroq, uning jadid shoiri bo'lganligini, shoir 1918-yilga kelib sho'rolar pozitsiyasiga o'ta boshlaganini aytadi. U Hamzaning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» va «Boy ila xizmatchi» dramalarini keng tahlil qilgan. Olim «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» pyesasi haqida, ushbu drama jadidchilik g'oyalari asosida yozilgan, deya mulohaza yuritgan bo'lsa, «Boy ila xizmatchi» tahlilida esa, bu asar yozilgan 1918-yilga kelib, Hamzaning sovetlar pozitsiyasiga o'ta borganligini aytadi.

Miyon Buzruk «O'zbek adabiyotida millatchilik ko'rinishlari» deb nomlangan asarini zamonaviy o'zbek adabiyotini o'rganishga bag'ishladi. Turkiston muxtoriyati yo'q qilingan o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy ahvol yana ham murakkablashdi. Bu esa turli mushkulliklar ichida yashayotgan jadid ziyolilari dunyoqarashini yanada chigallashtirib yubordi. Kelajak haqida o'ylagan orzu-umidlari kun sayin sarobga aylandi. Bu tushkun kayfiyat 20-yillardagi ko'plab asarlarda o'z aksini topdi. Miyon Buzruk Solihov kitobida o'sha yillarda yaratilgan asarlarni ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qildi. Biroq tahlil, davr talabiga ko'ra, vulgar-sotsiologik yo'sinda bo'lib, mafkuraviy yo'nalish oldi.

Ijrat va Cho'lpon singari adiblar ijodi xato baholandi, sho'roviy nuqtayi nazaridan tanqid ostiga olindi. Bunday yondoshuvga munaqqid ayrim boshqa ishlarida ham yo'l qo'ydi. Lekin bugungi adabiyot ilmi uchun uning xatolari emas, yuqorida e'tirof etilgan o'zbek adabiyoti ravnaqi yo'lidagi xizmatlari muhimdir. Xatolar esa, keyingi avlodlarni ogohlikka, hushyorlikka chorlaydi, albatta.

Miyon Buzruk ma'lum darajada tarjimonlik faoliyati bilan ham shug'ullanadi. Jumladan, u Sadridin Ayniyning «Doxunda» romanini tojikchadan o'zbek tiliga o'girib, 1932-yilda O'zdamnashrda chop ettiradi.


Miyon Buzruk Solihov ijodi M.Rahmonov, M.Qodirov, Sh.Rizayev kabi olimlar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan. «Mehrbdan chayon» romani haqidagi maqolasi joriy imloga tadbil qilinib, «O'zAS» gazetasida, so'ngra «O'zbek adabiy tanqidi» antologiyasida bosildi. B.Abdulxayrovning nomzodlik dissertatsiyasi M.B. Solihov hayoti va ijodini ilk bor maxsus o'rganishga bag'ishlandi. Uning «Miyon Buzruk — jadid dramaturgiyasi va teatri tadqiqotchisi» nomli monografiyasi bu ulkan olim haqidagi dastlabki jiddiy ishlardan biridir. Ushbu darslikdagi Miyon Buzruk haqidagi ma'lumotlarda yosh olim ishlaridan foydalanildi. Miyon Buzruk hayoti va ijodini yanada chuqur va atroflicha o'rganish kelgusi vazifalar sirasiga kiradi.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmiga kelib qator o'zbek yosh shoirlarining kitoblari nashr etildi. Ularga adabiy tanqid o'z munosabatini bildirdi. Oltoy «Nafis adabiyotda sog'lom mafkura va sog'lom tanqid kerak» (1928), Sotti Husayn «O'zbek adabiyotining hozirgi muhim masalalari» maqolalarini proletar adabiyoti muammolariga bag'ishladilar. «Ko'rmana» (1929) to'plamiga yozgan so'z boshisida S.Husayn undan o'rin olgan yigirmaga yaqin ijodkorning hammasini proletar yozuvchilari tarzida baholab, subyektivlikka yo'l qo'ydi. Shu tariqa adabiy tanqidni mafkuralashtirish jarayoni tezlasha bordi.

She'riyat, nasr va dramaturgiyada aksini topib kelayotgan yangi inson obrazini tahlil qilishga adabiy tanqid sustroq kirishdi. Bu masalada ham taqriz oldinda bordi. Taqrizchilar M.Shermuhammedov, Ayniy, Elbek, Oybek, H.Olimjon, Ziyo Said singari ijodkorlar va O. Sharafiddinov, O.Hoshim, S.Husayn, A.Sa'diy, Anqaboylar bu davr adabiy jarayonida faollik ko'rsatdilar. Bular orasida ismi sharifi aniqlanmagan, faqat shartli taxallusi bilan maqolalar e'lon qilgan mualliflar ham talaygina. Chunonchi, «Mudbir» taxallusli tanqidchi Hamzaning «Istibdod qurbonlari» dramasi haqida fikr yuritdi, undagi yangi obrazlarni o'sha davrga moslab tahlil qildi.

Adabiy tanqid badiiy adabiyotda zamondosh obrazi qanday yaratilayotganiga, xususan, ularning nuqsoniga alohida e'tibor bera boshladi. 20-yillarning ikkinchi yarmidan obrazlar to'laqonligi qanday, yozuvchilar o'z qahramonlari ichki dunyosi, ruhiyatini tasvirlayotirmidegan savollar qo'yila boshladi. Yuqorida tilga olib o'tilgan «Ko'rmana» to'plamiga kirgan she'r va hikoyalarga yozgan taqrizida S.Husayn «ruhiy-fikriy o'zgarishlarni ham tasvirlashni, san'atkorlikdaso'z ustaligi ham kerakligini» uqtiradiki, masalaning bu jihatlari bugungi kun uchun o'z ahamiyatini yo'qotmagan, deyish mumkin.

Bunday dalillar adabiy tanqidning o'z sifati ustida ham, asar badiiyati ustida ham jiddiy izlana boshlaganini ko'rsatadi. Ya'ni Yer ham o'z o'qi atrofida, ham quyosh atrofida aylanganidek, adabiy tanqid ham — o'z mohiyati, ham badiiy asar mohiyati ustida uyg'un qayg'ura boshladi. Shunday intilishlar tufayli 20-yillar oxiriga kelib, 30-yillar boshlarida ko'pdan-ko'p ilmiy-estetik xatolarga yo'l qo'ygani kuzatilsa-da, adabiy tanqid hayot va adabiyotdan mutlaqo uzilib qolgani yo'q, muayyan yo'nalishlarda u hayot va adabiyotga yaqinlashuv yo'llarini izladi. Birin-ketin «Dilbar-davr qizi», «Baxtlar vodiysi», «Temirchi Jo'ra», «Ko'kan», «Jontemir» kabi zamonaviy asarlar yaratildi. To'g'ri, bu asarlarning o'z davri uchun ijobiy fazilatlari yo'q emas, biroq ulardagi muhim va asosiy kamchiliklar, biryoqlamaliklarni tanqid ko'rsatish va ochib berish darajasiga ko'tarila olmadi. Bu davrda ularga qarshi tanqidiy maqolalar emas, balki, bu asarlarga javob xarakterida asarlar yozishni tavsiya etish an'anasi yuzaga keldi.



OLIM SHARAFIDDINOV (Ayn) (1903—1944) taxallusi bilan nom qozongan bu olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, o'zbek adabiyotshunoslaridan biri sifatida tanqidchilikni rivojlantirishga muhim hissa qo'shdi. 1903-yilda Toshkentda tug'ilgan O.Sharafuddinov yoshligidan adabiyotga qiziqdi. 1925-yildan boshlab adabiy tanqid bilan shug'ullana bordi. Hamisha zamon bilan hamnafas bo'lgan, qaynoq adabiy jarayon ichida yetila borgan O.Sharafiddinovning adabiyotshunoslik va navoiyshunoslik faoliyati 30—40-yillarda, ayniqsa, sermahsul bo'ldi. U

birinchilardan bo'lib, o'rta va oliy o'quv yurtlari uchun darslik va xrestomatiyalar tuzar ekan, o'zbek mumtoz va hozirgi zamon adabiyoti mashhur namoyandalari hayoti va ijodini sinchkovlik bilan o'rgandi, ularning asarlarini mustaqil ravishda tahlil qilib, baholashga jur'at etdi. Hamza, Ayniy, Lohutiy, G'.G'ulom, Oybek, Uyg'un, Yashin, A.Qahhor kabi adiblar hayoti va ijodi haqida berilgan ilk ma'lumotlar, M.Solih, Bobur, Ubaydiy, Majlisiiy, Xoja, Turdi, Mashrab, Huvaydo, Amiriy, Gulxaniy, Mujrim Obid, Munis, Uvaysiy, Nodira, Xiromiy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Feruz, Komil, Zavqiy kabi ijodkorlar haqidagi birinchi adabiy-biografik materiallar shular jumlasidandir.

O. Sharafiddinov ko'p qirrali adabiyotshunos edi. U adabiy tanqidchi sifatida o'zbek adabiyoti masalalari bilan jiddiy shug'ullandi. Uning «Abdulla Qodiriy romani «O'tkan kunlar», «Bahor sevinchlari», «S.Ayniy ijodi va faoliyati», «Kecha va kunduz» romani haqida» kabi maqolalari zamonaviy adabiyotning dolzarb ijodiy masalalarini yoritishga bag'ishlandi. Ayn «O'zbek shoiri Cho'lpon» nomli maqolasida shoirning she'riy shakl, til va ifoda vositalari borasida erishgan ba'zi yutuqlarini ta'kidlagani holda uni millatchi, badbin ziyolilar shoiri deb chiqdi; ko'proq shoir she'rlarining g'oyaviy mazmuniga e'tibor qaratdi. Garchand Cho'lpon ijodiga baho berishda xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa-da, birinchilardan bo'lib, o'zbek adabiyotshunosligiga sotsiologik tahlil yo'sinini olib kirganlar qatorida tilga olinadi.

Zahmatkash, izlanuvchan va talabchan olim o'z faoliyatining eng ko'p qismini Alisher Navoiy hayoti va ijodini tadqiq etishga bag'ishladi. Ulug' shoir hayoti, ijodi haqida keng va yaxlit tasavvur bera oladigan birinchi jiddiy ilmiy-ommabop asar yaratdi (1939). «Alisher Navoiy» (hayoti va ijodi) nomli monografiyasi (1948) I.Sulton tomonidan nashr etildi. O'zbek adabiyotshunosligida navoiyshunoslikning tarkib topishida, uning poydevorini yaratuvchilardan biri Olim Sharafiddinov bo'ldi.

O'zbek adabiy tanqidida janriy izlanishlarga munosabat. XX asr boshlarida o'zbek adabiyoti, adabiy jarayonga yangi janriy izlanishlar bilan birga kirib keldi. Turli adabiy tashkilotlar bir-biriga o'xshamagan estetik dasturlarni yarata boshladi. Partiyaning, sovet davlatining adabiyotga farmoyishlari hali urfga kirmagan edi. Poetik ijod hali ustuvor an'analar oqimida kechar, shoirlar an'anaviy aruzga ko'proq murojaat etar, biroq ularning barchasidan qat'i nazar «inqilobiy» ruhni berish yangi vazn, yangi shakl, yangi san'atlarni izlashni ehtiyojga

aylantirayotgani tobora chuqurroq sezilib bormoqda edi. Ana shu vaziyat xalq ijodiga xos barmoq va sarbast vaznlarida jangovor shijoatkorlikka da'vat etuvchi asarlar (marshlar, qo'shiqlar, ashulalar) yaratishni taqozo eta boshladi. Bu o'rinda ta'sir masalasi ham chetda qolmadi, albatta. V. Mayakovskiyni milliy jumhuriyatlarda tashviq qilish kuchaydi. Nozim Hikmat ta'sirida o'zbek she'riyati shakliga qator yangiliklar olib kirdilar. Adabiy jarayondagi bunday izlanishlar tanqid e'tiboridan chetda qolmadi. Abdulla Alaviya (Arabnejad) «Bizda shakl masalasi va Nozim Hikmat» maqolasida xuddi shu masalalarga to'xtaladi: «Aruz va hijo vazni» ohista oqar vaznlar bo'lib, yangi hayotdagi sur'at va harakatni bera olishga qodir emasdur», – deb yozarkan, sarbast she'rlarning afzalligini ta'kidlaydi. Homil Yoqubov esa «Oybek va uning she'rlari» maqolasida shoirning ijodiy o'sayotganligini tahlil qilib, uning e'tiborini yangi shakllarga qaratadi.

Mirtemir erkin she'rni «nozimona she'r» deb ataydi. Erkin she'r ancha murakkab san'at bo'lib, uni o'zlashtirish oson kechmadi. Aslida o'zbek she'riyatini yangi ohang va vaznga ko'chirish harakati Fitrat va Cho'lpon ijodida XX asrning avvalidayoq boshlangan bo'lib, 30-yillardagi adabiyotning mafkuraviylasha borishi sharoitida yangicha mohiyat kasb eta bordi. Shu zaylda sarbast G'.G'ulomning «Dinamo», H. Olimjonning «Ko'klam», Shokir Sulaymonning «Erk kuylari», Mirtemirning «Shu'lalar qo'ynida» kabi ilk she'riy to'plamlarida dastlab o'zbek she'riyatida inqilob va sho'ro tuzumini alqovchi mazmunda namoyon bo'la bordi. Mirtemir sochma she'rlar yozishga jazm etdi. Hatto «Sochma shoirning tuyg'u va fikrlari to'lqinlanib, toshib ketgan vaqtda yoziladi», deya unga muhabbatini izhor ham etdi. Qolaversa, o'sha davrda sochma minbar adabiyoti deb ham ataldi. Lekin sochma faqat sho'roni ulug'lovchi yoxud minbar she'riyatigina bo'lib qolmadi. Bu shaklda pinhona erk va ozodlik g'oyalari kuylangan (Mirtemir) asarlar ham yaratildi. Lekin tanqidchilik bu maqsadni yetarlicha ilg'ay bilmadi.

Bu davrda adabiy tanqid nasr rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. XX asr boshlarida A.Qodiriy, A.Fitrat, S.Ayniy, 20–30-yillarda esa H.Shams, Zarif Bashir, Ziyo Said, G'.G'ulom, Sh.Sulaymon, G'ayratiy, H.Olimjon, S. Abdulla, Cho'lpon hikoyalar yozdi. A. Sa'diy hikoyachilikda Abdulla Qodiriy ijodi sermahsulligini ta'kidlaydi. U tahlil jarayonida bu janrdagi xosliklar tabiatiga to'xtaladi.

Abdurauf Fitrat «Adabiyot qoidalari» darsligida badiiy adabiyotning nazariy muammolarini yoritdi. Olim Sharafiddinov (Ayn), Sotti

Husayn maqolalarida jamoatchilik e'tiborini hikoya, povest, roman janrlarining xos xususiyatlariga tortdilar.

O'zbek adabiyotida roman janrining paydo bo'lishi Hamza, Mirmuhsin Shermuhammedov, Abdulla Qodiriy nomlari bilan bog'liq. Roman nazariyasiga oid dastlabki ilmiy-nazariy mulohazalar esa, A.Sa'diyning «Amaliy ham nazariy adabiyot darslari» va Fitratning «Adabiyot qoidalari» asarlarida ilgari surildi. S.Husayn «O'tkan kunlar»ni tahlil qilish jarayonida romanning boshqa adabiy janrlardan farqini tushuntirishga harakat qilsa-da, g'oyaviy-badiiy jihatdan asarni tamomila biryoqlama va xato baholadi.

Miyon Buzruk Solihov o'zbek adabiyotida romanchilik tajribasi bo'lmaganini alohida ta'kidlab, «O'tkan kunlar»ni original asar deb hisoblaydi. Lekin asarning janrovij mansubiyatini bu tarzda to'g'ri baholash ushbu muallifni romanning sinfiy, mafkuraviy jihatdan bir qator yanglish fikrlar aytishdan saqlab qololmadi. Aslida chindan ham «O'tkan kunlar» o'zbek adabiyotida, Yevropada tushunilganidek, haqiqiy realistik roman bunyodga kelganining dalili edi. Adabiy tanqidda shu haqiqat tasdiq topishining o'ziyoq uning nazariy-estetik jihatdan balog'at yo'nalishida ekanini ko'rsatadi.

Dramaturgiyaning tug'ilishi va rivoji masalasiga adabiy tanqid jiddiy e'tibor berdi. XX asr boshlaridagi o'zbek tanqidchiligi, eng avvalo, shu tur va janrdagi asarlarni tahlil etish asnosida shakllanib bordi. Dramaturgiya tug'ilishining ilk bosqichida «og'zaki tanqid» (jonli tanqidiy amaliyot) ham muhim rol o'ynadi. U ko'pincha tashkiliy shakllarda, aytaylik, u yoki bu asarni o'qib muhokama etish va repertuarni komissiyalar orqali qabul qilish jarayonida ro'yobga chiqdi. Ammo e'lon qilingan maqola va taqrizlarning ko'pi dramatik asardan ko'ra teatr san'ati masalalari va aktor mahorati tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ular orasida spektaklning maqsad-mazmuniga asosiy e'tibor qaratilib, dramatik asarning badiiy qimmatini, chuqur ochib beradiganlari hali yetarli emas edi. Jumladan, «Ch.O'g'li» imzoli tanqidchi: «Nafis teatr adabiyotiga ega bo'lmasak, teatrdan yaxshi foydalana olmaymiz», deb yozadi va boshqa bir maqolada opera, balet san'ati to'g'risida mulohazalarini bildiradi.

Teatr tanqidchiligi o'zbek teatrining yuksalishida katta rol o'ynadi. 20-yillar oxiri 30-yillar boshida Fitrat, Cho'lpon, Ziyoy Said kabilar faollik ko'rsatdilar. Tanqidchilik o'z vaqtida ularning asarlarini tabriklash bilan birga mavjud nuqsonlarini aniqlashga harakat qildi va ijodlariga muayyan ta'sir ko'rsata bildi.

Kitoblar, ilmiy to'plamlar, tadqiqotlarni nashr etish imkoniyatlari ham yetilmagan bir sharoitda, matbuot sahifalaridagi adabiy tanqid ma'lum muddat va ma'lum ma'noda adabiyotshunoslik muammolari hamda adabiyot tarixi masalalarini o'rganish, yoritishni ham o'z zimmasiga oldi. Ayn, Ayniy, Fitrat, V.Mahmud, A.Majidiy, L.Olimiyning adabiyot tarixi muammolariga, Yassaviy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Turdi, Muqimiy, Nodira ijodiga bag'ishlangan maqolalari shunday xarakterga ega edi.

O'zbek adabiyotshunosligida mumtoz merosga munosabatda ikki yo'nalish mavjud edi: 1) vulgar sotsiologik ruhdagi hamda mumtoz merosni inkor etuvchi qarashlar bo'lib, bu xususiyat J. Boybo'latov, Oltoy, Z. Bashir, Z. Said, Yu. Latif singari adabiyotchilar chiqishlarida ko'p uchraydi; 2) ma'rifiy-ilmiy yo'nalish bo'lib, — bu tamoyil Fitrat, V. Mahmud, Oybek, A. Majidiy, Ayn, S. Ayniy, L. Olimiy, O.Hoshim, Botu kabi adib va adabiyotshunoslar ijodiga xos edi.

Ilmiy izlanishlar yo'lidan borgan Fitrat, V.Mahmud, A.Sa'diy, A.Majidiy, To'g'ul, O.Hoshim, L.Olimiy kabi tanqidchilarning maqolalari, adabiyotshunoslikka oid tekshirishlari merosga to'g'ri yondashishga intilishning adabiy tanqididagi namunalari edi. Bu jihatdan L. Olimiyning «Nodira», A.Majidiyning «Shoir Miriy» kabi maqolalari ayrica e'tiborga loyiq.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, V.I. Leninning har bir millatda ikki xil adabiyot: progressiv va reaksion adabiyot bo'ladi, degan xato nazariyasi, nainki, o'tgan asrning 20–30- yillari, balki, umuman, XX asrning deyarli 90-yillarigacha adabiyotshunoslik va tanqid ilmi, umuman, madaniyatimiz tarixida jiddiy ravishda salbiy rol o'ynadi. Shunga qaramay, bu adib va olimlarimiz milliy merosimizni o'rganish ishida har qanday sharoitlarda ham millatga sadoqat namunalari ko'rsatdilar.

Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, bu masaladagi zamonning juda kuchli tazyiqlariga qaramay, 20-yillardayoq ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ijodiy merosini to'plash, o'rganish, nashr etish ishlari boshlab yuborildi. Bu ishga ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, rus va boshqa xalqlarning adabiyotshunoslari ham munosib hissa qo'sha boshladilar. Jumladan, Abdurauf Fitrat ilk bor shoirning forsiy ijodiga e'tiborni qaratib, «Navoiyning forsiy shoirlig'i va uning forsiy devoni to'g'risida» maqolasini yaratgan bo'lsa, «Muhokamatul-lug'atayn»ning turkmancha tarjimasini 1925-yilda «Amir Alisher Navoiy» nomi ostida Turkmanistonda nashr etildi. Kitob kirish so'z, shoirning qisqacha tarjimai holi va izohlar bilan ta'minlandi.

1926-yili Leningradda rus tilida bosilib chiqqan «Mir-Ali-Shir» kitobi sharqshunoslikda sezilarli iz qoldirdi. Undan A.N. Samoylovich, Ye.E. Bertels, V.V. Bartold kabi atoqli olimlarning maqolalari o‘rin oldi.

«Chig‘atoy gurungi» tashkiloti madaniy meros bilan bir qatorda zamonaviy adabiyotni o‘rganish ishiga tashkiliy va amaliy jihatdan katta hissa qo‘shdi. «Qizil qalam» tashkiloti ham adabiy merosni va zamonaviy adabiy jarayonni yoritishda jiddiy ishlarni amalga oshirdi.

Qisqasi, Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Muqimiy va boshqa ijodkorlarni «hozirgi zamon kemasidan» uloqtirib tashlamoqchi bo‘lgan manfur siyosat o‘z maqsadini to‘la amalga oshira olmadi.

Xulosa shuki, XX asr boshlaridagi yosh adabiy tanqid adabiy-tarixiy jarayonda faol rol o‘ynadi. Yillar o‘tgani sari saflarini mustahkamlab, o‘z ilmiy-estetik qarashlarini chiniqtirib bordi. Adabiyot rivojiga oid ko‘pgina masalalarni ko‘tardi, adabiy hodisalar, badiiy asarlar haqida ba‘zan noto‘g‘ri xulosalar chiqarsa-da, lekin asosiy hollarda doimo to‘g‘ri baho berishga intildi. Sho‘roviy tanqidchilik doirasida ham o‘zbek tanqidchiligi umumbashariy mezonlarga mos keluvchi ilmiy-estetik fikrlarni izlab, imkoni doirasida uni yuzaga chiqardi. Va bu intilishlar besamara ketgani yo‘q. Istiqlol davri arafalari va Mustaqillik davriga kelib yaratilgan erkin sharoitda ular o‘zlarining yangi-yangi natijalarini bera boshladi.

Tanqidchilik va adabiyotshunoslikning mustaqil namoyon bo‘lishi yoki badiiy ijod turi sifatida ajralib, o‘z qonun va tamoyillari asosida rivojlanish jarayoniga kirishi – o‘sha davr madaniy hayotining, ma‘naviyat va ma‘rifatining katta yutug‘i bo‘ldi. Ayni choqda, tanqidchilik bilan shug‘ullangan yozuvchilar – Fitrat, Cho‘lpon, A.Qodiriy, Oybek, G‘.G‘ulom, M. Shayxzoda, H. Olimjonlarning maqolalari, taqrizlari ham adabiy tanqid saviyasi o‘sishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Badiiy asar tahlilida shakl va mazmun birligiga e‘tibor kuchaya boshladi.

Avvallari muayyan asar mavzui va sujetigina diqqat markaziga olinib, badiiy shakl ko‘pincha e‘tibordan chetda qolgan bo‘lsa, endi tanqidiy asarlarning ko‘pchiligida g‘oyaviy mazmun qatorida kompozitsiya, uslub, tasviriy vositalar, obraz va xarakter birlikda baholanadigan bo‘ldi. Badiiy til masalalariga ham alohida e‘tibor berildi.

Adabiy tanqid tafakkur, ruhiyat, madaniyat va ma‘naviyatni shakllantiruvchi vositalardan biri bo‘lib qoldi. Maqola va taqrizlar xalq va omma qiziqishini uyg‘otishga noil bo‘la bordi. Adabiy

tanqidning badiiy asar yaratilishidagi o'zni sezildi. U ijodkorga muxolif emas, hamkor ekani tushunib yetildi.



ABDURAHMON SA'DIY (1889–1956) o'zbek, tatar ma'naviy-madaniy aloqalari hamda adabiy hamkorligi tarixida alohida o'rin tutuvchi adabiyotshunosdir. U 1889-yil 14-aprelda Ufa yaqinida mulla-mudarris oilasida tug'ildi. Boshlang'ich ta'limni otasi-ning maktabida oldi. 1902–1905-yillarda Orenburgdagi Muhammadiya madrasasida o'qidi. 1921-yildan Toshkentga keladi va umrining oxirigacha Toshkent, Samarqand, Buxoro oliy o'quv yurtlarida dars berdi, o'zbek adabiyoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Samarali ilmiy va pedagogik

faoliyati uchun unga 30-yillar so'nggida dissertatsiya yoqlamay, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi va professorlik unvoni berilgan.

Abdurahmon Sa'diy, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o'rganishda alohida g'ayrat ko'rsatdi. 1949-yilda Ye. Bertels rahbarligida «Alisher Navoiy ijodi – o'zbek klassik adabiyotining oliy bosqichi» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Olim ilmiy qiziqishlari doirasi g'oyat kengdir. U tatar va o'zbek adabiyotlari, pedagogika, tilshunoslik, adabiyot o'qitish metodikasi, tasavvuf, adabiy aloqalar va boshqa muammolarga oid 130 ga yaqin asar yozdi.

A. Sa'diy 20-yillar adabiy jarayonida faol qatnashgan munaziqdirlardan biridir. U adabiy tanqid mohiyati xususida jiddiy izlanishlar olib bordi. «Tanqid, – deb yozgandi u o'sha yillarda, – agar bir fikr ikkinchi bir fikr ishchanligining yetishgan va yetishmagan yoqlarini ochmoq ham ajratmoq, bularga bir qiymat qo'yimoq tomoniga jo'natilsa, bu vaqtda tanqid deb atalgan bir fikriy ishchanlik tug'ilgan bo'ladi. Tanqid fikr ishchanligining qiyin bo'lg'onlaridan biridir»¹.

A. Sa'diy falsafiy, ilmiy, ijtimoiy qarashlarni ifodalovchi har qanday fan va unga oid asarlar bo'lishidan qat'i nazar, ularni chin ma'noda tanqid qilish uchun maxsus tanqidchilik iste'dodi kerakligini ta'kidlaydi: «San'atkorona va she'riy bir asarning tanqidi uchun, ayniqsa,

¹ O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. 1-tom, 56-bet.

san'at va adabiyot tarixidan ...yaxshi xabarlangan bo'lmog'i tegishdir». A.Sa'diy tanqid va uning jamiyatdagi burchi haqida to'xtalarkan, fikr ifodasining bir qadar notekisligidan qat'i nazar, muhim ilmiy mulohazalarni o'rtaga tashlay oldi. Muallif tanqid oson hunar emasligini ta'kidlarkan, tanqidchi zimmasida turgan mas'uliyatni alohida ko'rsatadi. Tanqidchi nozik adabiy did va tuyg'u egasi bo'lishidan tashqari adabiyot tarixini, nazariyasini, tadqiqot usulini bilishi darkor. Uning bu fikrlarida V.Belinskiy ta'siri sezilib turadi.

Adabiyotning to'ntarishdan so'ng bosib o'tgan dastlabki yillar yo'lini ko'zdan kechirgan A.Sa'diy Hamza va A.Qodiriylar haqida to'g'ri fikr-mulohazalar bildirdi. To'g'ri, u davr kishisi sifatida Hamzaning inqilobiy, sinfiy ruhdagi faoliyatiga urg'u berdi. Lekin Hamza haqidagi ayrim fikrlari hamon eskirmagani bilan e'tiborni tortadi: «O'zida yurak shoiri bo'lish, muzikachilik va turli kuylar ixtiro etish, dramaturglik ham artistlik yig'ilgan bir shaxsni ham biz hali yolg'iz Hakimzoda o'rtoqda ko'ramiz». A.Sa'diyning A.Qodiriy haqidagi mulohazalari e'tiborga loyiq. U Abdulla Qodiriy hikoyalar, ayniqsa, hajviy hikoyalar ustasi bo'lgan yosh va kuchli adib sifatida xarakterlaydi. O'zbek adabiyotining yuksalishida katta xizmat qilgan, bu «talant «Inqilob» jurnalida bosilgan «O'tkan kunlar» romani bilan o'zbek adabiyotida» roman janriga asos soldi, — deb yozdi.

Shu maqolada — Botu «She'riy adabiyotda hamon ochilib, gullab turgan, o'ziga ko'p umid bog'latgan kuchli talant», — deb ta'riflasi, Elbek ishchi-dehqon turmushidan, qishloq bolalari hayotidan yozadigan sermahsul shoir ekani aytiladi.

20-yillar tanqidchiligida jiddiy munozara uyg'otgan muammolardan biri futurizm edi. U haqdagi dastlabki mulohazalar A.Sa'diy tomonidan aytiladi. U hozirgi o'zbek adabiyotida futurizm oqim sifatida yo'q degan fikrni o'rtaga tashlaydi. O'zini tanqid qiluvchilarga qarshi «Yuzim ochiq, niqoblantirmangiz» nomli e'tiroz maqolasida futurizm uchun muayyan iqtisodiy-texnikaviy sharoitlar talab qilinajagi, uning o'ziga xos tili, uslubi bo'lishi lozimligini ta'kidlagan tanqidchi badiiy adabiyotning shakliy o'zgarishlari asosida ham ijtimoiy iqtisodiy asoslar yotadi deb tushunganini ko'rsatadi.

San'at va adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o'rni masalalariga deyarli har bir maqolasida alohida o'rin ajratgan A.Sa'diy «Go'zal san'at dunyosida» nomli maqolasida yozadi: «...Go'zallik haqidagi ong va tasavvurlar zamonlar o'tishi bilan turli o'zgarishlarga qarab o'zgaraturg'on bir narsadir. Go'zallik o'z-o'zicha bir ravishda borliqqa

molik o'lg'on tamom mustaqil bir narsa emas, balki bizning shuurimizning va yoki... tushuncha va hukmlarimizning natijasidan iboratdir»¹.

San'at asarlari, uning fikricha, «zamonning, muhitning, muhitdagi urf va odatning, fikr va tuyg'ularning... ruhiy va ijtimoiy hollarning ravishiga muvofiq» tarzda zuhur etadi va rivojlanadi. Davrning iqtisodiy va ijtimoiy asoslari «o'zgarishi bilan go'zal san'at asarlari ham o'zgaradir». Yangi tug'ilgan san'at asarlari yangi davr ruhini, yangi fikrlarni ifodalaydi.

«Go'zal san'at dunyosida» maqolasining e'tiborga loyiq jihati shundaki, muallif unda go'zallik haqidagi tasavvur qotib qolgan narsa emasligini, san'at kishilikning tarixiy taraqqiyot jarayonini aks ettirajagini to'g'ri tushunadi va tushuntiradi. San'at ijtimoiy-iqtisodiy hayotdan sirtida, mustaqil yashamaydi, uning tarixiy taraqqiyoti tashqi o'zgarishlar bilan bog'liq; jamiyatning iqtisodiy tizimidagi evolutsiyadan tortib uning moddiy ishlab chiqarishi va ijtimoiy ongda ro'y beradigan evolutsiyagacha — barchasi san'atda o'z aksini topadi. U san'atning aniq tarixiy davr bilan bog'liqligini aytish bilan birga uning estetik-ruhiy mohiyatini ham unutmaydi. Lekin mafkura masalasini ulug'lash bilan biryoqlamalik va cheklanishga yo'l qo'yadi.

A.Sa'diy badiiy adabiyot va san'atning ijtimoiy mohiyatini haddan ziyod ulug'lagan holda, ularning ichki qonuniyatlariga, bu qonuniyatlar ichida san'atkor shaxsining alohida rolga yetarlicha e'tibor bermagani, bu vaqtda uning marksistik ijtimoiyot va sotsiologik tadqiq metodi asosida ish tutganini ko'rsatadi.

Adabiyot ilmi 20-yillarda yoq janrlar masalasiga e'tibor bera boshladi. Abdurauf Fitrat, Zarif Bashir, Olim Sharafiddinov, Sotti Husayn kabi olimlar bilan bir qatorda Abdurahmon Sa'diy ham janrlar xususida qator qarashlarni ilgari surdi. «Amaliy ham nazariy adabiyot darslari» (o'rta maktablar uchun darslik, 1924.) kitobida ilk bor bu masalaning amaliy va nazariy jihatlarini yoritdi.

Oybek shu vaqtda yozgan taqrizlaridan birida A.Sa'diyning bu darsligiga munosabat bildirib, Fitratning «Adabiyot qoidalari» asarini jiddiy tanqid qildi, lekin ayni vaqtda «hozirgi sust davrda» ularni voqea bo'larli yangiliklar sifatida e'tirof etdi. Chindan ham shu darslik tufayli A.Sa'diy davr o'zbek adabiyoti nazariyotchilarining eng peshqadam vakillaridan biri sifatida ko'rsatdi. Sa'diy yuqoridagi asarida

¹ O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. 1-tom. 67-tom.

tur va janrlarni bevosita adabiy jarayon bilan bog'lab, talqin etishga urinishi, uning masalaga mustaqil yondashuvga harakat qilgani va muammolarni erkin yechuvga intilganini ko'rsatadi. Masalan, hikoya janriga tavsif bergach, o'z fikrlarini uning namunalari orqali dalillashga urinadi. A. Qodiriyning «Uloqda», «Otam va bolshevik», Cho'lponning «Oydin kechalarda», «Yo'l esdaligi» va nihoyat, Fitratning «Qiyomat»ini tahlilga tortadi. A.Sa'diy fikricha, bu hikoyalar janrning yetakchi xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

A. Sa'diy tushunchasida, «povest roman darajasida kattalik ololmagan uzun hikoya»dir. U Elbekning «Qo'shchi Turg'un» asarini shu janrga kiritadi. Fitrat ham uni «uzun hikoya» deb atagan edi. Biroq «uzun hikoya» ta'biri janr tabiatini aniq ifodalay olmagan bois muomalada mustahkam saqlanib qola bilmadi. Keyinroq «Roman nima?», u qanday bo'lishi kerak, degan masala atrofida matbuotda fikr qo'zg'alganda A.Sa'diy bu janr xususiyatlarini o'z davriga nisbatan anchagina aniq va to'g'ri ko'rsatadi. U, avvalo, roman hajmiga e'tibor berdi.

Uni uzoq va davomli hikoya qilishga mo'ljallangan, ko'lami keng, voqealar tizimi tasviri ko'p planlilik asosiga qurilgan katta epik asar, deb baholadi. Unda, ayniqsa, «chin turmush» — realistik hayot bo'lishi lozimligiga urg'u berdi.

A.Sa'diy romanlarni mavzu-mundarijasiga ko'ra: realistik, fantastik, psixologik, tarixiy tiplarga bo'ladi. Bu tasnif Sa'diydan so'ng o'zbek tanqidchiligida yanada boyitildi va rivojlantirildi.

A.Sa'diy o'zbek tanqidchiligini janrlar jihatidan boyitishga katta hissa qo'shgan munaqqid. U o'zbek tanqidchiligida, xususan, obzor maqola asoschilaridan biridir. «O'zbek yosh shoirlari», «Olti yil ichida o'zbek she'riy adabiyoti» kabi maqolalari ana shu yo'nalishdagi tanqid janrining dastlabki namunalari sanaladi.

Uning «Oktabr o'zgarishi va o'zbek adabiyoti» maqolasi tanqidning hayotga va adabiyotga yuz o'g'irganini ko'rsatadi. «O'zbek yosh shoirlari», «O'zbek adabiy ijodi maydonida harakat» nomli maqolalari davr adabiy jarayoniga ta'sir ko'rsatdi. To'g'ri, ularda adabiyot ravnaqini ijtimoiy iqtisodiy hayot bilan bog'lash, dunyoqarash va g'oya kulti, mafkurabozlik kabi qator kamchiliklar, qo'mondonbozlik kabi illatlar ko'zga tashlansa-da, bu masalalar o'z davri uchun adabiy jarayonni, undagi yetakchi tamoyillarni, faol ijod etayotgan shoir va yozuvchi asarlarini atroflicha tahlil etish, yutuq, kamchiliklarini ko'rsatish, yangiliklarni aniqlash va ommalashtirish jihatidan qimmatli edi.

A.Sa'diy turk va o'zbek adabiyoti orasidagi aloqadorlikni Cho'lpon she'rlari misolida ko'rsatgan holda: «Garchi ruh va ohang e'tibori bilan usmonlilar ta'siri ostida bo'lsa ham, uning (ya'ni Cho'lponning) o'ziga xos maxsus til-uslub bor», — deb to'g'ri izohlagan edi.

U Vadud Mahmudning «Turkiston» gazetasidagi tanqidiy maqolalariga munosabat bildirarkan: «O'zbek yoshlari o'rtasidan adabiy tanqid qalamlari chiqa boshlag'onini» ko'rsatadi. Bu ham adabiyot bobida 6 yilning ijobiy hollari tomoniga yozila oladir», degan fikrni aytadi.

Uningcha, adabiy tanqid faqat kundalik adabiy jarayon bilan chegaralanmay, adabiyotning muhim nazariy masalalarini ham o'rtaga qo'yib, ularni yechishga harakat qilmog'i lozim.

«Tanqid xususida, umuman adabiyot nazariyasi haqida so'z borganda, birinchi navbatda, bizning ko'z oldimizga A.Sa'diy keladi»¹, — deb yozadi urushgacha bo'lgan davr haqida R.Majidiy. U «Olti yillik o'zbek adabiyotiga bir nazar» obzor maqolasida to'ntarishdan keyingi adabiyotning olti yillik yo'li mobaynidagi yetakchi tamoyillarni diqqat bilan ko'zdan kechiradi.

Hamza, A.Qodiriy, Cho'lpon, Botu, Elbek ijodining yutuq va kamchiliklari haqida fikr yuritadi. Elbek haqida fikr yurita turib, uni qishloq bolalari hayotidan yozadigan sermahsul shoir deb ataydi. Adabiyot maydonidagi yagona masalchi ham hozircha faqat u, lekin «lirik she'rlar yozishdagi kuchi hali uncha yuqorilab keta olmagani» deb ta'kidlaydi.

Munaqqid «O'zbekiston yosh shoirlari» maqolasida millatparvar yozuvchi va shoirlar ijodiga keng o'rin beradi: «Behbudiy o'zbek adabiyotining otasi, birinchi muharriri, Fitrat yosh o'zbek adabiyotining bosh olimi...

Fitratning yosh o'zbek adabiyotining bosh omili bo'lib sanalarturgani uning tili va uslubida ko'rinadi. Uning yosh o'zbek adabiyotining tug'ilishi yo'lida eng katta xizmati til va uslubda, chig'atoy adabiyoti ta'siriga qattiq sad chekmaganligi», deb hisoblaydi. Ko'rinadiki, A.Sa'diy obzor maqolaning davr uchun qator yetakchi janriy xususiyatlarini to'g'ri belgilashga intiladi.

Mumtoz o'zbek adabiyoti namunalari e'lon qilish, ayrim yozuvchilar ijodining yangi qirralarini yoritish yoki adabiyotning ayrim janrlari taraqqiyotidagi o'ziga xosliklarga baho berish borasida

¹ *Rahmat Majidiy. Iste'dod va burch. T., 1974, 49-bet.*

Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud, Otajon Hoshim, Sotti Husayn, Olim Sharafiddinovlar qatorida Abdurahmon Sa'diy ham samarali ishlarni amalga oshirdi.

Lekin hozirgi milliy istiqlol mafkurasi nuqtayi nazaridan qaralsa, A.Sa'diy ayrim ishlarida qator xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilganini ta'kidlash lozim. Chunonchi, «Adabiyot masalalari va ulug' oktabrdan keyingi o'zbek adabiyoti» kitobi va boshqa qator maqolalarida proletariat adabiyoti va uning metodiga oid masalalarni tushunishda vulgar sotsiologlar izidan bordi, partiviy prinsipni bosh mezon deb tushundi.

Sotsializm ideyalarini tashuvchi adabiyot («proletar adabiyoti») proletariat diktaturasi samarasidir degan fikrlarni olg'a suradiki, bunday qarashlar davr sinovlariga dosh bera olmadi, tarixning muayyan bosqichidagi xato izlanishlar sifatida qolib ketdi.

A.Sa'diyning H.Olimjon ijodiga munosabatida, ayniqsa, vulgar sotsiologizm kasaliga muhtalo bo'lgani ko'zga yaqqol tashlanadi. Uning bu fikrlariga Oybek o'sha vaqtdayoq jiddiy e'tiroz bildirgan edi. H.Olimjonning to'rt to'plamini tahlil qilgan A.Sa'diy shoir dunyoqarashini, badiiyatidagi ayrim nuqtalarni tanqid qila turib, umuman, uning ijodi, asarlari haqida yanglish, biryoqlama xulosa chiqargan edi.

Bu qarashlarga munosabat bildirgan Oybek yozadi: «Tanqidchi o'z maqolasida H.Olimjon she'rlarida umuman burjuaziya romantizmi va idealizmi ta'siri»ni ko'radi. Haqiqatan «Ko'klam» va «Olov sochlar»da romantik, simvolik notalar yo'q emas. Masala, mana shu ta'sirni konkret ko'rsatish, shoir ijodiga kirgan ideologik ta'sirlarni ochib berishdadir.

Tanqidchi asarlarni konkret analiz qilish natijasida o'z hukmlarini chiqarishi kerak. Sa'diyning hukmlari, asarlarining analizidan kelib chiqmaydi. Ko'pincha faktlar, shoirning qarashlari, fikrlari «qiyshiq oyna» orqali ko'rsatiladi. She'rlarga tanqidchi o'z kayfiyatiga yarasha, o'zi istagancha ma'nolar taqishga kirishadiki, bu bilan tanqid obyektiv ahamiyatdan mahrum etiladi»¹.

A.Sa'diy H.Olimjon she'rlarini tahlil qilishda Oybek aytganidek, «qismni ko'rib kullni unutgan», ammo Oybek maqolasini o'qib chiqqandan so'ng, istiqlol mafkurasi nuqtayi nazaridan qaralsa, Oybekning o'zi ham ayrim xatolarga yo'l qo'ygani seziladi: Oybek H.Olimjon

¹ *Majidiy Rahmat. O'sha asar. 49-bet.*

ijodini har xil xurujlardan himoya qilishda haq bo'lsa-da, ko'proq uning sinfiylik, partiyaviylik ruhi ufurib turgan she'rlariga urg'u beradi. Oybek bir o'rinda A.Sa'diyni «voronskiy»chilikda ayblaydi. Voronskiy va A.Sa'diy fikrida yaqinlik ko'radi: «Voronskiycha badiiy to'g'rilik, samimiylik va katta san'at asari yaratish sinfiy kurash, siyosat kundalik masalalar bilan birlasha olmaydi. Voronskiy nazariyasicha, «haqiqiy san'at g'ayri sinfiy mohiyatdadir, o'z-o'ziga go'zal dunyoni ochishdadir»¹.

30-yillarda bu nuqtayi nazar qattiq qoralangan edi. Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichiga kelib, ma'lum bo'ladiki, bu nuqtayi nazar noto'g'ri emas ekan. A.Sa'diy H.Olimjonning «Ko'klam» va «Olov sochlar» to'plamidagi she'rlari obrazga boy, san'atcha yuqori deb hisoblaydi, biroq «O'lim yovga», «Poyga» to'plamlaridagi she'rlar «oratorlik»dan iborat deb hisoblaganini Oybek tanqid qiladi. Nazarimizcha, A.Sa'diy mulohazalarida haqiqat yo'q emasdi. Yuqoridagi har ikkala she'rda badiiylikdan ko'ra oratorlik, poetik xolislikdan ko'ra mafkura kuchliroq bo'lgani bugun, shoir ijodini kamsitmagan holda, ro'yi rost aytilish imkoniga egamiz.

Taniqli tanqidchi va adabiyotshunos A.Sa'diy asarlariga xolis baho berish, uning ilmiy-tarixiy qimmatga ega merosini munosib o'rganib, tadqiq etib, yangi avlodlarga yetkazish bizning burchimizdir.

Tayanch tushunchalar: matbuot va adabiy tanqid, mubohasa, «TVG», fanniy tekshirishlar, teatr tanqidchiligi, sochma she'r, shakl va mazmun, erkin vazn, sarbast, tanqidiy fikr uyg'onishi, tanqidiy fikr taraqqiyoti, professional tanqid, Alisher Navoiy ijodiga ilk munosabat va ikki xil qarash.

Tanqidchi va yozuvchi munosabati, yozuvchi tanqidi, tanqidchi, talant, iste'dod, ruhiyat, ohang, go'zallik, futurizm, obzor maqola, panturkizm, vulgar sotsiologizm, janrlar talqini, adabiy jarayonga aloqadorlik.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *O'zbek adabiy tanqidchiligining paydo bo'lishi va shakllanishida matbuot qanday rol o'ynadi?*
2. *Jadid tanqidchilaridan kimlarni bilasiz? Ular qarashlarining xususiyatlariga to'xtaling.*
3. *O'zbek adabiy tanqidchiligiga oid dastlabki ishlarga xos xususiyatlar nimalardan iborat?*

¹ Oybek. MAT. 20 tomlik. 14- tom. 1978. 67-bet.

4. «Turkiston viloyatining gazetisi» o'zbek adabiy tanqidchiligining paydo bo'lishida qanday rol o'ynaydi? Unda qaysi munaqqidlar faoliyat ko'rsatdilar?
5. 20-yillardagi o'zbek adabiy tanqidchiligi Fitrat va Cho'lpon ijodiga qanday munosabatda bo'lgan?
6. O'zbek adabiy tanqidchiligidagi ikki yo'nalish haqida nimalar bilasiz?
7. Abdurahmon Sa'diy hayoti haqida nimalarni bilasiz?
8. Munaqqid tanqidni qanday tushungan va ta'riflagan?
9. Sa'diyning o'zbek adabiyotshunosligini rivojlantirishdagi xizmatlari qaysi ishlarida ko'rinadi? «Go'zal san'at dunyosida» maqolasida u san'atga qanday qaragan?
10. Uning H.Olimjonga munosabati qanday bo'lgan?
11. Sa'diy ijodida vulgar sotsiologizm belgilari qanday xususiyatlarda ko'rinadi?

ABDURAUUF FITRAT (1886–1938)

REJA:

1. Abdurauf Fitrat adabiy-tanqidiy qarashlarining o'rganilishi.
2. Professional adabiyot nazariyotchisi va adabiy tanqidchi sifatida.
3. Tanqidchilik janrlaridagi izlanishlar.



Abdurauf Fitrat adabiy-tanqidiy qarashlarining o'rganilishi. Abdurauf Fitrat o'zbek adabiyoti tarixida shoir, dramaturg, yozuvchi, publitsist, davlat arbobi, tilshunos, adabiyotshunos, tanqidchi sifatida qomusiy bilimlari bilan shuhrat qozondi. Ozod Sharafiddinovning «Fitrat o'zbek adabiyotshunosligining otasi» degan fikri ayni haqiqatdir. Fitrat turkiy til, xususan, o'zbek tili va adabiyotining shakllanish bosqichlari, hodisalari talqini masalasida o'z davrining eng so'nggi va ilg'or qarashlariga

tayandi. O'zi ham ularni eng ilg'or fikr va xulosalar bilan boyitdi. Uning ulkan turkshunoslar Muhammad Fuod Ko'prilizoda, Najib Osimbek, Yevropa sharqshunoslari H. Vamberi, Tomsen, Radlov, Samoylovich kabi olimlar qarashlari bilan ilmiy mubohasalar olib borgan hamda jadidchilikning asoschisi I.G'aspirali bilan bir safda turishi ma'lum¹.

Adabiyotshunoslikka doir Fitrat ilmiy merosining asosiy qismi 1923–1935-yillarda yaratilgan. Bu qisqa davrda u 50 dan ortiq ilmiy-tadqiqot va maqola yozdi. Ular zamonaviy adabiyotshunoslikning rang-barang yo'nalishlarini qamrab olgan bo'lib, asosan, Sharq va turkiy adabiyot namoyandalari ijodi, tarixi, nazariyasi va adabiy tanqidiga oid tadqiqotlar edi.

Abdurauf Fitrat 20-yillardayoq Sharq xalqlari madaniy merosi va adabiyotini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Chindan ham «Fitrat Bartold, Samoylovich, Krachkovskiy, Bertelslar singari akademik

¹ Qosimov B. Maslakdoshlar. T., 1974. – 135-bet.

yoʻnalishdagi yirik qomusiy olim edi.» (H.Boltaboyev). U Sharq badiiy merosiga ilmiy nuqtayi nazardan yondashib, Abulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Umar Xayyom, Lutfiy, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Abdulqodir Bedil, Boborahim Mashrab, Turdi, Nodira, Muqimiy, Furqat singari ijodkorlar merosini yigʻish, tartibga solish, tadqiq etish ishlarida alohida gʻayrat koʻrsatdi. Qolaversa, u «Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi» (1927), «Eng qadimiy turk adabiyoti» (1927), «Oʻzbek klassik adabiyoti namunalari» (1928), «Aruz» (1936) kabi oʻnlab tadqiqotlar yaratib, jahon sharqshunosligi va turkshunosligiga katta hissa qoʻshdi. Shunga qaramay, uning asarlari 20–30-yillarda koʻp munozaralarga sabab boʻldi. Fitrat ijodi nohaq tanqidlarga uchradi va bu hol 1938-yilda uning otilganidan keyin ham davom etdi. Shaxsga sigʻinish oqibatlari tugatilgandan soʻng ham bu munosabat oʻzgarmay turdi. Faqat 70-yillarga kelib, I.Sulton, E.Karimov, X.Mirzozodalar uning ijodi haqida yoza boshladilar, 80-yillardagina bu jarayon bir qadar izchillasha bordi. B.Qosimov, Sh.Turdiyev, A.Aliyev, N.Karimov, H.Boltaboyev, I.Gʻaniyevlar uning badiiy va ilmiy ijodini jiddiy va keng qamrovda tadqiq etishga kirishdi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin Fitrat ijodini oʻrganish imkoniyatlari kengaydi. Uning «Adabiyot qoidalari», «Aruz», «Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi» kabi asarlari, qator ilmiy maqolalari, shuningdek, nasriy, sheʼriy va dramatik asarlari qaytadan chop etila boshlandi. 1996-yilda «Chin sevish» va 2000-yildan hozirgacha olti tomlik tanlangan asarlarining 5-jildi nashrdan chiqdi.

Oʻzbek xalqining qomusiy bilim daholari anʼanalarini XX asrda davom ettirgan Abdurauf Fitrat ijodiga qiziqish xorijsida ham kuchlidir. Boshqird Zaki Validiy Toʻgʻon, turk olimlari Fuod Koʻprili va Mehmet Saroy, yapon olimi Xisao Kumatsu, amerikalik Edvard Olvort, farang Ellen Karrer d Enkous, olmon Ingeborg Baldauf, rus A.Klimovich va jahonning boshqa olimlari bu noyob ijod sohibiga katta qiziqish bilan qaradilar.

Professional adabiyot nazariyotchisi va adabiy tanqidchi. Fitratning adabiy nazariyasiga munosabati 20-yillar rus adabiyotshunosligidagi formal maktab vakillari Eyxenbaum, V.Shklovskiy, V.Jirmunskiy kabilar izidan borishida koʻrinadi. Ularning fikricha, siyosatga aralashish, badiiy asarlarning gʻoyaviy-mafkuraviy va ijtimoiy fazilatlarini oʻrganish adabiyotshunoslikning vazifasiga kirmaydi, u, asosan, badiiy asarning shaklini, shakldagi goʻzallikni tahlil etishi lozim. Mazkur qarashlarni chuqur oʻzlashtirgan Fitrat tadqiqotlarida shu konsepsiyaga

amal qildi. Chunonchi, «Adabiyot qoidalari» (1926) dagi san'atga doir fikrlarida bu holni kuzatish mumkin. Uning «yurak, fikr, tuyg'u to'liqlarini so'z, tovush, shakl, harf, harakat kabi materiallar yordamida jonlantira chiqarib, boshqalarda ham shu to'liqinni yaratmoq hunariga go'zal san'at deyiladi», degan ta'rifida badiiy asar qimmatini shakldagi mahorat bilan belgilovchi rus formal maktabining ta'siri sezilib turadi. Fitrat «san'at nima», degan savolga javob berishga harakat qildi. «Adabiyot qoidalari» qo'llanmasi «san'at» so'ziga umumiy yoki keng ta'rif berishdan boshlanadi.» San'at — lug'atda hunar demakdirkim, bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir. Bir kishi bir ishni o'ziga kasb qilib olib, shunga berilib, yaxshi ishlab chiqaradigan bo'lsa, shu ish uning san'ati bo'ladi»¹.

Fitrat insonga ruhiy-ma'naviy ta'sir ko'rsatuvchi, qalbni to'liqlantiruvchi san'atni «go'zal san'at» sirasiga kiritadi. Go'zal san'atda kishilarning turli xil kayfiyatlari aks etajagi xususidagi fikrlari yuqoridagi mulohazalarida yaqqol ko'rinib turibdi. Bu silsilada so'z-adabiyot, tovush-musiqqa, bo'yov-rassomlik, shakl-me'morlik, harakat-raqs tarzida talqin qilinadi.

Fitratning badiiy adabiyotga bergan ta'rifi ham san'at ta'rifiga yaqin. «Adabiyot fikr-tuyg'ularimizdagi to'liqlarni yaratadi», deya ta'kidlaydi u. Oybek «Adabiyot qoidalari»ga yozgan taqrizida Fitratning «jozib, go'zal uslubi»ga to'g'ri baho beradi, lekin uning kamchiligi «san'at va adabiyotga bugungi ko'z bilan (markslarcha) qaramaganlik»da deb tanqid qiladi. Bu qarash adabiyot mafkuraviylashtirilga boshlangan o'sha davr nuqtayi nazaridan to'g'ri edi. Yoki boshqacha aytganda, Oybek shunday deb yozishga majbur edi. Aks holda uning o'zini ham millatchiga chiqarib qo'yishlari hech gap emasdi. Sho'roviy, mafkuraviy qarashlardan voz kechilgan, umumbashariy mezonlar asosida fikrlashga o'tgan hozirgi mustaqillik davri talablari asosida yondashadigan bo'lsak, Fitrat to'g'ri fikrni aytgani ma'lum bo'ladi. Biroq 20-yillarda san'atga, adabiyotga bunday qarash jiddiy zarbaga uchragan edi. Badiiy adabiyotning mohiyati uning faqat ijtimoiyligida degan qarash hukmron edi. Oybek shu pozitsiyada turib Fitrat qarashlarini tanqid qiladi. Chunki davr o'sha paytda shu siyosatning qo'lida edi.

Fitrat qo'llanmasining ahamiyatli va nazariy jihatdan chuqur yozilgan qismlaridan biri uslub haqidadir. «Adabiy hayotimizning sust

¹ *Fitrat*. Adabiyot qoidalari. — T.: O'qituvchi, 1994. 34-bet.

davri» (Oybek) bo'lgan 20-yillarning o'rtalaridagina emas, hatto hozirgi davrida ham o'zbek adabiyotshunosligining uslubshunoslik deb atalgan qismi anchayin sust darajadadir. Ba'zi ijodkorlar uslubiga bag'ishlangan ayrim risolalarni hisobga olmaganda, bu borada keng va chuqur nazariy umumlashma beradigan tadqiqotlar hanuzgacha nihoyatda ozdir. Shu jihatdan qaralsa, «Adabiyot qoidalari»dagi tanqidiy mulohazalar muhimdir.

Fitrat o'tgan asrning 20-yillaridayoq uslub haqida keng va atroflicha fikr bildirgani, uning yozuvchi o'ziga xosligini aniqlashdagi o'rniga katta baho bergani olim salohiyatining naqadar salmoqli va teran bo'lganidan dalolat beradi. Uning «Adabiyot qoidalari»dan tashqari, «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi», «O'zbek adabiyoti namunalari», «She'r va shoirliq», «Aruz haqida» nomli maqola, risola, majmualari o'zbek madaniyati tarixida katta o'rin tutadi.

1919-yil «Tong» jurnalining 2-sonida bosilgan «Mirzo Bedil» maqolasi Fitratning bedilshunoslikka oid ilk tadqiqoti bo'lib, keyinchalik yaratilgan «Bedil» badihasi uchun asos vazifasini o'tagan. Risola buyuk shoir ijodi va dunyoqarashi mohiyatiga teran va ilmiy yondashuvda jiddiy dastlabki qadamlardan biri bo'ldi. Aslida adabiyot tarixiga oid adabiyotshunoslik yo'nalishidagi bu tadqiqotning davr adabiy tanqidchiligidagi muhim ahamiyati bor edi. Gap shundaki, u san'atkor ijodining sir-sinoatlarini aniqlashda, zamondosh shoirlar asarlaridagi mahoratni ochishda bu kabi tadqiqotlar yosh munaqqidlar uchun o'ziga xos bir qo'llanma edi.

20-yillar o'zbek adabiyotshunosligida Bedil ijodiga bag'ishlangan bu risola shoir merosini chuqur o'rganish borasida salmoqli tadqiqotlar maydonga kelgan hozirgi kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Fitratning bu asari o'zbek tanqidchiligini shakliiy izlanishlar sohasida ham boyitishga xizmat qiladi.

Olimning «XVI asrdan so'nggi o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash» (1929, «Alanga») asari obzor maqola shaklida bo'lib, unda hali ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum bo'lmagan dalillar muomalaga kiritilib, qimmatli mulohazalar o'rtaga tashlanadi.

XX asrning 20-yillarida adabiy merosga, jumladan, Alisher Navoiy ijodiga qarashda ikki yo'nalish bor edi. Chunonchi, J.Boybo'latov madaniy merosdan voz kechish talabini kun tartibiga qo'ygan bir sharoitda Fitrat adabiy merosni yoqlab chiqdi.

Tanqid janrlaridagi izlanishlar. Fitrat adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning xilma-xil janrlariga murojaat etadi va buni ongli ravishda,

maxsus tayyorgarlik bilan amalga oshiradi. Fitrat esa ana shu xizmati bilan adabiy-tanqidiy janrlarni kashf etishda faollik ko'rsatgan. Bu hodisa o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidining keyingi taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatganligini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim.

«O'zbek shoiri Turdi», «Muhammad Solih» portret-maqolalar bo'lsa, «Ahmad Yassaviy», «Fors shoiri Umar Xayyom», «Mashrab» kabi tadqiqotlar tanqidiy-biografik ocherk janriga taalluqlidir.

«O'zbek shoiri Turdi» maqolasi A.Majidiyning shoir haqidagi maqolasini to'ldirish maqsadida yozilgan. Shu bois o'zidan oldingi maqola mohiyatini Fitrat «uch modda»da ko'rib chiqadi. Portret-maqola shu xususdagi izohlar bilan boshlanadi. Fitrat Turdining «eli, yurti, kimligi» haqidagi ma'lumotlarni shoirning o'z asarlaridan topishga harakat qiladi. «Uning she'rlari orasida tarjimai holi uchun yararliq moddalarni» besh qismga bo'lib tadqiq etadi va shoirning tarjimai holini tiklaydi. Portret so'zi chiziq, ularning o'zaro ulanib ketishidan kelib chiqqanligini nazarda tutadigan bo'lsak, munaqqid shoir ijodining besh qirradan iborat chizgilarini beradi va shu asosda u haqda yaxlit tasavvur uyg'ota oluvchi maqola yaratadi.

Muhammad Solih hayoti va ijodiga bag'ishlangan maqola Fitratgacha o'zbek adabiyotshunosligida u haqda maxsus maqola yoki tadqiqot amalga oshirilmaganini ko'rsatadi. Muallif bir necha tarixiy manbalarni qiyoslagan holda fikr yuritadiki, bu uning keng mushohadali, sinchkov olim bo'lganini namoyon etadi. Portret-maqola o'ziga xos tuzilishga ega, ikki qismdan iborat. Birinchi qismda shoir tarjimai holi, ikkinchisida Muhammad Solih ijodi yoritiladi. Fitrat Alisher Navoiy va Bobur yozib qoldirgan shoir haqidagi ma'lumotlarga asoslanib, «uning kuchli bir shoir bo'lg'anini qabul qilamiz» deydi, «Shayboniynoma» dostoni tahliliga keng to'xtaladi. Portret-maqolada muallif tomonidan M.Solih asarining XVI asrdan keyingi adabiy tilni soddalashtirishdagi xizmatlari e'tirof etiladi.

Fitratning Mashrabga oid tadqiqoti jiddiy ilmiy ishlardan biri bo'lib, Mashrab shaxsi va ijodi haqida turli tuman, biryoqlama tasavvurlar kengaygan bir paytda yaratildi. Rus olimi P.Vyatkinning «Farg'onalik mistik devona Mashrab» maqolasi Fitrat tadqiqotining yuzaga kelishiga turtki bergan. Bilimdon sharqshunos olim ishida asosiy e'tiborni shoir shaxsiyatini aniqlashga, bir qancha manbalarga tayanib Boborahim Mashrab tarjimai holini ilk marta ilmiy asosda tiklashga muvaffaq bo'lgan.

Tadqiqotda shoir tarjimai holi, hayoti va ijodi, asarlarining qimmatini, mohiyati umumlashtirilgan holda tadqiq etilishi uning tanqidiy-biografik ocherk janrida yaratilganligini ko'rsatadi.

«Fors shoiri Umar Xayyom» asari ham tanqidiy-biografik ocherk janriga mansub. Fitrat, avvalo, Umar Xayyom haqida portret-maqola yaratgan. Shundan keyin uning qo'liga shoir haqida yana bir qimmatli manba tushadi. Va shular asosida yirik tadqiqot yaratiladi. U Mashrab haqidagi ocherkdan hajmi, ko'laminin kengligi bilan farq qiladi. Fitrat ocherk boshida «Bir-ikki so'z» (xuddi hozirgi so'zboshilarday) deya shoir shaxsi haqida qisqa ma'lumot bergandan so'ng, u yashagan davr va adabiy muhit tasviriga to'xtalishni lozim topadi.

Xulosa qilib aytganda: 1) tanqidiy-biografik ocherkda shoir tarjimai holi aniq manbalarga tayanilgan holda yoritildi, Umar Xayyom haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan o'sha davr o'quvchisi uchun bu qimmatli manba edi; 2) Xayyomning maslagi, asarlari, ayniqsa, ruboiylarini tadqiq etish asnosida uning ijodiga xolis baho berildi, adabiyotda tutgan o'rni ko'rsatildi; 3) olimning Xayyom ijodi haqidagi mulohazalari, «jozib uslubi» (Oybek) bugungi kitobxonni ham loqayd qoldirmaydi. Uning sinchkovligi, aniq manbalarga tayanib ilmiy fikr yuritishi, qiyoslash asosida xulosalar chiqarishi, fikr-mulohazalarini erkin bayon etish usuli tanqidchi va adabiyotshunoslarning yangi avlodlari uchun bamisoli mahorat maktabidir.

Shuni ta'kidlash joizki, o'tgan salkam yuz yil mobaynida Mashrab va Xayyom haqida O'zbekiston va xalqaro miqyosda ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, Fitrat asarlari ularning aksarida bu ikki buyuk ijodkor haqidagi tadqiqotlarga asos bo'lib yetadi. Fitrat zamondoshi A.Sa'diy bilan bir davrda 20-yillarda Yassaviy ijodiga bag'ishlab qator maqolalar yozib, o'zbek yassaviyshunosligiga asos soldi. Ahmad Yassaviy va uning maktabini atroflicha tadqiq etdi. Davr bilan izohlanuvchi kamchiliklar bo'lishiga qaramay, bu tadqiqotlarning islomiy-nazariy asoslari juda yuksak hisoblanadi. Ular Fitrat ilmiy dunyoqarashi kengligini ko'rsatish bilan birga, realistik o'zbek yassaviyshunosligini boshlab bergani jihatidan ham qimmatlidir.

«Chig'atoy gurungi» jamiyatining tashkilotchisi va rahnamosi Fitratning millatparvarlik va tashkilotchilik yo'nalishidagi katta ishlaridan biri «Chig'atoy gurungi»ni yo'lga qo'ygani bo'ldi. Madaniy merosni o'rganish, undan xalqni bahramand etish, avlodlarni ajdodlarning o'lmas ruhiyati bilan bog'lashda bu jamiyat ulkan ishlarni amalga oshirdi.

Chig'atoychilar millatning hayot va istiqboli uchun 500 yil davomida uzilib qolgan tarix bilan milliy-madaniy bog'lanishi shart ekanini teran his etdilar. Shuning uchun milliy maktablarga alohida e'tibor berdilar. Afsuski, 20-yillarning avvalidanoq bunday harakatlarga siyosiy baho berish boshlandi. Bu mohiyatan o'zbekning o'zligini anglash, o'zligini tiklashga qarshi bo'lgan kuch — sho'rolarning zimdan boshlab yuborgan harakati edi. 1922-yili «Chig'atoy gurungi» tarqatib yuborildi. Shunga qaramay, gurung a'zolari o'z faoliyatlarini alohida-alohida davom ettirdilar va yangi vujudga kelgan O'zbekiston jumhuriyatida yana qaytadan uyushdilar. Ular O'zbekistonning birinchi yozuvchilar tashkiloti nashri «Qizil qalam»da tashabbusni o'z qo'llariga olishga harakat qildilar. Turkiston milliy madaniyatini barpo etish uchun kurashni to'xtatmadilar. Ammo 20-yillar oxiri va 30-yillarning boshlariga kelib, «chig'atoychi»larni panturkizm, panislomizmda ayblovchi sho'roviylarning jazavasi yanada kuchaydi. Ziyolilarni bir-biriga gij-gijlash avj oldi.

1929-yilda J.Boybo'latovning «O'zbek adabiyotida chig'atoychilik» maqolasi bosildi. «O'zbek adabiyoti namunalari» majmuasi tanqidiga bag'ishlangan bu maqola asar muallifi Fitratni «fosh etish»ga qaratildi. Fitrat unda marksizمنى inkor qilishda, o'tmishni ideallashtirishda, burjua millatchiligi g'oyalarni targ'ib va tashviq etishda ayblandi. Aslida bu harakat zamirida bir tarafdan, ko'p asrlik adabiy merosimizni chiqitga chiqarish siyosati yotar, bir tomondan esa, bu boradagi millatparvar, fidoyi olimu adiblarni nainki badnom qilish, balki mahv etish maqsadlari yashiringan edi. J.Boybo'latov madaniy merosimizdan proletar adabiyoti uchun bir narsa ola bilishga shubha bilan qaradi. Kitobga so'zboshi yozgan Otajon Hoshimni ham bir yoqadan bosh chiqarganlikda aybladi.

Ko'p o'tmay matbuotda bu masalada bahs boshlandi. Otajon Hoshim «Adabiy meros va chig'atoy adabiyoti» maqolasida J.Boybo'latov maqolasini feleton deb atarkan, adabiy meros va chig'atoy adabiyoti kabi muhim masalalarni Boybo'latov kabi hal qilish mumkin emasligini ta'kidladi.» Chig'atoy adabiyoti (mumtoz adabiyotimiz) ko'p badiiy namunalar bergandir, bu adabiyotning bir qancha san'atkor namunalarini borligini e'tirof qiladi.

Fitrat ham J.Boybo'latovga javob tarzida «Yopishmagan gajaklar» nomi ostida ochiq xat e'lon qildi. Ochiq xatgina yoxud nohaq tanqidga javobgina emas, balki «go'zallikni, chinakam adabiyotni anglash, idrok etishdan uzoq nuqtayi nazarning — olmadan qurt qidirishning»

(Asqad Muxtor) jamiyat hayotida tobora kuchayayotganligini teran his qilish va unga qarshi o'ziga xos bir isyon edi. Gap shundaki, J.Boybo'latov Fitratning o'tmish adabiyot namunalarini bittama-bitta yig'ib, tozalab, saralab, izohlab o'quvchiga taqdim etishdek og'ir va sharaflı ishını dushmanlık, zararkundalik hisoblagan va buni adibning butun faoliyati misolida «isbot» qilishga uringan edi»¹.

Fitrat bolalar orasida «Ko'zim ko'rmaydir» o'yini bo'lganligi haqida gapirib, ko'zini qattiq bog'lab olgan bolaning atrofdağilarga hujum qilishini Boybo'latovga qiyoslaydi. «Maqolani yozganda, sizning qalamingiz ham shul ko'zi ko'rmas bolaning tayog'iga o'xshagan: aylangan, aylangan, kimga to'g'ri kelsa, shunga tekkan, orada mening kitobim unutilgan, juda oz o'rin olgan».

Tanqidchi ilmiy etika doirasidan chiqmaslikka harakat qiladi va shuning uchun Boybo'latov maqolasiga javobni, o'zi aytganidek, dardlashuv shaklida yozadi, avvalo, unga minnatdorchilik bildiradi. Shu bilan birga «siz adabiyot tarixining odami emassiz, maqolangiz esa tasodifiy bir hodisadir» deydi.

Bu esa Fitratning yuksak didga ega, o'ta madaniyatli munaqqid ekanligini ko'rsatadi. Ochiq xat o'sha davr tanqidchiligi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, unda Fitrat faqat Boybo'latovga emas, o'sha davrda taraqqiy etayotgan vulgar sotsiologizmga ham zarba bergan edi: «... Mening so'zlarimni bosh-oyog'ini kesib tashlab, o'z maqsadingizga yaraqlik bir holga kirgizib, so'ngra e'tiroz qilishingiz ilmiy bir harakat sanalmaydir».

Fitratning olim sifatida mardligi, tantiligi, tolerantligi shundaki, o'z xatolarini, hattoki qilmagan ba'zi xatolarini tan oladi. Uning «albatta, ishlarimizda yanglishlar bo'lishi mumkin. Yanglishlarimni joy-joyi bilan ko'rsatish kerak. Ko'zni yumib, og'izni ochib so'kishning foydasi yo'qdir», – degan so'zlari tobora o'z qiyofasiga ega bo'lish sari intilayotgan bugungi tanqidchilik uchun ham dasturulamal vazifasini o'tashi tayin. To'g'ri, Fitrat o'z davri kishisi edi. Binobarin, maqoladagi sho'ro davri mafkurasiga daxldor fikrlarga munosabatda shu narsani e'tiborda tutish kerak bo'ladi.

Fitrat adabiy jarayonni sergaklik bilan kuzatdi va shu haqda mulohaza bildirib maqolalar yozdi. Uning «Literatura Sredney Azii» gazetasida bosilgan «Muhit muhimligi» maqolasi shu ruhda edi.

¹ *Abdurauf Fitrat*. Tanlangan asarlar. Uch jildlik. Uchinchi jild. – T.: Ma'naviyat. 2003. 238-bet.

Ko'ramizki, Fitrat o'z davrining qomusiy olimi, zukko adabiyotshunosi, fidoyi farzandi edi, yozgan asarlari uning nomini asrlardan asrlarga olib o'taveradi. Fitrat yaratgan asarlar yutuqlari va nuqsonlari bilan bizning tariximiz va faxrimizdir. Shuning uchun Fitrat ijodini xolis va haqqoniy o'rganish davom etaveradi va bu bizning burchimizga aylanib boraveradi.

Tayanch tushunchalar: sharqshunoslik, ochiq xat, Chig'atoy gurungi, chig'atoychilik, «Yopishmagan gajaklar», bedilxonlik, formal maktab, panturkizm, panislomizm, «Adabiyot qoidalari», portret-maqola, tanqidiy-biografik ocherk, madaniy meros, mumtoz adabiyot.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Fitrat adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik faoliyatining o'rganilish tarixi haqida so'zlang.*
2. *Fitrat adabiy-nazariy qarashlarining ahamiyati nimada ko'rinadi?*
3. *Olimning ochiq xati haqida nima bilasiz?*
4. *Fitrat portret-maqolalari qaysi ijodkorlarga bag'ishlangan?*
5. *Tanqidiy-biografik ocherk janrini rivojlantirishdagi xizmatlari nimada ko'rinadi?*
6. *Fitratning munaqqidlik mahorati qaysi xususiyatlarda namoyon bo'lgan?*



CHO'LPONNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI (1897–1938)

REJA:

1. Cho'lpon adabiy-tanqidiy merosining o'rganilishi.
2. «Adabiyot yashasa, millat yashaydi».
3. Cho'lpon – teatr tanqidchisi.



Cho'lpon adabiy-tanqidiy merosining o'rganilishi. Cho'lpon shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, publitsist bo'lish bilan birga munaqqid, o'ziga xos qiyofali san'atshunos edi. Uning adabiy-tanqidiy maqolalari xalq ma'naviyatini shakllantirishda, adabiy-estetik didni o'stirishda, badiiy adabiyotimiz taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Yangi o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi tarixini Cho'lpon adabiy-tanqidiy faoliyatisiz tasavvur etish qiyin.

Cho'lpon maqolalarining ro'yxatini tuzib, bibliografiyasini e'lon qilgan N.Yo'ldoshev ko'rsatishicha, shoir 1914–1937-yillar mobaynida chop etgan adabiy-tanqidiy maqolalar soni 70 ga yaqindir. Shu ma'lumotning o'ziyoq Cho'lponni munaqqid sifatida o'rganish muhim ekanini ko'rsatadi. To'g'ri, gap bu o'rinda son-sanoqdagina emas, maqolalarning ilmiy-nazariy qimmatini haqida, albatta. Cho'lpon maqolalari esa, eng avvalo, ana shu jihati bilan qadrlidir.

«Adabiyot yashasa, millat yashar». 1913-yilda Cho'lpon I.G'aspiraliga maktub yozgan va «Tarjumon»da bosilgan. «Sadoi Turkiston» gazetasining 1914-yil 4-iyun sonida Cho'lponning dastlabki tanqidiy asarlaridan biri – «Adabiyot nadur?» degan maqolasi e'lon qilinadi. Uni yozganida Cho'lpon 16 yoshda edi. Maqola shaklan ixcham bo'lsa-da, mazmuni g'oyat teran. 16 yashar o'smirning adabiyot haqida shunday tiyraklik bilan fikr yuritishi chindanda, uning yuksak iste'dodidan dalolat beradi. Cho'lpon bu yoshda yozgan she'rlari ichida teranlikda, chuqurlikda ushbu maqola bilan bahslasha,

yoki tenglasha oladiganini uchratish qiyin (biri badiiy, ikkinchisi publitsistik mohiyatli bo'lsa-da). Shunga ko'ra, ehtimol, she'riyatdan ham ko'ra adabiy tanqidga qiziqish va u haqda astoydil o'y-fikrga berilish Cho'lponda ertaroq kechgan bo'lsa, ajab emas, degan taxmin ham bo'lishi mumkin. Buriilish pallalarida har bir xalqning buyuk farzandlari, buyuk adiblar ana shu savolga javob izlagan va hatto, xuddi shu sarlavha bilan maqolalar e'lon qilgan. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Zero, Cho'lpon ham o'zbek xalqining ana shunday buyuk farzandlaridan biri edi.

O'z davrida Cho'lponning bir qancha zamondoshlari ham «Adabiyot, san'at nima?» degan savollarga javob izladi. Ozar, qozoq, tatar adabiyotlarida (o'z vaqtida yaxlit «Turkiston adabiyoti» — deb yuritilgan adabiy jarayonida ham) bu masalalar atrofida tez-tez fikr yuritilgani ma'lum.

Yuqoridagi maqolasida Cho'lpon, avvalo, adabiyotning ijtimoiy mohiyati to'g'risida aniq va tiniq fikr yuritadi. Uning fikricha, adabiyot millatni taraqqiy ettirish vositasi, uning ma'naviyatini ta'minlaydigan omildir. Shu asosda u «Adabiyot yashasa-millat yashaydi» degan juda katta va qat'iy xulosaga keldi. Yoki uni o'zbek xalqining tarixi mobaynida adabiyot haqida aytilgan eng muhim va aniq dasturiy fikr deb baholash mumkin. «Ha, to'xtamasdan harakat qilib turg'on vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdur. Adabiyot yashasa-millat yashar. Adabiyoti o'limg'on va adabiyotning taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo'lur»¹.

Cho'lpon Sharq klassiklari, arab, turk, hind yozuvchilarining asarlari bilan puxta tanish edi, u mustaqil o'qib-o'rganish oqibatida, o'zi yashagan davrdagi ma'rifatparvarlik va estetik g'oyalari ta'sirida g'oyat yuksak madaniy saviyaga erishdi.

Cho'lpon adabiyotning obrazli tabiatini teran tushunib yetdi, adabiyot inson ruhiyatiga bog'liq hodisa deb qaradi. «Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'lgan, qaralgan, o'chgan, majruh yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singigan qora balchiqlarni tozalaydurg'on, o'tkir yurak kirlarini

¹ *Cho'lpon. Adabiyot nadur? Adabiy-tanqidiy maqolalar.* — T.: 1993. 21-bet.

yuvadurg'on, toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarni yorug' va ravshan qiladurg'on, chang va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydurg'on buloq suvi bo'lganlikdan bizga g'oyat kerakdur¹. Cho'lponning o'ziga xos obrazli ifodalagan bu fikrlari nainki o'z davri, yoxud bugungi kunimiz, balki kelajak uchun ham hech qachon qiimmatini yo'qotmaydi.

«Sadoi Turkiston» gazetasi (1915, 6-fevral)da chop etilgan «Muh-taram yozg'uvchilarimizga» degan maqolasida Cho'lpon shunday yozadi: «Muh-taram qalam ahllari milliy maishatni yomon deb bezmay, zohira bo'lsa ham to'ylarda, gapxonalarda, bachabozlar majlisida, bazmlarda va shunga o'xshash millatning eng tanqid qiladurg'on o'rinlarida birga aralashib yurmaklari kerakdurki, toki komil o'sha odatlarni kitob sahifalarida chiroyliroq qilib yozgunday bo'lsunlar. Milliy maishatdan bezgan bilan bezilib, ko'milib ketaberadilar. Onda aralashib yurulsa, ondagi so'zlarni, odatlarni o'rganmoqqa bo'ladurki, kitob betlariga ko'churub yozmoqqa materiallarning eng asllari xalq orasidan olinur.

Ovropaning katta-katta muharrirlari o'shal o'zlarining yaxshi-yomon odatlarining orasinda yuribdilar. So'ngra qo'llariga qalam olib, yaxshisini yaxshi, yomonini yomon ko'rsatib yozubdurlar».

Cho'lpon o'zbek yozuvchilariga qaratilgan murojaatida, hayotni chuqur o'rganishga da'vat etadi. Xalq urf-odatlari, rasm-rusumlari qoloqligini tanqid qilish bilangina cheklanmaslikka undaydi. Xalq turmushining turli qirralarini badiiy ifodalashda tanqidning zo'rayib yoki biryoqlama bo'lib ketishiga qarshi chiqadi. Yozuvchi fikricha, xalqdagi mavjud ulkan fazilatlar va hayotdagi ibratli tomonlar to'g'ri va aniq tasvir etilishi zarur.

Maqola xalqchillik ruhi bilan sug'orilgan. Tanqidchining fikricha, o'zbek qalam ahli va ziyolilari xalq hayotini chuqur o'rganishlari kerak; xalqning jaholatdan qutulishiga, yaxshi hayot kechirishiga yaqindan yordam berishi zarur. Bu mas'uliyatli ishni yozuvchi va ziyolilarning asosiy burchi deb biladi: «Bizga ko'p teatru, ro'mon kitoblari yozmoq kerakdurkim, bu qarz bir hovuch ziyoli yoshlarimiz ila ahli qalam ustalariga tushadir».

Cho'lponning «chin adabiyot» uchun kurashdagi faol xizmatlarini keyinroq chop etilgan maqolalaridagi «Chig'atoy gurungi» to'garagi-ning faol a'zosi bo'lganligi va uni himoya etib yozgan fikrlari ham

¹ Cho'lpon. Adabiyot nadur? 28-bet.

tasdiqlab turibdi. Maqolalardan birida adabiyotning «tugallanishi», ya'ni takomillashishiga katta e'tibor berib, bunga «adabiyotga kira olmagan narsalarni shafqatsiz sur'atda maydondan haydash» va badiiy asar tilini soddalashtirish orqali erishilar deb hisoblaydi. Cho'lpon «Chig'atoy gurungi» vakillari xuddi shu yo'lda faoliyat ko'rsatganlarini aytadi: «...U jamiyatga mansub kishilar tilni soddalashtirmak maqsadini asos qilib ushlaganlari holda o'zbek adabiyotining tugallanishiga ham katta ahamiyat berdilar. Tugallanadurg'on adabiyot chin adabiyot bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ular adabiy asarlarga haqiqiy qiymatini berib, adabiyotga kira olmag'an narsalarni shafqatsiz suvratda maydondan hayday boshladilar... «Chig'atoy gurungi» asosini mahkam qurg'onlig'i va chinakam to'g'ri chizg'onlig'i uchun o'zi yo'q ketsa ham, o'zbekning yangi adabiyotida yangi, porloq, sharafli sahifalar ochdi va ochmoqda davom etadir»¹.

«Maorif va o'qitg'uvchi» jurnali (1925, № 7–8)da chop etilgan «Ulug' hindi» maqolasi Cho'lponning adabiy tanqidchi sifatidagi chuqur bilimini, mustaqil mushohadalarini, xalqaro miqyosdagi adabiy tajribalardan shu vaqtdagi o'zbek adabiyoti uchun fikr xos va muhim ekanini tushunib yetganini ko'rsatadi. Bu maqola, mohiyat e'tibori bilan zamonaviy jahon adabiyotidagi ilg'or tamoyillarni anglash va o'zbek adabiyotiga olib kirish masalasida o'z vaqtida o'sha butun Ittifoq miqyosi, hatto, rus tanqidchiligida ham deyarli yo'q edi. Keyinroq uning R.Tagorga bag'ishlangan yana bir maqolasi e'lon qilindi.

Cho'lpon Tagor ijodiga munosabat asnosida o'zbek adabiyotining rivoji qay yo'ldan borishi kerakligi haqida qimmatli mulohazalarini bayon qiladi. «Yo'lsizlik»dan qutilish chorasini izlaydi. Zotan uni mumtoz adabiyot yo'nalishi ham, mamlakatdagi davr adabiyotining yo'nalishi ham qoniqtirmayotgan edi.

Cho'lpon R.Tagordek buyuk san'atkorlar tajribasidan kelib chiqib, yangi o'zbek adabiyotini yaratish masalasini yechishga harakat qiladi. Umuman, 20-yillarda yozilgan boshqa qator maqolalarida ham bu masalaga qayta-qayta munosabat bildiradi. Buning uchun, birinchi navbatda, Sharq bilan G'arb san'atlarini o'zaro uyg'unlashtirmoq va mazmun bilan shaklning muvozanatini uddalamoq kerak deb hisoblaydi. Zero, R.Tagor ijodidagi betakror milliy ranglar, Sharq va G'arb an'analarining sintezi Cho'lpon e'tiborini tortgan edi. Cho'lpon she'riyati va romanlarida Sharqqa xos shartlilik, ko'tarinkilik, donish-

¹ Cho'lpon. O'sha asar. 45-bet.

mumlik, G'arbga xos psixologik realizm, xarakterlar mantig'idagi o'chliqlik va o'ktamlik, ularni chuqur dalillash bor edi.

Cho'lponning 20-yillardagi aksar muhim maqolalarida, shuningdek, «Ulug' hindi» maqolasida ko'tarilgan asosiy muammo-yangi o'zbek adabiyotining ravnaqi masalasi edi. Cho'lponning sa'y-harakatlari batamom zoye ketishi mumkin emas edi. Uning bu boradagi izlanishlari, ilgari surgan ilmiy-estetik qarashlari uning o'z maslakdoshlari — I'tirat, Qodiriy, Elbek, Botu, Oybek, Mirtemir kabi ijodkorlarning poetik dunyoqarashiga, shubhasiz, o'z ta'sirini o'tkazdi, millatparvar adabiyot ixlosmandlarining shakllanishida muhim rol o'ynadi.

Cho'lponning «Ishtirokiyun» gazetasida (1920) bosilgan «Sho'ro hukumati va sanoye' nafisa» maqolasi ham nazariy teranligi, qamrovning kengligi, salmog'i, davrning muhim muammosini ko'tarib chiqishi jihatidan ajralib turadi. Bu maqola haqida turli qarashlar mavjud. Jumladan, Ozod Sharafiddinov 60-yillardagi tadqiqotlaridan birida «Sho'rolar hukumati va sanoye' nafisa» maqolasi Cho'lponning «sovetlar pozitsiyasiga o'tgan»ini bildiradi degan fikrlarni aytgan edi. Keyinchalik bu fikrni biroz o'zgartirib, Cho'lpon maqolani «gazetaning topshirig'i bilan muayyan tazyiq va tadbirlar asosida yozgan bo'lishi mumkin»ligini qayd etadi va yozadi: «San'at sho'rolar zamonida xalqniki bo'lib qolganini aytarkan, mening nazarimda, bu maqolada Cho'lpon jinday «quvlik» qilayotganday tuyuladi. Maqolaning ko'pgina joyi kinoyaviy ohangga ega, go'yo muallif o'sha paytlarda markaziy matbuotda ko'plab bosila boshlagan «sovet ruhidagi» tashviiy maqolalarga parodiya yozgandek...»¹. Shu tariqa maqoladan keltirilgan parchalarni sharhlay turib, olim maqolani kinoyaviy ohangda yozilgan parodiya tarzida izohlaydi. So'ngra, «mening bu fikrim bahsli bo'lishi mumkin», deya ta'kidlashni ham unutmaydi.

Tushunish mumkin, O.Sharafiddinovning birinchi fikri sho'ro davrida ham Cho'lpon millatchi shoir deb batamom qoralanib turgan paytda, uni qanday qilib bo'lsa ham «o'z» shoirimizga aylantirish maqsadida aytilgan edi. Ikkinchi fikr — sho'roviylik, sho'roni madh etish, endi ijobiy emas, aksincha, salbiy ahamiyat kasb etgan ma'noni bildiruvchi bir zamonda aytilmoqda. Aslida Cho'lponning yuqoridagi maqolalariga diqqat bilan nazar tashlasangiz, unda kinoya ham yo'q, sho'ro tuzumi haqida ayrim ijobiy fikrlar aytilgani bilan, uni ulug'lash ham yo'q. Cho'lpon ham barcha qatori davr farzandi edi. Shu

¹ Sharafiddinov O. Cho'lpon. 87.-bet.

ma'noda maqolada u davr farzandi sifatida zamon va adabiyotning o'zaro munosabatlari haqida mulohaza yuritmoqda. Lekin hozir gap bu haqda emas. Cho'lponning maqoladan asosiy maqsadi ham bu emas edi. Uning asosiy maqsadi, o'zbek adabiyoti ana shunday murakkab sharoitlarda qanday yo'ldan borishi kerak, qaysi yo'lni tutishi kerak degan savolga javob izlamoqdan iborat edi. Lunacharskiyning bevosita ta'sirida yozilgan Cho'lponning yuqoridagi maqolasida biz xuddi ana shu izlanishlarni ko'ramiz. Sho'ro va adabiyotning ijtimoiyligi haqidagi ayrim ijobiy fikrlar Cho'lponni aslo sho'ro maddohiga aylantirib qo'ymaydi. Uning 1920-yildan keyin yozilgan, istiqlol ruhi bilan sug'orilgan asarlari buning dalilidir. Maqola zamirida, eng asosiysi, sho'ro hukumati sanoye' nafisani boshqargani bilan o'zbek adabiyoti o'zini, o'zligini yo'qotmasligi kerak, o'z qiyofasini saqlab qolishi kerak, degan ruh yotibdi. Maqola zamiridagi ana shu ruhi bilan qimmatlidir.

Cho'lpon munaqqid sifatida qalam tebratar ekan, sira tor tanqid-bozlik yoxud ilmpazlik yo'lidan bormadi, mayda guruhlar manfaatini ko'zlamadi, aksincha, hamisha adabiyot va san'atning yirik masalalari haqida fikr yuritdi, maqsadlarini millat madaniy taraqqiyoti uchun kurashga safarbar etdi.

Cho'lponning hamma maqolalari bir xil saviyada yozilmagan, albatta. Ular ichida bugun uchun ahamiyatini yo'qotganlari ham bor. Ba'zilari hatto tanqidga ham muhtoj. Lekin Cho'lponning aksar maqolalari uchun xos bo'lgan xususiyat shundan iboratki, ularda: 1) o'zbek xalqining adabiyoti, madaniyati, san'ati jahondagi ilg'or xalqlarning darajasiga ko'tarish uchun kurash yotadi; 2) maqolalar mohiyatini millatparvarlik va badiiy teranlik masalalari tashkil etadi; 3) maqolalarda muallifning shoir qalbi tepib turadi.

Cho'lpon qator maqolalarida o'zbek kitobxonini jahon adabiyoti bilan tanishtirishni ko'zladadi. Hind adibi Tagor, turk shoiri Tavfiq Fikrat haqidagi maqolalar bunga misol bo'la oladi. Tavfiq yangi yo'nalishdagi turk she'riyatining asoschisi bo'lib, ajoyib romantik she'rlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarini, insonparvarlik qarashlarini ilgari surgan edi. Cho'lpon Sharq mamlakatlarida shuhrat qozongan ana shu Tavfiq Fikrat lirikasining xususiyatlarini ochib beradi. Maqoladan Cho'lponning turk adabiyotini, turk she'riyatini juda chuqur bilgani va unga teran bir nazar bilan qaragani sezilib turadi.

Cho'lpon — teatr tanqidchisi. Cho'lpon sahna san'ati haqida, sahnalashtirilgan qator asarlar haqida maqolalar, taqrizlar yozib, bu

sohada ham o'zining chuqur bilimi, yuksak didi va teran mahoratini namoyon eta oldi.

To'g'ri, Cho'lponning hamma maqola, taqrizlari yuksak saviyada yozilgan deyish qiyin, ular ichida juda tez va yo'l-yo'lakay yozilganlari ham bor. Teatrda adabiy maslahatchi bo'lib ishlagani bois asarlar muhokamasida og'zaki aytgan fikrlari, matbuotda maqola tarzida, mulohaza tarzida bosilib ketganlari ham yo'q emas. Lekin, bundan qat'i nazar, nainki ayrim jiddiy maqola va taqriz, balki hatto ba'zan bir qarashda e'tiborsizdek, umumiy fikrlardangina iborat bo'lib ko'ringan maqola va taqrizlarda uchrovchi ayrim teran va chuqur mulohazalarning o'ziyoq Cho'lponga 20–30-yillarda endigina shakllanayotgan realistik adabiy tanqidchilikning o'ziga xos ijod turi-alohida fan sifatida oyoqqa turishida muhim o'rin tutgan munaqqid sifatida qarashga to'la asos beradi.

Cho'lpon tanqidchilikning taqriz, maqola va portret singari janrlarining yuzaga kelishi, qaror topishida alohida xizmat ko'rsatdi. Davrning professional tanqidchilaridan qolishmaydigan darajadagi maqola, taqrizlar yozdi.

Cho'lpon adabiy tanqidda janriy rang-baranglikka intildi, qarashlarini turli shakllarda namoyon etdi. Bu jihatdan, uning taqriz janridagi jajji-jajji chiqishlari e'tiborni tortadi. Aksariyat taqrizlarini u o'zbek teatrida sahnalashtirilgan dramatik asarlarga bag'ishladi.

Cho'lpon 20-yillarning boshlarida Fitratning «Chin sevish» va «Abo Muslim» dramalariga taqriz yozdi. Bularda ikki muammo: 1) dramatik asarning badiiy-estetik qimmatini ochish; 2) dramatik asarning sahna asariga aylanish jarayoni tufayli g'oyaviy-estetik ta'sirning mohiyatini ochish ko'zga yaqqol tashlanadi. Chunonchi, tanqidchi Fitratning «Chin sevish» dramasi haqida yozar ekan, muallif ijodini baholashda faxru fazl usulidan foydalanib, quyidagi fikrlarni bildirdi: «Yaqinda o'zbek sahnasi ulug' va ulug'ligi qadar yuksak va go'zal bir tomosha ko'rdi. Tanqid va taqriz qilishni men bajara olmayman. Biroq bu to'g'rida yozmoqlik menga tushganligidan ko'p chuqur bo'lmagan qarashni yozib ketaman»¹.

U dramaturg sha'niga mubolag'ali madhiya bitmaydi, lekin asar tomoshabinlar didini o'stirishi, bu teatrning katta yutug'i ekanini ta'kidlaydi: «tomoshachi xalqimiz buyuk armonli zarif adabiy asarlarga ham tushunib keladir.

¹ Cho'lpon. Adabiyot nadur? 98-bet.

Bu o'zbek sahnasining zo'r bingishi, shunday g'ururlanuv kerak». Cho'lpon dramadagi obrazlarni tahlil qilar ekan, ularning sahnada ijrosi masalasiga alohida e'tibor qiladi. Nuriddin rolini Uyg'ur yaxshi o'ynaganini ta'kidlaydi, lekin so'nggi parda ruhsiz chiqqanidan achinadi. «O'zbek sahnasi yoshdir. Uning uchun munday zo'r narsalar balki og'ir bo'lar edi», — deb yozadi. O'zbek sahnasida hali yaxshi asarlar qo'yilishiga ishonadi. Fitratning «Hind ixtilolchilari» yozib tugatilganidan xabardorligini ma'lum qilarkan, uni sahnada ko'rishni orzu etadi. «Sahnamiz, jonlana, yuksala...» — deb hayajonini, ishonchini yakunlaydi.

Munaqqid Fitratning «Abo Muslim»i haqida yanada dadilroq fikr yuritadi. «Tomoshabinga aralashguvchi qahramonlarning ko'pchiligi, ham tarixning eng chuvalgan davridan olinib yozilg'oni uchun tomoshaning so'nggiga uning natijasini to'la ko'rsataturg'on bir ko'rinush ortdirilg'on. Bu ko'rinush xiyla muvaffaqiyatlik tuzilgan», deb yozadi. Ayni vaqtda asarda Fitratga xos «so'z ustalig'i xiyla kuchlik»ligi, bu jihatdan tomosha «katta bir adabiy ahamiyatga molik» ekanini ta'kidlaydi.

Cho'lpon G'.Zafariyning «Halima» musiqali dramasini keng tahlil qiladi. 1922-yilda «Namozbozlar hayoti», «Xiyonatkorlar jazosi», «Er-xotin», «Arshin mol olon» haqida bir yo'la to'rtta maqola yozadi. Shuningdek, o'zbek sahnasida qo'yilgan «Gunoh», «Uzun quloq bobo», «Kovai ohangaron» kabi asarlarni ham diqqatdan qochirmadi — ular haqida taqrizlar yozib, yutuq va kamchiliklarini atroflicha baholadi. Bular bari Cho'lponning 20-yillarda adabiy va teatr tanqidchiligining faol jonkuyarlaridan biri bo'lgani, zamondosh dramaturglar ijodiga hurmat hamda adolat bilan yondashganini ko'rsatadi.

Haqiqiy tanqidchi hech qachon o'z e'tiqodidan, qarashlaridan qaytmasligi, manfaatbozlikka, noxolislikka berilmasligi, hamisha haqqoniy, halol fikr yuritishi kerak. Cho'lponning 20–30-yillarda yozilgan aksar maqolalarida shu xususiyatlar xos ekanini ko'ramiz.


Xulosa qilib aytish mumkinki, shoir va adib Cho'lpon o'zbek tanqidchiligida adabiy jarayonning sergak kuzatuvchisi, teran va haqqoniy fikrlaydigan, o'tkir muammolarni ko'tarib chiqadigan munaqqidlardan biri sifatida o'z o'rniga ega. Uning bu yo'nalishdagi merosi ham asrlar osha millat ravnaqiga xizmat qilaveradi. Muhimi, Cho'lpon Mustaqillik tufayli Vatanga, xalqiga qaytarildi, bundan buyon doimo xalqi, Vatani bilan birgadir. «Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchash-

malariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz»,¹ – degan Prezidentimiz I.A.Karimov fikri Cho‘lponning ijodiy taqdiriga ham daxldordir.

Tayanch tushunchalar: «Sadoi Turkiston», Turkiston adabiyoti, Chig‘a-toy gurungi, taqriz, adabiy-tanqidiy maqola, maqola-portret, Tavfiq Fikrat, R.Tagor, Abo Muslim, Fitrat, adabiyot yashasa – millat yashaydi, Sharq va G‘arb adabiyoti, yangi adabiyot, teatr tanqidchisi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Cho‘lponning munaqqidlik faoliyatining o‘rganilishi tarixi haqida so‘zlang.*
2. *«Adabiyot nadur?» maqolasi nimadan bahs etadi?*
3. *Cho‘lpon adabiy tanqidning qaysi janrlarida ish ko‘rdi?*
4. *Cho‘lpon teatr tanqidchisi sifatida qanday taqriz va maqolalar yozgan? Ularda qanday masalalar ko‘tarilgan?*
5. *Cho‘lponning Abdurauf Fitrat ijodiga munosabatini izohlang.*
6. *Cho‘lpon maqolalarining ahamiyati nimada ko‘rinadi?*

_____ 

¹ *Karimov I. Ma‘naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: 1997. 234-bet.*

VADUD MAHMUD (1898–1976)

REJA:

1. Vadud Mahmud ilmiy merosining o'rganilishi.
2. Vadud Mahmud o'zbek adabiy tanqidchiligining yorqin namoyandasi.
3. Ajziy ijodi xususida.
4. Cho'lpon va Fitrat ijodiga zamondoshlarining munosabati.



Vadud Mahmud ilmiy merosining o'rganilishi. Vadud Mahmud 20-yillar adabiy jarayonida o'ziga xos o'rin egallagan munaqqid, o'zbek adabiy tanqidining shakllanishida katta hissa qo'shgan yorqin iste'dodlardan biridir. Ijodi hayotligida alohida o'rganilmagan bo'lsa-da, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, A. Qodiriy, A. Sa'diy kabi ulkan ijod sohiblari uning ijodiga, shaxsiga alohida hurmat bilan qaraganliklari ma'lum.

Vadud Mahmud panturkist, idealist tavg'alari ostida adabiy jarayondan chetlashtirilgach, to mustaqillikkacha u haqda adabiyotlarda salbiy munosabat bildirib kelindi. Shunga qaramay, sho'ro davridayoq «Barhayot an'analar» kitobi va qator maqolalarda bu munaqqid haqida ijobiy mulohazalar yuritildi.

Istiqloldan so'ng uning hayoti va ijodi o'rganila boshlandi, maqolalari chop etildi. Bu ishda, ayniqsa, adabiyotshunos Bahodir Karimning hissasi katta. U Vadud Mahmud ilmiy merosi haqida qator maqolalar e'lon qildi, nomzodlik dissertatsiyasini (1995) yozdi. «Jadid munaqqidi Vadud Mahmud» (2000) risolasini yaratdi.

Professor Naim Karimov ham «Istiqlolni uyg'otgan shoir» risolasida Vadud Mahmud va Cho'lpon munosabatlariga to'xtalib, munaqqid ijodi haqida xolisona ma'lumotlarni keltirdi.

Tanqidchi uslubi, mahorati muammolarini tadqiq etishda Vadud Mahmud ijodi yangi-yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Shu nuqtayi

nazardan uning asarlari chop etilishi va yanada chuqur, atroflicha o'rganilishga munosibdir.

Vadud Mahmud – o'zbek adabiy tanqidchiligining yorqin namoyandasi. O'zbek tanqidchiligi shakllanishi va rivojida Vadud Mahmud o'ziga xos o'ringa ega. U adabiy jarayonga Samarqand adabiy muhiti namoyandasi sifatida 20-yillarda kirib keldi. U Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Siddiqiy-Ajziy, Vasliy, Hoji Muin, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy singari shoir va muallimlar muhitida tarbiya topdi. Vaqtli matbuotdagi maqolalarida Vadud Mahmudiy, Vadud Mahmud o'g'li, V.M., Vov., V. imzolarini qo'yladi.

Vadud Mahmud 1898-yili Samarqandda ziyoli ruhoniy oilasida tug'ildi, jadid maktabida o'qidi, Bedil, Navoiy, Fuzuliy g'azallarini yod oldi, ilmga, adabiyotga juda erta ixlos qo'ydi.

Bilimdon, teran fikrli inson bo'lib etishdi, fors, turk va rus tillarini chuqur o'rgandi.

Vadud Mahmud ijodiy-amaliy faoliyati rang-barangdir. U 20-yillarda maorif sohasida ishladi, maktab, bola tarbiyasi haqida o'nlab maqolalar yozdi. Garchand mavzu va janr jihatidan xilma-xil asarlar yozgan bo'lsa-da, 20-yillar adabiy jarayonida u adabiyotshunosmunaqqid sifatida tanildi. «Vadud Mahmud adabiy-tanqidiy maqolalar yozar ekan, avvalo, badiiy asarning nafisligiga, nozik yasalishlari, badiiyati va shakliy tuzilishiga, uslubi va tiliga e'tiborni qaratadi... She'rdagi musiqiy ohang, chuqur dard va san'atkorona mukammallikni qadrlaydi»¹, deb yozadi uning ilmiy merosi tadqiqotchisi B.Karim.

Vadud Mahmud «Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz» maqolasida (1925) Cho'lpon, Fitrat, A.Qodiriylarga, o'zbek nasri, nazmiga asosli va xolis baho berdi. Ammo uning millatparvarlik ruhi bilan sug'orilgan fikr-mulohazalari ham, o'zi ham quvg'in ostiga olindi. 1927-yil O'zbekiston madaniyatchilarining ikkinchi qurultoyi zalidan «Cho'lpon maddohi» aybi bilan quvildi. Shundan keyin Botu va S.Husaynlar matbuotda uni qoralovchi maqolalar bilan chiqdilar. Hatto R.Majidiy nafis estetik did va ilmiy qobiliyatga ega Vadud Mahmudni «idealist tanqidchi» deya atashgacha bordi. Zero, «proletariat davri» tafakkur va dunyoqarashini o'zida shakllantirgan qarashlar Vadud Mahmudning adabiy-estetik didi va bilimini hazm qila olmas edi.

¹ Bahodir Karim. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. – T.: 2000. 11-bet.

Vadud Mahmud «Bu kungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz» obzor maqolasida davr adabiy jarayoniga mumtoz adabiyot xususiyatlari hamda tasavvuf falsafasi bilan uzviy aloqadorlikda nazar tashlaydi. Yangi adabiyotning paydo bo'lish jarayoni, shakl va mazmun, ijodkor va jamiyat, she'r texnikasi, umuman, go'zal san'at to'g'risidagi qarashlarini bayon qiladi.

1935-yilgi adabiy tanqid to'g'risida ma'ruza qilgan R.Majidiy Vadud Mahmudni shu maqolasiga asoslanib, burjuaziya yozuvchisining tanqidchisi deb baholagani bir jihatdan, davr adabiy siyosati millatparvarlik ruhidagi tanqidning ko'zini ochirmaslikka harakat qilganini bildirsa, ikkinchi bir jihatdan, davr adabiy tanqidga ham xuddi badiiy adabiyot kabi mafkurviylikni bosh mezon qilib qo'yganini ko'rsatadi. Holbuki, «Tanqidida yaxshigina kuchga ega bo'lgan Vadud o'rtoq» (N.Hakim) ning asl «vadudona» qiyofasi, olimlik salohiyati, 20-yillar adabiy tanqidchilari orasidagi o'ziga xos individual uslubining eng muhim xususiyatlari shu maqolasida tajasumini topgan edi.

Vadud Mahmud islom va tasavvuf falsafasiga, badiiy asardagi til va uslubga, shuningdek, adabiyotning go'zalligi va mohiyatiga, nafosatni yuzaga keltiruvchi, inson qalbini zavqlantiruvchi unsurlarga alohida e'tibor bilan qaradi. Ma'lum darajada, hatto jahon adabiyoti tajribalariga tayandi, ulardagi badiiy yuksaklikka havas qildi. O'z maqolalarida R.Tagor, M.Gandi, Edgar Po singari mashhur faylasuf va adiblarning qarashlaridan xabardor ekanini ko'rsatdi. O'z mulohazalarini asoslashda, amerikalik mashhur adib va shoir E.Po ijodiy tajribalariga murojaat etdi. Vadud Mahmud uning «Ijod sirlari» deb atalgan ijodiy tajribalari asosida yozilgan maqolasiga to'xtalib, E.Poning badiiy asar yaratish uchun tasvirlash uslublari ustida izlanish zarurligi haqidagi fikrlarini chuqur tahlil qiladi. Badiiy asar o'quvchi ko'ngliga xush yoqishigina emas, uning ruhini yuksaltirishi lozim. «She'rda ta'sir asosan go'zallik vositasi bilan beriladir, go'zallik va go'zal narsalarni his etganda inson ruhi yuksaladir». Amerikalik adibning fikri munaqqid didiga mos keladi. Vadud Mahmud 20-yillar o'zbek she'riyatidagi mazmun va shakl mutanosibligiga, vazn va ohang uyg'unligiga, misralar tuzilishidagi tabiiylik va ravonlikka, umuman, she'r texnikasiga alohida e'tibor berish zarurligini uqtiradi.

«Ayta olamizkim, shoirlarimiz va shoir bo'lg'uvchilarimizning eng katta ahamiyatsiz qarog'on va diqqat qilmag'on nuqtalari shundadir.

Ularning mazmunlari bilan olg'on shakllari, qabul qilg'on vazn va ohanglari, so'z tuzilishlarining aloqasi yo'q hukmidadir. Bu robitalarga eski she'rga usta Fitrat va yangi she'rimizning birinchi namoyandasi Cho'lponning oz-moz rioya qilg'onini ko'ramiz», deb yozadi Vadud Mahmud. E'tibor bering, hatto Fitrat va Cho'lpondek she'r poetikasi ustalariga, shu kungi jarayonning eng peshqadamlari ijodiga bu darajadagi munosabati uning o'ziga ham, o'zgalarga ham naqadar talabchan bo'lganiga yaqqol dalildir. So'ng o'zbek she'riyatidagi go'zal nuqtalarni yosh shoirga ibrat qilib ko'rsatish, fikrlarini dalillash maqsadida E.Po asarlarini «Sharq turk adabiyotining ikkinchi oltin davri boshlig'i bo'lg'on Umarxon» she'rlari bilan taqqoslaydi.

Bu maqoladagi qarashlar ilgari surilgan fikrlar Vadud Mahmud maqolalarining o'ziga xosligini, uning ilmiy-estetik tafakkur tarzidagi xosliklar yuzasidangina emas, umuman, 20-yillar adabiy tanqidchiligining aniq ko'rinib turuvchi tamoyili darajasida bo'lmasa-da, harqalay o'z davri uchun jiddiy xususiyatlarga molik jihatlari yuzasidan xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Vadud Mahmudning 20-yillar adabiy jarayonidagi qizg'in faoliyatini, ilmiy salohiyatini, keng ko'lamli dunyoqarashi, asarni nozik tushungan holda tahlil etishini, qaynoq qalbdan sizib chiquvchi fikrlar mohiyatini hayotga bog'lay olish qobiliyatini boshqa asarlarida ham ko'rish mumkin.

Ajziy ijodi xususida. 20-yillar adabiy tanqidchiligining xos xususiyatlaridan biri shuki, unda ma'lum bir ijodkor shaxsi, yashagan davri va asarlarini uyg'un o'rganuvchi adabiy portret xarakteridagi maqolalar ko'plab yaratildi. Adabiyot tarixi masalalarini ham hozirgi adabiy jarayon muammolari bilan bog'lanishda o'rganishga harakat qilingan Vadud Mahmudning Alisher Navoiy, Fuzuliy Bag'dodiy, Ajziy kabi shoirlarga bag'ishlangan maqolalari shular jumlasiga kiradi. Bu tipdagi maqolalar o'zining tuzilishi bilan ham Vadud Mahmudning iste'dodli tanqidchi ekanligidan guvohlik beradi.

Har bir maqola ko'pincha, muqaddima va xotimadan tashqari kichik sarlavhalar ostida bo'limlarga ajratiladi, ularda aniq bir masala qo'yilib, tahlilga kirishiladi. Bu jihatdan, ayniqsa, «Turk shoiri Ajziy» (1924) maqolasi 20-yillar adabiy tanqidining yorqin namunasi bo'la oladi. Maqola «Boshlang'ich», «Ajziyning ishq» va «Ajziyning ijtimoiy fikrlari» sarlavhali kichik qismlarga bo'lingan. Maqola boshidayoq maqsad aniq belgilab olinadi. Ushbu so'zlar olim kamtarligidan mujda berib turadi: «Bu yozg'onlarim bir tanqid emasdur, chunki hali tanqid

ishlariga kirishishim uchun kerak qadar kuch manda yo'qdur. Maqsadim hech bo'lmasa buyuk kishilarimiz bilan elimizni tanishtirmoqdur». Shu mulohazalardan keyin u adabiy davr haqida fikr yuritadi: «Chig'atoy adabiyoti davri adabiyot davrining otasidir. Lutfiylar, Navoiylar, Sulton Husaynlar, Boburlar... adabiy davrlarning bizga ma'lum bo'lg'on gullaridurlar». Bu fikrlar uning mumtoz merosimizga chuqur hurmatini ko'rsatib turibdi va adabiy merosga salkam inkor munosabat hukm surib turgan bir vaqtda, uning xolis, millatparvar qiyofasidan tashqari, jur'atli, jasoratli shaxsi haqida ham tasavvur berdi.

Olim maqolada Ajziyning tarjimai holi haqida chuqur ma'lumot beradi, asarlarini tahlil etadi. «Ajziy ijodining adabiy negizini ilmiy-estetik va ijtimoiy jihatdan ancha chuqur hamda batafsil yoritib beradi» (B.Karim).

Vadud Mahmud shoirning yurak qoni bilan yozilgan she'ridagi ishqni, dardni uning millatga, zamonga munosabati nuqtayi nazaridan tekshiradi. Munaqqidning uslubi, fikrlash tarzi, tili e'tiborga loyiq: «Ajziy shevada Fuzuliy yo'lini tutgan shoirlardandur. Bu shoirimiz ham oshiqdur. Faqat buning ishq na u tasavvuf ishqidir, na realist shoirlarning zohiriy ishqidir. Shoirimiz oshiqdur, ma'shuq esa xalqdur, millatdur. Millati va xalqiga muhabbati uning ishqidir. U ishq bizga shuni bildiradur...»¹.

Maqoladagi ehtiros, shoirona kayfiyat, obrazlilik o'quvchini o'ziga tortadi. Vadud Mahmud fikrini asoslash uchun Ajziy she'rlaridan yorqin misralarni tanlab, chuqur tahlil etadi.

Vadud Mahmud 20-yillarning bir qator iste'dodli ijodkorlariga yuksak baho berdi. U ayni vaqtda o'tmishdagi buyuk san'atkorlarga hurmat bilan qaradi. Qolaversa, «Navoiygacha turk adabiyoti», «Alisher Navoiy», «Fuzuliy Bag'dodiy», «Navoiy uchun», «Turk adabiyoti tarixi», «Ilmiy adabiy vazifalar qarshisida» singari maqolalarida adabiyot tarixining dolzarb masalalarini ko'tarib chiqdi.

U «Ilmiy-adabiy vazifalar qarshisida» nomli maqolasida: «Alisher Navoiy turk adabiyotining otasidir.... Navoiy buyuk adib, buyuk shoir, buyuk dohiydur» deya uni o'rganishga da'vat etdi. Uning 500 yillik yubiley munosabati bilan «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalida (1925) chop etgan adabiy portret xarakteridagi maqolasi XX asrda o'zbek olimlari tomonidan e'lon qilingan dastlabki ishlardan biri edi. Navoiy ijodi haqidagi maqolada, ayniqsa, u buyuk mutafakkirning

¹ Vadud Mahmud. Turk shoiri Ajziy // O'zAS.1989. 10-noyabr.

tasavvufga munosabatini to'g'ri izohlashi jihatidan hozirgi adabiyot-shunoslik uchun ham o'rnak bo'la oladi.

Fuzuliy haqida yozgan maqolasida ham masalaga shu nuqtayi nazardan yondashuvi seziladi va rivojlantiriladi. Bu maqola 20-yillarda o'zbek o'quvchilarini Fuzuliy hayoti va ijodi bilan tanishtiruvchi dastlabki manbalardan biri sifatida qimmatlidir.

Cho'lpon va Fitrat ijodiga zamondoshlarining munosabati. Vadud Mahmud zamondoshlarining ijodiga xolis, haqqoniy baho bergan, mustaqil adabiy, ilmiy fikr-mulohazalari, dunyoqarashi bilan ko'pchilikning hurmatini qozongan munaqqid edi. Buni Cho'lpon ijodiga munosabatida yaqqol ko'rish mumkin. 20-yillarda tanqidchilik Cho'lpon ijodiga ikkiyoqlama munosabatda bo'ldi.

Zarif Bashir, Ayn (Olim Sharafiddinov), Usmonxon Eshonxo'jayev kabilar Cho'lpon ijodiga munosabatda, asosan, mafkurani bosh mezon qilib oldilar, shu ravishda uning ijodini, dunyoqarashini qoralab chiqdilar. Shu tariqa Cho'lpon ijodini mafkuraga bog'lovchi bir oqim paydo bo'ldi va bunday salbiy munosabat deyarli sho'ro tuzumi yemirilguncha davom etdi. Ammo bu oqimga qarshi o'sha davrning o'zidayoq Cho'lpon ijodini xolis baholovchi munaqqidlar guruhi ham faoliyat ko'rsatdi. Uning boshida Vadud Mahmud turdi va Cho'lpon she'riyatini to'g'ri talqin etgan munaqqidlardan biri, ehtimol, birinchisi sifatida tarixda qoldi. «Turkiston» gazetasining 1923-yil 10-dekabr sonida uning «Buloqlar» to'plamiga yozgan taqrizi bosilib chiqadi «Bu kun o'zbek adabiyotiga yana yangi to'n kiygizildi, Cho'lponning «Buloqlar» otlig' yangi she'rlar to'plami bosilib chiqdi. Cho'lpon o'zbekning yangi shoiridir, shuning uchun o'zbek elini bugungi ruhi, holi, sezgisi «Buloqlar»da qaynaydi, o'zbek tili, o'zbek ohangi «Buloqlar» da sayraydi.

«Buloqlar»da sayraydir, o'qiydir, o'zbek ruhi to'liqlari bunda ko'piradir, ko'klar tomon uchadir, ko'tariladir. «Buloqlar»da o'zbek sezgisi yangraydir, sizlaydir, titraydir, shuning uchun bu to'n shunday bir to'ndirki, o'zbek ruhidan, jonidan bitgandir. Uning badanini asramoq, qo'rimoq uchun o'z bag'riga bosqondir»¹.

Vadud Mahmud Cho'lponning «Tong sirlari» to'plamiga bag'ishlab ham kattagina maqola yozadi. Unda shoir ijodiyotining kamolotini «Ko'ngil», «Bas endi», «Yer asirlari» she'rlari misolida yoritishga

¹ *Vadud Mahmud*. Tanlangan asarlar. — T.: Ma'naviyat. 2007, 78–79-betlar.

intildi. Yunus Hoji Maqsudiy o'zining «Vadud Mahmud va Cho'lpon» maqolasida (O'zAS, 1993.10-sentabr) qiziq bir dalilni keltiradi. U Vadud Mahmud bilan Cho'lpon, A.Qodiriy, A.Avloniy kabi ijodkorlar o'rtasida inoqlik, do'stlik tuyg'ulari kuchli bo'lganini eslaydi. Shu munosabat bilan u Vadud Mahmudning «Tong sirlari» to'plamiga so'zboshi yozganini, biroq u kitob bilan birga chiqmaganini qayd etadi. Maqolada Vadud Mahmud Cho'lponning fazlu kamoli ulug'ligini, zabardast shoirligini ta'kidlab, «u muhabbat va sadoqat osmonini nurga to'ldirgan yorug' yulduz», deb ta'riflagan. So'ng «Ko'ngil», «Kishan», «Somon parchasi» she'rlarini tahlil qilaturib, ko'zlariga yosh olgan ekan.

Vadud Mahmud Cho'lpon ijodidagi Istiqlol ruhini, poetikasidagi betakror, noyob fazilatlarini, she'rlaridagi falsafiy yo'nalishlarni, qofiya, vazn, ohang birligini nozik did bilan maqolada ko'rsatadi, shoirning noyob ijodi, jo'shqin hayrat-shijoatiga hamnafas ravishda munaqqidning ham olov qalbi yonib turgandek, ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Vadud Mahmud Abdurauf Fitrat haqida nainki, 20-yillar adabiy jarayoni yoki adib ijodi, balki umuman, o'zbek adabiyoti tarixi uchun o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lguvchi qator maqolalar yozdi. Eng avvalo, Fitrat ijodi xususida xolis ilmiy fikrlar bildirdi. Mohiyatan Vadud Mahmud faoliyati Cho'lpon va Fitrat asarlariga taqriz yozishdan boshlangan desak yanglishmaymiz. Munaqqidning nishona maqolasi «Chin sevish» sahnaga qo'yilishi munosabati bilan yozilgan deyish mumkin. Unda o'zbek teatrining ahvoli to'g'risida jonkuyarlik bilan fikr bildiriladi: «O'zbek sahnasida shu kungacha o'ynab kelingan pyesalarning kuchlisi, eng buyugi o'tkir yozuvchimiz Fitratning hind turmushidan deb yozilgan «Chin sevish» pyesasi ekanligini hamma iqrar etsa kerak».

V. Mahmudning adabiy tanqid, xususan, taqriz tabiatiga oid qarashlari ham e'tiborlidir. «Intiqod — (tanqid) — taqriz kamchiliklarni to'ldirmoq, tuzuklarini bilmoq-tanimoq uchun bir quroldir», deb yozadi u. V. Mahmud davrning aksar zamonasoz tanqidchilari, adabiyotshunoslari kabi tekshiruvga mezoni qilib sinfiylik yoki kommunistik g'oyaviylik prinsipini asosiy mezon qilib olmaydi. U asarga xolis olim va san'atkor ko'zi bilan qaraydi, san'atning ichki qonuniyatlarini asos qilib oladi. Dramadagi badiiy haqiqat, voqea va badiiy obrazlar hayotiyliigi, til va xarakter masalalarini tekshiradi, pyesaning yutug'i sifatida «zarbulmasal o'rniga ishlatish mumkin bo'lg'on»

quyidagi sermazzmun hikmatlarni keltiradi: «Yurak-yurak ekan, sevmak-sevimlik istar», «Bir yovni yurtidan haydamoq, bir yurti yov qo'lida ko'rmakdan qiyin emasdur» va hokazo. Dramaning nafis va go'zal o'rinlarini diqqat markazida tutgan Vadud Mahmud «Fitrat asarlarining bir ortiqligi uning eng yuksak va eng mukammal tashbeh, mubolag'a va istioralarga ega bo'lishidir», degan xulosaga keladi. Shuningdek, u pyesadagi ayrim personajlar nutqida sun'iy donishmandlik va ingliz zobitlari tabiatiga muvofiq kelmaydigan yengiltaklik borligini ham alohida ta'kidlashni unutmaydi.

Asar tiliga diqqatini qaratib, uning og'ir o'qilishini tanqid qiladi, buni yozuvchining kamchiligi hisoblaydi. Maqola oxirida shunday yozadi: «Xulosa: «Hind ixtilolchilari» bizning adabiyotimizda birinchi o'rinni tutadurg'on asarlardandur. Mukammal tasvirlarga, istioralarga, mubolag'alarga boy asardir. Fitrat adabiyotimizda ishq hayajonlarini yaxshi tasvir etadurg'on bir muharrirdur. Uning har asarida shu ishq o'runlari yuksak ma'noga boydir»¹.

A.Sa'diyning «O'zbek yosh shoirlari» (1924) maqolasida Fitrat ijodining noo'rin tanqid qilinishiga javoban Vadud Mahmudning «Adabiy tanqidga bir nazar» maqolasi yuzaga keldi. U Fitratni o'tkir dalillar, asosli nuqtayi nazari bilan himoya qiladi.

A.Sa'diy Fitrat ijodini jiddiy tekshirmay, hatto qaysi asari qachon yozilganini aniqlamay, «Fitrat ijodi 1917-yil fevral inqilobi bilan boshlangandir» deb faktik xatoga yo'l qo'yadi. Har holda Fitratni shoir va adib o'laroq Turkiston 1910 chi yildan taniylarkim, o'shal vaqtlarda uning yozgan she'rlari hatto yozma holda qo'ldan qo'lga yurar edi, — deb e'tiroz bildiradi Vadud Mahmud A. Sa'diyga.

A. Sa'diy maqolasining umumiy ruhida tanqid qilishga moyillik kuchli. U Fitratni deyarlik shoir hisoblamaydi, faylasuf sifatida bilishni istab, ba'zi zaif dalillar keltiradi. Vadud Mahmud Fitrat ijodini ana shunday noo'rin tanqidlardan himoya qiladi: «Birinchidan, bu bir adabiy tanqid emasdur. Chunki bunda «adabiy» ma'no otidan hech bir narsa yo'qdir. Tilni, hayotni, ruhni va asosan she'rni tushunmay yuritilgan fikrni adabiy deb aytmoq munosib emasdur. Shu e'tibori bilan bu ilmiy narsa ham emasdur», — deb yozadi «Adabiy tanqidga bir nazar» maqolasida (1924).

Albatta, hozirgi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda har ikkala maqolada bahstlab o'rinlar yo'q emas. «20-yillarda

¹ Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. 78-bet.

A. Ismoilzoda va A. Sa'diy milliyat yuzasidan, Julqunboy va Nazir To'raqulov matbuot xususida, Julqunboy va G'ozii Yunus «Mushtum» jurnali hamda satira va yumor haqida, Abdurauf Fitrat va Ne'mat Hakim, Elbek va Zehniy o'zbek tilining nazariy asoslari ustida bahs-munozara yuritgan edilar.

Bu davr matbuoti sahifalarida bunga o'xshash bahslar ko'plab uchraydi. A. Sa'diy bilan Vadud Mahmud o'rtasidagi adabiy-ilmiiy tortishuv esa 20-yillar adabiy tanqidchiligidagi adabiy bahs janrining eng tipik namunasidir¹. A. Sa'diy bilan Vadud Mahmudning «Adabiy-tarixiy savodsizlikka qarshi» va «A. Sa'diyning savodi» maqolalari shunday bahs asosiga qurilgani bilan ajralib turadi.

Vadud Mahmud, shuningdek, 20-yillar madaniy hayotida taniqli olim Ismoil Hikmatning 4 jildlik «Turk adabiyoti tarixi» kitobiga bag'ishlangan maxsus taqriz yozib, uning yutuq va kamchiliklarini keng tahlil qildi.

1927-yilda qurultoy zalidan haydab chiqarilgan Vadud Mahmud 1929-yilda O'zbekistondan badarg'a qilindi. 1934-yilda surgundan qaytgach, 1937-yili yana hibsga olingunigacha, Toshkentda yashadi. 1956-yili qamoq muddatini o'tab kelganidan keyin ham muxoliflari uni O'zbekistonga sig'ishtirmadilar. Olim Dushanbega ketdi va u yerda muqim yashadi, Tojikiston FA Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. Bu iste'dod egasi hayotining oxirgi yillarida ikki jildlik «Farhangi zaboni tojik»ni tuzishda qatnashib, tojik leksikografiyasi tarixidagi salmoqli bir tadqiqot yaralishiga o'z hissasini qo'shdi. Umriining qariyb o'n yilini Bedil ijodini o'rganishga bag'ishladi. Vadud Mahmud 1976-yili hayotdan ko'z yumdi.

Fitrat Vadud Mahmudning adabiy-nazariy qarashlariga ijobiy baho bergani va hatto «Adabiyot qoidalari»ning «El adabiyoti» bo'limida uning yozma va el adabiyoti tafovuti, o'xshash va qarama-qarshi jihatlari, og'zaki adabiyotning o'ziga xos qirralari xususidagi qarashlariga yuqori baho berishi yosh olim ijodining o'z vaqtidayoq ustozlar tomonidan munosib baholanganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, 20-yillar adabiy jarayonida erkin, ijodiy faoliyat ko'rsatgan V. Mahmud asarlarida jahon adabiyoti tajribalariga, tasavvuf va islom falsafasiga tayanish, amerika, turk adib va munaqqidlaridan o'rganish kabi xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Mahorat va uslub masalalarini o'rganishda uning ijodi bugungi tanqidchilar uchun

¹ Bahodir Karim. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. — T.: 2000. 59-bet.

manba, namuna bo'la oladi. Fikrni aniq fakt asosida ilmiy dalillash; badiiy asarni, asosan, estetik nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning badiiyati, shakli, tili va uslubini o'zaro uzviylikda tushunish; ijodkorga xolis baho berish; badiiy asardagi nafasat va matnning ichki strukturasi asoslanish kabi fazilatlar V.Mahmud tadqiqotlarining xususiyatlaridir.

Tayanch tushunchalar: vadudona, robita, jadid munaqqidi, «Turkiston» gazetasi, tasavvuf, adabiy-tanqidiy bahs, badiiy til, panturkist, she'r texnikasi, idealist, turk adabiyoti, Ajziy ishq, Edgar Po, intiqod, estetik tafakkur, ijod sirlari, Navoiyda tasavvuf, Fuzuliy.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Vadud Mahmud ijodining o'rganilishi haqida nimalar bilasiz?*
2. *Vadud Mahmudning tanqidga munosabati qanday va bu sohadagi qarashlari qaysi ishlarida ko'rinadi?*
3. *Vadud Mahmudning madaniy merosga munosabati qanday bo'lgan?*
4. *Tanqidchining Ajziy ijodiga bag'ishlangan maqolasi haqidaso'zlang?*
5. *Vadud Mahmud Cho'lpon ijodiga qanday munosabatda bo'ldi?*
6. *U Fitrat ijodiga bag'ishlab qanday tadqiqotlarni amalga oshirdi?*



O'ZBEK ADABIY TANQIDI MAFKURAVIYLASHTIRISH VA REALIZM UCHUN KURASH JARAYONIDA (1927–1990)

REJA:

1. 30-yillar adabiy tanqidi.
2. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi davr adabiy tanqidi.
3. Tanqid zamonaviylik uchun kurashda. G'oyaviylikka e'tiborning kuchayishi.
4. Adabiy tanqidda konflikt, qahramon, tipiklik muammolari.
5. Tanqidda badiiylik va mahoratga e'tiborning kuchayuvi.
6. Adabiy jarayonda munazirlikning o'rni.
7. Istiqloq shabdalari va adabiy tanqid.
8. Adabiy tanqid va milliy g'oya.

30-yillar adabiy tanqidi. Adabiyotni mafkuraviylashtirish sho'rolar to'ntaruvidan keyin qayta yuzaga chiqqan bo'lsa-da, bu jarayon aslida Leninning «Partiya tashkiloti va partiya adabiyoti» maqolasi ta'sirida ancha ilgari boshlangan bo'lib, 20-yillarning o'rtalari, xususan, 1927-yildan o'zining dastlabki gurillash pallasiga kirdi va shu vaqtdan e'tiboran yildan yilga o'zining talab va prinsiplarini kuchaytirib, chuqurlashtirib bordi.

Bu holat butun sobiq Ittifoq adabiy jarayonida kechganidek, o'zbek adabiy tanqidchiligida ham o'zini ko'rsata bordi. A.Sa'diy birinchilardan bo'lib, adabiy tanqidni davr mafkurasiga bog'lashga urinib, Hamzani «inqilobiy ruhdagi talant» deb baholashi bilan bu sohada namuna ko'rsatdi. Adabiyotni mafkuraviylashtirishda, ayniqsa, «Partiyaning adabiyot sohasidagi siyosati» (1925), «Adabiy-badiiy tashkilotlarni qayta qurish haqida»gi (1932) qarorlar dastur vazifasini o'tadi.

Bu hujjatlarda yangi tipdagi yozuvchi va yangi tipdagi adabiyotni vujudga keltirish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Ularda g'oya badiiy ijod bayrog'idir degan fikr asarni, ijodkor faoliyatini baholashda asosiy mezonga aylantirildi.

30-yillardan Oybek, G'.G'ulom, M.Shayxzoda, H.Olimjon, Uyg'un, A.Qahhor, U.Nosir, A.Umariy ijodlari shiddat bilan o'sa boshladi. G'oyaviy-badiiy saviyasi turli daraja va yo'nalishdagi «Kecha

va kunduz», «Sarob», «Qullar», «Dushman», «Qutlug' qon» kabi romanlar; «Ko'kan», «Jontemir», «O'ch», «Dilbar – davr qizi», «Navoiy», «Zaynab va Omon», «Oygul bilan Baxtiyor», «Norbo'ta» va «Naxshon» kabi poemalar; «Bemor», «O'g'ri», «Shum bola», «Yodgor» kabi hikoya va qissalar maydonga keldi. Yashin, U. Ismoilov, N. Safarov, Z. Fatxullin o'zlarining bir qator dramatik asarlarini yaratdilar.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashkil etildi. 1934-yil 7–11 martda uning 1-syezdi bo'lib o'tdi. Syezdda R. Majidiy unga rahbar etib saylandi. Butunittifoq yozuvchilar syezdida (1934) sho'ro adabiyotining yetakchi ijodiy metodi sotsialistik realizm ekanligi uzil-kesil belgilab qo'yildi.

Keyinchalik yarim asrdan ortiqroq vaqt mobaynida butun sho'rolar adabiyotining boshiga bitgan – ijodni ham, yozuvchini ham bir qolipga solishga intilgan, adiblar boshi ustida partiyaviylik va sinfiylikdan iborat tegirmon toshini aylantirgan – balo mana shu sotsialistik realizmdan boshlandi. «Literaturniy kritik» jurnali barcha jumhuriyatlarda adabiy tanqidchiligiga «nazariy va amaliy yo'l ko'rsatuvchi «yo'ldi yulduzlik» vazifasini o'tay boshladi.

Jurnalning, xususan, adabiy tanqidchilikni vulgar sotsiologizm asoratidan qutqarib qolish yo'lidagi intilishlari alohida diqqatga sazovor bo'lsa-da, yangi metod asoslaridagi partiyaviylik, xalqchilik, sinfiylik uchun boshlab bergan kurashlari, barcha milliy tanqidchilik, shu jumladan, o'zbek tanqidchiligida ham izchillik bilan davom ettirilib, badiiy adabiyotning erkin va haqqoniy taraqqiyotiga katta to'g'anoq bo'ldi, ko'pdan ko'p iste'dodlarning nohaq nobud bo'lishini tezlashtirdi.

Sotsrealizm haqida rus tanqidchiligida aytilgan fikrlar o'zbek tanqidiga aynan ko'chirib o'tkazildi. O. Hoshimovning «O'zbek sho'ro adabiyotining bir necha asosiy ijodiy masalalari», R. Majidiyning «Bolshevizmning buyuk san'ati uchun», H. Olimjonning «Sotsialistik realizmni egallash yo'lida», Oybekning «Sotsialistik lirika uchun» singari maqolalarida sho'ro tuzumining badiiy adabiyotdagi siyosati yaqqol sezilib turadi. Lekin bu maqolalarda tanqidiy tafakkurda professional saviya chuqurlashib borayotganini ham sezmaslik mumkin emas. Bu maqolalarda adabiyotning sinfiyligi, g'oyaviyligi va partiyaviyligi masalasidagi xato va biryoqlamalikdan tashqari, so'z san'atining o'ziga xosligidan kelib chiqib aytilgan asarlardagi ayrim yutuq va kamchiliklar to'g'ri ko'rsatilgan, shakl va mazmun, uslub va individuallik, xarakter

va sharoit singari omillar dialektik birligi to'g'ri talqin etilgan holatlar ham yo'q emas edi.

30-yillardagi maqolalarga munosabatda ana shu xususiyatlarni doimo nazarda tutish kerak bo'ladi. Shu jarayonda o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunoslari safi I.Sultonov, H.Yoqubov, Saidg'ani Valiyev, Buyuk Karimiy, G'.Karimov, Yu.Sultonov singari qator iste'dodli yoshlar hisobiga kengaydi. Nazariy va amaliy jihatdan teran fikr yuritish iqtidoriga ega I.Sulton va H.Yoqubovlar tezda el nazariga tusha boshladilar.

Ayniqsa, H.Yoqubov 30-yillarning birinchi yarmidayoq «G'afur G'ulomning hajviy hikoyalari», «Uyg'un ijodiyoti», «G'afur G'ulom ijodiyoti», «Hamid Olimjonning ijodiy yo'li» singari pishiq maqolalari bilan adabiy jarayonda mustahkam o'rin egalladi.

30-yillardan adabiy tanqidda bolalar adabiyotiga e'tibor kuchaydi. Ayrim gazeta sahifalarida «Bolalar adabiyotiga diqqat qilingiz» rukni ham ochildi. H.Yoqubovning «Bolalar adabiyotining sifatini ko'taraylik», Sh.Sulaymonning «Bolalar adabiyoti to'g'risida», Z. Diyorning «Bolalar kitobi haqida», Yu. Latifning «Zafarning ijodi haqida» kabi maqolalarida bolalar adabiyotiga oid muammolar ko'tarib chiqildi; qahramon, badiiy til, shakl masalalari konkret asarlar misolida tahlil etildi.

Bu yillar tanqididagi izlanishlar, ayniqsa, «yangi inson» uchun olib borilgan kurashda namoyon bo'ldi. Chunonchi, K.Trig'ulov «Nafis adabiyot jabhamizni sog'lomlash yo'lida» maqolasida ozod o'zbek xotin-qizlari va qizil askar qiyofasini yaratishga da'vat etsa, S.Husayn bolsheviklar obrazini yaratishga chaqirdi, Oybek ishchi tuyg'ularini tarannum etishga chorladi. Bu fikrlar hozir qay jihatlari bilan bugun birmuncha eskirgan esa-da, qahramon masalasida rang-baranglikka erishiga da'vat etish nuqtayi nazaridan o'z davri uchun ahamiyati yo'q emasdi.

Oybek G'.G'ulomning «Ko'kan» poemasi haqida gapira turib, asar sujetida «tirik chizgilar» yetishmasligini, «sxematizm, yuzakichilik» mavjudligini alohida eslatib o'tadi.

Bu «Ko'kan» ko'klarga ko'tarilib turganda, talabchanlik masalasida Oybekning katta jur'atini ko'rsatadi. Ayni vaqtda Oybekning yuqoridagi fikrlarida o'zbek tanqidchiligi bu asar haqida, taxminan 50-yildan so'ng — «Ko'kan»da zo'rma-zo'raki sinfiylashtirishdan iborat jarayonni aks ettirishda yo'l qo'yilgan sxematizmi e'tirof etish mujdalari ko'rinayotgandek bo'ladi.

Badiiy asarlarni tahlil etganda 30-yillar tanqidchiligi doim bir saviyada bo'lgani yo'q, albatta. Xususan, paydo bo'layotgan yangi asarlar tadqiqi, talqini va bahosida jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi. Buni A.Qodiriyning «Obid ketmon» qissasi, A.Qahorning «Sarob» romaniga munosabatlarda yaqqol ko'rish mumkin.

«Obid ketmon»dagi Mulla Obid bir yil ichida kattagina yer-suv, ikkinchi yili sigir-qo'y va boshqa moddiy boyliklar orttiradi. Agar u shu zaylda davom etaversa, uchinchi, to'rtinchi yillarga borib salkam mushtumzo'rga aylanishi hech gapmas. Bu haqda A.Qodiriy dehqonlarning shu yo'ldan borishini istaydi, degan tendensioz fikrlar aytiladi. Lekin «Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li» monografiyasi muallif Oybek ham «Obid ketmon»da zamonning musbat tiplarini yaratish yo'lidagi adib muvaffaqiyatlaridan qanoatlanmaganini izhor etdi. «Ko'pincha voqealar, ishlar xronikal formada, yozuvchining o'zi tomonidan qayd qilinadi. Ammo yozuvchi paxta ishlab chiqarish bilan baravar yangi odamlar «ishlab chiqarish»ni, yangi psixika, yangi ong, shuur, yangi munosabatlar, qisqasi, odamlarning o'zgarishini badiiy aks ettirishni ancha unutadi»¹.

Bu fikrning dastlabki qismida haqiqat unsurlari bo'lsa-da, unda bir yoqlamalik kuchli edi. Chunki Obid ketmon obrazi o'sha davr adabiyotida yaratilgan realistlik obrazlardan biri bo'lib, faqat yozuvchigina emas, butun o'zbek adabiyotining yutug'i edi. Shu sababli Oybekning: «Bizningcha, yozuvchi Obid ketmonning kolxozga kirguncha kechirgan hayoti va harakati orqali o'rta dehqonning turmush sharoitini oshirib ko'rsatishida tipik voqealarni tipik sharoitda aks ettirmaydi. O'quvchi Obid ketmon obrazida butun xususiyatlari ila gavdalangan jonli bir tip ko'ra olmaydi» degan fikrlari bahsli edi.

Oybekning «Berdi tatar chinakam kurashchilikdan uzoqlashtiriladi», degan fikrida jon bor. Biroq bundan qat'i nazar A.Qodiriy «Obid ketmon»da ham uzoqni ko'ra oluvchi mutafakkir yozuvchi ekanini o'zini ko'rsata olgan edi.

Istiqlol davri adabiy tanqidchiligi asarning to'g'ri bahosini berib, qissada bugunga hamohang jihatlar ko'p ekanligini ochib berdi. U.Normatovning «Orttirmay va kamitmay» deb nomlangan maqolasi («Sharq yulduzi», 1998, № 3) da asarning hozirgi davr bilan hamqadam jihatlarini ochib berildi.



¹ Oybek. MAT. 14-tom. 179-bet.



SOTTI HUSAYN (1906–1942) o‘z davridagi O‘zbekistonning ko‘zga ko‘ringan adabiyot va madaniyat arboblari edi. U adabiy tanqidchi, dramaturg va publitsist sifatida ijod etdi. XX asr o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi asoschilaridan biri sanaluvchi Sotti Husayn matbuot va adabiyotga 20-yillarning oxirlari va 30-yillarning boshlarida kirib keldi. Bu davrda u Oybek, H.Olimjon, Uyg‘un, Ziyo Said, Otajon Hoshim, Olim Sharafiddinov kabi zamondosh

shoir, tanqidchi va publitsistlar bilan yelkama-yelka turib ijod qildi. O‘zbek adabiyoti, tanqidchiligi, publitsistikasi, adabiyotshunosligining tug‘ilishi, shakllanishi hamda muayyan tamoyillar qaror topishiga munosib hissa qo‘shdi.

Sotti Husayn 1906-yilda Qo‘qon shahrida mayda boqqol oilasida tug‘ildi, yoshligida onasidan yetim qoldi. To‘ntarishgacha o‘gay ona uyida tarbiyalandi, shahardagi boshlang‘ich yangi usul maktabida o‘qidi.

Qo‘qonda tashkil topgan maktab-internatda tahsil oldi, jamoat va tarbiyaviy ishlarda faol qatnasha boshladi. Yoshligidan adabiyot, matbuot, teatr ishlariga qiziqib, maktabda muvaffaqiyatli o‘qish bilan birga u yerda havaskorlar drama to‘garagi tashkil qildi, to‘garak uchun 1–2-pardalik «Duoxon» va «Jaholat balosi» kabi qisqa-qisqa sahna asarlari ham yozdi. Ularni klubda o‘zi sahnalashtirdi. U viloyat yoshlar qo‘mitasi yo‘llanmasi bilan Toshkentdagi O‘rta Osiyo universitetiga yuborildi (1922). «Yosh leninchi» gazetasining muharriri sifatida (1927–1928) jumhuriyat adabiy-madaniy hayotida sezilarli o‘rin egalladi.

Tahririyat qoshida navqiron yozuvchi va targ‘ibotchilar to‘garagi ochib, unda yoshlarning she‘r, hikoya, ocherk, dostonlarining muhokama va munozaralarini uyushtirdi. Adabiy o‘qish-o‘rganish, havaskorlarning e‘tiborli asarlarini bostirish, nashr qilish ishlariga bevosita yordam berdi.

Sotti Husayn qayerda, qanday vazifada ishlamasin, tanqidchi va yozuvchi bo‘lish orzusidan kechmadi, butun hayotini ana shu orzu orqasidan quvish bilan o‘tkazdi. Adabiyotga qiziqish unda juda erta boshlandi: 16–18 yoshdayoq qator bir pardali pyesalar yozdi. Keyin ko‘proq adabiyot va san‘at nazariyasi bilan mashg‘ul bo‘ldi. Badiiy

ijod nazariyasi bilan shug'ullanish davrning xarakterli xususiyatlaridan biri edi.

Oybek, H.Olimjon, Uyg'un, Oydin, Botu kabi keyinroq mashhur yozuvchi bo'lib tanilgan ijodkorlar o'z faoliyatining boshida faol tanqidchi sifatida ham maydonga chiqdilar. «U vaqtlarda O'rta Osiyo respublikalarida yozuvchi bilan adabiyotshunos orasida qat'iy chegara yo'q edi. Sotti Husayn, masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani haqida adabiy-tanqidiy asar yozish bilan bir qatorda pyesalar yozdi. Shoir Oybek ham Abdulla Qodiriy haqida ilmiy tadqiqot ishi («Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li») yozdi»¹.

Sotti Husayn uchun hayotning bosh maqsadi adabiyot, adabiyotni o'rganish, unga xizmat qilish va uni xalq xizmatiga bo'ysundirish edi. U yosh o'zbek adabiyoti haqida «Ko'rmana» egalari to'g'risida» (1929), «O'zbek adabiyotining hozirgi masalalari» (1930) kabi maqolalar yozdi. «O'tkan kunlar» (1929) romani xususida turkum maqolalar va ular asosida kitob, o'zbek teatri madaniyati haqida rang-barang taqriz va maqolalar hamda ular zaminida «O'zbek teatri» (1929) nomli asar yozdi. O'zi rahbarlik qilgan gazeta qoshidagi yosh ijodkorlar to'garagining birinchi to'plami «Ko'rmana»ga yozgan so'zboshisida keyinchalik o'zbek she'riyati, dramaturgiyasining yetakchi namoyandalari bo'lib yetishgan Mirtemir, Komil Yashin, Sobir Abdulla va boshqalarning dastlabki ijod namunalari istiqbol nuqtayi nazaridan to'g'ri baholadi.

Vaqtli matbuotda uning ovozi Olim Sharafiddinov, Otajon Hoshim, Abdurahmon Sa'diy kabi yirik adabiyotshunoslar va tanqidchilar ovozi orasida baralla eshilib turdi. Lekin shu bilan birga u o'sha yillar adabiyotshunosligi va tanqidchiligidagi RAPP xatolari ta'siridan qutulib keta olmadi. Bu, ayniqsa, A.Qodiriyning «O'tkan kunlar» tarixiy romaniga munosabatida ochiq ko'rinadi. Buni Sotti Husaynning o'zi ham tan olgan edi.

1932- yil boshlarida Sotti Husayn Tojikistondagi xalq maorifi komissarligida, keyin «Paxtakor» rayon gazetasida muharrir bo'lib ishladi. Shu yillarda davrning o'tkinchi g'oyalariga berilib, qator pyesalar ham yozdi. Toshkentga qaytib, «Pravda Vostoka» gazetasining madaniyat bo'limi mudiri o'rinbosari vazifasida ishladi (1933). Shu yili Moskvaga adabiy o'qishga yuborildi. Shu yerdagi jonli tillar

¹ *Izzat Sulton*. Sotti Husayn haqida bir necha so'z/ Sotti Husayn. Tanlangan asarlar. — T.: 1974. 6-bet.

instituti ishchilar fakultetiga, iyuldan yozuvchilarning kechki adabiy ijod institutiga (1934) o'qishga kirdi. Adabiyot instituti tavsiyanomasi bilan (1936) Qizil professorlar adabiyot institutida tahsilni davom ettirdi. Usmon Yusupov so'roviga ko'ra (1937) O'zbekistonda ishlashga yo'llanma bilan keldi va yozuvchilar tashkiloti qo'mitasining rais o'rinbosari lavozimida ishlay boshladi. A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutining direktori (1938) va Navoiy yubileyi komissiyasining rais o'rinbosari, O'zbekiston KP Markaziy Komiteti tashviqot va targ'ibot bo'limi mudiri o'rinbosari (1940) lavozimlarida ishladi. Deputat etib saylandi. 1942-yilda vafot etdi.

Sotti Husayn o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi, dramaturgiya masalalari, rus klassik va qardosh xalqlar yozuvchi va shoirlari haqida «O'zbek dramaturgiyasiga umumiy bir qarash», «15 yil ichida o'zbek sovet adabiyoti» (1939), Gogolning «Uylanish» pyesasi o'zbek sahnasida» (1936), «Rustaveli tarjimasida» (1939), o'zbek klassik va hozirgi adabiyot vakillari: Navoiy, Muqimiy, Hamzalar, ularning bosib o'tgan hayot va ijod yo'llari, dunyoviy va demokratik hamda sovet adabiyotidagi o'rinlari hamda ahamiyati haqida maqolalar yozdi. Ayniqsa, Navoiy yubileyi munosabati bilan yozilgan «Navoiy va Nizomiy», Muqimiy va Hamza ijodi bo'yicha «Muqimiy to'g'risida» (1938), «Hamza Hakimzoda Niyoziy» (1940) asarlari o'z davri uchun muhim ahamiyatga ega bo'lganidek, hozir ham, o'z davri bilan izohlanuvchi ayrim cheklanishlarni hisobga olmaganda, qimmatini yo'qotmagan.

Sotti Husaynning, ayniqsa, H.H.Niyoziy asarlarini birinchi bor to'plab nashr qilishi, unga kirish maqola tarzida ilmiy ocherk yozib, Hamzaning o'zbek prozasi, dramaturgiyasi, poeziyasi taraqqiyotidagi o'rniga baho berishi uni O'zbekistonda hamzashunoslikning asoschilaridan biri darajasiga ko'tardi. Hamza ijodi haqida to'g'ri ijobiy fikrlar aytish bilan bir qatorda, uni sho'roviy o'zbek adabiyotining yalovbardori qilib ko'rsatish tamoyili ham S.Husaynning shu maqolasidan boshlangan, deyish mumkin.

Munaqqid va adabiy jarayon. Sotti Husayn tanqid maydoniga zamon munaqqid oldiga qo'ygan vazifalarni butun mas'uliyati bilan tushunishga harakat qilgan, ana shu mas'uliyat hissini sira yo'qotmagan, oldidagi murakkab va mushkul vazifadan bosh tortmagan tanqidchi va madniyat arbobi edi.

«Nafis adabiyot maydonida proletariat mafkurasi uchun kurash» maqolasida (1928) «adabiyot bobida tanqid ishini mustahkam yo'lga

qo‘ymasdan turib, sog‘lom nafis adabiyot tuzish, nafis adabiyot maydonida sog‘lom yangi kuchlar yetishtirish mumkin bo‘lmaganligi doimo esimizda tursin», deb ta’kidlasa-da, maqola tanqid masalasida adabiyot maydonida o‘sha vaqtda paydo bo‘lgan «katta bo‘shliq»ning nazariy jihatlarini to‘ldirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa-da, adabiyot va hayotning o‘zaro nihoyatda yaqin bo‘lmog‘i kerakligi, haqqoniylik masalasi, adabiyot jamiyat rivojida muhim o‘rin tutmog‘i darkorligi va bularning barchasida adabiy tanqid faol rol o‘ynab, yozuvchiga ham, kitobxonga ham kuchli ta’sir o‘tkazishi lozimligi haqida qat’iy ijobiy fikrlar ilgari surilsa-da, maqolaning maqsad-mohiyati va asosida tanqid partiya qo‘lidagi quroldir, uning vazifasini proletar mafkurasini mustahkamlashdan iboratdir, degan g‘oyani o‘tkazish va mustahkamlash yotadi. Shu jihatlarini bilan u davrning cheklangan xususiyatli maqolalari qatorida turadi.

Sotti Husayn «Ijodiy yo‘limiz» maqolasida adabiyotning badiiy saviyasi masalasiga alohida to‘xtaldi. «Materialni (ya’ni hayot materialini) ishlab chiqmasdan turib, tuzukkina badiiy-adabiy asar tayyorlab chiqarish mumkin emas.

Shuning uchun badiiy ravishda bir shaklga solish masalasi katta o‘rin tutadi. Nimani yozish, nimani tasvirlash masalasi q a n d a y yozish masalasidan ajralmaydi. Shuning uchun nimadan yozish kerak degan masalanigina hal qilmasdan, q a n d a y yozish masalasini ham hal qilishimiz kerak»¹.

Tanqidchi maqolada boshlovchi yosh yozuvchilar turmushni, badiiy «suvratlab berish»ga alohida ahamiyat qaratishi lozimligini, tajribali adiblar esa «realizm asosida chuqur ruhiy ta’sir bilan shug‘ullanishni asosiy vazifa» bo‘lmog‘i kerakligini ta’kidlaydi.

Maqolaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, madaniy merosga turlicha qarashlar avj olib turgan, ba’zilar uni butunlay inkor etib turgan bir davrda Sotti Husayn ham Otajon Hoshim kabi uni yoqlab chiqadi va undan o‘rganishga da’vat etadi: «O‘shida asosiy yo‘limiz realizmdir. Bizga boshqa yo‘l to‘g‘ri kelmaydi. Realist klassik yozuvchilardan o‘qishimiz kerak. Ba’zi o‘rtoqlar zaharlanib qolamiz deb klassiklardan qo‘rqadilar. Bizning eski merosdan qochishimiz mumkin emas». Shu tariqa Sotti Husayn klassiklar kim, ulardan nimani va qanday o‘rganish kerakligi haqida fikr yuritib, L.Averbaxning klassiklarga bergan ta’rifini keltiradi. Ko‘rinadiki, Sotti Husayn o‘z

¹ *Sotti Husayn*. Tanlangan asarlar. — T.: 1974. 89-bet.

maqola va taqrizlarida nafaqat o'zbek adabiyotini, balki rus va jahon xalqlari adabiyotini ham yaxshi bilgan.

Sotti Husayn «Tanqid masalasi» degan kichik bir maqolasida tanqidda ikki narsaning farqiga borish kerakligiga diqqatni qaratadi: «1. O'qib fikr berish va 2. Jiddiy tanqid. Bu ikkovi bir-biriga aloqador bo'lsa ham ayriladigan masalalardir».

U 20-yillar tanqidchilaridan biri bo'lgan «Kashshof Treg'ulovning maqolasiga bir adabiy asar o'quvchisining fikri deb qarash kerak» deydi. Adabiy asar ustida o'quvchi fikri deb, masalan, «Men tushunmadim, menga zavq bermaydi, uzayib ketgan, meni zeriktiradi, ishchilarga fikri to'g'ri kelmaydi», degan so'zlarni aytamiz. Bunday fikrni har bir ishchi-dehqon, hammol bera oladi». Tanqidchi esa sabab-oqibatlarini idrok etib, tahlildan o'tkazib, «shu yo'l bilan tanqidchi yozuvchiga ko'maklashadi. Treg'ulov asarlar ustida fikr beraman deb, tanqidchilikka ham aralashganda, uddasidan chiqolmagan. Chunki munaqqidlik o'qishni, ishlashni talab qiladi. U bunga rioya qilmagan...»¹.

Sotti Husayn «san'at, shuningdek, adabiyot tanqidsiz yuksala olmasligini ta'kidlar ekan, o'z davri tanqidining kamchiliklarini ham aniq ko'rsatdi: «tanqidchilarning og'machiliklari, savodsizliklari, san'at yog'idan asarga qimmat bera olmasliklari, do'q bilan qarashlari, tanqid orqali ko'mak qilish o'rniga qo'mondonlik etishlari» kabi kamchiliklarni oradan yo'qotish masalalariga e'tiborini qaratadi. «Hozir o'zbek adabiyotidagi tanqidchilikni to'xtatmay oborishimiz kerak. Lekin yuzaki yozish, suyuq yozish, yalqovlik qilib, jiddiy ishlamasdan yozishga qarshi ko'tarilishimiz lozim». Albatta, maqolada munaqqid tanqidga o'sha davr talabicha-markscha nuqtayi nazardan qaraganini ham aytib o'tish o'rindir.

Badiiy adabiyotning o'ziga xosligi haqidagi masalada Sotti Husayn qarashlarida 20- va 30-yillar bir qancha tanqidchilariga qiyosan ilg'or tomonlari bilan ajralib turadi; ko'plar bahosida adabiyotning badiiy quvvati masalasini chetlab o'tishga tirishganlarida, Sotti Husayn bu masalaga alohida ahamiyat berdi. Ba'zi maqolalarida (masalan, yuqoridagi maqolada) asosiy gapni xuddi shu masaladan, badiiy adabiyot, dastavval, estetik qimmatga va quvvatga eltuvchi sifatlaridan so'z boshlaydiki, bu davr tanqidi va adabiyoti uchun uning juda to'g'ri ilmiy muhim fikrni aytganini ko'rsatadi.

¹ Sotti Husayn. Tanlangan asarlar. — T.: 1974. 78-bet.

Badiiy asarga g'oya va badiiyat uyg'un bo'lishi zarurligi, ya'ni san'at asarida g'oya, mazmun va shakl birligi masalasi Sotti Husayn tomonidan to'g'ri idrok etildi va to'g'ri talqin qilindi.

«O'tkan kunlar» tanqidchi talqinida. 1931-yilda tanqidchining «O'tkan kunlar» nomli tanqidiy kitobi nashr etildi. Sotti Husayn yo'l qo'ygan xatolarning eng kattasi — uning Abdulla Qodiriy ijodiga va asosan «O'tkan kunlar» romaniga vulgar sotsiologik baho bergani bo'ldi. Bu vulgar sotsiologik bosim asosida esa, partiyaning mafkura, sinfiylik, dunyoqarash masalalaridagi xato va biryoqlama qarashlarini, yoki yanada aniqroq qilib aytganda, zug'umini o'tkazish yotishini ko'rish qiyin emas.

Shu o'rinda, davr adabiy tanqidida g'alati bir paradoks ko'zga tashlanishini ta'kidlash o'rinlidir. Ya'ni masalan, Sotti Husayn ayrim masalalarida, nazariy jihatdan aytilganda, tanqidning o'zi haqida ham (do'q urish, buyruq berish noto'g'riligi), asar badiiyati xususida ham («asarga san'at yog'idan qimmat berish» zarurligi) to'g'ri fikrlarni ilgari surgani holda, konkret asar tahliliga kelganda bu nazariy fikrlarnin amaliy tasdig'i ko'rinmay qoladi. Uning «O'tkan kunlar» haqidagi mulohazalari buning yorqin dalilidir. Munaqqid yozuvchi go'yo faqat burjuaziya mafkurasinigina aks ettira oladi deb hisoblaydi. Nazariyada shu «ta'limot» ta'siriga tushgan S.Husayn «o'zbek burjuaziyasi muhitida yashagan A.Qodiriy ijodidan faqat burjuaziya ideologiyasini» axtardi.

Abdulla Qodiriy yosh tanqidchining bu jiddiy kamchiligini o'z vaqtida afsus bilan qayd etgan edi. U Sotti Husaynning bunday kamchiliklarini «uning yoshligiga va tajribasizligiga havola qilmoq lozimdir», deb izohlagan edi. Bu buyuk adib bag'ri kengligiga yorqin misol bo'la oladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, S.Husayn «O'tkan kunlar» romanidagi nomavjud kamchiliklarini tanqid qilganida ham yozuvchining ulkan talant egasi sifatida o'zbek adabiyoti rivojidadagi tutgan o'rnini hech qachon rad etmadi.

Sotti Husayn A.Qodiriy mahoratiga juda baland baho berdi. Biroq, afsuski, bu kabi ijobiy fazilatlar faqat e'tirof sifatidagina qoldi, rivojlantirilmadi, asar fazilatlarini tahlil etish natijasidagi xulosalar tarzida ilgari surilmadi. Asarga bunday yondashuv uning «kamchilik»larini «fosh etish»ga go'yo yozuvchi dunyoqarashi va sinfiy majburiyatidan kelib chiquvchi «xato»larni ochishga qoldirildi. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, romanning va umuman, A.Qodiriy ijodining badiiy qimmatini pastga uruvchilarni S.Husayn keskin tanqid qilgan va yozuvchi talantini himoya qilib chiqqan holatlar ham yo'q

emasdi. Masalan, Miyon Buzruk Solihov «O‘zbek adabiyotida mil-latchilik ko‘rinishlari» (1933) kitobida A.Qodiriyning talantini rad etib, uni «O‘tkan kunlar» romanida» chorizmning mustamlakachilik siyosatini targ‘ib qilish»da ayblaganda Sotti Husayn o‘sha yiliyoq maqola qilib, «O‘tkan kunlar» o‘zbek adabiyoti maydonida birinchi roman va yaxshi yozilgan roman, u shubhasiz, go‘zal va nafis bir asar...A.Qodiriy kuchli yozuvchi, kuchli adib. Menimcha, bizning undan yangi narsalar, «O‘tkan kunlar»ga qaraganda bizga yaqinroq asarlar kutishimiz mumkin»¹, — deb yozgan edi.

Yangi, o‘zbek tanqidchiligi asoschilaridan biri bo‘lgan Sotti Husayn maqolalari va kitoblarida aytilgan fikrlar, asarlarga berilgan baholarning hammasi bir tekisda to‘g‘ri bo‘lavermedi. Yosh tanqidchi jiddiy xato va kamchiliklarga ham yo‘l qo‘ydi. Biroq «Ishlab turib o‘qigan va o‘qib turib ishlagan», hali tayyorgarligi yetarli bo‘lmagani holda, tarix talabiga binoan, juda katta va muhim masalalarni mustaqil hal etish majburiyati oldida qolgan avlodga mansub yosh Sotti Husaynning asarlaridagi bu xato va kamchiliklarni mensimaslik xato bo‘lganidek, ularning obyektiv sabablarini unutib qo‘yish ham xato bo‘lar edi», deb yozgan edi I. Sulton. Bu xatoni adabiyotimizga og‘ir zarba bo‘lib tushgan A.Qodiriy ijodiga munosabat misolida ham ko‘rib o‘tdik.

Olim teatr asarlari va ularni sahnalashtirish ishlari bilan ham qiziqdi, dramatik asarlarga taqrizlar yozdi. «Halima», «Hujum»ni qahqahalar bilan tomosha qildik» deb quvondi, opera va librettolarga taqrizlar yozdi. Uning «O‘zbek sovet dramaturgiyasiga umumiy bir qarash» deb nomlangan obzor maqolasida 15 yil ichida qo‘lga kiritgan yutuqlar va kamchiliklar ko‘rsatib berildi.

S.Husayn 30-yillar oxiri va 40-yillar boshida «O‘zbek adabiyoti», «O‘zbek sovet adabiyoti», «O‘zbek sovet adabiyotida ijobiy obrazlar» kabi yirik asarlar yozishga kirishdi, ammo bu ishlar tugallanmay va e‘lon qilinmay qoldi.

Sotti Husayn drama sohasida o‘zining o‘spirinlik vaqtida boshlagan mashqlarini davom ettirdi. Uning dramalari, tanqidiy asarlaridek juda dolzarb xarakterga ega edilar.

Xulosa qilib aytganda, Sotti Husayn ilmiy-badiiy qiziqishlar diapazoni keng edi: adabiy-badiiy tanqid, teatr tanqidchiligi, rejissura, opera, operetta, musiqa madaniyati, badiiy tarjima, san‘at masalalari bilan nazariy va amaliy ravishda shug‘ullangan ziyolilardan biridir.

¹ *Sotti Husayn*. Tanlangan asarlar. 20-bet.



30-yillar, uning, ayniqsa, ikkinchi yarmidagi adabiy tanqidchilikning zamonaviy adabiyotga munosabatdagi passivligi sezilib qoldi. Aksar zamonaviy asarlarga munosabat bildirilganda ular, asosan, urkaltak qilindi. 30-yillarda ba'zi asarlar yuzasidan munozaralar bo'lib o'tganini qayd etish kerak. Ana shunday o'tkir baholardan biri A.Qahhorning «Sarob» romani yuzasidan bo'lib o'tdi. 1934-yilda yozilgan asar dastlab mukofotlandi. 1939-yilda esa unga bag'ishlangan muhokamalar, munozaralarda toza do'pposlandi. Shu yilning 14-iyunida Fanlar komitetida boshlangan munozara uch kun davom etdi. Disputga O'zbekiston Kompartiyasining mas'ul xodimlari rahbarlik qildilar. Bahslarda yozuvchi, shoir va tanqidchilardan Sh.Sulaymon, Uyg'un, Yu.Sultonov, R.Majidiy, H.Yoqubov, X.Rasul, N.Oxundiy, X.Musayevlar faol ishtirok etdilar. Romanni keng tahlil etuvchi asosiy ma'ruza Yu.Sultonovga topshirilgan edi. U asarga umuman ijobiy baho beradi.

Biroq unda salbiy qahramonlar ijobiy qahramonlarga nisbatan kengroq va chuqurroq yoritilganini ta'kidlab: «Hatto turmushdagi reaksiyon kuchlar tasvirlanganida ham ularning ma'lum progressiv kuchlar qarshisida qaqshayotganligi bilinib tursin va u progressiv, rivojlanadigan, yengilmay turgan kuchlar ko'rinib tursin. O'shandagina turmushni to'g'ri va to'la anglay olamiz», degan sotsialistik realizmning yetakchi qoidalaridan birini ilgari surdi.

Yu.Sultonov pozitsiyasining o'z tomoni o'sha davrning talabi sanalgan ijobiy qahramonni birinchi o'ringa qo'yish kerakligida ko'rinadi. Tanqidchi A.Qahhorning voqelikni tasvirlashdagi ijodiy prinsipini e'tiborga olmadi. Qizig'i shundaki, bahsning aksar ishtirokchilari ma'ruzadagi bu kamchilikni tushunib yetmaydilar, uni deyarli ma'qulladilar. Natijada asarga, ayniqsa, yozuvchining g'oyaviy-badiiy maqsadiga noto'g'ri, biryoqlama baho berishlar boshlandi. Jumladan, X.Musayev romanda ijobiy qahramonlarga yetarli o'rin berilmagan deyish bilan birga, yozuvchidan: «Mamlakatimizning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotini ko'rsatishni, ommaning qahramonligi, faoliyati, tarixi, kurashi, ilg'orligi»ni aks ettirishni talab qildi. Ya'ni asarda yozuvchi o'z oldiga qo'ymagan vazifalari nuqtayi nazaridan yondashdi. Uning fikricha, A.Qahhor go'yo «Sovet hukumatining o'sishini va kundan kunga mustaqil bo'lib borishini inkor etish va ko'rmaslik» uchun ijobiy qahramonlarga kam e'tibor bergan emish.

Shuni ham ta'kidlash joizki, X.Musayevning bu fikriga, munoza-
raning deyarli barcha qatnashchilari qarshi chiqdi. Bu muhim dalil
30-yillar oxiriga kelib o'zbek tanqidchiligi qo'pol vulgar sotsiologik
xatolarni tushuna boshlagani va uni inkor etish yo'liga o'tganini
ko'rsatdi. So'zga chiqqan aksar tanqidchilar romanning asosiy g'oyasi
bilan bosh qahramonlar o'rtasida nomuvofiqlik yo'q, asarda, shuning-
dek, ijobiy obrazlar yo'q emas, ammo ular salbiy obrazlarga nisbatan
birmuncha bo'sh chiqqan, degan fikrlarni ilgari suradilar.

Xususan, N.Oxundiy nutqini shu tarzda yakunladi. R.Majidiy
buning sabablarini izohlashga harakat qiladi. Uyg'un tasvirdagi urg'u
va shtrix badiiy asarning usuli ekanligini ta'kidladi, yozuvchining
asosiy mehri xalqda, «buni garchi u ayrim kattakon tiplar orqali
tasvirlab bermasa ham, ayrim joylarda bu narsa juda ochiq ko'rinadi»,
– dedi. Uyg'un, ayniqsa, romanning ijobiy qahramonlar jihatidan
kamsitilishiga qat'iy qarshi chiqadi. Nihoyat, munoza-
raning uchinchi kuni «Sarob» odatdagi romanlardan emasligiga ishonch hosil qilindi.
Sulaymon Azimov fikricha, unga an'anaviy romanlar andazasi bilan
yondoshmaslik kerak deb topildi. «Qanday tiplarni markaziy figuraga
olishi yozuvchiing ixtiyorida, undan qahramonlar, albatta, ijobiy yoki
salbiy bo'lishini talab qilib bo'lmaydi, chunki bunday qilish «adabiy
asarni ma'lum bir ramkaga solish» bilan barobar deydi u va o'z
nutqini «Sarob» zararli asar emas, degan xulosa bilan yakunlaydi.

Bu dunyoqarash, sinfiylik masalalarida hamon biryoqlama qarashlar
hukm surib kelayotgan, shu bois Cho'lpon, Fitrat kabi buyuk ijodkorlar
qatag'on bo'lgan sharoitda 30-yillar so'nggi choragidagi adabiy tanqid
saviya jihatidan bir pog'ona yuqoriga ko'tarila olganini ko'rsatuvchi
bahs edi. Bunga «Sarob» romanidagi o'ziga xosliklar muhim bir turtki
vazifasini o'tadi. To'g'ri, adabiy tanqidchilikda «Sarob»ni baholashda:
u millatchilik fosh etilgan asar deguvchi qarashlar 60–70-yillargacha
ham davom etib kelgan bo'lsa-da, 80-yillarda bu nuqtayi nazarining
o'zgarib, A.Qahhor milliy istiqloлга qarshi bo'lgan deguvchi tarzdagi
ifodalari ham paydo bo'ldi.

Har qaysi munaqqid o'z dunyoqarashi, hayotni tushunishi va
yashagan davr nuqtayi nazaridan asarga baho berishga intiladi. Shu
bois A.Qahhor ijodini chuqur o'rgangan M.Qo'shjonov tahlillari
boshqacha, O.Sharafiddinov talqinlari boshqacha. M.Qo'shjonov
«Abdulla Qahhor mahorati» kitobida «Sarob»ni adashganlar fojiasi

¹ *Rahmon Qo'chqor*. Uch sarob // *Yoshlik*.1994. № 4.

deb aytsa, O.Sharafiddinov keyinchalik uni xudbinlikning yemirilishiga bag'ishlangan asar deb baholaydi¹.

Adabiyotshunos Mirzaahmad Olimov esa «Hozirgi o'zbek adabiyotida pafos muammosi» monografiyasida hali o'zbek adabiyotida bu qadar psixologik tasvirga boy asar yaratilmagan degan fikrni ilgari suradi².

O'zbek tanqidchiligida bunday munozaralar 40-yillarning avvalida ham davom etdi. Buni 1941-yil 19–20 fevral kunlari «Qutlug' qon» romani yuzasidan o'tkazilgan bahsda ko'rish mumkin. Sotsialistik realizmning talablari jihatidan unga ayrim biryoqlama baho berish hollari, Petrov obrazini chuqurlashtirish zarurligi haqida ayrim fikrlar aytilgan bo'lsa-da, shu nuqtada Oybek dahosini namoyon etguvchi bir adabiy faktga duch kelamiz. Adib asarga Petrov obrazini kiritishni deyarli maqsad qilib qo'ymagan, faqat ayrim munaqqidlar qistovi, davr siyosatining tazyiqi tufayligina uni romanga kiritishga majbur bo'lgan ekan. Adabiyotshunos N.Karimovning bu aniqlovi «Qutlug' qon» romanining asl mohiyatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega, albatta. Yuqoridagi bahsdayoq roman haqli ravishda o'zbek adabiyotining yetuk namunasi sifatida baho oldi.

Adabiyotning rivojlanish yo'llarini to'g'ri tushunish va uning hodisalariga to'g'ri baho berish uchun adabiyotning san'at sifatidagi o'ziga xosligini yetarlicha anglab yetmaslik hollari bu davrdagi maqolalarda davom etib turdi. Fitrat ijodini baholashda jiddiy xatolarga yo'l qo'ygan H.Olimjon maqolalaridan biri nomini «Adabiyotni anglamaslikka qarshi» deb atagan bo'lsa-da, bu maqolada ham badiiy adabiyotga mafkura nuqtayi nazaridan qarash davom etdi. Lekin, eng asosiysi, u shu vaqtda tarqalgan nazariy xatolardan biriga zarba berishga intildi. «Marksizm niqobi ostida menshevizm» maqolasida u, asosan A.Sa'diyning «Adabiyot masalalari va ulug' oktabrdan keyingi o'zbek adabiyoti» degan kitobi yuzasidan fikr yuritadi. Maqola nomidan ko'rinib turganidek, H.Olimjon o'zbek tanqidida marksistik yo'lni mustahkamlashga harakat qildi, ayni vaqtda, A.Sa'diyning ayrim masalalarga oid vulgar sotsiologik qarashlarini keskin tanqid etdi.

O'zbek tanqidida vulgar sotsiologizmga berilgan dastlabki kuchli zarbalardan biri Otajon Hoshim yozgan «O'zbek sho'ro adabiyotining bir necha ijodiy masalalari» nomli risolasida ham kuzatilishi mumkin.

¹ Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor. — T.: 1988.

² Olimov M. Hozirgi o'zbek adabiyotida pafos muammosi. — T.: 1994.

Bu risolada uning san'at va adabiyot mafkura turi ekanini, shunga ko'ra adabiyotning taraqqiyot jarayonlari va bu jarayonning o'ziga xos ravishda kechishi tabiiyligini anglay olgan tadqiqotchi sifatidagi fazilatlari ham namoyon bo'ldi. Uning fikricha, badiiy adabiyotda yalang'och va'zxonlikka berilish, fikrni quruq, deklarativ shaklda bayon etish yaramaydi. Ba'zi shoirlar va hatto tanqidchilar bunga ahamiyat bermay qo'yishdi.

Xususan, vulgar sotsiologizm ta'siridan qutula olmayotganlarga adabiyotda voqelik nisbatan boshqacha yoritilishini tushuntirib berish lozim. O.Hoshimovning qarashi shuki, yozuvchi asarni istagan mavzuda yozishi mumkin. Bu borada tanqidchi hukm chiqarishi bema'nilikdir. Muhimi, zamon bilan aloqa ijodkor diqqat markazida turmogi kerak. Risolada o'zbek tanqidchiligining o'sha davrdagi ahvoli, vazifalari, ayrim g'oyaviy-metodologik xatolari va boshqa qirralari o'z tahlilini topadi.

30-yillarda sotsialistik realizm haqida rus tanqidchiligida aytilgan fikrlar o'zbek tanqidiga aynan ko'chira boshlanganini yuqorida ta'kidlagan edik. 1932-yili «Literaturnaya gazeta»da «Sotsialistik realizmni egallash yo'lida» degan maqola e'lon qilindi. A.Fadeyevning bu maqoladagi mulohazalari o'zbek tanqidchiligiga ham darhol ko'chib o'tdi. H.Olimjon Uyg'un bilan hamkorlikda yozgan «Sotsialistik realizmni egallash yo'lida» maqolasida o'zbek adabiyotdagi ayrim yutuqlarni ko'rsatishga harakat qilingan bo'lsa-da, buni sotsialistik realizm metodi bilan bog'lanishi xato edi, albatta, va ikkinchi tomondan, yagona shu ijodiy metodning targ'ib qilinishiga ko'ra nazariy jihatdan bugungi kunda yanglish edi. Lekin bu maqolaning muayyan ahamiyati ham yo'q emas edi. Unda realizm haqidagi tushuncha boshqa hamkasblarga nisbatan anchagina chuqur va yetarlicha yorqin. Bugungi ilmiy nuqtayi nazardan noto'g'ri fikrlar ham mavjud esa-da, unda jami adabiy metodlar ichida realistik metodning mumtoz va muhim o'rin tutishi, shuningdek, realizmning qanday yo'sinda kamol topishi, uning shartlari to'g'risidagi fikrlar o'z ahamiyatiga ega edi.

Adabiy tanqidida qator nazariy masalalarni ko'tarib chiqqan Oybek «So'nggi yillarda o'zbek poeziyasi», «Tanqid sohasida savodsizlik va ur-yiqitchilikka qarshi o't ochaylik» kabi maqolalari bilan 30-yillar adabiy tanqid taraqqiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi.

S.Husayn «O'tkan kunlar» romaniga bag'ishlangan kitobida dunyoqarash va sinfiylik muammolarida jiddiy xatolarga yo'l qo'ydi va bunday asar bizga kerak emas, deb nihoyatda yanglish xulosa chiqardi.

«Fitratning adabiy faoliyati to'g'risida»gi H.Olimjon maqolasida ham davr mafkurasining kuchli tazyiqi sezilib turadi. Buyuk adib Fitratning millatparvarlik va istiqlol ruhidagi asarlari xato baholanishi sababi shundan.

Oybekning «Abdulla Qodiriyning ijod yo'li» kitobida mafkuraviy zug'um ta'siridan kelib chiqqan majburiylik tufayli aytilgan ayrim biryozlama fikrlarni hisobga olmaganida, Abdulla Qodiriyning roman-navislik mahoratiga va o'zbek adabiyotidagi ulkan o'rniga yuqori baho berildi.

Bu davr ijobiy hodisalaridan biri zamonaviy adabiyot tarixini yaratishdagi harakatlarda ko'rindi. Oybekning A.Qodiriy haqidagi monografiyasi bu yo'ldagi ilk qadamlardan biri bo'ldi.

30-yillarda erishilgan prinsipial yutuqlar «Ijodiy o'sish yo'lida», «O'n besh yil ichida o'zbek adabiyoti» (1939) nomli maqolalar to'plamida namoyon bo'ldi, deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiy tanqidi tarixida 30-yillar alohida o'rin tutadi. Uning yutuqlari bilan birga kamchiliklari ham ko'p edi. Tanqid sohasiga yangi, yosh kuchlar kirib keldi. Ijodiy faollik o'sdi. Adabiy-tarixiy jarayon ko'pgina muhim nazariy masalalar bilan aloqadorlikda o'rganila boshlandi. Afsuski, 30-yillar Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, U.Nosir va boshqalarning qatag'on etilishi natijasida butun adabiyot katta yo'qotishlarga uchraganidek, V.Mahmud, O.Hoshim, S.Husayn, tanqidchilikda faol ishtirok eta boshlagan Elbek, Botularning qatag'onga uchrashi bois tanqidchilikda ham jiddiy yo'qotishlar ro'y berdi.

Shunga qaramay, adabiy tanqid vulgar sotsiologik xarakterdagi ko'pgina nazariy xatolardan qutulishga intildi. Bularning barchasidan qat'i nazar, adabiy tanqid o'zining bosh yo'nalishida butunlay partiyaning qolipidagi yo'lidan yurishda davom etdi, adabiyotning partiyaviyligi uchun kurashish o'zining burchidir deb bildi.

OTAJON HOSHIM (1905–1937). 30-yillarda shaxsga sig'inish qurbonlari bo'lgan fan va madaniyat arboblari orasida O'zbekiston Fanlar Komitetining birinchi raisi, Til va adabiyot institutining birinchi direktori Otajon Hoshimning o'zbek tanqidchiligi tarixida o'z o'rnini bor. O.Hoshim o'zbek adabiyotining kelajagi uchun qayg'urgan yetuk arbob, yosh iste'dod egalariining o'sishiga g'amxo'rlik qilgan, adabiy jarayonga ta'sir ko'rsatadigan munaqqid sifatida tanilgan edi.

Shunisi borki, qatag'onga uchragan yozuvchilarga o'xshab, boshiga shu qismat tushgan tanqidchilarga ham uzoq yillar davomida millat va xalq dushmani sifatida qarab kelindi. Lekin haqiqat baribir yuzaga chiqar, deganlari rost ekan. O.Hoshim ijodi haqida dastlab dadillik bilan yozilgan maqola H. Yoqubov qalamiga mansub bo'lib, u («O'TA», 1975, № 3) munaqqid tug'ilganiga 70 yil to'lishi munosabati bilan e'lon qilindi.

Maqolada O.Hoshim hayoti, asarlari haqida umumiy fikr yuritiladi va davr nuqtayi nazaridan asarlariga baho beriladi. Sh.Turdiyevning «Fanimiz zahmatkashlari» («O'TA», 1990, № 3) rukni ostidagi qisqagina bir maqolasida olim biografiyasi va ijodiga doir ayrim yangi ma'lumotlar keltirildi. Yosh olim I.Yoqubovning «Otajon Hoshimning ilk tanqidiy maqolasi» sarlavhali ishida («O'TA», 1992, № 3–4) munaqqidning kino san'atiga bag'ishlangan «Yana bir muvafaqqiyat» deb nomlangan maqolasi tahlil qilinadi. Jurnalning 1995-yilgi 1-sonida shu muallifning «Metod»ni anglashda O.Hoshimov pozitsiyasi» nomli maqolasi bosildi.

I.Yoqubov bu olim ijodi haqida nomzodlik dissertatsiyasini ham yoqladi. «Istiqlol fidoiylari» seriyasida Ozod Sharafiddinovning «Otajon Hoshimov shaxsiyati, taqdiri, ijodi (hayotiy lavhalar, hujjatlar, rivoyatlar)» deb nomlangan risolasi (1993) nashr etildi. I.Yoqubov tadqiqoti asosida jiyani J.Qosimov yordamida O.Hoshimning to'liq tarjimayi holi tiklandi. O.Hoshim tavalludining 90 yilligini nishonlash munosabati bilan vaqtli matbuotda qator maqolalar e'lon qilindi (1994), unga bag'ishlab ilmiy-nazariy anjuman o'tkazildi. Xuddi shunday tadbirlar olimning 100 yilligi munosabati bilan 2005-yilda ham bo'lib o'tdi. Bu elning, yurtning sobiq sho'ro davrida nohaq qoralangan o'z farzandlariga nisbatan Istiqlol davriga kelib ko'rsatayotgan yuksak hurmatidan yorqin nishonadir.

Hayot yo'li va adabiy tanqidiy merosi. O.Hoshim 1905-yili Toshkentda dehqon oilasida tug'ildi. Avval diniy maktabda, so'ng 2 yil rus-tuzem maktabida o'qigan. Toshkentdagi yangi sho'ro maktabida (1918–1921), Moskvadagi Qizil professorlar institutining ishchilar fakultetida (1922–1924) tahsil olib, O'zbekistonga qaytgach, Fanlar Qo'mitasi raisi bo'lib ishladi. Samarqandda O'zbekiston pedakademiyasini tashkil etishda qatnashdi. U mamlakatning qaysi markaziy o'quv yurtiga jalb etilmasim, doim tashabbus bilan mehnat qildi. Sankt-Peterburg (Leningrad)da Fanlar akademiyasi qoshidagi Sharqshunoslik instituti aspiranturasida o'qib (1929–1933), ishladi, akademik

A.Samoylovich rahbarligida ilmiy ish olib bordi. U yerga O'rtasiyodan borgan yosh mutaxassislariga g'amxo'rlik qildi.

O'zbekiston Fanlar Komiteti raisi, Til va adabiyot instituti direktori (1934–1937), O'zbekiston Yozuvchilar soyuzida rahbarlik lavozimlarida ishladi. Ammo sho'rolar o'zbek olimlarining oldingi safida bo'lgan, mustaqil fikrlovchi O.Hoshimovni ham istibdod qurboniga aylantirdi. Ko'p yillar mobaynida uning nomi adabiyot tarixidan o'chirib tashlandi, asarlarini o'rganish u yoqda tursin, tilga olish ham taqiqlandi. Faqat yarim asr o'tgandan keyin adolat tiklanib, haqiqat ro'yobga chiqa boshladi. O.Hoshimov nomi va ilmiy merosi Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Botu, Usmon Nosir kabi ijodkorlar qatori xalqimizga qaytarildi.

O.Hoshimovdan risola, maqola va taqrizlardan iborat boy va rang-barang ilmiy meros qoldi. Ular o'z davri adabiy jarayonida ma'lum rol o'ynagan, davrning dolzarb masalalariga bag'ishlangan, davr adabiy-tanqidiy qarashlaridagi yutuqlarga tayanib yaratilgan. Lekin nafsilambriini aytganda, bu maqola va risolalardagi g'oyalar, nazariy umumlashmalar, kuzatishlarning hammasi ham shafqatsiz vaqt sinoviga bardosh berolgani yo'q. Biroq bundan qat'i nazar ularni o'z davrining mahsuli sifatida o'rganish, tarixiy jarayon natijalari sifatida baho berish ilmning vazifasidir. Shu ma'noda O.Hoshimning ilmiy-tanqidiy merosi bugungi kunda, birinchidan, adabiyot va tanqid tarixi bosib o'tgan yo'lni bilish hamda bugundagi darajaga yetib keluvidagi murakkab jarayonni o'rganish uchun; ikkinchidan, bu maqolalar O.Hoshim hayoti, ijodi haqida izchil, ilmiy ma'lumot berishi uchun; nihoyat, uchinchidan, hozirgi Istiqlolga munosib ozod va hur tafakkurimiz o'z-o'zidan kelmaganini, uning sarchashmalarida O.Hoshim singari fidoyilarimiz bo'lganini anglash va ularning qadriga yetish uchun muhimdir.

O.Hoshim ilmiy merosi o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi tarixining tarkibiy qismini tashkil etadi. U o'z davrining yetuk, bilimdon ziyolisi, qalami o'tkir jamoatchi inson sifatida yuksak obro'ga ega edi. Buni uning zamondoshlari xotira va maqolalarida qayta-qayta ta'kidlashgan.

O.Hoshimning matbuotda bosilgan birinchi maqolasi sof falsafiy muammolarga bag'ishlangan edi. 20-yillarning ikkinchi yarmida turli doiralarda kino masalalari, ularni baholash tadbirlari ko'rib chiqildi. 1925–1927-yillarda «Chochvon», «Ravot qashqirlari», «Moxov qiz», «Baxt quyoshi» kabi birinchi o'zbek filmlari suratga olindi. 1926-

yilda L.Sayfullinaning «Ikkinchi xotin» hikoyasi asosida suratga olingan shu nomdagi filmni muhokama qilishga bag'ishlangan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Moskvadagi «Qizil professorlar instituti» tolibi O.Hoshim ham qatnashdi, o'z fikrlarini «Yana bir muvaffaqiyat» nomli kichik taqrizida yoritdi. Taqriz uning adabiy-tanqidiy faoliyatiga debocha bo'ldi, unda sharqona hayot tabiat manzaralari bilan bog'lab yoritilganini, bu esa kinoga jonli ruh bag'ishlaganligini to'g'ri qayd etadi. Taqriz kamchiligi shundaki, unda film proletariat mafkurasi nuqtayi nazaridan baholanadi.

Lekin taqrizda «Yosh olimning o'z xalqi «yaxshisini oshirib, yomonini yashirib» tasvirlashga qilgan da'vati uning millat taqdiriga daxldor shaxs ekanligi nishonasidir»¹. O.Hoshimov 30-yillarda Fanlar komitetining rahbarlaridan biri sifatida kuchli tashkilotchilik qobiliyati borligini namoyish etdi. Buni uning «Fan va turmush» jurnalini tashkil qilishdagi tashabbusi va uning mualliflaridan bo'lganligi, 1934-yilda Til va adabiyot institutini tashkil qilishda bosh-qosh bo'lganligi va 1937-yilning avgustiga qadar shu institut direktori vazifasida samarali ishlaganligida ko'rish mumkin. Uning ilm-fan bobidagi tashkilotchiligi va jonkuyarligi juda qisqa muddat mobaynida institutga o'sha paytdagi eng yetuk adabiyotshunos va tilshunos kuchlarni jamlay olganligida ham ko'rinadi. Bular orasida Abdurauf Fitrat, G'ozli Olim, Miyon Buzruk, Oybek, H.Yoqubov, H.Olimjon, Uyg'un, Yahyo G'ulom, Hodi Zarif, Izzat Sulton, Buyuk Karimov, Faxri Kamol kabi olimlar bor edi.

O.Hoshim Fitratning «O'zbek adabiyotidan namunalar» xrestomatiya-majmuasiga «So'zboshi» yozib, shu vaqtgacha keng jamoatchilik ommasi qo'lida bo'lmagan mumtoz adabiyot namunalarining xalq qo'lga yetkazilishini millat madaniyati ravnaqidagi muhim ish deb baholadi. Buning uchun J.Boybo'latov Fitratni ham, O.Hoshimni ham qattiq tanqid qildi hamda salkam millatchi va deyarli panturkistga chiqardi. Lekin O.Hoshim bunga qarshi chig'atoy adabiyotini atroflicha o'rganishga, uni tanqidiy va ijodiy o'zlashtirishga qayta-qayta da'vat etadi. Shu tarzda O.Hoshim madaniy merosni himoya qilib chiqishdek og'ir ishni katta jasorat bilan zimmasiga oldi. O'nlab maqolalarida o'zbek xalqining boy merosini saqlab qolish uchun, uni xalqqa qaytarish uchun kurashdi.

¹ Yoqubov I. Metodni anglashda O. Hoshimov pozitsiyasi// O'TA, 1995. № 1. 26-bet.

Adabiy jarayon va yangi adabiyotga munosabati. O.Hoshim ko'pgina maqolalarida mustaqil fikrlashga intilgan bo'lsa-da, o'sha davrning hukmron qoliplarini yorib chiqib ketolmadi. Ayniqsa, san'at va adabiyotni baholashdagi bosh me'yor masalasida O.Hoshim to'raligicha o'sha davr dogmatlarining ta'sirida bo'ldi. Bu, yana takror aytamiz, faqat O.Hoshim nuqsoni emas, o'sha davrdagi barcha adabiyotshunoslarning ham umumiy nuqsoni edi. Shu boisdan u o'sha davrdagi asarlaridagi ko'pgina to'g'ri mulohazalarini olg'a surish, yorqin, teran kuzatishlarni bayon qilish bilan birga, o'tmish adabiy hodisalarini baholashda «sinfiylik» o'lchovidan uzoqlasha olmadi.

Masalan, «Sho'ro adabiyotining bir necha ijodiy masalalari» degan risolasida o'zbek she'riyatida peyzaj tasvirining «sinfiy» negizini shunday ochadi. «O'zbek sho'ro yozuvchi-shoirlari o'z asarlaridan tabiat ko'rinishlariga xursandchilik bilan qaraydilar, qarashlari, hislari, tuyg'ulari, masalan, Cho'lponda bo'lganidek, badbinlik, qayg'u bilan sug'orilmagandir». To'g'ri, tabiat tasvirini sho'rolarning «ura-ura»siga bo'ysundirish ham, istiqloq rahidagi dardlarga ham bo'ysundirish mumkin.

Bu yerda gap — O.Hoshim pozitsiyasi tabiat tasviridagi sho'roviylikka yon bosishi jihatidan cheklangan va bir yoqlama edi. Aslida, u Cho'lpon shaxsiyatiga, ijodiga chuqur ehtirom bilan qaraganligini zamondoshlari xotirasidan bilib olish mumkin.

O.Hoshim she'rlarda «temir, po'lat va shunga o'xshashlar» ko'payib ketganini hamda ularni yaratayotgan odamlar ko'rinmasligini keskin qoralaydi, «proletar yozuvchisi» bo'lmoq uchun bunaqa narsalarni asarga kiritish shart emasligini uqtiradi. U adabiyotdagi jiddiy nuqsondan birini «shioriylikda» ko'radi. Buni yo'qotish kerak, deb hisoblaydi.

30-yillarda O.Hoshim ijodi yanada rivojlandi. O'zbek adabiy tanqidchiligidagi vulgar sotsiologik kamchiliklarni ko'rsatgan munaqqidlardan biri O.Hoshim bo'ldi. Bu hol «O'zbek sho'ro adabiyotining bir necha ijodiy masalalari» nomli risolada aniq ko'zga tashlanadi.

Risolada san'at va adabiyot sotsializm qurilishi bilan bog'liqlikda tekshirilsa-da, bu qurilishni munaqqid faqat va butkul siyosiy munda-rijada emas, umuman, hayot, turmush insonning mehnat bilan aloqadorligi tarzida talqin etilganini ham nazardan qochirmaslik lozim. Lekin, partiyaviy rahbarlik adabiyotning sinfiyligi masalalarida munosabatda esa, u tamoman davr va tuzum doirasidan chiqolmadi. Shunga qaramay, mazkur risola 30-yillar badiiy tafakkurini chuqur- lashtirish ishiga munosib hissa qo'sha oldi.

O.Hoshim o'zbek folklorini to'plash va o'rganish ishiga ham rahbarlik qildi, uning chuqur, xalqchil mohiyatini ochib beruvchi maqolalar yozdi.

1937-yilda A.Pushkin vafotining 100 yillicini nishonlash ishlariga bosh-qosh bo'ldi, «Yevgeniy Onegin» romanining tarjimasini xususida kattagina maqola yozdi.

O.Hoshim O'zbekistonda fan va texnika rivojini tashkil etishdagi xizmatlari ham e'tiborga munosib. U 1937-yil may oyida chaqirilgan Respublika olimlari birinchi Qurultoyining tashabbuskori edi. Afsuski, talantli olim ilmiy tashkilotchilik va tadqiqotchilik faoliyati ayni gullagan paytda qatag'onga uchradi. Biroq «adabiyotimiz osmonida uning ham yulduzi miltilab yonib turibdi» (Ozod Sharafiddinov).

Xulosa qilib aytganda, 20-yillar ikkinchi yarmi va 30-yillar birinchi yarmida faoliyat olib borgan O.Hoshim o'zbek madaniyati va adabiyotshunoslik ilmi shakllanishi va ravnaqida ko'zga ko'rinarli o'rinni egallaydi, ilmiy asarlari, maqolalari o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligi taraqqiyotida kechgan ma'lum bir bosqichni aks ettiradi. O.Hoshim o'z asarlarida adabiyotimiz tarixida muayyan rol o'ynagan, o'ziga xos tafakkurga ega siymolardan biridir. U haqda «Mashhur kishilar» rukni ostida asarlar yozib, xotirasini abadiylashtirish o'rinlidir.



Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda adabiy tanqid.

Bu davrda O'zbekiston hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy yo'nalishdagi barcha ishlar g'alaba maqsadlariga bo'ysundirildi. Har bir milliy respublikada Vatanni ulug'lash va fashizmni fosh etish badiiy adabiyotning bosh mavzusiga aylandi. Adabiy tanqid ham bor kuchini ana shu yo'nalishdagi asarlar tahliliga qarattirdi. Urush tufayli sobiq Ittifoq ichkarisidagi evakuatsiya qilingan olimlar bu yillarda respublikamizda turli fanlar, shu jumladan, filologiya va sharqshunoslik fanlari rivojiga katta hissa qo'shdilar. O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) ning filologiya va sharq fakultetlarida yetuk mutaxassislar dars berdilar, iqtidorli yoshlarni yetishtirishga munosib hissa qo'shdilar.

1943-yilda O'zbekistonda Fanlar Akademiyasi tashkil etilishi respublikada adabiyotshunoslik fani rivojining jadallashuviga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Adiblar urushning ilk kunlaridayoq insonparvarlik va ona Vatanga muhabbat ruhi bilan yo'g'rilgan qalb so'zlarini e'lon qildilar.

Urush davrida o'zbek adabiyoti o'z tarixiy taraqqiyot yo'lida yangi bosqichga ko'tarildi, keng miqyoslarga chiqdi. O'zbek adiblari-ning asarlarini tatar, ozarbayjon, qozoq, ukrain, belorus, rus va boshqa tillarga o'girish faollashdi. Bu borada N.Ivashev, S.Somova, S. Lepkin, M. Sale, L.Penkovskiy, V.Lipko va boshqalar barakali mehnat qildilar. S. Ayniy, Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, A.Qahhor, Uyg'un, Mirtemir, M.Shayxzodalarning salmoqli asarlari dunyoga keldi. Zamonaviy asarlar qatorida tarixiy asarlarga e'tibor kuchaydi.

Davrga monand badiiy obrazlar tizimida o'zgarish, yangilanish vujudga keldi. Bu davrda Ona, Ota, Farzand, jangchi, yor, tarixiy Vatan obrazlari talqini yanada boyidi. Urush, ayniqsa, muhabbat va sadoqat mavzulari mohiyatini chuqurlashtirdi. Bu yangilanishlar tanqid e'tiboridan chetda qolmadi. 1943-yil dekabrda Moskvada o'zbek adabiyoti va san'ati kunlari bo'lib o'tdi. H.Olimjon, Oybek, I.Sultonovlarning «O'zbek xalqining adabiyoti», «O'zbek adabiyoti», «Katta imtihon» singari maqolalarida, bir tomondan, bosib o'tilgan yo'lga qisqacha yakun yasaldi, ikkinchi tomondan, o'zbek adabiyotining urush davridagi ahvoli tahlil etildi.

Tanqid bu davr badiiy asarlariga, ayniqsa, hayotga ta'sir ko'rsatishi nuqtayi nazaridan e'tibor berishga intildi. Yana yozuvchi va shoirlar-ning o'zlari munaqqid sifatida maydonga chiqdilar. H.Olimjon, Oybek, G'.G'ulom, Yashin, Shayxzoda, Uyg'un bilan bir safda Z.Diyor, A.Umariy, Shuhrat, H.G'ulom singari yangi avlod vakillari ham adabiy jarayonda faol ishtirok eta boshladilar.

Bu davrda, ayniqsa, dramaturgiyaga e'tibor ortdi. 1943–1944-yillarda «Muqanna» (H.Olimjon), «Jaloliddin Manguberdi» (Shayxzoda), «Mahmud Torobiy» (Oybek), «Ona» (Uyg'un), «Alpomish» (S.Abdulla), «Qaltis hazil» (Uyg'un), «Oftobxon» (Yashin), «Alisher Navoiy» (Uyg'un, Izzat Sulton) dramalarida xalq orzulari ko'rindi. Tanqidchilik bu asarlarga tezkorlik bilan taqrizlar yozdi, maqolalarda tahlil etishga intildi. Chunonchi, M. Shayxzoda «O'zbekiston qilichi» dramasi-ga bag'ishlangan taqriz yozdi. Taqriz adabiy jarayonga, san'at-ko'rkorlarga ko'rsatajakk ilmiy-estetik ta'sir kuchi bilangina emas, shu asar tahlili misolida bevosita hayotga, xalqqa, frontdagi jangchilarga ko'rsatuvchi ta'sir kuchi bilan ham qimmatli edi. Bu urush davri o'zbek tanqidchiligidagi tezkorlik, jangovarlik, amaliy ahamiyatining mushtarak ko'rinishlari edi.

Urush davridagi dramatik asarlar tahlil etilgan go'zal ishlardan biri Oybek va G'.G'ulom hamkorlikda yozgan «Jaloliddin» dramasi

haqida» degan asaridir. «Jaloliddin»ning sahnalashtirishi munosabati bilan taqriz janrida yozilgan bo'lishiga qaramay, dramaturgiya, xususan, tarixiy janrdagi dramaning bir qator muhim muammolarini ko'tarib chiqishi jihatidan, nainki urush davri tanqidchiligi, balki, umuman, o'zbek tanqidchiligi tarixida muhim ahamiyatga egadir. «Vatan o'g'illarining erk, mustaqillik, nomus va sharaf uchun boshlagan kurashi yorqin ma'nodor dramatism bilan to'la hayajonli kartinalarda gavdalanadi». Bu fikr bilan mualliflar tarixiy dramaning asosiy qimmatini, zamonaviy mohiyati va ahamiyatini belgilab beradilar.

«Muqanna» dramasi o'zbek tanqidchiligi bilan bir qatorda, atoqli rus adiblari va munaqqidlari ham yuqori baholadilar. «Xalq yo'l boshchisi Muqanna va o'zbek xalqining o'ziga xos Janna d' Arki bo'lmish Guloyin obrazi H.Olimjonning katta badiiy yutug'idir», degan edi A.Fadeyev. Tarixnavis adib V.Yan esa, asarni yetuk milliy tragediyalardan biri sifatida baholaydi.

O'zbek adabiyotining gultoij asarlaridan biri «Navoiy» romani yaratilishi munosabati bilan keng muhokamalar boshlanib ketdi. 1945-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida roman atroflicha muhokama qilindi. Asar haqida ma'ruza qilgan Ye.E.Bertels unga yuqori baho berdi. M.Shayxzoda romanga bag'ishlab «Tirik Alisher» deb nomlangan taqrizini e'lon qildi, uni o'zbek nasrining shu davrgacha yaratilgan eng muvaffaqiyatli asarlaridan biri sifatida baholadi. Biroq qatag'onning ikkinchi bosqichi —1950-yillar arafasida tanqidchilikda millatchilikning yangi alomatlarini izlash, adabiyotda partiyaviylik va g'oyaviylik talablarining o'ta so'llashib ketishi oqibatida kuni kecha berilgan yuksak baholardan qaytib, uning hatto Davlat mukofotiga sazovor bo'lganiga e'tibor bermay, «Navoiy» romanini zo'rama-zo'raki ravishda «fosh» etish, tanqid qilish hollari ro'y berdi. U haqda turli saviyadagi tanqidiy fikrlar aytildi, asossiz tanqid qilindi (B.Fayziyev maqolasi). 40-yillar oxirida aytilgan ayrim biryoqlama fikrlar 50-yillarning o'rtalarigacha hukm surdi. 60-yillarga kelib tanqidagi bu kamchiliklar bartaraf etildi. Bu borada M.Qo'shjonov tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Urush yillari tanqidiga xos yana bir fazilat shuki, adabiy tanqidning yozma shakli bilan yonma-yon og'zaki shakli o'sib bordi. Davr tezkorlik, hozirjavoblik va jadallikni talab qildi: bahslar, munozaralar, jonli fikr olishuvlar adabiyot va teatr rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Urush davridagi iqtisodiy qiyinchiliklar bois matbuot va nashr ishlaridagi cheklanish tufayli bu yillarda tanqidiy maqolalarning bosma shaklidagi ko‘rinishlari o‘rniga adabiy tanqid og‘zaki, muhokama tarzidagi shakllar bilan to‘ldirishga intildi. Urush davrida folklor namunalari tadqiq etilgan qator ishlar dunyoga keldi. Atoqli folklorshunos olim Hodi Zaripovning «O‘zbek folklorida qahramonlik va vatanparvarlik» maqolasi bunga misol bo‘ladi.

Urush davrida folklor asarlarini o‘rganishda, bir tarafdin, sof filologik maqsadlar nazarda tutildi, ikkinchi tarafdin esa, folklor namunalarini o‘rganish va tashviq etish bu yillarda davrning asosiy ruhi va maqsadlariga uyg‘unlashtirildi. Uchinchidan, folklor zamonaviy ijodkorlarga tarixiy Vatan o‘g‘lonlarining qahramon qiyofasini yaratish, asarlar xalqchil fazilatlarini teranlashtirish, chuqurlashtirishda o‘ziga xos ta’sir kuchiga ega edi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rgangan o‘zbek folklorshunosligi va tanqidchiligi mana shu uch fazilatni namoyish qilish orqali bu davrda zamon bilan hamqadam borishga intildi, zamonaviylik uchun kurash olib bordi. M.Shayxzoda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan «Shirin va Shakar» dostoniga bitgan so‘zboshi-maqolasida dostonning zamonaviy ahamiyatini ochib berdi.

Adabiy tanqid og‘ir sharoitlarga qaramay, zimmasidagi vazifalarni bajardi. Bu davrda muammoli maqolalar, umumlashtiruvchi tadqiqotlar nisbatan ozaydi, lekin taqriz faollashdi. To‘g‘ri, tanqidchilik ba‘zan asarni pafos, mazmun, g‘oya, hozirjavoblik nuqtayi nazaridan baholashga berilib ketib, bu masalalar asarning umumiy badiiy fazilat-lari, xarakter yaratish san‘ati singari muammolar bilan chambarchas bog‘lanishda talqin etilmagan holatlar ham bo‘ldi.

Bu yillar, ayniqsa, tanqidchilik o‘zining hozirjavoblik va jangovarlikda zohir bo‘luvchi fazilatlarni namoyish qildi, badiiy asarlarni tezkorlik bilan tahlil qila bordi. Tanqidchilikda publitsistik ruh avvalgi yillarga nisbatan bir qadar yuqori bosqichga ko‘tarildi. Bu hol 1944-yilda chop etilgan «Armug‘on» to‘plamiga kiritilgan «Otashin vatarparvar va talantli shoir» (L. Oybek), «Kamolot bosqichida» (I. Sulton), «Ibn Sino va yangi falsafa» (Ye.E. Bertels), «Chambil qamali haqida» (H. Zarif), «Jang qo‘shlari» (Hamid G‘ulom) singari maqolalarda davr ruhi aks etgan.

H.G‘ulom, masalan, mayor Rustam Abdurahmonov, serjant Mavlon Ikrom, starshina Nasrullo Davron, snayper Yoqubjon Ikromov, katta leytenant Ma‘ruf Hakim she‘rlarini tahlil qilsa, Izzat

Sulton: «adabiy tanqid sohasida ko‘rinadigan kadrlar — O.Sha-rafiddinov, H.Yoqubov, Yu.Sultonov va boshqalar yetishganini yozadi.

Urushdan keyin adabiyot va san’atni rivojlantirishga maxsus e’tibor berildi, ammo bu ish «partiya rahnamoligida» olib borildi. Partiya e’lon qilgan qarorlar badiiy adabiyotni rivojlantirishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa-da, mohiyatan va uning doimo hurlikka moyil qismatida salbiy rol o‘ynadi. Bu davrda S.Ayniy, Oybek, A.Qahhor, Oydin, P.Tursun kabi adiblar badiiy ijodda yanada faollashdilar, nasrning deyarli barcha janrlarida xilma-xil asarlar vujudga keldi. Nasr avtobiografik, memuar xarakteridagi badiiy asarlar bilan boyidi. Bu davrda o‘zbek adabiyotiga, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Shukurullo, R.Bobojon, ko‘p o‘tmay, O.Yoqubov, P. Qodirov kabi ko‘plab yangi ijodkor kuchlar qo‘shildi. «Sovet voqeligi» adabiyotning asosiy tasvir obyekti bo‘lib qoldi. Tarixga murojaat etib ham zamonaviy asar yaratish mumkinligini yozuvchilar tushunar edi, biroq adabiyotni boshqargan ba’zi rahbarlarning bu masalada biroz esankirashi ayrim tanqidchilarga ta’sir ko‘rsatdi. Shu bois tarixga murojaat ba’zan zamonaviylikdan qochish deb baholandi. Bu davr adabiy tanqidchiligida badiiy jihatdan ancha baquvvat asarlarni kamsitgan holda badiiy jihatdan ancha zaif asarlarga, ularning faqat mazmuni, g‘oyasi tufayli, kommunist obrazidagi balandparvoqliklar sabab ortiqcha baho berish hollari ro‘y berdi.

Shu davrdagi ana shunday qator asarlar davlat mukofotiga sazovor deb topildi va ishga tanqidchilik ham o‘z hissasini qo‘shdi. 50-yillarning ikkinchi yarmidan, xususan, shaxsga sig‘inish oqibatlarini fosh etilgandan boshlab, urushdan keyingi dastlabki o‘n yillikda yo‘l qo‘yilgan jiddiy nuqsonlar tuzatila boshlandi.

1949-yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida tanqid va adabiyotshunoslik sho‘basi yana ish boshladi. Yozuvchilar uyushmasining IV Plenumida (1950, 15- mart) tanqidni rivojlantirish masalalari maxsus muhokama qilindi. Tanqidchilikda ancha kuchaygan xato tamoyillardan, ayniqsa, ikkitasiga alohida to‘xtalib o‘tildi: «Bulardan biri shuki, ba’zi tanqidchilar asarning g‘oyaviy mazmunini chuqur tekshirmasdan, uning badiiy formasiga tegishli baho bermasdan faqat uning mavzui yaxshi bo‘lgani uchun maqtaydilar, asarning munda-rijasini aytib berish bilan kifoyalanadilar.

Ikkinchi zararli hol shuki, ba’zi tanqidchilar asardagi yaxshi tomonlarning qadriga yetmaydilar, unga to‘g‘ri baho bera olmaydilar, chuqur tekshirmasdan turib so‘kaveradilar, ayrim kamchiliklarni topib,

uni yulib olib asarni butunlay «ostin-ustun qilib yuboradilar»¹. Badiiy saviyasi zaif asarlarni keskin tanqid qila olish namunalari ko'rindi. Masalan, I.Rahimning «Hayot buloqlari» romanidagi jiddiy nuqsonlar ochib tashlandi, beparvolik illatlari tanqid qilindi.

A.Qahhor «Butunittifoq sovet yozuvchilari ikkinchi syezdining yakunlari va O'zbekiston yozuvchilarining vazifalari» haqidagi ma'ruzasida qator yozuvchilarning zamon bilan aloqalari kuchli emasligi, bu hol ularga shu kunning muammolariga bag'ishlangan chuqur mazmunli, badiiy go'zal asarlar yaratishga xalaqit berayotganini maxsus ta'kidladi.

1948-yilda Alisher Navoiyning 500-yillik yubileyi keng nishonlanishi munosabati bilan qator maqola, to'plam va tadqiqotlar nashr etildi. O'zbek adabiyotshunosligida mumtoz merosni atroflicha o'rganish va tekshirish ishlari jonlandi. S.Ayniy, Oybek, G'afur G'ulom, Shayxzoda, A.Sa'diy, V.Zohidov, V.Abdullayev, I.Sulton, H.Yoqubov. G'.Karimov, Hodi Zarif kabi o'zbek adabiyoti tarixining bilimdonlari safiga A.Hayitmetov, M.Yunusov, A.Qayumov, N.Mal-layev, X.Rasulov, S.Qosimov, H. Razzoqov, S.Azimov, L.Qayumov, H.Abdusamatov, S.Aliyev, T.Sobirov kabi iste'dodli kuchlar kelib qo'shildi. Ular ham mumtoz, ham zamonaviy adabiyot vakillari ijodi va muammolar haqida tadqiqotlar yaratdilar.

Atoqli san'atkorlar ijodiga bag'ishlangan adabiy-biografik ocherklar vujudga keldi. Yusuf Sulton, H.Yoqubov, H.Abdusamatov, S.Azimovning Hamza, G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlari shular jumlasiga kiradi. Davr adabiy harakatchiligi va adabiy jarayonni umumlashtiruvchi ishlarni talab qila boshladi. 50-yillarda S.Azimovning «O'zbekistonda adabiy tanqidchilikning rivojlanishiga doir ba'zi masalalar» maqolasi yozildi, unda o'zbek adabiyoti ocherkini yaratish zarurligi ta'kidlandi. «Ulug' Vatan urushigacha bo'lgan 5-yillik davrda o'zbek sovet adabiyoti» (H.Yoqubov), «Ulug' Vatan urushi davrida o'zbek sovet adabiyoti» (T.Sobirov) kabi obzor ishlar yaratildi, bular adabiyot tarixini, adabiy jarayonni davrlashtirgan holda o'rganishning birinchi qadamlari edi. To'g'ri, tanqidiy-biografik ocherklarning ham, muayyan davrlar bo'yicha yozilgan adabiy obzorlarning ham saviyasi bir xil emasdi. Bir qator tanqidiy-biografik ocherklarda muayyan yozuvchi hayoti va ijodiga oid materiallar yig'ish va shu asosda ularning g'oyaviy-tematik yo'nalishini bayon qilish, badiiy asarlarni esa, ko'proq mavzu

¹O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. 1- tom. 237-bet.

asosida tekshirish bilan olib borildi, fikr-mulohazalar ba'zan umumiy tarzda ifoda qilindi. Bunga yillar tanqidchiligida faol bo'lib, jonli jarayonni o'rganishga o'z hissasini qo'shgan A.Olimjonning Zulfiya ijodiga bag'ishlangan ocherkini ko'rsatish mumkin. Unda mavhum, noaniq fikrlar talaygina bo'lib, muammolarga yuzaki va sxematik yondashish ruhi ustuvor. Keyinchalik adabiy tanqid kamchiliklarning asosiy sababi munaqqidlarimizda professional fazilatlar hamon etishmayotgani deb to'g'ri ko'rsatdi¹.



HAFIZ ABDUSAMATOV (1925).

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr o'zbek tanqidi yangi bosqichga ko'tarilishida yosh kuchlar faollik ko'rsatdilar. Ularning ijodiy faoliyati xilma-xil kechdi. Ilmiy-tadqiqotlari xarakteri ham, tanqidagi izlanishlari saviyasi ham turlicha bo'ldi. «Og'irlik markazi»ni ko'tarib borish H.Yoqubov, Sh. Rashidov, S. Azimov, S. Qosimov, A. Olimjonov, T. Sobirov qatorida Hafiz Abdusamatovning ham zimmasiga tushdi. Bu avlod vakillari ichida hozirga qadar adabiyotshunoslik va tanqidchilikda faol ijod qilib, o'z tengdoshlarining oldingi saflarida borayotganlardan biri bu H. Sh. Abdusamatovdir. U 1925-yilda tug'ildi, O'rta Osiyo davlat universiteti filologiya fakultetini tugatib, aspiranturada tahsil oldi. Dramaturgiya muammolarini tadqiq etib, nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1952-yildan O'z R FA Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim sifatida faol ish olib bordi. Institut sho'balaridan biriga rahbarlik qildi. 1964–1966-yillarda O'zbekiston Madaniyat ministrining birinchi o'rinbosari bo'lib ishladi.

H. Abdusamatov faoliyatida Abdulla Qahhor bilan Komil Yashin hayoti va ijodini o'rganish katta o'rin tutadi. U o'zbek adabiyotshunosligining tarkibiy qismlari qahhorshunoslik va yashinshunoslikka asos solgan tadqiqotchilardan hisoblanadi. Ayni choqda, u ilk bor o'zbek dramaturgiyasida konflikt muammosini va o'zbek adabiyotida satira masalalarini keng ilmiy planda tadqiq qilgan yirik olimdir. Shularning o'ziyoq olim ijodi rang-barang ekanini ko'rsatadi.

¹ Sharafiddinov O. Adabiy etudlar. – T.: 1968.

O'zbek dramaturgiyasida konflikt masalasiga doir (1954) birinchi yirik asarida muallif A. Qahorning «Shohi so'zana», K. Yashinning «General Rahimov», N.Safarovning «Sharq tongi», Uyg'unning «Navbahor», Tuyg'unning «Muhabbat» asarlaridagi yutuqlar va kamchiliklarni atroflicha tahlil qildi.

Bu davrda Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon hayoti va ijodiga bag'ishlangan alohida tadqiqotlar maydonga keldi. H.Yoqubov G'.G'ulom, Oybek ijodi haqida, H. Abdusamatov esa A. Qahhor hayoti va ijodi haqida faol ish olib bordi. Olimning o'nlab maqolalari bosilib chiqdi, muttasil ijodiy izlanishlar samarasi sifatida 1960-yili «Abdulla Qahhor hayoti va ijodi haqida ocherk» nomli yirik monografiyasi chop etildi.

Ba'zan asar badiiyatini yetarli tushunmaslik va ayrim sxematik illatlardan xoli bo'lmasa-da, tadqiqotda A. Qahorning sermazmun va serqirra ijodi, adabiyotimiz tarixida tutgan o'rni tadqiqotchi tomonidan keng va atroflicha ko'rsatib berildi. 1950–1960, 1960–1970-yillarda ham A.Qahhor asarlarini turli yo'nalishlarda tekshirish H.Abdusamatov ijodining markaziy o'rinlaridan birini tashkil qildi.

H.Abdusamatov ijodiy faoliyatida muhim o'rin olgan san'atkor bu, shubhasiz, dramaturg Komil Yashindir. 1964-yili olimning M. Samadov bilan hamkorlikda yozgan «Yashin» nomli monografiyasi bosilib chiqdi. Bu dramaturg ijodi bilan qiziqish unda 50-yillarning avvalida boshlangan edi. Aytish mumkinki, Komil Yashin yaratgan dramatik asarlardan deyarli birortasi H.Abdusamatov e'tiboridan chetda qolmadi. Olim G'.G'ulom, H. Olimjon, Uyg'un, Nazir Safarov, O. Yoqubov, B. Pahmonov ijodi haqida ham qator maqolalar yaratdi.

Dramaturgiyaning nazariy masalalari bilan faol shug'ullanib borishi natijasida H. Abdusamatov o'zbek dramaturgiyasining yirik tadqiqotchilaridan biri sifatida respublika miqyosidagina emas, undan tashqarida ham tanildi. Uzoq yillardagi izlanishlari natijasi o'laroq «Drama nazariyasi» nomli salmoqli asari maydonga keldi.

U ikki jildlik «O'zbek sovet adabiyoti tarixi ocherki» (1961–1962), uch jildlik «O'zbek sovet adabiyoti tarixi» (1968–1972) nomli fundamental tadqiqotlar yuzaga kelishiga munosib hissasini qo'shdi. Uning «O'zbek sovet satirasining ba'zi masalalari» nomli tadqiqoti (1960) o'zbek adabiyotidagi hajv muammolariga bag'ishlangan kitoblarning birinchisi sanaladi. Hamza, S. Ayniy, A.Qodiriy, G'.G'ulom, A. Qahhor hajviyotini keng miqyosda tadqiq qilgan olim 1968-yilda «O'zbek sovet satirasi masalalari» nomli navbatdagi yirik kitobini nashr etdi.

1968-yili H.Abdusamatov «O‘zbek sovet adabiyotida satira» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

«Traditsiya va novatorlik problemi» (1974) nomli kitobida muallif bu muammolarning o‘zaro ichki aloqasini o‘rgandi. Bu asar Hamza an‘analarining Yashin ijodida jilolanishi, kamol topib, keng ko‘lamda yangilanishi yoritib berilgan tadqiqot sifatida e‘tirof etildi. «Estetika va hayot» (1976) nomli kitobida dramaturg Komil Yashinning adabiy-tanqidiy, estetik qarashlari tekshirildi. «Hayot, adabiyot, teatr» (1978) nomli kitobi muallifning turli yillarda yozgan maqola, adabiy o‘ylari va taqrizlaridan tarkib topgan.

Faol xizmatlari uchun olim «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi» degan yuksak unvonga sazovor bo‘ldi. «Traditsiya va novatorlik problemi» va «Estetika va hayot» asarlari uchun 1977-yili Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Olim O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi a‘zosi va drama sho‘basining raisi sifatida faol mehnat qildi. Ayni vaqtda, u O‘zbekiston Teatr jamiyati rayosatining a‘zosisidir. Uning mehnatlari mustaqillik davrida hukumatning qator e‘tiborli nishonlari bilan taqdirlandi. Mustaqillik davriga kelib, bu zahmatkash olimning ijodi yanada faollashdi.



O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi uchinchi Plenumida (1956) adabiyotshunoslik va adabiy tanqid masalalari maxsus muhokama qilinib, tanqidagi yuzakilikning umumadabiyotimiz ravnaqiga salbiy ta‘sir etayotgani, bu hol, ayniqsa, hayotni bo‘yab tasvirlashga moyil asarlarni tahlil etib, baholashda ko‘zga tashlanayotgani ta‘kidlandi. Keyingi yillar she‘riyatida, xususan, ritorika va madhiyabozlik kuchayib borayotgani haqida asosli fikrlar aytili.

Davr tanqidining muhim xususiyati nazariy masalalarga katta o‘rin berilishida ko‘rinadi. To‘g‘ri, aksar fikrlar sotsialistik realizm metodi muammolarining talqini sifatida kechdi va, tabiiyki, ularning ma‘lum qismi va ularda ilgari surilgan ayrim qarashlar bugun eskirdi. Lekin lirika muammolariga bag‘ishlangan bahs 50-yillar o‘rtasidagi o‘zbek tanqidchiligining muhim hodisasi sifatida baholanishga arzigulikdir. Undagi, ayniqsa, H.Yoqubovning «Lirikada konflikt», Ozod Sharafiddinovning «Lirika haqida mulohazalar» kabi maqolalari misolida tanqidiy tafakkurda jiddiy o‘zgarish namunalari namoyon bo‘ldi.

Bu davrdagi o‘zbek tanqidi haqida gapirganda, avvalo, Oybekning «O‘zbek sovet adabiyoti yuksalishda», S.Azimovning «O‘zbekistonda

adabiy tanqidchilikni rivojlantirishga doir ba'zi masalalar», A.Olimjon va P.Tursunning «Adabiy tanqidchilikni yuksak darajaga ko'taraylik», V.Zohidovning «Yosh tanqidchilar haqida», singari maqolalarini eslamaslik mumkin emas.

Ularda professional tanqidchi uchun zarur bo'lgan fazilatlarni egallash yo'lida munaqqidlar oldiga qator dolzarb vazifalar qo'yildi. Bu yillarda, shuningdek, hozirgi zamon o'zbek poeziyasi, dramaturgiyasi, bolalar adabiyoti, muayyan san'atkorlar hayoti va ijodi, adabiy aloqalar va o'zaro ta'sir, tarjimachilik san'ati haqidagi qator tadqiqot, risola va maqolalar vujudga keldi.

50-yillar tanqidi va adabiyotshunosligi rus hamda o'zbek adabiyotlarining o'zaro aloqasi hamda faol ta'sirini tadqiq etishga jiddiy e'tibor berdi. Biroq bu yo'nalishdagi ishlarda to'g'ri, muhim va e'tiborli fikrlar aytilishi bilan bir qatorda o'zbek adabiyoti faqat rus adabiyotidan o'rgansagina, unga ergashsagina, biror bir yutuqqa erishishi mumkin, busiz adiblarning mahorati haqida gap bo'lishi mumkin emas, qabilidagi fikrlar ham ilgari surildiki, bu bir tarafdin, milliy adabiyot va adiblarning o'ziga xosligini mensimaslik va ikkinchi bir tarafdin, ruslashtirishdan iborat katta siyosatning adabiyotdagi ko'rinishi sifatida nomaqbul bir tamoyil edi. Afsuski, yuqoridagi nuqtayi nazar tanqidda uzoq yillar hukm surdi va o'zbek adabiyoti ravnaqiga muayyan masala va mezonlarda salbiy ta'sir o'tkazdi.

Hatto o'rta maktabning o'zbek sinflari uchun yozilgan va nomi «O'zbek adabiyoti» deb ataluvchi darsliklar goh M.Gorkiy, gohda V.Mayakovskiy hayoti va ijodini yoritishdan boshlanguvchi edi. Xayriyatki, Istiqlol bunday yondashuvlarga tamom chek qo'ydi. Bu yillarda ham adabiy tanqid rivoji xiyla murakkab kechdi.

Mumtoz merosga nigilistik munosabatlarga, tarixiy adabiy faktlarni soxtalashtirishga, «yagona oqim» nazariyasi, «konfliktsizlik nazariyasi» ga qarshi keskin kurash olib borishga to'g'ri keldi. Bu kurash o'zining mohiyat-e'tiboriga ko'ra to'g'ri bo'lishiga qaramay, ba'zan jiddiy xatolarga ham yo'l qo'yildi, vulgar sotsiologik qarashlarning u yoki bu qirralari, u yoki bu ko'rinishlarda takrorlandi.

Shu o'rinda «Alpomish» dostoniga bo'lgan munosabat haqida ikki og'iz to'xtab o'tishga to'g'ri keladi. Markazning qattiq tazyiqi va zimdan buyrug'i tufayli bu qahramonlik dostoni nohaq tanqidda uchradi. «Alpomish» A.Abdunabiyev va A.Stepanovlarning «Alpomish» eposi haqida», «Xalqchilik bayrog'i ostida» nomli maqolalarida xalqqa yot, reaksion asar sifatida qoralandi. Buni anglash uchun katta aqlning

keragi yo'q. Bu maqsad zahirida o'zbek xalqining uning buyuk bir ma'naviy qudratidan mosuvo qilish edi. 1952-yil martida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan «Alpomish» dostoni muhokamasida nohaq fikrlar yanada chuqurlashtiriladi. Dostonni tashviq va targ'ib qilib kelgan, uni ko'p marta qayta-qayta nashr qildirgan va bu nashrlarga kirish so'zi yozganlar, jumladan V.Jirmunskiy va H.Zaripovning «O'zbek xalq qahramonlik eposi» kitobi, Oybekning «O'zbek poeziyasi antologiyasi», M. Shayxzodaning «Alpomish» dostonining rus tilidagi (1949) nashriga yozgan maqolalari qoralanadi. Afsuski, o'zbek xalq ijodiga bunday noto'g'ri munosabat matbuotda ancha vaqt davom etdi. Ammo asta-sekin bunday nigilistik qarashlarga keskin zarba berildi.

1956-yilda «Qizil O'zbekiston» gazetasida bosilgan «Xalq ijodining o'lmas yodgori» maqolasi «Alpomish» dostonining xalqchilligini isbot etdi — o'zbek xalqining buyuk dostoni haqqoniy va odil bahosini oldi. «Alpomish» eposi jiddiy o'rganila boshlandi. Bu o'rinda Moskvadagi M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti instituti hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tashabbusi bilan Toshkentda (1956, 20–25-sentabr) doston muhokamasiga bag'ishlangan regional kengash katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kengashda va muhokamada taniqli olimlar A.K.Borovkov, V.M. Jirmunskiy, Ye.E.Bertels, L.I.Klimovich, V.I. Checherov; Moskva davlat universitetidan sharqshunos M.I.Bogdanova, adabiyotshunos A.Volitova, tarjimon shoir L.M.Penkovskiy; Qozog'iston FA muxbir a'zosi N.S.Smirnova va ilmiy xodimi T.Sodiqov, tatar X.Yormuhammedov, boshqird A.Kirayev, gruzin M.Ya.Chikovani, osetin V.S.Totoyev, mordvin A.I.Maskayev, qoraqalpoq I.Sag'itov va O'. Ayimbetov, shuningdek, o'zbek olimlari H.Zarif, M.Shayxzoda, H.Sulaymon, M.Afzalov, I.Jabborovlar faol ishtirok etdilar. Unda doston va uning variantlari keng muhokama qilindi, ularni baholashdagi noto'g'ri tamoyillarga barham berildi.

Bu kengash milliy respublikalar folklorshunosligini rivojlantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Yuqoridagidek nigilistik va noxolis qarashlar adabiy tanqidchilikda tarixiy mavzuda yaratilgan asarlarga nisbatan ham ro'y berdi. Bobur, Muhammad Solih, Shayboniyxon shaxsiyatlari va ijodlariga salbiy munosabatlar buning dalilidir. Ba'zi tanqidchilar zamonaviylik masalasini juda tor, yuzaki talqin qildilar. Zamonaviylikning o'tmish mav-

zuziga qarama-qarshi qo'yilishi natijasida tarixiy o'tmish aks etgan g'oyaviy-badiiy baquvvat asarlar huda-behudaga kamsitildi. Shu yo'ldan borgan ba'zi munaqqidlar Oybekning «Navoiy»dek buyuk romanini qattiq tanqid qilishga kirishdilar. Holbuki, asar yaratilgan keklar davrning eng yuksak mukofotiga sazovor bo'lgan, qator yirik olimlar tomonidan nafaqat o'zbek adabiyoti, balki «ko'p millatli adabiyot»ning ham ulkan yutug'i sifatida yuksak baholangan edi. Jumladan, N.Tixonov uni shunday baholadi: «Biz ... o'zbek tilida yaratilgan birinchi tarixiy romanni ko'rib turibmiz. Buni Oybek yaratdi. Oybek bizga, kitobxonlarga XV asr buyuk odamining fojeasini ko'rsatdi. Keng kitobxonlar ommasi O'rta Osiyoning o'sha davri haqida yozilgan o'nlab ilmiy ishlardan ham ololmagan ma'lumotlarini bu romandan oldilar». Darhaqiqat, «Navoiy» romani haqidagi nohaq tanqidlar uzoqqa borolmadi, asar o'zining qimmatini yo'qotmay qolayotir.



LAZIZ QAYUMOV (1930–2004).

O'zbek adabiyoti va madaniyati o'choqjaridan biri bo'lgan Qo'qon shahrida 1930-yilning 23-aprelida dunyoga kelgan Lazizxonning otasi, o'qituvchi Po'latjon Qayumov o'g'lining yoshlikdan sabot bilan qiyinchiliklarni bartaraf qilish va ma'rifat mevalaridan bahramand bo'lishida birinchi murabbiylik vazifasini o'tadi. Maktabni a'lo baholarga bitirib, O'rta Osiyo Davlat universitetida o'qidi, so'ng aspiranturada tahsil oldi. «Urushdan so'nggi davr o'zbek romanlarida tipiklik problemi» mavzuida

nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi (1956).

XX asrning 50-yillari ikkinchi yarmidan boshlab, L.Qayumov deyarli butun umrini, ilmiy-ijodiy faoliyatini Hamza hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishladi. Hamza ijodi o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy hayotida, asarlari esa, o'zbek adabiyoti ravnaqida muhim rol o'ynaganidek, bu ulkan shoir va dramaturg ijodiyotini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar, xususan, L.P.Qayumov maqola va monografiyalari ham tanqid va adabiyotshunoslik rivojida o'z o'rniga ega. Zero, ayniqsa, H.H.Niyoziy tarjimayi holiga oid L.Qayumov tomonidan nusiqlab yig'ilgan, tiklangan tarixiy ma'lumotlar hech qachon o'z qimmatini yo'qotmaydi.

Olimning ilmiy merosi faqat H.H.Niyoziy haqidagi tadqiqot-lardangina iborat emas. U tanqidning rang-barang janrlarida, zamo-naviy adabiyotning turli muammolari xususida, nasr, she'riyat, dramatik asarlar haqida barakali qalam tebratdi. Adabiy jarayonni faol ko'rsatib bordi, maqolalari bilan unga ta'sir etdi.

«Shoira Zulfiya» (1965) monografiyasida zahmatkash o'zbek shoirasining hayoti va ijodiy faoliyatini, o'ziga xos poetik olamini keng o'quvchilar ommasiga tanishtirdi. Zulfiya ijodining yuksak pog'o-nalariga ko'tarilishidagi burilish nuqtalarni aniqladi, shoiraning adabiyotimizda tutgan o'rnini ko'rsatib berdi. «Zamondoshlar» (1972), «Qardoshlar» (1973), «Asr va nasr» (1975) va boshqa kitoblarda L.Qayumovni qamrovi keng olim va universal adabiyotshunos sifatida ko'ramiz. Masalan, «Zamondoshlar» kitobida o'zbek adabiyotining deyarli 30 vakili hayoti va ijodini o'rganib, umumlashtiradi. Muallif «Zamondoshlar» va Hamza ijodiga doir asarlari uchun Davlat mukofoti sovrindori bo'ldi (1973).

L.Qayumov o'zbek adabiyoti tarixi va uning vakillari ijodini o'rganishga ham e'tibor qaratdi. «Navoiy va Hamza», «Furqat va Hamza» nomli maqolalar yozdi. Uning shoira Anbar Otin ijodi va adabiyot tarixidagi sharaflari o'rnini tiklashdagi xizmatlarini ham ta'kidlash lozim.

Hozirgi zamonaviy adabiy jarayon, o'zbek adabiyotining ulkan va navqiron vakillari ijodini kuzatib borish adabiyotshunos ijodiy faoliyatining muhim qirralaridan birini tashkil etadi. Bu yo'nalishda uning yigirmadan ortiq risola va kitoblari chop etildi. U adabiyot-shunos va munaqqid sifatida Butunittifoq miqyosida keng tanilgan o'zbek munaqqidlaridan biri edi. Maqolalari «Literaturnaya gazeta», «Drujba narodov», «Literaturnoye obozreniye» jurnallarida tez-tez bosilib turgani olim ijodining miqyosi haqida dalolat beradi.

L.Qayumovning ijodi va ijtimoiy faoliyati ko'p qirralidir. Yetuk jamoat arbobi, zabardast adabiyotshunos, o'tkir tanqidchi, iste'dodli publitsist, tashabbuskor muharrir va kinossenarist, hikoyanavis, talabalar ustoz sifatida keng tanilgan olim umrining oxirigacha ezgu niyatlar yo'lida faol mehnat qildi.

Davr tanqidchiligida zamonaviylik, g'oyaviylik va badiiylik masalalari. Zamonaviylik davr tanqidchiligining dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Urush yillarida adabiyot davr taqozosi bilan o'tmishga keng murojaat qilgan, tarixiy va vatanparvarlik mavzulari asosiy o'rinni egallagan, binobarin, bosqinchilarga qarshi kurashni tasvirlash, ya'ni

xalqning jangovar o'tmishini badiiy gavdalantirish orqali ozodlikni ulug'lash, o'zgaga qaram bo'lmaslik, vatanparvrlk g'oyalariga e'tiborni kuchaytirish zaruriyati tug'ilgan edi.

Urushdan keyingi davrda xarob bo'lgan shahar va qishloqlarni tiklash, sanoat korxonalarini qayta ishga tushirish, xalq xo'jaligini rivojlantirish bilan bog'liq holda ijodkorlar oldiga zamonaviy mavzularda badiiy yuksak asarlar yaratish vazifasifavqulodda jiddiy qilib qo'yildi. Natijada qardosh xalqlar adabiyotida bo'lgani singari bizning adabiyotimizda ham zamonaviy mavzularda ko'plab asarlar yuzaga kela boshladi. Zamonaviy hayot va yangi davr qahramonlari adabiyotimizning asosiy tasvir obyekti bo'lib qoldi. Bu masalalar adabiy tanqidning ham diqqat markaziga ko'chdi.

Adabiy tanqid zamonaviy mavzuda yozilgan asarlarni qo'llab-quvvatlash harakatiga tushdi. Mirmuhsinning «Usta G'iyos» poemasi e'lon qilinishi bilan «Yangi ijodiy intilishning to'ng'ich mevasi» degan taqriz bosildi. Taqrizda bugun eskirgan qarashlar borligini e'tirof etgan holda, tanqidchi A.Alimuhammedovning «Usta G'iyos» haqida ba'zi mulohazalar» maqolasi mohiyati asarning zamonaviyligiga e'tibor berishdan iborat bo'ldi: «Asarning eng katta fazilati va o'quvchini quvontiradigan tomoni, uning zamonaviy mavzuda yozilishidir».

Zamonaviy mavzudagi asarlar saviyasi bir xil emasligi darhol ko'rinib qoldi. Zamonaviy hayotni yuzaki, bir tomonlama talqin etish natijasida muayyan sxemalar vujudga kela boshladi. Tanqidchilik bunga e'tibor berdi, ammo diqqatni ko'proq ishlab chiqarish mavzusidagi asarlarga qaratib, biryoqlamalikka yo'l qo'ydi. «Ishlab chiqarish mavzusida» yozilgan asarlarning eng o'jiz tomoni g'oyaviy mazmuni badiiy teran ifodalab bera olmaslikda ko'rindi.

Ularning aksariyati hayotiylikdan, turmush murakkabliklarini ko'rsatishdan mahrum bo'lib, badiiy xarakterlar o'rnini ishlab chiqarish muammolari egalladi. Asar qahramonlari ko'pincha turli muammolar orasida o'ralashib qoldi. Tanqid muayyan asar tasvir obyektining yangiligiga e'tiborni qaratgan holda, zamonaviy voqelikni badiiy o'zlashtirishdagi ijodiy prinsiplar ham yangilanishi lozimligini boshda ko'p ham tushunib yetmadi. E'tibor qilingan o'rinlarda esa, yangi voqelikning ko'proq tashqi belgilarini aks ettirgan bir qadar bo'sh, yuzaki va jo'n asarlarni ham maqtashga berilib ketdi. Tasvirdagi voqelikning yangiligi va shu asosda «aktual» fikrni aytishga intilishining o'ziyoq asar badiiyligi va qimmatini belgilay olmasdi, albatta. San'at asari chuqur g'oyaviylik va yuksak badiiylikning o'zaro uyg'unligi

bilan tirik. G'oyaviylik badiiylikdan tashqarida mavjud bo'lolmaydi. Adabiyotda chinakam zamonaviylik badiiy novatorliksiz kechishi mumkin emasligi anglab yetilgach, tanqidchilikda asta-sekin novatorlik muammosiga e'tibor kuchayib bordi. Voqelikning muhim, xarakterli jihatlarini ko'rsatish bilangina emas, badiiy kashf etish orqaligina badiiy asarning zamonaviylikni ta'minlash mumkinligini anglashga bu davr o'zbek tanqidchiligi erishishga intilgan muhim marralardan biri bo'ldi va ana shu marraga intilishdagi xususiyatlarda uning ijobiy va zaif tomonlari namoyon bo'la bordi.

Zamonaviy mavzuga e'tibor berishning favqulodda kuchayishi bilan ba'zi bir noxush tamoyillar ham ko'rindi. Ayrim tanqidchi va yozuvchilar chiqishidagina emas, hatto yirik jurnallarning bosh maqolalarida ham zamonaviy mavzu o'tmish mavzusiga keskin qarama-qarshi qo'yildi, o'tmishni tasvirlovchi san'atkorlar «kurashchi bo'lolmaydi» deyishgacha borildi¹. Tanqid «zamonaviylik» va «zamonaviy mavzu» tushunchalarini talqin etishda ham turli yo'llardan bordi. Lekin, barcha nuqsonlardan qat'i nazar, asarga badiiylik masalasida talabchan munosabatda bo'lish yildan yilga kuchaydi. Tanqid asarlarni faqat zamonaviy mavzuda yozilgani uchungina maqtash tamoyilidan qutula bordi.

H.Yoqubov o'zining «Abdulla Qahhor novellalari» turkum maqolalarida g'oyaviylik va badiiylikning uyg'unligi masalasiga jiddiy e'tibor berdi. U A.Qahorning dastlabki hikoyalaridagi kamchiliklar — siyosiy va'zxonlik, publitsistik nutq keyingi bosqich asarlarida tez barham topganligini, adib hikoyada, ayniqsa, san'atkor mahoratini yaxshi egallab borayotganini, hayotni bayon orqali ko'rsatish emas, obrazlar orqali yoritib berayotganini ta'kidladi. Adib hikoyalarining badiiylikni ta'minlaydigan ikkinchi bir xususiyati ularning favqulodda ixcham, lo'nda tuzilishidadir deb hisobladi. Tanqidchi A. Alimuhamedovning «Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir» maqolasida yozuvchi asarlari badiiylikni belgilashda eng muhim omillardan biri qahramonlar ruhiy dunyosining teran aks ettirilishidir degan xulosa chiqardi. Bu maqolani A.Qahhor ijodi va mahorati nuqtayi nazaridan maxsus yoritilgan o'zbek tanqidchiligidagi dastlabki qarashlardan biri deb baholash mumkin.

Bu davr tanqidi badiiy ijodning siyosatdan chetda turishiga qarshi keskin kurash olib borishga intildi va o'zining bu masalaga munosabatda

¹ Sharq yulduzi. 1959. № 7. 5-bet.

hamon cheklanishga yo‘l qo‘yib kelayotganini ko‘rsatdi. Ayni vaqtda bu masala talqinida ba‘zan mazmun shakldan, shakl mazmundan ajratib qaralgan hollar ham ro‘y berdi. Shaklga alohida e‘tibor beruvchilar ba‘zida shaklbozlikda ayblandi. Natijada badiiy shakl muammolarini o‘rganish, unga e‘tibor ma‘lum darajada ikkinchi o‘ringa surib qo‘yildi. Adabiyotda shakl mazmun bilan shu qadar uzviy bog‘langanki, uni mazmundan ajratish mazmunning o‘zini rad etishga olib boradi yoki, aksincha, mazmunni shakldan ajratish shaklni inkor qilishga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan yo‘l qo‘yilayotgan biryoqlamaliklar, taqrizlardagi xatolar, ayrim maqolalarda ko‘rsatib o‘tildi.

Oybek «Bizga asarning g‘oyaviy mazmunini ochib berish bilan bir qatorda, asarning badiiy to‘qimasini ham konkret analiz qiluvchi tanqid kerak, toki yozuvchi o‘z asarining musbat jihatlari bilan birga jamiki kamchiliklarini ham yaqqol ko‘ra olsun», degan edi yosh yozuvchilar kengashida qilgan ma‘ruzasida (1947, 14- avgust). Ulkan adib va adabiyotning bilimdoni Oybekning bu fikrlari adabiy jarayonga ta‘sir ko‘rsatmay qolmadi, albatta.

Bu davr adabiy tanqidchiligi, shuningdek, sxematizmga, vulgar sotsiologizm qoldiqlari sifatida ba‘zan ko‘rinib turuvchi ayrim dogmatik qarashlarga qarshi kurash olib borishga to‘g‘ri keldi. «Sharq yulduzi»da yozilganidek: «Ba‘zi tanqidchilar asarning g‘oyaviy mazmunini chuqur tekshirmasdan, uning badiiy formasiga tegishli baho bermasdan, faqat uning mazmuni yaxshi bo‘lgani uchun maqtaydilar, asarning mundarijasini aytib berish bilan kifoyalanadilar». Eng muhimi, asar zamonaviyligiga badiiy teranlik bilan bog‘lab baho berishga intilish davr tanqidchiligining jiddiy izlanishlar va samarali yo‘lda borayotganini ko‘rsatadi.

Adabiy tanqidda badiiy konflikt, qahramon, tipiklik muammolari. Ma‘lumki, haqiqiy san‘at va adabiyotda qanday bo‘lishidan qat‘i nazar qahramon obrazini yaratishning tayyor qolipi yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas. Har bir ijodkor o‘z iste‘dod yo‘nalishi va darajasi, borliqni, hayotni, insonni idrok etishdagi individual qarashlari, maqsad va ideali asosida qahramon obrazini yaratadi va ana shu yo‘ldagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa ijodkordan farq qiladi.

Shu ma‘noda bu davrda asar qahramoni, xususan, ijobiy qahramon obrazi unday yoki bunday bo‘lishi kerak, asarda, albatta, ijobiy yoki salbiy qahramon bo‘ladi, sho‘ro jamiyati kishisi fazilatlarining o‘zida umumlashtirgan tipik qahramonsiz sho‘ro adabiyoti bo‘lishi mumkin emas, asar markazida, albatta, kommunist yoki ishchi obrazi turishi,

rus kishisi obrazi bo'lishi, ular, albatta, o'zbekka aql o'rgatishi yoxud yo'l ko'rsatishi kerak qabilidagi fikrlar aytilgan va shunday yo'l tutgan adabiy tanqid jiddiy xatolarga yo'l qo'rganini bugun anglab yetayapmiz, ammo o'sha davrda bunday fikrlarni aytish zamon tanqidchiligining yetakchi tamoyillaridan biri edi. Shu ma'noda davr tanqidchiligida qator roman, qissa va dostonlardagi qahramonni jo'n, yuzaki, bir tomonlama talqin qilishlar: ayrim sxematik xarakterlarga; sujet va kompozitsiyadagi ba'zi qoliplarga; hayotiy ziddiyatlar xaspo'shlanib, to'siqlarning osongina yengib o'tilishiga; hatto qahramonlar xatti-harakatlari ishonarli emasligidan qat'i nazar ularni va pirovardida umuman asarni ijobiy baholash tanqidchilikda muayyan muddat oddiy bir hol sifatida kechdi. Bu kamchiliklardan qutula borish asnosidagina tanqidchilik o'zining jamiyat va adabiyot oldidagi mavqeini mustahkamlashi mumkin edi.

Qahramonlarni yaxshi-yomonga yoxud ijobiy va salbiyga ajratish, badiiy asarda qahramon timsolidagi shu xususiyatlarni tasvirlash, binobarin, tanqidchilikning ham masalaga shu nuqtayi nazardan yondashuvi uzoq yillar davomida hukm surib keldi. Masalan, tanqidchi A.Alimhammedov «Usta G'iyos» haqida ba'zi mulohazalar» maqolasida qahramonda tipik odamga xos «yaxshilik» va «yomonlik»larni topa bilish Mirmuhsinning asosiy yutug'idir», — deb yozgan edi. Bu yo'nalishdagi xatolar sekin-asta bartaraf etila bordi. Xususan, tanqidchilik adiblardan qahramonlarni butun murakkablikda, ichki olamidagi ziddiyatlarni xaspo'shlaymay ko'rsatish zarurligini talab qila boshladi.

Ijobiy qahramon haqidagi bahslarda «ideal qahramon» masalasi ham ko'tariladi. «Oyda ham dog' bor» deganlaridek, har bir eng ijobiy, eng ideal bo'lib ko'zga tashlanadigan odamda ham qandaydir juziy kamchiliklar uchrashi tabiiy.

Demak, kamchiliksiz odam yo'q. Gap o'sha kamchiliklarni ko'rsatish zarurligi yoki nozarurligida, ularning qahramon ifodasidagi tabiiy va hayotiyligida, hayotiy haqiqatni badiiy haqiqat darajasiga ko'tarila bilishida. Tanqid bu tushunchalarga birmuncha keyinroq — jiddiy izlanishlar natijasida yetib keldi.

Adabiy tanqid yaratilayotgan ijobiy qahramon obrazining bo'rttirib ko'rsatilishini talab etishi natijasida, mumtoz adabiyotdagi ijobiy qahramonlarni kamsitish kayfiyatiga ham uchradi.

Davrning adabiy-badiiy va tanqidiy tafakkuri ittifoq miqyosida, umuman, qahramon, xususan, ijobiy qahramon haqida bahs zarurligini anglab yeta boshladi. Ba'zilar ideal qahramon yaratish talabiga salbiy

munosabatda bo'ldilar, buning sababi, u hayot haqiqatini oldindan belgilab berilgan sxemalar bo'yicha aks ettirishga undaydi deb talqin etildi.

Badiiy ijod tajribasida birgina ijobiy qahramon ishitirok etmaydigan asarlar ham uchraydi. Bu xildagi asarlar ko'pincha turli e'tirozlarga, tortishuvlarga sabab bo'ladi. Gogolning «Revizor» komediyasi shunday asarlardan biri. Unda ijobiy qahramon yo'q, demak, yozuvchi idealini kim o'zida tashiydi, degan savolga Gogol: «Asarda olijanob bir qahramon bor, bu-kulgidir», deb javob berishi bilan kulgi asarda yozuvchi pozitsiyasini aniq belgilab turadigan ijobiy qahramon vazifasini ado etishini ta'kidlagan edi.

A.Qahhorning «Sarob» romanida ijobiy obrazlar bo'lsa-da, ular ikkinchi darajalidir deya asardagi bu muammoni noto'g'ri talqin qilish hollari ham bo'ldi. Keyinchalik bu fikrlar asossizligini adabiy jamoatchilik anglab yetdi.

Urushdan keyingi o'zbek tanqidida har bir asar markazida ijobiy qahramon bo'lishini shart deyilgan talab ancha kuchli edi. Aslida, — bu biryoqlama, noto'g'ri talab edi. Chunki hayot ham, inson ham murakkab. U faqat yaxshi yoki faqat yomondan iborat bo'lmasligi mumkin. Inson hayotda qanday bo'lsa, shunday, bor murakkabligi bilan adabiyotda aks etishi kerak. Shu o'rinda adabiy tanqidning lirik qahramonga, ya'ni she'riyatda harakat qiladigan va juda ko'p hollarda lirik qahramon bilan bir vaqtda shoir aytmoqchi bo'lgan fikrni o'zida tashiydigan obrazlarga munosabatini eslatib o'tishga o'rinlidir. «Bir qator taqriz va maqolalarda lirik asarlar, she'riy to'plamlar u yoki bu darajada tahlil qilindi, shu munosabat bilan ijobiy lirik qahramon xususida gap ochildi, turli-tuman mulohazalar bayon etildi. Bu borada lanjlik, ruhiy bo'shanglik, fikriy sayozlik va mavhumlik, quruq ritorika va madhiyabozlik kabi nuqsonlarni keskin, shafqatsiz tanqid qilish kuchayib bordi. Bu hol lirik qahramon yaratishning obyektiv va subyektiv jihatlariga nazar tashlashga olib keldi»¹, — deb yozganida M.Qo'sh-jonov haq edi.

Turmushning ilg'or tamoyillarini, hayot uchun zarur bo'lgan tomonlarini o'zida aks ettirgan, kelajak uchun to'siq bo'ladigan illatlarga qarshi shafqatsiz kurashuvchi qahramonlar obrazini yaratish bu masalaning obyektiv jihati. Lekin bu qonun emas. Hayotdagi qahramon faqat shu nuqtayi nazaridagina tasvirlanishi shart emas.

¹O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. 321-bet.

Bu masala ijodkor maqolalariga bog'liq. Zero, hayotda yuqoridag yo'nalishga teskari ruhdagi qahramon bo'lishi ham mumkin. Un ham tasvirlashga muallif haqli. Bu o'rinda ham yetakchi mudda yozuvchi maqsadi va uning badiiy namoyon bo'lish darajasi va yo'nalishidir. Demak, masalaning subyektiv jihati ham bor. U shoir ning o'zi, ya'ni uning qahramon haqidagi nuqtayi nazari, yaratgan obrazi. Demak, lirik obraz mohiyat e'tibori bilan shoir tafakkurining keng va teranligini, yo'nalishi, qalbining, ruhiy olamining boyligini ko'rsatuvchi bir ko'zgudir. Qahramonga munosabatda tanqidchilikda ideal, nuqsonsiz qahramon obrazini yaratishni shart qilib qo'yish hollari ham uchradi.

Shu tariqa, ijobiy qahramon masalasi bu davr tanqidi diqqat markazida turdi, munozaralar adabiyotda yangi-yangi izlanishlarga uchradi. Bu davrda «konfliktsizlik nazariyasi»ning mohiyati ochib tashlandi, hayotga qarama-qarshilik qahramonlarni ziddiyatlari turmushni kurashsiz tasvirlash, zamonamiz qahramonlarining bir tomonlama va ruhiy olamini yuzaki, «ura-uralar» fonidagina ko'rsatish tamoyillar keskin tanqid qilindi. Sho'ro jamiyati bo'lsa ham, uni batamon kamchiliklarsiz ko'rsatish, mutlaq titrog'i yo'q jamiyat sifatida talqir etish xatodir – degan fikrga kelishning o'zi hayotda olg'a tashlangan qadamlardan biri, tanqidchilikda bu fikrning adabiy jarayonga tadbic etila boshlanishi esa, tanqidiy tafakkurning bir bahya olg'a siljish edi. K.Yashin o'zining «Ulug' kanal» operasi librettosida xalq turmushini kurashsiz, ziddiyatlarsiz ko'rsatib, jiddiy g'oyaviy-badiiy xatolikka yo'l qo'yganini o'zi e'tirof etdi.

I.Sulton, H.Yoqubov, B.Imomov, H.Abdusamatov, S.Azimov kabi olimlarning ishlarida konfliktsizlik nazariyasi keskin tanqid qilinadi. H.Yoqubov so'zlari bilan aytganda, «konfliktsizlik nazariya»sini ilgari surgan ayrim tanqidchilar yozuvchi kamchiligining chuqurlashuviga ta'sir ko'rsatdilar, turmush haqiqatini bo'yab, silliqlab ko'rsatish tegirmoniga suv quydilar. U V.Zohidovning qator maqolalarida «konfliktsizlik nazariyasi» himoya qilinganligini tanqid qiladi. Bu nazariya tanqid qilingan ishlardan yana biri H.Abdusamatovning dramaturgiyada konflikt masalalariga bag'ishlangan (1954) kitobidir. Unda urushdan keyin yaratilgan dramalar konflikt muammosi nuqtayi nazari-dan tahlil qilinadi, aniq misollar asosida «konfliktsizlik nazariyasi»ning zararli oqibatlari ko'rsatiladi.

«Konfliktsizlik»ning yana bir ko'rinishi «yuzaki ziddiyatlar»ni to'qib chiqarishda namoyon bo'ldi. I.Rahimning «Hayot buloqlari» ro-

manida konfliktni bo'shashtirish oqibatida sxematizm kelib chiqqanini tanqidchilar to'g'ri ko'rsatib berdilar. Badiiy konflikt asar o'ziga yotar ekan, u g'oyaviylikka chambarchas bog'liq va ko'pincha, ular bir-birlarini belgilaydilar. Zotan, hayotni ziddiyatsiz, kurashsiz aks ettirish haqiqatdan ko'z yumish, san'at asarini haqiqiy g'oyaviylikdan mahrum etish hisoblanadi.

Yuzaki, faqat xo'jako'rsin uchungina, omma ko'zini shamg'alat qilish uchun asarga kiritilgan konfliktlar tanqidchilar e'tiboridan chetda qolmadi. Bunday konflikt soxta, mayda-chuyda, ko'pincha anglashilmovchilik asosigagina qurildi. Hayotiylikdan mahrum, o'ylab chiqarilgan bunday ziddiyatlar va faqat konflikt emas, umuman, asarni butunisicha chippakka chiqarishi tanqidchilar tomonidan asoslab ko'rsatildi.

Konfliktsizlik muammosi faqat epik yoki dramatik asarlarga emas, barcha tur va janrlarga ham xos ekanini, soxta ko'tarinkilik, ma'nosiz optimizm, binobarin, voqealarni yuzaki tasvirlash, hodisa va faktlarni quruq bayon qilish bilan cheklanish she'riyatda ham ko'zga tashlanishini M.Qo'shjonov to'g'ri ta'kidladi.

Konfliktsizlik muammosi, dastlab, dramaturgiya, so'ng nasriy asarlar tahlilida jiddiy qo'yildi. Ma'lum vaqtgacha lirika bu umumiy harakatdan chetda qoldi. Sababi lirikada konfliktning o'ziga xosligi, hatto, lirikada konflikt bo'lishi — bo'lmasligi ko'pchilik munaqqidlarni ikkilantirib turdi. «Hatto ayrim shoirlar adabiyotning konfliktli bo'lishi haqidagi talab faqat drama yoki epik asarlargagina taalluqlidir, «lirikada konfliktning bo'lishi shart emas», deb chiqdilar. Bunday qarashlar adabiy ijodga ham ta'sir ko'rsatmoqda va natijada lirikada voqelikni bo'yab, yaltiratib tasvirlovchi ko'pgina she'rlar vujudga kelmoqda»¹, deb yozdi O.Sharafiddinov. Bu davr adabiy tanqidi tipiklik masalasiga ayri-ayri e'tibor berdi. Bahslarda turli-tuman fikrlar aytildi, har xil nuqtayi nazarlar bayon qilindi. Bu borada, ayniqsa, L.Qayumov salmoqli tadqiqotlar yaratdi. «Badiiy adabiyotda tipiklik problemi», «Tipiklik va badiiy mahorat» maqolalari shular jumlasidan bo'lib, ayrim hollarda ularda tipiklik bilan individuallik orasidagi bog'lanish zaif asoslanganligi sezilib turadi.

Tipiklik — keng va ko'p qirrali nazariy muammo. Bu borada adabiyotshunoslik va tanqidchilikda ko'p bahslar bo'ldi. Ba'zi birovlar uni noto'g'ri talqin etdi, ayrimlari yuzaki tushundi, boshqa birlari

¹ Sharafiddinov O. Zamon. Qalb. Poeziya. — T.: 1962. 63-bet.

esa uning ba'zi tomonlariga kuchli urg'u berib, boshqa jihatlarini o'tiborda tutmadi. Bu xildagi turli-tumanlik ko'pgina maqolalarda ko'rindi, ayniqsa, B.Rahmonovning «Yurak sirlari» asari atrofidagi bahslar jarayonida yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Tipiklik haqidagi qator ilmiy-nazariy qarashlar, ularning nozik estetik jihatlarini o'z qimmatini saqlab qoladi, albatta. Biroq marksistik ta'limotning bilish nazariyasiga chambarchas bog'lab qo'yilgan hamda sho'ro zamonidagi mafkuraviy-siyosiy manfaatlariga bo'ysundirilib ilgari surilgan qator nuqtayi nazar va prinsiplar o'z ahamiyatini yo'qotganini eslatish o'rinli bo'lur edi.

She'riyatda konflikt kabi tipiklik ham o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi. Lirikaning epos va drama turlaridagi asarlariga nisbatan jonli jarayon va tipik sharoitni ko'rsatish imkoniyatlari xiyla cheklangan. Shu boisdan lirik qahramon tipik sharoitni o'zida mujassam etgan holda voqe bo'ladi, u orqali biz aniq tarixiy voqelik va hodisa anglaymiz, qonuniy mohiyatini tasavvur etamiz. O'sha yillarda konflikt kabi tipiklikni noto'g'ri talqin etish qator lirik asarlarga munosabatda yaqqol ko'rindi. «Konfliktsizlik nazariyasi» ta'sirida hayotiy ziddiyatlardan xoli «bezakli qahramonlar» paydo bo'ldi. Tipiklikni bir tomonlama, yuzaki tushunish natijasida «lirik qahramon» hamisha baxtli, saodatli bo'lishi lozim, uning uchun qayg'u, o'kinch, zorlanish, mashaqqat «tipik emas», deguvchilar ham bo'ldi. Oqibatda dardsiz, haroratsiz, ehtiroslardan mahrum, siyqa, yaltiroq, soxta ko'tarinki she'rlar va lirik qahramonlar ko'payishiga yo'l ochib berildi. Tipiklikni o'sha davr mafkurasi qobig'ida tushungan tanqidchilarning maqolalari bugun eskirdi.

O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidi yuqorida e'tirof etilgan nuqsonlari bo'lsa-da, bu davrda o'z tarixiy taraqqiyoti yo'lining yangi bosqichiga o'tdi. Uning tadqiqot obyekti kengaydi, hayotiy masalalarga yaqinlashuvi chuqurlashdi. O'zbek adabiyoti tarixini tadqiq etishga e'tibor kuchaydi, ko'tarib chiqayotgan muammolari rang-baranglashdi. Adabiyotshunoslik Alisher Navoiy va undan keyingi davrdagi san'atkorlar hayoti va ijodini monografik yo'sinda tadqiq qilishda jiddiy yutuqlarga erishdi. XX asr o'zbek adabiyotining mashhur namoyandalari hayoti va ijodini ayrim muammolar, adabiyot taraqqiyotining bosqichlari monografik yo'sinda o'rganilgan va tadqiqotlar paydo bo'ldi. Bu yo'nalishda o'ndan ortiq tanqidiy- biografik ocherk vujudga keldi. Badiiy ijodning fundamental muammosi — realizm xususidagi ilmiy izlanishlarning natijalari e'lon qilindi.

Adabiyotshunos va tanqidchilar safi yangi kuchlar hisobiga kengaydi. Adabiy tanqidning adabiy jarayon bilan aloqasi sezilarli ravishda kuchaydi. Tanqidchilik she'riyat, nasr va dramaturgiyada yaratilgan deyarli har bir muhim asarga munosabat bildirishga intildi. She'riy to'plamlar, poemalar, ocherk, hikoya, qissa, roman, drama, komediyalar haqida ancha taqriz va maqolalar bosildi, tanqidda adolatdan qochish emas, haqiqat sari yuz burish mayllari kuzatildi. Tanqidning adabiy-tarixiy jarayondagi roli va ta'siri ortdi, saviyasi ko'tarila boshlandi. Zamonaviylik, g'oyaviylik, badiiylik, konflikt, tipiklik, lirika va boshqa qator muammolarni tushunish va talqin qilishda muayyan yutuqlarga erishdi. Avvalgi bosqichda dunyoqarash, sinfiylik, ijtimoiy mansubiyat masalalarini anglash va talqin etishda yo'l qo'yilgan jiddiy kamchiliklar barham topdi.

Davr va ijtimoiy hayotdagi murakkabliklar adabiyotshunoslik va tanqidchilikda ham namoyon bo'ldi. Tanqidchilik vulgar sotsiologizm, dogmatizm, nigilizmdan iborat zararli yo'nalishlar mashaqqatlarini chekdi va ulardan qutula borgan sari jiddiy yutuqlar tomon intilishda davom etdi.

XX asrning 60–90-yillari tanqidchiligining o'ziga xos xususiyatlari. Istiqol shabadalari va adabiy tanqid

O'zbek adabiyoti XX asrning 90-yillarigacha mustamlaka sharoitlarini boshdan kechirdi. Istibdod faqat ijtimoiy-siyosiy hayotdagina emas, madaniy-adabiy muhitda ham hukm surdi. Shunga qaramay, mavjud ayrim sharoitlarning hayotiy ta'siri, badiiy adabiyotning ichki qonuniyatlarini to'g'ri va barakali idrok etish hamda adiblar iste'dodining siyosat iskanjasida, zug'um va zo'rvonlik doirasida qolib ketmay, milliy va umumbashariy yo'nalishlardagi tinimsiz izlanishlari deyarli barcha janrdagi asarlar misolida o'zining ijobiy samaralarini berdi. Adabiy tanqid ham shu jarayonlarni boshdan o'tkazdi. Sho'ro to'ntaruvidan so'ng Istiqlolgacha kechgan katta bir tarixiy davr mobaynida kommunistik mafkuraning doimiy va tinimsiz iskanjasida bo'ldi. Badiiy adabiyot va adabiy tanqid yetmish besh yil sho'rolar hayotidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning o'ziga xos badiiy in'ikosiga aylanib, asosan, mafkuraviy qurol vazifasini o'tadi.

Hukmronlik va zo'rvonlik ostida maydonga kelgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar badiiy adabiyot va adabiy tanqidning ham yo'nalishini belgilashga intildi: yozuvchilarni hayotni pardoqlab tasvirlashga,

tanqidchilarni esa, adabiy asarni kundalik siyosat nuqtayi nazaridan tahlil qilib, xulosalar chiqarishga undadi. Lekin sho'rolar davrida badiiy adabiyot va adabiy tanqid qanchalik siyosiy-mafkuraviy qurol-lantirilmasin, partiyaviylik, sinfiylik va g'oyaviylik singari mezonlarni ilgari suruvchi sotsrealizm metodi qanchalik hokimlik qilmasin, badiiy ijodda adolatga intilish, realizm uchun kurash bir nafas ham to'xtab qolmadi. Bu davrlarda adabiyotning barcha janrlarida yetuk asarlar yozildi, badiiy mahoratning yuksak namunalari yaratildi. Yangi kitobxon ham doim o'sib, o'zgarib, shakllanib bordi. Goh oshkor, goh pinhon jahon adabiyoti tajribalarini o'zlashtirish to'xtamadi, yozuvchilar kabi tanqidchilarning uslub va mahorati, nazariy saviyasi ham o'sish, o'zgarishda bo'ldi. Kitobxon estetik didini yangilaydigan pishiq badiiy asarlar va ilmiy-tadqiqotlar yaratildiki, bu ijobiy hodisalarga adabiy tanqid o'z munosabatini faol va izchil tarzda bildirib keldi¹.

Badiiy adabiyotdagi yutuqlarni o'rganish va tahlil etish natijasida adabiy tanqidning o'zida ham o'zgarishlar ro'y berganidek, tanqid erishgan yutuqlar, natijalar badiiy adabiyot rivojiga ta'sir ko'rsatdi.

Xalqimizda estetik did va madaniy saviyaning o'sib borishi ham adabiy tanqid uchun ijobiy ta'sirga ega bo'ldi. Ayniqsa, shax sig'inish oqibatlarini tugatish jabhasida olib borilgan ishlar natijasida XX asrning 60–85-yillarida adabiy tanqid o'zining yangi bir ko'tarilish jarayoniga kirishdi.

O'zbek romani, qissachiligi, she'riyati, dramaturgiya, dostonchilik va hikoyachilik kabi tur va janrlarning taraqqiyot yo'llarini alohida-alohida tahlil etuvchi tadqiqotlar, adabiy va ijodiy portretlar yaratildi. Tarixiylik va zamonaviylik, an'ana va mahorat masalalari tanqidchilik diqqat markaziga o'ta bordi, bu yo'nalishda qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Ammo adabiy tanqid mafkura tazyiqida bo'ldi. Buni «O'tkan kunlar» romani ijodiy metodi atrofida uyushtirilgan bahslar yaqqol tasdiqlaydi.

Avvalambor, 50-yillarning o'rtalaridan Abdulla Qodiriyning xalqqa qaytarilishi, «O'tkan kunlar» romani bosilib chiqishi va u haqda Izzat Sultonning ijobiy qarashlari o'zbek adabiyoti tarixi va tanqidchiligidagi muhim voqealar bo'ldi. Lekin adib dunyoqarashi, ijodiy metodi xususidagi past-baland bahslar davom etdi. Kimdir uni baribir,

¹ Yo'ldoshev B. Adabiy jarayon: tanqidchi uslubi va mahorat muammolari. -- T.: Fan. 2002, 149-bet.

sotsrealizm asari emas, deb baholadi, kimlardir tanqidiy realizm, yo ma'rifatparvarlik realizmi, romantizm namunasi deb atadi, yana allakim undan sotsrealizm unsurlarini axtardi.

Bu yillar haqida gapirganda ana shu murakkab jihatni nazardan qochirmaslik kerak.

60-yillarda yangi tamoyillarning o'sishiga yo'l ochgan xususiyatlardan biri adabiy tanqid rivojiga xalaqit berib kelayotgan ayrim nazariy chalkashliklarga jahon adabiy tanqidi tajribalarini o'rganish asosida barham berila boshlanganligi edi. Shu tufayli badiiy asarni yuzaki baholash, asossiz quruq xulosalarni ilgari surish, yozuvchi shaxsiga nisbatan subyektiv munosabat bildirish kabi salbiy holatlar barham topa bordi.

Bu davr tanqidchiligida, turli yo'nalishdagi ilmiy-estetik tahlil kuchaya boshlagani, bu maqola va tadqiqotlar o'zbek tanqidiy tafakkurida yangi bosqich paydo bo'layotganini ko'rsatdi. Badiiy adabiyotdagi, she'riyatdagi faqat jamiyat emas, faqat ishlab chiqarish emas, inson tabiatidagi, qalbi va ruhidagi o'zgarishlarni tasvirlash tomon siljishlarni lirika va lirik qahramon muammolariga bag'ishlangan qizg'in bahs va ilmiy-nazariy munozaralarda ko'rish mumkin, bu esa adabiy tanqid saviyasining yuksalishi, she'riyatning rivojlanishiga ta'sir etdi.

Bu davr adabiy tanqidi va adabiyotshunosligi rivojida ham shu yillar va undan birmuncha ilgari yaratilgan V.Zohidov, V.Abdullayev, I. Sultonov, H.Yoqubov, A.Qayumov, G'.Karimov, A.Hayitmetov singari taniqli olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. V.Zohidov, I.Sultonov singari mashhur olimlarning tanlangan asarlari nashr etildi. Bu yillardagi tanqid va adabiyotshunoslik ilgarigi bosqichlar uchun xos bo'lgan mayda mavzuchilik hamda san'atkor ijodiga ko'pincha mavzu nuqtayi nazaridangina yondashishdan qutulib, adabiy jarayon va yozuvchi ijodini muhim va dolzarb muammolar bo'yicha tadqiq etish bosqichiga ko'tarila bordi.

Adabiy tanqid talabchan va prinsipial bo'lishida xalq manfaatlaridan kelib chiqishi kerak. Tanqid mehribon va sezgir bo'lishi, ijodkor yo'lida tug'iladigan qiyinchiliklarni tushunishi, u yaratgan narsalarni ko'ra bilishi lozim. Tanqidchi asarni faqat aqli bilan tushunib qolmasdan, chin dildan his qila olishi, badiiy obrazlardan olgan taassurotini, his-tuyg'ularini tanqidiy mantiq vositasida mahorat bilan ifodalab bera bilishi kerakligiga o'sha davr matubotida katta e'tibor qaratildi.

Adabiy tanqidagi estetik talablarning oshib borishi adabiyotshunoslarning ham mas'uliyatini kuchaytirdi. A.Hayitmetovning «Alisher

Navolyning adabiy-tanqidiy qarashlari» (1959) monografiyasi o'zbek tanqidchiligi tarixini o'rganish borasidagi birinchi yirik va dadil qadam sifatida alohida ahamiyatga egadir.

Bu davrda yozuvchilarning adabiy tanqid taraqqiyotiga qo'shgan hissalar, ayniqsa, adabiyotning estetik qimmatini belgilash borasida juda katta rol o'ynaydi. Oybekning «Navoiy» romanini qanday yozdim», A.Qahhorning «Kitob shavq bilan o'qilishi kerak» maqolalari fikrimizga misol bo'la oladi.

Adabiy tanqid zamonaviylikni tadqiq etishga e'tiborni kuchaytirib, adabiy jarayonga ta'sir ko'rsatishga intildi. Bu sohada ma'lum bir yutuqlar qo'lga kiritildi deyish mumkin. L.Qayumovning «Asr va nasr», «Zamondoshlar», M.Qo'shjonovning «Ijod saboqlari», «Ma'no va mezon», S.Mamajonovning «Uslub jilolari», «Shoir dunyosi», A.Akbarovning G'.G'ulom, Uyg'un, Zulfiya haqidagi ishlari, M.Yunusovning «Saxiy qalamlar», U.Normatovning «Nasrimiz ufqlari», N.Xudoyberganovning «Kashfiyotlar yo'lida», I.G'afurovning «Yonar so'z», P.Shermuhammedovning «Ijod dardi», A.Quljonovning «Zamonaviylik va badiiylik» kabi tadqiqotlari adabiyotshunoslik va tanqidchilikning ham son, ham sifat jihatidan o'sganini yaqqol ko'rsata oladi. Bularning aksariyati uchun mushtarak bo'lgan ijobiy xususiyatlar quyidagilardan iborat: a) oldingi davrlarda ko'proq ko'zga tashlanuvchi badiiy asarlarni asosan, mavzu nuqtayi nazaridan o'rganishdan endi davr taqozo etgan yirik muammolar bo'yicha tadqiq etish; b) asarlarga g'oyaviy-siyosiy qimmati jihatidagina emas, ayni choqda badiiy saviyasiga qarab baho berish tamoyilining o'sishi; d) san'atkorning mahorati masalasini o'rganishga e'tiborning kuchayishi; e) sotsiologik tahlil bilan estetik tahlilni qo'shib olib borishdagi ayrim yutuqlar; f) adabiyotshunos va tanqidchilarning o'z mahoratlari ustida jiddiy qayg'urishi.

Adabiy jarayonga ta'sir ko'rsatishning ibratli namunalari sifatida M.Qo'shjonovning «Xayol boshqa, hayot boshqa», I.G'afurovning «Ikki shoir bilan suhbat» maqolalarini ko'rsatib o'tish o'rindir. Ular asarlari jiddiy va haqqoniy tanqid qilingan ijodkorlar uchungina emas, barcha yozuvchi va shoirlarga hamda umuman hozirgi adabiy jarayonga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatdi.

Adabiy tanqidga shu davrda kirib kelgan S.Mamajonov, U Normatov, I.G'afurov, N.Xudoyberganovlar tanqidchilikda kam ishlangan mavzularga qo'l urib, yangi muammolarni ko'tarib chiqishga intildilar.

Tanqidchilik mahorati haqida gap ketganda, T.Jalolovning Mirtemir, Shayxzoda, Zulfiya ijodlariga bag'ishlangan maqolalarini eslab o'tish o'rinlidir. T.Jalolov tanqidiy tadqiqotni ravon til bilan qiziqarli shaklda ifodalab bera olgani bois u o'zbek tanqidchiligining estetik xususiyatlarini rivojlantirishga yaxshi hissa qo'sha oldi.

Adabiyotshunoslik ijodiy metod, xususan, realizmning umumiy masallarini o'rganishdan uning aniq, yirik muammolarini maxsus tadqiq etish bosqichiga ko'tarilib bordi. Umuman, badiiy asarning tili masalasi oz o'rganilganini nazarda tutadigan bo'lsak, P.Qodirovning badiiy adabiyot taraqqiyotida xalq tilining roli, xalq tili va asar tilining tutgan o'rnini tekshirishga bag'ishlangan «Xalq tili va realistik proza» monografiyasi va «Til va dil» risolasining maydonga kelishi so'nggi yillar o'zbek tanqidchiligining jiddiy yutug'i sifatida baholashga asos beradi.

Fundamental xarakterdagi tadqiqotlar yaratish ishining so'nggi yillarda oyoqqa turib kelayotganligi adabiyotshunoslik darajasi va adabiyotshunoslar saviyasining o'sganligini ko'rsatuvchi navbatdagi muhim belgilardan biridir. Ko'p tomlik o'zbek adabiyoti tarixini yaratishda H. Yoqubov, I. Sultonov, S. Mamajonovlarning tadqiqotlari, I. Sultonovning «Adabiyot nazariyasi» darsligi, S. Mirzayev va X. Doniyorovlarning «O'zbek sovet adabiyoti», N. Shukurov va Sh. Xolmatovlarning «Adabiyotshunoslikka kirish» qo'llanmalari shu sohadagi bo'shliqlarni ma'lum ma'noda to'ldirdi. Maqsadi va adresi, janri va yo'nalishi turlicha bo'lgan bu ishlarning ijobiy xususiyatlariga bir xilda baho berish mumkin bo'lmaganidek, ulardagi kamchiliklar haqida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin.

Bundan tashqari G'.G'ulom, Oybek, Shayxzoda, I.Sulton, Yashin singari keksa avlod adiblari ko'p jildlik tanlangan asarlarining maxsus jildida adabiy-tanqidiy maqolalarning o'rin olishi, Sotti Husayn, Ziyoy Said, Rahmat Majidiy kabi o'zbek tanqidchilarining tanlangan adabiy-tanqidiy maqolalarining bosilib chiqishi, I.Sulton va H.Yoqubovlarning S.Husayn hamda O.Hoshim haqidagi maqolalarining e'lon qilinishi o'zbek tanqidchiligidagi muhim hodisalardandir.

Adabiy aloqalarga oid qator tadqiqotlar yuzaga kelib, bu sohada keyingi yillarda L.Qayumov, S.Mirzayev, S.Shermuhammedov, Sh.Turdiyev, R.Inog'omov va boshqalarning ishlari yaratildi. Ammo ularning ko'pchiligida qayd etish, adabiy dekada va haftaliklar haqidagi dalillarni ko'rsatish, tarjimalarni ta'kidlash bilan kifoyalanilgan holatlar ham uchraydi.

Bu davrda adabiy tanqid badiiy adabiyotning o'ziga xosligini astoydil tadqiq qilishga kirishdi, estetik tahlil kuchaya bordi. Natijada adabiy tanqidda ham estetik xususiyatlar o'sib, tanqidning janriy xususiyatlari shakllana bordi. Bu yillarda adabiy-tanqidiy asarlar son jihatdan emas, sifat jihatidan ham o'zgarib, yaxshilanib bordi. Yirik tanqidiy janrlar, muammoli maqolalar oldinga chiqdi. Masalan, 1979-yilning o'zida adabiyotshunoslik va adabiy tanqidga oid 35 ta monografiya yaratilib, ularning umumiy hajmi 300 bosma taboqdan iborat bo'lganligi tanqidchilikning kamolot sari yo'l olganligini yaqqol ko'rsatadi.

Davrning muhim tamoyillaridan biri shuki, unda adabiy tanqid janrlar jihatidan o'sdi: taqriz, portret, muammoli maqola, obzor, ilmiy ma'ruzalar shakli keng rivoj topa bordi.

Bu davrda adabiy tanqid adabiyotshunoslik oldiga adabiy aloqa va adabiy ta'sir masalalarini chuqur ishlash muammosini qo'ydi. O'zbek folklori va uning adabiy jarayon bilan aloqasi ham tanqid e'tiborini tortdi. Tanqidning hamma asosiy turlari shakllandi va rivoj topdi. Adabiy tanqidning turlari, asosan, uchta bo'lib, ular keng, oddiy kitobxonlar ommasiga qaratilgan tanqid, yozuvchilarga qaratilgan tanqid va tanqidchilarga qaratilgan tanqiddan iborat¹.

Tanqidchining shaxsi, mahorati, uning adabiyot sohasining mutaxassisi va inson sifatidagi xususiyatlari bu davrda tanqidga oid maqolalar va asarlarda katta o'rin tutdi. Tanqid ta'kidladiki, tanqidchi isnpektor emas, balki mutafakkirdir, u mutaxassis, ayni vaqtda, yozuvchi hamdir, uning ishi haqiqatni izlash va topishdir. U sharhlovchigina emas, talqin etuvchi, baholovchi va hukm qiluvchi hamdir; yozuvchi hayot haqida yozadi, tanqidchi esa hayot va adabiyot haqida yozadi va shu bilan birga bu sohalarni chuqurroq anglashda yozuvchiga ko'maklashadi, shu orqali yozuvchi va adabiyot saviyasini oshirib boradi, xalqning ijtimoiy, estetik ongi o'sishiga xizmat qiladi.

Asarni hayot bilan qiyoslab o'rganish realistik va haqqoniy tanqidning bosh belgisi va mezonidir. Tanqidchi asarni shu asosda chuqur tahlil etadi, go'yo uni «yangidan yaratadi». Adabiy asarga shunday yondashish davr tanqidchilarining ko'pchiligi uchun xarakterlidir. Bu xususiyat H.Yoqubov, M.Qo'shjonov tadqiqotlarida aniq ko'rinadi. Bu tanqidchilar bilan bir qatorda S.Mirvaliyev, N.Xudoyberganov, U.Normatov, A.Rasulov, A.Rahimovlar nasr tadqiqotchilari sifatida faoliyat ko'rsatdilar.

¹ O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. Ikkinchi tom. 1987, 83-bet.

She'riyat tanqidchiligida S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, U.Normatov, I.G'afurov, N.Shukurov va N.Rahimjonovlar faollik ko'rsatdilar.

She'riyatning faollashishi, undagi zamonaviy ruhning chuqurlasha borganligi, o'zbek nazmida yuz berayotgan ijodiy o'zgarishlar O.Sharafiddinovning «Zamon. Qalb. Poeziya» mavzusidagi ilmiy kashfiyotlarga boy, o'zbek nazmining tarixi va ayni zamondagi yutuq va kamchiliklarini umumlashtiruvchi salmoqli kitobida o'z ifodasini topdi. Bu munaqqidning birinchi yirik kitobi bo'lib, 1962-yilda nashr etilgan va adabiy jarayonda voqea bo'lgan tadqiqot edi.

Yo'nalishlar va janrlararo ixtisoslashuv jarayoni yorqinroq ko'zga tashlandi. L.Qayumov, H.Abdusamatov, B.Imomov, T.Sobirov, B.G'ulomov va S.Aliyevlar dramaturgiya tanqidchisi va tadqiqotchisi sifatida tanildilar. Tanqid o'zbek dramaturgiyasida hayotiy hodisalarni haqqoniy idrok etish chuqurlashganini qayd etdi.

Bolalar adabiyoti bilan shug'ullanadigan tanqid son jihatdan ham, sifat jihatdan ham o'sdi, o'zbek bolalar adabiyoti tarixiga bag'ishlangan ikki tomlik yaratildi, unda bolalar adabiyotining o'ziga xosligiga alohida e'tibor berildi. A.Suyumov, O'.Rashidov, P.Shermuhammedov, M.Normatov, S.Matchon, O.Safarov, Q.Qahramonov kabi bolalar adabiyoti tanqidchilari paydo bo'ldi. Publitsistikada O.Tog'ayev, S.Umirov, tarjimashunoslikda J.Sharipov, G'.Salomov, N.Vladimirova, N. Komilov salmoqli izlanishlarni amalga oshirdilar. Bu yo'nalishlarning taraqqiyot tamoyillari umumlashtirildi.

Adabiy tanqid ham o'zini o'zi anglash yo'lida izlanishga kirishdi. H.Yoqubov, A.Rasulov, S.Sodiq, B.Do'stqorayevning bir qator tadqiqotlari bosilib chiqdi. Ilk bor ikki jildlik «O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi» yaratildi.

70-yillar oxiriga kelib, o'zbek mualliflari asarlari xorijiy tillarda nashr etila boshlandi. Ch.Aytmatov «Ulug'bek xazinasi» romani munosabati bilan O.Yoqubovga maktub yo'lladi. Jahonga mashhur yozuvchining roman haqidagi iliq fikrlari nafaqat, bir o'zbek adibining, balki butun o'zbek adabiyotining ijodiy muvaffaqiyatidan dalolat beradi.

Bu davr adabiy tanqidchiligida yutuqlar bilan bir qatorda ma'lum nuqsonlar ham mavjud edi. Turg'unlik psixologiyasi madaniyat, adabiyot va adabiy tanqidga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Buning natijasida talaygina sayoz, o'rtamiyona, mujmal asarlar ham paydo bo'lib turdi. Afsuski, tanqidchilikda janr xilma-xilligi masalasiga kam

e'tibor quratlildi. Asarlarni baholashda, taqriz va maqolalarda sxematizm ko'rinishlari uchrab turdi. O'zbek adabiyotshunosligining adabiyot va tanqid nazariyasi muammolariga chuqur o'rganilmaganligi, ayniqsa, 60-yillar adabiy tanqidchiligida ba'zi sayoz fikrlarning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan bo'lsa, 70-yillarga kelib, adabiy tanqid sifat o'zgarishlariga yuz burdi. Adabiy jarayonga faol ta'sir ko'rsata olish, badiiy asardagi hayot va xarakterlarni voqealikdagi qahramonlar va ularning jonli turmushi bilan qiyoslash orqali yozuvchi mahoratiga baho berish tamoyilining kuchayuvi, poetik asar bag'riga uning yaratuvchisi — shoir qalbi orqali kirib borishdagi o'ktam qadamlar, asarning g'oyaviy-estetik saviyasini bir butunlikda tekshirish asnosida uning badiiyligini chuqurroq tahlil etish, tanqidchining o'zidagi badiiy did va saviyaning ko'tariluvini o'zbek tanqidchiligining peshqadam vakillari ijodida ro'y bergan sifat o'zgarishlarini ko'rsata oluvchi belgilardir.

Tanqidchilikda mahorat masalalari. Shakliy izlanishlar. Bu davr tanqidchiligi o'zining asl mohiyati — «harakatdagi estetika» bo'lishi lozimligini yanada teranroq tushunib oldi va bu mohiyatni o'z talqinlarida yorqin aks ettirishga intildi. Tanqidda san'at haqiqatini hayot haqiqati bilan muqoyasa etish va badiiy asarga shu zaminda turib baho berish tamoyili kuchaydi. G'oyaviylik va badiiylik masalasiga dialektik hodisa sifatida qaray boshlandi. Tip va xarakterlar talqinida yangicha qarashlar yuzaga keldi. Konflikt va kompozitsiya, badiiy asar tili, uslub atrofidagi bahslar ilmiy teranlik kasb eta bordi. Bu masalalarga munosabatda tanqidchi pozitsiyasining aniqligiga intilish kuchaydi.

Lekin sotsialistik realizm metodi, umuman, ijodiy metod xususidagi avvaigi bosqich qarashlari o'zining muhim yo'nalishlarida davom ettirildi, hatto boyitib borildi. Badiiylikka alohida va chuqur e'tibor berila boshlanishi, yozuvchi mahoratidagi muhim belgilarni aniqlashga intilish, davr va zamon uslubi, individual uslub masalasidagi izlanishlar va erishilgan qator natijalar bu davr tanqidchiligining xos belgilari sifatida xarakterlana oladi.

70- yillar o'zbek tanqidida ham son, ham salmoq, ham sifat jihatidan samarali ishlagan munaqqidlar qatorida U.Normatov, N.Xudoyberganov, P.Shermuhammedov, I.G'afurovlarni alohida ko'rsatib o'tish lozim. Ular o'zbek tanqidchiligining yangi tipdagi vakillari sifatida bo'y ko'rsatdilar.

Ularning o'z uslubi, o'z tadqiq va tahlil yo'li bo'lishi bilan bir qatorda, ularning barchasini birlashtirib turadigan umumiy fazilat

ham bor. Bu ularning adabiy jarayonda nihoyatda faol ishtirok etishi, adabiy hayotdagi har bir yangi hodisaga hozirjavoblik bilan munosabat bildirish, adabiy tanqidning deyarli ko'pchilik janrlarida barakali qalam tebratishlarida namoyon bo'ladi.

Bu yillarda taniqli tanqidchilar va adabiyotshunoslar haqidagi tarixiy-biografik ocherk va adabiy portret janridagi asarlarning yaratilishi adabiyotshunoslikda yangilik bo'ldi. Bu yo'nalishda S. Mamajonovning V.Zohidov, B.Imomovning H.Yoqubov, B.Boyoqobilovning S.Azimov, M.Olimovning L.Qayumov, A.Rasulovning O.Sharafiddinov haqidagi ijodiy portretlari paydo bo'ldi. Ular, bir tarafdin, tanqidchilar mahorati va adabiy jarayonda tutgan o'rni nechog'lik mustahkamlanganini ko'rsatsa, ikkinchidan, tanqidchi shaxsi va tanqidchilikka e'tibor kuchayganini, uchinchidan, yozuvchi mahoratinigina emas, tanqidchi mahoratini ham tadqiq etuvchi mutaxassislar avlodi voyaga yetganini ko'rsatadi.

Agar bular yoniga H.Abdusamatovning «Estetika va hayot», A.Quljonovning «Ilm va ijod olamida», O'.Shokirovning «Tanqidchi va adabiy jarayon», H.Umurovning «Tahlil san'ati», O'.O'tayevning «Tanqid va uslub» singari kitoblarini qo'yadigan bo'lsak, tanqidchilik, uning tarixiy rivoji masalasi ham respublikamiz adabiy jarayoni diqqat markazida turganligini ko'rsatadi.

Tanqidchilikning janr doiralari kengaydi. Bu janr imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan A.Qayumovning A.Navoiy, L.Qayumovning Hamza, N.Karimovning H.Olimjon, Oybek haqidagi «Ajoyib kishilar hayoti seriyasi»ga doir asarlari maydonga keldi. Badiiy adabiyotda fantastika janri tug'ilishi o'laroq uni tadqiq etuvchi maxsus xarakterdagi tanqidchilik ham paydo bo'ldi. O'zbek adabiyotining jahon adabiyoti bilan aloqadorligini o'rganuvchi N.Komilovning maqolalar turkumi o'zbek tanqidi mintaqalarini yanada kengaytirdi.

Bu davr tanqidiga xos kamchiliklardan biri hamon o'ta maqtovnavozlikning kuchliligidir. Tanqidchilikda o'z nomi mohiyatini ifodalovchi tanqidiy ruh sayoz. U yoki bu darajada aytilgan tanqidiy fikrlar aniq yozuvchi asaridagi taqriz yoki maqolada bo'lsa, ba'zan yo'ligagina aytilgan bo'ladi, obzor maqolada uchrasa, adressiz bo'ladi, adabiy jarayonga doir biror muammoli maqolada ilgari surilsa, ko'proq aql o'rgatish yo'nalishida bo'ladi.

Xullas, har uch holda ham o'zining asosiy vazifasi darajasiga ko'rtarilib yetolmaydi. Halol, xolis, do'stona, ehtiyotkorlik bilan

o'ylab, lekin me'ori darajasida qattiqqo'llik va talabchanlik bilan aytilgan, tanqidiy ruhi o'tkir maqolalarga tanqidchilik doim ehtiyoj sezilib kelgan.

Tanqidda badiiy adabiyotda g'oyaviy-badiiy birlik konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq ravishda ijodiy metod masalasi ham qayta-qayta qalamga olindi.

O'zbek adabiyotida ijodiy metodning shakllanishiga doir ikki xil qarash hukm surib, bir guruh olimlar o'zbek adabiyoti, aniqrog'i, nasri tanqidiy realizm bosqichini bosib o'tib, sotsialistik realizmga yetib keldi deyishsa, ikkinchi bir guruh adabiyotning to'g'ridan to'g'ri sotsialistik realizm metodi asosida shakllana boshlashi haqida bahs olib bordilarki, mustaqillik yillarida bu bahslarning nechog'li ahamiyatsiz ekanligi ko'rinib qoldi.

Ayniqsa, A.Qodiriy ijodiy metodi to'g'risidagi turli qarashlar o'sha davrda avj olganligini ham aytib o'tish lozim.

Adabiy tanqidda zamon va qahramon muammolari talqinida M.Qo'shjonov O.Yoqubovning «Diyonat», Sh.Xolmirzayevning «So'nggi bekat», N.Xudoyberganov H.G'ulomning «Binafsha atri», I.G'afurov Said Ahmadning «Qirq besh kun» romanlari tahlil etilib, ularning yutuq va kamchiliklari haqqoniy ko'rsatildi. O.Yoqubov, P.Qodirov, Mirmuhsin tarixiy romanlarida tarix va inson konsepsiyasi muammosini tanqidchilar yetarli tahlil qilib berishdi.

Aytish kerakki, she'riyatdagi kenglik va teranlik adabiy tanqidda ham ma'lum darajada aks etdi. Tanqidchilikda mustaqillik, hozirjavoblik, o'tmish va zamonaviylik muammolarini yangicha talqin qilishda ham birmuncha muvaffaqiyatlarga erishildi. Shu bilan birga ayrim yozuvchilarning qahramon xarakterini butun ziddiyatlari, qarama-qarshiliklari bilan keng tasvirlay olmayotganligi holatlari keskin tanqid qilindi.

Ma'lumki, badiiy adabiyotda yozuvchi mahorati doimo dolzarb, hech qachon eskirmaydigan muammodir. Shunga o'xshab, tanqidchi mahorati, halolligi va xolisligi individual uslubi, tahlil san'ati, did va bilimi, munaqqid iqtidori, saviyasini ko'rsatuvchi muhim omillar bo'lib, o'rganilishi va tashviq etilishi muhim hodisalardir. Bu davr tanqidchiligi tadrijiy takomilida Izzat Sulton, V. Zohidov, G'. Karimov, M. Yunusov, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, L. Qayumov, E.Karimov, N.Karimov, N.Shukurov, I.G'afurov, N. Xudoyberganov, H.Abdusamatov, B.Nazarov, B. Qosimov, A.Rasulov, H. Umurov, A.Kattabekov, S. Mirzayev, M.Rasuli, T.Boboyev,

G.Vladimirov, N.Vladimirova, B.Imomov, A.Aliyev, O.Tog'ayev, T.Boboyev, S.Aliyev, T.Sobirov, M.Mahmudov, S.Sodiq, O.Abdul-layev kabi olimlar faollik ko'rsatdilar. Ular muhim va dolzarb ilmiy-nazariy, amaliy masalalarni ko'tarib chiqib, ularni aniq badiiy asarlar tahlilida tadbqiq etib, adabiy jarayon va adabiy tanqidchilik taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazdilar.

Adabiy tanqid hayotni kuzatuvchi, asarni baholovchilikdan bu jarayonlarning teng huquqli a'zosiga aylandi.

SOBIR MIRVALIYEV (1933-y.). Sermahsul olim, filologiya fanlari doktori, professor S. Mirvaliyev monografiya va tadqiqotlari, maqolalari bilan o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi rivojlantirishga munosib hissa qo'shdi. Uning o'zbek nasri taraqqiyoti, yetakchi tamoyillari xususidagi umumlashtiruvchi ilmiy-nazariy tadqiqotlari muhim sanaladi.

«Hayot va kurash poeziyasi» (1962), «Qalblardan qalblarga» (1966), «Nasrimiz davrimiz xizmatida» (1976), «O'zbek adiblari», «O'Imas Umarbekov», «Abdulla Qodiriy» kabi qator monografiya va risolalar, ayniqsa, «O'zbek romani» nomli salmoqli tadqiqot muallifini adabiy-ilmii jamoatchilikka yaqindan tanishtirdi. Uning «O'zbek adiblari» nomli kitobi qisqa muddat ichida to'rt marta nashr etildi.

Yosh olimning xolis fikrlash tarzi, tirishqoqligi 60-yillar boshlaridan ko'zga tashlandi. «1962-yil prozasini o'qib...» degan maqolasi adabiy jamoatchilik e'tiboriga tushdi. Ushbu obzor maqolada adabiy tanqid-dagi dalillash uquvi yetishmasligi, yuz-xotirchilik ko'rinishlari mavjudligi tanqid qilindi.

Qissalar haqidagi kuzatuvlarini keyingi adabiy-tanqidiy maqolalarida ham davom ettirib, bu yo'nalishdagi yutuq va kamchiliklarni umumlashtirib, dadil qarashlarini ilgari surdi. Olimning «Tarixiylik va zamonaviylik» (1979) kitobida 70-yillar romanchiligidagi tarixiylik va zamonaviylik muammolari o'rganiladi.

Olim ishlarida, ayniqsa, romannavis mahorati, bir biriga o'xshamaydigan individual uslub qirralari, janr tabiatidagi rang-baranglik muammolari talqin etilib, shu asosda nasr va adabiy jarayonning tamoyillari, bu jarayondagi o'sish, o'zgarishlar ko'rsatildi.

Munaqqidning fikr va mulohazalari, ayniqsa, xolis va samimiyligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning xolis va samimiyligi «Nasr va davr», «Janrlar rang-barangligi», «Sotsial-psixologik roman»

kabi salmoqli maqolalari, «Tarixiylik va zamonaviylik» (1979), «Nasr, davr va qahramon» (1983) kabi tanqidiy asarlarida yorqin ko‘rinib turadi.

«O‘zbek romani» monografiyasida o‘zbek romanchiligi bosib o‘tgan yo‘lni birinchilardan bo‘lib, umumlashtirarkan, hozirgi o‘zbek romanlarida chuqurlashib borayotgan falsafiy kenglik, janriy rang-baranglik imkoniyatlarining, asarlardagi xalqchilik, millatparvarlik xususiyatlari yildan yilga yorqin ifoda etilayotganligi va bu borada qator yetuk obrazlar yaratilayotganligini aniq asarlar tadqiqida yoritib berdi.

Olimning bu tadqiqoti 60–70-yillar o‘zbek adabiyotshunosligining ulkan yutug‘i sifatida e’tirof etildi. S.Mirvaliyev bu asarida o‘zini nazariyotchi olim sifatida ham ko‘rsata bildi. Uning roman atamasi, mohiyati, kelib chiqishi, roman nazariyasi, roman tabiati va xususiyatiga doir mulohazalari yangi avlod mutaxassislari tomonidan yanada boyitilmoqda.

Muallifning «Abdulla Qodiriy» (2004) deb nomlangan tadqiqoti yozuvchi ijodiga bugungi kun — mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan yondashiluv bilan ahamiyatlidir.

A.Qodiriy hayoti va ijodini o‘rganish — qodiriyshunoslik adibning o‘zi hayotlik chog‘idayoq boshlangan esa-da, turli davrlarda turli xarakterdagi tadqiqotlar yaratildi. Ularda A.Qodiriyning buyuk va katta mahorat egasi ekani hamisha ta’kidlandi.

Lekin mustaqillik yillariga kelib qodiriyshunoslik mohiyati tubdan o‘zgardi. Adib ijodi har xil «izm»lardan xoli tarzda o‘rganila boshlandi.

Uning ijodi va asarlariga xos yangidan yangi sifatlar ochib berildi. S.Mirvaliyevning A.Qodiriy ijodiga bag‘ishlangan tadqiqoti ham ana shunday ishlar qatoridan o‘rin egalladi. Kitobda bir qator yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Muallif «chin ma’noda Qodiriy davri yangidan boshlandi» degan fikrni aytadi, uning tadqiqoti ham Qodiriy haqidagi yangi so‘zlardan biri ekanligi bilan ahamiyatli.

Olim A.Qodiriy asarlarini ixlos va mehr bilan, yuksak san’at mezonlari nuqtayi nazaridan, o‘zbekona milliylik, g‘urur va iftixor nuqtayi nazaridan tadqiq va tahlil etadiki, kitobni o‘qigan o‘quvchida ham buyuk adib ijodiga qiziqish, hurmat tuyg‘ulari o‘sa boradi. Olim mehnatining samarasi, ahamiyati ham mana shundadir.



NURIDDIN SHUKUROV (1930–1994).

Samarqand adabiy muhitining atoqli vakili, filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Nuriddin Shukurov respublikamiz adabiyotshunosligi va tanqidchiligida ko'zga ko'ringan olimlardan biri hisoblanadi.

U faoliyatini viloyat gazetasida bo'lim muharrirligidan boshlab, bosh muharrir darajasiga ko'tarildi.

N.Shukurov taniqli adabiyotshunos, izlanuvchan tanqidchi sifatida elga tanildi. 1960-yili «G'afur G'ulomning poetik mahorati»

mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi, doktorlik dissertatsiyasi ham zamonaviy o'zbek she'riyatiga bag'ishlandi. «G'afur G'ulomning lirik poeziyasidagi mahorati», «Uslublar va janrlar», «Bu olam sah-nida», «So'z sehri, she'r mehri» singari kitoblari va ko'plab maqolalari olim shoir ijodi va adabiy jarayonni, asosan, mahorat muammolarida nuqtayi nazaridan o'Ichaydi. Uning hammuallifligida respublika oliy o'quv yurtlari uchun «Adabiyotshunoslikka kirish», «O'zbek sovet adabiyoti tarixi» (1990) darsliklari yozildi. N.Shukurov o'tgan asrning 50-yillarida «Alpomish» dostoniga hujum boshlanganda, ya'ni bu asar sho'ro mafkurasiga to'g'ri kelmaydi, sotsrealizm talablariga javob bermaydi deb ayyuhannos solinganda birinchilardan bo'lib uni himoya qilib chiqdi. U «Alpomish» dostoni haqida» maqolasida dostonning, ayniqsa, tarbiyaviy ahamiyatini yuksak baholadi.

N.Shukurov adabiy jarayonni muttasil kuzatib, yangi paydo bo'layotgan poetik asarlarga doimo o'z munosabatini bildirib boruvchi edi. Bu yo'nalishda u o'zining nozik didli munaqqid ekanini ko'rsata oldi. Ayni vaqtda, ayrim mulohaza va fikrlari jamoatchilik o'rtasida qizg'in bahsga sabab ham bo'ldi.

Chunonchi, 70-yillarda Rauf Parfi she'riyatining poetikasi va ayrim asarlarining zamonga munosabati haqida aytilgan fikrlarda asar mohiyati bir tomonlama talqin etildi. Bu fikrlarga tanqidchi O.Ab-dullayev faol munosabat bildirib, R.Parfi she'riyati xususida ayt-layotgan tanqidiy fikrlar, kamchilik bo'lmay, shoir uslubiga xos fazilatlaridir, degan fikrni bildirdi.

Alisher Navoiyning «Parim bo'lsa...», «Qora ko'zim» kabi g'azal-larini tahlil etib, respublikada bir g'azal talqiniga maxsus maqola

yoziq tashabbusini boshlovchilaridan biri bo'ldi. U an'anaviy janrlar haqidagi risolasida, E.Vohidovning ijodiga bag'ishlangan adabiy portretida o'zining mumtoz she'riyat bilimdoni sifatida namoyon etdi. Olim chinakam she'riyat shaydosi edi, o'zi ham she'rlar ijod qilardi. «Xushnud» taxallusi bilan yozgan she'rlari matbuotda e'lon qilingan.

Serqirra ijodkor N.Shukurov mashhur avar shoiri R.Hamzatov she'rlarini, fors-tojik tilidan bir qancha asarlarni o'zbek tiliga tarjima qildi.



So'nggi davr jahon adabiyotshunosligi diqqat markazi romanchilik va u bilan bog'liq bo'lgan muammolarga qaratilgan bir vaqtda, o'zbek adabiyotshunosligi ham undan chetda turgani yo'q.

«O'zbek romani», «O'zbek romanlarida ijobiy qahramon» singari monografiyalardan so'ng bu masalaga e'tibor yanada kuchaydi. S.Mirvaliyevning «Prozamiz jamoli va kamoli», «Roman, inson, jamiyat», R.Nazarovanning «O'zbek romani va zamonaviylik», M.Olimovning «Roman va inson» nomli tadqiqotlari o'zbek romanchiligining muhim masalalarini yoritishga bag'ishlandi.

Keyingi yillarda o'zbek tanqidchilari o'z asarlari bilan sobiq umumittifoq minbariga dadilroq chiqadigan bo'ldilar. M. Qo'shjonovning «Talent qirralari» nomli kitobi rus tilida kitobxonlar qo'liga tegdi. I.Sultonov, L.Qayumov, O.Sharafiddinov, N.Xudoyberganov, P.Shermuhammedovlarning markaziy matbuotdagi maqolalari talabchan mutaxassislar tomonidan iliq kutib olindi.

O.Sharafiddinovning «Iste'dod jilolari», S.Mamajonovning «Vohid Zohidov», H.Abdusamatovning «Estetika va hayot», O.Tog'ayevning «Adiblar va janrlar», S. Shermuhammedov va S. Mirzayevlarning «Adabiy do'stligimiz sahifalari» singari kitoblari hisobiga boyigan o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligi keng jamoatchilikka o'zining boy va rang-barang qiyofasi haqida bir qadar qoniqarli tasavvur berdi. Ayniqsa, «Adabiyotimizning yarim asri» nomli to'plamdan shu davr o'zbek tanqidchiligining saviyasi, darajasi va sajiyasi, uning asosiy yutuqlari va qiyofasi, oldida turgan muhim muammolari va ularning hal etilish miqyosi, tanqidchilarimizning individual uslubi namoyon bo'luvchi va farqlanuvchi o'ziga xosliklari haqida muxtasar ma'lumot bera oladi. Adabiyotshunos E.Karimovning rus tilidagi «Развитие реализма в узбекской литературе» (1975), «Лев Толстой и узбек-

ская литература» (1979), «Реализм узбекской демократической литературы» kabi tadqiqotlari ham bu davr adabiyotshunosligida muhim o‘rin egalladi.

Ma'lumki, yozuvchi mahorati va ijodi taraqqiyotida folklorning tutgan o‘rni va o‘ynagan roli masalasini anglash — adabiyotshunoslikning doimiy dolzarb vazifasi hisoblanadi. O‘zbek adabiyotshunosligi bu masalaga so‘nggi yillarda jiddiy e‘tibor berdi. Shu ma’noda O.Sobirov, G‘.Jalolov kabi olimlarning shu masala bilan jiddiy shug‘ullanganlari muhimdir.

Ammo ular tadqiqotlarida (O.Sobirovning «Oybek ijodida folklor», «Yashin va xalq ijodi», «Sarchashma adib ijodida», G‘.Jalolovning «Hamza poeziyasi va xalq og‘zaki ijodi») folklorning yozma adabiyotga ta’siri, ularning o‘zaro munosabati, undan katta oziq olgan san’atkorlar ijodi misolida anchayin jo‘n talqin qilinganini ham aytib o‘tish lozim.

O‘zbek tanqidchiligi bu yillarda ijodiy metod masalasiga e‘tiborni kuchaytirdi, afsuski, ko‘pchilik tadqiqotlarda sho‘ro davri adabiyoti metodi- sotsialistik realizm masalasi o‘rganildi.

70-yillarda tanqid rivojiga turtki bergan muhim hodisalardan ikkitasini qayd etib o‘tish lozim: yosh ijodkorlarga g‘amxo‘rlik kuchaytirildi, ular asarlarini keng va atroflicha o‘rganish yuqori bosqichga ko‘tarildi, shu bilan birga talabchanlik ham kuchaydi, shu hisobiga yosh munaqqidlar safi kengaydi, ikkinchisi, mashhur shoira, Zulfiya tavalludining 60 yilligini nishonlash uning ijodini tadqiq etish misolida o‘zbek tanqidchiligi muayyan darajada rivojlandi.

A. Akbarov va L. Qayumovlarning «Zulfiya» nomli rus va o‘zbek tillaridagi kitoblari, M. Sultonovning «Ijod sahifalari» risolasi, S. Mamajonov, I. G‘afurovning shoira haqidagi turkum maqolalari buning dalilidir.

Ularda shoira ijodining nazokatlari va garmoniyasi, mahorat sirlari, asarlarining yozilish sabablari, umuman, Zulfiya ijodining adabiyotimizda tutgan o‘rni, uning ijodi bilan shaxsi o‘rtasidagi bog‘lanishlar chuqur ochib berildi.

Bu davrda bolalar adabiyotini o‘rganish masalasida jonlanish ko‘zga tashlanadi. Adabiyotshunos P.Shermuhammedovning Moskvada nashr etilgan «O‘zbekiston bolalar adabiyoti» nomli tadqiqoti, «Davr qahramon taqdirida» nomli kitobining kattagina qismi hamda «Ona sutidek pokiza» risolasining maydonga kelishi tanqidida ko‘p yillardan

berl hukm surib kelayotgan bu sohadagi kamchilikning bartaraf etilishiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

70-yillar o'zbek tanqidi rivojini ko'rsatuvchi sifat belgilaridan biri, uning adabiy jarayonga ta'siri kuchayib borayotganligi bilan belgilanadi. Undan 15–20 yil ilgari bu ta'sir nihoyatda zaif edi, olimlarning tanqidi va talabi aksar hollarda qog'ozdagina qolib ketar, binobarin, shunga yarasha tanqidchilikning ham adabiy jarayon va ijodkorlar orasidagi nufuzi kamroq edi. So'nggi yillarda tanqidchilikning nufuzi ortdi, buni uning adabiy jarayonga faol ta'sir ko'rsata olish kuchi belgilab berdi.

Bu davrga kelib, eng katta yozuvchilardan tortib, kenja shoirlargacha o'z ijodiy yo'lini tanqidchilarning xolis va haqqoniy fikrlariga qarab to'g'rilayotganlari oz emas. Ochig'ini aytganda, ijodkorlar M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, L.Qayumov, U.Normatov, I.G'afurov, P.Shermuhammedov, N.Xudoyberganovlarning fikrlari bilan jiddiy ravishda hisoblashadigan, o'z asarlari bosilgach, ularning fikrini kutadigan, ularning mulohazalarining haqqoniylarini o'z ijodlariga tadbiiq etadigan bo'lishdi.

I.G'afurovning «Yam-yashil daraxt», U.Normatovning «Go'zallik bilan uchrashuv» kitoblariga kirgan maqolalarning barchasi ijodkorlar asarlari ketidan ergashish emas, balki ularni chorlash asosiga qurilib yozilganligi bilan ajralib turadi. Yoki M.Qo'shjonovning I.Rahimga yozgan ochiq xati yozuvchi ijodidagina emas, adabiy jarayonga ham ta'sir ko'rsatish kuchiga ega.

M.Qo'shjonovning «Talant saxovati» kitobida Hamzadan tortib A.Oripovgacha bo'lgan o'n beshdan ortiq o'zbek adibining adabiy portreti o'zbek adabiyoti rivojining umumiy konteksti fonida va muhim muammolar bilan bog'langan holda yoritib berildi. Bu yo'nalishdagi kitob o'zbek adabiyoti haqida markaziy nashriyotda chiqqan qaldirg'och asar hisoblanadi.

U o'zbek adabiyotining uzoq yillardagi yutuqlarini va, ayni vaqtda, tanqidchilikning so'nggi yillarda erishgan potesial imkoniyatlarini mamlakat miqyosida namoyish qildi.

Tahlil va talqinga e'tibor kuchaya borishi baholash mezonlarining o'zgarishiga olib keldi, pirovardida, shu o'zgarishlar asnosida mazkur davr o'rtalariga kelib, adabiy tanqid fan sifatida oliy o'quv yurtlari talabalariga o'rgatila boshlandi. Tanqidning o'zidagi ilmiy-nazariy izlanishlar va tanqidchi mahorat qirralarini tahlil etuvchi ilmiy tadqiqotlar yaratila boshlandi.

60–90-yillarda sho‘rolar partiyasining adabiyot bilan birga adabiy tanqiddan ham ommaga mafkura ta‘sirini o‘tkazish quroli sifatida keng foydalanganini e‘tirof etmaslikning imkoni yo‘q. Partiyaning 1972-yilgi adabiy tanqid muammolariga maxsus bag‘ishlangan qarorida ham bu masalaga alohida e‘tibor berildi. Adabiy tanqid ham badiiy adabiyot singari sho‘rolar partiyasi olg‘a surgan g‘oyalar targ‘ibotchisiga aylanganini ham aytib o‘tish lozim.

Shunga qaramay, bu davr adabiy tanqidchiligida izlanish va ilmiy kuzatishlar ko‘lami rang-barang va sermahsul bo‘ldi, tanqidchilarning mahorat darajasi o‘sib bordi. Bu esa XX asr o‘zbek adabiyoti va tanqidchiligi bosib o‘tgan murakkab yo‘lning kamchiliklaridan kerakli va xolis xulosa chiqarishga imkon beradi, hozirgi istiqbol adabiyoti va tanqidchiligining o‘tish davri uchun ham, taraqqiyoti hamda istiqboli uchun ham muhimligi ko‘rindi. Bu davrda adabiy tanqidning taqriz, adabiy obzor, muammoli maqola, esse, xotira, adabiy portret, maktub, bahs, monografiya, adabiy suhbat, adabiy o‘ylar kabi janrlari rivojlandi, salmoqli izlanishlar olib borildi.

Bu borada jahon adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi qo‘lga kiritgan yutuqlarning o‘zbek tanqidchilariga ijobiy va ijodiy ta‘siri yaqqol sezila boshladi. Bu davrda o‘zbek tanqidchiligi tug‘ilishi va shakllanishida muhim o‘rin tutgan, shaxsga sig‘inish davrida qatag‘on qilingan olimlar hayoti va tanqidchilik faoliyati o‘rganilgan dastlabki tadqiqotlar paydo bo‘ldi.

80-yillarning oxiriga borib, tanqidchilikda badiiy asarni umumiy tarzda shunchaki tavsiflash, ayrim juz‘iy nuqsonlarni qayd etish bilan chegaralanib qolish, maqtovlarni avj oldirish kabi illatlar sezilarli darajada barham topa boshladi.

Adabiy tanqidda psixologik, qiyosiy, tipologik, estetik, falsafiy va tarixiy tahlillar o‘zaro uyg‘unlashgan tahlil va tadqiq usullari kuchayib bordi. Adabiyotshunos O. Abdullayevning «She‘riyatimizning tiniq osmoni» (1978) tadqiqoti bu sohadagi ishlardan biri hisoblanadi. Avvalgi bosqichlarda ilgari surilgan qarashlarning, adabiy-tanqidiy ishlarning ko‘pini qaytadan baholashga harakat, adabiy merosga munosabat keskin ijobiy tomonga yuz burdi. Har bir xalqda ikki xil adabiyot bo‘lishi haqidagi lenincha ta‘limot barham topdi. Diniy-mistik va klerikal adabiyot xususidagi tushunchalarga munosabat keskin o‘zgardi. Xalqchilik tushunchasidagi mezonlar takomillashdi, bularning barchasi umumbashariy mezonlar hisobiga boyidi. Badiiy mahorat, uslub va o‘zaro ta‘sir, milliy o‘ziga xoslik masalalari yuzasi-

dan atroflicha izlanishlarni kuchaytirish va muayyan ilmiy xulosalar chiqarish davr taqozosiga aylanib bordi.

Davr tanqidida munaqqidning o'rnini. Jahon adabiyotidan ma'lumki, dunyodagi mashhur yozuvchilar badiiy ijod bilan birga, adabiyotshunoslik va tanqidchilik ilmining nazariy hamda amaliy masalalari bilan muntazam shug'ullanib kelganlar.

Aksar hollarda ba'zi ulkan yozuvchi shoirlar, ayni vaqtda, mohir va nozik didli tanqidchi bo'lganlarini ham kuzatamiz. S.Ayniy, Oybek kabi ustozlar esa, tom ma'nodagi yetuk adabiyotshunos sifatida ham faoliyat ko'rsatganlar.

Bu hol tanqid va adabiyotshunoslikning ijodkor olamida ham, jamiyatda ham nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Mashhur adiblar adabiy-tanqidiy qarashlari adabiyot olamidagi turli ijodiy izlanishlarni, ziddiyatlarni butun murakkabligi bilan namoyon etadi.

Shuning uchun yozuvchining ham, tanqidchining ham mahorati, ular ijodidagi badiiy-estetik muammolarni o'rganish jahon adabiyotshunosligida doim muhim o'rin egallab kelgan.

O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi tarixiga nazar solinsa, Navoiy, Bobur, Furqat, Fitrat, S.Ayniy, Abdulla Qodiriy, Cho'ipon, Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Uyg'un, Komil Yashin, Mirtemir, Asqad Muxtor, P.Qodirov, Odil Yoqubov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Jamol Kamol, Muhammad Ali kabi san'atkorlar badiiy ijod jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, nazariy va amaliy muammolari haqida muntazam ravishda ilmiy-estetik izlanishlar olib borganini va hatto qator tanqidiy maqolalar, tadqiqotlar yaratganini ko'ramiz. Bu yo'nalishdagi ishlar san'atkorlarning o'z ijodiy dunyosini o'rganish uchun ham, yaratilishiga ko'ra adabiy jarayonning o'ziga xosliklarini aniqlashda ham, qolaversa, adabiyot tarixi va adabiyot nazariyasining nozik jihatlarini yoritish hamda tegishli xulosalar chiqarishda katta ahamiyatga egadir.

Zotan san'atkor ijodining bu yo'nalishi yangi avlod, yangi iste'dodlar uchun tengsiz mahorat maktabi hamda kitobxonni yozuvchi ijodiy laboratoriyasiga olib kiruvchi jonli ochqichdir. Shu bois san'atkor yozuvchi-tanqidchilarning adabiy qarashlari va faoliyatini o'rganish muhimdir. Bu sohada o'zbek munaqqidlari bir qancha yutuqlarni qo'lga kiritdilar.

SAIDJON ALIYEV (1920–2002). O‘zbek adabiyotshunosligi ravnagiga munosib hissa qo‘shgan buxorolik olim, filologiya fanlari doktori, professor Saidjon Aliyev S.Ayniy, Ye.E.Bertels, Oybek, A.Sa‘diy, V.Abdullayev, I.Sulton an‘analariga sodiq holda izlandi, tadqiqotlar yaratdi.

A.Sa‘diy rahbarligida «Zahiriddin Muhammad Boburning poetik ijodi» mavzuidagi (1948) yoqlagan nomzodlik dissertatsiyasiga akademik Oybek va dramaturg Izzat Sulton munosib baho berishdi. Zero, S.Aliyev Boburning she‘riyatdagi mahoratini o‘zbek adabiyotshunosligida ilk bor tadqiq etish asnosida uning poetik merosini o‘rganishni boshlab bergan edi.

Olim o‘zbek dramaturgiyasining muhim nazariy muammolarini tadqiq etishga kirishdi. Aslida olimning dramaturgiya, teatr masalalariga bag‘ishlangan birinchi jiddiy, aytish mumkinki, jasorat bilan yozilgan ishi A.Qahhorning «Tobutdan tovush» dramasi haqidagi «Vijdonlilar kulgisi» maqolasi bo‘lib, unda olim asarni har xil xurujlardan himoya qiladi.

Bu esa 60-yillardayoq uning o‘z nuqtayi nazari, uslubi, o‘z so‘ziga ega olim ekanligini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Adabiyotshunoslikda XX asr 70-yillarida o‘zbek dramaturgiyasining tug‘ilishi va rivojlanishida adabiy aloqalarning roli masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida chuqur o‘rganilmagan edi.

Olimning «O‘zbek dramaturgiyasining shakllanishi va rivojida o‘zaro adabiy aloqalarning roli» deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi o‘zbek dramaturgiyasining taraqqiyot yo‘llarini belgilab berdi. «Adabiy aloqalar va o‘zbek dramaturgiyasi» (rus tilida) monografiyasi shu izlanishlar samarasi bo‘ldi.

S.Aliyev ilmiy tadqiqotlarida o‘zini izchil va tolmas tadqiqotchi, tajribali olim sifatida ko‘rsata olgan. Ustozning adabiyot nazariyasi sohasidagi urinishlari yuzdan ortiq maqolalarida va «Yozuvchi novatorligi» (1983), «Jamiyat va adabiyot» (1988), «Adabiyot nazariyasi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar» (1994), «Mumtoz adabiyotda badiiy san‘atlar» (1994), «Aruz ilmi» (1995), «O‘zbek komediyalari» (1-qism.1997), «O‘zbek komediyalari» (2-qism. 2004) kabi tadqiqotlari va risolalarida o‘z ifodasini topgan.

Uning o‘zbek adabiyoti sohasida olib borgan tadqiqotlari «Unutilmas sahifalar» (1986), «Buxoroda bitilgan baytlar» (1992) kitoblarida ham aks etgan.



PIRMAT SHERMUHAMEDOV (1939).

Bolalar adabiyoti tanqidchiligi bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan munaqqidlardan biri Pirmat Shermuhamedovdir. «Davr qahramon taqdirida» kitobida (1976) XX asr o'rtalaridagi bolalar adabiyotining yutuqlari va kamchiliklari o'rganildi.

60-yillar bolalar nasri va dramaturgiyasidagi yangilanishlar «Kichkintoylarning katta dunyosi» maqolasida ochib beriladi. Sh.Xolmirzayev, Yo.Shukurov, X.To'xtaboyev kabi adiblarning asarlarini tahlil qilar ekan, munaqqid e'tiborini qahramon xarakterining

hayotiyiligi masalasiga jalb qildi.

Tanqidchi kuzatishidagi xarakterli xususiyat qahramon salmog'ini uning faqat ijobiy xislatlardan kelib chiqib baholamaslik kerak, degan fikrni ilgari surishida ko'zga tashlanadi.

Uning «Ijod dardi» (1973), «Ona sutidek pokiza» (1975) monografiyalari bolalar adabiyotida didaktikaning «yalang'och» ko'rinishlariga qarshi kurash shu davr o'zbek tanqidchiligining, jumladan, P.Shermuhammedov tadqiqotlarining xarakterli xususiyatlaridan biridir.

«Ona sutidek pokiza» kitobi shu xususiyatlari bilan ajralib turadi. Didaktik elementlarning mavjudligi va zarurligini qayd etar ekan, buni quruqdan quruq inkor etish to'g'ri emasligini ta'kidlaydi. Didaktika, badiiylikdan mahrum, faqat pandu nasihat, yo'l ko'rsatish, bu «harakat noto'g'ri, bunisi to'g'ri» deb nuqul aql o'rgatish bilan band bo'lsa, bunday didaktikaning badiiy adabiyotdagi nufuzi ta'sirsiz bo'ladi degan xulosaga keladi u. Ayni paytda, bolalar uchun yozilgan asarlarda faqat obrazli ifodaning o'zi ham ma'lum darajada biryoqlamalilik deb ta'kidlaydi.

Kitobda Q.Hikmat, Q.Muhammadiy va boshqa shoirlar ijodi tahlilga tortiladi. Tanqidchi shoirlardan birinchi galda bolalarcha samimiylik va hassoslikni hamda bolalarga bo'lgan cheksiz mehrni talab qiladi. Shu xususiyatlarida yosh kitobxon qalbiga kirib borish mushkul ekanini aniq asarlar misolida ochib beradi.

Munaqqid «Iste'dod sehri» (1977) kitobida bolalar adabiyotidagi hayotiy va badiiy haqiqat muammolariga e'tibor qaratdi. Badiiy asar tahlili bahonasida bolalar tarbiyasidagi muammolarni o'rtaga tashladi,

badiiy adabiyotning shaxsiy tarbiyadagi rolini ko'rsatdi. Shu ma'noda tanqidchilik bolalarning shakllanayotgan dunyosi uchun hayot bilan badiiy asarni bir biriga bog'laydigan ko'prikdir degan xulosasi muhimdir.

Demak, tanqidning asosiy vazifalaridan birini u ijtimoiy hayotning badiiy o'zlashtirilish jarayonini o'rganib, shu jarayonga faol ishtirok etib, uning, nainki, adabiyot, balki yosh shaxs shakllanishiga ham ma'lum ta'sir etishdan iboratdir deb tushuntiradi.

XX asrning 70-yillarida ko'plab ijodiy portret namunalari nashr etildi. Ularda mualliflar avvalgi bosqichlarga xos ijodkorni nuqul so'roqqa tutaverish, ulardan turli miqyoslarni talab qilaverish, nuqul ko'rsatma beraverish emas, yozuvchi va shoir ijodiga teran hurmat bilan munosabatda bo'lish namunalarini ko'rsatdilar. Badiiy ijodning murakkab va mashaqqatli jarayon ekanligini hisobga olgan holda fikr yuritish odobini ko'rsatdi.

O'zbek adabiy portretnavisligi jarayonini kuzatganda, bu borada P.Shermuhamedov adabiy portretlari mazmun va shakl jihatidan janriy rang-baranglik, jonlilik jihatidan, o'qimishli va jozibali. Shu ma'noda, uning «Ruhliy olam sehgari» portreti o'quvchi diqqatini darhol o'ziga tortib olish kuchi bilan ajralib turadi. Portret 29 yoshli mahbus Dostoyevskiyning tutqunlikdagi hayoti va peyzaj tasviri bilan boshlanadi.

Tanqidchi daho san'atkorning murakkab hayot va ijod yo'li haqida qator yangi va qiziqarli ma'lumotlar hamda unga musohib kishilarning jonli xotiralarini keltirish asosida his-hayajon bilan yozuvchi dunyosiga kirib boradi va uni ham ana shu dunyo ichiga olib kiradi.

Q.Muhammadiy, Q.Hikmat hamda Asqar Qosimov va boshqa o'z davrining yosh shoirlari haqidagi portretlari xilma-xil shakllarda, shirali va sodda tilda yozilgan kuzatishlari, yozuvchilar hayoti va ijodiga doir nozik mulohazalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Tanqidchi keyingi yillarda badiiy ijodda ham qalamini sinab ko'rmoqda. «Buyuk Xorazmiy» (1994), «Xorazm malikasi yoxud Amir Temurning kelini»(2006) nomli badea-romanlar yaratdi.

U Xonzodabegim hayoti va qismatini tasvirlash orqali Movarounnahrda XIV asr ma'naviy hayoti va tarixiy manzaralarini qalamga oladi. «Dahoning tug'ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati» (2009), «Yaxshilar bahori yoxud Mahmud Zamaxshariy dahosi» (2010) singari asarlarida ma'rifiy-estetik hodisalar ilmiy — obrazli tarzda gavdalantiriladi.

P.Shermuhamedov keyingi yillarda dramaturgiyada ham kuch sinab koʻrdi.

Uning milliy istiqlol davri hayotiga bagʻishlangan «Hajga borgan ayollar» dramasi Kaʼbatullohni ziyorat qilgan ayollarning ruhiy olami tasvirlangan.



Tanqid adabiyotdan mahorat talab qiladi, zero, mahoratsiz yuksak badiiy asarlar yaratib boʻlmaydi. Talant va mahorat yozuvchi uchun qancha zarur boʻlsa, tanqidchi uchun ham shuncha zarur. Tanqid — fan va ijodkor shaxs demakdir. Biz tahlil etayotgan davr tarixiy-adabiy jarayonining muhim xususiyatlaridan biri — tanqidda mahorat masalasining diqqat markaziga chiqishi boʻldi.

Tanqidchilar mahorat sirlari izlash yoʻliga kirdilar. Bu jarayon ikki yoʻl bilan bordi: 1) oʻz-oʻzini yaxshiroq tanish, tanqid mohiyati va masʼuliyatini chuqurroq idrok etish; 2) tanqidni izchil, haqqoniy va prinsipial tanqid qila bilish orqali. Bu davrda adabiy tanqidning ana shu xususiyatlarini oʻzlashtirish kuchaydi.

Tanqidchi kim? Bu savolga L.Qayumov shunday javob beradi: «Tanqidchi sanʼatkor bilan muhit orasida bir robita, badiiy asarni xolis va halol baholovchi hakam, sanʼat asarining oʻquvchi va tomoshabin orasidagi targʻibotchisi, nafosat qonunlarini umumlashtiruvchi olim, ijodning gʻoyaviy-badiiy yuksakligi uchun tinmay kurashuvga daʼvat etilgan adibdir»¹.

Shunga qoʻshimcha qilib, aytish mumkinki, tanqidchi xabarchi ham, bayonchi ham emas, balki badiiy asarga oʻz munosabatini bildirish orqali salmoqli ijtimoiy fikr aytuvchi olim va ijodkor shaxsdir. Tanqidchilik mahorati haqida O.Sharafiddinov, H.Yoqubov, B.Nazarov kabi olimlar oʻz fikrlarini bildirdilar.

Keyingi yillarda ijodkor uslubiga doir maqola va monografiyalar (S.Mamajonovning «Uslub jilolari», N.Shukurovning «Uslublar va janrlar»), koʻplab ijod evolutsiyasiga doir ishlar yuzaga keldi. Tanqidchilik janrlari boyib bordi.

Yozuvchilarga ochiq xatlar (V.Zohidov-O.Yoqubovga, M.Qoʻshjonov-I.Rahimga, M.Ibrohimov- Oʻ.Hoshimovga), yozuvchilar bilan suhbatlar (U. Normatov — S.Ahmad, P.Qodirov, E.Vohidov, O.Yoqubov bilan; P.Shermuhammedov — Uygʻun; Gʻ.Moʻminov-

¹ Qayumov L. Asr va nasr. — T.: 1975. 9-bet.

Mirtemir bilan), bahs-munozaralar («Hayot va adabiy qahramon», «Ijodkor va hayot» mavzularida) tashkil etilishi odat tusiga kirdi. Bu janrlar tanqidchilik asosi boʻyiganini koʻrsatishdan tashqari, oʻquvchiga estetik taʼsir etishning bosh vositalaridan biri boʻlib qoldi.

Adabiy tanqidchilik oʻzining ijtimoiy va estetik mohiyatini yanada chuqurroq his etib, tanqid — adabiyot murabbiysi, tanqid — yaxshi ijod uchun kurashuvchi, degan qoidani yanada yaxshiroq singdirib oldi.

Tanqid — adabiyot koʻzgusi, adabiyot tanqid orqali oʻz-oʻzini idrok etadi degan tushuncha ham teran tomir otdi. Adabiy tanqid mahorat sirlarini egallashga astoydil intildi, sanʼat tilini mantiq tiliga koʻchirishda chuqur malaka hosil qildi, «baholovchi tanqid» oʻrnini «tahlil va talqin etuvchi tanqid» egallay boshladi.

Adabiyotshunoslik aynan 70–80-yillarga kelganda jiddiy yutuqlarni qoʻlga kiritdi. Adabiy turlar va janrlar evolutsiyasi, taraqqiyot tamoyillari ancha chuqur oʻrganildi.

Oʻzbek adabiyotining deyarli barcha yirik namoyandalarining ijodiy faoliyatini adabiyotning kamolot bosqichlari va rivojlanish qonuniyatlari, yetakchi tamoyillari asosida umumlashtiruvchi monografik tadqiqotlar yaratildi.

Xullas, yangi bosqichga koʻtarilgan bu davr adabiy tanqidchiligida zamonasozlikka moyillik, ijodiy qiyofasizlik, «ofarinchilik», «guruhbozlik», man-manlik, zoʻrma-zoʻrakilik, balandparvozlik, kamchiliklarga yengil munosabat, bilagʻonlik balosi, fikr, muammoni yaratilayotgan yangi asarlar yoxud adabiy jarayon tamoyillariga asoslanib emas, «Literaturnaya gazeta» hamda «Voprosi literaturi»da paydo boʻlgan ayrim qarashlarni respublika tanqidchiligiga koʻchirib oʻtkazish, beburd «diagnoz» qoʻyishga urinish kabi illatlar mavjud edi.

Bular, albatta, bir jihatdan kamchiliklar, ikkinchi jihatdan tanqidchilarning oʻz uslublarini namoyon qilishga intilishi hamda izlanishlar natijasi sifatida ham paydo boʻldi.

Shu bois, ularning ayrim namunalari goh u, goh bu munaqqid faoliyatida koʻrinib turdi. Ularni xolis koʻrsatish, qayta takrorlanmasligi uchun sabablarini ochish, tahlil qilish adabiy tanqid tarixi nuqtayi nazaridan oʻrganib, tegishli xulosalar chiqarish hozirgi adabiy jarayon taraqqiyoti, maʼnaviyatimizning yanada yuksalishi uchun muhimdir.



BAHODIR SARIMSOQOV (1944–2007). O‘zbek adabiyotshunosligida iste’dodli olim B.Sarimsoqovning o‘ziga xos o‘rni bor. 1944-yilda Andijon viloyatida tug‘ilgan olim ilmga yoshligidan havas qo‘ydi.

O‘qib, izlanish uning doimiy hamrohi bo‘lib keldi. «Saj’ va uning o‘zbek folklorida tutgan o‘rni» (1973) mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. «O‘zbek adabiyotida saj’» (1982) monografiyasi shu izlanishlari samarasi edi.

Olimning ko‘pchilik tadqiqotlari o‘zbek folklorshunosligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, «O‘zbek marosim folklori» (1986) kitobi, «O‘zbek marosim folklori: uning janr tarkibi, genezisi va poetikasi» mavzuidagi (1987) doktorlik dissertatsiyasi bu sohadagi yirik ishlardan hisoblanadi.

Olim adabiy jarayonga faol munosabatda bo‘lishga harakat qilib keldi. Uning hozirgi o‘zbek adabiyoti bilan bog‘liq adabiy-tanqidiy maqolalari, ayniqsa, hozirgi o‘zbek she‘riyati, modernizm adabiyoti haqidagi suhbat va bahslari jamoatchilik e‘tiborini tortdi. Chunonchi, B.Sarimsoqovning «Absurd ma‘nisizlikdir» (O‘zAS, 2002, 28- iyun) sarlavhali maqolasi fikrimizga yorqin misol bo‘la oladi. U maqolada masalaning ikki jihatiga e‘tiborni tortadi: birinchisi, o‘zbek badiiy tafakkur tarzida absurd kabi tushunchalar azaldan bormidi yoki endi paydo bo‘ldimi... Ikkinchisi, g‘ayriilmiy talqinlar kitobxonni, ayniqsa, adabiyotshunoslikdan ta‘lim olayotgan talabalar, tadqiqot olib borayotgan magistrant hamda aspirantlar ongida chalkash tasavvur qoldirmaslik tashvishi.

B.Sarimsoqov maqolada «absurddnavislik», «ma‘nisiz adabiyot», «subutsiz ekzistensializm» kabi iboralarni ishlatadi. Bir o‘rinda shunday yozadi: «A.Qahhorni sotsrealizmdan ayirib olish uchun uni bir botqoqdan olib, ikkinchisiga tashlash shartmi?!».

Bu mulohazalar olimning absurd adabiyoti, ekzistensializmga munosabatini aniq ifoda etadi. B.Sarimsoqov ana shu munosabat asosida absurd falsafasi, absurd adabiyotini sotsrealizm kabi botqoqqa qiyoslaydi. Albatta, bu qiyos absurd adabiyotning tub mohiyati haqidagi tahliliy baho yoki ta‘rif emas. Olim absurd adabiyot jahon badiiy tafakkurida mavjud hodisa ekanini inkor etmaydi: «Absurd falsafaning yirik namoyandalaridan biri A.Kamyu «Begona», «Sizif

haqida mif» kabi asarlarida absurd adabiyotning yorqin namunalari yaratildi...», deb yozadi.

Albatta, maqolada aks etganidek, bunday «oldindan tayyor pozitsiyadan» turib absurd adabiyotiga xolis yondashish, uning mohiyatini obyektiv tahlil qilish qiyin. Zero, avval-boshdanoq maqola «Absurd ma'nisizlikdir», deya nomlangan, ya'ni bu «ma'nisizlik ma'nisizlikdir» deganidir.

Olim absurd adabiyotini, boshqacha aytganda, insonning hayotda mavjudligining, yashashning ma'nisizligi haqidagi adabiyotni ma'nisizlik adabiyoti tarzida talqin etadi va bu talqinlar adabiy muhitda ancha bahs-munozarani keltirib chiqardi. Olimning adabiy turlar va janrlar muammosiga doir qarashlari ham e'tiborni tortadi.

~~*****~~

80-yillar o'rtalaridan paydo bo'lgan sharoitlar tufayli o'zbek tanqidchiligi sotsrealizmning uzoq yillar hukm surib kelgan iskanjasidan qutulish tamoyillari tezlashdi. Avvallari man etilgan shoir, yozuvchilar ijodini o'rganish imkoniyatlari tug'ildi. Avvallari diniy-mistik, feodal-klerikal, reaksiyon deb baholangan Yassaviy kabi ijodkorlarning asarlari yana o'z xalqiga qayta boshladi. Ularning asarlari chop etilib, ijodlari o'rganishga kirishildi.

Butun xalqning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida uyg'onishlar ko'ringanidek, adabiy tanqid ham millat va o'zlikni anglash yo'lida burilishlar ro'y berdi. Shu vaqtgacha hokim tuzum millatchi deb baholab kelgan Cho'lpon va Fitrat singari millatparvar, fidoyi san'atkorlar ijodini o'rganib, tegishli xulosalar va tavsiyalar tayyorlash maqsadida maxsus komissiya tuzildi. Bu komissiya ular ijodi yuzasidan ijobiy xulosalarga keldi.

Bu yo'nalishdagi ijodkorlar asarlarini chop etish, ular haqida millatparvarlik ruhida maqolalar yozish namunalari ko'rindi. Tarixga munosabat o'zgarib, bu adabiy tanqid ham ko'rina boshladi. Adabiyotshunos olim A.Kattabekovning (1944–1998) «Tarixiy shaxs va badiiy obraz» (1982), «Tarix saboqlari» (1986), «Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat» (1982) kabi tadqiqotlarida buni yaqqol ko'rish mumkin.

Tarixiy qahramonlar yuzasidan shu vaqtgacha aytib kelingan qator nohaq, biryoqlama fikrlarga zarba berildi. Sohibqiron Amir Temur siymosini badiiy adabiyotda o'ta tendensioz ruhda aks ettirilgan va shu vaqtgacha yuqori baholab kelingan «Samarqand osmonida

yulduzlar» singari asarlar keskin qarshilikka uchradi. Sho‘ro davri va uning zo‘ravon siyosati ulug‘langan asarlardagi bir yoqlamalikni dadil ko‘rsatish va ochish yo‘liga o‘tildi. Bu yo‘nalishda ba‘zan o‘ta ko‘llashib ketish namunalari ham ko‘rindi.

Adabiy tanqidning mezonlarini yangilash va sho‘ro davri adabiyotini qayta baholash tamoyili boshlandi. Tafakkur va harakatda umuman ro‘y berayotgan bunday o‘zgarishlar adabiyotda ham, jamiyatda ham, hayotda ham jiddiy burilishlar, yangilanishlar olib kelmasligi mumkin emas edi.

Bu o‘zgarishlar ulug‘ yangilanishlarning mujdasi edi, xolos. Tom ma‘nodagi o‘zgarish va yangilanishlar Mustaqillikdan keyin boshlangan. Bu davr adabiy tanqidi bosib o‘tgan yo‘lni, ayniqsa, istiqlol tafakkuri va milliy mafkura nuqtayi nazaridan tadqiq qilish; yaqin o‘tmish asarlarini yangi mezonlar asosida baholash hamda adabiyotimizning milliy qiyofasini yanada mustahkamlash uchun kurash muhim vazifalardir.

Tayanch tushunchalar: Adabiyotning mafkuraviylashtirilishi, adabiy tanqid va mafkura, tanqidchi dunyoqarashi, yangi inson tasviri uchun kurash, «konfliktsizlik nazariyasi», tipiklik muammosi, zamonaviylik, hozirjavoblik, teatr taqrizchiligi, sxematizm, dramaturgiyada konflikt, tarixiy mavzu, zamonaviy mavzu, lirikada konflikt.

Tanqidda realizm masalasi, tanqidchi uslubi va mahorati, yozuvchidagi munaqqidlik salohiyati, tanqidchi mulohazalari, ilmiy-biografik metod, monografik tadqiqotlar, tanqidchi saviyasi, shaxsiyati.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Adabiy tanqidni mafkuraviylashtirish deganda nimani tushunamiz?*
2. *Tanqidchilikda yo‘l qo‘yilgan vulgar sotsiologik va nigilistik xatolarning mohiyati nimada?*
3. *«Sarob» romani haqidagi bahslar xususida so‘zlang.*
4. *«Obid ketmon» qissasi haqidagi adabiy-tanqidiy qarashlarga munosabat bildiring.*
5. *Sotsrealizm yanglish va xato nazariya bo‘lgani haqida munosabat bildirng.*
6. *Ayn (Olim Sharafiddinov)ning Cho‘lpon va H.Olimjonning Fitrat ijodiga munosabatdagi xato nuqtalar nimalardan iborat?*
7. *30-yillar tanqidchilari «O‘tkan kunlar» romaniga qanday munosabatda bo‘ldilar?*
8. *30-yillar tanqidining xos xususiyatlari va adabiy jarayonga ta’siri nimalarda ko‘rinadi?*

9. Adabiyotda yangi inson tasviri uchun kurash va uning oqibatlari haqida nimalar bilasiz?
10. O. Hoshim ilmiy merosining o'rganilishi haqida nimalar bilasiz?
11. O. Hoshim hayoti va ijodi yo'li haqida gapiring.
12. Uning adabiy-nazariy qarashlari haqida so'zlang.
13. O. Hoshim va Oybek munosabatlari haqida nimalar bilasiz?
14. O. Hoshim ijodida uchraydigan nuqsonlarning kelib chiqish sabablarini izohlang.
15. Sotti Husayn ijodiy biografiyasi haqida so'zlang.
16. Sotti Husayn ilmiy va ijodiy merosiga munosabatingiz qanday?
17. Tanqidchining «O'tkan kunlar» romani va uning muallifiga munosabati qanday bo'lgan?
18. Ikkinchi jahon urushi yillarida adabiy tanqid qay xususiyatlarda namoyon bo'ldi?
19. Ijodiy qahramon muammosiga doir izlanishlarning qusur va fazilatlarini nimada?
20. Konflikt muammosining hal etilishi haqida gapiring.
21. «Konfliktsizlik nazariyasi» haqida nimalar deya olasiz?
22. 50-yillarda qaytadan xuruj qilgan nigilizm va «Alpomish» dostoni atrofidagi munozaralar haqida so'zlang.
23. Davr adabiy tanqidi «Qutlug' qon» romaniga qanday munosabat bildirdi?
24. 60-yillar adabiy tanqidining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
25. 70-yillarda adabiyotshunoslik va adabiy tanqid ko'proq qanday muammolarga e'tibor berdi?
26. 60–80-yillar adabiy tanqidida qaysi yo'nalishlar ustuvorlik qildi?
27. Bu davrdagi yozuvchi-tanqidchilar faoliyati haqida so'zlang.
28. Ayrim janrlar tadrijiga oid monografik tadqiqotlar qanday xususiyatlarga ega?
29. 80-yillar o'rtalaridan boshlab jamiyatda va adabiy tanqidida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?

— 

OYBEKNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI

(1905–1968)

REJA:

1. Oybek adabiy-tanqidiy qarashlarining o'rganilishi.
2. Yetuk adabiy tanqidchi .
3. Cho'lpon va zamondoshlari ijodi Oybek talqinida
4. Nazariy qarashlarning amaliyotga ta'siri. Amaliy tajribalarning nazariy xulosalari.

Oybek adabiy-tanqidiy qarashlarining o'rganilishi. «Oybek iste'do-dining olmos qirralaridan biri — uning adabiyotshunoslik va tanqidchilik faoliyatida yarqirab ko'rinadi»¹, deb yozadi munaqqid Ozod Sharafiddinov. Oybek o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi rivojiga katta hissa qo'shdi. Shunga qaramay, uning bu yo'nalishdagi ilmiy faoliyatini o'rganish ancha kech boshlandi.

Mashhur oybekshunos olimlar H.Yoqubov va M.Qo'shjonov ko'proq Oybekning badiiy asarlarini tahlil qiluvchi monografik tadqiqotlar yaratdilar. Afsuski, adib ijodining adabiyotshunoslik va tanqidchilikdan iborat o'rganishga arzigulik qirradi atroflicha, chuqur o'rganilmay keldi. Oybekka bag'ishlangan katta-katta monografik tadqiqotlarda bu masalaga yetarli e'tibor berilmadi. Ozod Sharafiddinovning «Iste'dod jilolari» (1967) kitobidagi «So'z san'atiga fidoyi sadoqat» deb nomlangan bo'lim Oybek adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rganishga bag'ishlangan ilk harakat bo'ldi. Unda Oybekning Navoiy lirikasiga bag'ishlangan maqolasi, «Alisher Navoiy» tadqiqoti, «A.Qodiriyning ijodiy yo'li» risolasi haqida fikr yuritildi. Lekin kichik bir maqola doirasida Oybekning boy ilmiy-tanqidiy merosini tahlil etish mushkul, albatta.

Akademik B.Nazarovning nomzodlik dissertatsiyasi Oybek adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rganishga bag'ishlangan. «Bu sehrli dunyo» (1980) nomli kitobida ham adibning shu yo'nalishdagi faoliyati yoritildi. Uning «Hayotiylik — bezavol mezon» (1985) kitobidagi «Quyoshdek yashagan ichdagi sevgi» bobi Oybek ijodiga bag'ishlangan bo'lib,

¹ Sharafiddinov O. Iste'dod jilolari. T., 1976. 124-bet.

uning 7-asosiy qismida Oybek adabiy-tanqidiy qarashlari, ko'proq 30-yillardagi faoliyati haqida fikr yuritiladi. Ammo ularda sho'ro davri mafkurasi nuqtayi nazaridan bildirilgan fikrlar ham yo'q emas.

«Oybek ijodiy metodi va badiiy mahorati» deb nomlangan to'plamda adib ijodining turli qirralari haqidagi maqolalar jamlangan. Unda «Oybekning ilk adabiy-tanqidiy maqolalari» deb atalgan J. Juma-boyevaga mansub ishda Oybekning «Tanqid sohasida savodsizlik va ur-yiqitchilikka qarshi o't ochaylik» nomli tadqiqoti batafsil tahlil etiladi. «Sotsialistik lirika uchun» maqolasi o'sha davr bilan bog'liq holda yoritiladi.

N. Karimovning «Mashhur kishilar hayoti» turkumidagi «Oybek» essesida buyuk adibning tanqidiy ishlari haqida qisqa fikr bildirib o'tilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridagi ba'zi maqolalarda Oybek ijodining ayrim nuqtalarini biryoqlama baholash tamoyillari ham ko'rinadiki, buni yoqlab bo'lmaydi. To'g'ri, Oybekning o'z adabiy-tanqidiy maqolalari hamda tanqidiy asarlarida davrning siyosiy-mafkuraviy ruhini ifodalovchi ayrim qarashlar yo'q emas. Lekin muallif tabiati emas, zamon bilan izohlanuvchi bu holat adibning ulug'vor qudrati va shaxsiga soya tashlay olmaydi.

Shu ma'noda Oybek badiiy ijodi ham, adabiy-tanqidiy qarashlari ham mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi eng to'g'ri yo'ldir. Binobarin, Oybek ilmiy-tanqidiy asarlari silsilasidagi aksar maqolalar, tadqiqotlar «bugun ham adabiy jarayonning jonli ishtirokchisi sifatida yashamoqdalar va yoshlar uchun adabiyotga sadoqatning ajib namunasi bo'lmoqdalar»¹.

Yetuk adabiy tanqidchi. Oybek ijodini jo'shib, to'lib turgan teran dengizga qiyos qiladilar. Bu dengiz doimo to'liqib, to'liqinlanib, mavjlanib turadi, ular ichida tanqidiy tafakkur to'liqlarining o'ziga xos o'rni bor. O'zbek tanqidchiligida janrlar va ularning tabiati, mahorat masalalarini o'rganishda Oybek ijodining bu qirralari hali ko'p xizmat qiladi.

Oybek tabiatidagi ilmiy-tanqidiy merosidagi kishini lol qoldiradigan narsa, qiziqish doirasining benihoyat kengligidir. U faqat o'zbek adabiyoti emas, qardosh xalqlar adabiyoti haqida teran maqolalar yozdi. Yozganda ham muammolarni chuqur bilim bilan qalamga oldi, har bir masalaning tub mohiyatini yoritdi. Pushkin va Shev-

¹ Sharafiddinov O. Iste'dod jilolari. 125-bet.

ohenkogi, Muqimiy va Chexovga, antik dunyo adabiyotiga, mumtoz adabiyotga bag'ishlangan maqolalarida Oybek masalaga qomusiy bilimdonlik bilan yondashdi. U adabiy-tanqidiy qarashlari shakllanishining ilk bosqichidagi «Adabiyot qoidalari», «Cho'lpon. Shoirmi qanday tekshirish kerak», «Munaqqidning munaqqidiga» singari maqola va taqrizlarida ayrim cheklanishlarga yo'l qo'ysa-da, o'rganilayotgan masalaning tub mohiyatini yoritish, munaqqidlik faoliyatining bosh a'moli bo'lib qoldi.

Fitratning «Adabiyot qoidalari» risolasiga bag'ishlangan taqrizida hozirjavoblik bilan ushbu o'quv qo'llanmasi zarur ekanligini ta'kidladi va kitob «hozirgi adabiy hayotimizning sust davrida» muhimdir, deb baholadi. Materiallarga yondashuvda sistema mavjud ekanini, qoidalarni tushuntirishda hozirgi zamon shoirlari asarlari bilan cheklanmay, salaflarimiz asarlaridan ham misollar tanlanganini ma'qulladi. Asarning yana bir xususiyati — «adib Fitratning jozibali, go'zal uslubi» ekanini ta'kidlashdir.

Kitobning kamchiliklari ham ko'rsatildi. Fitratning san'atni ta'riflashdagi jiddiy nuqsoni «san'at va adabiyotga bu kungi ko'z bilan (markschilarcha) qaramagan»likda, marksistcha ijtimoiy tahlil yo'qligida» deb tanqid qiladi. Eng muhimi, bu fikr taqriz yozilgan davrdagi zamonasozlik ruhini ifodalasa-da, hozirgi mustaqillik mafkurasi Fitratning to'g'ri yo'ldan borganligini ko'rsatadi.

Bu Fitratning o'sha vaqtdayoq mafkura domiga tushmay, umumbashariy mezonlarni asos qilib olganiga yorqin dalildir.

Lirikaga bag'ishlangan maqolasida Oybek yuksak g'oyaviylikni zamon bilan hamnafaslikda ko'rib, birmuncha cheklanishga yo'l qo'yadi, lekin uning jonli xalq hayoti bilan mustahkam bog'lanishi zarurligini to'g'ri belgilaydi. Lirika nainki shaxs, xalqning ham fikr-tuyg'ulari, kechinmalarini emotsional ravishda ifodalashi kerak deb bildi. Hamid Olimjon, Uyg'un, H.Po'lat she'rlarini tahlil qilganda, tabiiyki, u «sotsialistik lirika»ning muhim xususiyatlarini yangi davr bilan bog'liq holda ochishga intiladiki, bu o'sha davr taqozosi edi.

«So'nggi yillar o'zbek poeziyasi» maqolasida muallif shoirlarnipoetik mahoratni mukammalroq egallashga chaqirdi.

20-yillar oxirida adabiy tanqid shoir, yozuvchilar ijodiga ehtiyotkorlik bilan yondashishga urinsa-da, zamon munaqqidlarni urto'qmoqchilikdan, qo'mondonbozlikdan saqlab qololmadi. «20-yillar oxiri, 30-yillarning boshlarida oyoqqa turib kelayotgan o'zbek tanqidchiligida tarafkashlik, subyektivizm avj olgan, «ur to'qmoqlik»

kuchaygan bir payt hisoblanadi»¹. Lekin ilg'or tanqidchilik bunday qiyin sharoitda ham realistik adabiy tanqid tajribalarini o'zlashtirishga intildi. Zotan bu sohada tartib o'rnatmay, umuman, adabiyotni rivojlantirish mushkulligi ma'lum edi. Oybekning «Tanqid sohasida savodsizlik va ur-yiqitchilikka qarshi o't ochaylik» (1933) maqolasi davrning xuddi shu dolzarb talablariga javob sifatida maydonga keldi. Unda tanqidagi vulgar sotsiologizmning qo'pol ko'rinishlari keskin fosh etildi. Natijada Hamid Olimjon ijodi asossiz hujumlardan asrab qolindi. Maqola adabiyotning, tanqidning to'g'ri yo'ldan borishiga ko'p jihatdan yordam berdi. Ammo maqola shoirning ko'proq sotsialistik tuzum bilan bog'liq she'riariga diqqatini qaratadiki, buni davr siyosatining ehtiyoji sifatida izohlash mumkin.

Oybek badiiy tilga bag'ishlangan maqolasida o'zbek adabiy tilining sofliqi, aniqligi, chuqur xalqchilligi, ifodaviyligi va yorqinligi uchun kurashdi. Davr she'riyatidagi til no'noqliklari tanqidchilikda ilk bor shu maqolada ochib tashlandi deyish mumkin. Maqolada Oybekning talabchanligi, xolisligi, to'g'riso'z va odilligi yaqqol namoyon bo'lgan.

Oybek maqolalarining ko'pi 30-yillarda yozilgan, biroq ularni o'qisangiz kecha yoki bugun yozilgandek taassurot qoldiradi. Ular kuchli shoir ruhi bilan sug'orilgan. Bu maqolalardagi umrboqiylikning siri ikki narsada ko'rinadi:

1. Oybek hech vaqt oson va yuzaki yo'lni tanlamadi, quruq tavsif qilish yoki bayonchilik yo'lidan yurmadi, uning har bir maqolasi asosida tinimsiz izlanuvchan, shiddatli, xolis tafakkur yotadi.

2. Deyarli har bir maqolada olim nazari bilan badiiy ijodkor yuragi tutashadi, balqib turadi. Ularda tadqiqotchining sinchkov tafakkuriga emas, san'atkorning qaynoq qalbini ham his qilamiz. Ularda ehtiros kuchli, yuksak didli kuzatuvchining o'tkir nigohi bor, qaysi ijodkor haqida yozmasin, unga muhabbat va hurmat bilan yondashadi.

Cho'lpon va zamondoshlari ijodi Oybek talqinida. Oybekning 20-yillardagi Cho'lpon she'riyatiga bag'ishlangan maqolasini jur'at va jasorat bilan yozilgan ishlardan biri deyish mumkin. Cho'lponni to'g'ri tushinishda Oybekning shoir yuragi muhim rol o'ynadi. U Cho'lpon she'riyatini chuqur tahlil etib, xalq uchun zarurligini, ahamiyatini to'g'ri ta'kidladi. Cho'lpon she'riyati va dramalari o'z davridayoq adabiy tanqidda jiddiy munozaralarga sabab bo'ldi.

¹ Do'stqorayev B. Bir munozara tarixidan// Sharq yulduzi. 1989. № 6. 189-bet.

«Uyg'onish» (1922) to'plami nashr etilishi bilan Z. Bashir Cho'lponni «xalq shoiri emas, xalqqa yaqin bo'lgan ziyolilar shoiridir» degan fikrni aytdi, Ayn (Olim Sharafiddinov) «O'zbek shoirlari. Cho'lpon» maqolasida shoir ijodini asossiz ravishda qoralab chiqadi: «Cho'lpon millatchi, vatanparast, badbin ziyolilar shoiridir», deya undan-da, oshib tushuvchi salbiy baho berdi. Oradan ikki oy o'tgach, bu maqolalarga javoban Oybekning «Cho'lpon. Shoirni qanday tekshirish kerak?» maqolasi paydo bo'ldi. Maqola Aynning «ijod erkinligini cheklashini, adabiyotni «g'oyaviylik» botqog'iga botirib, boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishini va bora-bora adabiyotning san'atligiga putur yetkazishini» anglagan holda yozilgan qarshi javob edi. Oybekning bu maqolasi umuman o'zbek tanqidi metodologiyasi shakllanishi va to'g'ri yo'lini belgilashda o'z ahamiyatiga ega bo'lgan maqolalardan biridir.

Oybek adabiyot haqida hukmron mafkura qoliplaridan kelib chiqib emas, san'at qonuniyatlari asosida mulohaza yuritishga chaqiradi. Cho'lpon ur-kaltak bo'lib turgan zamonda uni himoya qilib chiqishning o'zi bir jasorat bo'lsa, hukmron siyosat harakatdagi adabiyotni o'z izmiga solishni maqsad qilib turgan bir zamonda san'atkor ijodini uning mafkurasiga qarab emas, adabiyotning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqib, ya'ni badiiyligiga qarab baho berishi, yana bir katta jasorat edi. Oybek ruslarning Pushkinni qanchalik sevishini misol qilib keltiradi-da, shu asosda «biz ham Cho'lpondan qo'l torta olmaymiz», deydi. Negaki, Cho'lponning adabiyotdagi xizmatlari katta: «Cho'lpon yangi adabiyotda yangi narsa yaratdi. Muvashshah adabiyoti o'rniga bu kunning badiiy zavqiga yarasha yoqimli (badiiy) go'zal she'rlar o'rta qo'ldi». Bu kungi yosh nasl uning soddalik tilini, totli uslubini, texnikasini ko'p sevadi. Undan ko'p go'zalliklar oladi», deb yozgan Oybekni o'sha davrda bu maqolasi uchun noto'g'ri ayblaganlar ham bo'ldi. Ular ichida A. Ikromov ham bor edi.

«Munaqqidning munaqqidi» maqolasini yozgan Usmonxon Oybekni biryoqlama tanqid qilib, Cho'lpon ijodida mazmun bilan shakl aloqalarini noto'g'ri tushunganlikda aybladi. Cho'lponning badiiy shaklidan foydalanamiz degani uchun Oybekni adabiyotga «burjuacha qaraydi»ganlar sirasiga qo'shdi. Taassufki, shuncha zamonasozligiga qaramay, Usmonxonning o'zi ham boshqa iste'dodli ziyolilar kabi o'sha mafkurani har qancha himoya qilmasin, qatag'onning qurboni bo'ldi. Keyingi maqolasida Oybek Usmonxonga javobida badiiy asar mazmuni bilan shaklini bir-biridan ajratgani «zo'r xato» ekanini e'tirof

otlasi, mohiyatan unga siyosat zug'umi o'z ta'sirini o'tkazayotganidan bir nishona edi. Lekin bundan qat'i nazar u «badiiy asar ichiga ko'milgan his va fikrlarni san'at tilidan sotsiologiya tiliga» ko'chirib tahlil qilish haqidagi e'tiqodiga sodiq qolajagini e'tirof etdiki, bu uning navbatdagi yana bir jur'ati edi.

Bu o'rindagi Oybekning sotsiologiyaga munosabatida, bir jihatdan, unga bu masalada Plexanov ta'siri sezilib turadi, ikkinchi bir tomondan, bu fikrni, vulgar sotsiologiya asos bo'lgan ma'noda emas, adabiyotning ijtimoiyot bilan mustahkam aloqasi ma'nosida idrok etish to'g'ri bo'ladi.

Bu bahs-munozaralardan muayyan xulosalar chiqarish lozim, albatta. «Jumladan, Oybekning maqolalarida shunday o'rinlar bor ediki, ular adabiyotshunoslikdagi aqidaparastlik va vulgar sotsiologizmga qarshi kurashda, ijodkorlarni behuda kaltaklardan, o'rinsiz zug'umlardan asrab qolishda durustgina zamin bo'lishi mumkin edi», deb yozadi Ozod Sharafiddinov. Ammo mafkura Ayn bilan Usmonxonni himoya qilar edi, shu tariqa o'zbekning buyuk shoiri Cho'lpon nohaq qatag'onga uchradi, Oybek esa tanqid qilindi. Albatta, Ayn, Usmonxon, A.Sa'diy kabilar o'rtasidagi bahs-munozaralar Oybek ijodi, tanqidchilik mahorati shakllanishiga ma'lum ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bu maqola bilan Oybek adabiyotimiz tarixida bahs intellekti va san'atini chuqur egallagan siymolardan biri sifatida kelajak avlodlarga namuna bo'lib qoldi: u bahslarda madaniyatli, bosiq, adab lafzini mustahkam tutadigan, mulohazalarida harif hurmatini o'rniga qo'yadigan ziyolimunaqqid sifatida ko'rinadi.

Oybekning tanqidchilik faoliyatida vorisiylik ko'zga yaqqol ko'rinadi: u Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, V.Mahmud ijodlarida namoyon bo'luvchi estetika, san'atkorona talqin va tahlil yo'llarini zukkolik bilan o'zlashtirdi.

Urush davrida Oybek G'.G'ulom bilan hamkorlikda «Jaloliddin» dramasi uchun sahnalashtirilishi munosabati bilan taqriz yozdi. Unda Vatan farzandlarining erk, mustaqillik, nomus va sharaf uchun olib borgan kurashi yorqin, ma'nodor drammatizm bilan to'la hayajonli kartinalarda gavdalanishi ta'kidlanib, mualliflar, bu tarixiy dramaning badiiy qimmatini, zamonaviy va tarbiyaviy ahamiyatini belgilab berdilar.

Jaloliddin «o'z siymosining ma'naviy go'zalligi bilan tomoshabinni sehrlaydi, u «bahodirlikni o'tkir aql bilan bezagan ajoyib yigit...». Bu samimiy mulohazalarda asarning zamonaviy ahamiyatidan tashqari

uning tarixiy qimmatini belgilanayotganini sezish qiyin emas. Bu taqrizni o'qisangiz, uning hamon eskirmaganligini, hozirgi kunga ham mos qarashlarga boyligini ko'rish mumkin. Bu Oybekning teran nigohli tanqidchi ekanligidan dalolat beradi.

Oybek yosh ijodkorlarga alohida g'amxo'rlik bilan qaradi. Buni keyinchalik ustoz darajasiga ko'tarilgan ijodkorlarning o'zlari e'tirof etadilar. «Oybek domla bilan uchrashuvlarimni hamda kechirgan hayajonlarimni qog'ozga tushirsam, bir risola bo'ladi. Domlaga «Armaniston» degan she'rimni o'qib berganimda «ingichka, ingichka» deb qo'rganlarini eslayman.... Oybek domla keyingi safar chorlaganlarida qo'limga O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga a'zolikka tavsiya qog'ozini tutqazdilar»¹.

Oybek urushdan keyingi yillarda Said Ahmad, Hakim Nazir, Shuhrat kabi adiblarni proza daraxtining yosh va umidbaxsh novdalari deb atadi. Shukrulloning yangi she'ri va dostonlarini olqishladi, 60-yillar boshlarida H.Sharipovni xayol dunyosi keng, E.Vohidovni she'rlari hayot bulog'idan sug'orilgan shoir deb yozdi. Oybek mulohazalari naqadar to'g'ri bo'lganini hayotning o'zi tasdiqladi.

Oybek nainki badiiy ijodkorlar, balki adabiyotshunos va tanqidchilarning ishlarini ham muntazam kuzatib boradi. Uning H. Yoqubov, T.Jalolov ishlariga yuqori baho bergani ma'lum. «Qo'qon adabiy muhiti» asari muallifi haqida esa «oltinday asl fikrlari, mulohazalari ko'p» deb yozdi.

«O'zbek tili va adabiyoti» jurnalida bosh muharrir bo'lgan Oybek bilan uning qo'lida sarkotib bo'lib ishlagan adabiyotshunos S.Mirvaliyev ustozning har bir maqolaga nihoyatda jiddiy talablar bilan yondashganini hurmat bilan yodga oladi.

Oybek ilmiy merosida Mahmud Koshg'ariydan tortib, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Nosiriddin Rabg'uziy, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy asarlarigacha tadqiq etilgan. Boburdan tortib Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Muhammad Solih ijodlari haqida fikr yuritilgan. Gulxaniydan tortib, Maxmur, Muqimiy, Furqat, Zavqiy she'riyatigacha baho berilgan. Buni uning «O'zbek she'riyati antologiyasi»ga yozgan so'zboshi ko'rsatib turibdi.

Oybekning, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o'rganishdagi xizmatlari benihoyadir. Bu borada u, hech mubolag'asiz yetuk navoiyshunoslar qatorida turadi. Uning Navoiy dunyoqarashi, lirikasi, «Xamsa» tah-

¹ Oripov A. Tanlangan asarlar. 6 jildlik. 4- jild. — T.: 2000. 9-bet.

liliga bag'ishlangan tadqiqotlari navoiyshunoslikning oltin fondini tashkil etadi.

Mohir qodiriyshunos. Sotti Husayndan so'ng Abdulla Qodiriy ijodini yaxlit va atroflicha o'rgangan munaqqidlardan biri Oybekdir. Qodiriy ijodi, ayniqsa, romanlarini baholashda davr bilan izohlanuvchi qator kamchiliklarga yo'l qo'ygan esa-da, «Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li» nomli Oybek tadqiqoti S.Husayn ishiga nisbatan adib shaxsi va ijodini o'rganishda o'zbek tanqidchiligi oldinga tashlagan qadam bo'ldi. Unda, dunyoqarash, mafkura nuqtayi nazaridan ayrim xato fikrlar aytilsa-da, Qodiriy mahorati va, umuman, «O'tkan kunlar» qimmatiga to'g'ri baho berildi. Ayni vaqtda, risolada ilgari surilgan tarixiy roman hamda realistik adabiyot, umuman, obraz va xarakter haqidagi qator nazariy fikrlar o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi ravnaqida muhim o'rin tutadi.

Oybekning «Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li» tadqiqotining hozirgi kitobxonlar qo'liga tekkan 9-jild (1964) hamda Mukammal asarlar kulliyotining 13-jildiga kiritilgan nusxalari uning qisqartirilib, bir-muncha qayta ishlangan variantlaridir. Kitobxon va mutaxassislar uni o'rganishda masalaning shu jihatlarini e'tiborga olishlari lozim bo'ladi.

Bugungi tanqidchilik Oybek faoliyatidan ko'p narsani o'rganishi mumkin. Chunonchi, Oybekdagi ijodiy dadillik; maqolalarining kuchli zamonaviy ruh bilan sug'orilganligi; bilimdonlik, chuqur sinchkovlik; har bir muammo ustida tinimsiz ijodiy izlanish, fikrlash asosiga qura bilishini; eng muhimi, maqolalarda tanqidchining sinchkov tafakkurinigina emas, san'atkorning qaynoq qalbining ham tepib turishini; uning ishlarida adabiyotga, tadqiq etilayotgan yozuvchiga cheksiz muhabbat, ulkan hurmatning ufurishini kuzatish va shulardan ma'naviy o'rnak olish mumkin. «Ehtiros uning maqolalariga emotsionallik baxsh etadi, shu tufayli ular bugun ham navqiron va samimiy asarlar sifatida qabul qilinadi»¹. Chindan-da, tanqid va adabiyotshunoslik Oybek uchun o'zining tadqiqotchilik qobiliyatini namoyon qilish sohasigina emas, balki san'atga, adabiyotga cheksiz muhabbatini ifodalash vositasi, xalqqa xizmat qilish quroli ham edi.

Tayanch tushunchalar: munaqqid, risola, so'z san'ati, ijod erkinligi, san'at san'at uchun, gnesologiya, qodiriyshunoslik, cho'lponshunoslik,

¹ Sharafiddinov O. Iste'dod jilolari. — 89-bet.

uslub, ritm, ijtimoiy tahlil, estetik tahlil, mafkuraviy buyurtma, lirika, ijod erkinligi, «Munaqqidning munaqqidi», qodiriyshunos, Ayn.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Oybek adabiy-tanqidiy qarashlarining o'rganilish tarixi haqida so'zlang.*
2. *Oybekning adabiy tanqiddagi xizmatlari mohiyatiga to'xtaling.*
3. *Oybekning Cho'lpon ijodiga munosabati qanday bo'lgan?*
4. *«Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li» risolasining yozilish tarixi va ahamiyati haqida gapiring.*
5. *Oybekning adabiy jarayonga bag'ishlangan qarashlarini tavsiflang.*
6. *Oybekning 30-yillardagi tanqidchilik faoliyati xususiyatlarini ta'riflab bering.*

IZZAT SULTON (1910–2001)

REJA:

1. Izzat Sultonning hayoti va ijodi haqida.
2. Yetuk adabiyotshunos va tanqidchi.
3. Munaqqid va adabiy jarayon.
4. Abdulla Qodiriy ijodi tanqidchi nigohida.



Izzat Sultonning hayoti va ijodi haqida. Yirik adabiyotshunos olim va tanqidchi, mashhur dramaturg, o'zbek fani va madaniyatining atoqli namoyandasi Izzat Sulton (Izzat Otaxonovich Sultonov) XX asr o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixida katta o'rin tutadi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, filologiya fanlari doktori, professor, Beruniy nomidagi respublika Davlat mukofoti laureati, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Izzat Sultonning, ayniqsa, o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi tarixida alohida o'rni bor. «Ustoz Izzat Sulton

asarlarining, ijodiy merosining o'zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati nechog'lik nufuzli ekanligini his etish uchun XX asr klassikasini bir qur eslash o'rinli bo'lsa kerak. Ustozning izlanishlari, asosan, sahna madaniyati, kino san'ati, adabiyot ilmi yo'nalishlarini qamrab oladi.

Izzat Sulton mumtoz adabiyotimizni, xalq og'zaki ijodini, XX asr badiiy so'z madaniyati, jahon adabiyotini nihoyatda nozik, fasohatli, zakovatli bilimdoni edi. Sharq va G'arb badiiy madaniyatlari sintezini birdek o'zida mujassamlantirgan ustozlari Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom, Uyg'un, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda singari ulkan adiblarimiz qatoridan munosib o'rin olgan alloma san'atkor hisoblanadi»¹.

¹ *Rahimjonov N.* Badiiy asar biografiyasi. — T.: 2008. 259-bet.

Izzat Sultonov 1910-yil Qirg'izistonning O'sh shahrida hunarmand oilasida dunyoga keldi. 10 yoshida otasi vafot etdi. Yosh Izzat bolalar uyida tarbiya topdi. 1924-yili bir guruh yoshlar Toshkentga o'qishga yuborilganda, ular orasida bo'lajak olim ham bor edi. Avval musiqa maktabida, so'ng bilim yurtida tahsil oldi. Uni bitirgach (1929), Yangiyo'l tumani Qovunchi qishlog'ida o'qituvchi bo'lib ishladi. SAGU qoshidagi ijtimoiy fanlar fakultetiga (1930) o'qishga kirdi, gazetalarda mas'ul kotib, mudirlik qildi. Ayni vaqtda O'zbekiston Fanlar akademiyasi aspiranturasida tahsil oldi (1934–1937). O'zbekiston Fanlar komitetining Til va adabiyot instituti direktorining o'rinbosari (1938), shu institutdagi Alisher Navoiy bo'limi mudiri (1939) lavozimlarida ishladi. Urush yillari gazetada, keyinchalik, Toshkent kinos-tudiyasida xizmat qildi. 1943-yilda shu studiyaga direktor etib tayinlanadi. O'zbekiston Ministrlar Soveti raisining o'rinbosari lavozimiga (1945) ko'tarildi. 1948-yil Til va adabiyot instituti direktorligiga qaytadi. Ko'p vaqt o'tmay, doktoranturaga o'qishga ketadi (1950). Ayni vaqtda ma'lum muddat Moskva davlat universitetida buyuk qozoq adibi Muxtor Avezov bilan bir kafedrada ishlab, talabalarga ma'ruzalar o'qiydi. Toshkentga kelgach, Til va adabiyot institutida o'zbek adabiyoti sho'basiga rahbarlik qiladi (1955). U samarali ilmiy va jamoatchilik faoliyati uchun qator orden va medallar bilan taqdirlangan.

Izzat Sultonning ijodiy faoliyati, asosan, 30-yillarda boshlandi. Uning 30-yillarning oxirlarida «Adabiyot nazariyasi» o'quv qo'llanmasini yaratishi – o'sha davr adabiy jamoatchiligida katta voqea bo'ldi. Lekin «Adabiyot nazariyasi» yaratilguncha 30-yillar mobaynida yosh tanqidchi muayyan tajriba yo'lini bosib o'tdi. Uning dastlabki qiziqishlariyoq rang-barang bo'lib, musiqa masalalariga, roman janri muammolariga, dramaturgiyaning o'ziga xosliklariga, tanqidchilikning maqsad va vazifalariga qaratildi. Munaqqid shu vaqtda «O'z musiqamizni tuzish yo'lida», M.Sholoxovning «Ochilgan qo'riq» romaniga bag'ishlangan «Turmush darsligi ustida», «20 yil burungi Gamlet», «Chexov hikoyachiligi» kabi maqolalarini yozdi. «Nomus va muhabbat» dramasi yozilgan taqriz, «Nega tomoshabin beparvo?» kabi maqolalari Izzat Sultonning shu davrlardayoq drama janriga jiddiy e'tibor bera boshlaganini ko'rsatadi. «Adabiyotda obrazni yuzaga keltirish yo'llari», «Badiiy adabiyotda til» kabi maqolalar esa, olinining «Adabiyot nazariyasi» kitobi dabdurustdan yuzaga kelmaganini, bu ishga u uzoq yillar mobaynida tayyorlanib borganini ko'rsatadi. Bu maqolalar, ko'p o'tmay, «Adabiyot nazariyasi»ning tarkibiy qismlarini

tashkil etdi. 1940- yilda u o'zining «O'zbek tanqidchiligi haqida» maqolasini e'lon qildi. Unda davr muhrini ko'rsatuvchi cheklanishlar yo'q emas. Lekin bundan qat'i nazar undagi ilgari surilgan qator chuqur ilmiy-nazariy fikrlar bu sohaning jiddiy va teran bir mutaxassisi yetilib kelayotganini namoyon etadi.

Izzat Sultonov uch yo'nalishda: zamonaviy adabiyot muammolari, mumtoz adabiyot tarixi hamda adabiyot nazariyasi masalalari xususida izlanishlar olib bordi. Uning faoliyatida Alisher Navoiy siymosi va ijodi alohida o'rin tutadi. Olimning bu yo'nalishdagi ilk maqolasi «Mir Alisher Navoiy» (1938) tezda adabiy jamoatchilik e'tiboriga tushdi. Shu yili «Rustaveli va Navoiy» maqolasi vujudga keldi. «Navoiy tadqiqotchilari» (1941) degan maqola yozdi. Deyarli o'ttiz yildan so'ng yaratiladigan «Navoiyning qalb daftari» hamda undan avval yaratilgan «Alisher Navoiy» dramasi boshlang'ich nuqtalari ana shu izlanishlarda yotadi.

Olimning navoiyshunoslikka qo'shgan muhim hissasi «Mezonul-avzon» va uning tanqidiy teksti» nomli ishi bo'ldi. Shu mavzuda tadqiqotchi nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi (1949). Ko'p yillik ijodiy izlanishlar samarasi sifatida «Navoiyning qalb daftari» asari jahon navoiyshunosligiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. «Kitobni varaqlar ekansiz, — deydi M.Qo'shjonov, — avvalo, unda tadqiqot uslubi originalligi, faktlar obyektiv tahlil qilinishi, muallifning mantiqan fikrlarni dalillash mahoratini egallaganligi ko'zga tashlanib turadi. Bu jihatdan «Navoiyning qalb daftari» asari Izzat Sultonovning ulug' shoir haqida yaratgan boshqa ishlaridan ajralib turadi»¹. «Navoiyning qalb daftari» kitobi mazmuni, shakli, janri jihatidan adabiyotshunosligimizda yangi hodisa.

Zahmatkash olim ulug' shoirning barcha asarlari hamda Navoiy zamondoshlari — tarixchi, adabiyotchi olimlar asarlari asosida ulug' o'zbek shoirining tarjimai holini, ko'pgina asarlarining yozilish tarixini yaratdi»².

Izzat Sulton yetuk dramaturg va kinossenariychi sifatida ham samarali ijod qildi. O'zbek Milliy akademik teatrda uning o'nga yaqin dramasi sahnalashtirildi. Uyg'un bilan hamkorlikda yozgan «Alisher Navoiy» pyesasi o'zbek dramaturgiyasi va sahna san'atining nodir yutuqlaridan biri bo'lib qoldi hamda har ikki muallifga shuhrat keltirdi.

¹ Quljonov A. Ilm va ijod o'lamida. — T.: 1980, 46-bet.

² Mamajanov S. Ulkan olim va dramaturg // Saodat. 1980, № 3. 10-bet.

Yetuk adabiyotshunos va tanqidchi. «Adabiyot nazariyasi» (1939) kitobi O'zbekiston madaniy-adabiy hayotida ulkan voqea bo'ldi. Darslik 1940-yilda eng yaxshi ilmiy va badiiy asarlar uchun o'tkazilgan tanlovda birinchi mukofot bilan taqdirlandi. Asar ko'p yillar mobaynida faqat o'rta maktab uchungina emas, respublika oliy o'quv yurtlarida ham asosiy darslik vazifasini bajardi. Izzat Sulton o'zbek adabiyotshunosligida A.Sa'diy va Fitratdan keyin adabiyot nazariyasidan darslik yaratgan uchinchi ustoz sanaladi. Olim shuhrati respublikamiz tashqarisida ham keng yoyildi.

Izzat Sulton siyosat va mafkurada sobit turgan adib va olim esada, dramaturg sifatida jamiyat norasoliklarini payqab olgan va buni asarlarida aks ettirishga muvaffaq bo'lgan munaqqid sifatida ham zamon adabiyotida ko'zga tashlanayotgan nuqsonlarni sezgan hamda imkon darajasida ularga jamoatchilik e'tiborini qaratishga intilgan olimlardan biri edi. U qator maqolalari va tadqiqotlari, shu jumladan, «Ikki muhim masala yuzasidan mulohazalar» maqolasida jamiyat taraqqiyoti uchun zarur masalalarni olg'a surish, o'zbek adiblari jahon adabiyotining ilg'or namunalaridan o'rganishlari kerakligi haqida; yozuvchi voqelik va hayot bilan kuchli bog'lanmagan ideallarni emas, hayotning haqiqiy ildizidan o'sib chiqqan voqelik va idealni o'rganish lozimligini alohida qayd etadi. I.Sulton sotsrealizm haqidagi ishlarida muammoga faqat g'oya, mafkura, dunyoqarashgina emas, badiiy mahorat nuqtayi nazaridan ham yondashib, muhim ilmiy-nazariy fikrlarni ilgari surdi. Uning bu qarashlari tanqidchilik va adabiyotshunoslikka ta'sir ko'rsatmay qolmadi. E'tibor berilsa, sotsialistik realizm haqidagi qarashlari zamirida mafkuraviy qonuniyatlardan tashqari, umuman, realizm xossalari haqidagi nuqtayi nazar ham kuchli ekanini payqash mumkin.

Izzat Sulton maqola va tadqiqotlarida XX asr o'zbek adabiy tanqidi shakllanishidagi o'ziga xoslik, mahorat va uslub masalalariga katta e'tibor bilan qaradi. Otajon Hoshim, Sotti Husayn, Abdurahmon Sa'diy, Olim Sharafiddinov, A'zam Ayyub kabi tanqidchilarning ijodiy yo'li haqida muhim ilmiy qarashlarini bildiradi. O. Hoshimning adabiyot nazariyasi, S. Husaynning tanqid masalalari, Abdurahmon Sa'diy va Olim Sharafiddinovning maktablar uchun darsliklar va qo'llanmalar yozish borasidagi murakkab, ziddiyatli ijodi ustida to'xtalarkan, ularning realistlik o'zbek adabiy tanqidchiligi shakllanishi oldida turgan ilmiy-nazariy muammolarni hal etish yo'lidagi izlanishlari mohiyatini ochib berdi. «Shuni qayd qilish kerakki, O'zbekistonda

adabiy tanqidning tugʻilishi birinchi navbatda «tanqid nima?» savoliga javob izlashdan boshlandi. Tanqidiy tafakkurning Oktabrdan keyingi boshlangʻich yillari hali ancha ibtidoiy boʻlishiga qaramay, yuqoridagi savolga berilgan javoblar (sodda boʻlsa-da) asosan toʻgʻri edi¹, degan xulosaga keladi I.Sulton.

XX asr boshlarida bu savolga Vadud Mahmud, Elbek, Neʼmat Hakim, A.Saʼdiy, Olim Sharafiddinov kabilar javob izlab, adabiyot haqidagi ilmni, tanqidchilikni toʻgʻri yoʻlga qoʻyishga harakat qildi. Ularning tanqid haqidagi fikrlari juda sodda, koʻp hollarda bir yoqlama boʻlishiga qaramasdan, tanqid mohiyatan davr adabiyotining xosliklarini ochishga qaratilganligi bilan ahamiyatli edi.

Munaqqid va adabiy jarayon. Izzat Sulton oʻzbek adabiy tanqidchiligida yangi ijobiy koʻtarilishlar yuz berayotganligini birinchilardan boʻlib qayd etgan munaqqiddir: «Adabiy tanqid badiiy asarlar yaratish jarayonining ajralmas bir qismi, tanqidchi-yozuvchining hamkori va madadkoridir»², deb yozgandi munaqqid. I.Sulton adabiy-tanqidiy qarashlarida, izchil ijodiy izlanishlarida muammoli masalalarni dadillik bilan koʻtarib chiqishga harakat qiladi.

I.Sulton oʻzbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi shakllanishi va kamoloti jarayonining xilma-xil sohalari, turli muammolari bilan shugʻullandi. I.Sultonov ilmiy kashfiyotlaridan biri – ijodiy metod masalasidagi kuzatishlarida koʻzga tashlanadi. Uning 50-yillarning oʻrtalarida himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi ham ayni shu mavzuda edi. Olim «Realizmning zamonaviyligi» (1963) maqolasida 60-yillar adabiyotida yuz berayotgan realizmning chuqurlashuv jarayonlarini yoritishga intildi. Bu oʻzbek adabiyotining shu vaqtlardan eʼtiboran nainki sotsrealizmga, balki, unuman, realizm yoʻliga borishga ham intilayotganini taʼkidlovchi dastlabki mulohazalardan biri edi.

Abdulla Qodiriy ijodi tanqidchi nigohida. Izzat Sultonning oʻzbek adabiyoti oldidagi ulkan xizmatlaridan biri uning A.Qodiriy ijodiga munosabatda koʻrinadi. Maʼlumki, qatagʻonga uchragan yozuvchilar XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmida oqlana boshladi. Choʻlpon, Fitrat, A.Qodiriy kabi buyuk yozuvchilar ijodini qayta va haqqoniy baholash muammosi paydo boʻldi. Ochigʻi, bu masalaga hamma tanqidchilar ham yeng shimarib kirisha olganlari yoʻq. Ehtiyotkorlik, hadik, qoʻrquv koʻplarni hali ham tark etmagandi. Shu bois Qodiriy

¹ Oʻzbek sovet adabiy tanqidi tarixi. 1-tom. 1987, 54-bet.

² Oʻsha asar. 318-bet.

oqlanganidan keyin, hatto 60–70-yillarda ham uning dunyoqarashi, ijodiy metodiga hadiksirab, «bir balosi chiqib qolmasin» qabilida yondashuvchilar oz bo‘lmadi. Ana shunday sharoitlarda va hatto 50-yillarning o‘rtalaridayoq Izzat Sulton Qodiriy ijodiga real, xolis, haqqoniy va teran ilmiy baho berishda jur‘at namunasini ko‘rsatdi.

1956-yil «Qizil O‘zbekiston» gazetasining 28-oktabr; «Yosh leninchi» ham «Toshkent haqiqati»ning 30-oktabr; «O‘qituvchilar gazetasi»ning 1-noyabr sonlarida «Yozuvchi Abdulla Qodiriy haqida» nomli maqolasi e‘lon qilindi.

Qizig‘i shundaki, bu maqola dastlab «Pravda Vostoka» gazetasining 1956-yil 28-oktabr sonida rus tilida «Talantli o‘zbek sovet yozuvchisi Abdulla Qodiriy» nomi ostida bosilib chiqqan edi. Qatag‘on yillari va undan so‘ng ham uzoq yillar mobaynida kitobxon xotirasidan o‘chirishga harakat qilinib, «burjua yozuvchisi» tamg‘asi ostida qamalgan va otilgan Abdulla Qodiriyning Izzat Sulton tomonidan atoqli yozuvchi sifatida ko‘rsatilishi emin-erkin zamonlar boshlanganiga qaramay, jasorat edi. Biroq shunisi ham borki, 1956-yilda tanqid ham, adabiy jamoatchilik ham A.Qodiriy to‘g‘risidagi bunday yangicha ijobatni birdan va birdek qabul qilishga tayyor emas edi. Xususan, A.Qodiriy talantli va mashhur yozuvchi tarzida talqin etilishi uning «burjua yozuvchisi» bo‘lganiga ishonib yurganlar orasida I.Sulton maqolasiga nisbatan ayrim jiddiy e‘tirozlarga olib keldi. Tanqidchi bu e‘tirozlarni hisobga olishga majbur bo‘ldi va «O‘tkan kunlar»ning yangi nashriga yozgan bosh so‘zida A.Qodiriy ijodiga ayrim jiddiy tanqidiy fikrlarini aytishiga to‘g‘ri keldi. Yangi nashr so‘zboshisida «A.Qodiriy jamiyat va taraqqiyot qonunlari haqidagi marksizm-leninizm ta‘limotini chuqur egallay olmadi» singari fikrlar aytilishiga majbur bo‘ldi.

Maqolada yangicha talqinlar, adib to‘g‘risidagi xulosalar jiddiy o‘zgargani seziladi. A.Qodiriyning o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini belgilayotgan adabiyotshunos olim imkoni boricha yozuvchi shaxsiga, asarlariga ilmiy xolis yondashuvga intiladi. «Agar yozuvchi haqiqatan talantli va sof ko‘ngil bo‘lsa, u o‘z sotsial muhitining bor sinfiy manfaatlari doirasidan chiqib, hayotni haqqoniy tasvirlaydigan va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat etadigan asarlar yarata oladi». Bu nazariy fikrni jahon adabiyotining namoyandalari Lev Tolstoy, O.Balzak kabi adiblar ijodi misolida isbotlaydi va o‘rinli ravishda A.Qodiriy shular qatoriga qo‘yadi. Eng muhimi, A.Qodiriyning asarlari xalqqa yetkazilishi, ularning ma‘naviy mulkiga, sevimli asariga aylanishi uchun

ollim qo'lidan kelgancha harakat qildi. Hatto, ba'zi romanlardagi mutlaqo ikkinchi darajali jihatlarni bo'rttirib ko'rsatish orqali o'z niyatlarini ro'yobga chiqarishga intildi.

I.Sultonov Abdulla Qodiriy taqdirini «hal etgan» «ulug' og'a» bo'lmish ruslar masalasida juda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rdi; ular bilan bog'liq o'rinlarni atay bo'rttirib ko'rsatdi.

Umuman olganda, I.Sultonov A.Qodiriy ijodini yangicha sharoitda zamonning adabiy siyosatiga va o'zining o'sha ijtimoiy-siyosiy muhitga muvofiq keladigan filologik bilimiga moslab talqin etdi. Dushmanga aylantirib qo'yilgan adibni do'stlar qatoriga qo'yish, «qora»ni oqartirish jarayoni oson kechmadi¹.

Izzat Sulton mazkur maqola va romanning yangi nashridagi so'zboshidan keyin ham adib ijodiga doir izlanishlarini davom ettirdi, 1962-yilda «Abdulla Qodiriy» ilmiy tadqiqotini yaratdi. Bu tadqiqot uning A.Qodiriy haqidagi oldingi qarashlaridan keskin farq qiladi. Bunda u roman so'zboshisidagi o'ta tanqidiy qarashlardan ma'lum darajada chekindi hamda A.Qodiriy ijodini keng qamrovli tadqiq qilishga intiladi.

I.Sulton adibning mafkuraviy shakllanishida jadidizmning alohida o'rni bo'lganini ta'kidlab, 60-yillardayoq bu oqim haqida ayrim to'g'ri va haqqoniy fikrlarni aytishga jur'at etdi. Vaholanki, o'sha davrlarda komfirqa jadidizmga nisbatan nihoyatda noxush siyosat yurgizib kelgan. Shu ma'noda Izzat Sulton davr farzandi sifatida 60-yillar boshida jadidizm haqida to'g'ri fikrlar aytish bilan cheklana olmas, balki bu oqimning «zararli» tomonlari haqida ham yozmasligi mumkin emasdi. Jadidizmga nisbatan hukmron mafkura munosabati buni taqozo etardi. Shu sababli Izzat Sulton jadidlarning eng kuchli namoyandalariidan sanaluvchi Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatini jadidizmdagi o'ng qanot hisoblab, uning guruhiga mansub namoyandalarni, «reaksion qanot» deb hisoblab, A.Qodiriy ham 10-yillarda ma'lum darajada M. Behbudiy ta'sirida bo'lganligini qayd etdi. Istiqlol arafalari va, ayniqsa, Mustaqillik davriga kelib yaratilgan yangi tadqiqotlarda jadidchilikda kuchli o'ng qanot yoki zaf' so'l qanotlar bo'lmagani, umumiy maqsad yo'lida ular ma'rifat va madaniyatni yo'lga qo'yish, xalqni yoppasiga savodxon qilish, ozodlik va milliy istiqlol uchun kurashganlari ayonlashadi. Endilikda jadidchilik haqida ko'p yozishmoqda, unga odilona baho berilmoqda. Lekin Izzat

¹ Behbudir Karim. Abdulla Qodiriy. — T.: Fan, 2006, 78-bet.

Sultonning jadidchilik haqida bundan yarim asar avvalgi ayrim qarashlari hamon o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. U maqolasida «A. Qodiriy dunyoqarashida revolutsiyadan ilgari jadidizmning ta'siri bo'lganligi ham yozuvchining sovet davridagi g'oyaviy va ijodiy yo'lini murakkablashtiradi»¹, deb yozganda mutlaqo haq edi. A. Qodiriyga qo'ygan da'volari adolat nuqtayi nazaridan noto'g'ri edi. Binobarin, I. Sulton to'g'ri ta'kidlaganidek, A. Qodiriyga marksizm-leninizmni chuqur egallamaganlikda qo'yilgan ayblar sho'ro davrida bir qadar adolatsizlik namunasidek ko'ringan esa-da, aslida bu fikrda jon yo'q emasdi. A. Qodiriy chindan ham bu ta'limotni chuqur egallagani yo'q edi. Zero, bu uning kamchiligi emas, sharofati edi. Yozuvchi badiiy tasvirda realizm yo'lidan borib, o'zi tanlagan tarixiy voqea va qahramonlarni umumlashtirib, hayot va turmush tarzini sun'iy lashtirmasdan haqqoniy qalamga ola bildi. Shu tufayli jahon adabiyoti tarixidan o'ziga munosib o'rin oldi.

A. Qodiriyning ijodiy yo'li masalasi O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin yanada oydinlashdi, uning sotsialistik realizm metodida yozgan-yozmaganligini tadqiq qilishga nuqta qo'yildi. A. Qodiriy badiiy asarning realistik kuchi yanada aniqroq namoyon bo'la boshladi. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, A. Qodiriy ijodini sho'rolar davrida o'rganishda I. Sulton to'g'ri yo'l tutgan edi. I. Sulton keyingi davr qodiriyshunosligi rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. A. Aliyev, S. Mirvaliyev, U. Normatov, B. Karimov tadqiqotlarida ustoz qarashlari yanada rivojlantirildi.

I. Sulton rahbarligi va bevosita ishtirokida yaratilgan ikki jildlik akademik «Adabiyot nazariyasi», oliy o'quv yurti talabalari uchun yozilib, qayta-qayta nashr etilgan yangi «Adabiyot nazariyasi» darsligi o'z vaqtida o'zbek adabiyotshunosligining jiddiy yutuqlari sifatida e'tirof etildi.

Davr, zamon, inson, mezonlar yangilanmoqda. Shu ma'noda bu yo'nalishdagi tadqiqot va darsliklar yangilanishiga ehtiyoj tug'ilmoqda. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, akademik I. Sultonning adabiyot va adabiyotshunoslik yo'lidagi xizmatlari hamisha e'tiborga loyiq bo'lib qolaveradi.

I. Sulton mustaqillikka erishgandan keyin ham barakali ijod etdi. To'qson yoshni qoralaganda, Bahouddin Naqshbandiy hayotiga oid tadqiqot va istiqloq mafkurasiga asoslangan qator maqolalar yaratdi.

¹ *Izzat Sulton*. Hayot, adabiyot, mahorat. 338-bet.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik tadqiqotchisi, hassos navoiy-shunos, atoqli adabiyot nazariyotchisi, yangi avlod vakillari ustoz sifatida milliy adabiyot, madaniyat va ilmga fidoyilik namunalari ko'rsatdi.

Izzat Sultonov 2001-yilda vafot etdi.

Tayanch tushunchalar: realizm, tanqidiy realizm, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, «Adabiyot nazariyasi», adabiyot tarixi, tip, romantizm, hayot haqiqati, tarixiy haqiqat, badiiy to'qima, umumlashtirish, ijodiy metod, «Navoiyning qalb daftari», «O'tkan kunlar» romani.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Izzat Sultonning hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz? Uning ko'p qirrali ijodkorligini tavsiflang.
2. Tanqidchining A.Qodiriy ijodiga munosabati qanday bo'lgan?
3. Izzat Sultonning adabiy jarayonga bag'ishlangan maqolalari haqida gapiring.
4. 20-yillardagi o'zbek adabiyotiga oid qarashlari mohiyatini oching.
5. Ijodiy metodga oid qarashlarini izohlang.
6. «Hayot va mahorat» maqolasi haqida nimalar bilasiz?

— 

HOMIL YOQUBOV (1907–1998)

REJA:

1. H.Yoqubovning hayoti va ijodi.
2. Oybek ijodining yirik tadqiqotchisi.
3. Tanqidchi va adabiy jarayon.



Homil Yoqubovning hayoti va ijodi. XX asr o'zbek tanqidi va adabiyotshunosligi tarixida H. Yoqubov katta o'rin tutadi. Tanqidchilikka dastlabki maqolalari bilan oq yorqin iste'dod sifatida kirib kelgan olim adabiy jarayonda tezda mustahkam o'rin egalladi.

Filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi Respublika davlat mukofoti sovrindori H.Yoqubov O'zbekistondagi adabiyot ilmi ravnaqiga munosib hissa qo'shgan

zabardast olim 1907-yili Toshkent shahrida tug'ildi. Dastlab Alisher Navoiy nomidagi pedagogika bilim yurtida, so'ng O'rta Osiyo davlat universitetining iqtisod fakultetida tahsil oldi. Lekin adabiyotga cheksiz muhabbat, buyuk o'zbek adibi Oybek bilan o'smirlikdagi do'stlik uni adabiyot olamiga yetakladi. O'rta maktablarda, respublika oliy o'quv yurtlarida o'zbek adabiyotidan dars berdi. Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik instituti aspiranturasida tahsil oldi (1944–1947). L.K.Borovkov rahbarligida Turdi ijodi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1948-yildan umrining oxirigacha O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, bo'lim mudiri lavozimlarida ishladi. U realistik o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidining shakllanishi va taraqqiyotini ta'minlashda, ilmiy-estetik tafakkur rivojida so'nggi nafasigacha xizmat qildi. «Olim o'zining ilk taqriz va maqolalari bilan o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchilarining birinchi avlodi orasida istiqboli porloq navqiron talant sohibi sifatida tanila bordi va erta e'tirof etildi. O'zi mansub

avlod vakillari esa unga katta davraning eng to'rlaridan joy beradilar. Aytaylik, Oybek o'zi mansub avlod-tengdosh san'atkorlar orasida qanday mavqeni ishg'ol etgan bo'lsa, Homil Yoqubov ham o'z tengdoshlari-adabiyotshunoslar va tanqidchilar orasida xuddi shunday faxrli o'rinni egallab kelyapti»¹.

«Oybek va uning she'rlari» nomi ostida ilk taqrizi shoirning dastlabki she'r to'plamlaridan biri — «Ko'ngil naylari»ga bag'ishlandi (1929). G'afur G'ulomning hikoyalar to'plamiga yozgan taqrizi (1932) uning nasriy asarlar tahlilida ham nozik did egasi ekanini ko'rsatdi. Ilk taqrizlar H.Yoqubovning ijodkor tabiati va asardagi xos jihatlarni aniq payqash qobiliyatidan darak beradi.

Munaqqid o'z ijodida mumtoz va XX asr o'zbek adabiyoti tarixini o'rganish metodologiyasini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratdi. Mumtoz adabiyot masalalarini, uning atoqli vakillari ijodini ilmiy tadqiq etish ham diqqat markaziga ko'cha boshladi. Yosh olimning tadqiqot obyekti tobora kengayib, ilmiy saviyasi chuqurlashib bordi. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning Bobur va Turdi, Muqimiy hayoti, ijodi haqidagi ishlarni eslash kifoya.

40-yillardan boshlab, H.Yoqubov iqtidori o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalari ijodini, adabiy janrlarni, turli muammolarni o'rganishda namoyon bo'ldi. «Abdulla Qahhor novellalari» nomli (1946) «Sharq yulduzi» jurnalining bir necha sonlarida bosilgan kattagina maqolasida «o'zbek Chexovi» ijodi o'zbek tanqidchiligida birinchilar qatorida atroflicha tahlil etildi.

30-yillar o'rtalarida yaratgan «G'afur G'ulom ijodiyoti» tadqiqoti va 50-yillar avvalida bosilgan «G'afur G'ulom haqida tanqidiy-biografik ocherk» (1953) ni qiyoslash san'atkor ijodi olim tomonidan muntazam kuzatib borilganini hamda san'atkor ijodidagi takomil munaqqid mahoratining o'suviga ta'sir ko'rsatib borganiga dalil bo'la oladi. Olim bu yo'nalishdagi izlanishlarini davom ettirdi. Ilmiy tadqiqot xarakteridagi «G'afur G'ulom hayoti va ijodi» (1959) nomli yirik monografiyasi chop etildi. Kitob buyuk shoir ijodi haqida o'zbek tanqidi va adabiyotshunosligida chop etilgan dastlabki salmoqli ishlar-dan biri bo'lib qoldi.

«Adabiy maqolalar» (1970) nomli yirik to'plamning bir bobini ham «G'afur G'ulom» deb ataladi. Har bir ishda shoir ijodining yangi-yangi qirralari ko'rsatib borildi. Munaqqid faoliyatining yetakchi xusu-

¹ Quljonov A. Ilm va ijod olamida. — T.: 1960, 6-bet.

ilyati tarzida inkishof topdi. Umuman olganda, o'zbek adabiyotshunosligining uzviy qismi g'afur g'ulomshunoslikka asos solinishi, birinchi navbatda, Homil Yoqubov nomi bilan bog'liqdir.

Hamid Olimjon va Uyg'unning 30-yillar ikkinchi yarmigacha bo'lgan ijodini tadqiq etgan H.Yoqubov ishlari keyinchalik vujudga kelajak qator ishlarga mustahkam zamin bo'ldi. Bu ijodkorlar haqida keyinchalik yozgan qator maqolalari H.Yoqubovning ehtirosiga boy, nozik lirik tadqiqotchi ekanini ko'rsatib turadi. Unga Hamza, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un poeziyasini, keyinroq A.Qodiriy va Hamza asarlarini katta muhabbat va ilhom bilan tahlil etib, ichdan nurlantirish nasib etdi.

Oybek ijodining yirik tadqiqotchisi. 1950–1970-yillardan boshlab, H. Yoqubov ulkan adib Oybek ijodini keng yo'sinda tadqiq etish ishiga kirishdi. 20-yillar oxirida bu borada ayrim maqola, taqrizlar yoza boshlagan olim ijodida 30-yillardan bu yo'nalish tizimli tus oldi. 40-yillar oxirlariga kelib Oybek ijodiga doir jiddiy ishlarga kirishdi. «Yozuvchi Oybek», «Oybek», «Oybek prozasida badiiy tasvir» kabi o'nlab maqolalari shuning natijasi sifatida yuzaga keldi. Uzoq yillik izlanishlar yakuni sifatida monografik ko'rinishdagi «Oybek. Tanqidiy-biografik ocherk» (1955) maydonga keldi.

Oybekka bag'ishlangan navbatdagi monografiya bosildi. Tadqiqot nafaqat olim ijodi, balki o'zbek adabiyotshunosligining muhim yutug'i deb baholandi. Bu sohadagi ishlarni umumiashtirib, «Oybek lirikasida g'oyaviylik va mahorat» (1963), «Adibning mahorati»(1966) nomli yirik tadqiqotlar yaratildi. Bu asarlar asosida yoqlangan dissertatsiya uchun olimga 1966- yili filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi berildi.

Oybek lirikasida epik unsurlarning kuchayib borishi munosabati bilan poemalari vujudga kelgani chuqur tadqiq etildi va ilmiy asoslandi. Poemalardagi romantik va realistik asoslar, usubiy xususiyatlar izchil tahlil etildi.

«Qutlug' qon», «Navoiy», «Oltin vodiydan shabadalar» singari romanlarda, «Nur qidirib» va «Bolalik» qissalarida namoyon bo'luvchi adib mahorati va uning tadrijiy o'sish yo'llari yoritildi. Olim Oybek nasriy asarlarini o'rganar ekan, ularning yaratilish tarixiga ham e'tibor beradi va har bir asarning tarixiy sharoit, zamon, davr, xalq bilan aloqadorligini tekshiradi.

Olimning «Oybek lirikasida g'oyaviylik va mahorat», «Adib mahorati» asarlari XX asr ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi kamolotini belgilovchi tadqiqotlar qatorida turadi.

Tanqidchi va adabiy jarayon. H.Yoqubov adabiy-tanqidiy qarashlarida adabiyotning xalqchilligi va badiiyligi, an'ana va adabiy merosga munosabat, milliylik va adabiy hamkorlik, lirika, konflikt, qahramon masalalariga bag'ishlangan maqolalari muhim o'rin egallaydi. Uning «Lirikada konflikt», «Adabiy merosimizni chuqur o'rganaylik», «Lirikada zamondoshimiz nafasi», «Haqiqiy novatorlik uchun», «Tanqid va adabiyotshunoslik tarixiga bir nazar», «Navoiy va o'zbek sovet adabiyoti», «Tipik sharoit va tipik xarakter» kabi tadqiqotlari dolzarb masalalar tahliliga bag'ishlangani, ularda munaqqidning muammoga yondashuv tarzi va masalani yoritish uslubi yaqqol namoyon bo'lib turadi. Olim mazkur maqolalarda e'tibor berayotgan masalaning yangi qirralarini ochadi, ayniqsa, dabdababozlik, madhiyabozlik, ko'zbe'yamachilikka qarshi chuqur ilmiylik, bosqlik bilan kurash olib boradi.

H.Yoqubov maqolalari, tadqiqotlari o'zbek adabiy tanqidchiligidaning yangi bosqichga ko'tariluviga faol ta'sir etdi. O'sish, o'zgarish belgilari sifatidagi fikrlari, ayrim yangilanishlar, avvalgilariga qaraganda mohiyatan ba'zi bir o'zgacha qarashlar (masalan, «Navoiy» romani munosabati hamda Oybekning dastlabki lirik asarlari haqida) ko'rinib tursa-da, H.Yoqubov, asosan, sobit fikrli munaqqid sifatida shuhrat topdi va shu jihati bilan adabiy jarayonga ta'sir o'tkaza oldi. Bu hol uning, ayniqsa, she'riyat taraqqiyotiga oid maqolalarida yaqqol ko'zga tashlandi. Uning, ayniqsa, «Lirikada konflikt» va «Lirikada zamondoshimiz nafasi» maqolalarida bu janrning o'zbek tanqidchiligida shu vaqtgacha ko'p ham yoritilmagan, ochilmagan qirralari ko'rsatildi, lirik she'rlarda aks etgan shu xususiyatlar nuqtayi nazaridan tahlil etildi, yutuq va kamchiliklar aniq dalillar asosida belgilandi. Bu hol H.Yoqubov qarashlarining adabiy jarayonga ta'sirini oshirdi: «Lirik asarda obrazning harakati keng ravishda rivojlantirilmaydi, voqealar tez-tez almashinib turmaydi, qahramonlar turli-tuman holatlarda, har xil kishilar bilan bo'lgan munosabatlarda o'zini ko'rsata bermaydi, deya yozadi H.Yoqubov. — Dramatik fabula izchil ochilib bormaydi, voqea sodir bo'layotgan sharoit, jonli xarakterning takomili, xarakterlarni bir-biriga qarshi qo'yish atroflicha tasvirlanmaydi. Lirik she'riyat asosini shoirning kechinmalari uning his va tuyg'ulari, orzu va intilishlari, fikr va umidlari tashkil etadi. Lirikada hayot hayajon bilan his qilingan, qalbdan o'tgan, subyektivlashgan holda gavdalanaadi. Lirikaning predmeti xuddi kechinmalarning o'zginasidir. Lirikada voqelik va hayotning turli tomonlari shoirning ularga qizg'in muno-

sabati tarzida ochiladi, ya'ni hayot uning o'z shaxsiy kechinmalari yuragi orqali ko'rsatganday bo'ladi¹. Bu qarashlar davr lirikasi takomiliga so'zsiz ta'sirini ko'rsatdi. O'zbek she'riyatidagi, ayniqsa, lirikadagi konflikt tabiatiga doir uning qarashlari nainki o'zbek tanqidchiligi, balki shoirlar uchun ham muayyan yangi qarashlar sifatida qabul qilindi.

Bunday qarashlar lirikada zamondosh obrazini estetik tahlil etish jarayonida ham ko'rinadi. U G'afur G'ulom, Uyg'un, Mirtemir, Mirmuhsin, Asqad Muxtor, Shayxzoda, Hamid G'ulom, M. Boboyev she'rlarini tahlil qilar ekan, ular ijodidagi tafakkurning o'tkirligi, go'zallik tuyg'usining kuchlilikini chuqur his etadi, poetik obrazlar mohiyatini noziklik bilan aniqlaydi, kamchiliklarni ham aniq va tiniq belgilaydi. Masalan, u G'.G'ulom ijodida ayrim balandparvozlilik, M. Shayxzoda she'rlarida ba'zi tarqoqlik, Uyg'un she'rlarida ritorik va'zxonlik unsurlari ko'pligini misollar bilan asoslab, ko'rsatadi.

H. Yoqubovning o'zbek adabiy tanqidi tug'ilishi, shakllanishi va taraqqiyotini umumlashtirgan holda tadqiq etgan ishi muhim ahamiyatga ega. U XX asr tongidagi o'zbek tanqidiy tafakkuri kurtaklari Furqat, Muqimiy qarashlarida, Sattorxon mulohazalarida degan xulosaga keladi. Uning fikricha, M. Behbudiy, S. Ayniy, M. Shermuhammedovlar qarashlari asosida matbuotdagi o'zbek tanqidchiligi ko'z ocha boshladi va asrning 10-yillari o'rtasidan 30-yillar avvaligacha o'zbek adabiy tanqidchiligining ilk bosqichi yuzaga keldi. 20-yillardagi taqriz, maqola, tanqidiy mulohazalari bilan uning tamal toshini qo'ygan A. Sa'diy, N. To'raqulov, Ayn (Olim Sharafiddinov), Otajon Hoshim, L. Olimiy, Sotti Husayn, J. Boybo'latov, U. Eshonxo'jayev, Vadud Mahmud, Fitrat, Cho'lpon, S. Ayniy, Botu, Oltoy, A. Majidiy, Ziyoy Said, Hamid Olimjon, Uyg'un, Anqaboy, U. Ismoilov kabi ziyoli, adib va munaqqidlar faoliyatiga baho beradi.

20-yillarda faoliyat ko'rsatgan «Chig'atoy gurungi» va so'ngroq tashkil etilgan «Qizil qalam» jamiyatining ishlarini tahlil etadi. Davrning A. Sa'diy, Fitrat, S. Husayn, Olim Sharafiddinov, Oybek kabi ko'zga ko'ringan arboblari ijodi tahlili asosida 20-yillar tanqidchiligining shakllanish jarayonlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Umuman, H. Yoqubov o'zbek tanqidchiligidagi muhim yo'nalishlar haqida fikr yuritib, qator g'oyaviy-estetik va nazariy masalalarni

¹ Yoqubov H. Saylanma. Ikki jildlik. 1- jild. — T.: 1983. 94-bet.

o'rtaga tashladi, tanqidchi va adabiyotshunoslar badiiy mahorati, individual uslubi bilan bog'liq muammolarni keng ko'lamda o'rgandi.

H.Yoqubov ko'p yillar mobaynida oliy o'quv yurtlarida adabiyot-dan dars berdi. Qator darslik, qo'llanma, majmua, o'quv dasturlari yaratdi. U ikki tomlik «O'zbek sovet adabiyoti tarixi ocherklari» (1961–1962), «Istoriya uzbekskoy sovetskoy literaturi» (1967), uch tomlik «O'zbek sovet adabiyoti tarixi» (1968–1972) va boshqa fundamental tadqiqotlar yaratilishiga rahbarlik qildi. Olim Beruniy nomidagi respublika Davlat mukofoti sovrindori bo'ldi (1967). «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi» degan yuksak unvon bilan taqdirlandi (1968).

Munaqqid 1935-yilda Cho'lponning «Soz» to'plamiga taqriz yozib, shoir batamom qoralanib turgan bir sharoitda u haqda qator ijobiy mulohazalar aytishga jur'at etgan edi. Hayot shomida, 90 yoshlari arafasida, endi Mustaqillik sharoitlarida u yana Cho'lpon ijodiga murojaat etdi. Cho'lpon va Navoiyga bag'ishlangan risolasini e'lon qildi hamda adabiyotga, adolatga sadoqat namunalarini ko'rsatib ketdi.

Tayanch tushunchalar: adabiy tanqidning tug'ilishi va shakllanishi, g'oyaviylik va mahorat, yuksak ideal, adabiy tanqidda mahorat, lirikada konflikt, tarixiylik tamoyili, epik alomat, nazariy qarashlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. H. Yoqubovning hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?
2. Olim G'.G'ulom ijodini o'rganishga qanday hissa qo'shdi?
3. H.Yoqubov oybekshunoslikda qanday muvaffaqiyatlarga erishdi?
4. Munaqqidning adabiy jarayonga bog'liq maqolalarini tahlil qiling.
5. Olimning adabiy tanqidning shakllanishi va taraqqiyoti borasidagi tadqiqotlarining ahamiyati nimalardan iborat?
6. Munaqqidning zamondoshiari haqidagi qarashlari qaysi ishlarida aks etgan?
7. H.Yoqubovning o'ziga xos uslubi nimalarda namoyon bo'ladi?



MATYOQUB QO'SHJONOV (1918–2005)

REJA:

1. Munaqqidning ilmiy-ijodiy yo'li.
2. Qodiriyshunoslik sahifalaridagi yog'dular.
3. Oybek ijodi tanqidchi nigohida.
4. A.Qahhor ijodining tolmas tadqiqotchisi.
5. Adabiy portretnavis mahorati.



Munaqqidning ilmiy-ijodiy yo'li. Yetuk tanqidchi va adabiyotshunos, O'zR FA haqiqiy a'zosi, Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor M.Qo'shjonov o'zbek tanqidchiligida fikrlash tarzi va ifoda uslubi, jangovar haqgo'yligi, sermahsul va salmoqdor tadqiqotlari bilan alohida ajralib turadi. U jahon va rus tanqidchiligi estetik an'alarini ijodiy o'zlashtirib, yangi sharoitlarda o'zbek adabiyoti muammolari tadqiqi va tahlilida davom ettirgan munaqqiddir.

Bizga taqdir ikki buyuk tanqidchi – Ozod Sharafiddinov va Matyoqub Qo'shjonovni nasib etdi. Ularning har ikkovi ham ijodini jasorat bilan boshlab, o'ziga xos ravishdagi jasorat bilan tugatdilar. Agar jahon adabiy tanqidchiligi antologiyasi chop etilsa, ularning har ikkovi ijodidan namunlar kiritilsa, har tomonlama adolatli ish bo'lar edi. Haqiqatan ham M.Qo'shjonov jahon va rus tanqidchilari estetik tamoyillarini ijodiy o'zlashtirib, o'ziga xos sharoitda, o'zbek adabiyoti materiallari asosida davom ettirgan jasoratli ijodkor-munaqqiddir.

M.Qo'shjonov Turkmanistonning Toshhovuz tumanidagi Hallang qishlog'ida 1918-yilning 5-mayida cho'pon oilasida tug'ildi. To'liqsiz o'rta ma'lumot olgandan so'ng Chorjo'ydagi o'qituvchilar tayyorlash bilim yurti va qisqa muddat pedagogika institutida tahsil oldi. 1942-yilgacha Toshhovuzdagi o'rta maktabda o'zbek tili va adabiyotidan

dars berdi. Ikkinchi jahon urushida qatnashib, **chapidast snayper** sifatida jang qildi. Jasorati uchun orden va medallar bilan mukofotlandi. Urushdan qaytgach, O'rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetiga kirib, uni imtiyozli diplom bilan tugatdi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida mas'ul lavozimda ishladi (1950–1953). Moskvadagi Ijtimoiy Fanlar akademiyasiga o'qishga tavsiya etiladi (1953). Tahsil davomida qobiliyati va fikrlash doirasining kengligi bilan safdoshlari orasida ajralib turdi. O'qishni tugatib qaytgach, O'rta Osiyo universiteti filologiya fakultetining o'zbek adabiyoti kafedrasida ishladi (1957–1960).

Talabalarga ma'ruza o'qidi. Ma'ruzalarga shu qadar jiddiy tayyorlanardiki, matnlarning aksari to'liq holda matbuot sahifalarida alohida-alohida maqola tarzida bosildi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutiga katta ilmiy xodim bo'lib ishga o'tdi (1960), u yerda ilmiy xodim, bo'lim mudiridan direktorlikkacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

M.Qo'shjonovning adabiy tanqidchilik faoliyati Ijtimoiy Fanlar akademiyasida tahsil olayotgan paytlarida boshlandi. 1956-yili gazetada «Bir tanqidiy-biografik ocherk haqida» nomli birinchi taqrizi e'lon qilindi. Adabiy tanqidchi bo'lishdek qiyin sohaning mas'uliyatini chuqur his etgan yosh olimning bu taqrizi uning istiqbolini yorqin ko'rsatib turardi.

U asta-sekin nainki adibning, balki o'zining ham mahorati haqida o'ylaydigan tanqidchi, nazariya masalalariga alohida e'tibor bilan qarovchi, estetik qarashlarini obrazli ifodalashga intiladigan adabiy tanqidchi sifatlarini namoyon eta bordi.

O'z asarlarida ijodkorlar badiiy mahorati masalasiga ko'proq diqqatini qaratdi. Uning tadqiqotlarida xulosa chiqarishga nisbatan asarni xolisona, aniq tahlil qilib, o'quvchi muhokamasiga havola etish xususiyati ustundir.

Tanqidchi o'quvchiga o'z tayyor xulosalarini quruq taqdim etib qolmasdan, uni ham faol fikr yuritishga da'vat etadiki, bu uning ijodkorligidan dalolat beradi.

Olimning dastlabki bosqich ijodida Oybek romanlaridagi shakl va mazmun birligi masalasiga sotsialistik realizm nuqtayi nazaridan yondoshilgan bo'lsa-da, umuman, o'zbek adiblari ijodiga maxsus shu muammo – adabiyot va estetikaning eng muhim masalalaridan biriga maxsus yondashuv M.Qo'shjonovning shu maqolalaridan boshlandi, deyish mumkin.

Olimning «Ma'no va mezon» (1974), «Mohiyat va badiiyat» (1977), rus tilidagi «Talant qirralari» (1975), «Oybek» (1976), «Mahorat mas'uliyati» (1977) nomli kitoblari hozirgi o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining prinsiplar yutuqlari bo'lib qoldi. «Ma'no va mezon», «Talant qirralari» kitoblari Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Olimga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi» degan yuksak unvon berildi (1978). O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir (1979) va 2000-yildan haqiqiy a'zozligiga saylandi.

M.Qo'shjonov tanqidiy qarashlarining shakllanishida rus tanqidchilari ta'siri katta bo'ldi. Tanqidchi tahlilga kirishar ekan, ko'p hollarda V.Belinskiy uslubiga xos yo'l tutib, fikrni asar haqida ma'lumot berishdan boshlaydi. Bu esa munosabat asarlarining o'qishli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydigan muhim omilga aylanadi.

U haqda shunday yozadi: «Tanqidchilarimiz obrazlarni tanqidiy yo'l bilan qayta tiklash priyomini egallab oldilar. Yozuvchi badiiy asar yaratib, kitobxonni o'z g'oyasiga bir marta sherik qilsa, tanqidchi o'sha asarni tahlil qila turib, asar g'oyasiga, estetik qiymatiga kitobxonni ikkinchi bor sherik qiladigan bo'ldi. Shu yo'l bilan tanqidchi asarning ta'sir kuchini oshiradigan, adabiyotning kuchiga kuch qo'shadigan bo'ldi»¹.

Maqoladan asarda, matn mohiyatida yashiringan fikrlarni anglash, yozuvchi mahorati sirlarini idrok etish esa, o'qilayotgan ish qadr-qimmatini yanada oshiradi.

Belinskiy uslubiga xos bu fazilat M.Qo'shjonovning tanqidchilik mahoratiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Bunday uslubni munosabatning 70-yillar o'zbek nasridagi kompozitsiya muammolari o'rganilgan qator maqolalarida, xususan, «Ma'no va mezon» nomli adabiy-tanqidiy maqolalar to'plamida ko'rish mumkin. Shu tufayli M.Qo'shjonovning U.Nazarov, O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev, O.Muxtor, Z.A'lam asarlari tahliliga bag'ishlangan ilmiy-tanqidiy ishlarida shu uslub yorqin sezilib turadi.

M.Qo'shjonov mahoratiga xos fazilat shundaki, u badiiy asar tahlilida sof ilmiy akademizm usulini qo'llamaydi, o'quvchi zavqlanib o'qiydigan, zerikmaydigan uslubiy yo'nalish tanlaydi. Bu esa uning san'at asariga, umuman, adabiyotga ilmiy-estetik tamoyillar asosida yondashishini namoyon etadi.

¹ Qo'shjonov M. Qalb va qiyofa. — T.: 1979, 62-bet.

Bu narsa, birinchi navbatda, munaqqidning har bir badiiy asarini hayot bilan qiyoslashida, unga suyangan holda inson hayoti haqida, uning ichki olami, muammolari, ma'naviy va axloqiy masalalariga, to'g'risida keng fikr yuritishida ko'rinadi.

Qodiriyshunoslik sahifalaridagi yog'dular. O'tgan salkam yuz yil mobaynida qodiriyshunoslik o'zbek tanqidchiligining muhim tarmog'i va mustahkam tarkibiy qismi sifatida qaror topdi. Bu yo'nalishda o'z kuchini sinab ko'rmagan, Qodiriy ijodidagi yangi bir qirrani ochishga harakat qilmagan, yoxud uning noyob asarlarini o'qib, u haqdagi hayajon va muhabbatini o'zgalarga ma'lum qilishni istamagan tanqidchi o'zbek adibi va adabiyotshunosni topish qiyin. Bu yo'nalishda, ayniqsa, Oybek, S. Husayn, I. Sulton, H. Yoqubov, M. Qo'shjonovlar salmoqli ishlar yaratdilar. A. Aliyev, I. Mirzayev, F. Nasriddinov, U. Normatov, S. Mirvaliyev, B. Karimov va boshqalarning mehnati barakali bo'ldi.

A. Qodiriy san'ati va mahoratini o'rganish M. Qo'shjonov ijodining markaziy muammolaridan birini tashkil etdi. Uning «Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati» nomli asari adib ijodi nozik did va nafosat bilan, bor go'zalliklari va qudrati bilan tahlil etilgan o'zbek adabiyotshunosligidagi dastlabki fundamental tadqiqot sifatida XX asr o'zbek tanqidida mustahkam o'rin egalladi.

Olim A. Qodiriyning xarakter yaratish mahorati, xarakterning shakllanish omillarini aniqlash, san'atkorlikdagi jozib nuqtalarni topish, xususan, «sir saqlash» san'atini birinchilardan bo'lib M. Qo'shjonov ko'ra oldi.

Tadqiqotda A. Qodiriyning Oybek, A. Qahhor kabi ulkan san'atkorlar ijodiga xos xususiyat «voqealarni sirli bayon etish» san'atini ko'rsatishga keng o'rin berildi. Zotan, voqealarni sirli bayon etish yozuvchiga qahramon ruhiy olamini ochishda asosiy omil bo'lib xizmat qildi, degan xulosaga keladi munaqqid. A. Qodiriy badiiy mahoratining qirralarini olim (sir saqlash, perepitiya, ichki va tashqi kolliziyalar birligi, antiteza) asardagi nainki asosiy obrazlar — Otabek va Kumush xakteri orqali ochish, balki bu ikki qahramonga kelib tutashuvchi va ularga aloqador bo'lgan, beistisno, barcha katta-kichik obrazlarni ham tahlil etish orqali ko'rsatishga intiladi.

Lekin asosiy e'tiborini Otabek va Kumushga qaratadi, albatta. Otabek va Kumush xakteri asardagi barcha hujayralarni bir-biriga bog'lovchi, harakatlantiruvchi asosiy kuch. «Romanning bosh g'oyasi asosan yetakchi obrazlarda ifodalangani uchun bu obrazlarning yara-

tilishi to'g'risida ko'proq to'xtash foydalidir. Chunki bu masala yozuvchi san'atini belgilevchi asosiy omillardandir», deb yozadi olim¹.

«O'tkan kunlar»dagi xarakterlarni tahlil qilish jarayonida M. Qo'shjonov o'z qalbida tug'ilgan his-hayajonlarni kitobxonda ham uyg'otishga intiladi: «Ota-ona orzusi! O'zbekchilikning bu odati qancha-qancha sof insoniy his va muhabbatni, insoniy go'zalliklarni o'z olovida kuydirib yubormadi. Ota-ona orzusi deb qanchadan qancha gul g'unchalari ochilmay so'ndi. Bu mudhish o'tmish sarqiti hozir ham ozod, baxtiyor yoshlarimiz oldida ba'zan g'ov bo'lib turmaydimi?» – deya achinish bilan yozadi tanqidchi Otabekning ota-ona orzusi yo'lida ikkinchi marta uylanishga majbur bo'layotganidagi ruhiy holatini tahlil etarkan. Tanqidchi qaibidagi bu iztirob tezda kitobxonga ham «yuqadi» va uning xayoliga ham yangi yog'dular sochadi.

«Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati» kitobini muallif mustaqillik yillarida qaytadan nazardan o'tkazib, ixchanlashtirib va boyitib, «O'zbekning o'zligi» nomi bilan nashr ettirdi. Tarixiylik tamoyillariga qat'iy amal qilgan tanqidchi bu kitobda o'zining qator yangi qarashlarini istiqloq mafkurasiga asoslangan holda bayon etadi. Bu asar mustaqillik ruhi bilan sug'orilganligi, A. Qodiriy ijodining bugungi zamonamiz uchun ahamiyatli jihatlariga e'tibor berilishi bilan diqqatga sazovordir.

M. Qo'shjonov buyuk adib Abdulla Qodiriy asarlarini katta e'tibor bilan o'rgandi, u haqda jiddiy monografik tadqiqotlar yaratdi. «Mohiyat va badiiyat» kitobining «Ustozlar sabog'i» deb nomlangan katta bo'limi A. Qodiriy, Oybek, Sh. Rashidov va Gulxaniy ijodining tahliliga bag'ishlangan.

M. Qo'shjonov ko'pincha o'z ijodini yirik va o'lmas siymolar bilan bog'ladi. Hamza, S. Ayniy, Oybek, A. Qahhor kabi adiblar ijodi haqida salmoqdor, ko'lamli va teran tadqiqotlar yaratdi. 60–80-yillar nasriga xos qator tamoyillarni ochib berdi, ayni zamonda konflikt, sujet, kompozitsiya kabi nazariy masalalarga oid umri uzoq maqolalar, tadqiqotlar yaratdi.

Oybek ijodi tanqidchi nigohida. M. Qo'shjonovning tanqidchilikka kirib kelishidagi dastlabki e'tiborli maqolalaridan biri A. Muxtorning «Opa-singillar» romaniga bag'ishlandi. Lekin munaqqid nomini kitobxonga tanitgan, ya'ni darhol tilga tushgan ishlardan biri «Qutlug'qon» to'g'risidagi katta maqola bo'ldi. Boshqa ko'p fazilatlaridan

¹ Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. – T.: 1994, 8-bet.

tushqari oddiy o'zbek yigiti Yo'lchi xarakterining shakllanish jarayoni chuqur tahlil qilingan bu maqola gazetada e'lon qilinish bilan tilga tushdi.

Shu maqoiadan boshlab M. Qo'shjonov Oybek ijodini, uning mahorat sirlarini o'rganish borasida ko'p mehnat qildi.

I. Sultonov o'tgan asr 60-yillari arafasidayoq tanqidchilarni M. Qo'shjonovdan o'mak olishga da'vat etishi bejiz emas. «Oybek romanlarida xarakterlarni tasvirlash mahorati» mavzusida rus tilida yozilgan nomzodlik dissertatsiyasining asosiy natijalari kitob holda 1959-yilda bosilib chiqdi. «Xo'sh, M. Qo'shjonov Oybek haqidagi avvalgi tadqiqotlardan so'ng oybekshunoslikda nimalarni kashf etdi? Aslida adabiyotshunos H. Yoqubov kitoblaridan keyin bu borada hammaga manzur bo'ladigan ish qilish nihoyatda ulkan mas'uliyat talab qilardi.

Bu ishni amalga oshirish uchun faqat tanqidchi talantining o'zi kifoya qilmasdi. Talantga qo'shimcha tinimsiz mehnat, yuksak did, puxta nazariy bilim kerak edi. Uzoq izlanishlar, bir necha yil Moskvaning jahonga mashhur olimlari davrasida bo'lish, klassiklar asarlarini sinchiklab o'rganish yosh olimni bu jasoratga undadi¹.

Kitobning fazilati yozuvchilik san'atining asosiy va muhim tomoni sanaluvchi xarakter yaratish mahoratining tekshirilishida ko'rindi. Asar Z. Kedrina, G. Lomidze kabi taniqli olimlar tomonidan o'zbek adabiyotshunosligining jiddiy yutug'i deb yuksak baholandi.

M. Qo'shjonov Oybek asarlari haqidagi kuzatishlarini davom ettirib, yuksak mahorat namunasi bo'lgan «Oybek mahorati» asarini yaratdi va unda, asosan, adibning nasriy ijodini tadqiq etdi. Bu asar «adabiy hodisaga faqat nazariyotchi olim ko'zi bilangina emas, balki san'atkor ko'zi bilan ham qarashning, ilmiy tafakkurni badiiy tafakkur bilan dialektik aloqada olib borish»ning go'zal namunasi bo'ldi. «Oybek mahorati» monografiyasi oybekshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi. Oybekshunoslikning yangi bosqichga ko'tarilishi, ayni vaqtda, umuman, o'zbek adabiyotshunosligining yuqori bosqichga ko'tarilayotganidan dalolatdir.

Bu kitobda ham tahlil markazida xarakter masalasi turadi. «Oybek mahorati»ning adib haqidagi boshqa tadqiqotlardan farqlanuvchi o'ziga xos fazilatidan biri shunda. Xarakter harakatining dalillash

¹ Ko'chirma O'. O'tayevning «Tahlil mahorati» maqolasidan olindi // O'TA, 1978, № 3. 74-bet.

san'atini ochishda namoyon bo'lgan A. Qodiriyga bag'ishlangan tadqiqotidagi tajriba, an'ana davom ettirilib, Oybekka doir bu ishda yangi asarlarga murojaat asosida yanada chuqurlashtirildi. Bu tadqiqot qahramon xarakteriga bog'liq holda konflikt, sujet, kompozitsiya muammolari ham uzviy birlikda o'rganilgan o'zbek adabiyotshunosligi erishgan salmoqli yutuq bo'ldi. M. Qo'shjonov Oybek she'riyatiga ko'p murojaat etmaydi. Uning poemalariga, asosan, prozaga o'tishdagi muhim sifatlarning shakllanishini belgilash nuqtayi nazaridan yondashadi.

Shu ma'noda munaqqidni Oybek she'riyatida epik xususiyatlar jalb etadi. M. Qo'shjonov ularni tahlil etar ekan, shoir she'riyatda ham yirik polotno'lar, keskin ziddiyatlar, katta sujet yaratish ustasi ekanligini ochib beradi. Bu Oybekning katta ijod maydoniga kirib kelishi uchun zamin bo'ldi deb xulosa chiqaradi.

M. Qo'shjonovning Oybek ijodi haqidagi izlanishlari izchillikka ega. Uning «Talent jilolari», «Mahorat darsi», «Ijod saboqlari» kitoblarida ham Oybek mahorati xususidagi nozik kuzatishlarga duch kelamiz. Olim Oybek asarlaridagi ayrim qahramonlarni yozuvchi shaxsi, tarjimai holi biografiyasi bilan bog'lanishda yoritishga harakat qiladi. «Qutlug' qon»dagi Yo'lchi, «Ulug' yo'l»dagi Zumrad, Umarali obrazlaridagi o'z-o'zini anglash, ruhiy-ma'naviy uyg'onishlar, so'zsiz, «yosh Oybekning o'z boshidan o'tgan» degan xulosa asar strukturasidagi o'ziga xosliklarni ochishdan tashqari u haqda kuzatishlar olib borilayotgan ilmiy ishning ham jonliligi va hayotiyligini oshirdi.

Abdulla Qahhor ijodining tolmas tadqiqotchisi. XX asr o'zbek adabiyotshunosligining tarkibiy qismi — qahhorshunoslikni ham M. Qo'shjonov tadqiqotlarisiz tasavvur etish qiyin. U A. Qahhorning deyarli barcha asarlarini, ulardagi estetik tamoyillarni keng planda, yangilanib borayotgan fikrlar asosida yangicha uslubda tahlil qildi. Bu hol A. Qahhorning ijodiy individualligini, ya'ni A. Qodiriy, Oybek va boshqa yirik nosirlar ijodidan farq qiladigan qirralarini to'laroq gavalantirish imkonini berdi. Bu, o'z navbatida, tadqiqotchini adib mahoratini chuqur va teran tadqiq qilish yo'lida jiddiy izlanishlarga undadi. «Adashganlar fojiasi» deb atalgan tadqiqot A. Qahhor ijodini, mahorat sirlarini o'rganish yo'lidagi ana shunday izlanishlar natijasi bo'ldi.

M. Qo'shjonovning «Mahorat sirlari» (1968) nomli asarida A. Qahhorning epik asarlari yuksak did bilan tahlil qilindi. Adib haqida navbatdagi «Hayot va nafasat» (1970) kitobida yozuvchining hikoyana-

vislik san'ati va dramatik asarlari o'rganildi. «Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor» asarida esa yozuvchining hajviy mahorati tadqiq etildi.

A. Qahhor muammolarga qanday yondashdi, voqelikka munosabati qanday, boshqa ijodkorlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi, talanti yo'nalishini belgilaydigan omillar nimalardan iborat? M. Qo'shjonov yuqoridagi kitoblarida ana shu masalalarga javob qidiradi va, eng asosiysi, bu murakkab muammolarni asosli dalillar bilan chiroyli uslubda ochib beradi.

Butun diqqat-e'tibor yetakchi bir nuqtaga — yozuvchining ijodiy prinsiplari nimalardan iborat ekanligini tahlil qilib berish va shu asosda uning o'ziga xosligini ko'rsatishga qaratiladi.

A. Qahhor haqidagi ishning A. Qodiriy, Oybek ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlardan farqlanuvchi ayrim xususiyatlari shundaki, tanqidchi endi asarning g'oyaviy-badiiy qimmatini belgilovchi qahramon xarakterini o'rganishdan tashqari bir qarashda oddiy kitobxon ko'ziga tashlanavermaydigan ohang va tafsilotlargacha alohida e'tibor berishga intiladi.

Bu, ayniqsa, «Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor» kitobida yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Munaqqid asarlarni qiyosiy tahlil qilish yo'lidan boradiki, bu A. Qahhor mahoratini yanada aniqroq ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Bunday yondashuv o'zbek adibini jahonga mashhur novellistlar bilan bir qatorda turadi degan xulosaga olib keladi. Ayni vaqtda, ulardan farqlanuvchi o'ziga xoslikni ham ishonarli dalilladi.

A. Qahhorning nodir xususiyatlaridan biri — hayotni, qahramonlarni ruhiy tahlil qilish mahoratiga egaligidir. M. Qo'shjonov «Sarob» va «Sinchalak»ni o'zgalarga o'xshab umuman emas, shu muammo nuqtayi nazaridan tahlil etdi.

Ularning o'ziga xosligi shu xususiyatlarda namoyon bo'ladi degan fikrga keldi. M. Qo'shjonov adibning adabiy-estetik qarashlarini o'rganishga ham alohida e'tibor berdi.

«O'tmishdan ertaklar» o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos bir yetuk avtobiografik asar ekani; Saidiy qiyofasidagi murakkablik, qarama-qarshilik, turli ruhiy iztirob faqat uning emas, davr va zamon obraziga ishora ekani; «Anor»dagi haqiqiy fojining siri; «O'g'ri»dagi yig'i va kulgi birligi; «Ming bir jon» va «Asror bobo»dagi komizm bilan fojia, mutoyiba va yumor mushtarakligi; «Bashorat», «Millatchilar», «Boshsiz odam» zaminga yashiringan yozuvchi ideali haqidagi mulohaza

va ilgari surilgan fikrlar, nainki adabiyot va tanqid rivoji, balki, ayni vaqtda kitobxon estetik didiga ham ta'sir qiladi.

M. Qo'shjonov maqola, ilmiy tadqiqotlarida fikrni obrazli ifodalash san'ati bilan kitobxon badiiy-estetik didini o'stirishga munosib hissa qo'shgan tanqidchi hisoblanadi.

Uning fikricha, «Badiiy yetuk asarga bag'ishlangan tanqidiy tahlil shundagina o'zini oqlaydiki, toki uni o'qigan odamning badiiy asardan olgan ma'lumot va estetik hissi ikki barobar oshsin». M. Qo'shjonov tadqiqotlari o'zi qo'ygan ana shu talablarga javob beradi. Uning san'atkorlarga bag'ishlangan kitoblari fazilatdan badiiy asar kabi zavq bilan o'qilishi sababi shundan.

Adabiy portretnavis mahorati. O'zbek tanqidchiligida Izzat Sulton, O. Sharafiddinov, S. Mamajonov, N. Karimov, U. Normatov, A. Rasulov singari munaqqidlar adabiy portret ustalari sifatida mashhur dirlar. M. Qo'shjonov ular safidagi peshqadamlardan biri sifatida adabiy portretlarida badiiy mahorat masalasini tadqiq markaziga qo'yishi bilan ajralib turadi.

U muayyan asardagi badiiy mahoratni tekshirish orqali ayrim muhira nazariy xulosalar chiqaradi. Munaqqid ijodida adabiy portret janri yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. U har bir asar tahlilida yozuvchidan teran hayotiylik, yuksak badiiylikni talab qiladi. Adabiy portretda ham asosiy masalaga shu nuqtayi nazardan yondashadi. Shu jihatdan M. Qo'shjonovning I. Sulton, Q. Hikmat, O. Yoqubov, P. Qodirov, Sh. Xolmirzayevga bag'ishlangan kichik-kichik adabiy portretlari, A. Oripovning «Armon» to'plamiga yozgan so'zboshisi hamda S. Meliyev bilan hamkorlikda yozgan «Abdulla Oripov» nomli kitobi xarakterlidir.

Sho'ro yillarida yaratilgan adabiy portretlarda yozuvchining faqat ijodi markazda tutilib, uning insoniy fazilatlari, hayotidagi dramatism, oila, muhit kabi masalalarga kam e'tibor berildi. Holbuki, adolat, xolislik, haqqoniylik va ilmiylik jihatidan hamda Sent-Byov alohida ta'kidlaganidek, yozuvchi ijodi va siymosi yagona ekan, uning kundalik hayoti va odatlariga ham ahamiyat berish lozim: «Meni hamisha maktublar, suhbatlar, fikrlar, xarakterlarning turli holatlari, ruhiyati, bir so'z bilan aytganda, mashhur yozuvchilar tarjimai holini o'rganish rom etib keldi»¹, — deb yozgan edi.

¹ *Сент-Бйов Шарл. Литературные портреты. Критические очерки.* — М.: Худож. Лит., 1970. — С. 313.

Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, Oybek ijodiga old portretlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, tanqidchining boshqa janrdagi tadqiqotlarida yetakchi bo'lgan — obrazlarni adabiyotshunoslik yo'li bilan qaytadan yaratish usuliga duch kelamiz.

«Nafosat shaydosi» portreti Oybek qiyofasini yaratish yo'lidagi izlanishlardan biridir. Oybek hayoti va ijodiga bag'ishlab monografiya, ilmiy-biografik ocherk, portret kabi janrlarda ko'plab tadqiqotlar yaratildi. M.Qo'shjonov asarining ulardan farqli jihati shundaki, u Oybek ijodi haqida umumlashtiruvchi xarakterdagi adabiy portretni yaratdi. Unda ham yozuvchining ijodiy qiyofasi namoyon bo'ladi, ham asarlaridagi qahramonlarning oddiy kitobxon sezmagani, payqamagan fazilatlarini butun to'liqlikda gavdalanadi.

M. Qo'shjonov yozuvchi ijodining o'ziga xosliklari, asarlarining badiiyati orqali ochiluvchi muhtasar ijodiy portretlar yaratdi. Jumladan, u I.Sulton, K.Yashin, Sh.Rashidov, Quadrat Hikmat, O.Yoqubov, P.Qodirov, A.Oripov, Sh.Xolmirzayev, O.Muxtorov portretini yaratgan ekan, har bir ijodkorning ko'pchilikka noma'lum mahorat sirlarini kashf etdi. Tanqidchi portretlari ko'pincha, o'quvchi diqqatini tezda o'ziga jalb etadigan qiziqarli usulda boshlanadi. Ba'zan adabiy portretning birinchi jumlasidanoq o'quvchi e'tiborini sirli tugunga havola etadi.

Natijada, kitobxon birinchi jumladagi sirli tezis (kod)ga ergashib, adabiy portretni o'qib qo'rganini sezmay qoladi. Masalan, H. Olimjon haqidagi portretda shoirning o'z so'zlari sarlavhaga olib chiqilgan: «Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman!», Quadrat Hikmat haqidagi adabiy portret ham «Eshiting, she'r o'qiyman» degan shoirning o'z iborasi bilan boshlanadi. Ya'ni sarlavhadanoq tanqidchi fikr yuritayotgan ijodkor asarlarining bosh konsepsiyasi yarq etib ko'zga tashlanadi.

Munaqqid har bir adabiy portreti muqaddimasida biror chiroyli tafsilot, hayotiy voqea yoki ibratli lavha keltiradi. Ular shunchaki o'quvchi diqqatini jalb etish uchun keltirilmay, ko'p o'rinlarda adabiy portret uchun «o'q ildiz, maqsadni birlashtiruvchi, ichdan umumlashtirib», ruhan yorituvchi nurli tomir» (B.Nazarov) xizmatini bajaradi. Adabiy portretni o'qib chiqqandagina, tanqidchi bu lirik chekinishni bekorga, shunchaki jimjimadorlik uchun keltirmaganligiga ishonch hosil qilamiz.

Sh.Xolmirzayev, O.Muxtorov ijodiga oid portretlar ham jonli xotiralar asosida yozilgani bilan e'tiborga loyiq.

M.Qo'shjonov bolalar adabiyotini o'rganishga ham munosib hissa qo'shdi. Q.Muhammadiy, Q.Hikmat, H.Po'lat ijodiga bag'ishlangan adabiy portretlarda bolalar adabiyoti muammolarini o'rgandi.

M. Qo'shjonovning portretnavis sifatidagi uslubini quyidagicha belgilash mumkin: 1) adabiy portretda ijodkor qiyofasi, tabiati, faoliyatini yaqqol gavdalantirish. Bu tipga Oybek, A.Qahhor, A.Oripov haqidagi adabiy portretlari kiradi; 2) portretni shu ijodkorning o'zi haqidagi fikrlari bilan to'yintirish va adibning ijodiy qiyofasini yaratishda ulardan unumli foydalanish, o'zining mulohazalari bilan omuxtalashtirib, asar yaratish. A.Qodiriy va S.Ayniy haqidagi asarlar shu tipga mansub; 3) yozuvchi yoxud shoirning butun ijodi haqida fikr yuritmay, adabiy portretga chizgilar bilan kifoyalanish. M.Sholoxov, Hamza, Asqad Muxtor va boshqalar haqidagi asarlar.

M.Qo'shjonov Sayyorning «Hulkar» romaniga yozilgan «Xayol boshqa, hayot boshqa» taqrizi hamda undagi ayovsiz tanqidiy fikrlari bilan o'zbek tanqidchiligidagi talabchanlik va prinsipiiallikning ajoyib namunasini ko'rsatdi. Ibrohim Rahimning «General Rahimov», Yusuf Shomansurning «Qora marvarid» romanlariga yozilgan taqrizlar ham shunday xarakterga ega.

Keyingi asar jiddiy qayta ishlanishii munosabati bilan tanqidchi u haqda qator ijobiy fikrlar ham aytdi.

Aytilganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, keyingi 6 yillik o'zbek adabiy tanqidchiligini M.Qo'shjonov ijodisiz to'la tasavvur etish mumkin emas. Uning xizmatlari, avvalambor, ulkan san'atkorlar mahoratini teran tahlil qilishda namoyon bo'ladi.

M.Qo'shjonov haqidagi maqolalardan biriga «Mahoratshunos olim» sarlavhasi qo'yilgan.

U o'zbek munaqqidlari orasida birinchilardan bo'lib, shunday nom oldi. Chindan-da, tanqidchi ilmiy ishlari zamirida mahorat masalasi birinchi o'rinda turadi. U adabiyot nazariyasi bilan shug'ullansa ham, tanqidchilikka oid ishga qo'l ursa ham, xalq, jamiyat manfaatini nazarda tutadi. Uning barcha ishlarida san'atkor va zamon masalasi markaziy o'rinda turadi.

Adabiy tanqid zamonaviy adabiy jarayonni atroflicha teran va chuqur tahlil etishi, uning ichki rivojlanish qonuniyatlarini istiqbol nuri bilan ko'rsatishi, ayni vaqtda, har bir ijodkor o'z imkoniyatlarini to'la darajada adabiy hodisalarga «ko'chirish»ga ko'maklashishi, iste'dodlarning to'g'ri yo'ldan borishini ta'minlashda hamroh va yelkadosh bo'lishi lozim. M.Qo'shjonovning munaqqid sifatidagi

xizmatlari ana shu xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, uning keyingi yillardagi o'zbek she'riyati, nasri xususida bildirgan fikr-mulohazalari, umumlashtiruvchi maqolalari jamoatchilik e'tiborini jalb etib kelyapti.

Masalan, uning «Ijod saboqlari» kitobida adabiyotshunoslikning qator dolzarb masalalari — ijodkor mas'uliyati, zamonaviylik va mahorat, shaxsiyat va ijod, san'atkorning ma'naviy dunyosi kabi qator jiddiy muammolar yuzasidan muhim fikr-mulohazalar bildirilgan bo'lsa, «Diydornoma» kitobida o'nlab adib, olim va davlat arboblarning yorqin va o'chmas qiyofalari gavdalantirildi.

«Ijod saboqlari» — yoshlarga o'rnatilgan bo'larli fazilatlariga boy asar. Shulardan biri, shubhasiz, tanqidchi samimiyatidir.

M. Qo'shjonovning doimo diqqat markazida bo'lib kelgan muammolardan yana biri adabiyot nazariyasi masalalaridir. Uning sujet, kompozitsiya, obraz, xarakter, g'oya kabi nazariy muammolarga bag'ishlangan maqola va tadqiqotlari o'zbek adabiyotshunosligining nazariy asoslarini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. U ikki jildlik «Adabiyot nazariyasi»ning mualliflaridan biridir.

«Adabiy tanqid ham ixtiro qiladi, ixtiro qilingan talantlarni ardoqlaydi», — M. Qo'shjonovning shiorlaridan biri mana shu fikrda mujassam. Jonkuyar tanqidchi o'zining bu tamoyiliga butun umr sodiq yashadi.

Moskvada chop etilgan «Shchedrost talanta» kitobi o'zbek tanqidchiligini O'zbekistondan yiroq-yiroqlarga tanitdi.

Mustaqillik yillarida olim shu davrgacha yaratilgan ayrim asarlarini istiqloq mafkurasi asosida qaytadan ko'rib chiqdi. Hujjatli, avtobiografik asosdagi janrlarda o'z kuchini sinab, yangi-yangi asarlar yaratdi «Ko'ngilda qolib ketgan gaplar» (2006), hatto o'zining urush yillaridagi xotiralari asosida badiiy asar ham yaratdi.

«Dagish», «Alam» singari asarlar bunga misol. Jonli xotiralar, iqrordagi badiiy publitsistik ruhdagi bunday asarlar yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda ahamiyatga egadir.

Tayanch tushunchalar: mahoratshunos olim, oybekshunoslik, qodiriyshunoslik, qahhorshunoslik, mahorat qirralari, tasvirlash san'ati, mohiyat va badiiyat, ijod saboqlari, shaxsiyat va ijod, ijodiy jarayon, ijodkor mas'uliyati, adabiy portret ustasi, psixologik tahlil, badiiy ijodda inson xarakterini yaratish muammosi, ijod laboratoriyasi, yangi tamoyillar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *M. Qo'shjonovning ilmiy-ijodiy biografiyasi haqida so'zlang.*
2. *Munaqqid ijodining mavzu va muammolar ko'lami, estetik mohiyatini tavsiflang.*
3. *Olim oybekshunoslikka qanday hissa qo'shdi? «Oybek mahorati» kitobining yaratilishi va o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat?*
4. *M. Qo'shjonov ijodiga mumtoz munaqqidlarning ta'siri qanday bo'lgan?*
5. *Olim A. Qodiriy ijodining qirralarini qanday yo'llar bilan kashf etdi?*
6. *Munaqqidning qahhorshunoslikka qo'shgan hissasi haqida so'zlang.*
7. *Tanqidchi qaysi adiblar haqida adabiy portretlar yaratgan?*
8. *M. Qo'shjonov bolalar adabiyoti vakillari hayoti haqida qanday tadqiqotlar yaraidi?*
9. *Adabiyotshunos olim badiiy asar tahliliga qaysi tamoyillar asosida yondashadi?*
10. *Munaqqidning badiiy asardagi obrazlarni qayta kashf etish mahoratini izohlang.*
11. *Sizga M. Qo'shjonovning munaqqid sifatidagi qaysi fazilatlari yoqadi? Nima uchun?*



SALOHIDDIN MAMAJONOV (1931–2005). O'zbekiston FASining akademigi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Salohiddin Mamajonovning o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligini rivojlantirishda salmoqli hissasi bor. Yigirmadan ortiq kitob, necha yuzlab sermazmun maqolalar muallifidir.

Uning tarixiylik va zamonaviylik, she'riyat poetikasi, badiiy uslub va ijodkor olami muammolari hamda Cho'lpon, H.H. Niyoziydan tortib, H.Xudoyberdiyeva, U.Azim-gacha bo'lgan o'nlab atoqli va yosh avlodga mansub ijodkorlar haqidagi tadqiqotlari XX asrning ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyotshunosligi hamda adabiy tanqidchiligi tarixida katta iz qoldirdi.

Salohiddin Mamajonov 1931-yil 15- dekabrda Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanidagi Qo'rg'ontepa qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi, o'rta maktabni tugatgandan keyin ularning oilasi Farg'ona viloyatiga ko'chib keladi va u Farg'ona pedinstitutı o'zbek tili va

adabiyoti fakultetida o'qidi (1948). Yoshligidanoq adabiyotga katta ixlos bilan yashadi.

Respublika gazeta va jurnallarida turli mavzudagi maqolalari bilan qatnashib turdi. Institutni tugatgach (1952), bir muddat o'rta maktabda o'qituvchi, keyinroq maorif bo'limida nazoratchi bo'lib ishladi. Toshkentga kelib (1954), O'zFA Til va Adabiyot instituti aspiranturasida tahsil oldi.

Akademik G'afur G'ulom ilmiy rahbarligida «30-yillar poeziyasida mehnat temasi» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasi ustida ish olib borib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi (1958).

Yosh olim elliginchi yillarning oxiridan adabiy jarayonda faol ishtirok eta boshladi. O'zining taqrizlari, maqolalari bilan adabiy muhitda ko'zga tashlandi. Ketma-ket «Shoir va zamonaviylik» (1963), «Uyg'un» (1965), «G'afur G'ulom prozasi» (1966), «G'ayratiy» (1974) asarlari, qator risolalari chop etildi.

S. Mamajonov ijodiy faoliyati, qiziqish doirasi, tadqiqot obyekti keng olimlar jumlasiga mansub. Uning tadqiqot obyekti — umuman XX asr o'zbek adabiyoti deyish mumkin. Munaqqid adabiyot taraqqiyotining qonuniyatlari va uni tashkil qilgan o'zak muammolar bilan muttasil shug'ullanib keldi. O'zbek adabiyotining yirik vakillari Cho'lpon, Elbek, G'ayratiy, G'.G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un, Sharof Rashidov, Zulfiya ijodining yetakchi tadqiqotchilaridan biri darajasiga ko'tarildi.

Tanqidchi sifatida Hamzadan boshlab to nodir iste'dod sohibi A.Oripov, Sh.Boshbekov ijodigacha faol munosabat bildirdi.

H. Olimjon haqidagi «Shoir dunyosi» kitobi rus (1972) va o'zbek (1974) tillarida chop etildi. Muallif bu asarida H.Olimjonning bosib o'tgan butun ijodiy yo'li-uning ilk to'plami «Ko'klamga kirgan she'rlaridan tortib, qator ballada va poemalarini, dramatik asari «Muqanna»ni davrma-davr, pog'onama-pog'ona tekshirdi. Bu borada shoir ijodida realizmning qaror topishi masalasiga alohida e'tibor berdi, san'atkor ijodining qudratli manbalarini izladi.

S.Mamajonov joriy adabiy jarayonda deyarli yarim asr mobaynida faollikni qo'lida saqlab kelgan tanqidchilardan biridir. Matbuotda uning adabiy munozaralari, taqriz va maqolalari muttasil bosilib turdi. Olimning «She'riyat bahsida» (1970) kitobi bir necha o'n yillik mobaynida o'zbek she'riyatidagi ahvol, undagi rang-baranglikni o'tkir bahslar, tortishuvlar asosida tadqiq va talqin etilgan o'zbek tanqidchiligidagi dastlabki asarlardan biri sanaladi.

Adabiyot ilmining jangovar jabhasi sanaluvchi adabiy tanqid S. Mamajonov faoliyatining muhim qirralaridan birini tashkil etadi. Tanqid vaqtli matbuotning o'zi kabi tezkorlik va hozirjavoblikni talab qiladi.

Adabiy jarayonni muttasil va tizimli kuzatib borgan, uning haqidagi izlanishlarini hech qachon susaytirmagan, astoydil ter to'kib mehnat qilgan S. Mamajonov ham hozirjavob munaqqiddir. Adabiy hayot oqimini kuzatib, uning taraqqiyot tamoyillarini, o'zgarish, yangilanishlarni tezda payqay olish, yangi paydo bo'layotgan asarlarni darhol va ketma-ket tahlil etish, ommaga shu xususda dastlabki ilmiy-tanqidiy fikrni yetkazish olimning yetakchi fazilatidir.

Olim tadqiqotlarida, ayni vaqtda, XX asr o'zbek adabiyotining muayyan tarixi ham kuzatiladi. Bunga uning ko'p jildlik o'zbek adabiyoti tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlaridagi, 20–30-yillardagi adabiy jarayon, o'rganilgan ishlar, ikkinchi jahon urushi davridagi o'zbek adabiyoti masalalariga bag'ishlangan (1975) kitobi dalil bo'la oladi.

Uning urush davri o'zbek adabiyoti haqidagi ishi hozirga qadar bu haqda yaratilgan asarlar orasida nisbatan to'la va keng tasavvur beruvchi yirik tadqiqotdir. Olimning bu tadqiqoti va U. O'ljaboyevning urush davri o'zbek adabiyoti haqidagi ishlari harbiy mavzudagi adabiyotimiz haqida atroflicha ma'lumot beradi. «Shoir dunyosi» va «Ulug' Vatan urushi davrida o'zbek adabiyoti» kitoblari uchun S. Mamajonov Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi (1976).

O'zbek adabiyoti tarixini monografik o'rganishda S. Mamajonovning katta hissi bor. U ko'p jildli «O'zbek sovet adabiyoti tarixi» (1971), Moskvada nashr etilgan «O'zbek sovet adabiyoti tarixi» (1970), shuningdek, «Ko'pmillatli sovet adabiyoti tarixi» (1970) fundamental tadqiqotlarining mualliflaridan biridir.

Olimning o'zbek bolalar adabiyoti, adabiyot nazariyasi, adabiyot va folklorning o'zaro munosabati masalalariga bag'ishlangan qator ishlari mavjud. «Bolalar adabiyotida zamonaviylik va mahorat masalasi» nomli salmoqli maqolasida bu sohadagi erishilgan yutuqlar ta'kidlanishi bilan birga, bolalar poeziyasi sust rivojlanayotgani, mavzu va muammolar torligi, maydakashlik uning jiddiy kamchiligi ekani ko'rsatildi.

Shuningdek, bolalar dramaturgiyasi ham kambag'al ekanligi, ularda bolalar hayotiga oid xarakterlar to'qnashuvi ko'rsatilmayotgani aniq

tahlillar asosida o'hib berildi. S.Mamajonovning mazkur maqolasi bolalar uchun yozilayotgan badiiy zaif, mazmunan sayoz, g'oyaviy sust asarlar nashr etilishining biroz bo'lsa-da, kamayishiga va o'zbek bolalar adabiyoti tanqidchiligi jonlanishiga, o'smirlar adabiyoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga turtki bo'ldi.

Bolalar adabiyoti haqidagi izlanishlari samarasi sifatida muallifning «Ezgu niyat yo'lida» (1978) kitobi chop etildi. Unda bolalar adabiyoti vakillarining qator adabiy portretlari ham yaratildi.

G'afur G'ulom ijodining teran tadqiqotchisi. S. Mamajonov ilmiy faoliyatining salmoqli va yetakchi qismini G'. G'ulom hayoti va ijodi haqidagi maqolalar va monografiyalar tashkil qiladi. To'g'ri, S. Mamajonovga qadar ham G'. G'ulom ijodi haqidagi ishlar oz emasdi. Bu borada atoqli olim H.Yoqubov xizmatlarini eslashning o'zi kifoya. Ammo G'afur G'ulom ijodi, bosib o'tgan salkam yarim asrlk yo'lni, uning qalamiga mansub barcha janrdagi asarlarni o'rganishda S.Mamajonov yangi ruh, yangicha nazariy yondashuvlar olib kirdi. Tanqidchi ijodidagi, xususan, G'. G'ulom haqidagi izlanishlaridagi ayrim zamonasozlik ruhini ham e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi, albatta.

Lekin bundan qat'i nazar, uning shoir she'riyati va nasri atroflicha o'rganilgan «Shoir va zamonaviylik» hamda «G'afur G'ulom prozasi» nomli monografiyalari o'z davrining katta yutug'i bo'ldi. Tanqidchi shoirning zamon bilan doimo hamnafas bo'lishga intilganini, zamon bilan birga ulg'ayib, birga kamol topib borganini asarlari tahlili orqali ko'rsatib berdi.

Shoir she'riyatining hozirjavobligi va faolligi ham, milliyliigi va umumjahoniyliigi ham, haqqoniyliigi va ohorliliigi ham nainki zamonaviylik, ayni vaqtda, milliy orzu-umidlar bilan ham bog'liq ekanini ochib berdi. Muallif shoir she'riyatini hozirjavoblik va badiiylik nuqtayi nazaridan o'rganar ekan, bu muammolardagi uzviy bog'liqlik masalasini o'zbek tanqidchiligiga olib kirishda O. Sharafiddinov tajribalarini yanada chuqurlashtirdi. Shu zaylda o'zbek tanqidida hozirjavoblik, g'oyaviylik, badiiylikdan iborat uchlik birikmasi tarkib topa bordi.

Buni tadqiqotchi shoirning qator asarlari, jumladan, «Vaqt», «Sog'inish», «Sen yetim emassan» kabi mashhur she'rlari tahlili asnosida ishonarli isbotladi.

O'zbek tanqidida she'riy asarlar tarixiylik va zamonaviylikdagi yaxlitlik nuqtayi nazaridan kam o'rganilgan edi. Olim G'.G'ulom

poeziyasini shu muammo asosida o'rganishga alohida e'tibor berdi. Uning talqinicha, tarixiylik faqat tarixiy o'tmishni aks ettirishdangina iborat bo'lmay, balki realistik badiiy ijodning ilmiy asosi ham bo'lib kelgan, shu kunning hayotini haqqoniy va chuqur aks ettirishda ham muhimdir.

Bunday tamoyillarning o'zbek tanqidiga olib kirilishi muayyan ma'nodagi yangilik edi. Zamonaviy voqelikni teran badiiy aks ettirish chinakam ijodda ongli tarixiylik tamoyili bo'lishini ham taqozo etdi.

«Shoir va zamonaviylik» monografiyasida G'.G'ulom ijodidagi baynalminallik g'oyalariga keng o'rin ajratildiki, bunda ham munaqqidning zamon talablari asosida fikr yuritganini nazardan qochirmaslik kerak.

Biroq shoir ijodidagi milliylik masalasiga ahamiyat berar ekan, munaqqid G'.G'ulomning tom ma'nodagi buyuk shoir ekanini qator o'rinlarda kashf etishga muvaffaq bo'ladi. Rus tanqidchisi Belinskiyning «Ulug' shoir uchun yuqori darajada milliy bo'lishdan boshqa katta sharaf yo'q, chunki busiz u ulug' bo'la olmaydi» degan fikrlariga tayangan holda shoir ijodini tahlil etdi. Qisqasi, o'zbek adabiyot-shunosligi va tanqidchiligida G'afur G'ulomning salkam yarim asrlik she'riyati yaxlit tizim holatida monografik yo'sinda ilmiy-nazariy jihatdan ilk bor shu tadqiqotda tekshirildi. Albatta, bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraganda, undagi ba'zi qarashlar birmuncha eskirganini ham aytib o'tish o'rinlidir.

Olimning «G'afur G'ulom prozasi» nomli kitobi adib nasriy asarlari atroflicha tadqiq etilishi bilan qimmatlidir. S.Mamajonov adib nasrini janrlarga bo'lib tekshirdi. Tadqiqot kompozitsiyasi ana shu tamoyil asosiga, ya'ni adib nasrini janrlarga bo'lib tekshirish asosiga qurildi. Adibning feleton, ocherk va publitsistik asarlari alohida-alohida tahlil qilindi.

Tadqiqotchi ta'kidlashicha, G'.G'ulomning jurnalistik faolligi uni feletonchilik, publitsistika va ocherkchilikdan hikoyanavislikka olib keldi. Shu tariqa muallif adib hikoyalarini tekshirishga alohida e'tibor berdi. Adib hikoyalarini satirik, yumoristik va liro-dramatik turlarga bo'lar ekan, ularning har biriga xos xususiyatlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga intildi.

G'.G'ulomning qissalari o'rganilar ekan, munaqqid poetikaning yetakchi muammolari sujet, xarakter, kompozitsiya, nutq turlari, badiiy til masalalarini markazga qo'yadi.

Tanqidchi G'.G'ulom ijodi haqida ko'p yillardan beri olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida «G'afur G'ulom mahorati» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi (1968). Bu boradagi ishlarini davom ettirib, «Uslub jilolari» nomli kitobini nashr ettirdi (1972). Bu asarda G'.G'ulomning poetik merosi bir-birlariga bog'liq uch masala atrofida tekshirildi. Ulardan biri — shoirga ta'sir ko'rsatgan omillar; ikkinchisi-shoirning o'ziga xos uslubi, mahorati; uchinchi — G'.G'ulom ijodining boshqa qalam sohiblariga ko'rsatgan ta'siri. Kitobda G'.G'ulomning ilmiy merosi — adabiy-tanqidiy qarashlari shoir poetik ijodiga bog'liq holda tahlil etildi. Shu tarzda serqirra ijodkor G'.G'ulom haqida S.Mamajonovning ilmiy-tadqiqotlaridan iborat uchta monografiya vujudga keldi. Ulkan san'atkor G'afur G'ulom ijodi haqida bitilgan bu ishlar adabiyotshunosligimizda o'ziga xos ilmiy trilogiya namunasidir.

Munaqqid va adabiy jarayon. S.Mamajonov ijodiy faoliyatida o'zbek she'riyatini atroflicha tadqiq etish markaziy o'rinlardan birini tashkil qiladi. Yuzlab taqriz va maqolalaridan tashqari «She'riyat bahsida» kitobi kabi «Ranglar va ohanglar» (1978) kitobi ham poeziya masalalari va poetik asarlar tahliliga bag'ishlandi. «Lirik olam, epik ko'lam» (1979) nomli yirik monografiyasida tadqiqotchi H. Olimjon lirik mahorati va Sharof Rashidov epik olamini keng tarzda ochib berildi. S.Mamajonov keng qamrovli munaqqiddir. U o'zbek adabiyotidagi deyarli barcha adabiy janrlar rivojlanish jarayonini kuzatib bordi va ular haqida chuqur ilmiy tahlillarga boy adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Tanqidchi o'zbek she'riyati namunalarini nashr ettirishda qator ishlarni analga oshirdi. N.Qobulov bilan hamkorlikda ijodi uzoq yillar o'rganilmay kelgan va hatto qariyb unutilayozgan Botu merosini topib, to'plab, nashr ettirdi. Bu ish adabiyot va ilm ahlini nihoyatda quvontirgani ma'lum. U 20-yillar adabiyotida muhim o'rin tutgan Botu, Elbek kabi ijodkorlarning ilk ijodiy portretlarini yaratgan edi. Ular safiga mustaqillik davrida Cho'lpon haqidagi portret ham kelib qo'shildi. S.Mamajonov adabiy tanqid janrlarining shakllanishi va rivojlanishiga ham samarali hissa qo'shdi. Uning Mirtemir bilan muloqotini yozuvchi va tanqidchi suhbatini o'zbek tanqididagi («O'zbekiston madaniyati», 1980-yil, 2–5 sentabr) bu janrning yorqin namunalaridan biridir. Kamtar va bag'rikeng, ishchan olim o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida faol xizmat qilib kelayotgan o'nlab shogirdlarning ustozidir.



NORBOY XUDOYBERGANOV (1938).

Badiiy ijoddagi dabdababozlik, yuzxotirchilik, ofarinbozlik, iste'dodsizlik, shoshqaloqlikka qarshi kurashish taniqli tanqidchi N.Xudoyberganov ijodining yetakchi xususiyatidir. Uning adabiy-tanqidiy maqolalarida talabchanlik va muallif bilan bahsga kirishish hukmronlik qiladi. Munaqqid maqola va tadqiqotlarida talantlarni qidiradi, ularni kashf etishga intiladi, iste'dodni himoya qiladi, aksar hollarda iste'dodlarga o'z talablarini qo'yadi, bo'sh va sayoz asarlarni ayovsiz tanqid qiladi.

N. Xudoyberganov 1938-yilda Qoraqalpog'istonning Amudaryo tumanida tug'ildi. ToshDUda o'qidi, aspiranturada tahsil oldi. Nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagandan keyin tez orada adabiy jamoatchilik nazariga tushdi. Uzoq yillik izlanishlari natijasi o'laroq «Hayot haqiqati va badiiy obraz» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. O'zi tahsil olgan bilim dargohida talabalarga saboq berdi. O'zFA Til va adabiyot institutida yetakchi mutaxassislardan biri sifatida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi.

Olim respublika matbuotidagina emas, undan tashqaridagi «Literaturnaya gazeta», «Drujba narodov», «Voprosi literaturi», «Literaturnoye obozreniye» singari keng tarqalgan gazeta-jurnallarda ham deyarli o'ttiz yil mobaynida taqriz, maqolalari bilan faol ishtirok etib, o'zbek adabiyotini qardosh ellarga targ'ib etdi.

Olim aksar adabiy-tanqidiy maqolalarida o'ziga va kitobxonlarga murojaat etishni xush ko'radi va maqola davomida ularga o'zi javob izlaydi, topganlarini kitobxonlarga havola qiladi. Munaqqidning «Kashfiyotlar yo'lida» (1972), «Cho'qqilar chorlaydi» (1975), «So'z kurashga chorlaydi» (1978), «Seni o'ylayman, zamondosh», «O'z dunyosi, o'z qiyofasi», «Haqiqat yog'dulari», «Parvoz davom etadi» (1980), «Vijdon da'vati» (1981) «Ishonch» kabi adabiy-tanqidiy kitoblari XX asrning 60–80-yillari mobaynidagi adabiy jarayonni atroflicha qamrab olishi bilan ajralib turadi.

Tanqidchi «Kurashchanlik haqiqatda» maqolasida qahramonlarning hayotsevarlik va o'z maqsadlariga intilish ruhi adabiyotimizda qay darajada aks ettirilgan, uning manbayi nimada degan savolga javob izlaydi, ayni vaqtda, savolga hamma vaqt ham istalgan javobni topish oson emasligini adolat bilan qayd etadi. N.Xudoyberganov ayrim

tanqidchilarning badiiy adabiyotda kurashchanlik faqat ijobiy qahramon xarakterida aks etadi degan fikri bir yoqlamadir, degan xulosaga keladi. Salbiy tiplar ham kurashchanlik ruhini ifodalashga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Tabiatida illatlar mujassamlashgan kishilar qiyofasini ochib tashlanishida ham kurashchanlik ruhi aks etishini qator asarlardagi qahramonlar obrazini tahlil etish asosida dalillaydi.

N. Xudoyberganov o'z so'ziga ega, qat'iyatli va keskin hukm chiqara oladigan tanqidchilar sirasiga kiradi. U maqola va tadqiqotlarida O.Yoqubov ijodini, uning, ayniqsa, «Ulug'bek xazinasi», «Diyonat», «Ko'hna dunyo» romanlarini keng va atroflicha tahlil qildi. Munaqqidning «Hayot qanoti, iste'dod qanoti», «Ikki hayot va ikki o'lim» kabi adabiy maqolalarida adib asarlaridagi muayyan sabablarga ko'ra yanglishgan, xarakterida turli kamchiliklar mavjud-murakkab qahramonlar qiyofasi talqiniga bag'ishlandi. N. Xudoyberganovning qator maqola, tadqiqotlari badiiy asarlardagi, adabiy tanqididagi sayozliklarni, yuzakilikni o'z vaqtida va keskin tanqid qilishga qaratildi.

Ayrim maqola va tadqiqotlarida esa ba'zi asarlarning badiiy jihatdan past darajada ekanligini murosasizlik bilan ochib tashladi. Biroq uning o'zi ham shu muammolarning idrok etilishi nuqtayi nazaridan ayrim kasbdoshlari tomonidan keskin tanqidga ham uchradi.

Tanqidchilikda bitta asar haqida turlicha qarashlarning ifodalinishi, bahs-munozaralarning tug'ilishi adabiy-tanqidiy tafakkur rivojida muhimligi shubhasiz. Faqat bu holda bahslashuvchi tomonlarning ikkisiga ham xolis qarash joliz: ko'pchilik tomonidan qabul qilinmagan fikr har vaqt ham xato bo'lavermasligi mumkinligini yodda tutish zarur. P.Qodirovning «Meros» qissasi adabiy tanqidchilikda ijobiy baholandi. Jumladan, N.Xudoyberganov ham qissani, umuman, ijobiy baholagani holda o'z davri uchun muhim masalani o'rtaga tashladi: «Fidoyilikning ham chek-chegarasi bor. Pirmqul Qodirovning qahramoni Otajonov Yolqin nima uchun o'zini goh o'tga, goh suvga uradi, goh yonadi, goh kuyadi. Yana shunisi borki, ehtiyoj yo'q paytida ham yonadi, kuyadi, eziladi, mehnat og'irligidan eziladi, biroq mana shu ezilishdan, kuyish-yonishdan rohatlanayotganday tuyuladi, mana shu ezilish, kuyish-yonishgina chinakam paxtakorning baxti-saodati demoqchi bo'ladiki, bunga xayrixohlik bildiringiz kelmaydi»¹. Tanqidchining bu gaplari «paxta uchun kurash» yo'lida uni

¹ Xudoyberganov N. So'z kurashga chorlaydi. — T.: 1978, 59–60-betlar.

yetishtiruvchi «oltin qo'llar»ning tom ma'noda jigari ezilayotgan, paxta kompaniyasini salkam front sharoitiga tenglashtirib qo'yilgan bir paytda aytilgan. Bunaqa gaplar 80-yillar oxiriga boribgina oshkora va baralla aytiladigan bo'lgani e'tiborga olinsa, munaqqidning jur'atiga tahsin aytish, bu gaplar ostidagi haqiqatni chuqurroq o'ylab ko'rish zarur bo'lardi. Biroq, tanqid bu fikrni qabul qilmadi: O.Abdullayev «Tanqidchilikda nur va soyalar» nomli maqolasida N.Xudoyberganov «da'vosi o'rinsiz» deb yozdi.

Ilgariroq N. Xudoyberganovning «Oltin devor» komediyasini baholashida ham shunga o'xshash hol kuzatilishini L. Qayumov ko'rsatib o'tadi¹. L. Qayumov davr tanqididagi holat haqida to'xtalib, unda asarni xolis baholashga intiluvchi «odil tanqidchilar», madhiyabozlikni o'ziga kasb qilib olgan «g'ayri tanqidchilar» hamda asardan asosli-asossiz kamchilik qidiruvchi «o'ta tanqidchilar» borligini ta'kidlaydi. O. Sharafiddinov esa «So'nggi paytlarda ayrim munaqqidlar tanqidning vazifasini toraytirib qo'ymoqdalar, «madhiyabozlik» va «talabchanlik» degan tushunchalarni bir tomonlama talqin qilmoqdalar², deb yozadi. Munaqqid «tanqidchi har bir asarni, albatta, tanqid qilishi, uning kamchiliklarini ochib berishi kerak» degan aqida bilan ishlash to'g'ri emasligini ta'kidlaydi. Haqiqatan ham «o'ta tanqidchilik» aslida «g'ayri tanqidchilik»ning teskari tomoni, xolos, u tanqidida avj ola boshlagan madhiyabozlikka qarshi yuzaga keldi.

Bu kamchiliklardan qat'i nazar, N.Xudoyberganov ishlaridagi keskin talabchanlik XX asrning so'nggi choragidagi adabiy jarayonni, shoir, adib, tanqidchilarni hayotiylik, haqqoniylik va badiiylik masalalarida hushyor bo'lishga da'vat etishi bilan e'tiborlidir. Xususan, «Badiiy kashfiyot talabi bilan» maqolasida Zulfiya, H.G'ulom, A.Muxtor, Murtemir she'rlari tahlil etilgan, talabchanlik, ko'rsatilgan yutuq va kamchiliklar yoshlar ijodiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

N.Xudoyberganov barcha maqola va tadqiqotlarida shoir, adib va hamkasblarini munozaraga chorlaydi. Shu ma'noda «Kashfiyotlar yo'lida» kitobiga «Adabiy mavzularda muhokama, munozara va mulohazalar» degan taglavha qo'yilishi bejiz emas. O'zgalarni munozaraga chorlar ekan, ayni vaqtda, uning o'z fikrlarida ham munozarali nuqtalar bo'lishi tabiiydir. Shu ma'noda A. Muxtorning «Chinor» romani, Said Ahmadning «Kelinlar qo'zg'olon» hamda E.Vohi-

¹ Qayumov L. Asr va nasr. — T.: 1975, 251-bet.

² Sharafiddinov O. Go'zallik izlab. — T.: 1985, 179-bet.

dovning g'azallari munosabati bilan munaqqid aytgan tanqidiy fikrlar o'z vaqtidayoq keskin bahslar uyg'otdi. Vaqt, zamon shoir va yozuvchilarning noto'g'ri yo'l tutmaganlarini tasdiqladi.

N.Xudoyberganov A.Oripov ijodini atrolicha tahlil o'tishga harakat qilgan munaqqidlardan biridir. Aksar munaqqidiar shoir asarlarining g'oyaviy-badiiy yo'nalishi, tafakkuri kengligi, mahorati masalalariga e'tiborni kuchaytirgan bir zamonda N.Xudoyberganov shoir ijodidagi, ayniqsa, poetik dalillash masalasiga ahamiyat berdi. O'zgalardan farqii o'laroq A.Oripov ijodiga baho berishda ko'proq tanqidiy ruhda bo'ldi. U shoir she'rlaridagi yutuqlarni yuqori baholab, ko'klarga ko'tarish emas, kamchiliklaridan qutulishga da'vat etib, shoir qadriyati uchun kurashish prinsipida bo'ldi. Masalan, «O'ylarim» she'ridagi lirik qahramonning isyonlari, tug'yonlari, hayajonlari tasviridagi o'ziga xoslikni yuqori baholagani holda «Javob» she'ri birmuncha umumiyroq bo'lib qolganini, unda aniq she'riy mazmun chuqur yoritilmaganligiga e'tiborni qaratadi.

Har bir badiiy asar, har bir she'r, yaratilayotgan deyarli har bir qahramondan badiiy kashfiyot talab qilishdek «hukm» farmon qarashlar bo'y ko'rsatib tursa-da, N.Xudoyberganovning adabiy-tanqidiy maqolalari o'zbek tanqidchiligida jangovarlik ruhining kuchayuvda muhim ahamiyatga egadir. «So'z kurashga chorlaydi» degan adabiy-tanqidiy maqolalar to'plami bunga yana bir karra dalil bo'la oladi. N.Xudoyberganovning talabchanligi nafaqat shoir, yozuvchi ijodiga bag'ishlangan maqolalari, balki tanqidchi ijodiga baho berilgan tadqiqotlarida ham ko'rinadi. Masalan, «Haqiqat yog'dulari» kitobiga kiritilgan «Tanqidchi jasorati» (1985) maqolasi M.Qo'shjonov ijodiga bag'ishlangan. «Ma'lum ma'noda o'zbek tanqidchiligida adabiy badiiy hodisalarni «qahhorona baholash» va talqin qilish an'analarini» davom ettirayotgan M.Qo'shjonovning adabiyotshunoslikda tutgan o'rmini xolis belgilaydi, shu bilan birga ba'zi kamchiliklarini ham ochiq-oydin ko'rsatadi.

Munaqqidning «O'z dunyosi, o'z qiyofasi» (1986) deb nomlangan kitobi adabiy tanqidiy maqolalar, bahs va munozaralardan tashkil topgan. «Yozuvchi, munaqqid va kitobxon» maqolasida ijodkor, tanqidchi va kitobxon munosabatlarida yuksak talabchanlik, halollik, adolat o'rniga ba'zan ofarinqozlik hukmronlik qilayotganligiga e'tibor qaratiladi. H.Abdusamatovning «Hayot qo'shig'i» kitobidagi bir qator o'rinlarda madhiyabozlikka yo'l qo'yilganligi tanqid qilinadi. Uyg'unning ba'zi dramatik asarlari «konfliktsizlik» nazariyasi ta'sirida yozilganligi ko'rsatiladi.

«Ishonch» (1988) kitobi ham «adabiy-tanqidiy mulohazalar, bahslar, kuzatishlar, qaydlar»dan iborat. Soʻz boshida: «Ha, adabiy jarayonni chuqur tadqiq etib, hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylangani yoki aylanmaganini mardonavor koʻrsatishga kirishilmoqda, lekin har qanday sharoitda ham menda ijtimoiy adolat, ilmiy estetik adolat, badiiy adolat gʻalabasiga ishonch yoʻqolgan emas», deb yozgan munaqqid butun kitobda shu nuqtayi nazarga amal qilishni oʻz burchi deb hisoblaydi. Uning hayotga, ijodga, isteʼdodga badiiy adabiyot taraqqiyotiga mehr bilan sugʻorilgan maqolalarining koʻpchiligi hozirgi nasr va tanqidchilik tahliliga qaratilgan va oʻsha ishonch ruhi bilan sugʻorilgan.

Olim A. Rasulov bilan hamkorlikda «Oʻzbek sovet adabiy tanqidchiligi» (1990) oliy oʻquv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik ham yaratdi. N. Xudoyberganov istiqloq davrida ham ilmiy maqolalar yozdi, kitoblari nashr etildi. Masalan, «Dilu til sehri» (2002) risolasidan olimning oʻzi taʼkidlaganidek, «hozirgi, yaqin va birmuncha uzoq oʻtmishdagi adabiy-badiiy, ilmiy-ijodiy jarayonni istiqloq talablariga muvofiq yoritishga qaratilgan muayyan kuzatishlar, mulohazalar va bahslar» oʻrin olgan.



IBROHIM GʻAFUROV (1937) badiiy asarni tahlil etish bilan kifoyalanib qolmay, koʻpincha shu tahlil etayotgan asari taʼsirida tugʻilgan his va kechinmalari bilan oʻrtoqlashadigan va shular orqali fikr yuritayotgan asar yoxud yozuvchi ijodi haqida tasavvur berishga intiladigan, mantiqiy tafakkurni badiiy fikrlash yoʻsiniga boʻysundiradigan, badiiy asarni oʻrganish, talqin etish bahonasida aksar hollarda oʻzining ruhiy olamini namoyon etuvchi oʻziga xos uslubli munaqqidlardan biridir. Boshqacha aytganda, bunday adabiyotchilar ilmda nafosatga boy tanqidchi deb ataladi.

I. Gʻafurov adabiy jarayonga nozik didli, shoir qalbli munaqqid soʻzi bilan kirib keldi. Dastlabki tanqidiy maqolalari bilanoq oʻziga xos uslubini yaqqol namoyon eta oldi.

Bu uslub asosini tahlil etilayotgan, soʻz yuritilayotgan asarga benihoya katta ehtiros bilan yondashuv tashkil etadi. Tanqidchi,

tarjimon, publistsist, adib yigirma besh yoshlari atrofidayoq o'zining dastlabki «Go'zallikning olmos qirralari» (1963) nomli kitobini e'lon qildi va mana, deyarli yarim asrki, shu kitobi sarlavhasiga jo bo'lgan ijodiy prinsipga og'ishmay amal qilib kelmoqda. Bu yoshda dastlabki kitobini e'lon qilish o'zbek tanqididagi noyob hodisadir.

Undagi maqolalarning go'zalligi, jozibadorligi keng kitobxonlar ommasi, mutaxassislar, kattadan kichik shoir-yozuvchilar e'tiborini birdan qozona olgani esa shu kitob bosilgan davrdan boshlab, o'zbek tanqidchiligiga yangi tipdagi munaqqidlar kirib kelganini ko'rsatadi va, ayni vaqtda, o'zbek tanqidchiligi o'zining yangi sifat bosqichiga o'tdi, deyishga asos beradi.

Ibrohim G'afurov qalamiga mansub «Joziba» (1970), «Yonar so'z» (1973), «Yam-yashil daraxt» (1976), «Yurak – alanga» (1980), «O'ttiz yil izhori» (1987), «Iltijo» (1991), «Dil erkinligi» (1998), «Hayoxaloskor» (2006), «Mangu latofat» (2008) nomli kitoblar – mazmundor, o'ziga xos ilmiy-badiiy va ruhiy olamdir.

Bu nomlarning birortasi o'z-o'zidan, tasodifan paydo bo'lgan emas. Ular muallifning shuuri, ma'naviyati, hayotiy va adabiy-estetik tamoyillari samaralaridir. Jozibali nomlar (kitobda ularga mos va mutanosib ma'no ham bor)ning o'ziyoq o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi, uni o'qishga, tahlil etilayotgan asarlardan avval xabardor esa-da, yana takror mutolaa qilishga undaydi.

«Yonar so'z» kitobi uchun I. G'afurov O'zbekiston Yoshlari mukofotiga sazovor bo'ldi (1973).

I. G'afurovning badiiy ijodga, tarjima va tanqidga qiziqishi, mehri yonma-yon, kechdi. Qator hikoya va mansuralar e'lon qildi, Oybek, G'. G'ulom va Zulfiya to'g'risidagi hujjatli filmlar ssenariysini yozdi.

I. G'afurov qalamining kuchi va imkoniyatlari, ayniqsa, adabiy tanqid sohasida keng va yorqin namoyon bo'ladi. Badiiy asar qahramonlarining ruhiy dunyosini oechish, uning zamirida, ayni vaqtda, yozuvchi ruhiy olamining nozik nuqtalarini kashf etish hamda shular uyg'unligiga munosabatda o'zining – tanqidchining ham ma'naviy dunyosi tebranishlaridan boxabar etish borasida I. G'afurov maqolalari bu yo'nalishdagi katta miqyosdagi tanqid namunalari bilan bir safda tura oladi va hozirgi o'zbek tanqidchiligining go'zal qatlamlarini tashkil etadi.

Bugungi o'zbek tanqidini uning ishlarisiz tasavvur etish qiyin. «Iste'dodning olmos qirralari»dan to «She'riyat – izlanish demakdir» degan monografiyasigacha e'lon qilingan kitoblari o'n bittani

tanhkil etadi, deb yozgan edi munaqqid S.Mamajonov bundan deyarli yigirma besh yil avval. Olim undan keyin ham o'nga yaqin kitob e'lon qildi.

Ularning aksari shu kun adabiy jarayoniga bag'ishlangan. Uning «Usmon Nosir», «O'rtoq shoir» (M.Shayxzoda), «Prozaning shoiri» (Said Ahmad) kabi asarlari adabiy portret janrida ham mahorat bilan qalam tebratishini ko'rsadi. Muallifning aksar ilmiy maqola, kitoblarida publitsistik va ruhiy intonatsion ohang kuchlilik qilguvchi edi. «She'riyat – izlanish demakdir» nomli monografiya esa muallifning akademik tahlil yo'lidagi samarali izlanishi natijasidir.

I. G'afurov qalamiga xos yana bir jihat – uning jahon adabiyoti yuksakligidan turib fikrlashida ko'rinadi. U nainki o'zbek adiblari, manaman degan jahon adabiyotining buyuklari ijodi haqida ham fikr yuritadi. Shunday fikrlaydiki, bu adiblar tabiati va asarlari haqida shu vaqtgacha jahon tanqidchiligida aytilmagan gaplarni topib ayta oladi. Hatto, qalb ehtiyojidan kelib chiqib, masalan, Nitshe va Dostoyevskiy kabi daho faylasuf va adiblar bilan bahsga kirishadi, ilgari surayotgan qarashlari va fikrlariga sizni ishontira oladi. U ayrim ijodkorlar haqida maqola yozibgina qolmay, jahon adabiyotining taraqqiyot yo'llari, Sharqu G'arb adabiy aloqalari, o'zaro ta'sir, tipologiya masalalari xususida ham qimmatli mulohazalarini o'rta tashlydi.

Bu mulohazalar sizni ham shu masalalar haqida chuqur mulohaza yuritishga majbur etadi, qalbingizni, shuuringizni boyitadi. Bu borada hassos adib sifatida ham, zukko olim maqomida ham namoyon bo'ldi. I. G'afurov qiyosiy tahlil vositasida, garchi daho adiblarning har biri o'ziga alohida olam bo'lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi jihatlar ko'proq ekanini aniqlashga alohida e'tibor beradi.

She'rshunos munaqqid va adabiy jarayon. «Yonar so'z» kitobiyoq I. G'afurovning fikr doirasi keng ekanini ko'rsatdi. Bu kitob sim-sim bilan ochilguvchi olam ichkarisidagi she'riyat otliq javohirlar dunyosi sir-asrorini nozik his etib, teran anglay biluvchi munaqqid paydo bo'lganini dalillaydi.

Hayot va adabiyot, tabiatning kamalak ranglari, inson ruhiy dunyosining nozik tebratishlari haqidagi kuzatuvlarning o'zaro uyg'unligidan tug'iluvchi falsafiy mushohada, tahlilni nafasat ko'zgusi orqali o'tkazish, fikrni yonib, kuyib, to'lqinlanib, ehtirosning olovli nashidasiga o'rab berish, ayniqsa, I.G'afurov maqolalari jozibasini ta'minlovchi sifat belgilaridir. Mana shu belgilar tanqidchining keyingi

ijodida ham yaqqolroq, yorqinroq namoyon bo'lib borganini kuzatish mumkin.

«Tong tuqqan she'riyat» maqolasining kattagina qismi, «Ikki shoir bilan suhbat», «So'qmoqlarda» kabi maqolalari yoshlar ijodini tahlil etishga bag'ishlangan. «Yonar so'z», «Joziba», «Yam-yashil daraxt» singari kitoblarining asosiy qismi yoshlar ijodini tahlil etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma'noda I.G'afurov maqolalarini ehtiyoj samaralaridir deyish mumkin. U go'zal asarlarga qalbi nechog'lik ochiq, mehri saxiy bo'lsa, bo'sh asarlarga qahri ham shunchalik qattiq. Lekin uslubiga sodiq tanqidchi qahrini ham mayin pardalarga o'rab beradi. Shu sababli, uning qahrida nafrat emas, tarbiya, san'atkorga qayg'urish tuyg'ulari yotadi.

Uning «Tong tuqqan she'riyat», «She'rning qalbidagi qahramon», «Luqma», «Ikki shoir bilan suhbat», «So'qmoqlarda», «She'riyatga sadoqat» maqolalarini aytamizmi; ulug' daholarga bag'ishlangan portret-maqola tipidagi «Aligeri Dante», «Haqiqat kuychisi» (Nekrasov haqida), «Olijanob do'stimiz» (Xeminguey haqida) maqolalariga nazar tashlaymizmi; hozirgi davr o'zbek nasriga bag'ishlangan «Sevgi qissalari», Mirtemir, Zulfiya, Shayxzoda haqidagi maqola, taqrizlarni olamizmi-deyarli barchasi bir-birini takrorlamaydigan shakl asosiga qurilgan.

Tanqidchi bir xillikdan, ko'ngilga tekkan, zeriktiruvchi, bayonchilikdan qochadi. Bu I.G'afurovni boshqa hamkasblaridan farqlantirib turuvchi eng muhim fazilatlaridan biridir. U asosiy diqqat-e'tiborini, o'qigan asarining hosilasi sifatida tug'ilgan o'y-kechinmalarini, qoniqish yoki qoniqmasliklarini, ularning sabab va omillarini hissiyot bilan tasvirlashga (aytish yoki bayon qilish emas) qaratadi. Maqola shaklidagi o'ziga xoslik, yangilik uning ta'sir kuchini yanada jonlantiradi. Shu ma'noda «Ikki shoir bilan suhbat», «Aligeri Dante», «Bir qissaning ikki pallasi» maqolalarini ularning shakli, tuzilishi jihatidan kuzatish maroqlidir.

Yuqorida aytilganidek, birinchisining o'zi ikki qismdan iborat bo'lib, ularda yosh shoirlardan T.Nizomning «Sening ertaklaring» va O.Matjonning «Ochiq derazalar» nomli to'plamlari haqida fikr yuritiladi. Tanqidchi birinchi shoir to'plami haqidagi fikrlarini ochiq xat shaklida taqdim etadi. Bu hol tanqidchiga o'z fikrlarini, ehtirosini, yuragidagi bor gapni to'kib solish imkoniyatini yaratadi. Aslida, bu tanqidchining nafaqat to'plam muallifi, balki uni o'qigan minglab she'rxonlar bilan ham suhbatidir. Shu turkumning ikkinchi qismi nav-

haldagi bir to'plam haqidagi o'ylar asosiga qurilganki, endi u o'quvchidagi yangicha qabul qilish shakllarini ishga soladi, natijada, kitobxon tanqidchining chuqur o'ylariga, xayollariga, ideallariga, sevinchlariga, didi va talabiga sherik bo'ladi, ularni o'ziga ham qisman yuqtiradi. Tanqidchi shu tariqa kitobdan kitobga, maqoladan maqolaga o'sib bordi, fikri teranlashib, badiiy asar haqida o'ziga xos ovoz bilan mushohada yurita boshladi.

«She'riyat — izlanish demakdir» risolasini she'riyat haqidagi I.G'afurovning o'ylari, kuzatishlarining kvintessensiyasi, dastur sifatidagi tajassumi deyish mumkin. Munaqqid adabiyot dargohiga kiribdiki, she'riyat sehrini anglashga intiladi. U she'riyat dardida odamlar, shoirlar, olamning boy tarixiga sho'ng'iydi, jahon poeziyasini uzluksiz o'rganadi. Izlay-izlay tanqidchi shunday tayanch nuqtani topgandek bo'ladi, bunda uzoq tarix ham, hozirgi she'riyat manzaralari ham, ertangi poeziya latofatlari ham ko'zga aniq tashlangandek bo'ladi.

I. G'afurov o'zbek she'riyati ilmiy biografiyasiga nazar tashlar ekan, ba'zan badiiy quvvati yengilroq, jo'nroq, ammo jarayon va davr uchun xarakterli bo'lgan asarlarni ham tahlilga tortadi. Bunday asarlar tahlilida tanqidchi ijodiga xos ehtiros susayadi, ilmiy mantiq taqozosiga ko'ra qalam tebratayotgani sezilib qoladi. Shu bilan birga tanqidchi ijodida ba'zan ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanib qoladi.

Chunonchi, aksar maqolalarida badiiy asarlarni kuyib-yonib tahlil qiladi, shu munosabat bilan hayot va adabiyot haqidagi o'z qarashlarini izhor etadi. O'zining orzu-istaklari, fikr va qarashlari bilan o'rtoqlashadi. Lekin tanqidchi tahlil etayotgan asar ba'zan munaqqidning keragidan ortiq darajadagi his-hayajonlari, lirik chekinishlari soyasida qolib ketadi. Lirik chekinishlarning o'ta ko'pligi I.G'afurov uslubi va maqolalaridagi zaif nuqtalardan biri bo'lsa ajab emas. Bu masalada me'yor saqlanishi uning maqolalarini go'zal qiladi.

«Yurak — alanga» kitobiga kirgan «She'rga sochilgan yulduzlar» maqolasi o'n to'qqiz jildlik Oybek asarlarining dastlabki ikki kitobiga bag'ishlangan. Unda tanqidchi salkam ellik yil mobaynida yaratilgan Oybek she'rlariga, o'zining «lirik» uslubida nazar tashlaydi va ular ta'sirida tug'ilgan o'zining estetik tuyg'ularini qog'ozga tushiradi. Bunday fazilatlar I. G'afurovning Shayxzoda, Zulfiya, Hamid G'ulom, Saida Zunnunova haqidagi maqolalariga ham «lirik» ilmiy teranlik va chinakam joziba baxsh etadi.

Munaqqid, ayniqsa, Erkin Vohidov g'azallari va shoir mahorati tahlilida o'zi ham bamisoli munaqqidlar shoiri darajasiga ko'tariladi. Hamza, A.Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek, A.Qahhor, M.Shayxzoda kabi yozuvchilar haqidagi maqolalarida esa bu san'atkorlar tabiati va asarlari qadriyatini tashqaridan turib kuzatish emas, ularni «Ichdan yoritish», shu yorug'lik nurlarida ulardan ta'sirlanish natijasida tug'ilgan o'z hissiyotlarini ham gavdalandira bilish mahoratini ko'rsatadi.

E.Vohidov, A.Oripov, N.Aminov, O.Matjonlarning ilk parvozini muhabbat bilan qarshi oluvchi taqriz, maqolalar e'lon qildi. Ular ijodini uzluksiz va muntazam ravishda hozirgacha kuzatib keldi. Yangidan yangi avlod vakillari to'g'risida ham doimo kuyunib, qayg'urib qalam tebratayotgan munaqqidlardan biri I.G'afurovdir. R.Parfi, X.Sultonov, O.Hojiyeva, E.A'zam, Tog'ay Murod, Shavkat Rahmon, Murod Muhammad Do'st, H.Xudoyberdiyeva, U.Azimov, X.Davron kabi mehr-muhabbatini qozongan shoir va yozuvchilar, boshqa yirik munaqqidlar qatori, ayniqsa, I. G'afurovning qalb qo'ri ta'sirida o'sib ulg'aydilar, voyaga yetdilar. Munaqqid bu ijodkorlar asarlarini tahlil etish, baholash asnosida zamonaviy o'zbek adabiyotining yutuqlari, tamoyillari, qusurlari, yetishmovchiliklari to'g'risidagi ishonchli mulohazalarni o'rtaga tashlaydi, kitobxonlar didi charxlanishiga ko'maklashadi.

So'nggi bosqichda u Alisher Navoiyning «Xamsa»si to'g'risida qator maqolalar e'lon qildi, undagi asarlar va qahramonlarga hozirgi zamonning adabiy-badiiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ulardan boshqa mutaxassislar shu vaqtgacha ilg'amagan yangi -yangi qirralarini kashf etdi. Ko'p yillar mobaynida Alisher Navoiy ijodining falsafiy asosi bo'lgan tasavvuf inkor qilib kelingan. «Xamsa» dostonlari sinfiylik nuqtayi nazaridan tahlil etilib, ijtimoiy g'oya, sujet-obraz chizig'i tahlilidan nari o'tilmagan bir paytda «I.G'afurov tasavvuf ta'limotini maxsus o'rganmagan bo'lsa-da, ammo savqi tabiiy amri bilan Alisher Navoiy ijodini sho'ro navoiyshunoslari yo'lidan borib tushunib yetish mumkin emasligini isbotladi. Olimning «O'ttiz yil izhori» kitobiga kirgan «Ishq shiddatining pog'onalari», «Tafakkur va hissiyotning oliy nuqtalari», «Dunyo kezuvchilarning donoliklari» kabi maqolalari shundan dalolat beradi. Shu tariqa I.G'afurov Alisher Navoiy ijodining mislsiz ahamiyati, qudratini teran tahlil etdi va so'fiyona talqinga ham yaqinlashib bordi¹. Eng muhimi, olimning «Ishq shiddatining

¹ *Komilov N.* Bedor qalb. Kitobda: Dil erkinligi. — T.: 1998. 6-bet.

pog'onalari» maqolasida buyuk shoir ijodini bugungi kun o'quvchisiga yetkazishning yangicha usullari haqidagi mulohazalar o'rta tashlanishi bilan qimmatlidir. Munaqqidning talqin va tahlillari o'quvchini Navoiyga yanada yaqinlashtirishga xizmat qilishi jihatidan ahamiyatga loyiqdir.

Uning Said Ahmad ijodiga bag'ishlangan «Prozaning shoiri» kitobi adib asarlarini tahlil va talqin etishning yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Mirkarim Osim ijodi haqida ikkita maqola yozdi: «Jozi-ba»ga kiritilgan «Tarix to'liqlari»da adibning tarixiy asarlariga to'xtal-sa, «O'ttiz yil izhori»dagi «Yo'qlov» xotira-maqolasida adibni yaxshilik bilan eslaydi. «Nazokat» xotira-maqolasida S.Zunnunova ijodiga keng-roq to'xtalib, asarlari mohiyatini ochib berdi.

Tanqidchi ijodida adabiy portretlar ham talaygina. Mirtemir ijodiga bag'ishlangan portret-maqolada shoir ijodiga nazar tashlash orqali uning ruhiy dunyosi ochiladi, qismatidagi murakkablik va ziddiyat-larning omillari ko'rsatiladi.

«Maqsud Shayxzoda» adabiy portretida esa shoir va tom ma'nodagi «shayxona» siymoda tajassum topgan, dramatik va poetik asarlarda namoyon bo'lgan falsafiy tafakkur yo'sinlari ochiladi. Adabiy portret «Saxiy she'riyat», «Ayrim sanalar», «Voqelik va she'r», «Mashriqdan Mag'ribga», «Tinchlik amr etadi», «Doston shoirning romanidir», «Shayxzoda tarix varaqlaydi», «Olamning husniga madhiya» kabi qator bo'limlardan tashkil topgan. Ana shuning o'ziyoq tanqidchining san'atkor ijodidagi har bir qirra va bosqichni alohida-alohida umum-lashtirib, tadqiq etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'rganini ko'rsatadi.

Lekin R. Bobojon va Shukrullo ijodiga bag'ishlangan «She'riyatga sadoqat» va «Shukrullo haqida etud» maqolalarida tanqidiy ruh birmuncha sust ko'rinadi. To'g'ri, ularning biri san'atkor ijodiga bag'ishlangan kichik portret, ikkinchisi, ixcham etud bo'lib, ular san'atkor butun ijodini tahlil etishga da'vo qilmaydi, albatta. Biroq ijodining ayrim bosqichlarida badiiy mahoratdagi ayrim kamchiliklar ro'y-rost ko'rsatilganda, keyingi bosqichlardagi tadrijini ilg'ash va ko'rsatishga kengroq imkoniyat ochilgan bo'lardi.

Tanqidchining adabiy maktublari. I.G'afurov ijodida adabiy tanqidchilikning turli janr va rang-barang shakillaridagi asarlar uchraydi. Obzor maqola, portret-maqola, xotira-maqola, adabiy portret, taqriz, maktub, adabiy o'ylar, badia, muammoli maqola, ijodiy portret kabi janrlarda yozilgan tadqiqotlar keyingi salkam yarim asrlik o'zbek tanqidchiligi taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

I.G'afurovning «Adabiy qahramonlarga xatlar»i o'zbek tanqidchiligidagi tamomila yangi ko'rinishdagi asardir. Muallif adabiy o'ylarini — O'.Umarbekovning «Sevgim, sevgilim», «Odam bo'lish qiyin», «Yoz yomg'iri» asarlarining asosiy obrazlari haqidagi mulohazalarini — shu asarlar bosh qahramonlarining o'zlari Oypopuk, Gulchehra va Munisga yo'llangan maktublar shaklida bayon qiladi. Uchala qahramon ham asar nihoyasida olamdan o'tadilar. Tanqidchi ana shu qahramonlarga xat yozadi. Ular bilan va ular vositasida yozuvchi bilan, va hatto, kezi kelganda, shu asar haqida fikr bildirgan tanqidchilar bilan bahs yuritadi. O'.Umarbekovning «Odam bo'lish qiyin», «Sevgim, sevgilim», «Yoz yomg'iri» qissalaridagi Gulchehra, Oypopuk va Munisxonga yozgan tanqidchi maktublari shakl jihatidan ham, mazmun jihatidan ham o'zbek tanqididagi yangi hodisadir. To'g'ri, bu shaklning jahon adabiyotidagi ayrim namunalari mavjud. Masalan, Monteskyoning «Fors maktublari» usari ana shunday tarzda yozilgan. Maktublarda qahramonlarning tutgan yo'llari, fe'l-atvorlari, xatti-harakatlariga, yozuvchi mahorati masalasiga munosabat bildirish orqali baho berishga harakat qilinadi.

Munaqqid o'z qalbidagi tug'ilgan his-hujajni kitobxon bilan baham ko'radi. Shu bois maktublarda munaqqidning hassos qalbi ham yorqin ko'rinadi: u qahramonlar taqdiri uchun xuddi ular bilan asar doirasida yonma-yon harakat qilayotgan yondosh qahramonlardek, qayg'uradi, ularning muvaffaqiyatidan quvonadi, ular qalbidagi kechinmalarni aniq va tinq his etadi. Shu ma'noda uning so'zlari samimiyligi, tabiiyligi, insonni tushuna olish quvvatiga egalligi bilan qadrlidir.

Bu maktublar, birinchidan, O'.Umarbekov qahramonlarining o'ziga xos fazilatlarini ochib berish jihatidan muhimdir. Ikkinchidan, ular keng kitobxonlar ommasiga hozir ham asar va uning qahramonlari xatti-harakatini chuqurroq idrok qilishga va tegishli xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'.Umarbekov qahramonlari badiiy taqdiri ular uchun ibrat, saboq, armon bo'lib qolishida katta o'rin egallaydi. Uchinchidan, uning shaklidayoq kitobxonga faol ta'sir kuchi yashiringan. Kitobxon maktubni barmisoli hikoyadek o'qib qo'rganini sezmay qoladi.

I.G'afurov ijodining yana bir qirrasini tarjimonlikda namoyon bo'ladi. Undagi barkamol iste'dod faqat o'zbek adabiyoti go'zalliklarini kashf etishgina emas, jahon adabiyotining sara namunalarini tarjima va targ'ib etishda ham namoyon bo'ldi. F. Dostoyevskiy,

F. Nitshe, Ch. Aytmatov, E. Xeminguey, J. Joys, G. Markes kabi **buyuk adiblarning** asarlarini katta mahorat bilan o'zbek tiliga o'girdi.

I. G'afurov, shuningdek, o'zbek adabiyotini adabiy-madaniy-ma'naviy mavzulardagi qator esselar bilan boyitdi. U, ayniqsa, esse janrida barakali qalam tebratayotgan adib va tanqidchidir. O'zi ta'kidlaganidek, Turgenev, Borxes, Monten va Fitrat hamda hind, xitoy, yapon faylasuflarining asarlari ta'sirida kuchli ong oqimiga asoslangan mansuralar yaratdi.

Yuksak ma'rifiy zavq-shavq so'zda tug'iladi, so'zda qad rostlaydi, so'zda yashaydi. Ba'zan I.G'afurov muayyan asarni tahlil-talqin etish uchun emas, birinchi navbatda, o'sha asar bahonasida, o'z tuyg'ulari po'rtanasini to'kib solish uchun unga murojaat qilayotganday tuyuladi. Shu bois deyarli barcha maqolalarida muallif «men»i bo'rtib ko'zga tashlanadi, uning boy dunyoqarashi, uning ko'ngil noziklari tahlil etilayotgan obyektдан ustun mavqega ko'tarilayotgandek taassurot qoldiradi. Salkam ellik yildan buyon o'z yo'nalishi va qat'iyatini yo'qotmagan bu uslubning boisi, nihoyat, «Hayo – xaloskor» kitobidan joy olgan «Tarjimayi hol chizgisi»da ochilgandek bo'ldi: «Esseistikani juda ham sevaman. Adabiy tanqidni esse janriga yaqinlashtirish, ikki janrni omuxtalashtirish uchun ko'p yillardan beri urinaman».

«Hayo – xaloskor» kitobi shakli shamoyili, mazmun- mundarijasi bilan adib va munaqqid I.G'afurov siymosi va ijodiy olamiga bir jonli ko'zgidir. Undagi «Dostoyevskiy bilan tungi suhbat», «Nitshe shiddati», «Panchatantra qanday kitob?», «Kolumbiyalik noshir» (Gabriel Garsia Markes haqida) kabi maqolalar bugungi o'zbek tanqidchiligining jahon munaqqidlari bilan bo'ylasha oladigan namunalaridir. To'plamdagi «Hozir Navoiyni kim o'qiydi?», «Navoiy va Nilufar», «Koinot, ko'hna ravoq va Navoiy» kabi maqolalar bugungi o'quvchi qalbida adabiyotga muhabbat tuyg'ularini yanada nurlantirishi barobarida, hazrat Navoiyni bugunga yanada yaqinlashtiradi.

Bu kitob o'quvchiga betakror ruhiyat, ko'ngil bayramlarini tuhfa etadi. Bir vaqtlar Dostoyevskiy «Go'zallik clamni qutqaradi» degan edi. Bugun o'zbek olimi, adibi: «Hayo – xaloskor» demoqda. Bu fikrning ma'no-mohiyati yuqoridagi fikrdan oz emas, bu ham avvalgisi kabi jahon adabiyoti, estetikasi, xrestomatiyalaridan o'rin egallashga arzigulik ekanidan tashqari, undagi adabiyotimizda ana shunday fikrlarni ayta oluvchi tafakkur egalari borligini e'tirof etish jihatidan ham qimmatlidir.

Munaqqid bugungi milliy ma'naviyatimizning yoniq so'zli vakillaridan biri sifatida istiqloqlning fidoyi farzandlari qatorida samarali mehnat qilmoqda.

Tayanch tushunchalar: poetika, mahorat, badiiy yaxitlik, adabiy ta'sir, ijodkorning ruhiy olami, lirik olam, epik ko'lam, shoir dunyosi, badiiy uslub, ijodiy individuallik, bolalar adabiyoti tanqidchisi, badiiy adabiyot va folklor munosabati; keskin tanqid, tanqidchi jasorati, kashfiyot asar, bahslar, qaydlar, «ehtirosli tahlil», «badiia»; ko'ngil nozikligi, tanqidchi zukkoligi, «Yam-yashil daraxt», yonar so'z, tarjima, kinossenariy, etud, shoir shaxsiyati, mansuralar, Monten, Borxes.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Adabiy tanqidchilikdagi individual uslub va munaqqid mahorati tushunchasini izohlang.*
2. *S.Mamajonovning hayot yo'li va adabiyot ilmiga kirib kelishi haqida gapiring.*
3. *Olimning G'afur G'ulom ijodini o'rganishga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?*
4. *G'.G'ulom ijodiga bag'ishlangan o'ziga xos trilogiyaning ahamiyati nimalarda ko'rinadi?*
5. *S.Mamajonovning adabiy jarayonga munosabati qanday bo'lgan?*
7. *Olimning uslub haqidagi qarashlarining mohiyati nimada?*
8. *N.Xudoyberganovning hayot yo'li haqida gapiring.*
9. *Olimning adabiy jarayondagi bahslarga munosabati qanday edi?*
10. *Tanqidchining «So'z kurashga chorlaydi» tadqiqoti haqida gapiring.*
11. *Olim chinakam kashfiyot deb nimani nazarda tutadi?*
12. *Munaqqid adabiy jarayondagi kamchiliklarga munosabati qanday bo'lgan?*
13. *Olim adabiy tanqid haqidagi qarashlarining mohiyati nimada?*
14. *I.G'afurovning hayot yo'li haqida gapiring.*
15. *Olimning she'riyatga munosabati qanday edi?*
16. *Tanqidchining «Yonar so'z» tadqiqoti haqida gapiring.*
17. *Olim Zulfiya ijodiga bag'ishlab qanday asarlar yozdi?*
18. *Munaqqidning maktublari kimga bag'ishlangan?*
19. *Olim tarjimalari haqida gapiring.*

UCHINCHI BO‘LIM

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI (XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlari)

REJA:

1. Adabiy tanqid yangi bosqichda.
2. Adabiy tanqidagi yangilanish tamoyillari va omillari.
3. Istiqlol davrida adabiy tanqid metodologiyasining yangilanish tamoyillari.
4. Tanqid va adabiy jarayondagi izlanishlar.

Adabiy tanqid yangi bosqichda. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalarda erkin rivojlanish boshlandi. Bu hol ilm-fan, adabiyot va san‘at taraqqiyotida ham o‘z ifodasini topdi. Sho‘ro davri iskanjasidan va siyosatlashgan mafkura tazyiqidan qutulgan badiiy tafakkur erkin ijod yo‘liga o‘tdi. Adabiy tanqid badiiy asarlarga milliy g‘oya va umumbashariy mezonlar asosida baho bera boshladi. Ayni vaqtda, ana shunday yo‘nalishlarda yangi asarlar yaratilishiga ta‘sir ko‘rsatishni asosiy maqsad qilib qo‘ydi.

Istiqlol davriga kelib, baholash mezonlarida jiddiy o‘zgarishlar va yangilanishlar ro‘y bera boshladi. Mumtoz adabiyotimiz muammolari va siymolari ijodini o‘rganishda, sho‘ro bosqichi adabiyoti namunalarini qayta baholash hamda qatag‘on etilgan adiblarga munosabatda tamomila yangi tamoyillar yuzaga keldi. Ularga milliy istiqlol g‘oyalari va umumbashariy mezonlar asos qilib olindi. Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning qutlug‘ 550 yilligini nishonlash Mustaqil O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va adabiy-madaniy hayotidagi Istiqlol g‘oyalari asosida amalga oshirilgan dastlabki buyuk tadbirlardan biri bo‘ldi.

Prezidentimiz I. Karimov tomonidan Alisher Navoiy asarlarini yosh avlod ruhiyatiga yanada chuqurroq singdirish, chuqur va har tomonlama tadqiq-targ‘ib etish zarurligiga, deyarli davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratildi.

Navoiy asarlarining 20 jildidan iborat to‘liq kulliyoti chop etilishi, 5 jildidan iborat o‘zbek tilining izohli lug‘ati bosilib chiqishi muhim voqea bo‘ldi. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi haqidagi —

yangi, to'ldirilib yanada boyitilgan Qonunning qabul qilinishi o'zbek xalqi g'ururiga g'urur qo'shdi.

Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, Behbudiy, Mu-navvar qori Abdurashidxonov, Elbek, Botu, Usmon Nosir hayoti va ijodini asl, tarixiy jihatdan haqqoniy ko'rishda tadqiq etish adabiyotshunoslik va tanqidning dolzarb masalalariga aylandi. H.H.Niyoziy, G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor kabi san'atkorlar asarlarini qayta va xolis baholashga o'tildi.

Mustaqillik yillarida tarixiy-biografik tadqiqotlar yaratishga e'tibor kuchaydi. M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, E.Karimov, U.Normatov, B.Qosimov, A.Aliyev, Sh.Turdiyev, S.Ahmedov, A.Jalolov, I.Haqqulov singari adabiyotshunoslar XX asr yozuvchilari haqida qator sermazmun tadqiqotlar yaratdilar. Ularning safiga B.Karimov, N.Jabborov, D.Quronov, U.Hamdani, S.Meliyev, Sh.Rizayev kabi keyingi avlod vakillari o'zlarining yangi-yangi salmoqli izlanishlari bilan kelib qo'shildilar.

B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, S.Ahmedov qalamiga mansub «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» hamda N.Karimovning «XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari» nomli kitoblari bu davrning katta yutuqlari sifatida e'tirof etildi. Bu yillarda adib, adabiyot zamondoshlar xotirasida, zamondoshlar nigohida rukni ostida qator kitoblar turkumi bosilib chiqdi. Qator kitoblarda G'.Karimov, S.Dolimov, N.Mallayev, Sh.Shomammedov singari ustozlarning o'lmas siymolari yoritildi.

Filologiya fanlari doktori, professor K. Quramboyevning «G'afur G'ulom va adabiy aloqalar», «Adabiy ta'sirdan ijodiy o'ziga xoslikka», «Maxtumquli she'riyati O'zbekistonda», «Adabiy jarayon, ijod mas'uliyati, adabiy aloqalar», «Maxtumquli — ilhom chashmasi» kabi kitoblarida adabiy ta'sir va aloqalar, ijod mas'uliyati, R. Ibragimovning «O'zbek milliy fantastikasi», «Fantastika va hayot» kabi tadqiqotlarida fantastika va ijod muammolari tadqiq etildi.

Adabiy tanqidda intellektual mushohada ortdi, balandparvozlik, madhiyabozlik yo'qolib bormoqda. Fikrni dalillash, ishonitirish san'atiga, kitobxonda go'zallik tuyg'usini tarbiyalash masalalarida jiddiy siljishlar ro'y bera boshladi.

Tanqidda A.Rasulov, B.Sarimsoqov, B.Karimov, H.Boltaboyev, U.Hamdani, U. Jo'raqulov va boshqalarning asarlari misolida jahon adabiyotshunosligi tajribalari, mezonlari, uslubiy yo'nalishlari kuchaydi. Ayni vaqtda P.Mirzaahmedova, M.Sharafiddinova, A.Qosimov,

M. Xolbekov tadqiqotlari misolida o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida o'rganish tamoyillari yuzaga keldi.

Sharqda, o'zimizda O'rta asrlardayoq tafsirlar misolida namoyon bo'lib, XIX asrda Yevropada tushuntirish, talqin san'atining yangi ko'rinishi – «germenevtika» deb atalgan tadqiq yo'nalishi XX asr oxiri XXI asr avvalida adabiy yodgorliklarni, umuman, badiiy asarning tub ma'nosini talqin etishning yangi metodi – usuli sifatida namoyon bo'la boshladi.

Germenevtikaning ayrim yo'nalishlari Forobiy sharhlaridan tortib, XIX asrgacha O'zbekistonda davom etib kelgan bedilxonlik va mashrabxonliklarda, xususan, «Mabdai nur» hamda Maleho Samarqandiyning «Muzakkirul ashob» va Is'hoq Bog'istoniyning «Tazkirai Qalandaron» kabi asarlarida ma'lum ma'noda mavjud bo'lgan an'analar yangi bosqichda Ovrupo mezonlari asosida ilmiy tus oldi. Bu davrga kelib, shuningdek, o'zbek tanqidi va adabiyotshunosligiga M. Baxtin ilmiy-nazariy qarashlarining sezilarli ta'sirini kuzatish mumkin.

Mustaqillik tufayli, ayniqsa, hur va erkin fikrlash imkoniyati yaratildi. Umuman, keng kitobxonlar ommasi, xususan, barkamol avlodni fikr qulligidan ozod etishga harakat, mustaqil fikrlay oladigan kishilarni tarbiyalash adabiy tanqidning ham yetakchi masalasiga aylandi.

Bu matlab tarbiya jarayoniga ham kirib keldi va o'qitishning avtoritar metodidan shaxsga qaratilgan usuliga o'tildi. Ma'naviyat masalalariga Davlat miqyosidagi e'tibor, adabiy tanqid muammolariga ham shu nuqtayi nazardan qarashni taqozo etdi. Nashriyot masalalaridagi boshqaruv tizimining davlat monopoliyasidan chiqib, rang-baranglashuvi adabiy-tanqidiy va adabiyotshunoslik ishlarining chop etilishini jadallashtirish bilan bir qatorda, ularning yo'nalishidagi turli xillikka ta'sir etdi. Bu yo'nalishda «Ma'naviyat» va «Meros» nashriyotlari faollik ko'rsatdilar.

Adabiy tanqid tabiati, avvalambor, badiiy asar va hayotga suyanadi. G'oya, ijtimoiyot, vazifalar ham ana shularning zamiridan kelib chiqadi va ularga bog'liq holda taraqqiy etadi. Biroq bu degani adabiy tanqid doimo hayot va adabiyotning ortidan ergashib yuradi, degani emas.

U hayot va adabiyotni o'rganish, tahlil etish barobarida, o'z izlanish natijasidagi fikr, natija, xulosa, takliflar bilan hayot va adabiyotdan birmuncha oldinda yurishi mumkingina emas, lozimdir. Bu adabiy tanqidning mohiyatiga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir.

Istiqlol davriga kelib, adabiy tanqid erishayotgan yutuqlar va kamchiliklar, o'zida ana shu xususiyatni nechog'lik aks ettirayotganligiga qarab ham belgilanadi.

Sho'ro davrida hokim mafkuraning asosiy targ'ibotchilaridan biriga aylangan adabiy tanqid o'zining asl ilmiy-estetik vazifasini bajarishga, konsepsiya va mezonlarni yangidan qurishga kirishdi. Natijada tanazzulga yuz tutgan markscha-lenincha metodologiya o'rniga badiiy asarni tahlil va talqin etishda hurfikrlilikka asoslangan xolis ilmiy metodologik tamoyillar vujudga kela boshladi. Bu tamoyillarga ko'ra, endi badiiy asarga insonning ijtimoiy faoliyatini aks ettiruvchi vositagina deb emas, balki, birinchi navbatda, o'ziga xos dunyoqarash va qalb egasi bo'lgan individni poetik kashf qiluvchi san'at hodisasi sifatida qarash o'rinlasha bordi. Shu tariqa adabiy tanqid insonni badiiy kashf etish va tasvirlash yo'llari hamda usullarining o'ziga xosliklarini o'rganuvchi soha bo'lishi lozimligi idrok etildi va badiiy adabiyotga, asosan, san'atkorlik nuqtayi nazaridan yondashish tamoyili yangi bosqichga o'tdi.

Istiqlol davri tanqididagi yangilanish tamoyillari keng qamrovli bo'lib, unda yangilanayotgan metodologik asoslarni chuqur anglash, adabiy tanqid tafakkuridagi yangilanish jarayonlari va omillarini o'rganish, madaniy merosni, xususan, XX asr o'zbek adabiyotini qayta baholash yuzasidan adabiy jarayonda kechgan va kechayotgan izlanishlarni turli yondashuv va usullar asosida yangicha o'rganishni kasb etish, masalaga milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yondashish tamoyillarini o'zlashtirish, ayni chog'da, adabiy jarayondagi xilma-xil shakl va uslub izlanishlarini badiiylikning yangicha mezonlari asosida tadqiq etish bosh masalaga aylandi.

Adabiy tanqididagi yangilanish tamoyillari va omillari. Ma'lumki, har qanday sohada yangilanish sodir bo'lishi uchun bir necha muhim omillar asos vazifasini o'taydi va bu omillarsiz sohada yangi yo'nalishlar yuzaga kelmaydi. Adabiy tanqid tafakkuriga xos yangilanish, yangicha tahlil tamoyillarining paydo bo'la boshlashi va shakllanishiga xizmat qiladigan omillar nimalardan iborat, ular adabiy jarayonga qachon va qay tarzda ta'sir ko'rsatadi, degan savollarga turli davrlarda turlicha izohlar berilgan.

Adabiy tanqid konsepsiyasini yangilaydigan, yangicha qarashlar, tendensiyalar, yo'nalishlar, tahlil prinsiplarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar ikkita bo'lib, ular asosan, ichki va tashqi mohiyatdan kelib chiqadi.

Ichki omil deganda, eng avvalo, yangicha tanqid tafakkurini yuzaga keltiruvchi uning o'z ichki tabiatidagi xos xususiyatlar, binobarin qonuniyatlar nazarda tutiladi.

Bu qonuniyatlar yuzaga chiqishida alohida iste'dod sohibi bo'lishi darkor; tanqidchi «men»ining roli beqiyosdir. Bu omil badiiy adabiyotning ham ichki qonuniyatlari bilan mustahkam aloqadorlikda kechadi va zohir bo'ladi.

Adabiy tanqidda konsepsiyaning yangilanishi munaqqid dunyoqarashidagi yangilanish bilan uzviy bog'liq jarayondir. Dunyoqarash yangilanmay turib ilm-fanda yangilanish bo'lishi mushkul. Bu, ayniqsa, ijtimoiy fanlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois, dunyoqarashning yangilanishi ham ijtimoiy, ham ma'naviy omillarga birdek bog'liqdir. Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar jamiyat ma'naviyatida aks etadi. Ayni chog'da, ma'naviy olam ham ijtimoiy borliqning shakli shamoyilini belgilovchi muhim omillardan sanaladi. Bu ikki tushunchani bir-biridan ayri holda qarash masalani jo'nlash-tirishga olib keladi.

Zero, Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, «Insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi.

Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi»¹. Darhaqiqat, adabiy tanqid tafakkuridagi yangilanish va o'sish o'zgarishlarda ham, eng avvalo, ichki omil — munaqqid «men»i, shaxsiyati, dunyoqarashi, intuitsiyasi, tafakkur tarzi va iste'dodi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Adabiy-tanqidiy qarashlarni yangilaydigan tashqi omillar esa adabiy jarayon va ijtimoiy hayotdan tashkil topgandir.

Ma'lumki, har bir badiiy asar aniq shaxs — ijodkor tomonidan yaratiladi. Chinakam iste'dodlar tomonidan yaratilgan badiiy yetuk asarlar poetik tafakkurni u yoki bu jihatdan yangilaydi, adabiy hayotda yangi tamoyillar, oqimlar va yo'nalishlarning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi.

¹ *Karimov I.* Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008. 67-bet.

Binobarin, uni anglash, idrok etish va talqinda tanqidchilikdan o'zidagi yangiliklarga mutanosib yangilanishni talab etadi. Ayni chog'da, ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy hayotdagi yangilanish keng tushuncha bo'lib, bu jarayon jamiyatdagi barcha o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ya'ni iqtisodiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar ijtimoiy hayot tarzining yangilanishini bildiradi.

Mana shu jarayonlarda adabiy tanqid konsepsiyasining yangilanishi, eng avvalo, yangicha tanqid tafakkurining paydo bo'lishi bilan bog'liq tarzda kechdi. «Yangicha tanqid tafakkuri «tushunchasi keng qamrovli bo'lib, mazkur soha, bir tomondan, falsafiy, ijtimoiy, mafkuraviy, badiiy-estetik qonuniyatlar bilan aloqador bo'lsa, boshqa tarafdin, adabiyotshunoslik ilmi prinsiplari, talab va mezonlari asosida o'z faoliyatini yangilash yo'lidan boradi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan qarashlarning mag'zini realistik dunyo-qarash tashkil etishini payqash qiyin emas. Biroq, ta'kidlash joizki, so'nggi davr tanqidchiligi faqat shu mazmundagi konsepsiya asosida shakllanishi mumkin emas edi. Ijod jarayonida turfa xil qarashlarning yuzaga kelayotgani esa, tanqid taraqqiyotining asosiy garovidir. Shu bois, U.Hamdinmovning o'zida tasavvuf falsafasining mag'zini mujas-samlashtirgan «Insoniyatning tarix davomida topgan eng katta mantig'i bu — Xudoga e'tiqod!»¹, H.Karimovning ekzistensializm ta'limoti qarashlaridan kelib chiqib, «...modernizmning obykti real voqelik emas, subyekt, ijodkorning tasavvuridagi voqelikning talqinidir»², degan xulosalariga hecham ajablanmaymiz. Zotan, so'nggi davr tanqidchiligiga xos xususiyatlarga aylanib borayotgan bunday qarashlar adabiy tanqidning talqin ko'lami, baholash doirasi kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Zero, muayyan badiiy asarlar hamda ulardagi badiiy-estetik, ijtimoiy-g'oyaviy konsepsiyalar zamirida belgilovchi falsafiy ta'limot yotibdi. Adabiyot ilmi oldidagi dolzarb vazifalardan biri ham mavjud turli-tuman qarashlarning eng xarakterlilarini sintezlashtirib, badiiyatning umumiy qonuniyatlari va estetik tamoyillarini belgilash, shu asosda adabiy tanqid metodologiyasining hurfikrlilikka asoslangan konsepsiyalarini yaratishdan iboratdir.

¹ *Hamdinmov U.* Yangilanish ehtiyoji. — T.: Fan. 38-bet.

² *Karimov N.* Poeziya — o'z-o'zicha voqelikdir // O'zAS. — T.: 2006. — 24-mart.

Istiqlolning ilk yillarida (1993) Prezident I. Karimovning bir guruh ijodkorlar bilan uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda birinchi marta istiqlol davri o'zbek adabiyotining metodologik asosini demokratik tamoyillarga asoslangan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan mustaqillik mafkurasi tashkil etishi lozimligi aytili. Yaratilajak mafkura qanday bo'lishi lozim, degan masala ham qizg'in muhokama etildi. Mazkur masala yuzasidan «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining mustaqilligimizning ikki yilligi arafasida tashkil etgan «Istiqlol va adabiyot»¹ mavzusidagi davra suhbatida xarakterii fikrlar o'rta ta tashlandi.

Suhbatda ishtirok etgan O. Yoqubov, A. Oripov, O. Sharafiddinov, T. Malik, T. Qahhor va X. Do'smuhammad yaratilajak mafkuraning o'ziga xos jihatlari haqida fikr-mulohazalarini bayon etishdi. Mustaqillik mafkurasi sinfiylik va partiyaviylikdan xoli, xalqimizning azaliy orzulari, turmush tarzi, urf-odatlar, an'analar bilan chambarchas bog'langan milliy mafkura bo'lishi lozimligi ta'kidlandi. Jumladan, O. Yoqubov mustaqillik davri ijodkorining asosiy vazifalaridan biri «millatimiz uchun, ona yurtimiz uchun, farzandlarimiz baxt-saodati uchun butun iqtidorini bag'ishlashdan iborat bo'lmog'i kerak», deb hisoblasa, A. Oripov «mafkura» so'zining zamirida ma'lum fikr yotishini va adabiyotdagi mafkurani ifodalaydigan mazkur fikr sog'lom bo'lishi lozimligini ta'kidladi. O. Sharafiddinov va T. Malik adabiyotning vazifasi haqida so'z yuritib, adabiyot mustaqillikni mustahkamlash, mustaqillik mafkurasini yaratish yo'lida millat ongini tarbiyalashi, uning ma'naviy dunyosini yangilash yo'lida xizmat qilishi zarur, degan fikrni o'rta ta tashlashdi.

T. Qahhor aslida adabiyotdagi mafkura milliy zamin bilan bog'liqligini, eng qadimgi yozma yodgorliklarda ham millat va davlat, vatan tushunchalari zikr etilgani haqida gapirib, «Bugungi adabiyot o'sha eski tamal toshlar ustida turar ekan, demakki, bugungi milliy mafkura ham bobolarimiz qurgan davlatlardagi mafkura tajribalariga tayanmog'i tabiiydir», degan xulosaga keladi.

Darhaqiqat, adabiyotdagina emas, balki jamiyatning barcha jabhalarida ham, xususan, davlatchilikni barpo etishda ham mafkura muhim rol o'ynashini keyingi o'n yillik tarix isbotladi. Sh. Xolmirzayev o'zining «Adabiyot o'ladimi?» maqolasida ilgari surgan mafkura borasidagi dastlabki qarashlaridan voz kechib, «Jamiyatning maqsadi, ya'ni

¹ Istiqlol va adabiyot // O'zAS. — T.: 1993. — 6-avgust.

mafкура bobida o'ylar» nomli essesida («Tafakkur», 1999 yil, № 1–2) milliy mafkuraning yaratilayotganligini va u umuminsoniy qadriyat-larni ham o'zida mujassamlashtira olganini iftixor bilan e'tirof etadi.

Xullas, yuqoridagi kuzatishlardan shunday to'xtamga kelish mumkin: istiqloq davri tanqidchiligi o'zining metodologik asoslarini sinfiylik va partiyaviylikka asoslangan sho'ro davri tanqidchiligidan tubdan farq qiluvchi prinsiplar asosida yangilay boshladi. Bu yangi-lanish, eng avvalo, tanqidchi dunyoqarashi va ilmiy konsepsiyasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda namoyon bo'ldi.

Bu jarayonda dialektik yondashuvdan tashqari gnoseologik, ontologik, sinergetik yondashuvlar ham amal qila boshlaganligini kuzatish mumkin. Badiiy asarni tayyor nazariy qoliqlar vositasida emas, balki matn mohiyatidan kelib chiqib talqin etish ustuvor yo'nalishga aylanib bormoqda.

Shu jihatdan akademik B. Nazarovning istiqloqdan bir yil oldin «O'qituvchilar gazetasi»ning ketma-ket beshta sonida chop etilgan «Zamon va adabiyot»¹ sarlavhali maqolasi muhim ahamiyatga ega. Maqolada garchi yangi darsliklar yaratish masalasi bilan bog'liq holda bo'lsa-da, asosan, adabiyotshunoslik va adabiy tanqidda yuzaga kelgan metodologik muammolar va ularning yechimi haqida fikr yuritiladi. Muallif adabiyotshunoslik ilmi oldida dolzarb bo'lib turgan uchta muhim masalaga diqqatni jalb qiladi.

Shularidan birinchisi, jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar adabiy jarayon va konkret asarlarga yangicha ilmiy-nazariy va metodologik yondashuvlardan tashqari, ularni saralash va qayta baholash, yangicha munosabat masalasi.

Ikkinchisi, shu paytgacha mavjud bo'lgan ilmiy-nazariy qarash-larni yoki ijodkorlarimiz yaratgan badiiy mukammal asarlarni saralab, ibratli jihatlarini tarixiylik mezonlari asosida qayta baholash masalasidir. Munaqqid fikricha, mashhur shoir, yozuvchilarimizning adabiyotimizda katta rol o'ynagan, biroq davr taqozosi tufayli kamchilik-lardan xoli bo'lmagan asarlarini baholashda batamom inkor etuvchi prinsiplar to'g'ri mezon bo'lolmaydi.

Bunday asarlarning kamchiligi ham, fazilati ham tarixan to'g'ri baholanishi, sabablari ochiq-oydin ko'rsatilishi zarur. Uchinchidan esa, «eskirgan materiallardan, qarashlardan, nuqtayi nazarlardan voz

¹ Nazarov B. Zamon va adabiyot // O'qituvchilar gazetasi. – T.: 1990. – 22-, 26-, 29-sentabr; 3-, 6-oktabr sonlari.

kechish, ularni shunchaki soʻzsiz itqitib tashlash; boʻlajak yangi darsliklarga ularni shunchaki kiritmay qoʻya qolish; inkor etiladigan qarashlarni boshdan oyoq qoralash, chaplash asnosida emas, balki ular nega eskirganini, nega darslikdan chiqarib tashlanishi va nima sababdan ular tanqid qilinayotganini, yangicha qarashlar nima asoslarga koʻra ilgari surilayotganligini chuqur va yetarlicha tushuntirish evaziga olib borilishi lozim»¹.

Olim ana shu uchta prinsipial masaladan kelib chiqib, shoʻro taʼlimotining metodologik asoslari va tamoyillari, ularning adabiyot va adabiy tanqid taraqqiyotiga yetkazgan zarari mohiyatini tahlil qilar ekan, yangicha tamoyillar qanday boʻlishi kerak, degan masalaga oʻz munosabatini bildiradi.

Mana shunday muammolardan bittasi adabiyotning sinfiyligi va partiyaviyligi haqidagi taʼlimotdir. Olim shoʻro davrida adabiyotning sinfiyligi va partiyaviyligi qonuniyat darajasiga koʻtarilgani va har bir yaratilgan asardan shular talab etilganini jiddiy xato sifatida taʼkidlaydi. Munaqqid fikricha, «Endi partiyaviylik va sinfiylik emas, balki, eng avvalo, umuminsoniy qadriyatlar, umuminsoniy mezonlar badiiy asar oldiga qoʻyiluvchi asosiy talablar deb hisoblanmoqda».

Maqolada eʼtibor qaratilgan yana bir masala badiiy asarni soʻz sanʼati sifatida his qilish va baho berish tamoyilidir. Munaqqid fikricha, adabiyotda siyosatning ham, mafkuraning ham muayyan maʼnoda oʻrni bor. Shu bilan birga, munaqqid taʼkidlaganidek, «adabiyot degani bu aslida soʻz sanʼatidir, sehr sanʼatidir. Biz «Oʻtkan kunlar»dan partiyaviylikni qanchalik talab qilmaylik, unda sinfiy kurash ozligi, sayozligi uchun asarni qanchalik tanqid qilmaylik, oʻquvchilarimiz oydin kechalarda mijja qoqmay romanni oʻqiyveradilar, Otabek va Kumush hissiyotlarining hayajonida tunni tongga ulayveradilar, bu baxtsiz muhabbat timsolida muhabbatda baxtli boʻlmoq yoʻllarini izlayveradilar»².

Olim shu mezon bilan shoʻro davrida E.Vohidovning «Oʻzbekim», A.Oripovning «Oʻzbekiston» sheʼrlari ham Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat, sotsializmni ulugʻlash, kapitalizmni qoralash ruhida tarbiyalaydi, deb baholab kelinganini aytar ekan, endi badiiy

¹ *Nazarov B. Zamon va adabiyot // Oʻqituvchilar gazetasi. – T.: 1990. – 22-, 26-, 29-sentabr; 3-, 6-oktabr sonlari.*

² *Nazarov B. Zamon va adabiyot // Oʻqituvchilar gazetasi. – T.: 1990. – 22-, 26-, 29-sentabr; 3-, 6-oktabr sonlari.*

adabiyotga baho berganda soʻzning sehrini, goʻzalligini, badiiy asar qatiga yashiringan jozibasini his qilish, bir soʻz bilan aytganda, haqiqiy *badiiy kashfiyotni izlash* zarurligini taʼkidlaydi.

Munaqqid fikricha, metodologik muammolardan yana biri adabiy muʼtelik, qaramlikdan qutulish, fikriy erkinlik masalasidir. Uzoq yillar adabiyotshunoslik va tanqidchilikdagina emas, hatto adabiyot darsliklarida ham fikriy qaramlik, mutelik hukmronlik qildi. Bu qaramlik, mutelik, olim fikricha, koʻproq xalqlar doʻstligi, hamjihatlik, birodarlik va boshqa umuminsoniy tushunchalar bilan pardalanib kelindi. Aslida esa, barcha badiiy, ilmiy-estetik izlanishlar hokim mafkura gʻoyalari ga boʻysundirildi.

Munaqqid XX asr oʻzbek adabiyoti haqidagi darslik oʻzbek ijodkorlari Qodiriy yoki Hamza bilan emas, balki, M.Gorkiyning monografik portreti bilan ochilganiga eʼtiborni tortib, buning sababini izohlab beradi. Darhaqiqat, shoʻro davrida oʻzbek adabiyoti koʻp millatli sovet adabiyotining bir qismi va bu adabiyotning asoschisi M.Gorkiy sanalardi. Bundan tashqari, u oʻzbek yozuvchilarining ham ustози hisoblanardi. Shu bois, oʻzbek adabiyotiga oid darslikning M.Gorkiy hayoti va ijodi bilan ochilishi tabiiy, deb tushunilardi. B.Nazarovning taʼkidlashicha, «Bunday tushuntirishlar qanchalik asosli, mantiqqa yaqin boʻlib koʻrinmasin, baribir, istaymizmi-istamaymizmi, u katta maʼnodagi mutelashuvga ishtiyoq, deb atalmish siyosiy laganbardorlikning adabiyotdagi, ilmdagi, pedagogika sohasidagi koʻrinishi boʻlib kelgan edi. Chunki birdan-bir toʻgʻri gap shuki, qanchalik oʻrab-chirmab isbotlamaylik, M.Gorkiy buyuk rus yozuvchisidir»¹.

Maqolada ilgari surilgan yana bir muhim masala shoʻro davri adabiyotiga, unda yaratilgan har bir asarga tarixan toʻgʻri baho berish masalasidir. Munaqqid fikricha, «uzoq yillar davomida shoʻro davri adabiyotiga bir yoqlama shablonlar asosida yondashib keldik. Masalan, «Oʻtkan kunlar» romanidagi Yusufbek hoji va Otabek timsolida oʻzbek xalqining feodalizmga qarshi noroziligi chuqur aks ettirilmagan, ular oʻz sinfiy, tub manfaatlaridan tashqariga chiqqa olmagan, shu bois ham yozuvchi dunyoqarashi cheklangan degan baholarni berib keldik». Shu bois, bugungi qayta baholash jarayonida bir xatodan qutulib, ikkinchiga yoʻl qoʻymaslik kerak. Masalan, Uygʻunning «Nazir otaning

¹ *Nazarov B. Zamon va adabiyot // Oʻqituvchilar gazetasi. — T.: 1990. — 22-, 26-, 29-sentabr; 3-, 6-oktabr sonlari.*

g'azabi», «Brigadir Karim», H.Olimjonning «Baxtlar vodiysi», «Shodlikni kuylaganimning sababi» kabi she'rlariga baho berganda ham shu mezonlarni asos qilib olish zarur.

Masalan, Uyg'unning yuqoridagi she'rlarini shunchaki darsliklardan chiqarib tashlash, tilga olmaslik bilan ish bitmaydi. Aksincha, tarixiylik prinsiplaridan kelib chiqib, bu tipdagi g'oyalar aks etishining obyektiv sabablarini ham chuqur tahlillar bilan asoslab, ko'rsatib berish zarur.

Maqolada, ayni paytda, jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lib, keskin tanqidiy fikr va inkorlar aytilayotgan sotsialistik realizm metodi haqida ham xarakterli qarashlar o'rtaq tashlanadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, sotsialistik realizm haqidagi qarashlar 90-yillar tanqidchiligida jiddiy munozaraga aylangan va unda ko'plab olimlar ishtirok etgan edi. A.Otaboy va U.Normatov munozaralari bilan boshlanib, qariyb bir yil davom etgan bahs mazkur metod haqidagi tanqid tafakkurining yangilanishiga katta ta'sir o'tkazganini ta'kidlash zarur.

Ayni chog'da, sotsialistik realizm metodini inkor qilish, qoralash o'z-o'zidan mazkur metod hukmronligi davrida yaratilgan ko'plab badiiy adabiyot namunalari taqdirini ham xavotir ostiga oladi, aytaylik, uning go'zal namunasi, deb baholab kelingan «Qutlug' qon» tipidagi asarlarga munosabatda qanday yondashuvlar zarur, degan g'oyat muhim masalani kun tartibiga chiqardi.

O'sha paytda sotsialistik realizmning «o'lmas namunalari» borligini isbotlashga harakat qilib yozilgan maqolalar ham ko'plab chop etilayotgan edi. Mana shunday murakkab vaziyatda sotsialistik realizm metodining uzoq yillar davomida adabiyotimizga ko'rsatgan mislsiz zarari haqidagi haqiqatni aytish barobarida, har qanday tazyiq va cheklovlariga qaramasdan, o'sha davrda badiiy mukammal asarlar ham yaratilganligini asoslash, umuman, mazkur metod haqidagi to'g'ri metodologik yondashuvga zarurat bor edi.

Munaqqid fikricha, sotsialistik realizmdan voz kechish, uning prinsiplari zo'rma-zo'rakilikka asoslanganini fosh qilish kabi harakatlar yaxshi, albatta, lekin bu masalaning nihoyatda nozik bir tomoni ham bor.

Modomiki, badiiy asar talqinida sotsialistik realizm prinsipining o'rniga umuminsoniy qadriyatlar mezonini asos qilib olinar ekan, shu metodda yaratilgan, deb qaralayotgan asarlarga munosabatni belgilash g'oyat muhim ahamiyatga ega. Zotan, umuminsoniy mezonlar va

budiiylik tamoyillari sho'ro davrida yaratilgan va sotsialistik realizm namunasi, deb e'tirof etilgan ko'plab asarlarga, jumladan, «Navoiy», «Mirzo Ulug'bek» kabi asarlarga ham yoki bu metoddan tashqarida, deb hisoblangan Qodiriy, Cho'lpon asarlariga baho berganda ham birdek nazarda tutilmog'i kerak, deb hisoblaydi maqola muallifi.

«Demak, sotsialistik realizm metodi deyilganda, uning majburiylikdan tashqari bo'lgan prinsiplari qatlamida umuminsoniy mezonlarga asos bo'lgan fazilatlar ham mavjud ekanini unutmazlik kerak bo'ladi»¹.

Istiqlol davrida chop etilgan ko'plab maqolalarda mazkur qarashlarning davom ettirilgani, yanada chuqurlashtirilgani va rivojlantirilgani mazkur metodologik yondashuv to'g'ri belgilanganligidan dalolat beradi.

Jumladan, professor T.Mirzayev adabiyotshunoslik ilmi oldida turgan asosiy vazifalar, O'zR FA va Til va adabiyot institutida amalga oshirilayotgan ilmiy ishlar haqidagi suhbatida asosiy e'tiborni yangi mezonlar qanday bo'lishi lozimligiga qaratadi.

«Yangi mezonlar qanday bo'lmog'i kerak (O'z AS, 1995. — 3-mart) sarlavhasi bilan chop etilgan ushbu suhbatda hozirda «adabiyotshunoslikda sof nazariy va metodologik muammolarga katta e'tibor berilayotganligi, adabiyot tarixini bo'laklamay, unga yaxlit adabiyot tarixiy jarayon sifatida baho berish tamoyili kuchayayotgani, san'atkorlar ijodini tahlil va tashviq qilishda xolislik va haqiqat mezonlarining birinchi o'rinlarga chiqayotganligi, adabiyot va ijtimoiy hayot masallarini o'rganishga, milliy zaminga e'tibor oshganligi» quvonarli hol sifatida e'tirof etiladi.

Olim adabiyot ilmida yuzaga kelayotgan hurfikrlikni, fikriy mutelikdan xalos bo'lib borilayotganligini mamnuniyat bilan qayd etar ekan, boshqa bir xavfdan ham ogohlantiradi: «Fikr erkinligi — og'ziga kelganini aytish, mayda-chuyda shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, bir-birini tahqirlash, millat va yurt tashvishlari bir yonda qolib, ma'lum guruh g'arazlarini yoqlash degani emas. Fikr erkinligi, eng avvalo, aytiladigan har bir so'z, har bir fikr uchun mas'uliyat va javobgarlikdir».

Olim fikricha, so'nggi davrlarda adabiy tanqid bunday kamchiliklardan qutilib, chinakam hurfikrlikka erishmoqda.

¹ Nazarov B. Zamon va adabiyot // O'qituvchilar gazetasi. — T.: 1990. — 22-, 26-, 29-sentabr; 3-, 6-oktabr sonlari.

U. Normatovning «Haqiqat taqozosi» maqolasida ham metodologik yangilanishlar jarayonidagi ziddiyatli holatlar haqida fikr yuritiladi. Muallif sho‘ro davrida «adabiyot tarixiga, adabiy hodisalarga, asarlarga yagona, majburiy markscha-lenincha yo‘l-yo‘riqlar bilan yondashish»da sinfiylik va partiyaviylik mezonlari ustunlik qilganini ta’kidlar ekan, endi yangilanayotgan tanqid tafakkuri qanday mezonlarga tayanishi zarur, degan masalaga e’tiborni qaratadi.

Mustaqillikning dastlabki paytlaridayoq adabiyot avval qanday edi-yu, endi yangi tipdagi adabiyot qanday bo‘lishi lozim, degan masala kun tartibining asosiy muammosiga aylandi. Bunda asosiy e’tibor adabiyotning ijtimoiyligi, mafkura bilan munosabati, omma-viyiligi va tarbiyaviyligi, badiiy-estetik tamoyillari masalasiga qaratildi. Jumladan, Q.Yo‘ldoshevning «Yoniq so‘z»¹ kitobida jamlangan ko‘p-gina maqolalarning asosiy mavzusini yuqorida qayd etilgan masalalar tashkil etadi.

Q.Yo‘ldoshev XX asr o‘zbek adabiyotining yetakchi xususiyatlarini, ijtimoiylashuvining mohiyatini, sabab va oqibatlarini teran talqinlar asosida ko‘rsatib beradi. Uning fikricha, mumtoz adabiyot xos odamlarga atalib, ularni qahramon sifatida tasvirlagan bo‘lsa, keyingi davr adabiyoti o‘z «estetik arshidan tirikchilik zaminiga tushib» ijtimoiy hayotni va turmush tashvishlariga ko‘milgan oddiy odamlarni, ularning kundalik o‘y-xayollarini tasvirlay boshlagan adabiyotga aylana borgan². Shunga ko‘ra, adabiyotning vazifasi ham o‘zgara boshlagan. Ya’ni adabiyot o‘zining sof san’atligidan chekinib, ijtimoiy muammolarni ko‘tarib chiqadigan, tashviqot qiladigan ijtimoiy-estetik hodisaga aylangan. Shu bois, unda xalqchilik kuchaydi, tili jonli xalq tiliga yaqinlashdi, janr imkoniyatlari kengaydi. Olimning xulosalariga ko‘ra, bu o‘zgarishlar boshdanoq ijtimoiylashgan G‘arb adabiyoti ta’sirida yuzaga keldi va ayniqsa, sho‘ro davri adabiyotida avj nuqtaga ko‘tarildi. Oqibatda adabiyot nafaqat ijtimoiy mazmun kasb etdi, ayni chog‘da, hokim mafkura g‘oyalari xizmat qilib, hukm-xulosalar chiqarib, qarorlar qabul qiluvchi davlat ishiga aylantirildi. Adabiyotda insonning o‘zi emas, uning faoliyati tasviri yetakchilik qila boshladi.

Adabiyotshunos D. Quronov muammolarga munosabat bildirarkan, ularni uzil-kesil yechim va aniq-tiniq hukm-xulosalar chiqarish-

¹ *Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z* — T.: Yangi asr avlodi, 2007.

² O‘sha manba. 30-bet.

ning imkoni bo'lmagan tushunchalar sirasiga kiritadi. U Cho'lponning «Adabiyot nadur?» degan mangu savolini o'rtaga qo'yarkan, mazkur savolga turli davrlarda turlicha javoblar berilganligini, biroq bugungi kunda ham ushbu savol kun tartibidagi asosiy masala bo'lib qolayotganligini ta'kidlaydi va ularga o'z munosabatini Abdulla Qahhorning «O'g'ri», Oybekning «Na'matak» asarlari tahlili orqali bildiradi. Olim adabiyotning o'ziga xos tabiatini ijod jarayoni bilan bog'lab talqin etadi. Bilishga ehtiyojini ijodga olib boruvchi yo'l sifatida ta'kidlaydi va bu ehtiyoj bilishga qaratilganligi bois, ijtimoiylikka daxldor, degan xulosaga keladi. Asarning yaratilishi, ya'ni genetik jihatiga ko'ra ijtimoiy hodisa, deb baholagan munaqqid fikricha, badiiy asarda ijtimoiylik bilan shaxsiylik uyg'un holda kechadi, faqat ularning darajasi, nisbati turli asarlarda turlicha namoyon bo'ladi. Munaqqid adabiyotdagi yuzaki, yalang'och talqin etilgan ijtimoiylikka qarshi, biroq ayni paytda badiiy asarlardagi tom ma'nodagi ijtimoiylikni inkor etuvchilarning fikriga ham qo'shilmaydi.

U.Hamdamovning «Badiiy tafakkur tadriji» nomli kitobida ushbu masalalar yuzasidan e'tiborga molik fikrlar o'rtaga tashlanadi. Chunosonchi, U.Hamdamov XX asr adabiyotini, Q.Yo'ldoshevdan farqli o'laroq, ijtimoiy va meditatif asarlarga ajratadi. Bunda ijtimoiylikning vujudga kelishiga asos bo'lgan bir qancha omillar, jumladan, ichki va tashqi omillarni sharhlar ekan, badiiy ijodda ijtimoiy, badiiy va ruhiy holatlar bir butunlik kasb etsagina, chinakam adabiyot yuzaga keladi, degan xulosani ilgari suradi.

Ushbu kuzatuvlardan ma'lum bo'layotirki, adabiy tanqid badiiy asar va uning o'ziga xosligi haqida fikrlaganda ijtimoiylikni ham, badiiylikni ham bir butun holda talqin etishga harakat qila boshladi. Ayni haqiqat adabiyotning o'ziga xosligini to'g'ri talqin etishga asos bo'luvchi metodologik tamoyillarning yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi.

Adabiy tanqid konsepsiyasining yangilanishi ko'plab g'oyat muhim masalalarning hal etilishi bilan xarakterlidir. Jumladan, sho'ro davrida hukm surgan konsepsiyaning asl mohiyatini anglab olish, uning asosiy jihatlarini to'g'ri taftish qilish, qolaversa, adabiyotning, badiiy asar konsepsiyasining yangilanishi zarurligi, adabiy tanqidning eski metodologiyadan farqli yangi metodologik asosini yaratish va h.k. Adabiyotshunos olim va adib X.Do'stmuhammad «Konsepsiyani yangilash uchun...» maqolasida bu ishni avvalo «...hayotni badiiy idrok etish borasidagi shakllangan qadriyatlarimizni ochiq-oydin taftish qilishdan, yozuvchilarimiz konsepsiyalarini o'rganishdan boshlash kerak», degan

talabdan kelib chiqib, Qodiriyning «O'tkan kunlar», «Obid ketmon», Oybekning «Qutlug' qon» asarlaridagi yetakchi konsepsiyalarni zamonaviy, yangi qarashlar, yangi mezonlar asosida aniqlashga harakat qildi (O'z AS, 1990, 16- fevral).

X. Do'stmuhammad nazarda tutgan sho'ro davri adabiyoti, xususan, o'sha davrda ijod qilgan yozuvchilar konsepsiyasini qay tarzda taftish qilgan, baholagan ma'qul? Ularning qaysi jihatlaridan voz kechib, qaysi jihatlarini adabiy jarayonga xizmat qildirish lozim? «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftaligida uyushtirilgan «Tavbadan tozarishgacha...»¹ sarlavhali davra suhbatida yuqoridagi singari savollarga javob topishga harakat qilingan.

Davra suhbatida ishtirok etgan adib va olimlar O. Yoqubov, M. Qo'shjonov, Shukrullo va Tohir Malik shaxsga sig'inish davri illatlarining hayotga va adabiyotga yetkazgan salbiy oqibatlari, A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, U.Nosir kabi ulug' iste'dod sohiblarini ham mustabid tuzum ayamaganini aytishgan.

Ularning hayoti va ijodiga oid barcha ma'lumotlar, materiallarni o'rganish va xalqqa ro'y-rost yetkazish zarurligini ta'kidlashgan. Shuningdek, suhbatda ishtirok etgan B. Qosimov va U. Qo'chqor e'tiborni totalitar tuzumni yuzaga keltirgan omillarning tub mohiyatini ochib tashlash lozimligiga qaratishgan.

Darvoqe, davra suhbatining «Tavbadan tozarishgacha...» deb nomlanganida ham o'ziga xos ramziy ma'no bor. Zero, yetmish yil davomida ko'plab begunoh insonlarning, birinchi galda, ijodkor, ziyoli, olim va davlat arboblarning qatag'onga duchor bo'lishida vositachilik qilib, bilib-bilmay mustabid tuzum tegirmoniga suv quyganlar ham bo'ldiki, endilikda ular o'sha gunohlari uchun tavba-tazarru qilishlari lozim, degan fikr davra suhbatida dadil aytili. «Eng ulug' ish — o'tmish xatolaridan butkul voz kechishimiz, shuning baravarida tavba-tazarru qilish hali o'z yuksak maqomida ado etilganicha yo'q. Holbuki, tozarishning, poklanishning muborak yo'li tavbadan boshlanadi. Albatta, u g'oyat mashaqqatli, lekin kelajak hayotni — toza hayotni usiz tasavvur qilib bo'lmaydi» (I. G'afurov).

Mustaqillik arafasida aytila boshlangan bunday fikrlar yangicha dunyoqarash, yangicha konsepsiyaning ilk kurtaklari edi. Bu kurtaklar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq g'unchalab, adabiyot va san'at, adabiy tanqidagi yangilanayotgan konsepsiyaning yetakchi tamoyil-

¹ «Tavbadan tozarishgacha...» // O'z AS. — T.: 1990. — 13-mart.

larini belgilashda muhim rol o'ynadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqorida kuzatilganidek, yozuvchi va shoirlar, adabiyotshunosu tanqidchilarning ilg'or qismi mustaqillikkacha bo'lgan davrdayoq yangi tipdagi adabiyotning o'ziga xos shakl-shamoyili haqida fikr yurita boshlagan ekan, bu hol ularning yangi davrga ham ruhiy-psixologik jihatdan, ham aqliy-amaliy tomondan ma'lum tayyorgarlik bosqichini o'taganini bildiradi.

Shuning uchun ham istiqloqlning dastlabki paytlaridayoq «Istiqloq adabiyoti qanday bo'lishi kerak?», «Yangi adabiyotning asosiy mezonlari nimadan iborat?», «U kimni va nimani tadqiq etadi, kimga va nimaga xizmat qiladi, qay yo'llardan yurib, qay manzillar sari boradi?» qabilidagi ko'plab savollar kun tartibiga qo'yildi.

Istiqloq davri tanqidida adabiy tanqid metodologiyasining yangilanish tamoyillari. Istiqloq davri tanqidiga xos yangilanish tamoyillaridan yana biri XX asr o'zbek adabiyoti va uning namoyandalari ijodining qayta baholanganida kuzatiladi.

90-yillar tanqidi ijodkor jadidlar hayoti va faoliyatini o'rganish asnosida, nainki ularning asarlaridagi xosliklar, balki umuman, jadidchilik harakati, uning konsepsiyasi haqida ham muhim-muhim yangi xulosalarga keldilar. Natijada, bu davr adabiy hayotining haqqoniy tarixiy lavhalari bilan bir qatorda davr ijtimoiy hodisalarining tarixini tiklash bo'yicha ham muhim ishlar amalga oshirildi. Vatanimiz tarixining asr boshidagi qorong'i sahifalarini yoritish xolis ilmiy baholar bilan to'ldirildi.

Umumbashariy mezon va konsepsiyaga asoslana boshlagan adabiy tanqidning ushbu bosqichi beqiyos ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Chunki, birinchidan, bu bosqichda asr boshidagi adabiy muhit haqida tarixiy haqiqatni tiklash, shu tariqa adabiyotimizning yangi tarixi yaratilishiga asos solindi. Ikkinchidan, qatag'on siyosati qurboniga bo'lgan va uzoq yillar mobaynida nohaq ayblanib kelgan ijodkorlar merosi xalqqa qaytarildi.

Bu hol istiqloq davri o'zbek tanqidi dastlabki bosqichidayoq milliy uyg'onish (jadid) davri adabiyotiga munosabatda tub yangicha yondashuv va tamoyillarni nainki boshlash, balki mustahkamlash yo'lida turganini ko'rsatadi.

Bu nimalarda ko'rinadi? Birinchidan, istiqloq sharofati tufayli milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodiga oldindan tayyor qoliqlar asosida emas, balki yangi shakllanayotgan milliy mafkura, Vatan va xalq, millat manfaatlarini nuqtayi nazaridan yon-

dashildi. Ikkinchidan, ilgari tilga olish xavfli hisoblangan jadid adiblari asarlarini, umuman, yoxud alohida-alohida emas, ularning har birining ijod namunalari va, umuman, jadid adabiyoti kompleks o'rganila boshlandi.

Uchinchidan, eng muhimi, XX asr boshidagi jadidchilik harakatiga ilk bor to'g'ri metodologik yondashuv yuzaga keldi.

Ma'lumki, sobiq sho'ro davrida jadidchilik faqat burjua harakati sifatida tilga olinar, ma'rifatparvar adiblar ijodi faqat qisman o'rganilgan, ularning ayrim asarlari va faoliyatlari noto'g'ri talqin etilgandi. Vaholanki, milliy uyg'onish (jadid) davri adabiyotini o'rganishda bu davrda yaratilgan asarlarni ularning mualliflari dunyoqarashi, millatparvarligi, mislsiz jasoratga yo'g'rilgan hayoti va faoliyatidan ayricha tadqiq etib bo'lmasdi. Istiqlol davri adabiy tanqidi shu muhim jihatlarning uyg'un talqiniga kirishdi va izlanishlar o'zining fundamental natijalarini berdi.

Shu jihatdan adabiyotshunos olim Begali Qosimovning (1942–2004) «Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik» nomli ko'lamli, teran va har jihatdan ilmiy asoslangan yirik tadqiqoti xarakterlidir. Aytish joizki, olimning sho'ro davri ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri shu davr bilan bog'langani va buning hosilasi sifatida «Izlay-izlay topganim...» nomli kitobining yaratilganligi ham mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Mazkur tadqiqotning yana bir muhim jihati shundaki, olim o'zigacha ushbu mavzuda yozilgan ishlarga o'zining prinsiplaridan kelib chiqib yondashadi.

Bu prinsiplarda istiqlol davri adabiy tafakkurining yetakchi tamoyillari bo'y ko'rsatgan. Ya'ni B.Qosimov ulkan va nihoyatda ziddiyatli kechgan XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy harakat-chilikni milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari asosida tadqiq va talqin etadiki, bu tamoyil, ayni paytda, o'zining tahlil prinsiplarini shakllantirayotgan o'zbek adabiy tanqidchiligi faoliyatida jiddiy yangilanishlarga turtki berdi.

Bu jihatdan olimning Abdurauf Fitrat hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqoti e'tiborga molik. Tarixiy davr, aniq sana va voqealar, badiiy asarlar g'oyasi mufassal tadqiq etildi, bu adabiy portret tarixiy-adabiy, biografik metodda yaratilgan.

Muallif mutafakkir adib va davlat arbobi Fitratning hayoti va ijodini, konkret asarlari, ular chop etilgan vaqt, o'sha vaqtda ro'y bergan voqealar fonida tahlil etadi.

Istiqloq davri tanqidining diqqat markazida Qodiriy, Fitrat va Cho'ipon ijodlari turgani tabiiy hol edi. Milliy uyg'onish davrining yetakchi namoyandalari bo'lgan bu ulug' adiblar hayoti va ijodiga bag'ishlangan ko'plab adabiy-tanqidiy maqolalar pirovard natijada o'zbek adabiyotshunosligida qodiriyshunoslik, cho'iponshunoslik, fitratshunoslik kabi yangi yo'nalishlarning to'la shakllanishiga olib keldi. So'nggi davr tanqidida bu ijodkorlar faoliyatiga keng va chuqur yondashilgani masalaning mohiyati metodologik jihatdan to'g'ri belgilanganidan dalolat beradi.

Shu bois, 90-yillarning boshlaridayoq Qodiriy hayoti va ijodiga bog'liq haqiqatlarni to'la tiklash, asarlarini badiiy-estetik mezonlar, tamoyillar asosida qayta baholashga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Bunda adabiy tanqid jahon adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga xos ilg'or metodologik tamoyillarga tayandi, xorijda shakllangan qodiriyshunoslik, fitratshunoslik va cho'iponshunoslikning yetakchi konsepsiyalarini o'rganish orqali e'tiborli jihatlarini ijodiy o'zlashtirish yo'lidan bordi. Adabiy tanqid bu adiblar ijodini baholashda, ayniqsa, Qodiriy asarlari tadqiqida muvofiqlik va to'ldiruvchanlik tamoyillariga tayandi. Bu xususiyat, ayniqsa, sho'ro davri qodiriyshunosligiga ham o'z hissalarini qo'shib kelishgan M.Qo'shjonov, S.Mirvaliyev, A.Aliyev, U.Normatov singari munaqqidlar ijodiga xosdir. Natijada yozuvchi tarjimayi holining shu paytgacha oshkor etilmagan qirralari yangi dalil va ma'lumotlar bilan to'ldirildi, ilgari ma'lum bo'lmagan dalillar, qo'lyozmalar, hujjatlar, arxiv materiallari ilmiy muomalaga kiritilib, muayyan xulosalar chiqarildi. Ilgari o'rganilgan manba va talqinlar qayta tahlildan o'tkazildi. Natijada, adabiy tanqidida bu davr adabiyotiga sistemali yondashuvning sifat jihatdan yangilangan namunalari yaratildi.

Keyingi davr tanqidida adabiy hodisalarga tarixiylik prinsiplari asosida yondashuvning kuchaygani yangicha adabiy tanqid metodologiyasining muhim tamoyillaridan biri – qiyosiy-tarixiy metod shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu borada keng o'quvchilar ommasiga oshkor etilgan materiallarni yangicha nuqtayi nazar va yangicha konsepsiya bilan tadqiq hamda tahlil etishga harakat qilingani muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda, ayniqsa, N.Karimov, H. Boltaboyev, Sh. Rizayev, N. Boqiy singari munaqqidlarning kuzatishlari xarakterlidir.

Adabiy tanqidning ikkinchi muhim tamoyillaridan yana birini, shubhasiz, eng avvalo, ijodkor dunyoqarashi, poetik o'larni va voqelikni

badliy-estetik kashf qilish jarayoni – asarlarni tahlil va talqin qilishda **yangicha mezon va metodologik tamoyillarga asoslanish tashkil qiladi.** Bu borida, ayniqsa, Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon ijodlariga munosabat **xarakterlidir.**

Bahodir Karimovning «XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (qodiriyshunoslik misolida)» mavzusidagi doktorlik ishi va shu ilmiy tadqiqotga asos bo‘lgan «Abdulla Qodiriy» nomli monografiyasida adib ijodining o‘zbek va xorij adabiyotshunosligi hamda tanqidchiligida qanday talqin etilganligi har tomonlama ochib berilgan. Binobarin, istiqlol davriga kelib, Qodiriy ijodini tahlil qilishda qanday metodologik tamoyillarga tayanila boshlandi, adib ijodiy mahoratining qaysi qirralariga e’tibor qaratildi, degan masala juda muhimdir.

Shu nuqtayi nazardan keyingi yillarda chop etilgan maqolalar, tadqiqotlar va bahs-munozaralarni ko‘zdan kechirsak, ularda yozuvchi biografiyasining yangi qirralarini ochishdan tashqari, adib poetik olamining talqinida ham umumbashariy mezonlarga tayanila boshlaganini kuzatamiz. Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, istiqlol davri tanqidchiligida Qodiriy ijodiy mahoratiga bag‘ishlangan bir qancha maqolalar va tadqiqotlar yuzaga keldi.

Ularning ayrimlari fundamental xarakterda bo‘lib, yozuvchi hayoti va ijodini yaxlit holda o‘rganishga bag‘ishlangan ocherklar va monografiyalar bo‘lsa, ayrimlari ijodkor poetik olamining muayyan qirralarini yoritgan tadqiqotlardir. Jumladan, M.Qo‘shjonov, X.Lutfiddinova, B.Karimning kitoblari hamda Qodiriy ijodiga bag‘ishlangan «Adabiyot, badiiyat, abadiyat»¹ nomli maqolalar to‘plamida adib poetik olami tadqiq etilsa, U.Normatov, A.Aliyev, S.Mirvaliyev tadqiqotlarida adibning hayoti va ijodi batafsil yoritilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, istiqlol yillarida Qodiriy ijodini yangicha tafakkur tarzi, yangicha metodologik tamoyillar asosida talqin etish sho‘ro davri qodiriyshunosligining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan atoqli munaqqidlar faoliyatiga ham xos xususiyatdir.

Ular mustaqillikning ilk yillaridayoq o‘z dunyoqarashlarini qayta qura olgan, avvalgi ayrim mafkuraviy qarashlaridan voz kecha olgan olimlardir. Ularning tadqiqotlarida sho‘ro davri qodiriyshunosligiga xos siyosiy-mafkuraviy yondashuvdan batamom voz kechishga intilishni ham, yozuvchi poetik olamini badiiylik, milliy o‘zlikni anglash va

¹ Adabiyot, badiiyat, abadiyat. Xotiralar, badialar, maqolalar. – T.: 2004.

qadriyatlar, xalq va vatan manfaatlari bilan bog'liq holda yondashishga urinishni ham kuzatish mumkin. Bu esa, istiqlol davri qodiriyshunosligi konsepsiyasining yetakchi xususiyatlaridandir. M.Qo'shjonov, A.Aliyev, S.Mirvaliyev, U.Normatov, B.Karimov va boshqa munaqqidlarning kuzatishlarida shu xususiyatga amin bo'lamiz.

Ta'kidlash joizki, istiqlol davrida qodiriyshunoslik, fitratshunoslik va cho'lponshunoslikning mukammal namunalari, sho'ro davridagidan farqli ravishda, faqat ijtimoiy tahlilga emas, balki estetik talqinga ko'proq e'tibor qaratildi. Ular ijodiga yondashishda badiiy-estetik qonuniyatlarga tayanish yetakchilik qila boshladi. Muayyan asarda ijodkorning mahorati, avvalo, ruhiyat tasvirlari qay darajada haqqoniy aks etgan, degan masala ustuvorlik qildi. Shu bois, milliy uyg'onish davri adabiyoti namoyandalari ijodiga bag'ishlangan kuzatishlarida ijodiy merosni milliy qadriyatlarimizning go'zal namunalari sifatida e'zozlash, asrab-avaylab xalqqa yetkazish ustuvor vazifaga aylandi.

Xususan, M.Qo'shjonovning «O'zbekning o'zligi» kitobi ana shu xususiyati bilan qimmatlidir. Unda Qodiriy romanlari ezgu qadriyatlar, o'zbekona urf-odatlar va milliy ruhiyat nuqtayi nazaridan talqin etiladi. Munaqqidning yutug'i shundaki, u asar qahramonlari Otabek va Kumush qalbida kechgan tug'yonlarni, ruhiy holatlarni roman sujeti va kompozitsiyasidan ajratmay, yaxlit holda tahlil qilishga erisha olgan.

U. Normatovning «Qodiriy bog'i» nomli kitobi yozuvchi ijodiga sistemali yondashuvning o'ziga xos namunalari biridir. Munaqqid kitobda ijodkor asarlarini tahlilga tortar ekan, asosiy e'tiborni bir butun hodisaga — ijodiy butunlik, g'oyaviy-estetik maqsad, dunyoqarash va estetik ideal kabi masalalar bilan bog'lab o'rganadi.

U. Normatov Qodiriy ijodiga bag'ishlangan keyingi izlanishlarida, ayniqsa, «O'tkan kunlar hayrati», «Tafakkur yog'dusi» va «Qodiriy mo'jizasi» kabi kitoblarida adib mahoratining yangidan yangi qirralarini ochadi.

A. Aliyev «Istiqlol va adabiy meros», «Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat» nomli har ikkala kitobida ham A.Qodiriy ijodiga yuksak baho beradi, uning XX asr o'zbek adabiyotida realistik romanchilikni boshlab berganini ta'kidlaydi. Adib ijodini tahlil va talqin etishda munaqqid uning adabiy-estetik qarashlaridagi yetakchi tamoyillarga, haqqoniylik, milliylik, tildan foydalanish mahorati singari mezonlarga urg'u beradi.

A. Qodiriyning hayoti va ijodi tadqiqiga bag'ishlangan S.Mirvaliyevning «Abdulla Qodiriy» nomli monografiyasi ham qodiriyshunoslikdagi e'tiborli ishlardan bo'ldi.

Tadqiqotda muallif sho'ro davri adabiyotshunosligiga xos qarashlar «jang»ini chetlab o'tib, asosan, matn bilan ish ko'rishga astoydil harakat qilganini kuzatish mumkin.

Bu davr tanqididagi yangilanish tamoyillaridan yana biri milliy uyg'onish adabiyoti nimoyandalari ijodini o'rganish va qayta baholashda xorij jadidshunoslarining izlanishlariga e'tiborning kuchayganligida ko'rinadi.

Mustaqillik davriga kelib o'zbek munaqqidlari sho'ro davrida faoliyat yuritgan hamkasblaridan farqli ravishda, chet ellik olimlarni o'zlariga raqib emas, balki hamkor, deb bilib, ularning tadqiqotlariga ham xolislik va ilmiylik bilan yondasha boshladilar. Jumladan, B.Karimov, H.Boltaboyev, Z.Mirzayeva kabi olimlar xorij adabiyotshunoslarining Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon va Behbudiyar ijodiga oid tadqiqotlarini o'rgandilar.

Istiqol arafalari va Mustaqillik davriga kelib jadid adabiyotining yirik namoyandasi Fitrat ijodini o'rganish ishiga B.Qosimov, E.Karimov, N.Karimov, Sh.Turdiyev, S.Ahmedov singari taniqli olimlar hamda ular safiga kelib qo'shilgan H.Boltaboyev, U. Jo'raqulov, Sh.Rizayev, I.G'aniyev, G.Rahimova kabi ko'plab yangi avlod vakillari munosib hissa qo'shdilar. Bu borada, ayniqsa, H.Boltaboyevning «Abdurauf Fitrat – adabiyotshunos» (1996), «Fitrat va jadidchilik» (2007) tadqiqotlarini ta'kidlab o'tish joizdir.

Istiqol davrida fitratshunoslik yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu yo'nalishda doktorlik va nomzodlik tadqiqotlari yaratildi, maqola va risolalar chop etildi, yosh fitratshunos olimlar yetishib chiqdi. Eng muhimi, Fitrat ijodini o'rganishda xolislik, teranlik, matn bilan ishlash yetakchi prinsipga aylandi.

Qolaversa, adib ijodi xorijdagi fitratshunoslik bilan qiyosiy aspektda o'rganila boshlandiki, bu yangi davr tanqidchiligining muhim yutuqlaridan biridir.

Umuman, bu davrning yangicha metodologik tamoyillarni o'zida mujassamlashtirishga intilayotgan, o'z ilmiy tafakkurini qayta qurayotgan adabiy tanqid oldida nafaqat Qodiriy, Fitrat yoki Cho'lpon ijodi haqida ma'lumotlar berish, balki ularning tarjimai holi, qatag'on qurboniga aylanganining tub sabablari, qolaversa, ularning butun ijodiy merosidan keng kitobxonlar ommasini xabardor qilish vazifasi

ham turadi. Zotan, istiqloqlga erishib, o'z dunyoqarashini qayta qurayotgan xalq o'zining ozodligi yo'lida fidoyilik namunasini ko'rsatgan ijodkorlar hayoti va ijodiy merosi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmog'i lozim edi.

Adabiy tanqidning bu yillardagi milliy uyg'onish davri adabiyoti namoyandalari, xususan, Cho'lpon ijodiga doir faoliyatida aksiologik, tarixiy-biografik metodlar yetakchilik qilganini ko'rishimiz mumkin.

Istiqlof arafalarida Cho'lpon haqida ijobiy fikrlar bildirish boshlanib ketgan esa-da, 80-yillar oxirigacha u haqda ehtiyotkorlik bilan mulohaza yuritish davom etdi. Mustaqillik davrida esa Cho'lpon ijodini tadqiq etish o'zining tom ma'nodagi yangi bosqichiga ko'tarildi.

Yuzlab maqolalar, o'nlab kitoblar chop etildi. Ularda ulug' shoir ijodiy merosiga, asosan, umuminsoniy qadriyatlar asosida yondashuv yetakchilik qilganligini ko'rish mumkin. Bu borada taniqli olimlar O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, N.Karimov, E.Karimov, Sh.Turdiyev, U.Normatov, A.Aliyev, I.Haqqulov, B.Do'stqorayev, S.Ahmad bilan bir qatorda D.Quronov, B.Karimov, B.Ro'zimuhammad, Z.Eshonova, U. Sulton, N.Yo'ldoshev kabi yosh adabiyotshunoslar ham faollik ko'rsatdilar.

Mustaqillik arafalarida Cho'lpon she'rlari jamlangan «Bahorni sog'indim» (nashrga tayyorlovchi – I.Haqqulov) to'plamining chop etilgani ham uning ijodi haqida o'quvchilarda muayyan tasavvurlarni shakllantirdi.

Cho'lponga zamondosh Laziz Azizzodaning «Cho'lpon kim edi» maqolasida shoirning dunyoqarashi, shaxsiyati, ijodi haqida fikr yuritiladi. Sirojiddin Ahmad tomonidan nashrga tayyorlangan Zaki Validiy To'g'onning «Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon)» sarlavhali maqolasida Cho'lponni shoir sifatida birdan porlagan ulkan iste'dod sohibi ekanligi yoritiladi.

N.Karimovning «Cho'lpon uchun kishan», M.Qarshiboyevning «Muhit erkidagi tutqinlik» maqolalarida sho'rolarning shoirga ko'rsatgan zug'umlari ochilishi xarakterlidir.

Bu davr tanqidi xalqni faqat Cho'lpon biografiyasi, uning taqdiri bilan tanishtiribgina qolmay, ayni paytda, adib asarlari tahlili, targ'ib-tashviqini ham e'tibordan soqit qilmadi.

1992- yilda tadqiqotchi N.Yo'ldoshev tomonidan «Cho'lpon hayoti va ijodiy bibliografiyasi», Sh.Turdiyev nashrga tayyorlagan «Cho'l-

ponning adabiy tanqidiy maqolalaridan namunalar» e'lon qilinishi, «Bahorni sog'indim»¹, 1991-yilda «Yana oldim sozimni»² kabi to'plamlarning chop etilishi, xalqni Cho'lpon ijodi bilan tanishtirishga jiddiy kirishilganidan, o'z navbatida, adib asarlariga qiziqish ortib borayotganidan dalolat beradi. Qisqa fursatda Cho'lponning ikki jildlik asarlari, «Adabiyot nadir» nomli adabiy-badiiy maqolalar to'plami nashr etildi. 80-yillarning oxiri, 90-yillarning avvalida boshlangan cho'lponshunoslik qizg'in ilmiy tadqiqot sohalaridan biriga aylandi. Tez orada O.Sharafiddinov va N.Karimovning «Cho'lpon» nomli tadqiqotlari, «Cho'lpon dunyosi» nomli maqolalar to'plami, «Cho'lponni anglash», «Ruhiiy dunyo talqini» kabi risolalar chop etildi. Matbuotda ko'plab maqolalar e'lon qilindi. Jumladan, O.Sharafiddinovning o'nlab maqolalari o'sha davrdagi adabiy muhitda alohida salmoq kasb etib, tanqid tafakkurini yangilashga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Cho'lponning dunyoqarashi va ijodining g'oyaviy motivini belgilashda uning millatparvarligi nuqtayi nazaridan kelib chiqib, asarlarini talqin qilish adabiy tanqid metodologiyasining yangilanayotganligidan dalolat berdi. Cho'lpon hayoti, uning ijtimoiy faoliyatini, ijodi, ayniqsa, asarlarining g'oyaviy motivlari bilan bog'liq holda talqin etish bu davr tanqidchiligining muhim xususiyatlaridan biridir. Shu o'rinda N.Karimovning «Cho'lpon» ma'rifiy romanining (2003) ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz.

Istiqloq davrida cho'lponshunoslikning yangi yo'nalishi tarkib topdi. Cho'lpon va tanqid, Cho'lpon va Hamza, Cho'lpon va Fitrat, Gaspirinskiy va Cho'lpon, Cho'lpon va teatr, Cho'lpon – tarjimon, Cho'lpon va matbuot kabi yo'nalishlar bo'yicha turli xil anjumanlar o'tkazildi.

Maqolalar, xotiralar chop etildi. Cho'lpon va Hamza hayotda aslida bir-biri bilan yaqin bo'lganlari aniqlandi. Shu ma'noda ularning ijodini qiyoslab o'rganish ham tabiiydir. Biroq shunday hollar ham bo'ldiki, sho'ro davrida ularni bir-biriga ashaddiy, g'oyaviy dushman sifatida talqin etgan ayrim munaqqidlar, Istiqloq davriga kelib, bu fikrning endi aksini aytuvchi maqolalar ham e'lon qildilar. Yuqorida

¹ *Cho'lpon*. Bahorni sog'indim. (Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi: Ibrohim Haqqul). – T.: Yulduzcha, 1988.

² *Cho'lpon*. Yana oldim sozimni. (To'plovchi N.Karimov, Sh.Turdiyev, mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi O.Sharafiddinov). – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.

e'tirof etilganidek, Cho'lpon ijodini boshqa zamondosh san'atkorlar, ziyolilar bilan chog'ishtirib o'rganish qiyosiy adabiyotshunoslik rivojlanishiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Umuman olganda, bu davr tanqidida Cho'lpon dunyoqarashi, ijodining g'oyaviy motivini belgilashda, bir tomondan, uning ijodiga tarixiylik tamoyillari asosida yondashilganini kuzatsak, ikkinchi tomondan, ijtimoiy tahlil bilan estetik tahlilning uyg'unlashgan holdagi talqini, ijtimoiy-estetik tahlil adib ijodini baholashdagi yetakchi metodga aylanganligini ko'ramiz.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri tanqidida Milliy uyg'onish davri (jadid) adabiyoti namoyandalarning hayoti va ijodini har tomonlama tahlil va talqin etish yetakchi yo'nalishlardan biriga aylandi. Adabiy tanqid Behbudiy, Avloniy, ayniqsa, Fitrat, Qodiriy va Cho'lpon singari milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti namoyandalari ijodini qayta baholab, yangich talqin etdi.

Tanqidchilikda sho'ro davri adabiyotini qayta baholash. Istiqlol davri tanqidida paydo bo'lgan yangi tamoyillardan birini sho'ro davri adabiyotini qayta baholash tashkil etadi. Biz endi XX asr adabiyotining to'ntaruvigacha bo'lgan qismini mumtoz adabiyot, undan keyingi davrni sho'ro adabiyotiga bo'lib emas, XX asr adabiyotidagi yaxlit jarayon sifatida o'rganamiz. Sho'rogacha, undan keyingi hamda Mustaqillik davri adabiyoti shartli ravishda ulardagi namunalarning o'ziga xosliklari va asoslaridan kelib chiqib, turli bosqichlar sifatida e'tirof etiladi.

Bugungi kundagi daraja va dunyoqarash asosida nazar tashlaganda, bu davr sho'ro bosqichi o'zbek adabiyotining katta yutuqlari ham, ulkan fojealari ham yaqqol namoyon bo'ladi. Keyingi yillar tanqidiy tafakkurida ko'p bahs-munozaralar bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan ehtirosli ayrim holatlar barham topib, bosiqlik, ilmiylik, xolislik bilan sho'ro davri o'zbek adabiyoti yutuqlari-yu, fojeali nuqtalariga adabiy tanqidchilikda bir qadar oydinlik kiritildi.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, sho'ro davri adabiyoti o'zining ijodiy prinsiplarini shakllantirgan va ularni ijod jarayoniga tatbiq etgan hamda bu prinsiplar sho'ro mafkurasi g'oyalariga hamohang edi. Istiqlol davri adabiy tanqidida dastlab mafkuraning adabiyotdagi o'rni masalasiga qarashlar turli-tuman bo'lganini, umuman, «adabiyotda mafkura», degan tushunchaga salbiy munosabat shakllanishga ulgurani hamda sho'ro mafkurasining adabiyotga yetkazgan zararli oqibatlari ta'siri bilan izohlash lozim bo'ladi. Biroq, shuni unutmastik kerakki,

har qanday mafkuraning yetakchi tamoyillari nazariyotchilar tomonidan ishlab chiqilsa-da, uning amaliyotdagi ko'rinishi uzoq vaqt davomida muayyan sohalar faoliyatida shakllanib, hayotga tatbiq etila boradi.

Shu ma'noda Mustaqillik davri tanqidi, bir tomondan, zo'rvonlik asosiga qurilgan sho'roviy mafkurani inkor etgani holda, umumbashariy mezonlarga uyqash Milliy istiqlol mafkurasini shakllantirib, mustahkamlab bordi. Shu bois istiqlol davri tanqidchiligida sho'ro adabiyotini qayta baholash yetakchi masalalardan biriga aylandi. Bu davr tanqidida sho'ro davri adabiyotiga munosabat bir xilda bo'lgani yo'q. Bu masala munozaralarga boy, ehtirosli, keskin, qarama-qarshi fikrlar maydoniga aylandi.

Bir tomondan, sho'ro davri ijodkorlari asarlarini ehtiyotkorlik bilan yangicha mezonlar, yangicha metodologik tamoyillar asosida baholashga intilish ko'zga tashlansa, boshqa tarafdin, ularni ba'zan birvarakayiga va salkam yoppasiga inkor etish tendensiyasi ham bo'y ko'rsatdi. Dastlab adabiy tanqidning sho'ro davri adabiyotiga munosabatida sinergetik yo'nalish ustuvorlik qildi. Tasdiq bilan inkor, muvozanat bilan muvozanatsizlik, butun bilan tartibsizlik (xaos) bu davr tanqidiga xos xususiyatdir.

H.H.Niyoziyga munosabatda-ku, masala bir qadar aniq edi. Sho'ro siyosati o'ta ulug'langan asarlar «qiynalmay» o'zining «yangi» bahosini topdi. Milliy ruhdagi asarlarga e'tibor kuchaydi. G'.G'ulom ijodiga ham taxminan shu nuqtayi nazar qaror topdi. H.Olimjonga munosabatda uning Fitrat ijodiga nisbatan tutgan yo'li hamda «Baxtlar vodiysi», «Nima bizga Amerika» qabilidagi she'rlarga tayanib turib, ayni vaqtda, go'zal va ajoyib lirik she'rlarini inkor etolmay, bir muddat ikkilanish, talmovsirashlar ko'zga tashlandi.

Lekin, Oybek va A.Qahhor ijodiga kelganda, ayrim munaqqidlar ularning ba'zi asarlaridagi «qizil» yo'nalishni cho'qib-cho'qib olsada, ular ijodidagi chuqurlik, salobat, milliyligi hamda o'ziga xos mahorat tanqidni ular oldida birmuncha o'ylanib, taraddudlanib qolishga majbur etdi. Asta-sekin boshlangan bosiq tadqiq va tahlil ko'p o'tmay yangi izchil yo'lga solib yuborildi.

Shuning uchun adabiy tanqid bu ijodkorlar orasida, ayniqsa, Oybek va Abdulla Qahhorning adabiy merosiga jiddiy e'tibor qaratdi. Boshqa jihatdan, Oybek sho'ro davrida ko'p jabr ko'rgan, tazyiqqa uchrab azob chekkandi. Abdulla Qahhor ham deyarli butun ijodi davomida sho'rolarning boshqaruv tizimidan dakki yeb kelgan, «Tobutdan

tovush» singari asarlari tufayli esa dashnomga ham uchragan edi. Yangi tanqidchilikning ularga munosabatida bu omillar ham beiz ketmadi, albatta.

Bu davr tanqidida Oybek shaxsiyati va ijodiga jonkuyarlik ko'rsatgan, bu haqda ko'p va xo'p yozgan munaqqid N. Karimov bo'ldi. Olimning maqolalarida adib hayoti va ijodining hali ochilmagan qirralari yangicha mezonlar asosida talqin etildi. Ta'kidlash joizki, sho'ro saltanati adabiyotimiz boshiga solgan qora kunlar, qatag'on siyosati jabr-sitamlarining arxiv materiallar asosida keng jamoatchilikka ma'lum qilinishida, ilmiy muomalaga kiritilishida N.Karimovning xizmatlari kattadir.

Xususan, uning «Oybek: tosh ekan boshim» (Fan va turmush. 1992. — № 5, 6, 7, 8, 9, 10.) nomli turkum maqolasi shu jihatdan xarakterlidir. Unda munaqqid Oybek hayotining noma'lum yoki to'la yoritilmagan sahifalarini qayta jonlantiradi. Tarixiy-biografik yondashuvning yaxshi namunasi bo'lgan bu maqolada Oybek shaxsiyatiga, ijodiga 30–50-yillarda qo'yilgan ayblovlar, tuhmatlarning ildizlari, zararli oqibatlari ochib beriladi. O'zbek adabiyotining jallodlaridan biri bo'lgan, Yozuvchilar uyushmasida ishlagan V.Milchakov va uning atrofiga to'plangan mahalliy xushomadgo'ylarning qabih kirdikorlari fosh etiladi.

Umuman olganda, N. Karimovning bu davrda yaratgan deyarli har bir maqolasida yangi fikr ilgari suriladi. Olim, avvalo, asarning yaratilishi ijodkor hayotidagi biror-bir hayotiy fakt bilan bog'liqlikka e'tiborni qaratadi. Bunday yondashuv ijodkor faoliyatining ochilmagan sahifalarini yoritishga xizmat qiladi. Uning «Oybek va jadidchilik», «Oybek nomli cho'qqi» maqolalarida ham shu yo'nalish davom ettiriladi.

Bu davrda Oybek ijodiga oid ko'plab maqolalar chop etildi. Shular-dan biri O.Sharafiddinovning «Millatni uyg'otgan adib» (O'z AS, 2004.— 05.11.) nomli maqolasida Oybek ijodiga xos millatparvarlik fazilatlarini teran talqin etiladi. Munaqqid adibni millatni uyg'otgan ijodkor sifatida qayta kashf etadi. «Qutlug' qon», «Navoiy» romanlari, «Na'matak» kabi sho'rlari tahlili asosida o'z qarashlarini dalillaydi. U Oybek dahoning buyukligi, millatparvarligi faqat ijodida emas, balki sho'ro saltanati hukm surgan qiyin bir davrlarda Cho'lpon va Qodiriy ijodiga bo'lgan cheksiz hurmati, teran ilmiy kuzatishlari, «Tirik satrlar»ga ikkilanmay yozilgan ijobiy taqrizlarida ham namoyon bo'lishini faxr bilan yozadi.

Istiqloq yillarida Oybek she'riyatini yangicha nuqtayi nazardan tadqiq etgan I. Haqqulov, U. Hamdam, A. Sabirdinov kabi olimlarning ishlari ham e'tiborga loyiqligini aytib o'tish lozim.

Tanqid va adabiy jarayondagi izlanishlar. Istiqloq arafalari va to'qsoninchi yillar boshlaridagi maqolalarda, G'afur G'ulom she'riyatidagi zamonasozlik, shaxsga sig'inish illatlarining aks etishi, shuningdek, uning Abdulla Qodiriy va Maqsud Shayxzodaga munosabati haqida turli xil fikrlar bayon etildi.

Bu xil qarashlar asta-sekin barham topib, G'afur G'ulom ijodini xolis, haqqoniy qayta baholash boshlandi. Uning ijodiga yondashuvda xalqimizga xos bag'rikenglik, tarixiylik tamoyiliga asoslanish mezonlari ustuvor mavqe egallab bordi.

U haqdagi maqola, xotira va tadqiqotlarda shoir hayoti va ijodiga sistemali yondashuv fazilatlarini sezildi. Poetik mahorat, shoir iste'dodi, ijodiy psixologiya va tarjimai holi bilan o'zaro butunlikda talqin etila boshlandi.

O'zbekiston Qahramoni A. Oripovning «O'zbekning o'z shoiri» maqolasida sho'ro davrining makkor siyosati va hokim mafkuraning adabiyotga yetkazgan zug'umi, o'zbek ijodkorlari qadr-qimmatining toptalishi, ijod erkinligining bo'g'ilishi oqibatida ko'plab shoirlar zamonasozlik ruhida asarlar bitishga majbur bo'lganliklari ta'kidlanadi.

G'. G'ulom ijodiga ana shunday umuminsoniy mezon bilan nazar tashlab, eng avvalo, shoirning juda katta iste'dod sohibi sifatida hokim mafkura tazyiqlariga qaramasdan o'lmas asarlar yaratgani, uning ijod namunalari o'tkinchi mayda tuyg'ular bilan emas, balki qadim Sharq she'riyatiga xos bo'lgan falsafiylik, keng qamrovlilik, donolik bilan nurlanib turgani she'riy va nasriy asarlari misolida ko'rsatiladi.

Maqolada ilgari surilgan konsepsiya, ya'ni, eng avvalo, Sharq, islom falsafasiga xos bo'lgan insoniylik, qadriyatlarni asrab-avaylash tuyg'usi boshqa maqolalarda ham o'z aksini topa boshladi.

U. Normatov «Shum bola» «Mafkuraviy-siyosiy tazyiq sharoitida ruh erkinligi»¹ nomli maqolasida qissani tahlil qilar ekan, uni sho'ro davrida yaratilgan bo'lishiga qaramasdan davr siyosati va mafkurasidan batamom xoli bo'lgan o'zbek turmush tarzining turli qatlamlarini haqqoniy yoritib bera olgan asar sifatida baholaydi.

¹ Normatov U. Ijod sehri. — T.: Sharq, 2007. 145-bet.

Bu davrda B.Nazarovning «Gʻafur Gʻulom olami» (2003), N.Karimovning «Gʻafur Gʻulom ijodiyoti» (2003), T. Matyoqubovanning «Gʻafur Gʻulom badiiyati» (2006) nomli yirik tadqiqotlar ham yaratildi.

B.Nazarov Gʻafur Gʻulom ijodiga baho berishda soʻnggi davr tanqidchiligida ikkita yoʻnalish koʻzga tashlanayotganligini taʼkidlaydi. «Birida uning shoʻroviy qarashlariga hamon urgʻu berilib tanqid qillinsa, ikkinchisida, shoirning mafkuraviy jihatlari xaspoʻshlanib, uni kimlardandir himoya qilish istagi seziladi»¹. Munaqqid fikricha, har ikkala yoʻnalishdagi qarashlarda ham kamchiliklar bor. Negaki, Gʻ.Gʻulom ijodida zamonasozlik motivlarining mavjudligini bugungi kunda hech kim inkor qilayotgani yoʻq. Bu xususiyat Gʻ.Gʻulom ijodigagina emas, umuman, shoʻro davri adabiyotiga xos qusur boʻlib, uning asosiy sababi davr, zamon va tuzum bilan izohlanadi. Muallif talqinicha, ikkinchi yoʻnalishdagi qarashning qusurli joyi shundaki, Gʻafur Gʻulom ijodi oʻzini oqlashga, kimlardandir himoya qilishga muhtoj emas. Uning ijodida oʻzini-oʻzi himoya qiladigan, nafaqat XXI asrda, balki keyingi asrlarda ham yashab qolishga loyiq badiiy mukammal asarlar koʻplab topiladi.

Munaqqid shu nuqtayi nazardan nafaqat badiiy mukammal hisoblangan «Sogʻinish», «Vaqt», «Shum bola», «Mening oʻgʻrigina bolam» tipidagi asarlariga, balki hali tanqidchilik deyarli eʼtibor bermagan va Gʻafur Gʻulom fenomeniga xos yashirin dardlarni ifodalagan asarlarini topib tahlil qiladiki, bu tahlil oʻzining xolisligidan tashqari, talqinning kutilmagan natijalari bilan ham ahamiyat kasb etadi. Agar eʼtibor berilsa, olim adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning yangidan vujudga kelayotgan metodologik tamoyillaridan biri – talqinda badiiy asar matni qaʼriga yashiringan poetik maʼno – mazmuni topishga undayotganini sezish mumkin.

Soʻnggi davr tanqidida Abdulla Qahhor ijodini qayta baholashga ham katta ahamiyat berildi. Bu davrda Qahhor haqida koʻplab maqola va risolalar chop etildi. 80-yillarning oxirlaridan boshlab Qahhor haqida ziddiyatli qarashlar vujudga kela boshladi. «Qutlugʻ qon» romani singari «Sarob», «Sinchalak», «Oʻgʻri», «Dahshat» kabi asarlari talqini bahsli kechdi.

«Yosh kuch» jurnalining «Hozirgi oʻzbek adabiyotida eng maʼqul uchta asarni sanab oʻtsangiz», degan anketa savoliga javob berar ekan, yaxshi asarlar oʻrniga yoqtirmagan asarlarni sanayman, deya

¹ Nazarov B. Gʻafur Gʻulom olami. – T.: Fan, 2003. 5-bet.

Olim Otaxonov Qahhorning «Sarob» va «Sinchalak» asarlarini tilga oldi va buni quyidagicha izohladi: «Abdulla Qahhor har qancha late'dodli bo'lmasin zamonasoz adib edi; u aksar hollarda o'tkinchi aqidalar, muvaqqat mezonlar, yuqori doiralarning ko'rsatmalarida uqtirib o'tilgan haqiqatlarga tayanib ijod qilgan yozuvchi edi; u jadidlar harakatini yo tushunmagan, yoki mutlaqo inkor etgan»¹. O.Otaxonov ushbu mezon asosida «Sarob», «Sinchalak»da voqelikka kommunistik mafkura ko'zoynagi bilan qaralgan, degan fikrni ilgari suradi.

Bu nuqtayi nazar jiddiy bahs-munozara uyg'otdi, goh keskin e'tirozga sabab bo'ldi, goh qo'llab quvvatlandi. Jumladan, A. Jabborovning «O'z davrining mashhur asari»² nomli maqolasida «Sinchalak» qissasi zamonasozlik motivlari bilan sug'orilgan asar ekanligi ta'kidlandi.

S.Meliyev, H.Karimov, A.Ulug'ov kabi munaqqidlarning ayrim chiqishlarida yozuvchining «Sarob», «Sinchalak», «O'g'ri», «Dahshat» kabi asarlarida sho'ro davriga xizmat qiluvchi g'oya yetakchilik qilishi aytildi. Aksincha, O.Sharafiddinov, U.Normatov, B.Nazarov, A.Rasulov, S.Sodiq, I.Haqqulov, D.Quronov kuzatishlarida Abdulla Qahhor ijodi yangicha nuqtayi nazar, yangicha metodologik tamoyillar asosida baholashga harakat qilindi. Bu qarashlarning birini mutlaq haq, ikkinchisini mutlaq nohaq, deb xulosa chiqarish metodologik jihatdan noto'g'ri bo'lar edi.

S.Meliyev, H.Karimovlarning «O'g'ri», «Dahshat» hikoyalari haqidagi tanqidiy xarakterdagi maqolalari va ularga javoban yozilgan D.Quronov, S.Sodiq maqolalaridagi yetakchi nuqtaga nazar tashlaylik.

S.Meliyev va H.Karimovda Qahhorning o'tmish mavzusida yozilgan asarlarida voqelik sho'ro davri totalitar tuzumi g'oyalari nuqtayi nazaridan yoritiladi, shu bois soxta g'oyaga asoslanganligi uchun bu asarlar yuksak badiiylik namunalari bo'lolmaydi, degan xulosa chiqariladi. S.Sodiq va D.Quronov kuzatishlarida ham asarlar davr bilan, davr g'oyalari bilan bog'lab talqin etiladi. Bu hol o'z-o'zidan bahs-munozaralarda ko'proq e'tibor g'oyabozlikka qaratilgani, ya'ni Qahhor o'tmish mavzusidagi asarlarida sho'ro g'oyalari targ'ib qilganmi yoki aksincha, fosh etganmi, degan masala yetakchilik qilganligini ko'rsatadi. Vaholanki, S.Meliyev va H.Karimov maqolalarida adabiyotning asosiy yadrosini tashkil etuvchi insoniylik (uni S. Meli maqolasida mehr, H. Karimov esa o'zbekona urf-odatlar va

¹ Otaxonov O. Mutoala // Yosh kuch. — T.: 1989. — № 9. 14-bet.

² Jabbor A. O'z davrining mashhur asari // Yoshlik. — T.: 1990. — № 11.

musulmon olamiga xos yashash prinsiplari shaklida talqin etadi) tamoyillari haqida gap ketadiki, uni muayyan davr g'oyasiga bog'lamasdan matnning o'zidan kelib chiqib talqin etilganda asl mohiyat oydinlashgan bo'lar edi. Demak, mazkur tanqidiy qarashlarga va ularning opponentlari tomonidan berilgan javoblarga ham davr g'oyasi degan tushuncha xalaqit berganligini ko'ramiz. Biroq, ayni chog'da, shuni ta'kidlash lozimki, mazkur bahs-munozaralar Qahhor ijodini anglashga, uning estetik tamoyillarini tushunishga xizmat qildi. Mazkur bahslar shu jihati bilan xarakterlidir.

H.Olimjon haqidagi bahslarda ham shunday xususiyatni ko'rish mumkin. Jumladan, D.Quronov «Hamid Olimjonni bilamizmi?» nomli maqolasida shoirning «Muqanna» dramasini tahlilga tortar ekan, asosiy e'tiborni ijodkor dunyoqarashi va konsepsiyasiga qaratadi. Bunda H.Olimjonning 30-yillar ijodidagi asosiy konsepsiya davr ruhi bilan chambarchas bog'langan va sho'ro g'oyalari xizmat qilgan bo'lsa, «Muqanna» dramasi istiqloq g'oyalari bilan sug'orilgan, degan fikrni asoslashga harakat qiladi. Munaqqid o'z qarashlarini Guloyin, Otash obrazlari talqini orqali ko'rsatadi.

Adabiyotshunos N.Karimov D.Quronov maqolasiga javob xatini «Hamid Olimjonni bilasizmi?» – deb nomladi. Unda D.Quronov maqolasidagi asosiy qarashlar inkor etilib, H.Olimjon va unga zamon-dosh san'atkorlar ijodi davr bilan, sotsialistik tuzum g'oyalari bilan izchil bog'langanligi ta'kidlandi va, nafaqat «Muqanna», balki shu davrda yaratilgan Uyg'un va I.Sultonning «Alisher Navoiy» dramasi-dan olingan parchalar bilan fikrini asoslashga harakat qildi.

Filologiya fanlari doktori G'.Mo'minov ham maqolalaridan birida N.Karimov fikrlarini to'g'ri deb topdi va H.Olimjonning «Muqanna» asarida yashirin ravishda sho'ro istibdodiga qarshi fikrlar ilgari surilgan qarashni noto'g'ri deb topdi.

D.Quronov maqolasida asosiy e'tibor badiiy asarda ifodalana-yotgan g'oyani ochishga qaratildi va unga javoban aytilgan fikrlarda ham asosiy urg'u g'oyaviy maqsadga qaratildi. Bu hol adabiy tanqid metodologiyasidagi yondashuvlar izlanish jarayonida ekanligidan dalolat beradi. Qahhor yoki H.Olimjon har qancha katta iste'dod sohibi bo'lmasin, o'ziga har qancha talabchan yoki qat'iyatli bo'l-masin, baribir ijodkor sifatidagi o'zliklarini, ijodlarida baland-past evrilishlar mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Fikrimizning tasdig'ini munaqqid H. Umurov yozadi: «Bugun biz Hamid Olimjon bilgan haqiqatlarning mag'zi puch bo'lganini, totalitar tuzum o'ziga g'ov

bo'lganlarni ayovsiz mahv etganini, xalq boshiga ko'plab qirg'inlarni solganini bilamiz. U paytlar esa, shoir biz bilgan haqiqatlarni xayoliga ham keltirmagan, sotsialistik jamiyatni baxt va saodatga eltuvchi yagona jamiyat deb tushungan, sotsialistik Vatanga o'zligini baxshida qilgan, «sovet shoirimani», deya faxr-tuyg'uga to'lib yashayotgan yigit edi»¹.

Biz shu bois ham mazkur o'rinda Qahhor yoki H.Olimjon ijodiga oid ziddiyatli qarashlarning, muxolifatlarning yuqoridagidek tortishuv, bahslarga hakam sifatida emas, balki yangi bosqich tanqidchilik shakllanishi tadrijiy takomilidagi, metodologik tamoyillarning izlanishi sifatida qaralishi to'g'ri, deb o'ylaymiz.

Shu o'rinda bir muammoni nazardan qochirmaslik kerak bo'ladi. Istiqloq bosqichi o'zbek tanqidida sho'ro davridagi atoqli adiblarimiz ijodi tadqiq etilar va qayta baholanar ekan, ularning asarlari tag zamiriga zimdan yashirilgan istiqloq g'oyalarini yoki hech bo'lmaganda, sho'ro istibdodini fosh etish maqsadida aniqlashga intilish tamoyili ko'rindi. Bunday asarlar mavjud bo'lgani shubhasiz. Ularni nihoyatda ehtiyotkorlik bilan belgilash va yuzaga chiqarish tanqidchilik va adabiyotshunoslikning muhim vazifalari sirasiga kiradi, albatta.

Biroq masalaning boshqa bir tomoni ham bor. Bunday maqsad har bir asarga munosabatda zo'rma-zo'rakilik va sun'iylik bilan amalga oshirilmasligi lozim.

Niyat nechog'lik yaxshi bo'lmasin, bunday sun'iylik badiiy asarni noto'g'ri baholashga olib kelishi mumkin. Tanqid va adabiyotshunoslikdagi gipotetik usul o'zining aniq va izchil tayanch nuqtalariga ega bo'lgandagina oqlaydi, aks holda, asar bahsida yuzaki taxminchilikni olib keladiki, u nainki bunday fikrni ilgari surayotgan munaqqid, balki, umuman, tanqidchilikka hurmatni susaytirishga olib kelishi mumkin. Ko'rinadiki, bu muammo tanqidchilikning axloqiy jihatlariga ham taalluqlidir.

A.Qahhor ijodiga yangi zamon munosabatlari haqida gap borar ekan, R.Qo'chqorovning adib haqidagi turkum maqolalari va «Men bilan munozara qilsangiz...» nomli risolasiga nazar tashlash o'rinlidir. R.Qo'chqorov saksoninchi yillar oxiri – to'qsoninchi yillarning boshlarida Qahhor ijodi haqida, ayniqsa, romanlariga turli davrda tanqidchilikning munosabati, yozuvchi tomonidan amalga oshirilgan tahrirlar haqida qiziqarli va qator go'zal izlanishlarni amalga oshirdi. Shu

¹ Umurov H. Ehtiyoj tafti // Saylanma. Beshinchi jild. — Samarqand. 2011. 27-bet.

jihaddan uning «Qo'sh roman va ayricha qarashlar», «Sarobning paydo bo'lishi» kabi maqolalari xarakterlidir.

Munaqqid «Uch sarob» nomli maqolasida «Sarob» romanining qayta ishlanishiga adabiy tanqidning noto'g'ri baholari sabab bo'lgan, degan xulosaga kelgan edi. Bu fikrlar qay darajada haqiqatga yaqin? Nahotki Qahhordek o'z fikrini ko'p ham o'zgartiravermaydigan yozuvchi tanqidchilarning fikriga qarab asarlarini qayta ishlayversa?.. Bu kabi savollar, yosh olimni tinch qo'ymadi va u ilmiy izlanishlarini davom ettirdi, ushbu savollarning javobini topishga harakat qiladi. Izlanishlari natijasi o'laroq, «Sarobning paydo bo'lishi» nomli maqola, uning kengaytirilishi, rivojlantirillishi asosida «Men bilan munozara qilsangiz...» nomli risolasi yaratildi. Muallif dalillarga xolis yondashib, asosiy maqsadini quyidagicha ifodalaydi: «Tushunish». Darvoqe, bu tushuncha istiqloq davri tanqidchiligining bosh masalasidir. Barcha metodologik yo'nalishlarning asosidan qizil ip bo'lib o'tadigan tushuncha bu — tushunishdir.

R. Qo'chqorov «Sarob» va «Qo'shchinor»ning qayta ishlangan variantlari haqida fikr yuritir ekan, oldingi qarashlaridan voz kechishining asosiy sababini quyidagicha izohlaydi: «Avvalo, bu maqolada ham «Sarob» romanining yozilish sabablari ochilmay qolgan, faqat uning qayta ishlanish jarayoniga e'tibor berilgan edi. Bunda ham roman tanqidining ko'lami asl mohiyatni ko'z oldimizdan to'sgan, bizni bir yoqlama yondashuv yo'liga boshlagan, natijada, har bir o'zgarish va tahrir sababini noto'g'ri tanqiddan izlashga o'tgan ekanman. Holbuki, mantiqli bir savol bizni doimo sergaklantirmog'i kerak edi: agar o'zgarishlar sababi faqat qatag'on yillarining tanqidi bo'lsa, nega A.Qahhor «Sarob»ni o'sha yillariyoq qayta yozishga majbur etilmadi? Nima uchun faqat 1957-yilda chiqqan romanning ikkinchi nashriga o'zgartirishlar kiritdi? Bu paytda qatag'on deyarli tugagan edi-ku?

Biz bu va bundan boshqa yana o'nlab savollarni endi o'zimizga berib ko'rmog'imiz, ularga xolis javob izlamog'imiz kerak. Davr haqidagi, yozuvchi va uning asarlari to'g'risidagi haqiqat, nechog'li achchiq bo'lmasin, ochiq aytilmog'i, ilmiy tahlilga tortilmog'i lozim, aks holda, chala haqiqatlar zanjiri bizni kelajakdan benasib qiladi¹.

Deyarli butun umri davomida A.Qahhor o'z ijodiga tanqidchilikning muxolifotli, ziddiyatli qarashlarini ko'rdi, his qildi, kurashdi.

¹ Qo'chqor R. Men bilan munozara qilsangiz. — T.: Ma'naviyat, 1998. 68-bet.

Ana shu holatlarning o'ziyoq, R.Qo'chqorovning Qahhor haqidagi izlanishlari kerakkina emas, zarurat bo'lgani ko'rinadi.

Bahs-munozaralar asosida Qahhor ijodini to'g'ri tushunish va teran anglash istagi yotadi. A.Qahhor hushyor dunyoqarash sohibi va o'tkir intuitiv yozuvchi sifatida zamonasidagi siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlarni nozik his qildi va asarlari mohiyatiga buni mohirlik bilan singdirib yubordi. Shu bois, A. Qahhor ijodi haqida ziddiyatli qarashlarning vujudga kelishini tabiiy bir hol sifatida qabul qilish kerak. Shunga ko'ra, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid oldida atoqli adib merosini bugungi kun talablari asosida yoritish, birinchi navbatda, uning hayoti va ijodiy biografiasini to'g'ri – qanday bo'lsa shunday – xolisona talqin etish masalasi turadi. U.Normatov «Qahhorni anglash mashaqqati» nomli tadqiqotining boshida ayni ana shu omilga jiddiy e'tibor qaratgan. Olim sho'ro davridagi talqinlarga zid tarzda A.Qahhor biografiasida «ochiq qolgan» nuqtalarga oydinlik kiritadi. Bunda u adibning oilaviy muhiti, o'quvchilik davri, yozuvchi sifatida shakllangan yillari, o'ta ziddiyatli 30-yillardagi, keyingi komfirqa hukmronligi davridagi murakkab, ammo mardona faoliyatini aniq dalil-raqamlar, tarixiy voqealar fonida yoritadi. A.Qahhor qahramonlari fojiasini olim ular xarakteridagi faol ong, mustaqillik yetishmagani oqibati, deb qaraydi. Bunday talqinlar, shubhasiz, qahhorshunoslikdagi yangilik sifatida e'tiborga molik va ayni damda, atoqli adib ijodiy merosiga umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan turib qarashga turtki berdi.

Shu ma'noda tanqidchilikda ko'rinish bergan Qahhorning «O'g'ri», «Bemor» kabi hikoyalarida sho'roviy g'oyalari ilgari surildi, deb emas, har qanday jamiyatda ro'y berishi mumkin bo'lgan hayot haqiqati aks ettirildi, «Sarob»da millatchilik fosh etilib, sho'ro mafkurasi tegirmoniga suv quyildi, deb emas, muayyan xudbinlik fojiasi yoritilib, jamiyatning muayyan bosqichida fojeaga uchragan kuchlar va ularga zug'um o'tkazgan hukmron istibdod aks ettirildi; «Sinchalak»da esa jamiyatga hukmron kommunistik mafkuragina emas, uning zo'ra-vonlik asosiga qurilgan harakatlari va ana shunday sharoitlarda yashashga, ishlashga intilgan va majbur bo'lganlarning ziddiyatlarga boy turmushlari aks ettirildi deb qaramoq to'g'ri bo'ladi.

O. Sharafiddinovning «Bir nutq tarixi»¹, «Chinorlardan biri edi...» (O'zAS, 1995, 15.09.), I.Haqqulovning «Abdulla Qahhor

¹ *Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti.* – T.: Sharq, 2004. 292–304-betlar.

jasorati»¹ kabi maqola va esselarida adib ijodi bilan bir qatorda tabiatidagi nozik jihatlarga ham alohida e'tibor berildi. Jumladan, «Bir nutq tarixi» maqolasida Abdulla Qahhorning 1956-yili Yozuvchilar uyushmasining III Plenumida soʻzlagan nutqi va bu nutq ta'sirida adabiy jarayonda yuzaga kelgan jonlanish, atoqli adibning ulkan jasorat bilan adabiy muhitni sog'lomlashtirishga qoʻshgan hissasi yoritiladi. Muhimi, maqolada A.Qahhor V.Milchakov kirdikorlarini fosh etibgina qolmay, balki shu orqali sho'ro tuzumining qatag'on siyosati va komfirqaning zulmkor mafkuraviy g'oyalari mohiyatini teran anglagan va yangi sharoitda dadillik bilan ochib tashlagan jasoratli shaxs sifatida talqin etildi.

I.Haqqulovning A. Qahhor haqidagi asarini oʻziga xos goʻzal badia, deyish mumkin. I.Haqqulov Abdulla Qahhorning insoniy xislatlari, kurashchanligi, ijodiy mahorati haqida fikr yuritir ekan, bu jihatlarni bugungi adabiyot muammolari, uning oʻziga xos xususiyatlari-yu, zamonga qarab turlanib turuvchi ayrim toifalar qismati bilan bogʻlab talqin etadi. Shunday bir turlanishlar paytida Abdulla Qahhor shaxsiyati, uning mustahkam e'tiqodi, estetik ideali va ijodiy prinsiplari oʻzligini yorqin namoyon etib turganini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi kuzatishlardan ayon boʻlayotirki, XX asr oʻzbek realistik adabiyotining ilgʻor namunalari, garchi yetmish yildan ziyodroq davrini oʻz hukmronligiga olgan totalitar tuzum tazyiqlari ostida yaratilgan boʻlsa-da, bu holat uning mavjud kuch-qudratini inkor etolmaydi. Bu adabiyot xalqimiz kechmishi, ruhiyati, ma'naviyati, baxtiyu omadsiz qismatining oʻziga xos badiiy koʻzgidir. Shu bois, istiqlol davri tanqidchiligi shoʻro davri oʻzbek adabiyotini yangilanayotgan ilmiy konsepsiya va estetik tamoyillar asosida qayta baholashidagi murakkabliklar, ziddiyatlar tabiiy hol sifatida baholanishni talab etadi.

Adabiy tanqidda modernizm masalalari. Istiqlol davri tanqidining muhim jihatlaridan biri uning adabiy jarayon bilan uzviy bogʻlanishida koʻzga tashlanadi. Adabiy jarayondagi har qanday yangilanish, badiiy izlanishlar, yangicha badiiy-estetik voqea-hodisalar ilmiy tafakkurda u yoki bu tarzda aks-sado berib, oʻz ifodasini topa boshladi. Badiiy tafakkurdagi evrilishu yangilanishlar adabiyot ilmi oldiga yangi-yangi ilmiy gʻoyalarning qoʻyilishiga, yangi-yangi istiloh va tushunchalarning iste'molga kiritilishiga, mutaxassislar orasida ommalashuviga olib keldi.

¹ *Haqqul I. Abdulla Qahhor jasorati // Tafakkur. — T.: 2004. — №2.28–42-betlar.*

Shu bols, istiqlol davri tanqidchiligida «ong oqimi», «modernizm», «~~post~~modernizm», «absurdizm», «freydizm», «ekzistensializm» singari **imilohlarning** faol qoʻllanila boshlashi tanqid ilmi metodologik tamoyillarning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda istiqlol davri tanqidiga koʻpgina tushuncha va tamoyillarning kirib kelishini hamda ularning qoʻllanishini kuzatish, shu asosda uning metodologik takomilini koʻrsatish gʻoyat muhim vazifadir. Bu jihatdan adabiy tanqidagi «modernizm» tushunchasi talqini xarakterlidir.

«Modernizm» atamasi zamonaviy oʻzbek adabiy tanqidchiligida qoʻllana boshlaganiga koʻp boʻlgani yoʻq. Aslida, bu tushuncha bir asrdan ortiq vaqt mobaynida jahon adabiyotshunosligi va sanʼatshunosligida faol ishlatilib kelinayotir hamda uning turli-tuman talqinlari, sharh va izohlari mavjud. Biroq mustaqillikkacha boʻlgan oʻzbek tanqidchiligida modernizmga munosabat bildirib yozilgan maqola yoki bu oqimni tadqiq etgan ilmiy ishlar uchramaydi. Albatta, ushbu holatning tub sabablari bor. Istiqlolgacha boʻlgan oʻzbek tanqidchiligida «ruxsat etilmagan mavzular»ga yondashish holati deyarli kuzatilmaydi. Chunonchi, shoʻro davri rus adabiyotshunosligida dastlab keskin tanqid etilgan «modernizm» atamasiga keyinchalik bir qadar bagʻrikenglik bilan yondashildi, yaʼni bu tushunchani xolis eʼtirof etishga, sharhlashga moyillik paydo boʻldi. Hatto ayrim tadqiqotlarda «modernizm» va modernchi gʻarb yozuvchilarini ashaddiy markschileninchi adabiyotshunoslar xurujidan himoya qilishga urinishlar kuzatildi. Bu oʻrinda biz rus, ukrain va boshqa xalqlar adabiyotlarida amalga oshirilgan tadqiqotlarni, xususan, V.Dneprov, T.Motileva, D.V.Zatonskiy, B.L.Suchkov, D.Urnov¹ singari taniqli adabiyotshunoslarning ishlaridagi modernizmga, gʻarblik modernchi adiblarga munosabatlarni nazarda tutmoqdamiz. Bu singari adabiy-tanqidiy tadqiqotlarda, albatta, markscha-lenincha adabiyotshunoslik metodologiyasi yetakchilik qildi. «Modernizm» birinchi galda «chirib borayotgan «imperializm»ning tushkun, inqirozga yuz tutgan» hayot tarzini

¹ Днепроv В. Черты романа XX века. — М.: — Л.: Сов. писатель, 1965; Мотилева Т. Зарубежный роман сегодня. — М.: Сов. писатель, 1966; Затонский Д.В. Франс Кафка и проблемы модернизма. — М.: Высшая школа, 1965; Сучков Б. Лики времени. 1-2 том. — М.: Художественная литература, 1976; Урнов Д. Портрет Д. Джойса — писателя и «пророка». // Знания. — М.: 1965. — № 4.

oqlash maqsadida oldinga surilgan, burjua adabiyoti va san'atida tub yangilanish yuz berayotganini da'vo qilib chiqayotganlarning iddaosi sifatida talqin etildi. Biroq, ayni paytda, o'sha adabiyotshunoslarning ishlarida bir tomondan «modernizm»ni keskin rad etish barobarida u haqda ayrim izohlar, konkret asarlar va adiblar ijodining nisbatan xolisroq tahlillari ham mavjud edi. Jumladan, V.D.Dneprovning «Cherti romana XX veka» kitobidagi A.Kamyu, F.Kafka yoki M.Prust asarlari, ijodiga doir, B.L.Suchkovning «Liki vremeni» kitobidagi (1-jild) «Frans Kafka», «Roman i mif» boblari fikrimizga dalil bo'la oladi.

Nazarimizda, sho'ro davrida «modernizm»ga bo'lgan munosabatning, garchi umumiy tarzda bo'lsa-da, aniq ta'rifini «Uliss» romani muallifi Jeyms Joys haqidagi shu asarni rus tiliga tarjima qilgan mutarjimlardan biri S.S.Xorujiyning quyidagi e'tirofida ko'ramiz: «Joysning Ittifoqdagi tarixi (ijodiy tarixi – Q.Q.) o'ta xilma-xil uch davrga bo'linadi: yigirmanchi yillar – tortishuv davri; bu davrda kitobxonlarga ayrim bir dastlabki xabarlar beriladi; o'ttizinchi yillar mafkuraviy davr; bu davrda Joys proletar sudiga tortiladi va unga jinoiy hukm e'lon qilinadi; oltmishinchi yillardan toki totalitarizm qulaguncha bo'lgan davr – byurokratik davr; bu davrda Joys «sovet madaniyati» departamentida lozim ko'rilgan darajada hisobda turdi va kimga lozim ko'rilgan bo'lsa, u haqida o'sha yozdi, albatta, nima yozish kerakligi lozim ko'rilgan bo'lsa»¹. Mashhur tarjimonning ushbu e'tirofi nafaqat J.Joysga, balki umuman modernizm adabiyotiga sobiq sovet tuzumi mafkurasining o'ta rasmiy va keskin taqiqqa asoslangan salbiy munosabatini ifodalaydi. Ushbu nuqtayi nazar ham sho'ro davrida «modernizm» masalasi qay darajada tanqidchilar uchun qaltis mavzuga aylantirilganini tasdiqlaydi.

Biz mazkur o'rinda «modernizm» tushunchasi, umuman, modernizm adabiyotiga sobiq sho'ro davri rus adabiyotshunosligida bildirilgan munosabatlarga e'tibor qaratganimizning boisi shundaki, Istiqloq davri o'zbek tanqidchiligida bildirilgan ilk munosabatlar uchun aynan o'sha tadqiqotlar muayyan ma'noda «manba» vazifasini o'tagan. Garchi tadqiqotlardagi markscha-lenincha nuqtayi nazardan turib bildirilgan fikr-mulohazalar to'g'ri ma'noda «tushirib qoldirilib», nisbatan xolis yondashuvlar, ya'ni ma'lumotlar, izoh va sharhlardan

¹ Хоружий С.С. «Улисс» в русском зеркале // Джеймс Джойс. – М.: Знаменитая Книга, 1994. Т. 3. – С.567.

foydalanilgan bo'lsa-da, baribir o'sha manbalarga tayanilganini inkor olib bo'lmaydi.

Durhaqiqat, ayni shu inersiyaning, muayyan ma'noda, bugun ham adabiy jarayonda ba'zan bo'y ko'rsatib turgani sir emas. H. Boltaboyevning adabiyotshunos U. Normatov bilan suhbatida ta'kidlagan ushbu so'zlari fikrimizni tasdiqlaydi: «Modern» istilohi, mana, 110 yildan beri o'z ahamiyatini yo'qotmagani hammaga kunday ayon. Bu holatni ko'rib turib bilmaslik nafaqat adabiyot nazariyasini, balki yangi va go'zal asarlar yaratilishidek adabiy jarayon amaliyotining ham torayishiga olib kelishi mumkin. O'zining ajoyib asarlari bilan sotsrealizm inversiyasini rad etgan ustoz adiblarning modern adabiyotni xushlamasligi haqidagi yozuvlarini ijoddagi samimiyat belgisi deb hisoblab bo'lmaydi»¹.

Shubhasiz, istiqloq bergan imkoniyat o'zbek tanqidchiligi yo'lini ochib qo'ydi, endilikda jahon adabiy jarayoniga uyg'unlashuv emin-erkin amalga osha boshladi. H. Boltaboyev to'g'ri ta'kidlaganidek, «110 yildan beri o'z ahamiyatini yo'qotmagan» modernizm adabiyotini, keng ma'noda, XIX asr oxiri va XX asr davomida jahon adabiyoti sahnasida kechgan badiiy jarayonlarni tushunish va tushuntirishga urinish o'zbek adabiy tanqidchiligining dolzarb mavzularidan biriga aylandi. Boshqa tomondan bu vazifaga kirishishni adabiy jarayonda yuzaga kelgan yangi uslubdagi turli janrlarga mansub asarlar talqini va tadqiqi ham taqazo eta boshladi.

Chunonchi, adabiyotshunos U. Normatov istiqloqlning ilk yillarida e'lon qilgan «Umidbaxsh tamoyillar» sarlavhali maqolasida o'zbek adabiyotida kechayotgan yangilanish va o'zgarishlarga e'tibor qaratadi. Mustaqillikning ilk davri tanqidchiligi uchun xarakterli bo'lgan ushbu maqolada bir necha e'tibortalab nuqtalar mavjud. Chunonchi, tanqidchi shaxsni faqat ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida tasvirlamaydigan, balki ilohiy, tabiiy, sirli-sehrli mavjudot tarzida ko'rsatuvchi asarlar yaratilayotganini ta'kidlarkan, ayni shu nuqtada tanqidning markscha-lenincha estetik asoslari inkor etilayotganini va bu ijobiy hol ekanini aytish joiz. Zotan, «inson-ijtimoiy munosabatlar majmui», degan markscha soxta g'oyaning, adabiyotni umumproletar mashinasining bir vintchasi sifatida talqin etgan lenincha mafkuraning asosiy tamoyillari o'z ta'sirini butkul yo'qotgani, o'zbek tanqidchiligi yangi

¹ Normatov U., Boltaboyev H. Yangi nazariy tamoyillar // Jahon adabiyoti. — T.: 2008. — № 3. 154-bet.

o'zgarishlar, yangilanishlar pallasiga kirib kelayotgani bu kabi maqolalarning yetakchi pafosini tashkil etgan.

Shuningdek, «eksiztensializm», «absurd» singari modernizm adabiyoti oqimlariga xolis munosabat tanqidchilikdagi izlanishlar umumjahon adabiy jarayoni bilan uyg'unlashayotganidan dalolat beradi.

Istiqlof davri tanqidi takomil tadrijini kuzatganda, dastlab umumiy talqinlarga asoslanilgan maqolalardan tashqari, modernizm adabiyotining oqimlari, adabiy-badiiy usullari, vosita va uslublari bilan bog'liq ayrim tushunchalariga izoh berishga intilishlar ham kuzatiladi. Xususan, tadqiqotchi T. Jo'rayevning «Ong oqimi va tasviriylik» mavzuidagi tadqiqotida modernizmning tub adabiy usuli — «ong oqimi»ning mazmun-mohiyati tahliliga e'tibor qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda o'tgan asrning 80-yillari o'zbek nasrida yuzaga kelgan ayrim yangilanishlar, xususan, M.Muhammad Do'st, G'.Hotamov, O.Otaxon singari yozuvchilarning «Lolazor», «Azal va abad», «Adoqsiz ko'chalar» singari asarlarida modernizm adabiyotiga xos «ong oqimi» uslubining namoyon bo'lishi tadqiq etiladi.

Bugunga kelib modernizm adabiyoti namunalari, xususan, J.Joys asarlari ona tilimizga tarjima qilinib, o'zbek kitobxoniga yetkazilayotgan bir paytda «ong oqimi» singari atamalarni imkon qadar teranroq sharhlab berish lozim. Chunki «Uliss» kabi o'ta murakkab asarlar o'quvchilardan XX asr g'arb adabiyotida paydo bo'lgan ham shaklan, ham mazmunan yangicha izlanishlar, adabiy tajribalar mohiyatidan puxta xabardor bo'lishni taqozo etadiki, bu o'zbek tanqidchiligi oldida turgan dolzarb vazifalar sirasidandir.

T.Jo'rayev tadqiqotida «ichki monolog» va «ong oqimi» tushunchalari deyarli bir xil ma'noda keladi. Vaholanki, klassik realizmda, xususan, L.Tolstoy ijodida o'zining imkoniyatini to'la namoyon etgan «ichki monolog» usuli «ong oqimidan» tamoman farq qiladi. Masalan, buni biz, Jeyms Joysning «Navqiron san'atkorning siyrati»¹ romani qahramoni Stiven Dedalus obrazida kuzatishimiz mumkin.

«Ong oqimi» tushunchasiga o'zbek tanqidchiligidagi keyingi chiqishlarda bir qadar oydinlik kiritildi. Tanqidchi A.Otaboy «Ong oqimi» sarlavhali maqola yozdi. A.Otaboy realistik adabiyotdagi «ichki monolog»dan farqli o'laroq modernistik adabiyotdagi «ong oqimi»ning

¹ Joys J. Navqiron san'atkorning siyrati // Jahon adabiyoti. — T.: 2007. — № 3—4.

yotakchi xususiyatini adabiy qahramonlarning fikrlash tarzidagi o'ziga xoslikda, deb biladi.

Aknuriyat tadqiqotlarda J.Joysning «Uliss» romani yakuniy qismidagi, qariyb uch bosma taboqdan iborat, biror-bir tinish belgilersiz keladigan yosh juvon Merion Bulumning intim o'y-xayollari oqimi «ong oqimi»ning klassik namunasi sifatida tahlil etiladi. Modernizmga xos bu adabiy usulning ahamiyati odam zotiga xos illatlarni uning ong ostida kechadigan jarayonlarni ishonarli tarzda ifodalash, muallifning «ishtirokisiz», tashqi ta'sirlardan xoli tarzda tasvirlashda ekani aytilib, mohiyatan esa, insoniy his-tuyg'ularni instinktlarning natijasi, oqibati sifatida ko'rsatishdan iboratligi ta'kidlanadi¹.

Demak, bunday qarashlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, «ong oqimi» tushunchasi ham shubhasiz, muayyan g'oyani, maqsadni, muallifning olamga, odamga, uning mohiyatiga bo'lgan tushkun munosabatini ifodalaydi. O'zbek tanqidchiligida ushbu va, umuman, modernizm adabiyotiga doir atamalar, tushunchalar hali teran tadqiq etilmagani bois, bu kabi to'la-to'kis sharhlanmagan talqinlar ham uchraydi.

90-yillar tanqidchiligida «modernizm» tushunchasini anglash va uning o'zbek nasri va she'riyatidagi ko'rinishlariga munosabat qat'iylasha bordi. Bu paytga kelib, biz yuqorida kuzatgan, «ong oqimi» atamasi atrofida keyinchalik bahs-munozara deyarli yuritilmadi va asosiy e'tibor «modernizm» atamasi talqinlari, mazmun-mohiyati mavzusida kechdi. Bu masaladagi dastlabki chiqishlardan bo'lgan «Modernizmni qanday tushunamiz» (O'z AS, 1995, 6.10.) sarlavhali maqola adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Unga munosabat bildirib yozilgan «aks-sado»larda modernizmning g'oyaviy-estetik tamoyillari, bu yo'nalishda o'zbek adabiyotidagi ilk izlanishlar tilga olindi.

B.Ro'zimuhammad o'zining «modernizmni qanday tushunishi»ni bayon etarkan², XX asr g'arb shoirlari o'z she'rilarida an'anaviy tasvir usullari o'rniga kino san'ati, tasviriy va haykaltaroshlik san'atlariga xos vositalardan unumli foydalanishganini ta'kidlab, bundan kuzatilgan «Maqsad So'zni ko'rish va ko'rsatish» ekanini to'g'ri ta'kidlaydi. Shuningdek, muallif modern asarlariga havas o'zbek adabiyotida XX asr avvalida paydo bo'lganini, «modernizmning oltin davri»da Oybek

¹ Bu haqda qarang: *Jo'rayev T.* Ong oqimi va modern. – T.: 2008.

² *Ro'zimuhammad B.* // O'z AS. – T.: 1996. – 2-fevral.

modernchi shoir Emil Verxarn she'rlaridan, **Maqsud Shayxzoda** fransuz simvolistlaridan ta'sirlanganini yozadi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, «modernizmni qanday tushunish» masalasi o'tgan asrning 90-yillaridagina emas, aslida o'sha asrning boshlaridayoq o'zbek adabiyotining dolzarb masalalaridan bo'lgan. Biroq keyinchalik asr boshidagi ilk izlanishlar tamoman to'xtab qoldi, jadid adabiyoti ham qatag'onga uchradi va jahon adabiyotidagi yetakchi tendensiyalardan biri modernizm bilan nafaqat shug'ullanish, balki bu oqimga oid asarlarni topib o'qish imkoniyati ham cheklandi. Faqat 90-yillarga kelib, istiqlool sharofati tufayli, bunga imkon tug'ildi. Darhaqiqat, biz yuqorida tilga olgan «Modernizmni qanday tushunamiz» degan masala qayta kun tartibiga kiritilguniga qadar oradan qariyb chorakam bir asr vaqt o'tdi.

Ayni chog'da, hammasini boshidan, ya'ni ba'zi tushuncha, terminlarga, oqim, adabiy usul, vositalarga sharh va izohlar berishdan boshlash lozim edi va shunday bo'ldi ham. Jumladan, «O'z AS» gazetasida «Istilohlar» ruknida berilgan «Modernizm» sarlavhali muxtasar sharhda modernizmning lug'aviy ma'nosi, paydo bo'lishi, mazmuni, uning «dekadans», «avangard» atamaları bilan bog'liq jihatlari hamda tub farqli xususiyatlari va boshqa tomonlari qisqa bayon etilgan.

Ushbu sharh muallifi A.Otaboy «modernizm»ning umumiy nuqtalariga qisqa-qisqa izoh berib o'tgan bo'lsa-da, prinsipda bu atama haqida daslabki zarur ma'lumotlarni bayon etgan. Jumladan, munaqqid «dekadent» va «modern» atamaları o'rtasidagi farqni izohlarkan, «modern» san'atini yaratishga kirishganlar «dekadent»lar kabi o'zlaridan oldin o'tgan badiiy oqimlar bilan aloqada bo'lmaganini, balki bog'liqlikdan tamoman voz kechish hisobiga «modern» asarlar yaratishga erishganini aytib shunday yozadi: «Shu boisdan ham, «modern»ni «eng yangi», «zamonaviy»dan ko'ra kengroq ma'noda, butkul yangi, g'ayriyan'anaviy, oldingilardan farqli hodisa sifatida olib qarash o'rinli»(O'z AS, 1996, 2.02.). Bu kabi atamaga doir dastlabki talqinlar, qolaversa, «modernizm»ga keng ma'noda adabiy tanqidchilikda berilgan ta'riflar, muayyan ma'noda, jahon adabiyotshunosligida mazkur mavzudagi tadqiqotlarga hamohang.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, XX asr 70–80-yillarida, sobiq ittifoq davri rus adabiyotshunosligida, san'atshunosligida «modernizm» bilan bog'liq amalga oshirilgan tadqiqotlardagi ayrim kuzatishlar o'zbek tanqidchiligida ushbu mavzudagi ilk izlanishlarga o'ziga xos turtki

bergan, muuyyun ma'noda, ta'sirini ham o'tkazgan. Jumladan, D.Zatonakliy «modernizm» atamasiga to'xtalib shunday yozadi: «Modernizm» termini, yuqorida aytganimdek, ehtimol, muvaffaqiyatli topilgan atama emasdir. Biroq, bu terminsiz – boshqasi yo'qligi tufayli, – uftidan, ish yuritib bo'lmaydi, magarki, XX asr g'arb san'atida nimalar ro'y berayotganini bilmocqchi bo'lsang. Zero, ushbu termin bilan aniqlik kiritilgan voqea mavjuddir...»¹.

«Modernizm» atamasiga oid bu kabi talqinlar o'z vaqtida modernizm adabiyoti va san'atini tushunishga, uning «zamonaviy», «yangi» adabiyotdan, san'atdan farqli jihatlarini anglab yetishga imkoniyat yaratgan edi. 90-yillar oxiri – XXI asrning ilk yillarida o'zbek adabiy tanqidchiligida ushbu atama borasida garchi alohida tadqiqotlar amalga oshirilmagan bo'lsa-da, umuman, modernizm adabiyoti, uning g'oyaviy-estetik xususiyatlari, o'zbek adabiyotidagi ayrim namunalari atrofida fikr almashuvlar, ba'zan bahs-munozaralar bo'lib o'tdi. Shu munosabat bilan aytish lozimki, «modernizm» tushunchasining bu tarzda tanqidchilik kun tartibiga qo'yilishiga, birinchidan, jahon adabiy jarayoniga qiziqishdan bo'lsa, ikkinchidan va asosiy sabab adabiyotimizda turli janrlarda yangicha yo'nalish va uslublarda yaratilayotgan asarlar tahlili va talqini zarurati edi. Bu zaruratni adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov shunday izohlaydi: «Bizning adabiyotimizda 80-yillardan boshlab «ochiq matnli» murakkab asarlar yaratila boshlandi. Men bu o'rinda Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul nasrini, Rauf Parfi, Yo'ldosh Eshbek, Cho'lpon Ergash, A.Qutbiddin, Faxriyor nazmini nazarda tutyapman. Lekin hozirgi o'zbek tanqidchiligida bunday asarlar talqini N.Rahimjonov, B.Akramov, Q.Yo'ldoshev, A.Otaboy, B.Ro'zimuhammad, U.Hamdamlarning ayrim maqolalarida ko'zga tashlanayapti, xolos»².

Zamonaviy o'zbek nasri, xususan, yoshlar prozasi muammolariga bag'ishlangan dastlabki munozaraga atoqli adib Shukur Xolmirzayevning «Kechirasiz, janob Carpenter, vaqtim ziqroq» (O'z AS, 2000, 27.07.) sarlavhali maqolasi turtki berdi. Unda bugungi nasrimizdagi yetakchi an'anaviy realistik uslub bilan birga modern uslubida ham asarlar yaratilayotgani qayd etiladi. Muallif yosh yozuvchilarning qissa

¹ *Затонский Д.* В наше время // Книга о зарубежных литературах XX века. – М.: Сов. писатель, 1979. – С.51.

² *Rasulov A.* Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006. 109-bet.

va hikoyalarga e'tiborini qaratadi. **Realistik uslub imkoniyatlarini** yuqori baholagan holda, «modern» uslubida yaratilayotgan asarlarga ham xolis baho berishga harakat qiladi. Jumladan, u yozuvchi **Sh.Hamroyevning** qissa va hikoyalari haqida gapirib, ular «...mening realistik usulimdan ming chaqirim narida, ko'proq xayolga, xayolning ham pinhoniy o'yinlariga qurilgan va daf'atan kishiga beo'xshov bo'lib tuyilsa-da, siz unga ishonasiz», – deb yozadi.

Sh.Xolmirzayevning katta bahs-munozaraga turtki bergan maqolasi adabiy tanqid oldiga bir talay dolzarb masalalarni qo'ydi. **Yoshlar nasridagi «g'alati» tajribalarning ildizlari qayerda; nasrdagi yangilanishlarda adabiy ta'sir, taqlidning qanchalik «xizmati» bor; yangi nasr namunalariga qanday mezonlardan kelib chiqib yondashmoq lozim; modern uslubidagi asarlarda usul, til masalalariga yangicha yondashishning yo'llari qanday; ushbu yo'nalishdagi asarlar milliy voqelikka qanchalik mos yoki bu asarlar modernizmga xos universallik bilan uyg'unmi va hokazo.**

Xullas, bu bahs maqoladan keyin bir qancha chiqishlar bo'ldi. Jumladan, yosh nosirlar ishtirokidagi «Yoshlar nasri o'z yo'lidan boradi» (O'zAS, 2000, 4.08.) sarlavhasi ostida berilgan «Davra suh-bati»da, B.Ro'zimuhammadning «Hayot tajribalari va xayol chig'iriqlari» (O'zAS, 2000, 11.08.), S.Melining «Asl adabiyot – ezgulikka xizmat» « (O'zAS, 2000, 18.08.), H.Karvonlining «Ikki yo'l sintezi» (O'zAS, 2000, 11.08.), U.Jo'raqulovning «Asl adabiyotning nash'unamosi» (O'zAS, 2000, 27.10.) hamda U.Hamdamning «Turfa ranglar uyg'unligi» (O'zAS, 2000, 29.09.) maqolalarida «modernizm» atamasi, modern adabiyoti va uning o'zbek adabiyotida ko'rinayotgan ayrim namunalari atrofida munozarali, turli xil fikr-mulohazalar o'rtaga tashlandi.

Garchi bu chiqishlarda «modernizm»ning paydo bo'lishi, uning tub mohiyati, modernizm adabiyotining yetakchi falsafiy asoslari, g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi, uslublari va tasvir vositalari haqida teran tahlilga asoslangan xulosalar aytilmagan bo'lsa-da, ulardagi adabiy jarayondagi yangilanish, o'zgarishga xayrixohlik va, ayni paytda, tanqidiy qarashlar, jahon adabiyoti tajribalariga havas va ularni tushunishga urinish adabiy tanqidchilikdagi o'ziga xos ijobiy tendensiya sifatida e'tiborga molik.

Bu kabi e'tiroflar modern adabiyotiga xos xususiyatlarni ko'rsatishdan ko'ra, bu adabiyotni himoya qilishdek taassurot qoldiradi va ayni o'rinlarda uni realistik adabiyotdan ustun, degan fikr uyg'otadi.

B. Ro'zImuhammad modern adabiyoti namunalarini realistik adabiyot mezonlari bilan baholab bo'lmashligini to'g'ri ta'kidlaydi. Biroq, o'zi tanqiddan himoya etayotgan modern adabiyotining til, tasvir, badiiy vositalar bilan qay darajada uyg'unligini va bu uyg'unlikdagi modern adabiyotga xos mutlaqo yangicha badiiy talqinlar mohiyatini ochib ko'rsatmaydi. Vaholanki, Sh.Xolmirzayev o'z maqolasida modern adabiyotining ayni shu xususiyatlariga ishora qilgan edi: «...ruh yo'lidagi adiblarimizda TIL chatoq. To'g'ri, ulardagi mazmunning o'zi murakkab va alohida tasvir vositalarini, yangicha jumla qurilishlarini, mavhumiyatni bordek ko'rsatish uchun shunga muvofiq til lozim. Ammo baribir... ular til yo'rig'ida oqsashlari ustiga, jiddiy ishlamayotirlar ham. Ishonmasangiz – ixtiyor o'zingizda, u moderniy mualliflar ko'pincha tinish belgilarini ham o'z o'rnida ishlatmaydilar... Bu borada realistik yo'ldagi adiblarning yutug'i ko'p. Balki bu borada tilimizga rosa ishlov berilganidadir...».

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek adabiy tanqidchiligi uchun modernizm adabiyoti poetikasi mutlaqo yangi, tadqiqotchilarini kutib turgan dolzarb mavzudir. Ushbu mavzu tadqiq qilinmagani, bu borada modern adabiyoti namunalari borasida yetarli ma'lumotlarga ega bo'linmagani bois, yuqoridagi mualliflarning o'zaro bahslarida ular munozaraga kirishayotgan muammolar mohiyati ochilmay qolgan. Zero, modern adabiyotining o'ziga xosligi, asosan, bu yo'nalishdagi asarlar matni, tili, uslubi bilan juda ham bog'liqdir.

S.S.Xorujiy yozadi: «Modernizm... bu uslubga behad ishonch, uslubga sig'inish, uslubning mistikasi va mifologiyasi»¹.

Ta'kidlash joizki, «modernizm» tushunchasiga, umuman, modernizm yo'nalishidagi adabiyotga, nihoyat, jahon adabiyotida bu oqim paydo bo'lganidan keyin bir asrdan ko'proq vaqt o'tib, o'zbek tanqidchiligi oshkora e'tibor qaratayotganining o'zi ijobiy hol. Vaholanki, «Sho'ro adabiy siyosati modernizmni xushlamay qarshi olishiga qaramay, rus va boshqa milliy adabiyotlar, jumladan, o'zbek adabiyotida 20-yillardayoq bu tamoyil bo'y ko'rsata boshladi, biroz no'noqlik bilan uch bergan futurizm davrning sur'atini yaratuvchilik mehnatini olqishlash tarzida sotsialistik g'oyalarga uyg'unlashgan holda xiyla keng tarqaldi. Chuqur milliy ildizga -tasavvuf falsafasiga borib taqaladigan «ramzchilik» zamonaviy simvolizm tajribalari bilan tutashgan

¹ Хоружий С.С. «Улисс» в русском зеркале // Жойс Ж. «Улисс». — М.: Знаменитая книга, 1994. Т. 3. — С. 405.

holda erk-ozodlik tuyg‘u-g‘oyalarini ifodalovchi jiddiy adabiy tamoyilga aylandi, Cho‘lpon, Fitrat, Elbek, Botu, Oybek she‘riyati buning yorqin dalili. Ilm-fanda, masalan, Fitrat, Abdurahmon Sa‘diy asarlarida modernistik istilohlar va ularning sharh talqinlari maydonga keldi»¹.

U. Normatovning ushbu e‘tirofidan yaqqol ko‘rinib turibdiki, «modernizm» atamasi o‘zbek adabiyotshunosligi, badiiy adabiyotimiz tarixida yangi hodisa emas. Faqat o‘tgan asrning 20-yillaridan keyin bu atamani tilga olish, mazkur oqimga munosabat bildirish cheklab qo‘yildi. Biroq, modernizm tajribalaridan o‘rganish yaqin o‘tmishda, xususan, 70-yillarda yana jonlandi².

Endilikda istiqlol tufayli badiiy ijodda ham, adabiy tanqidida ham ushbu oqimning mohiyati, shakli, falsafasi, badiiy xususiyatlariga qiziqish qayta jonlanib, izchil izlanishlar, bahs-munozaralar davom etayotir. Qizg‘in kechgan bu bahs davomida tanqidchi va ijodkorlar asosan ikki guruhga bo‘linishganini, ayrim munaqqidlar modern adabiyotni yoqlab, himoya qilib chiqishgan bo‘lsa, boshqalari esa realizm tarafdorlari sifatida modernizm oqimining milliy madaniyatimiz, adabiy an‘analarimizga yot hodisa ekanini e‘tirof etishdi.

Shuningdek, bu ikki yo‘nalishga xos yetakchi xususiyatlarni umumlashtirib, modernizm adabiyotiga xos ayrim jihatlarining ijobiy ta‘sirini yoqlab chiqqanlar ham bo‘ldi. Bu jihat gazetada e‘lon qilingan «Yoshlar nasri o‘z yo‘lidan boradi» (O‘zAS, 2000, 4.08.) sarlavhali davra suhbatida qisman namoyon bo‘ldi. Suhbat ishtirokchilari N. Eshonqul, I. Sulton, Sh.Bo‘tayev, S.Vafo singari ijodkorlar bugungi o‘zbek nasri istiqboli, unda kechayotgan yangilanish tamoyillari haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Yuqoridagi keltirilgan ta‘rif va talqinlardan, umuman, «modernizm» tushunchasiga va modernizm adabiyoti tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlardan shunday to‘g‘ri xulosaga kelish mumkin: «modernizm jo‘n hodisa...emas» (O. Sharafiddinov). Zero, jahon adabiyotida bu yo‘nalishning paydo bo‘lishi, munaqqidlar haqli ravishda-ta‘kidlaganidek, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida G‘arbda yuzaga kelgan global ma‘naviy inqiroz bilan bog‘liq. Qolaversa, realizm metodiga o‘z imkoniyatlarini har jihatdan ishlatib bo‘lgan, degan

¹ Normatov U., Boltaboyev H. Yangi nazariy tamoyillar // Jahon adabiyoti. – T.: 2008. № 3. 155-bet.

² O‘sha manba, 155-bet.

subyektiv qarash oqibatida yangicha uslub va vositalar orqaligina yangi dunyoviy hodisalarning haqqoniy badiiy talqinini berish mumkin, deb hisoblash modernizmni paydo qilgan asosiy omillardir. Ushbu tushqi va ichki omillarni hisobga olmay turib modernizmni dabrurustdan inkor etish mumkin emas.

Ishonch bilan aytish mumkinki, modernizm hodisasiga o'zbek tanqidchiligida, dastlabki urinishlardayoq, tushunib yondashish, tushunishga intilish aniq sezilib turadi. Jumladan, adabiyotshunos S. Meli o'z maqolasida modernizmning paydo bo'lgan davri va manbalari, uning yuzaga kelishiga turtki bo'lgan omillar – ijtimoiy-siyosiy voqealar haqida ma'lumot berib, bu adabiy hodisa XIX asr oxiri – XX asr boshlarida G'arb dunyosida ro'y bergan ma'naviy inqirozning adabiyot va san'atdagi aks-sadosi, deydi. U «Orzu imkondan katta» (O'zAS, 2003, 3.01.), sarlavhali suhbatida ham «modernizm» atamasining lug'aviy ma'nosini to'g'ri sharhlaydi hamda «o'ziga xos yangi (o'z payti uchun, albatta) badiiy tasvir usullari bilan boshqa ijodiy metodlardan farqlanadigan adabiy oqim» ekanini ta'kidlaydi. Ayni paytda olim oldingi qarashlarini yanada aniqlashtirib, modernizm adabiyotiga «allaqachon eskirgan (modernizm bo'lmay qolgan) va badiiy yo'l, metod sifatida badiiyat tarixida bor-yo'g'i bir tajriba ekan»ini, «Modernizm – tanazzul mahsuli» va shu bois, «bunday usulda yozilgan asarlarga mahliyo bo'lish» «jiddiy ilmga yot», degan qarashlarini yana bir bor takrorlaydi.

Albatta, S.Melining ushbu xulosalarida bahsli nuqtalar ham yo'q emas. Biroq masalaga ilmiy yondashuv S.Meli maqolasining asosiy xususiyati ekanligini ta'kidlash lozim.

«Turfa ranglar uyg'unligi», maqolasida U.Hamdami badiiy metodlar mohiyatini ochishga harakat qilarkan, realizmning mohiyati hayotni haqqoniy aks ettirish bo'lsa, modernizm inson ichki dunyosini yangicha yo'llarda tasvirlashdir, shu bois, har ikkala yo'nalish ham ijodda birdek ahamiyatli va hech qachon eskirmaydi, deydi. Muallif yana bir masalaga e'tiborni qaratadi: qaysi «izm»ga mansubligidan qat'i nazar, badiiy asar zahirida hayot mohiyati yotmas ekan, u chinakam badiiyat namunasi bo'lolmaydi.

Maqolada Suvon Meli fikrlariga aniqlik kiritib, modernizm inson botinini kashf qilar ekan, hech qachon eskirmaydi, degan xulosa aytiladi: «Demak, «modernizm eskirdi», deganda adabiyotshunos S.Meli XX asr mobaynida G'arbda jamiyatning turlicha kayfiyatlarini ifoda qilgan modernizmning qismlarini – ekspressionizm, dadaizm,

syurealizm, kubizm, abstraksionizm va hokazolarning ortiq yetakchi oqimlar emasligini nazarda tutgan desak, har holda haqiqatga to'g'ri keladi» (O'zAS, 2000, 29.09.).

Munozara ishtirokchilari g'arb modernizmiga xos xususiyatlarni bus-butinicha bugungi o'zbek nasriga qo'llash joizmi, degan masalani ham o'rtaga tashlashgan.

U.Jo'raqulov bugungi o'zbek nasrida, umuman olganda esa, o'zbek yozuvchilarining modernistik yo'nalishdagi asarlarida g'arb modernizmiga xos tushkunlik, umidsizlik kayfiyatlari yo'q, deb hisoblaydi va bu fikrini Sh. Hamroning «Qora kun», I. Sultonning «Manzil» asarlari tahlili bilan asoslaydi.

Shuningdek, u Sh.Xolmirzayevning yoshlar nasrida «til chatoq»ligi masalasida aytgan tanqidiy mulohazalariga e'tiroz bildiradi: «Hurmatli yozuvchilarimizning tinish belgilari borasidagi fikri ham bahstlab. Faqat ruhiy holatlarni ifoda etuvchi adabiyotning mavjudligi rost bo'lsa, bu fikr hatto o'zini oqlamaydi. Chunki ruhiy holat moddiy dunyoda, ya'ni zohirda emas, botinda kechadi va hech kim, o'ta aniq fikrlayotganda ham bu jarayonda tinish belgilarga ehtiyoj sezmaydi» (O'zAS, 2000, 27.10.).

Albatta, «modernizm» atamasiga munosabat munozara ishtirokchilari diqqat markazida bo'ldi. Jumladan, B.Ro'zimuhammadning «Postmodernizmni nima deymiz? Yoxud taqlidmi-ta'sirlanish» maqolasida B. Sarimsoqov bilan munozaraga kirishib, shunday yozadi: «Xo'p mayli. «Modernizm»ni «yangi adabiyot» deylik.

Unda postmodernizmni nima deymiz? «yangi adabiyot o'rniga kelgan mutlaqo o'zgacha adabiyot» deymizmi? Cho'zilib ketmaydimi? She'riyatimizda postmodernizm ham kurtak yozmoqda» (O'zAS, 2004, 27.02.). Ko'rinib turibdiki, B.Ro'zimuhammad har bir terminni faqat lug'aviy ma'nosida emas, balki mohiyatni ochuvchi ma'no-mazmuni bilan yaxlit qabul qilish tarafdori. Ayni chog'da, muallif adabiy ta'sir masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratib, bugungi o'zbek ijodkorlari jahon modern adabiyotidan ta'sirlansa, bunga faqat ijobiy hodisa sifatida yondashish lozimligini ta'kidlaydi. Atoqli olim Ozod Shara-fiddinovning «Modernizm jo'n hodisa... emas» (O'zAS, 2002, 7.06.) sarlavhali suhbat, aytish mumkinki, modernizm adabiyotiga bag'ishlangan mazkur bahsning birinchi bosqichiga o'ziga xos yakun yasadi.

Munaqqid uzoq yillar sho'ro mafkurasi adabiyotda ko'pranglilikni tan olmay, faqat sotsialistik realizm qolipida asar yaratish talabini qo'yib kelgani bois, adabiyotimiz turli xil poetik izlanishlardan bebahra

qoldi. Shu tufayli bugungi kunda kechayotgan bunday izlanishlar **Jarayoniga** bag'rikenglik bilan qarash kerak. Ammo munaqqid fikricha, «...izlanishlar bobida ehtiyot bo'lmoq kerak, negaki, yangi narsa ham-ma vaqt ham yangiligi uchungina yaxshi bo'lavermaydi, shuningdek, eski narsani faqat eskiligi uchun «puf sassiq»qa chiqarish mumkin emas»¹. Olim ta'kidlashicha, ba'zan kinoya, ba'zan kesatiq bilan tilga olinayotgan realizm hali uncha eskirib qolgani yo'q. Hali o'zbek adabiyotida uning ochilmagan imkoniyatlari ko'p. Demak, «modernizm» tushunchasi talqini adabiy tanqidning muhim ilmiy konsepsiyalaridan biriga aylanadi. Modernizm haqidagi bahsning biz shartli ravishda belgilayotgan birinchi to'liqini shundan dalolat beradi.

Adabiy tanqidning keyingi faoliyatida mazkur bahs-munozaralar doirasi kengayib, modernizm yo'nalishiga mansub oqimlarning falsafiy, ijtimoiy, estetik mohiyatini talqin etishga qaratila boshlandi. Shubhasiz, ushbu mavzudagi dastlabki chiqishlar ayrim kamchiliklardan, ya'ni modernizm oqimlariga yuzaki ta'riflar berishdan, o'zbek adabiyotida yaratilgan ayrim asarlarni ana shu oqimlarga zo'rma-zo'raki bog'lashga urinishlardan xoli bo'lmagan esa-da, mohiyatan ayni shu harakatlar tanqidchilik tamoyillarida zimdan yangilanish jarayoni boshlanganini ko'rsatadi.

Istiqlof tufayli qo'lga kiritilgan ijod erkinligi o'zbek adabiyotini jahon adabiyotida kechgan va kechayotgan jarayonlarga uyg'unlashish imkonini yaratdi. Mustaqillikning ilk bosqichida yaratilgan asarlarni adabiy tanqid jahon adabiyoti kontekstida tadqiq qilishga kirishildi.

Jahon adabiyotshunosligida «absurd adabiyot», «absurd san'at», «absurd qahramon» tushunchalari o'tgan asrning 40-yillarining boshida fransuz adibi A.Kamyuning «Begona» romani yaratilishi bilan yuzaga kelgan. Fransuz adibi va adabiyotshunosi, faylasuf J.P.Sartrning «Begona» romani munosabati bilan yozgan ««Begona»ni tushuntirish» sarlavhali maqolasi «ekzistensializm manifesti», deya ta'riflandi, fransuz adabiyotida ekzistensializm mavqeyining mustahkamlanishiga xizmat qildi. 50-yillarda Fransiyada paydo bo'lgan yangi teatr yo'nalishi esa absurd san'ati, deya nom oldi. Absurd dramaturgiyasiga oid pyesalar g'arbdagi ko'plab mamlakatlar sahnalarida namoyish etildi.

A.Kamyuning «Begona» romani qahramoni haqida so'z yuritib J.P.Sartr shunday yozadi: «Uning qahramoni yaxshi ham, yomon

¹ Sharafiddinov O. Modernizm jo'n hodisa emas // O'zAS. — T.: 2002. — 7-iyun.

ham emas, ma'naviyati boy ham emas, ma'naviyatsiz ham emas. U haqida bunday tushunchalarga tayanib muhokama yuritib bo'lmaydi: u mutlaqo boshqa bir zotga mansubki, bunga yozuvchi absurd so'zi bilan aniqlik kiritadi. Biroq bu ibora janob Kamyuning qalami ostida butunlay boshqa-boshqa ikki xil ma'no kasb etgan: absurd — ayni paytda narsa-hodisalarning ayrim odamlar aniq anglagan mohiyati¹.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar, keltirilgan ayrim iqtiboslarni umumlashtirib aytish joizki, «modernizm — jo'n hodisa...emas» (Ozod Sharafiddinov), degan haqiqatga qanchalik ishonsak, modernizmning bir oqimi sifatida ko'riladigan absurd adabiyotga ham ro'y bergan, mavjud estetik-badiiy hodisa sifatida qaramoq lozim.

Tushkun dunyoqarashni aks ettirgan konsepsiyaga asoslangan absurd asarlar azaldan g'arb adabiyoti va san'atida, falsafasida mavjud bo'lgan ezgin kayfiyatdagi qahramonlar holatlari, umidsiz o'y-xayollarini XX asrga kelib reallashtirdi. Chunonchi, biz A.Kamyuning «Begona» romani borasida J.P.Sartre bildirgan fikrlarda kuzatganimizdek, absurd oqimga mansub asarda muallif biror-bir tarixiy sharoit, vaziyat oqibatida emas, balki inson qismati azaldan chorasiz, odamning o'zi o'limga mahkum va bu haqiqatlar qarshisida u ojiz, degan prinsipga asoslanilganini kuzatamiz. «Begona» qahramoni Mersoning chorasizligi uning mutlaqo ozodligida — jamiyatga, dinga, o'ziga va boshqalarga nisbatan hech qanday mas'uliyatga ega emasligida. Ayni shu prinsip asar uslubini ham belgilaydi. Umuman, realistik metoddan usluban butkul farq qiladigan absurd adabiyoti namunalari tarixiy konkretlikdan, hayotiy real mantiqdan xoli. Ulardagi voqea-hodisalar biror-bir davr bilan bog'lanmaydi.

U.Normatovning «Umidbaxsh tamoyillar» sarlavhali maqolasida 90-yillar boshidagi o'zbek nasrida yetakchilik qilgan tendensiyalar haqida so'z yuritilib, an'anaviy realistik asarlar bilan bir qatorda, inson ruhiyatini yangicha uslublar vositasida badiiy tadqiq etishga, insonni ijtimoiy tip sifatida emas, balki o'ziga xos sirli-sinoatli mavjudod sifatida talqin etishga e'tiborning kuchayganligi ta'kidlanadi.

U.Normatov absurd qahramon haqida so'z yuritarkan, unga xos xususiyatlarni quyidagicha ta'riflaydi: «Absurd adabiyoti nazariyachilarining fikricha, absurd voqealik absurd insonni va absurd ijodni yetishtiradi, shunga ko'ra absurd asari, birinchi navbatda, negativ

¹ Сапрыг Ж.П. Называть вещи своими именами. — М.: Прогресс, 1986.—С.92.

xarakter kasb etadi. Absurd adabiyotning yana bir muhim xususiyati shundaki, unda aql-idrok, o'z bisoti, hayotini shafqatsizlarcha tanqidiy idrok etish, taftish qilish ustuvor, shuning uchun ham unda fojiviylik kuchli. Inson zoti o'zining haqiqiy ahvolini idrok etmasa, hech qanday fojia yo'q. Inson o'z mehnatining ma'nisizligini, ahvol-holati va hayoti absurddan iborat ekanini anglab yetgan daqiqalardan keyingina chinakam fojia boshlanadi. 80-yillar oxiri – 90-yillar boshlaridagi vaziyat bizda absurd adabiyotning, absurd inson obrazining tug'ilishi uchun zamin tayyorladi»¹.

Ekzistensiya («exsistentia») – mavjudlik absurd asar zamirida haqiqat ma'nosida keladi. Insonning mavjudligi – ekzistensiyasi, absurd asarda, unga qaysidir yo'sinda ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan tashqi omillarni, deylik g'oyalar, pandu nasihatlarini, yo'l-yo'riqlarni tan olmaydi. Ya'ni absurd asar qahramoni bularning hammasidan xoli – u tamoman «ozod».

Absurd qahramon fojiasi uning o'zida va buni uning sa'y-harakati, fikr-o'yi, o'zininggina ekzistensiyasi-mavjudligi belgilaydi. Bunday qahramon uchun hayotda ma'ni yo'q, yashashning o'zi arziyas bir mashg'ulotdir. Ayni paytda esa, u nimagadir umid bog'lamaydi va umidsizlikka berilmaydi, u shunchaki mavjud, xolos. Qolaversa, absurd asarning strukturasi, badiiy-estetik prinsiplari ham realistik asarlardan butkul farqlanadi.

Masalan, S.Bekketning «Godoni kutish» asari sujeti o'ta oddiy: ikki daydi qishloq yo'lida Godoni kutib o'tirishadi. Godoning kimligi ham, kelishi, yo kelmasligi ham noma'lum. Kutish jarayonida bo'lib o'tgan gap-so'zlar, harakatsizliklar ham na bir maqsad va na bir mantiqqa bo'ysunadi. Pyesa oxirida personajlar ketishga shaylanishadi, biroq joylaridan qimirlashmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, absurd asar matnidan qurilishigacha, vaziyat, holat ifodasidan yakunigacha absurdga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bunday asarlarda real hayotdan ayrim detallar, iboralar ishlatilsa-da, asosan, realistik tasvir uslubidan tamoman farqli tasvir ustunlik qiladi.

U.Normatov «O'tmishdan ertaklar» va absurd» (O'zAS, 2000, 14.07.) maqolasida A.Qahorning «Sarob» romani, asar bosh qahramoni Saidiy obrazi ekzistensializm falsafasiga asoslangan adabiy prinsiplar asosida yaratilgan, degan fikrni ilgari suradi. ««Sarob» roma-

¹ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar // Sharq yulduzi. – T.: 1993. – № 10–11. 182-bet. -

nida, xususan, bosh qahramon Saidiy ruhiyatidagi ma'naviyat inqiroz tasvirida ekzistensializm falsafasiga asoslangan adabiy prinsiplar mavjudligi»ni munaqqid asar qahramonining ayrim o'rinlardagi «ijtimoiy-tarixiy sharoit, siyosat, mafkuraga bo'ysunmaydigan ong-idrokdan tashqaridagi anglab yetilmagan holatlarning zahuri tarzida» berilganida ko'radi.

Absurdni bir tomonlama, ya'ni faqat voqelikka, aniqrog'i, mustamlakachi sho'ro davri voqeligiga bog'lab talqin etish noto'g'ri. Ayonki, absurd, eng avvalo, inson subyekt bilan, uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, mavjudligi bilan bog'liq hodisadir. Fikrlaydigan inson borki, hayotda yashashdan ma'ni izlaydi. Yashashda ma'no yo'q, «hayot bema'ni», degan xulosa esa absurddir. Absurd xulosaga kelgan odamning boshi berk ko'chaga kirib qolgan kishidan farqi yo'q, u chorasiz. Boshdan oyoq ana shu konsepsiya singdirilgan asarlar absurd asarlardir. Aksincha, hayotdan ma'no-mazmun topib yashaganlar uchun tiriklik hech qachon absurd bo'lolmaydi.

Adabiyotdagi absurdni ham shunday tushunish kerak. Asarning butun mohiyatidan sizib chiqadigan ma'no uning absurd yoki absurd emasligini belgilaydi. Absurd universal hodisa emas. U alohida olingan shaxs qismati, fojiasi yoki uning badiiy asardagi an'anasiga ega bo'lmagan poetik kashfiyotdir. Uni butun insoniyat hayotiga taalluqli konsepsiyaga aylantirib bo'lmaganidek, badiiyatga daxldor hodisa sifatida inkor etish ham mumkin emas.

U.Normatovning yuqorida tilga olingan maqolalari o'z vaqtida adabiy jarayonda qizg'in munozaraga sabab bo'ldi. Chunonchi, B. Sarimsoqov «Absurd ma'nisizlikdir» (O'zAS, 2002, 28.07.) sarlavhali maqolasida masalaning ikki jihatiga e'tiborni tortadi: «Birinchisi, o'zbek badiiy tafakkur tarzida U.Normatov urg'u berayotgan absurd kabi tushunchalar azaldan bormidi yoki endi paydo bo'ldimi... Ikkinchisi, g'ayriilmiy talqinlar kitobxonni, ayniqsa, adabiyotshunoslikdan ta'lim olayotgan talabalar, tadqiqot olib borayotgan magistrant hamda aspirantlar ongida chalkash tasavvur qoldirmaslik tashvishi».

B.Sarimsoqov «absurd» tushunchasining ma'nosidan («ma'nisizlik») kelib chiqib, U.Normatovning A.Qahhor «xalq hayotidagi ayni shu ma'nisiz — absurd hayotni kashf etib» bergani haqidagi fikrni rad etadi: «Biz o'tmishimizni absurd deya olmaymiz. Ayni shu og'ir hayot bag'rida ajdodlarimiz yashadi, yorug' kelajak uchun intildi, kurashdi, demak, yaxshimi-yomonmi o'tmishimizda ma'no bor».

B.Sarimsoqov absurd tushunchasi Qahhor ijodiga mutlaqo yot ekanini to'g'ri ta'kidlagan holda, maqolasida «absurdnavislik», «ma'nisiz adabiyot», «subutsiz ekzistensializm» kabi iboralarni ishlatadi. Bir o'rinda olim shunday yozadi: «A.Qahhorni sotsializmdan ayirib olish uchun uni bir botqoqdan olib, ikkinchisiga tashlash shartmi?!». Olimning mulohazalari uning absurd adabiyoti, ekzistensializmga munosabatini aniq ifoda etadi. Albatta, bu qarashda yot, dushman mafkuraga qarashga o'xshash munosabat mavjud. B.Sarimsoqov ana shu munosabat asosida absurd falsafasi, absurd adabiyotini sotsrealizm kabi botqoqqa qiyoslaydi. Bu qiyos absurd adabiyotning tub mohiyati haqidagi tahliliy baho yoki ta'rif emas. Albatta, maqolada aks etganidek, bunday «oldindan tayyor pozitsiyadan» turib absurd adabiyotiga xolis yondashish, uning mohiyatini obyektiv tahlil qilish qiyin. Zero, avval-boshdanoq maqola «Absurd ma'nisizlikdir», deya nomlangan, ya'ni bu «ma'nisizlik ma'nisizlikdir» deganidir. Olim absurd adabiyotini, boshqacha aytganda, insonning hayotda mavjudligining, yashashning ma'nisizligi haqidagi adabiyotni ma'nisizlik adabiyoti tarzida talqin etadi.

Absurd adabiyotini tushunish va talqin etish masalasida bo'lib o'tgan bahs, har ikkala olimning chiqishlarida ham muayyan xulosa, o'ziga xos qarashlar teran ifodasini topgan. Ayni paytda, bu ikki munaqqid egallagan ikki xil pozitsiya modernizm adabiyoti tahlili va talqiniga o'zbek tanqidchiligidagi ikki xil yondashuvni o'zida aks ettiradi. Bu yondashuvlarning birida modernizmga, xususan, absurd adabiyotiga behad havas va hayrat aks etsa, ikkinchi yondashuvda, umuman, absurd adabiyotini ekzistensializm falsafasi bilan birga qo'shib rad etishga moyillik aniq seziladi. Aslini olganda, bu — tanqididagi qizg'in, jonli jarayon.

O'zining kamchiliklari va ayrim natijalari bilan bu jarayon o'zbek tanqidchiligidagi yangi metodologik tamoyillarning shakllanishiga muayyan ta'sir ko'rsatayotir. Muhimi, o'zbek tanqidchiligi jahon adabiy hodisalarini baholay olish darajasiga ko'tarilib borayotir, ularni tahlil etayotir, muayyan xulosalar chiqarayotir va pirovard natijada, o'zining tahlil va talqin prinsiplarini aniqlab borayotir.

Tanqidda xolislik va vazminlik bilan, ilmiy tahlilga asoslangan, aynan modernizm adabiyoti, xususan, absurd adabiyoti tadqiqiga doir ba'zi jiddiy umumlashma ishlar yuzaga kelayotir. Adabiyotshunos U.Jo'raqulovning badiiyat va nazariya masalalariga bag'ishlangan «Hududsiz jilva» tadqiqoti shular jumlasidandir.

Absurd falsafasi va adabiyotini muallif «inson dunyosiga xos hududsiz jilvaning bir shu'lası»¹, deya g'oyat chiroyli tarzda obrazli ta'riflaydi. Jilvaning shu'lası va uning hududsizligi inson dunyosiga ne qadar xosligini U.Jo'raqulov qisqa, ammo teran mantiqqa asoslangan mulohazalarda ochib beradi.

Risolada biz absurd nimaning oqibati ekani, uni paydo qiladigan omillar, absurdning mohiyati, bardavomligi, boshqacha aytganda, inson botinidagi «umri», Yevropa falsafiy-badiiy tafakkurida badiiy hodisaga aylangan absurd adabiyoti asosida yotgan prinsiplar absurd asarlarning qaysi xususiyatlarida namoyon bo'lishi, umuman, mazkur tushuncha bilan bog'liq umumiy ma'lumotlarning aniq, ilmiy teran talqinini kuzatamiz.

Absurd adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari haqida yozar ekan, munaqqid bu adabiyotning mashhur namoyandalari A.Kamyu, S.Bekket asarlari tahlilidan kelib chiqib fikr yuritadi va ularning eng muhim o'ziga xos xususiyatlarini umumlashtirib aniq ko'rsatadi. Demak, absurd insoniyat hayoti, taraqqiyot uchun xos falsafa bo'la olmaganidek, universal ijtimoiy hodisaga ham aylana olmaydi.

Darhaqiqat, «modernizm», «postmodernizm», «absurd», «ekzistensializm» kabi tushunchalar haqida jahon adabiyotshunosligi miqyosida fikr yuritish, o'z qarashlarini, ilmiy xulosalarini g'arblik yetuk mutaxassislar erishgan natija-andazalar bilan asoslash, zarur o'rinda, ular bilan hatto bahslash bilish va shu asnodan o'zbek adabiyotida bo'y ko'rsatayotgan yangi uslublar haqida fikr yuritish adabiy tanqid metodologiyasining muhim xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda.²

Yozuvchi P. Qodirov modernizm mavzuiga bag'ishlangan chiqishlarga o'z munosabatini bildirib, «Ma'naviyat, modernizm va

¹ Jo'raqul U. Hududsiz jilva. — T.: Fan, 2006. 8-bet.

² Bir vaqtlar darslik maqsadida yozilgan ishda bahsli o'rinlar bo'lmastligi kerak, unda faqat qabul qilingan, tan olingan, tasdig'ini topib bo'lgan qarashlarga ilgari surilishi mumkin deb qaralguvchi edi. Hozir ham shu nuqtayi nazarda turuvchi mutaxassislar yo'q emas. Ushbu darslik mualliflari birmuncha boshqacharoq nuqtayi nazarda turadilar.

Ularning fikricha, darslikda ham bahsli, munozarali fikrlar aytilishi mumkin. Hatto bir darslik doirasida plyuralistik qarashlar ham bo'lishi mumkin deb tushunadilar. Bunday holat talabalarda mustaqil mushohada malakasini uyg'otishga turtki beradi. Bu masala xususidagi qarashlarning qaysi biri to'g'ri ekanini aniqlash uchun muayyan ijodiy jarayon o'rganishga da'vat etadi deb hisoblaydilar. Darslikda qator bahsli muammolar o'rtaga tashlanib, ularga turlicha munosabatlar bildirilib, ba'zilar hatto ochiq qoldirilishi, ba'zan bir masala haqida ikki xil fikr aytilishi sababi ana shu nuqtayi nazar bilan izohlanadi (Mualliflar).

absurd» (O'zAS, 2004, 26.04.) sarlavhali maqolasida bugungi adabiy jarayondagi ijodiy izlanishlar, xususan, modernistik yo'nalishda yozilgan asarlarga tanqidchilikning yondashuvi, ijodiy ta'sir, absurd asarlar va uning adabiyotdagi ko'rinishlari qanday samara berayotgani kabi masalalarni ma'naviyat bilan bog'lab talqin etishga harakat qilgan.

P.Qodirov Joys asarlarini tushkunlik va nigilizmda ayblar ekan, unga, umuman modernizm va absurdga postmodernizmni qarshi qo'yadi va U. Hamdamovning «Muvozanat», X. Do'stmuhammadning «Bozor» romanlarini inson ma'naviyatini ulug'lovchi asarlar sifatida baholaydi: «...tushkunlikka tushgan va nigilizmga berilgan an'anaviy modernizmning o'rniga kelayotgan va jahon bo'ylab tan olinayotgan bag'rikeng, ma'naviyati bor postmodernizmga nisbatan xayrixoh bo'lishimiz kerak, deb o'ylayman». «Bozor» romanini misol keltiradi, lekin, afsuski, maqola muallifi «bag'rikeng, ma'naviyati bor postmodernizm» haqida mulohazalari yetarli darajada rivojlantirilmadi, chuqurlashtirilmadi. Agar P.Qodirov X.Do'stmuhammad romanini postmodern adabiyotining namunasi deb qarayotgan bo'lsa, u holda mazkur asar qaysi jihatlariga ko'ra postmodern oqimiga mansubligini ochganda o'rinli bo'lur edi.

P.Qodirovning absurd borasidagi qarashlari harn juda ko'p savollarni tug'diradi. Shu bois bu bahs tanqidchilik e'tiboridan chetda qolmadi. Professor Q. Yo'ldoshevning «O'zbek modern adabiyoti: ildizlar, prinsiplar va xususiyatlar»¹ maqolasida o'zbek modern adabiyotining yetakchi xususiyatlari qamrab olingan.

Maqolada modern adabiyotining paydo bo'lish omillarini, eng avvalo, dunyoqarash bilan, tafakkur va ruhdagi yangilanish bilan bog'liq holda tadqiq etiladi. Muallif fikricha, modern adabiyot inson didi va qarashlarining o'zgarishi bo'lgan falsafiy-estetik hodisa sifatida yuzaga keladi.

Q.Yo'ldoshev P.Qodirov fikrlarini yangi falsafiy-estetik qarashlarning eskicha qoliplar asosida baholashga urinilishi, deb ta'rifladi. J.Joysning «Uliss» romani bilan yosh yozuvchi T.Rustamovning «Kapalaklar o'yini» romanini qiyosiy tahlil qilib, yosh adibning Joys ta'sirida antigumanizmga ergashgani haqidagi P.Qodirov qarashlariga tanqidiy munosabatini ochiq-oydin bayon etdi.

¹ Yo'ldoshev Q. O'zbek modern adabiyoti: ildizlar, prinsiplar va xususiyatlar // Filologiya masalalari. — T.: 2004. — № 2–3.

Maqolada Q.Yo‘ldoshev absurd¹ adabiyotga ham alohida to‘xtalib, uning xarakterli xususiyatlarini tavsiflab, jumladan, qismatni tan oladigan musulmon ahlida absurd holat, tuyg‘u bo‘lmasligini aytadi. Ayni paytda, Q.Yo‘ldoshev maqolasida ham bahstlab o‘rinlar, mantiqan zid fikrlar kuzatiladi. Bunday holni biz munaqqidning adabiyotning ommaviy bo‘lmazligi sababi uning xos odamlarga mo‘ljallab yozilishi bilan izohlanishida, modern va absurd adabiyotiga berilgan ta‘rif va sharhlarida ko‘ramiz. Bunday qarash ham e‘tiroz tug‘dirishi tabiiy. Chunki bunday nuqtayi nazar adabiyotni ikkiga – alohida shaxslar adabiyoti va ommaga mo‘ljallangan adabiyotga ajratishga olib keladi.

Bu esa, badiiylik talablariga zid, chunki badiiy asar qanday yo‘sinda yozilmasin, qaysi oqimga mansub bo‘lmasin, baribir badiiylikning umumiy qonuniyatlaridan tashqarida yaratilmaydi. Alohida shaxslar uchun alohida asarlar yozish va uning alohida badiiylik mezonlarini yaratish – badiiy adabiyot mohiyatiga ziddir. Ikkinchidan, munaqqid bu o‘rinda ijod psixologiyasi, badiiy asarning yaratilish jarayoni haqida biryozlama tasavvur berayotir.

Badiiyat psixologiyasidan ma‘lumki, ijodkor asarini faqat muayyan saviyadagi kitobxonni nazarda tutib, faqat unga mo‘ljallab yaratmaydi. To‘g‘ri, deylik, Alisher Navoiy o‘z g‘azallarini yuksak didli va hatto, zurafo she‘rxonlarni mo‘ljallab yozgan bo‘lishi mumkin. Lekin bu Navoiy g‘azallari keng kitobxonlar ommasiga ham mo‘ljallanganini inkor etmaydi.

Yoki, Bulgakovning «Usta va Margarita»si saviyasini jo‘n kitobxon chuqur idrok etolmasligi mumkin, lekin bu asarning faqat yuqori saviyali kitobxonga yozilgan degani emas. Roman uslubiga adibning sho‘roning istibdod zug‘umiga qarshi g‘oyalarni yashirib ifodalashni belgilagan.

Badiiy asar – ilhom va ijod mahsuli. Agar u alohida shaxsga yoki toifaga mo‘ljallanar ekan, ijodiy jarayonga faqat aql boshqaruvi ustunlik qilgan bo‘ladi, bunday asar esa chinakam badiiyat namunasiga aylana olmay qoladi. Chinakam badiiy asar o‘z kitobxonini o‘zi topadi. U bitta kitobxonga ega bo‘ladimi, o‘nta, yuzta, millionlab kitobxonni

¹ *Qozoqboy Yo‘ldoshev* (1949) pedagogika fanlari doktori, professor. Hozirgi tanqidchilikning o‘ta faol namoyandasi. «Yoniq so‘z» to‘plami, 100 yaqin maqola muallifi. Modernizm, postmodernizm adabiyoti, namoyandalari ijodi yo‘nalishlarini yaxshi biladi.

o'ziga julb etadimi, bu asarni yaratgan yozuvchining ixtiyorida emas. Zero, yaratilgan asar o'z umrini o'zi yashaydi.

Modomiki, masalaga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, bugungi modern adabiyotning yutuq va kamchiliklari yaqqol namoyon bo'lib qoladi.

Q.Yo'ldoshev modernizm va absurd munosabatlari haqida to'xtalib, shunday yozadi: «Shuni ta'kidlab aytish kerakki, absurdni modernizmga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Modernizm og'och bo'lsa, absurd — uning mevasi.

Mevani daraxtga qarshi qo'yish kerak emas»¹. Lekin, qizig'i shundaki, munaqqid ayni shu maqolasida o'zbek modern adabiyoti bor, o'zbek absurd adabiyoti esa yo'q, degan fikrni aytadi. «Modernizmning o'zbekona ko'rinishi bo'lishi mumkin. Lekin absurdning o'zbekchasi bo'lmaydi». O'zi aytganidek, modern — daraxt, absurd uning mevasi bo'lsa-yu, qanday qilib o'zbek adabiyotida ulardan bittasi bor-u, ikkinchisi yo'q, deyish mumkin? Maqoladagi bu kabi ayrim fikrlar asoslanmay aytilgani bois, izohtalab bo'lib qolgan.

Modernizm san'ati va adabiyotiga psixoanalizning ta'siri va ayni paytda, psixoanalitiklarning nafaqat modernistik asarlar, balki, umuman, badiiy asarlarni o'z tadqiqotlarida muayyan ilmiy xulosalarini dalillash uchun aniq argumentlar sifatida keltirganlari ushbu sohalarning o'zaro bog'liqligidan va biri ikkinchisiga uzviy aloqadorligidan dalolat beradi.

Bu jihatlariga U. Jo'raqulovning «Mif va ijodiy jarayon», «Psixoanaliz va badiiy ijod»² maqolalarida e'tibor berilgan.

Ta'kidlash joizki, psixoanaliz va badiiy ijod jarayonining bog'liqligi masalalari adabiy tanqidchilikda nisbatan yangi yo'nalish hisoblanadi. U.Jo'raqulov mif va ijod sintezi masalasiga oydinlik kiritishni mifologiyaning markaziy nuqtasi — xaos va kosmos tushunchalarining talqinidan boshlaydi.

Mazkur tushunchalarga aniq, lo'nda ta'rif bergach, muallif «ijodiy jarayon»ning mohiyatiga to'xtaladi. «Xaos va kosmos» tushunchalari sharhi orqali modernizm oqimiga xos xususiyatlar haqida fikr yuritarkan, muallif shunday yozadi: «Yuqorida modernizm adabiyotini so'z bo'roniga mutlaq erk berishga urinuvchi oqim, deya ta'rifladik.

¹ Yo'ldoshev Q. O'zbek modern adabiyoti: ildizlar, prinsiplar va xususiyatlar // Filologiya masalalari. — T.: 2004. — № 2—3. 8-bet.

² Qarang: Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. — T.: Fan, 2006.

Endi ushbu ta'rifni yanada rivojlantirib, modernizm xaotik so'z olamini aynan aks ettirishga jahd qilgan oqim, deyishdan qo'rqmaymiz»¹. Bizningcha, modernizm, so'z olamini aynan aks ettirish emas, balki aksincha, so'z vositasida xaokosmik olam yaratish jarayonidir. Bu o'rinda xaotik tushunchasini so'zga nisbatan ishlatish to'g'ri emas, nazarimizda.

«Ayrimlar o'zlaricha Olamni hali Apokalipsislar oxiriga yetmagan, Kosmos sifatiga kirib ulgurmagan, ya'ni hali qandaydir o'zgacha tartiblar bo'yicha mavjud bo'lib turgan makon deb, boshqalar esa hech qanday qoidalar amal qilmaydigan Xaos ko'rinishida tasavvur etishga moyil».

Modernizmning, gohida, o'zining Jannat haqidagi tasavvurini berishga uringanida, «kosmik» bo'lib ko'rinishini, gohida o'zi yaratgan Utopiyasi barbod bo'la boshlaganda esa «xaotik» bo'lishini ta'kidlar-kan, «Posmodernistik dunyoqarash bir paytning o'zida ham «kosmik», ham «xaotik». Jeyms Joys bu borada hatto «xaokosmos» degan g'alati so'z o'ylab topgan. Bu so'z olam qurilishini qandaydir absurd sifatida ifodalaydi»², deydi D.V.Zatonskiy.

U.Jo'raqulov «Psixoanaliz va badiiy ijod» maqolasida psixoanaliz asoschisi Z.Freydning o'zigacha bo'lgan psixologiyaga doir ilmiy qarashlarni rivojlantirgani, ongosti psixologiyasini kashf etganini ta'kidlab, psixoanalizning mohiyati, unga doir maxsus istilohlar mazmuni haqida batafsil to'xtaladi.

Psixoanaliz san'at, adabiyot va estetika bilan uzviy aloqadagi ilmiy yo'nalish sifatida XX asrda o'zining to'la shakllanish bosqichiga erishdi. U.Jo'raqulov to'g'ri ta'kidlaganidek, «psixoanaliz adabiyotshunoslikning bir tadqiq usuli o'laroq, uning tarkibiy qismiga aylanadi». Buning o'zbek adabiyotshunosligidagi tasdig'i yuqorida tilga olingan maqolalardir.

Ularda garchi mazkur tadqiqot usulining paydo bo'lishiga turtki bergan nazariy manbalar, ularning mohiyati, samaralari haqida umumiy tarzdagina ma'lumot berilsa-da, bu usulda o'zbek adabiyoti namunalari tadqiq etilmagan bo'lsa-da, ular bu yo'nalishdagi nazariy qarashlarning o'zbek adabiyotshunosligiga olib kirilishi sifatida e'tiborga loyiqdir.

¹ Jo'raqulov U. O'sha manba. 31-bet.

² Затонский Д.В. Модернизм и постмодернизм. — М.: Фолио-Аст, 2000. — С. 253.

Shoir B.Ro'zimuhammadning keyingi yillarda bu borada qator maqolalar e'lon qilgani uning adabiy jarayonda faolligini ko'rsatadi. «Dekadentlikning ildizi qayerda», «Nazariyaga befarq qaramayap-mizmi?», «Makon muammosi» kabi maqolalari modernizm mohiyatini chuqur tushunib, ma'lum xulosalar chiqara bilishi bilan muhimdir.

Yuqoridagi kuzatishlarni umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkin: bugungi kun tanqidchiligi modern adabiyotga munosabatda o'zining yangicha tahlil va tamoyillarini shakllantirib bormoqda. E'tiborli jihati shundaki, mazkur jarayon silliq kechayotgani yo'q: mutlaqo bir-biriga qarama-qarshi fikrlar, bahs-munozaralar, izlanishlar natijasi hozirgi tanqidchilikning metodologik asoslari takomillashib borayotganligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Zero, modernizm adabiyoti – murakkab san'at.

U oddiy kitobxonga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Chunonchi, «modernizm» atamasining mazmunidan tortib uning ildizlari, tadriji, bu san'atning realistik adabiyotdan farqli jihatlari, falsafiy asoslari, yuksak namunalari va boshqa ko'plab xususiyatlarini bilmay turib, modern asardan bahra olib bo'lmaydi.

Shu bois ham, adabiy tanqid adabiy jarayondagi yangilanishlarni tahlil qilar ekan, yangicha yo'nalishda yaratilayotgan badiiy adabiyot namunalari adabiy hayotga o'zining yangicha konsepsiya va estetik prinsiplarini olib kirayotganligini asoslashga harakat qilmoqda.

Mazkur jarayonni kuzatganda uning jahon va rus adabiyot-shunosligidagi izlanish va yo'nalishlar bilan mushtarak jihatlari borligini kuzatish mumkin. Bu hol g'oyat tabiiy ekanini ta'kidlash zarur.

Mustaqillik yillarida badiiy asarni yangicha tamoyillar asosida baholash, talqin va tahlil etish tamoyili kuchaydi. H.Boltaboyevning «Nasr va uslub» (1992), Y.Solijonovning «Nutq va uslub» (2002), Sh.Subhonning «She'riyat iqlimi» (2005), «Haqiqatning sinchkov ko'zlari» (2009), U.Hamdamning «Yangilanish ehtiyoji» (2006), tadqiqotlarida buni yorqin ko'rish mumkin. Zero, o'zbek adabiy tanqidi sho'ro davri mafkurasi tazyiqlaridan qutulib endi-endi jahonga yuz tutmoqda.

Tayanch so'zlar: tamoyil, qayta baholash, yangicha ilmiy-estetik tafakkur, sistemali yondashuv, tahlil va talqin, germenevtika, sinergetika, strukturalizm, tarixiy-biografik yondashuv, tarixiy-madaniy yondashuv, modernizm, absurd, eksiztensializm.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Istiqlol davri adabiy tanqidchiligining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.
2. Istiqlol davri tanqidchiligi Cho'lpon, Fitrat ijodiga qanday munosabatda bo'ldi?
3. Bu davr tanqidi modernizm masalasiga qanday qaradi?
4. Istiqlol davrida qodiriyshunoslik sohasida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
5. Adabiy tanqid tarixiy asarlarga qanday munosabatda bo'ldi?
6. Bu davrning yetakchi munaqqidlari haqida gapiring.
7. Sho'ro davri adabiy merosiga munosabat qanday kechdi?

OZOD SHARAFIDDINOV

(1929–2005)

REJA:

1. Ozod Sharafiddinov adabiy-tanqidiy faoliyati va uning o'rganilishi haqida.
2. She'riyatning zukko tanqidchisi.
3. Adabiy portret janri rivojida munaqqidning o'rni.
4. Cho'lpon ijodining tadqiqotchisi va jonkuyar targ'ibotchisi.
5. Mohir qahhorshunos olim.



Ozod Sharafiddinov hayoti va ijodining o'rganilishi haqida. XX asr o'rtalaridan o'zbek tanqidchiligiga M.Qo'shjonov, S.Mamajonov, L.Qayumov, N.Shukurov, N.Karimov, U.Normatovlar avlodi kirib keldi. Ozod Sharafiddinov dastlabki taqriz, maqolalari bilan o'z safining peshqadamlaridan biri ekanini ko'rsatdi. Bu yangi avlod vakillari I.Sulton, H.Yoqubov kabi tajribali avlod namoyandalari bilan yelkama-yelka turib, davr adabiy-tanqidiy muammolarini yechish jarayonida ulg'ayib bordi.

Munaqqidning adabiy-tanqidiy qarashlari, o'zbek tanqidchiligida tutgan o'rni atroflicha yoritilgan dastlabki ishlardan biri A.Rasulovning «Ozod Sharafiddinov» nomli (1980) adabiy portreti bo'ldi. 2000-yilda u ustoz haqida «Iste'dod va e'tiqod» nomli yangi adabiy portretini e'lon qildi. Unda jonkuyar tanqidchi, hassos she'rshunos ijodiy qiyofasi umumlashtirib berilgan. Bundan tashqari O.Sharafiddinov haqida P.Qodirov, U.Normatov, O.Tog'ayev, B.Nazarov, I.G'afurov, M.Sharafiddinova, T.Yo'ldoshev kabi tanqidchilarning mazmundor maqolalarini eslatib o'tish o'rinli.

O.Sharafiddinov 1929-yili Qo'qon yaqinidagi Oxunqaynarda xizmatchi oilasida tug'ildi. Bolaligidan Toshkentda yashadi. Ziyrak va qobiliyatli Ozod 14-o'rta maktabni oltin medal bilan tugatdi. O'rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetida o'qidi (1946–

1951). M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti instituti aspiranturasida tahsil oldi (1954). O'zbek poemalari ustida qunt bilan ijodiy ish olib borib, «Hozirgi o'zbek sovet poemalari» degan mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini (1955) himoya qildi. XX asrning 90-yillarigacha o'zi tahsil olgan-Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU) filologiya fakultetining o'zbek adabiyoti kafedrasida ishladi. So'ng «Sharq» matbaa konserni hamda «Tafakkur» jurnalining tashkilotchi va yetakchilaridan biri sifatida faoliyat ko'rsatdi. So'ngra 1997-yilda tashkil etilgan «Jahon adabiyoti» jurnalining bosh muharriri lavozimiga tayinlandi.

1970-yili «Istoriya uzbekskoy sovetskoy literaturi» nomli yirik asar uchun bir guruh adabiyotshunos olimlar qatori O. Sharafiddinov ham Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Mustaqillik yillarida olimning serqirra va qizg'in faoliyati munosib taqdirlandi. Hukumatimizning qator orden va medallariga loyiq topildi. 2002-yilda esa O'zbekiston Qahramoni yuksak unvoniga sazovor bo'ldi.

O.Sharafiddinovni adabiy jamoatchilikka tanitgan jiddiy va salmoqli ishi «Lirika haqida mulohazalar» maqolasidir. Maqola lirika haqida 50-yillarning ikkinchi yarmidagi munozarada yalt etib ko'zga tashlandi. 50-yillarning boshlarida avj olgan «konfliktsizlik nazariyasi» keltirgan oqibatlarni lirik she'rlar misolida ishonarli va ta'sirli tahlil etgan O.Sharafiddinov timsolida yangi tipdagi o'zbek tanqidchisi shakllanib kelayotgani ko'rindi.

Tanqidchilikdagi ayrim biryoqlamaliklar tufayli M.Shayxzoda va Mirtemirdek ulkan shoirlar ijodi chuqur, haqqoniy bahosini olmay kelayotgan edi. Munaqqid navbatdagi ishlarini shu ikki ulkan shoir ijodiga bag'ishladi. M.Shayxzoda va Mirtemirning O.Sharafiddinov tomonidan yaratilgan adabiy portretlari bu janrning o'zbek tanqidchiligidagi go'zal namunalari qatorida turadi.

Tanqidchi ijodi 60–70-yillarda sermahsul bo'ldi. U davr adabiyoti va tanqididagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilib, umumlashtirib, ilmiy-biografik monografiyalari, adabiy portretlari, muammoli maqolalari bilan adabiy tanqid ko'lamini kengaytirdi. Tarixiylik va zamonaviylik muammolari ustida jiddiy va rang-barang izlanishlar olib bordi.

Davr zug'umiga qaramay, A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat ijodi haqida o'qtin-o'qtin ijobiy fikrlar aytishga urindi. A.Qahhorga nohaq munosabatlar yana bosh ko'targanda jasorat bilan uni himoya qilishga kirishdi, merosga biryoqlama qarashlarga qarshi kurash olib bordi.

O. Sharafiddinov tanqidchilikka poeziya «yo‘lakcha»sidan kirib keldi, adabiy jarayonda yetuk munaqqid, mohir portretnavis, adabiy tanqid muammolarini izchil yoritib beruvchi olim hamda mohir tarjimon sifatida tanildi.

Ozod Sharafiddinovning adabiy tanqid rivojiga qo‘shgan eng muhim hissasi-poeziyadagi badiiylik va zamonaviylik masalalarini dadil ko‘tarib chiqishida, bu muammolarni yangicha ilmiy-nazariy fikrlar va qarashlar bilan boyitishda namoyon bo‘ldi.

U san’atkor har qancha ijodiy muammolarni ko‘tarmasin va yoritmasin, asar chinakam badiiylikdan mahrum bo‘lsa, u ta’sir kuchiga ega bo‘lolmaydi degan qarashda muqim turdi.

She‘riyatning zukko tanqidchisi. Shaxsga sig‘inish iskanjasidan ozod bo‘la boshlagan o‘zbek she‘riyati, nasri va dramaturgiyasida 50-yillar oxiri va 60-yillar avvalida jiddiy siljishlar, o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Tanqid ham ana shu jarayonni tahlil qilishga o‘tdi. Ijodkorlar oldiga yangi-yangi talablar qo‘ydi. Ayniqsa, she‘riyatda hayotga qizg‘in munosabat bildirilib, zamonaviy ruh chuqurlasha bordi.

O‘zbek nazmida yuz berayotgan bunday ijodiy o‘zgarishlar Ozod Sharafiddinovning «Zamon. Qalb. Poeziya» (1962) deb nomlangan ilmiy kashfiyotlarga boy, o‘zbek she‘riyatining kechagi kuni va bugunidagi yutuq, kamchiliklar umumlashtirilgan salmoqli kitobida o‘z ifodasini topdi¹.

Kitobdagi maqolalarida hatto G‘afur G‘ulomdek avtoritetlarni asoslab tanqid qilishga, H.G‘ulom, A.Muxtor, Mirmuhsin ijodida Lenin, partiyani madh etish masalalarida nuqsonlarga yo‘l qo‘yilayotganini aytishga jur‘at qildi. Bu — davr tanqidchiligi uchun katta gap, muhim hodisa edi.

Shu ma’noda bu tadqiqot faqat muallif ijodidagina emas, shu davr o‘zbek tanqidchiligining ham prinsipial yutuqlaridan biri bo‘lib

¹ Ayrim bir maqola, tadqiqot, yoxud monografiya xususida darslikning ham obzor xarakterdagi qismida ham munaqqid adabiy portretiga doir qismlarda mulohaza yuritilishi takror yoki qaytariq belgisi emas. Darslik mualliflari tomonidan atayin shunday yo‘l tanlangani sababi: 1) tahlilga tortilayotgan ishning adabiy-tanqidiy jarayondagi o‘rnini belgilash; 2) uning munaqqid ijodiy faoliyatidagi ahamiyatini ko‘rsatish; 3) muallif va talabalar tomonidan bu ishlarning o‘zlashtirilishida mustaqil mushohadalarni uyg‘otish hamda ularni qayta qayta nazardan o‘tkazish orqali tasavvur va tafakkurdagi o‘rnini mustahkamlash nazarda tutiladi (mualliflar).

goldi. Tanqidchi davr o'zbek she'riyatining **xarakterli tamoyillarini** teran ko'rsatdi, ularni aniq asarlar tahlili misolida **labot qildi**.

Zamonaviylik faqat mavzu yoki muammogina emas, **ana shularni** yorituvchi badiiylikdadir, shu ma'noda zamonaviylik **asosi badiiylikda** yotadi, degan qarash O.Sharafiddinovninggina emas, **umuman, o'zbek** tanqidchiligining jiddiy yutuqlaridan biri edi.

Kitobdagi maqolalarda, shuningdek, poeziyamizdagi **lirik qah-**ramon ma'naviy olami teranlashib borayotgani davrning **muhim** muammolarini kuchli emosional shaklda aks ettirish chuqurlashayotganligi, bayonchilikka nisbatan lirizmning chuqurlashib borayotgani ko'rsatildi.

Olimning navbatdagi «Adabiy etudlar» (1968) nomli kitobidan joy olgan maqolalarda A.Qahhor, Zulfiya, M.Boboyev, P.Qodirov asarlari tahlil qilindi. «Qalbimizga yaqin shoira» maqolasida Zulfiyaning go'zal va nafis ijodiy portreti yaratildi. «Shoirning yo'li» maqolasida M.Boboyev ijodi haqida bahs yuritilgan. Bu kamtar va zahmatkash qalam sohibi haqida, umuman, o'zbek tanqidchiligida shu vaqtgacha yaratilgan e'tiborli ishlardan biri bo'lib kelmoqda.

O.Sharafiddinov ijodida nafaqat she'riyat, balki nasr va adabiy tanqid muammolariga ham e'tibor qaratadiki, buni uning «Go'zallik izlab» kitobida ko'rish mumkin. Munaqqid maqolalari zavq-shavq bilan o'qiladi, doim tanqidchining «men»i va uslubi ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Nasr va adabiy tanqid muammolari birdek o'rganilishi ham mazkur kitobda yorqin namoyon bo'lgan. Unda, ayniqsa, 70-yillarda adabiyotga kirib kelgan Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Muhammad Rahmon, Xurshid Davron kabi qator yosh shoirlar ijodining atroficha tahlil etilishi jihatidan ham qimmatlidir. Usmon Azim avlodlariga mansub qator ijodkorlar xususidagi qarashlar adabiy hayotda o'z isbotini topdi.

O.Sharafiddinov adabiy tanqid va uning muammolari haqida astoydil qayg'urgan olimlardan biridir. Xususan, uning «Talent xalq mulki» (1979) deb nomlangan kitobida munaqqidning yoshlar ijodi haqidagi bir qator adabiy-tanqidiy maqolalari, she'riyat rivojiga bag'ishlangan tadqiqotlari o'rin olgan. «Tanqidchilik kasbi haqida» maqolasida munaqqid uchun zarur bo'lgan uch xislatga alohida e'tibor beradi.

«Bularning birinchisi — adabiyotdagi go'zallikni, g'oyaviy va badiiy boylikni his qila bilishdir. Boshqacha qilib aytganda, tanqidchi bo'lishni istagan odamda, birinchi navbatda, estetik tuyg'u benihoya o'tkir

bo'lishi lozim, u san'at go'zalligini nozik his qila bilishi, badiiy adabiyotdan chinakamiga zavqlana olishi shart»¹.

Ikkinchi fazilat sifatida olim fikrlash qobiliyati va undagi uzviylikni ko'rsatadi. Tanqidchi o'qigan narsalarini chuqur idrok etishi va tahlil qila bilishi, asardagi voqea va hodisalarni, xarakterlarni hayot hodisalari, hayotdagi jonli odamlar bilan taqqoslay bilishi, bu taqqoslardan ham adabiyot, ham jamiyat uchun zarur, foydali xulosalar, umumlashmalar chiqara olishi kerak.

Tanqidchilik talantining uchinchi zarur fazilati so'z san'atiga ehtirosli, otashin muhabbatdir, deydi u. Uning fikricha, adabiyotni butun vujudi bilan sevgan, unga sidqidildan fidoiy kishigina haqiqiy tanqidchi hisoblanadi. O.Sharafiddinov o'zi qo'yg'an ana shu talablarga butun umri davomida amal qilishga intildi.

Ozod Sharafiddinov maqola va taqrizlari, o'zining, ayniqsa, talabchanligi, prinsipiialligi bilan ajralib turadi. Uning I.Rahim qalamiga mansub Sobir Rahimov haqidagi roman, O'.Umarbekovning «Damir Usmonovning ikki bahori» qissasi to'g'risidagi, shuningdek, B.Boyqobilovning «O'zbeknoma» asariga bag'ishlangan «Mag'zi puch so'zlardan bir tosh nari qoch» nomli taqrizlari badiiylik masalasida mualliflar yo'l qo'yg'an kamchiliklar ayamay, keskin fosh etildi. Bu taqrizlar adabiy jarayonga, yozuvchilar va tanqidchilarga faol ta'sir ko'rsatish kuchi bilan XX asr so'nggi choragidagi o'zbek tanqidida prinsipial ahamiyatga ega bo'ldi.

Adabiy portret janri rivojida munaqqidning o'rni. Tanqidchi ko'p yillik ijodi mobaynida G'.G'ulom, Oybek, K.Yashin, S.Ayniy, A.Qahhor, A. Muxtor, O.Yoqubov, O'.Hoshimov, A.Oripovlarning ijodiy portretlarini yaratdi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar «Iste'dod jilolari» (1976) kitobida o'z ifodasini topdi.

O.Sharafiddinov o'z fikriga qat'iy ishonuvchi munaqqid hisoblanadi. Shu bois kezi kelganda, u katta shuhrat egasi bo'lgan ijodkorlarning u yoki bu asari, fikriga o'zining tanqidiy munosabatini bildirishdan cho'chimaydi. Masalan, G'.G'ulomning «Egalari egallaganda» dostoni badiiy jihatdan bo'sh ekanini dadil aytadi. Yoki S.Ayniyning dastlabki ijod namunalari tahlil qilarkan, uning nazmdagi kamchiliklarini ro'yi-rost ko'rsatib, ularning omillarini aniqlaydi.

Shu bilan birga O.Sharafiddinovning S.Ayniy haqidagi adabiy portretida ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. To'g'ri, maqo-

¹ Sharafiddinov O. Talant xalq mulki. — T.: Yosh gvardiya. 1979, 174-bet.

laning «Ulkan hayotning ilk sahifalari» deb nomlanishidayoq ko‘rinib turganidek, S.Ayniy ijodining dastlabki namunalarini tahlil etishga bag‘ishlangan. Adibning keyingi bosqich ijodini o‘rganish maqsad qilib qo‘yilmagan. Bunday maqsadni ko‘zlasa, munaqqid boshqacha yoki boshqa maqola yozgan bo‘lar edi, albatta. Lekin shunga qaramay, maqola adabiy portret xususiyatini kasb etishi uchun, u muxtasar ravishda bo‘lsa ham, siqiq obzor xarakterida bo‘lsa ham, adibning yaxlit ijodiyoti haqida tasavvur bergani nazarimizda o‘rinli bo‘lar edi. Hozirgi holatda ham, o‘quvchida adabiy portret nihoyasiga yetkazilmagandek taassurot qoldiradi. Oybek haqidagi adabiy portretda esa uning poetik mahorati va adabiy-tanqidiy mahorati tahlil qilingani holda adibning nasriy mahorati birmuncha e‘tibordan chetda qoladi. Holbuki, adabiy portret janri ijodkor ma‘naviy, ijodiy, ruhiy qiyofasini birbutunlikda yaratishni talab qiladi. Buni munaqqid bilmaydi emas, lekin maqolada bu muammolarning u yoki bu qirrasini yoritish bilangina cheklanadi.

O.Sharafiddinov tanqidchilikning tarixiy-biografik yo‘nalishi rivojiga ham munosib ulush qo‘shdi. Bu xislat, uning, ayniqsa, «Yalovbardorlar» kitobiga kirgan maqolalarida bo‘rtib ko‘rinadi. Kitobdagi mashhur yozuvchilar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan maqolalarda ba‘zan davrining siyosiy va mafkuraviy ruhi sezilib tursa-da, adiblarning umumjahon madaniy-adabiy taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini yoritilishi jihatidan qimmatlidir.

Munaqqid kitobda turli millatga mansub yozuvchilar ijodini tadqiq etar ekan, ularning, eng avvalo, milliy qiyofasini hamda milliy xarakter yaratish mahoratiga alohida e‘tibor beradi. «Yalovbardorlar» kitobidagi sotsialistik realizm bilan aloqadorlikda aytilgan ayrim mulohazalar eskirgan bo‘lishiga qaramay, badiiy asarning go‘zallik va ma‘naviyat bilan aloqador fazilatlarini chuqur his qilishi jihatidan o‘zbek tanqidchisining yuksak iqtidori va boy ma‘naviy olamini ko‘rsata bilishi, shuningdek, o‘quvchilarga mahorat sirlarini tushuntirib bera olishi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda.

Cho‘lpon ijodi tadqiqotchisi va jonkuyar targ‘ibotchisi. O.Sharafiddinov 60–70-yillardayoq Cho‘lpon va Fitrat ijodi haqida goh pinhon, goh oshkor o‘z fikrlarini ayta boshlagan munaqqiddir. Bu yo‘nalishda u matbutotda fikrlarini ochiq aytish imkoniyatiga ega bo‘lmadi, lekin talabalarga o‘qigan ma‘ruzalarida fikrini ochiq aytishdan o‘zini tiyolmadi. Buning uchun rasmiy doiralardan ko‘p bor dakki ham eshitdi. Yoshlar dunyoqarashida Cho‘lpon haqida tasavvur shakl-

lanishiga va rivoj topishida jonbozlik ko'rsatib, bu borada zimdan ilmiy tadqiqot ishlariga tayyorgarlik ko'rib bordi.

Cho'lpon singari qatag'on bo'lgan shoirlar ijodidagi qator namunalaridan tashkil topgan «Tirik satrlar» to'plami tayyorlanishiga O.Sharafiddinov bosh-qosh bo'ldi. Xuddi shu davrda o'zbek adabiyotining fidoyilari E.A.Karimov va N.Karimovlar «O'zbek tili va adabiyoti masalalari» jurnalida Cho'lponning ayrim she'rlari va maqolalaridan namunalarni yoritishga jur'at etadilar. Har qalay, bu urinishlar 90-yillar ostonasidagi qarashlarning uyg'onishiga zamin bo'ldi. XX asrning 80-yillari oxirida matbuotda Cho'lpon haqida qator maqolalar e'lon qilindi.

O.Sharafiddinovning «Cho'lpon» nomli (1991) asari ulug' san'atkor haqidagi birinchi, xayrixohlik bilan yozilgan ilmiy-tahliliy, ayni vaqtda ommaviy tadqiqot asar edi. Kitob lo'nda-lo'nda besh bobdan – hayoti va ijod yo'li, she'riyati tahlili, nasrining talqini, adabiy-tanqidiy faoliyatiga munosabat, tarjimonlik mahoratiga bir nazardan iborat. Kitobning birinchi bobi asosida keyinroq tanqidchi «Cho'lponni anglash» nomli teran va mazmunli asar yaratdi.

Muallif Cho'lpon haqida 20-yillardan shu kungacha kim, qayerda nima deganini yaxshi biladi, hatto xorijiy cho'lponshunoslik tarixi haqida ham ma'lumot beradi. Elining asl o'g'loni, buyuk farzandi Cho'lponni asrab-avaylay olmagan, muhimi, uning sha'ni-qadri uchun kurashmagan zamondoshlaridan xafa bo'lib ketishini ham yashirmaydi. U Cho'lponni qancha o'qisa, anglasa, inson erki, ruhning ozodligini shuncha aniq his qiladi, aksincha, sho'ro hukumati mohiyatini uqishga qancha intilsa, erksizlik, tutqunlik qonun-qoidalarini aniq-ravshan idrok etadi. Demak, Cho'lpon ijodining mohiyati sho'ro tuzumi asoslariga zid edi. Insonning erkin ruhini tasvirlovchi asarga totalitar tuzumda o'rin bo'lishi qiyin. «Cho'lponni anglash» risolasining tub mohiyati mana shunda.

«Kecha va kunduz» romani O.Sharafiddinov so'zboshisi bilan chop etildi. Uning rahbarligida Cho'lponning avval bir jildlik, so'ng uch jildlik asarlari nashrga tayyorlandi. «Adabiyot nadur» to'plami bosilib chiqdi. Cho'lpon adabiy merosiga oid o'nlab maqolalar, ikkita risola yaratildi.

Cho'lponga intilish, hatto, aytish mumkinki, O.Sharafiddinovning shaxs sifatida kamol topishiga ta'sir ko'rsatdi, iste'dodini tarbiyaladi, aniq maqsadga yo'naltirdi. Uning «She'r ko'p, shoir-chi?», «Hayotiylik jozibasi, sxematizm inersiyasi», «Haqiqatga sadoqat» maqolalari

Cho'lpon ruhida yozilgan. Olimning qator shogirdlari cho'lponshunoslikni rivojlantirib kelmoqdalarki, bunda ustozning xizmatlari ulkan.

Munaqqidning Cho'lpon tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Fanlar akademiyasi katta zalida qilgan ma'ruzasi asosida «Xalq so'zi» gazetasida «Cho'lpon harakatga chorlaydi» maqolasi chop etildi. Unda Cho'lpon asarlari bizni erk, ozodlik, mustaqillikni e'zozlashga o'rgatishiga urg'u berildi. Cho'lpon ijodini targ'ib qilish, uning asarlarini mehr va katta muhabbat bilan tahlil va talqin etish munaqqid ijodining yetakchi yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Mohir qahhorshunos olim. Qahhorshunoslik O'zbekistonda adabiyot ilmining muhim tarmoqlaridan biri darajasiga ko'tarilgan. U haqda tadqiqotlar, monografiya va dissertatsiyalar yaratilgan. P.Qodirov, I.Borolina, H.Abdusamatov, M.Qo'shjonov, V.Smirnova, U.Normatov, A.Rasulov, S.Sodiqov, I.G'afurov, R.Qo'chqorov hamda boshqa o'nlab tadqiqotchilar A.Qahhor ijodini tahlil qildilar. Har bir adabiyotshunos adib ijodining muayyan muammolari hamda muayyan adabiy-tanqidiy janr talabi asosida, o'z uslubi yo'nalishida o'rganadi, yozuvchining adabiyotdagi o'rnini belgilashga intiladi. O. Sharafiddinov ular ichida o'z ovozi, o'z so'zi bilan alohida ajralib turadi.

Olimning A.Qahhor haqida yaratgan «Iste'dod jilolari» portreti ilmiy-badiiy talqini teranligi bilan diqqatni tortadi. Bir qarasangiz, tanqidchi A.Qahhor asarlarining yaratilish tarixi haqida, bir qarasangiz, adabiyotda kulguning o'rni haqida, yana bir bobda iste'dodning namoyon bo'lishi, uning kimga xizmat qilishi xususida, boshqa bir o'rinda yozuvchi mehnati to'g'risida fikr yuritadi. U yozuvchi ijodidagi «jonli odamlarni ko'rsatish» maqsadida «O'g'ri» hikoyasini «ich-ichiga kirib» tekshiradi. Bunda yozuvchiga samimiyatgina emas, umuman, so'z san'atiga, so'z jozibasiga ehtiromi aniq sezilib turadi.

Tanqidchi adabiy portret janrida ham masalaga ma'lum bir muammo asosida yondasha olish namunasini ko'rsatdi. Shu ma'noda portretida adabiyotning xalq uchun yashashi, jamiyatga xizmat qilishi masalasi markazga qo'yiladi. Asarlardagi tabiiylik, xususan, hajvchi sifatidagi mahorati qirralari ochiladi. Shuningdek, yozuvchi mehnati, uning asar ustida chidam bilan ishlashi masalasiga ayricha diqqatini qaratadi.

Munaqqidning «Abdulla Qahhor» (1988) kitobi chop etildi. Bu asar yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi badiiy lavhalardan iborat bo'lib,

ko'proq esse janriga mansub, deyish mumkin. Kitobda yozuvchi tarjimai holi, ota-onasi, oilasi, farzandlariga oid ma'lumotlar berildi. Yozuvchining hayot yo'li, qiziqishlari, tabiati haqidagi kuzatuvlar qiziqarli, sodda tilda tasvirlangan. «Sarob», «Qo'shchinor» romanlarining muhokamalari haqida o'z davrining yangi ma'lumotlari yozilgan.

O. Sharafiddinov mustaqillik yillarida ham A.Qahhor haqida yozishdan to'xtamadi. Adib ijodi va shaxsining yangi-yangi qirralari haqida yozdi. «Ijodni anglash baxti» (2004) kitobiga Abdulla Qahhor haqidagi etudlar kiritilgan. Birinchisi «Chinorlardan biri...» (1995)da adibni adabiyotimizning qudratli, zabardast chinorlaridan biri deb hisoblagan tanqidchi asarlari, shaxsiyatining nozik jihatlari haqida fikr yuritadi. «Bu uyning chirog'i hamisha yoniq» (2003) etudi ko'proq xotiralarga asoslangan. Bu etudda olim o'zini A.Qahhorning shogirdi deyishdan istihola qilishini yozadi. «Biz har qancha u odamga yaqin bo'lmaylik, lekin Abdulla Qahhor iste'dodi jihatidan ham, aql-zakovat bobida ham, odamgarchilik masalasida ham bizdan bir necha barobar yuqori turar edilar»¹. «Qalbidagi istiqlol yolqini bor edi» (2002) qismida adib qalbidagi istiqlol yolqini asarlarida ko'rinib turishi haqida fikr yuritiladi. Adibning O'zbekistonni shohi so'zanaga o'xshatgani, orzulari, haqiqatparastligini ochib beradi. «Bir nutq tarixi»da o'sha davrdagi Milchakov degan uyushma raisining qiyofasini mardona turib ochib bergan adibning jasorati yoritiladi. «Bir asar muhokamasi» (1998)da «Sinchalak» qissasining yozilishi va birinchi muhokamasi atrofidagi bahslar, qanchalik qoralashlariga qaramay, asarning adabiyotimizning katta yutug'i bo'lganligi ko'rsatib beriladi. «Kibriyo opaning holvasi» (2002) deb nomlangan oxirgi etud A.Qahhor bilan K.Qahhorova o'rtasidagi insoniy munosabatlar, rafiqasining adib hayoti va ijodida tutgan o'rni qiziqarli va samimiy tarzda hikoya qilib beriladi.

Ozod Sharafiddinov ko'p olimu adiblarni qadrlar, hurmat qilar edi. Lekin Abdulla Qahhor O.Sharafiddinov uchun yo'lchi yulduz bo'ldi. U kishi Abdulla Qahhorga ergashar, o'shanday bo'lishga intilardi. Ustoz ijodida Abdulla Qahhor, uning asarlari, oilasi, turmush tarzi haqida yozilgan portret, esse, taqriz, tadqiqotlar ko'p. Ko'rindiki, O.Sharafiddinov umrining oxirgi daqiqalarigacha A.Qahhor, Oybek singari buyuk so'z ustalari haqida yozishdan tolmagan, ana shu jihatlari bilan bugungi tanqidchiligimizga namuna bo'ladigan Ozod Sharafiddinov o'rta va oliy ta'lim muammolari haqida qator

¹ Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: 2004, 285-bet.

maqolalar yozdi. Dastur va darsliklar yaratish ishida faol qatnashdi. O'zi o'qigan dorilfununda bir necha o'n yillar mobaynida talabalarga muhoq berdi. Mohir tarjimon sifatida o'zbek kitobxonlariga jahon adabiyoti namunalari tuhfa etdi. Istiqlol davriga kelib yozgan o'nlab publitsistik maqolalarida Mustaqillikni yanada mustahkamlashga davat etib, fidoiy millatparvarlik namunasini ko'rsatdi. Bu yo'nalishdagi qator maqolalarida Prezident I.A.Karimovning yurtboshi sifatidagi yorqin qiyofasini gavdalantirdi. Uning «Muqaddas burch», «Buyuklarimiz bag'rimizga qaytdi», «Modernizm jo'n hodisa...emas», «G'aroyib haqiqatni kashf etdim», «Istiqlol adabiyoti eng ilg'or adabiyotdir», «Adabiy tanqid va yangi tafakkur», «Iste'dod bilan uchrashish bayrami» kabi maqolalari yangi davr tanqidchiligining ibratli namunalari bo'lib qoldi. «E'tiqodimini nega o'zgartirdim?» nomli iqrornoma-maqolasi esa, XX asr oxirida insoniyat tarixida ro'y bergan ulkan o'zgarishlarning sabab va oqibatlari haqida teran tasavvur beruvchi jahon publitsistikasining eng sara namunalari qatorida turadi. Olimning Davlat mukototiga sazovor bo'lgan «Ijodni anglash baxti», «Dovondagi o'ylar» kitoblari o'zbek tanqidchiligining yuzini ko'rsatuvchi asarlardir.

Umuman, O.Sharafiddinov adabiyotning bosh vazifasi: Olam, Qalb va Go'zallikni tasvirlash degan azaliy qadriyatga sodiq qoldi.

Prezidentimiz I.A.Karimov O.Sharafiddinovni o'zbek xalqining fidoiy, millatparvar va jasoratli farzandi deb ta'riflar ekan, undagi eng muhim fazilatlarini nihoyatda aniqlik bilan topib aytgan edi. Uning O'zbekiston Qahramoni yuksak unvoniga sazovor bo'lgani el, yurt, davlat o'zining fidoiy farzandlariga ko'rsatayotgan yuksak ehtiromi namunasidir.

O.Sharafiddinov haqidagi zamondoshlarining dil so'zlaridan iborat to'plam «Matonat va muhabbat» deb nomlangan (1999). Mana shu ikki so'zda O.Sharafiddinovning asosiy xislatlari mujassam deyish mumkin. Darhaqiqat, Olloh bergan benazir iste'dod sohibi bo'lmish bu odam Qodiriy iborasi bilan aytganda, «shaxsi butun» zot, matonat, shijoat egasi edi. Bu fikr «Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida» (2009) nomli kitobdagi deyarli har bir maqolada o'z ifodasini topdi.

O.Sharafiddinov keyingi yillarda ko'plab xotira, esselar yaratdi. So'z san'ati fidoylari, ustozlar, qalamkash do'stlar, shogirdlar, shuningdek, ilm-fan, ma'rifat ahli, jamoat arboblari haqida go'zal badiialar bitdi. Ularda ilmiy tafakkur bilan badiiy iste'dod singishib ketadi.

Olimning yangi bosqichdagi ijtimoiy, ijodiy faoliyati nechog'li rang-barang bo'lmasin, birinchi navbatda u munaqqid, adabiyotshunos edi. Avvalgi bosqichlardagi kabi uning keyingi o'n besh yil davomida chop etilgan kitob, risola, maqola, esse va adabiy suhbatlari yangilayotgan zamonaviy milliy adabiy tafakkurning yorqin namunalari bo'lib qoldi. «Ularning ko'pchiligi hasbi hol xarakteriga ega. Mustabid tuzum asoratlaridan dadil voz kechib, XX asr o'zbek adabiyoti tarixini yangicha qayta idrok etish, tahlil va talqin qilish, qolaversa, umuman, badiiy ijodni, ijodkor shaxsini, inson zotini sho'ro davrida shakllangan andazalardan xoli, umumbashariy mezonlarda turib, chin insoniy, ilmiy anglash O.Sharafiddinovning yangi bosqichdagi adabiy-tanqidiy ishlariga xos muhim xislatlardir»¹. Jonkuyar munaqqid ijodi yangi yangi avlodlar uchun doimo mahorat maktabi bo'lib qoladi.

Tayanch tushunchalar: she'riyat tanqidi, qahhorshunoslik, cho'lponshunoslik, adabiy portret, portret chiziqchlari, fidoyilik, talant xalq mulki, tanqidchi uslubi, esse-roman, portretnavis munaqqid, badiylik mezoni, jo'shqin ehtiros, badiiyat, adabiy tafakkur, ijodiy jasorat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O. Sharafiddinov adabiy-tanqidiy qarashlarining o'rganilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Tanqidchining o'ziga xos uslubi nimada namoyon bo'lgan?
3. Munaqqidning cho'lponshunoslikka qo'shgan hissasi haqida gapiring.
4. «Zamon. Qalb. Poeziya» kitobining ahamiyati nimada ko'rinadi?
5. O.Sharafiddinov yaratgan adabiy portretlar va ularning o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?
6. Tanqidchining adabiy tanqidga oid qarashlarini izohlang.
7. O. Sharafiddinovning A.Qahhor ijodini o'rganishdagi hissasi nimalar bilan belgilanadi?
8. Munaqqidning modernizm haqidagi maqolasini sharhlang.



¹ Normatov U. Ijod va shijoat / Ijodni anglash baxti. – T.: 2006. 5-bet.

NAIM KARIMOV (1932)

REJA:

1. Naim Karimovning o'zbek tanqidchiligida tutgan o'rni.
2. Hamid Olimjon ijodining nozikta'b tadqiqotchisi.
3. Oybek ijodi olim talqinida.
4. Essenavis mahorati.
5. Tanqidchining adabiy jarayonga munosabati.



NAIM KARIMOVning o'zbek tanqidchiligida tutgan o'rni. O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor Naim Karimovning mustahkam o'rni bor. Uning boy va rang-barang ijodi XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran o'zbek adabiyoti va adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiy tanqiddagi Matyoqub Qo'shjonov, Osoad Sharafiddinov, Salohiddin Mamajonov,

Laziz Qayumov, Naim Karimovlar avlodining baxti shundaki, ular ijodining boshlanish va shakllanish davri jamiyatda ildiz shabadalar o'm boshlagan yangilanish pallalariga to'g'ri keldi. XX asr o'zbek tanqidi va adabiyotshunosligida bo'y ko'rsatgan yangilanishlar ham 50-yillarning oxirlari 60-yillarning avvalida mana shu avlod ijodida yorqinroq namoyon bo'ladi.

Naim Karimov 1932-yilda Toshkent shahrida tug'ildi, o'rta ma'lumot olgach, SAO Uning o'zbek filologiyasi fakultetida o'qidi. So'ng universitet huzuridagi aspiranturada tahsil oldi. «Hamid Olimjonning badliy mahorati» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagach, O'z R FA TII va Adabiyot institutiga ishga o'tdi. Shu ilm maskanida deyarli oltmish yildan beri samarali mehnat qilib kelmoqda.

Olim «XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari va milliy istiqlol mafkurasi» (1994) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

U «O'zbekiston ma'rifatparvarlar jamiyati» raisi, «Shahidlar xotirasi» jamg'armasi kengashi raisi hamda «Qatag'on qurbonlari» xotirasi muzeyi direktori lavozimlarida ham fidoyilik bilan mehnat qildi. Nohaq qatag'on bo'lganlar xotirasini tiklashda qatag'on davri adabiyotini o'rganishda katta g'ayrat ko'rsatib kelmoqda.

XX asr adabiyotimizning qator namunalari rus tiliga tarjima qilinib, O'zbekistondan tashqaridagi kitobxonlar qo'liga yetib borishida, ma'lum ishlar qilingan. M.Qo'shjonov, S.Mirzayev, N. Xudoyberganov, P.Shermuhammedovlarning sobiq markaz va Toshkentda rus tilida chop etilgan ayrim tadqiqotlarini hisobga olmaganda, adabiyotshunoslik sohasida bu fikrni aytish qiyin. Respublikamizdan tashqaridagi akademik nashrlarda e'lon qilingan ishlar esa barmoq bilan sanarli. Shu ma'noda, umuman, o'zbek adabiyoti, xususan, ayrim ulkan adiblar ijodini tahlil etib, keng miqyosdagi mutaxassislar va kitobxonlarga tanishtirishda N.Karimov xizmatlarini ta'kidlash o'rinli. Olimning ana shunday dastlabki tadqiqotlaridan biri «Uzbekskaya sovetskaya literatura na sovremennom etape» — bundan salkam ellik yil avval Moskvada chop etilgan «Istoriya uzbekskoy sovetskoy literaturi» (1967) nomli kitobdan o'rin olgan edi. Rossiya Fanlar akademiyasining Jahon adabiyoti instituti tayyorlagan «Istoriya sovetskoy mnogonatsionalnoy literaturi» ko'pjildligiga bir guruh olimlar tomonidan yozilgan o'zbek adabiyotiga doir tadqiqotlar o'z davrida jiddiy muvaffaqiyat sifatida baholangan edi.

Bu tadqiqotning IV va V jildlaridagi (1971, 1974) qismlarini yozishda I.Sultonov rahbarligidagi bir guruh taniqli olimlar qatori N.Karimov ham ishtirok etdi.

N.Karimov izlanuvchan va yuksak ilmiy-estetik did hamda qarashlarga ega munaqqid. U o'zining Cho'lpon, Hamza, Oybek, H.Olimjon, U.Nosir, Shayxzoda ijodiga doir tadqiqotlarida asarlarini o'rganish bilan cheklanmay, ularning ijodiy laboratoriyasiga ham chuqur kirib boradi, har bir san'atkorning xos uslub va mahorati yo'nalishlarini ilmiy-estetik, tarixiy-ma'rifiy jihatdan chuqur tahlil etadi.

Shakldagi go'zallik bilan kompozitsiyadagi topqirlik, ilmiylikka zid bo'lmagan erkin badiiy taxayyul N.Karimov tadqiqotlarining o'ziga xosligini belgilaydi, qiziqarli o'qilishi va jozibasini ta'minlaydi.

Hamid Olimjon ijodining noziktaʼb tadqiqotchisi. Shoir hayoti va ijodi haqida Oybek, Shayxzoda, Gʻ. Karimov, S. Azimov, S. Mirvaliyev, S. Mamajonov, H. Umurov kabi adib va munaqqidlar qator tadqiqot hamda maqolalar yaratdilar.

Bu ulkan shoir ijodini chuqur va atroflicha oʻrgangan, uning poetik mahorati sirlarini ochishga intilgan munaqqidlardan biri N. Karimovdir.

Toʻgʻri, N. Karimovning shoʻro davrida yaratgan maqolalari, tadqiqotlarida barcha adabiyotshunoslar singari mafkuraga, ijtimoiy asoslarga, tuzumga, sinfga va shulardan sizib chiquvchi gʻoyaviylik muammolariga alohida eʼtibor beriladi. Lekin, bundan qatʼi nazar, oʻtgan asrning 70–90-yillaridagi aksar maqola, tadqiqotlar bilan qiyoslansa, N. Karimov ishlarida shoir asarlarining badiiy jihatlarini, estetik qimmatini, sanʼatkor mahoratini oʻrganish asosiy oʻrin tutishini sezmaslik mumkin emas.

Umuman, adabiyotshunoslikka N. Karimov Hamid Olimjon ijodiyotining tadqiqotchisi sifatida kirib keldi. Olimning jiddiy ishlari Hamid Olimjon ijodini oʻrganishdan boshlandi.

Masalan, «Zaynab va Omon» dostonini tadqiq etarkan, asarning siyosiy-ijtimoiy ahamiyatidan tashqari, undagi badiiy sanʼatlarning oʻrnini ochishga intiladi.

Shoirning ruhiyatdagi, tabiat manzaralarini chizishdagi sanʼatkorligini tahlil etadi. Mahoratni, poetik uslubni aniqlashda, olim nainki fikr, jumla, obraz, soʻz boyligi yoki boʻyoqlari, balki musiqiylik, ohang, ritm, sheʼriy nutq unsurlaridan tortib, poetik intonatsiya, uning tur va xillarigacha eʼtibor beradi.

Tanqidchi sheʼrning ichki musiqasini tinglay oladi, «nafis undoshlar», «kuydor unilar» bilan almashinishidagi goʻzallikni his etadi, «tovush tovlanishlarini» koʻra biladi. Bu har bir tanqidchiga ham nasib etavermaydigan xususiyat.

Bunday fazilat nafis va noziktaʼb didli tanqidchigagina nasib etadi. Baʼzan hatto shoirning oʻzi ham oʻzidagi bu fazilatni sezmasligi, bu hol tabiatidagi ichki ong oqimi natijasi ekanini payqamay qolishi mumkin. Lekin noziktaʼb tanqidchi buni sezadi, anglaydi. Shoir tabiatidagi bu sezimlarning sehrlarini ochishga intiladi.

Bir vaqtlar hassos shoir E. Bagriskiy «sheʼrning har bir harfi organizmdagi hujayra yangligʻ nafas olishi va tebranishi zarur», degan edi. Tanqidchi oʻzbek sheʼriyatidagi namunalar asosida ana shu jonli jarayonni kuzatadi, aniq misollar asosida koʻrsatadi, qalbimizga

she'riyatning go'zalligini olib kiradi. «Zaynab va Omon»da quyidagi misralar bor:

*Niyatingga yetkur, quloq sol,
Alamlaring ketkur, quloq sol.*

Oddiy kitobxon bu misralarni shunchaki o'qib ketaverishi mumkin. Ularni har bir tanqidchi o'z maqsadidan kelib chiqib, turli yo'nalishda tahlil etadi. N.Karimov esa poeziyadagi musiqaviylik nuqtayi nazaridan kelib chiqib, har bir harf ohangi zamiriga yashiringan shoir mahoratini quyidagicha talqin etadi: «L harfining mayin jarangi asosiga qurilgan radif ana shu misralardagi ohangdosh va qofiyadosh so'zlar bilan uyg'unlashib, she'rning latif musiqasini, qo'shiqchanligini yuzaga keltiradi».

Olimning «Hamid Olimjonning poetik mahorati» (1964) monografiyasida shoir she'riyatining falsafiy-estetik mohiyati, inson ichki dunyosi va his-tuyg'ularini tasvirlash mahorati chuqur yoritildi. H.Olimjonning hayotga bo'lgan otashin muhabbati, Vatan va insonga atalgan eng ezgu tuyg'ulari, baxt haqidagi falsafiy she'rlarining tahlili misolida ko'rsatiladi.

XX asrdagi buyuk shoir, yozuvchilar hayotini uning aniq asarlari yozilish sababi, tarixi bilan, muallifning tabiati, fe'li, turmush tarzi, oilasi, muhiti, davrasi bilan aloqadorlikda, keng o'quvchilarga mo'ljallab yaratilgan asarlar, bundan, taxminan, yigirma besh yil avval paydo bo'ldi. Bu yo'lni boshlovchilardan biri Naim Karimovdir.

Bu kitobga qadar H.Olimjon haqida ko'plab maqola, kitob, dissertatsiyalar yozilgan. Biroq ularning aksarida shoir hayoti va ijodidagi muayyan qirralargina yoritilgan, xolos. N.Karimov asarida esa, ulug' shoirning butun hayoti va ijodiga yaxlit nazar tashlanib, ulardagi eng muhim nuqtalar: bobolariyu bolaligidan tortib umrining so'nggi daqiqalarigacha kechgan manzaralar davr bilan mustahkam aloqadorlikda sururli bir hayot yo'li sifatida aks ettiriladi. Kitobda shoir hayoti va ijodiga daxldor yangi ma'lumotlar ilk bor muomalaga kiritiladi.

Shunisi e'tiborliki, muallif kitobning ko'pdan ko'p sahifalarida o'z taxayyuliga, xayolotiga erk beradi, bu uslub, o'z navbatida, asarning badiiyligini oshirib, uni yanada o'qishli, sehrli, qiziqarli qiladi. Olim taxayyulidan to'yingan shoir hayoti va ijodiga doir ayrim ma'lumotlarning hujjatli asosi bo'lmasligi mumkin, lekin ularga biz to'liq ishonamiz, chunki ular shoir turmushi, ijodi va taqdiriga doir

shart-sharoitlar bilan ajralmas uyg'unlikda zohir bo'ldi. Bu tarixiy-biografik tadqiqotning muhim yutuqlaridan biri unda tarixiy-ma'rifiy yo'nalish uyg'unligida H.Olimjon hayoti va ijodining butun qirralari qamrab olinganligidadir.

Oybek ijodi olim talqinida. N.Karimov Behbudiy va Hamzadan tortib, H.Xudoyberdiyeva va Usmon Azimgacha bo'lgan ko'plab shoir va adiblar haqida tadqiqotlar yaratdi, maqolalar yozdi. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning birgina «XX asr adabiyoti manzaralari» nomli salmoqli kitobiga nazar tashlashning o'zi kifoya. Oybek shaxsi va ijodi N.Karimov uchun tom ma'nodagi sehrli ma'vo bo'lib qoldi. XX asrning so'nggi choragidan buyon Oybek hayoti va ijodini tadqiq hamda targ'ib etish N.Karimov hayotining mazmuni bo'lib qoldi.

Chorak asr ichida Oybek haqida e'lon qilingan yuzga yaqin maqola, besh kitob, yigirma jildlik nashrga bosh-qosh bo'lish buning dalili bo'la oladi. Gap faqat maqola, kitob, bajarilgan ish sanog'idagina emas, ularning salmog'ida, mohiyatida, yangiligida, yangi zamonning yangi talablariga munosib ekanida.

Haqiqatan ham olim umrining deyarli yarmidan ko'pi yoxud mutaxassis sifatidagi butun faoliyatining izchil va sistem davri bevosita Oybek hayoti, ijodini o'rganish, targ'ib etish, buyuk adib xonadoni muhiti bilan chambarchas aloqadordir. Oybek vafotidan keyin bu xonadonda o'tgan birorta adabiy, madaniy, udumiy tadbir yo'qki, unga bu fidoyi olim bosh-qosh bo'lmagan bo'lsin. Ulug' yozuvchi merosi jamlanib, izchil nazardan o'tkazilib, variantlari-yu, izohlari bilan yigirma jildlik akademik nashr sifatida kitobxonlar qo'liga yetib borishida adibning rafiqasi muhtarama Zarifa aya Saidnosirovaning hamda mutaxassis sifatida, bunday nashrning prinsiplarini O'zbekistonda birinchi bor ishlab chiqqan va amalga oshirgan N.Karimovning xizmatlari juda katta.

Bu mehnatlar evaziga u haqli ravishda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Respublika Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Mamlakatimiz hayotida jiddiy madaniy hodisalar sifatida e'tirof etilgan G'. G'ulomning 12, H.Olimjonning 10, H.H. Niyoziyning 5 jildlik mukammal asarlar to'plamlari ham uning bevosita rahbarligi va ishtirokida nashr etildi.

N.Karimov Oybekning 20 jildlik «Mukammal asarlar»ini nashrga tayyorlash jarayonida adibning ish uslubini, roman yozishga tayyorgarlik ko'rishi, obrazlar ustida ishlashi, qahramonlari prototiplarini, tarixiy

munbalarni kuzatadi. Tahlil asnosida ulug' Oybekning zahmatkash yozuvchiligini yoritib beradi. Adib umr bo'yi ilm bilan badiiy ijodni qo'shib olib borganiga e'tibor qaratadi.

Oybek hayoti va ijodini tinimsiz o'rganish natijasida N.Karimov «Oybek» (1985), «Oybek gulshanida qolgan g'unchalar» (1985), «Oybek va Zarifa» (1990), «Ilhom chashmasining ajib mavjlari» (1982) singari asarlarini chop ettirdi.

Bundan tashqari Zarifa Saidnosirova hayotligida chop etishga ulgurmagan «Oybegim mening» kitobini muallif iltimosiga ko'ra Naim Karimov nihoyasiga yetkazdi. Nashrga tayyoriashdan tashqari, unga muharrirlik qildi. Opa xotiralari asosida shakllangan ma'lumotlar bilan kitobni juz'iy ravishda yanada boyitdi.

N.Karimovning «Ajoyib kishilar hayoti» turkumidagi «Oybek. Mashhur o'zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar» asari Z.Saidnosirovaning ushbu «Oybegim mening» nomli kitobi bilan birgalikda oybekshunoslik va, ayni vaqtda, ulug' siymolarimiz qiyofasini nainki, shu kunning o'quvchisi, balki kelgusi avlodlarga barhayot yetkazishda, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega. Bu ishlar qatoriga tanqidchining «Tarix so'qmoqlari izimdan cho'tir..», «Oybek: Tosh ekan bu boshim..», «Ikki darg'a», «Yozilmagan durdona», «Oybek o'gitlari», «Oybekning so'nggi qo'shig'i» singari o'nlab maqolalarini qo'ysak, N.Karimovning oybekshunoslikka qo'shib kelayotgan ulushi haqiqatan ham beqiyosdir. Asosiysi, munaqqid maqolalarining deyarli har birida adib haqida adabiyotshunoslikka noma'lum bo'lgan yangiliklarni olib kirishga intiladi.

Masalan, yozuvchining yozib tugallanmagan «Bobur» nomli dostoni haqidagi «Oybekning so'nggi qo'shig'i» hamda adibning «Qahqahai husn» nomli pyesasiga bag'ishlangan «Yozilmagan durdona» maqolalarini deysizmi, «Oybek gulshanida qolgan g'unchalar» risolasini olasizmi — kitobxonga yangi-yangi ma'lumotlar beradi.

Naim Karimovning Oybek ijodiga munosabati buyuk siymolarimiz qiyofasini kitobxonlarga, shu bilan birga kelgusi avlodlarga barhayot yetkazishda, shubhasiz, katta ahamiyatga egadir.

Essenavis mahorati. N.Karimov mehr-muhabbat va ixlos bilan hayot yo'lini, ijodini tadqiq etgan shoirlardan biri Usmon Nosirdir. U shoir ijodini o'rganish bilan birga, adabiyotimiz tarixiga shoir hayoti, taqdiriga hamda shu vaqtgacha noma'lum bo'lib kelgan ko'pdan-ko'p ma'lumotlarni olib kirdi. Tanqidchi fidoyi bir inson sifatida o'z

talqining madaniy merosini avlodlarga yetkazishdek xayrli ishlarni amalga oshirib, shoir surgun qilingan Kemerovo, Biyskkacha bordi, u haqdagi hujjatlar bilan tanishdi, arxivlarni o'rgandi, shoirning zamondoshlari bilan suhbatlashib, ko'p ma'lumotlarni qo'lga kiritdi. Bu tinimsiz mehnat natijasi o'laroq «Istiqlol fidoyilari» turkumidagi «Usmon Nosir. Hayotiy lavhalar. Hujjatlar. Rivoyatlar» (1993), «Usmon Nosirning so'nggi kunlari» (1994) nomli kitoblar dunyo yuzini ko'rdi. Birinchisida, Usmon Nosirning Toshkentga ko'chib kelgun-gacha (1935) kechgan hayoti va ijodi, ikkinchisida to umrining oxirgi kunlarigacha yaratgan asarlari, umr yo'li tadqiq etilgan. Olim shoir asarlarining yaratilish tarixiga e'tibor berish bilan bir qatorda, ularning yangi talqinini yaratadi. Bu talqin aksar holiarda davrning adabiy, madaniy, ijtimoiy hodisalari bilan mustahkam aloqadorlikda bo'lishdan tashqari, shoirning o'z tabiati, ichki dunyosi, a'mollar va omillar olami bilan uzviy bog'lanishda kechadi.

Bu asarlar esse janrida yaratilgan, shuning uchun ularda essenavis munaqqidning keng imkoniyatlari bor bo'y-bastini ko'rsatgan. Bizda XX asrning 90-yillarigacha o'rganilayotgan shoir-yozuvchining faqat ijobiy fazilati haqida gapirish mumkin deb tushunilgan. Uning tabiatidagi har bir oddiy odamga xos ayrim past-baland xususiyatlarni oshkor etish go'yo «ayb» sanalardi. Jahonning ilg'or adabiyotshunosligi esa bu yo'lni allaqachon inkor etgan va ijodkor shaxsi tabiatiga oid barcha, hatto eng nozik ma'lumotlarni ham o'rni bilan aytishni to'g'ri deb biladi.

Naim Karimov bizda H.Olimjon, Oybek, U.Nosir haqidagi asarlari bilan ana shunday – ijodkor shaxsiga yaxlit qarash tamoyilini boshlab berdi. Masalan, Usmon Nosirga inson va ijodkor sifatida qarab, uning chapaninoma tabiati haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi va bu ma'lumotlar buyuk shoirni o'quvchidan uzoqlashtirmaydi, balki unga yanada yaqinroq qiladi.

Cho'lpon tanqidchi nigohida. Mustaqillik davriga kelib, cho'lpon-shunoslikning jadal sur'atlar bilan qadam tashlashida N.Karimovning hissasi kattadir. Uning «Istiqlolni uyg'otgan shoir» (2000) kitobi Cho'lpon hayoti va ijodining ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan qirralarini ochishga qaratildi.

N.Karimov esse-roman janri tabiatiga xos xususiyatlarni H.Olimjon va Oybek haqidagi tadqiqotlarida sinab ko'rgan edi. Bu yo'nalishdagi tajribasini mustaqillik yillarida Cho'lpon haqidagi yirik tadqiqotida yanada chuqurlashtirdi. Olimning Cho'lponga bag'ishlangan maqola-

lari, risolalari davlat arxivlarida yillar mobaynidagi tinimsiz mehnat, shoir zamondoshlari va qarindosh-urug'lari bilan olib borilgan suhbatlar va boshqa turli yo'nalishdagi izlanishlar – bu yirik asarning yaratilishiga zamin bo'ldi.

Asarda ilk bor shoir hayoti, ijodi va mufassal qiyofasi yaratilib, u haqdagi haqiqat to'ldirildi va oydinlashtirildi. Uni o'qir ekansiz, eng muhimi, ko'z o'ngingizda millatning cho'ng va nurli qoyalaridan biri – Cho'lponning keng, mukammal obrazi namoyon bo'ladi: Cho'lpon – qalbi hissiyotga to'la iste'dodli shoir va adib. Cho'lpon – o'z davridan oldinga ketgan tanqidchi va mohir tarjimon. Cho'lpon – o'z millatining baxti, kelajagi uchun o'zini fido qilgan millatparvar inson. Cho'lpon – nihoyatda nozik qalb egasi; keng miqyosdagi shaxslar bilan qiyoslana oluvchi va ular bilan bir safda turishga munosib o'z davrining ulkan siymolaridan biri.

«Cho'lpon» ma'rifiy romani yosh avlodning estetik tafakkurini rivojlantirishda uni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Maqsud Shayxzoda haqida yangi esse. Izlanuvchan olim M.Shayxzoda hayoti va ijodiga bag'ishlab yangi ma'rifiy romanini e'lon qildi (2010). Xuddi «Cho'lpon» ruhida yozilgan bu salmoqli asar kitobxonlar tomonidan qizg'in kutib olindi. Unda ham obrazli ifodalar, tasviriy vositalar yordamida shoirning ham nozik, ham viqerli qiyofasini chizadi. Ayni vaqtda Shayxzoda qiyofasini chizayotgan muallifning hayajonlari ko'pincha dramatismga to'liq ekanligi, eng muhimi, qaynoq qalbi bu asarda ham ko'rinib turadi.

«Maqsud Shayxzoda» asari boshqa ko'pdan ko'p fazilatlarini qatori shoir haqidagi haqiqatlarni oydinlashtirishda ham muhim o'rin tutadi. Unda shoir hayoti va ijodi to'g'risida nashr etilgan deyarli barcha maqolalar-u, risolalardagi dalillar, ma'lumotlar, kuzatishlar, qarashlar va talqinlar, xotiralar o'zaro qiyoslanib, sarasi-saraga, puchagi puchakka ajratilib, shaxsiy kuzatuvlar va xulosalar umumlashtirilib, shoir bosib o'tgan yo'lning keng, mufassal manzarasi yaratiladi. Muhimi, asarda kitobxon ko'zi oldida millatparvar shoir Maqsud Shayxzodaning yorqin va shu vaqtgacha yaratilganlari ichida eng to'laqonli obrazi namoyon bo'ladi.

N.Karimov asarida shoir obrazi quyidagi fazilatlarda bo'y ko'rsatadi: Maqsud Shayxzoda – qalbi hissiyotga, armonga to'la lirik shoir, dramaturg; o'z davridan ancha ilgarilab keta olgan, kelajakni his eta bilgan mutafakkir; tanqidchi, mumtoz adabiyotning

bilimdoni; millat baxti uchun qayg'urgan insonparvar; do'stga sodiq, xushfe'l hamsuhbat; qalbi toza, yurt deb, mustaqillik deb o'zini fido etgan buyuk shaxsdir.

Asarda N.Karimovning tanqidiy-biografik xarakterdagi barcha asarlariga xos mushtarak xususiyat ilmiy va obrazli tafakkurning o'zaro omuxtaligi, tanqidchi qalbining ijodkorga, san'at asarlariga bo'lgan kuchli muhabbatga limmo-lim yurakning ehtirosiga to'lgan holda namoyon bo'lishidir. Iste'dodli olim, zukko munaqqid N.Karimovning ma'rifiy romanlari yosh avlod estetik tafakkurini rivojlantirishda, uning badiiy saviyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tanqidchining adabiy jarayonga munosabati. N.Karimov o'zbek adabiyoti bilan bir qatorda jahon va qardosh xalqlar adabiyotining buyuk san'atkorlari ijodini ham tadqiq etuvchi, ularning o'zbek adabiyoti vakillari bilan ijodiy rishtalarini o'rganuvchi serqirra adabiyotshunos.

Uning A.S.Pushkin, Shekspir, Muxtor Avezov, Gabriel Garsia Markes, Chingiz Aytmatov singari daho san'atkorlar haqidagi risola va maqolalari shunday deyishga asos beradi. Bu san'atkorlar haqida yozilgan ishlar, shunchaki yubileylar yoxud gazeta-jurnallar buyurtmasigina emas, tadqiqotchining qalb da'vati, ijodiy qiziqishlari hamda jiddiy izlanishlari samarasi sifatida maydonga kelgan.

Masalan, Pushkinning Oybekka ko'rsatgan ta'sirini o'rganar ekan, tadqiqotchi Yozuvchilar uyushmasi arxiviga murojaat etib, 1936-yildagi hujjatlar bilan tanishadi, Oybekning «Chimyon daftari» turkumiga kirgan asarlaridagi Pushkin ta'sirining ildizlarini ochishga alohida e'tibor beradi.

Pushkin haqidagi 80-yillarning avvalida paydo bo'lgan «Teran va toshqin daryo» maqolasidagi g'oya rivojlantirilib, 1988-yilda nashr etilgan «Pushkin va o'zbek adabiyoti» risolasi darajasiga ko'tarildi.

N.Karimov ijodida «Adabiy tanqid va adabiy jarayon», «Hozirgi o'zbek she'riyatida janrlar taraqqiyoti», «She'riy shakllar va uslubi izlanishlar» singari ayrim muammolarni yoritishga bag'ishlangan hamda adabiyotning muayyan bosqichlari va alohida davrlari umumlashtirilgan holda tadqiq etilgan ishlar ham salmoqli o'rin egallaydi.

Muxtasar aytilsa, XX asr o'zbek adabiyotining taraqqiyot tamoyili va bu tamoyilni o'zida mujassam eta olgan san'atkorlar ijodining o'ziga xosligini, bu xoslikni belgilagan omillarni o'rganish adabiyotshunos N.Karimov ijodining yetakchi xususiyatidir.

Istiqloq davri N.Karimovning yangi-yangi imkoniyatlarini namoyon etdi. Uning gazeta va jurnallarda eʼlon qilingan turkum maqolalarida davr adabiy-tanqidiy tafakkurining yangi, yetakchi tamoyillari oʻz ifodasini topdi.

Ikkinchi tomondan, ular yangi bosqichdagi oʻzbek adabiyotshunosligi tamoyillarini oʻzida ifoda etdi, uchinchidan, bu tamoyillar oʻzbek adabiyotshunosligi yangi metodologiyasi shakllana boshlashida muhim rol oʻynadi. O.Sharafiddinov, M.Qoʻshjonov, A.Aliyev, U.Normatov, E.Karimov, B.Qosimov kabi olimlarning yangi tipdagi maqolalari bilan birga N.Karimovning bunday maqolalari misolida oʻzbek adabiyotshunosligi bu davrga kelib, XX asr adabiyotiga munosabatda yangi yoʻnalish ola boshlaganini koʻrsatdi.

Adabiyot ilmi yangi bosqichga oʻta boshlash pallasida N.Karimov H.H.Niyoziy ijodiga adolat va haqgoʻylik bilan munosabatda boʻlishni boshlab berganlardan biri boʻldi.

U Hamza ijodi va ayrim asarlari nooʻrin va asossiz koʻklarga koʻtarilganini dadillik bilan koʻtarib chiqdi. Hamzashunoslikdagi mushakbozlik hodisasining asosiy sababini shoʻro siyosati va mafkuraviy mutelikda deb bildi.

Olim oʻz harakatlarini, ayrimlar talqin qilmoqchi boʻlganidek, aybimizni oʻzimiz ochish, oʻzimizni oʻzimiz yerga urish emas, aksincha, adabiyotimiz va adabiyotshunosligimizning ayrim muhim masalalaridagi adolatni tiklash, haqiqatni oʻz oʻrniga qoʻyish, deb hisobladi. «Boy ila xizmatchi» pyesasining ijodiy taqdiri», Hamzaning «Qorasoch» operasi haqidagi «Qorasoch va Oltoyxon», «Hamza grajdanin», «Hamzani kim oʻldirgan yoxud Shohimardonning qora bahori», «Hamza Hakimzoda Niyoziy» singari maqolalarida u Hamzani soxta, zoʻrma-zoʻraki, sunʼiy yorliq va nohaq, balandparvoz maqtoqlar iskanjasidan qutqarib, shoirning adabiyotimizdagi haqiqiy oʻrnini belgilashga, asarlarining asl bahosini berishga intildi.

N.Karimovning, nainki XX asr adabiyotimiz tarixi, balki, shu kungi adabiy jarayon bilan ham faol shugʻullanib kelayotganini taʼkidlash zarur. Shukrulloning «Kafansiz koʻmilganlar» roman-xronikasi va «Oʻgʻrini qaroqchi urdi» komediyasi haqidagi taqrizlari, E.Vohidov va A.Oripov bilan muloqotlari («Sheʼriyat — mehr demakdir», «Dunyoda diyonat hali mavjuddir»), H.Xudoyberdiyeva haqidagi «Dunyo kirmoqdaʼir shoir qalbiga», «Shunchaki yozmoq bu — shoirga oʻlim» (A.Rashidov bilan hamkorlikda) nomli maqolalari, hozirgi oʻzbek sheʼriyati haqida mushohada yuritilgan risolasi, mustaqillik

davrining ilk yillari she'riyatimizda ro'y bergan izlanish va yangilanishlar tahlil etilgan «Milliy badiiy tafakkur» va «Pishqirgan daryo sohilida» deb atalgan maqolalar, shuningdek, **Rauf Parfi, Usmon Azim** she'rlari haqidagi «Tong sirlari» singari chiqishlari harakatdagi adabiy jarayonning yutuq va kamchiliklari haqida muxtasar tasavvur bera oladi.

Istiqlol arafasi va mustaqillik davriga kelib, **N.Karimovning** Behbudiy, **A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Hamza, U.Nosir** kabi shoir, yozuvchilar hayoti va ijodi haqida tom ma'nodagi yangi maqolalari, risolalaridan tashqari, asr tongi va 20-yillardagi jadidchilik harakati, jadid adabiyotining tug'ilish, rivojlanish yo'llarini o'rganishi natijasi o'laroq, «XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyat va jadidchilik harakatining vujudga kelishi» singari tadqiqotlari maydonga keldi.

Buning uchun muallifga oylab, yillab O'zbekiston Davlat arxivida, Davlat Xavfsizlik Boshqarmasi, Yozuvchilar uyushmasi arxivlarida, sobiq Ittifoq hududida joylashgan qator maxfiy arxivlarda ishlashga to'g'ri keldi.

Olimning arxivdagi izlanishlari natijasi o'laroq maydonga kelayotgan **Abdulla Avloniy, Botu, Abdulla Alaviy, Vadud Mahmud, Rahmatulla Sultonov, Said afandi, Saidnosir Mirjalolov** singari 20–30-yillar adabiy muhitida faol o'rin tutgan ziyolilar haqidagi maqolalari adabiyotimiz, madaniyatimiz, istiqlolimiz uchun kurash tarixidan yangi-yangi ma'lumotlar beradi.

Umuman, so'nggi o'n yil ichida qatag'on qurbonlarining nomini abadiylashtirish yo'lida olib borayotgan fidoyi mehnatlari, bu yo'nalishda e'lon qilayotgan yuzlab publitsistik maqolalari, uning rahbarligida tayyorlanib, chop etilayotgan shahidlar xotirasi turkumidagi «Surgun» singari kitoblar bu olim va jamoat arbobining faoliyati havas qilarli darajada jo'shqin hamda serunum kechayotganidan dalolat beradi.

Bu mehnatga davlatimiz va hukumatimiz munosib e'tibor berayotgani, ayniqsa, quvonarlidir. **N. Karimovning** fan arbobi faxriy unvoni hamda «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlanishi mustaqillik davrida ziyolilarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborning yorqin dalilidir.

Mustaqillikning fan, ta'lim, tarbiya mutaxassisleri oldiga qo'ygan dastlabki muhim vazifalaridan biri barcha fanlar, ayniqsa, ijtimoiy gumanitar yo'nalishlar bo'yicha yangi zamon, yangi tuzum, mustaqil

Vatan talablariga javob bera oluvchi darsliklar, qo'llanmalar yaratish va bu davlat ahamiyatiga ega bo'lgan nihoyatda muhim vazifa edi.

Bu borada alohida faollik ko'rsatayotgan N.Karimov va U. Normatovning 5-sinf uchun yaratgan darslik-xrestomatiyalari jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi.

N.Karimovning hamkorlikda 11-sinflar uchun yaratilgan «XX asr o'zbek adabiyoti» darsligi qisqa muddat ichida uch marta nashr etildi. Hamkorlikda 9-sinf uchun yaratilgan adabiyot darsligi esa shu fan bo'yicha umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti asosida yozilgan dastlabki yakunlovchi kitobi bo'ldi.

Universitetlar va pedagogika institutlari talabalari uchun yozilgan «XX asr o'zbek adabiyoti tarixi» darsligining mualliflaridan biri ham N.Karimovdir.

O'zbekiston Qahramoni O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, U.Normatov, B.Nazarov hamkorligida yozilgan bu darslik (1999) mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi.

Buyuk o'zbek shoiri G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligi munosabati bilan N.Karimovning yangi risolasi bosilib chiqdi. «XX asr adabiyoti manzaralari» (2009), «Maqsud Shayxzoda» (2010) kabi tadqiqotlar olimning tinimsiz izlanishlari samarasidir. Jonkuyar olim o'zining mo'tabar 80 yoshini yangi-yangi ijodiy samaralar bilan qarshi olmoqda.

Tayanch tushunchalar: «Ajoyib kishilar hayoti» turkumi, tarixiy-ma'rifiy tadqiqotlar, Kemerovo, Biysk, tanqidchi dunyosi, esse, ma'rifiy roman, taxayyul, adabiy jarayon.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Naim Karimovning hayot va ijod yo'li haqida nimalar bilasiz?*
2. *Olimning ijodi o'zbek tanqidchiligida qanday o'rin tutadi?*
3. *Olimning Hamid Olimjon ijodiga munosabati qanday?*
4. *N.Karimov oybekshunoslikka qanday hissa qo'shdi?*
5. *«Ajoyib kishilar hayoti» turkumidagi tadqiqotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida munaqqidning xizmatlari nimada?*
6. *Tanqidchi Usmon Nosir hayoti va ijodini qay yo'sinda o'rgandi?*
7. *Munaqqidning adabiy jarayon va tanqidning rivojiga bag'ishlangan qanday maqola va tadqiqotlarini bilasiz?*

_____ 



UMARALI NORMATOV (1931). O'zbek adabiyotshunoslari va tanqidchilari orasida filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori Umarali Normatov o'z o'rnini va uslubiga ega hozirjavob ijodkor, iste'dodli tanqidchi sifatida mashhur. U yarim asrdan buyon adabiy jarayonga faol qatnashib, kitobxon didini shakllantirishga, o'zbek adabiy-tanqidiy tafakkuri taraqqiyotiga munosib

hissa qo'shib kelmoqda.

Umarali Normatov 1931-yil 3-yanvarda Farg'ona viloyatidagi Rapqon qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga . Bolaligi stalincha qatag'on va Ikkinchi jahon urush yillarida k . Shu sababli o'rta maktabni bitirishi bir muddat cho'zildi. 1952-yilda 21-yoshda SAGUning o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kirdi. O'rta maktabda ona tili va adabiyotdan dars berdi, so'ng aspiranturada tahsil oldi.

Taniqli adabiyotshunos O.Sharafiddinovga shogird tushdi, uning rahbarligida o'zbek hikoyachiligining badiiy taraqqiyoti muammolarini o'rgandi. O'zbek hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillari haqida nomzodlik dissertatsiyasini, keyinroq doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Hozirgi Milliy universitetda o'qituvchilikdan professorlikkacha bo'lgan ilmiy-pedagogik yo'lni bosib o'tdi. Uzoq yillar kafedrani boshqardi, o'zi ham ustoz darajasiga ko'tarilib, o'nlab fan nomzodlari va doktorlariga rahbarlik qildi.

U adabiy jarayonga ta'sir ko'rsata oluvchi hozirjavob munaqqid sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Milliy g'oyani rivojlantirish, yoshlarni Istiqlol ruhida tarbiyalash, adabiyot va tanqidchilik ravnaqi yo'lidagi halol xizmatlari uchun U.Normatov «Mehnat shuhrati» ordeni bilan mukofotlandi (2011).

O'zbek nasrining mohir tadqiqotchisi. Munaqqid ijodi «Yosh prozaiklarning ba'zi yutuq va kamchiliklari» (1957) nomli maqola bilan boshlandi. U.Normatov she'riyat, nasr, dramaturgiya xususida deyarli birdek qalam yuritisa-da, ilmiy-tanqidiy faoliyatida o'zbek nasri masalalarini o'rganish yetakchilik qiladi. Bu jihatdan «Janr imkoniyatlari», «Mahorat sirlari» (M.Qo'shjonov bilan hamkorlikda), «Nasrimiz ufqlari», «Go'zallik bilan uchrashuv», «Nasrimiz an'ana-

luri», «Said Ahmad», «Shuhrat», «Talant tarbiyasi», «Yetuklik» (1982), «Aql va qalb chirogʻi» (1983), «Davr tuygʻusi» (1987) singari monografiya va adabiy portretlari oʻzbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida muhim iz qoldirdi. Xususan, «Nasrimiz ufqlari» (1974) degan salmoqli monografiyasida 60–70-yillar hikoyachiligi, qissachiligi va romanchiligi masalalarining muhim qirralari tadqiq qilindi. Jumladan, «Hikoyada hayot nafasi» maqolasida hikoyachiligimizning taraqqiyot tarixiga nazar tashlanadi; oʻzbek hikoyachiligidagi dalillash sanʼati, muallifning ichki dunyosi, yangi qahramon va hikoyadagi yangilanish jarayonlari; umuman, janriy takomili haqida muhim ilmiy fikrlar, umumlashma xulosalar ilgari suriladi. Ayniqsa, dalillash sanʼati bilan bogʻliq badiiy mahorat sirlarini oʻrganishga alohida eʼtibor berildi.

Shu maqsadda A.Qahhor, Said Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, Oʻ.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev kabi adiblarning hikoyalarini keng tahlil qiladi, usul va uslublarni oʻzaro qiyoslaydi. U.Normatov hikoyadagi dramatik asos masalasiga jiddiy eʼtibor beradi: «Hikoyaning muvaffaqiyati koʻp jihatdan dramatik asosga bogʻliq, — deb yozadi munaqqid. — Janr rivojidagi yangiliklar hayotiy ziddiyatlar ifodasida ham namoyon boʻlayapti. Maʼnaviy axloqiy masalalarga eʼtiborning ortishi intellektualizmning chuqurlashishi, analitik tasvirga moyillikning kuchayishi oqibati boʻlsa kerak, hozirgi yaratilayotgan koʻpchilik hikoyalar xarakterning ruhiy dramasi asosiga qurilgan: toʻgʻri, qator hikoyalarda bir-biriga zid, qarama-qarshi gʻoyalar, mayllar, xilma-xil tabiatli personajlar toʻqnashadi, xarakter bilan muhit orasidagi ziddiyat baʼzan gʻoyat keskinlashadi, lekin mualliflarni oʻsha toʻqnashuvlar jarayoni emas, ularning oqibati, shu ziddiyatlar tufayli qahramonlar hayotida, shaxsiyatida, ruhiyatida yuz bergan dramalar qiziqtiradi»¹. Bu fikrlar adabiy jarayonda oʻzbek hikoyachiligining yuksalishiga salmoqli taʼsir koʻrsatdi.

«Qalb inqilobi» (1986), «Qodiriy bogʻi» (1996), «Oʻtkan kunlar hayrati» (1999) singari tadqiqotlari zamonaviy oʻzbek adabiyotshunosligining yutuqlaridan biri deb eʼtirof etildi. Olim adbiyotda paydo boʻlgan yangi adabiy-estetik tamoyillarni aniqlash, hozirgi adabiy jaryonning nazariy muammolarini tadqiq etishga ham eʼtibor qaratdi. «Umidbaxsh tamoyillar» (2000), «Tafakkur yogʻdusi» (2002) kitoblari, eʼlon qilingan yuzlab adabiy-tanqidiy maqollarida ayni shu muammolarni tadqiq etdi.

¹ Normatov U. Nasrimiz ufqlari. — T.: 1974, 32-bet.

Munaqqid «...o'zbek nasri tamoyillarini izchil tahlil qiladi, uning taraqqiyot xususiyatlarini zukko olim nigohi bilan kuzatdi. Bunday zohiriy sifatlarni asos bilgan sharhchilar Umarali akani «nasr munaqqidi», «epik tanqidchi» kabi tamsillar bilan siylaydilar. Biroq yozganlarini sinchiklab kuzatgan kitobxon nasr barobarida o'zbek nazmining ustuvor xususiyatlarini sarafroz qilgan, Cho'lpondan Bahrom Ro'zimuhammadgacha XX asrning tiniq shoir va shoiralari haqida go'zal taqriz va maqolalar yaratgan olim ekanini yaxshi payqaydilar»¹.

Haqiqatan ham olim adabiy tanqidning barcha janrlarida sermahsul ijod etdi.

Adabiy-tanqidiy suhbat janri rivoji yo'lida. Umarali Normatov o'zbek tanqidchiligining janrovii rang-barangligini boyitish yo'lida astoydil izlanishlar olib boruvchi peshqadam ijodkordir. U taqriz, adabiy-tanqidiy maqola, adabiy portret, monografik tadqiqotlar qatorida adabiy suhbat va bahs janrlarida ham qizg'in ijod etayotir. Qolaversa, u, hozirjavob ijodkor-tanqidchi sifatida o'zbek tanqidchiligiga suhbat shaklini (ba'zan dialog deyiladi) izchil ravishda olib kirdi.

Munaqqidning «Talant tarbiyasi» kitobi iste'dodli o'zbek yozuvchilari bilan ijod va mahorat sirlari haqida bevosita muloqoti, bahs-suhbati negiziga qurilgan. Tanqidchining A.Muxtor, O.Yoqubov, P.Qodirov, Mirmuhsin, Said Ahmad, H.G'ulom, X.To'xtaboyev, Erkin Vohidov, O'.Hoshimov, U.Hamdani, H.Boltaboyev, E.Ochilovlar bilan suhbatlarida ijodkor olamiga, laboratoriyasiga chuqur kirib boriladi, ular qalbidagi ijodiy dardlar ochiladi, tajribalar umumlashtiriladi va o'quvchilar uchun ibratli xulosalar chiqariladi. Tanqidchi va yozuvchi bahsida, san'atkorlarning ma'naviy olami, badiiy adabiyotning ijtimoiy burchi, hayot bilan aloqasi kabi muhim muammolar yoritiladi.

Suhbatlar asosida yuzaga kelgan «Talant tarbiyasi» o'zbek tanqidchiligidan nashr etilgan badiiy mahoratga doir kitoblarning birontasiga ham o'xshamaydi: unda tanqidchi ijod, mahorat sirlari haqida bevosita ijodkorlarning o'zlari — turli avlodga mansub yozuvchilar bilan suhbat olib boradi. Ayni paytda, kitobda yosh, iste'dodlar tarbiyasi, ijodi, umuman, hozirgi adabiy jarayon bilan bog'liq muhim masalalar tahlil etiladi.

¹ Boltaboyev H. Zamon bilan hamnafas // O'TA, 2011, № 2. 6-bet.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov bilan olib borilgan suhbat mavzusi «talant tarbiyasi» haqida. Tanqidchi suhbatlarining aksariyatini mana shu muammolar birlashtirib turadi. Kitobning mantiqan «Talant tarbiyasi» deb nomlanishi ham shundan.

Tanqidchini, avvalo, talant, iste'dod, ularni tarbiyalash, hozirgi kunda talantli ijodkorlarga munosabat kabi masalalar qiziqtiradi. Shuning uchun «badiiy talant tug'ma bo'ladi, agar odamda badiiy ijodkorlik xislatlari bo'lmasa, uni tarbiyalash, o'qitish yo'li bilan hosil etish aslo mumkin emas.

Biroq shu tug'ma talantning, kishidagi iste'dod qirralarining ochilishida tevarak-atrofdagilarning, muhit, sharoitning roli juda katta» ekanligini ta'kidlar ekan, tanqidchini ba'zida chinakam iste'dodlarning ochilmay qolib ketishi, ba'zida shunchaki havas yo'liga kirib ketishi, «o'rtacha» ijodkorlarning ko'payib borayotganligi, bular esa adabiyotning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi tashvishlantiradi. Talantlarga munosabat bildirish tanqidchilikning vazifasi deb hisoblaydi munaqqid.

Shundan keyin suhbat kompozitsiyasidagi o'ziga xoslik-tanqidchining lirik chekinish qilishi uning qiziqarli va obrazli bo'lishini ta'minlagan: Oybek bilan Maqsud Shayxzoda klassik she'riyatimizni juda chuqur bilganlar. Umr bo'yi uni tadqiq va targ'ib etganlar. Lekin Oybek va M. Shayxzoda she'riyatida mumtoz adabiyot an'alaridan ko'ra rus va jahon realistik she'riyati tajribalariga moyillik kuchliroq.

Bu xususiyat G'.G'ulom she'rlarida ham ko'zga tashlanadi. E. Vohidovning barmoqdagi asarlarida ham shunday. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: aruz mumtoz she'riyat an'alarini bevosita davom ettirishga undasa, barmoq va sarbast ularni ijodiy realistik asosda qayta o'zlashtirishga yo'l ochadi. Shoir ham bu fikrni tasdiqlab, ijodiy o'rganish, an'analarni davom ettirish xilma-xil ko'rinishda sodir bo'lishini, ularni bir qolipga solish mumkin emasligini inkor etmaydi.

Bunday suhbatlar badiiy adabiyot uchun ham, adabiy tanqid uchun ham va, ayniqsa, yoshlar uchun aniq va tiniq mahorat maktabidir. Bunday suhbatlar shoirning ham, munaqqidning ham ijodiy laboratoriyasiga olib kiradi, ularning badiiy olami sirlaridan voqif etadi.

Adabiy suhbatning shakli-shamoyiliga kelsak, unda turli xotiralardan misol keltirish, fikr va taxayyulni erkin qo'yish uning jonli va qiziqarligini ta'minlaydi; bu kabi suhbatlar adabiyot muxlislari, boshlovchi ijodkorlar uchun ilmiy-ma'rifiy jihatdan qimmatlidir.

Yuqorida tilga olingan suhbatlarning ko'pchiligi 70-yillar mahsuli, shu bois unda davlat, hukumat qarorlari, sho'ro mafkurasi, partiya ko'rsatmalari bilan bog'liq fikrlar ham oz emas. Lekin bizga suhbatning bu jihatlari emas, undagi ilmiylik, ma'rifiylik, badiiylik jihatlari qimmatlidir.

«Ijodkorning daxlsiz dunyosi» (2008) munaqqid sevgan va ko'p murojaat qilgan adabiy suhbatlardan tashkil topgan. Aslida yuqorida ta'kidlaganimizdek, XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek tanqidchiligida bu janrning shakllanishi va rivoji, yetakchi janrlardan biriga aylanishida U.Normatovning hissasi katta. Qalamkash hamkasblari e'tirof etganidek, «milliy adabiyotimiz va adabiyotshunosligimizda keyingi yil davomida hech kim bunchalik ko'p va xo'p suhbat yaratmagan.» Umarali Normatov adabiy suhbatlarida davr adabiy badiiy tafakkurining takrorlanmas belgilari aks etgan. Bu suhbatlar davr adabiy hayoti, adiblar tarjimai holi, ular qarashlarining takrorlanmas qimmatli hujjatlaridir...Ularda adiblarning o'ziga xos qarashlarigina emas, tanqidchi Umarali Normatovning prinsiplari, axloqi, ijodkor sifatidagi qiziqishlari aks etadi»¹.

Bu suhbatlarda adabiy jarayon, ijodkorning daxlsiz dunyosi, qator mashhur asarlarning ijodiy tarixi, sir-sinoati, badiiyat qirralari ochilgan. Shu bilan birga haqiqatan ham ularda faqat adiblarning poetik dunyosi emas, munaqqidning o'z dunyosi, tabiati, fe'l-atvori, ijodkor sifatidagi qiziqishlari ham aks etgan. Binobarin, bu suhbatlar davr adabiy hayoti, tarjimai holi, jonli adabiy tafakkurdagi tovlanishlarning qimmatli hujjatlari sifatida qadrlidir.

Munaqqid va adabiy jarayon. «Umarali Normatovning adabiy tanqidchi sifatida muhim fazilati uning adabiy jarayonga faol aralashishidir, undagi yangiliklardan samimiy quvonishi va adabiyotimiz taraqqiyoti uchun astoydil qayg'urishidir»². Chindan ham munaqqid yangi asarning yaratilish jarayonini muttasil va tizimli ravishda kuzatib horadi. Mana deyarli yarim asrdan buyon o'zbek adabiyotida og'izga tushgan birorta asar yoxud adabiy jarayonga kirib kelgan shoir, yozuvchi yo'qki, U.Normatov ular haqida taqriz, maqola, kitoblarida u yoki bu darajada munosabat bildirmagan bo'lsin, ular haqida o'zining mustaqil fikrlarini aytmagan bo'lsin. E'tiborli, yangi asar

¹ *G'afurov I.* Muhabbatli odamning hayratlari / Normatov U. Ijod sehri. — T.: 2007, 11-bet.

² *Mamajonov S.* Teranlik. — T.: 1989. 112-bet.

bosilib chiqqach, u birinchilardan bo'lib, fikr aytishga shoshiladi. Albatta, yangi asar haqida birinchi so'z aytish oson ish emas. Birinchi so'zni kitobxon qanchalik sabrsizlik bilan kutsa, muallif ham shunchalik intiqlik bilan kutadi.

Umarali Normatov o'nlab yangi asarlar haqida birinchi bo'lib fikr aytgan tanqidchilardan hisoblanadi. Bularda u yozuvchi kashfiyotini teran ilg'ab oldi va ehtiros bilan tashviq etdi, kerak o'rinlarda tanqidiy mulohazalarini bildirdi.

X.To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asari paydo bo'lganda, u yosh yozuvchi ijodigina emas, balki, umuman, o'zbek adabiyotida muhim ijobiy hodisa ekanligini birinchilardan bo'lib dadil va ishonch bilan aytdi. Hozir bu asar jahon xalqlarining 26 tiliga tarjima qilingani va shuhrati tobora keng yoyilayotgani tanqidchining ilk fikrlari adolatli bo'lganini tasdiqladi.

Munaqqidning yana bir fazilati — adabiy jarayondagi yangi tamoyillarni sezishi va ular haqida ham birinchi bo'lib mulohaza yuritishga oshiqshidir. Butun bir jarayonni kuzatib, o'rganib, uni bor bo'yi bilan talqin qilish oson emas.

U.Normatov zamonaviy o'zbek adabiyotini o'rganganda unga jahon adabiyotining taraqqiyot tamoyillari mezoni bilan yondashishga harakat qiladi. «To'g'ri, ba'zan u rus adabiyotidagi ba'zi tendensiyalarni o'zbek adabiyotidan zo'rma-zo'rakilik bilan qidirib topishga va shunday qilib, sun'iylikka yo'l qo'yadi», deydi S.Mamajonov yuqorida eslatilgan kitobida.

Lekin bularni yaxshi niyat yo'lidagi izlanishdan kelib chiqqan ta'sirlanish deb ham baholash mumkin.

U.Normatovning izlanuvchanligi adabiyotning yangi-yangi muammolarini dadil ko'tarib chiqishida va bu ularni qiziqarli tahlil qilish yo'llari, usullarini topishga intilishida ko'rinadi. Yozuvchilar, ilmiy jamoatchilik, adabiyot ixlosmandlari orasida olimning maqolalari katta nufuzga ega. Buni tubandagi e'tiroflar tasdiqlaydi: «U hozirjavob munaqqid. Biror adabiy faktni nazaridan tushirib qoldirmaslik uchun harakat qiladi. U mehnatkash, fikrlari baquvvat, aksariyat paytlarda asosli. Ifodada esa fikrlari jonli»¹.

M.Qo'shjonov, ayni vaqtda, U. Normatov ishlarida ba'zan adabiyotshunoslikda bor fikrlarni takrorlashga yo'l qo'yiladi deb tanqid qiladi. Bunday kamchiliklar uning keyingi tadqiqotlarida barham topdi.

¹ Qo'shjonov M. Qalb va qiyofa. — T.: 1978, 63-bet.

U. Normatov hamisha badiiy adabiyot va adabiy tanqidchilikning yuksak saviyasi uchun kurash olib bordi, nasr, she'riyat va dramaturgiyadagi eng muhim tamoyillarni o'z vaqtida ilg'ay ola bilib, o'rtamiyona asarlarni ro'y-rost tanqid qildi. Uning «Go'zallik bilan uchrashuv» (1976) asari fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi.

XX asrning 80-yillarida metod va hozirgi adabiy jarayon muammolarini ilmiy va ko'lamlil tarzda tadqiq etishga intilish kuchaydi. Munaqqidning «Yetuklik» va «Qalb inqilobi» kitoblari ana shu talablar asosida dunyoga keldi.

«Yetuklik» kitobi O. Sharafiddinovning «Umarali Normatov haqida bilganlarimdan bir shingil» sarlavhali so'zboshisi bilan ochiladi. Unda munaqqid faoliyatiga xos hozirjavoblik, san'atkor shaxsini hurmatlash, ilmiy chuqurlik kabi fazilatlar samimiyat bilan ko'rsatiladi.

Kitobdagi maqolalar janr xususiyatlariga ko'ra uch katta bo'limga joylashtirilgan. Birinchi bo'limga hozirgi adabiy jarayonning yetakchi tamoyillari haqidagi muammoli maqolalar kiritilgan, ikkinchi bo'limni alohida asarlar yoki ayrim yozuvchilar ijodini tahlil qilishga bag'ishlangan maqolalar tashkil etadi; uchinchi bo'lim esa, muallifning o'zbek yozuvchilari bilan qilgan adabiy suhbatlaridan iborat.

Yuqoridagi har ikkala kitobdagi maqolalar o'zbek tanqidida g'oyaviy-falsafiy teranlik ortayotgani, yangilikka, umumlashmalar yaratishga intilish kuchayayotgani, janrlar doirasi kengayayotgani, uslublar rang-baranglashayotgani hamda munaqqidlarning ixtisoslik saviyasi, mahorati yuksalib borayotgani haqida yaqqol tasavvur beradi.

U. Normatovning munaqqidlik mahorati takomillashib borayotgani «Qalb inqilobi» kitobida bo'rtib ko'rinadi. Chuqur ramziy ma'noga ega bu kitob respublikamizning Hamza nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi (1989).

U. Normatovning Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor ijodlari haqidagi tadqiqotlari, maqolalari adabiy jarayonda o'ziga xos o'rin tutadi. Chunonchi, A. Qodiriyning «Obid ketmon» asari haqidagi «Orttirmay va kamitmay» degan maqolasi 90-yillar o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida ham, qodiriyshunoslikda ham badiiy asarga yangicha yondashuv namunasi bo'ldi. «O'tkan kunlar» hayrati» deb nomlangan qo'llanma umumta'lim maktablari adabiyot o'qituvchilari va yuqori sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, unda o'zbek adabiyoti dasturi va darsligidagi Abdulla Qodiriyga oid, ayniqsa, adibning shoh asari «O'tkan kunlar» romani, uning ijodiy tarixi, yangi o'zbek adabiyoti rivojidagi o'rni haqidagi ma'lumotlar ancha yangilandi. Bu risolaning

«hamiyati shundaki, unda A.Qodiriy ijodiga mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan baho beriladi. Asar va uning qahramonlari haqidagi yangicha talqinlar o'quvchilarni Qodiriy romanlarini qaytadan o'qishga chorladi. Olim «O'tkan kunlar» romani bilan o'zbek adabiyotining obrazlar, xarakterlar silsilasida yangi davr boshlanganligini hazrat Navoiyning ijodiy jasorati bilan qiyoslaydi. Kitobning «Qismat va jasorat», «Otaga ta'zim» bo'limlaridagi izlanishlar qahramonlar talqinining yangi bosqichga ko'tarilayotganidan darak beradi. Olimning A.Qodiriy haqidagi izlanishlarini umumlashtirgan «Qodiriy mo'jizasi» kitobi istiqlol davri o'zbek adabiyotshunosligi va qodiriyshunosligini boyitishda muhim rol o'ynadi.

U.Normatov mustaqillik davri adabiy jarayonini muttasil va sinchkovlik bilan kuzatib, salmoqli tadqiqotlarini e'lon qildi. «Umidbaxsh tamoyillar» deb nomlangan risolasida, «Ijod sehri» kitobida buni yaqqol ko'rish mumkin.

«Universitet saboqlari va ilhomlari» deb nomlangan maqola (2007) A.Qahhor tavalludining 100 yilligi munosabati bilan yozilgan. Unda adibning shaxs va ijodkor sifatida shakllanishida hayotiy ma'naviy omillar qatorida u ta'lim olgan muhit, ustozlar ta'sirining o'rniga e'tibor qaratiladi. «Ustoz ibрати» risolasi, «Qahhorni anglash mashaqqati» kitobi yozuvchi ijodi, shaxsi, shijoati, asarlarining ijodiy tarixi, bahslarga sababchi bo'lgan asarlari haqidagi yangicha qarashlar, mushohadalarga undovchi xulosalarga boyligi bilan e'tiborni tortadi. Ayni paytda, bu kitob shogirdning ustozga chinakam ehtiromi hamdir.

Istiqlol mutaxassislar oldiga barcha fanlar, xususan, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlar bo'yicha yangi tuzum talablariga javob bera oladigan darslik, qo'llanmalar yaratishdek muhim sohada ham U. Normatov faolligini namoyish etdi. U N.Karimov va B.Nazarovlar bilan hammualliflikda 11-sinf uchun «XX asr o'zbek adabiyoti» darsligini yaratdi. Unda milliy uyg'onish davrining buyuk namoyandalari ijodi mustaqillik g'oyalari ruhida talqin etildi. 9-sinf uchun yaratilgan adabiyot darsligining mualliflaridan biri ham U.Normatovdir. Universitetlar va pedagogika institutlari talabalari uchun yozilgan «XX asr o'zbek adabiyoti tarixi» darsligi ham O.Sharafiddinov, N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov va U.Normatov hamkorligida yaratildi.

Olimning, ayniqsa, yangi ruhdagi adabiyot va uning rivoji, modernizm haqidagi maqolalari yosh tanqidchilarga o'rnak bo'larlidir. Masalan, adabiyotshunos E.Ochilov bilan bo'lgan ilmiy-adabiy

muloqoti «Tanqid, munaqqid va hozirgi adabiy jarayon» (2004) deb nomlangan. Unda hozirgi adabiy jarayon va undagi muhim o'zgarishlar ochiladi. Adabiyotdagi modern hodisasi, she'riyat, adabiy tanqidning o'zaro munosabati, ularning hozirgi jarayondagi ahvoli haqidagi har ikkala munaqqid fikrlari jamoatchilikning e'tiboriga tushdi.

H. Boltaboyevning («Jahon adabiyoti», 2008, mart) U. Normatov bilan qilgan «Yangi nazariy tamoyillar» deb nomlangan suhbatida adabiyotdagi yangilanishlar, adabiyotshunoslikka turli oqim va metodlarning kirib kelishi, ularning ijobiy tomonlari haqida qimmatli fikrlar o'rtaga tashlanadi.

U. Normatov «postmodernizm», «sinergetika» kabi hodisalarga ham o'z munosabatini bildiradi. «Prezidentimiz tashabbusi bilan hozir bizda butun mamlakatni, jamiyatni modernizatsiyalash jarayoni ke-tayotgan, bu borada ham jahon andazalariga mos keladigan darajaga ko'tarilish vazifasi qo'yilgan ekan, adabiyotshunoslar bu qutlug' harakatdan chetda turolmaydi», deb ta'kidlaydi. Modernizm, postmo-dernizm, absurd haqidagi U. Normatovning ayrim qarashlari bahslarga ham uchradi, ba'zan qarashlari tanqid qilindi.

Olim so'nggi yillarda yanada faollashdi. 2006-yil E. Vohidov ijodi haqida «Ko'ngillarga ko'chgan she'riyat» nomli chiroyli risola e'lon qildi. «Ijod sehri» (2007), «Ufqlarning chin oshig'i» (2008), «Ijod-korning daxlsiz dunyosi» (2009), «Nafosat gurunglari» (2010), «Qodiriy mo'jizasi» (2010) kitoblarini chop ettirdi.

«Ijod sehri»da adabiy jarayonni estetik talqin etishning norma-tovcha yo'lini kuzatish mumkin. Undagi maqolalarda jarayon va asarlarga baho berishda munaqqid pafosi, ayniqsa, lovillab turadi. «Ufqlarning chin oshig'i» kitobi esa O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad hayoti va ijodi talqiniga bag'ishlandi. Munaqqid uzoq yillar mobaynida adib haqida ko'plab taqriz, maqola, adabiy portret va boshqa janrdagi asarlar yaratdi. Mazkur kitob ana shu izlanishlar umumlashmasi sifatida adib ijodini yaxlit o'rganishga katta yordam beradi.

Olim O'zbekiston Respublikasi Xalq maorii a'lochisi (1992), «ToshDU mohir pedagogi» unvoni (1998) sohibi sifatida yurtimizda ilmiy salohiyatni oshirishda tinmay izlanib kelmoqda.

Tayanch tushunchalar: romantizm tamoyillari, nasr taraqqiyoti, go'zallik bilan uchrashuv, hikoyada hayot nafasi, izlanuvchan va faol munaqqid, nasrimiz ufqlari, talant tarbiyasi, roman va zamon, qissalar poetikasi, adabiy hamkorlik, modernizm, milliy mustaqillik tafakkuri.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *U. Normatov hayoti va ijod yo'li haqida nimalar bilasiz?*
2. *Munaqqidning o'zbek nasrini rivojlantirishdagi xizmatlari haqida gapiring.*
3. *«Nasrimiz ufqlari» asarining o'ziga xosligi nimada?*
4. *Munaqqidning adabiy portretlari haqida so'zlang.*
5. *Tanqidchining A. Qodiriy va A. Qahhor ijodiga oid yangicha kuzatishlari nimalarda namoyon bo'lgan?*
6. *Olimning o'zbek adabiy tanqidi tabiatiga oid tadqiqotlari haqida so'zlang.*



BAXTIYOR NAZAROV. 1945-yil 17-sentabrda Toshkentda tug'ilgan olim dorilfunun- (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning filologiya fakultetini tugatib, 1966-yildan Yuqori Chirchiq tumanida o'qituvchilik qildi. O'zbek ensiklopediyasi tahririyatida ilmiy muharrir bo'lib ishladi. 1969–1972-yillarda O'zbekiston RFA Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil oldi. Shundan beri uning butun faoliyati shu institutda kechmoqda.

U bu yerda kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, ilmiy kotib, institut direktori lavozimlarida samarali faoliyat ko'rsatdi. Hozir

mazkur institut Adabiy aloqalar va Adabiyot nazariyasi bo'limi mudiridir. Ma'lum muddat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisi (1990–1992), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari (1992–1994), O'zR FANing vitse-prezidenti (2000–2001) kabi yuksak lavozimlarda ishladi.

B. Nazarov mehnatlari Oybek adabiy-tanqidiy qarashlari tadqiq etilgan nomzodlik (1972), o'zbek adabiy tanqidi metodologiyasi muammolari o'rganilgan doktorlik (1984) dissertatsiyalari himoya qilinishida, professor (1994) ilmiy unvoni berilishida, O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi (1989), haqiqiy a'zosi (2000) etib saylanishida e'tiborini topdi.

B. Nazarov ilmiy qiziqishlari hozirgi adabiy jarayon, XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, nazariyasi, adabiy tanqid masalalariga qaratilgan. Uning «Bu sehrlı dunyo», «Hayotiylik – bezavol mezon», «O'zbek tanqidchiligi. G'oyaviylik. Metod. Qahramon» singari o'nga yaqin

monografiya va risolalarida, tanqid tarixiga doir ishlarida Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor estetik qarashlari badiiy ijod, adabiy tanqid va adabiy jarayonning chambarchas aloqadorligida, qozoq, qirg'iz, tatar, ozarbayjon adabiyotlari bilan qiyosiy o'rganildi.

U ikki jildlik «O'zbek adabiy tanqidi tarixi», uch jildlik «Adabiy turlar va janrlar» kabi tadqiqotlar, 20 jildlik Oybek «Mukammal asarlar to'plami»ni tayyorlashda faol ishtirok etdi.

B.Nazarov mamlakatimiz ilmiy hayotidagi dolzarb masalalar yechimida faol ishtirok etishga intiladi. U o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish xususidagi qonun loyihasini tayyorlashda faol qatnashdi. Fitrat va Cho'lpon ijodi yuzasidan xulosa tayyorlash komissiyasiga rahbarlik qildi.

Amerika Qo'shma Shtatlari Indiana universitetida ma'lum muddat dars berdi. AQSH (1987, 1990, 2003), Germaniya (1975, 1988, 1990), Turkiya (1992, 1993, 1994), Norvegiya kabi qator xorijiy mamlakatlardagi ilmiy anjumanlarda qatnashdi.

Maqolalari AQSH, Polsha, Belorussiya, Qozog'iston, Rossiya ilmiy nashrlarida chop etilgan.

Mustaqillik yillarida Amir Temur, Xorazmiy, Farg'oniy, Moturidiy, Jaloliddin Manguberdi, «Alpomish», Buxoro va Xiva shaharlari yubileylariga bag'ishlangan xalqaro anjumanlarning tashkiliy tadbirlarida faol ishtirok etdi.

Uning bu xizmatlari Xalqaro Oltoyshunoslik konferensiyasi (RIAK)ning komissiya a'zosi, Turkiyadagi Turk tili Qurumining muxbir a'zosi etib saylanishiga olib keldi.

B.Nazarov ilmiy tashkiliy faoliyatini jamoatchilik ishlari bilan qo'shib olib boradi. O'zR FA Til va Adabiyot instituti hamda O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi adabiyotshunoslik bo'yicha ixtisoslashgan kengash raisi va a'zosi, O'zR FA qoshidagi adabiyotshunoslik bo'yicha Respublika ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengash raisi, Sharqshunoslar assotsiatsiyasi prezidiumi a'zosi, «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali bosh muharriri va tahririyat a'zosi, «Sovetskaya tyurkologiya» jurnali tahrir hay'ati a'zosi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, adabiyotshunoslik va tanqid kengashi raisi sifatida turli yillarda o'z zimmasiga yuklatigan vazifalarni halol va vijdonan bajarib keldi hamda bajarmoqda.

Uning ilmiy rahbarligida 6 fan doktori, 20 yaqin fan nomzodi tayyorlandi.

Adabiy tanqid tabiatining tadqiqotchisi. Munaqqid tajribalari shakllanishida uning o'zi tomonidan ma'lum bir qismlari o'zbek tiliga o'girilib chop etilgan L.N.Tolstoy qalamiga mansub «San'atning mohiyati to'g'risida» maqolasi, N.G.Chernishevskiyning «San'atning voqelikka estetik munosabati» nomli tadqiqoti, G.E.Lessingning «Laookon yoxud tasviriy san'at ila she'riyatning hadlari haqida» asari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ilmda endi oyoqqa turib kelayotgan adabiyotshunos bu ishlardan badiiy ijodning nazariy va amaliy muammolari aro bog'lanish sirlarini aniqlash mahoratini o'rganishga harakat qildi.

Olim ijodida o'zbek adabiy tanqidi tarixi, uning tug'ilishi va shakllanishi, adabiy-tanqidiy jarayon, tanqidning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tadqiq etish yetakchi o'rinni egallaydi. Bu yo'nalishda «O'zbek adabiy tanqidchiligi: g'oyaviylik, metod, qahramon» (1979), «Ikkinchi jahon urushi davri o'zbek tanqidchiligi» kabi salmoqli ilmiy tadqiqotlar yaratdi.

Olim tanqidchilik va adabiyotshunoslikka Oybek adabiy-tanqidiy va estetik qarashlarini o'rganish bilan kirib keldi. Dastlab «Badiiy asarda peyzaj» (1967), «O'tmishimiz ko'zgu» (1968), «O'tkan kunlar nemis tilida» (1969) singari taqriz va maqolalari bilan ko'ringan yosh adabiyotshunos 1969-yildan e'tiboran Oybek haqida «Oybek siymosi», «Oybek estetik qarashlarining shakllanishiga doir», «Oybekning unutilgan bir maqolasi» kabi bir turkum maqolalar e'lon qildi. Ularda adibning amaliy ijodidan chiqargan ilmiy xulosalari hamda nazariy qarashlarining o'z badiiy ijodiga ko'rsatgan ta'siri o'rganildi. Bu izlanishlar natijasi o'laroq «Bu sehrli dunyo» (1980) kitobi yuzaga keldi.

B. Nazarov tanqidchi mahorati muammolarini tadqiq etishga e'tibor qaratadi. O'zbek tanqidchiligida sifat o'zgarishlari ro'y berayotgani, tanqid adabiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatishga intilishi, shu bilan birga tanqidchi mahoratining o'sib borishi yaqqol ko'zga tashlanayotgani, adabiy tanqid janrlarida rang-baranglik sezilayotgani atroflicha tahlil qilindi. Bu yo'nalishda uning «Adabiyotshunosligimiz va tanqidchiligimiz yangi bosqichda», «Badiiy asar qalbi va tanqidchi dunyosi», «Yosh tanqidchilarni tarbiyalash muammolari» singari maqolalari maydonga keldi. «Olim madaniyati» (1977) risolasi tanqidchining fikrlash madaniyatiga bag'ishlangan. «Navqiron she'riyat», «Tanqid va she'riyat» «Aks-sado to'lqinlari», «Qorachiqa singgan chehralar» kabi taqriz va maqolalarida A.Oripov, R.Parfi, H.Xudoy-

berdiyeva, S.Barnoyev kabi shoirlar ijodi tahlil etildi. «Hayotlilik-bezavol mezon» (1985) kitobida badiiylikning hayotlilik bilan aloqadorlikdagi muammolarini o'rganishga qaratildi.

Olim tanqidchi mahorati, uslubini o'rganar ekan, I. Sulton va H.Yoqubov, M.Qo'shjonov va O.Sharafiddinov, S.Mamajonov va L. Qayumov, N.Xudoyberganov va U.Normatov, I.G'afurov va P. Shermuhammedov maqolalarini o'zaro qiyoslaydi, uslub jihatdan ularni bir-biridan ajratish qiyin emasligini ko'rsatadi. M.Qo'shjonov ijodida shakl va mazmun birligi, O.Sharafiddinov maqolalarida estetik tahlil, L.Qayumov ishlarida asarning hayotiy asoslari, S.Mamajonov tadqiqotlarida poetik mahorat masalalariga alohida e'tibor berilishini ko'rsatdi.

Istiqlol arafasida B.Nazarovning Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat va Cho'lpon ijodi haqida yangi maqolalari maydonga keldi. Ularda munaqqid qatag'on qurbonlari ijodini o'rganishning yangicha usullari, asarlar baholanishidagi yangi mezonlar to'g'risidagi mulohazalarini o'rta taqda tashladi. Olimning «Muxtor Avezovning jahon adabiyotida tutgan o'rni», «Chingiz Aytmatov», «Markaziy Osiyo xalqlari adabiyoti taraqqiyotida To'lepbergan Qayipbergenov ijodining ahamiyati», «Qoraqalpoq she'riyatining shakllanish va taraqqiyot jarayonlari», «Maxtumqulining zamonaviyligi» maqolalarida qardosh xalqlar adabiyotining dolzarb masalalari va ularning o'zbek adabiyoti bilan uyg'unlik jihatlarini tadqiq etildi.

Istiqlol talablariga javob bera oladigan darsliklar yaratish sohasida ham B.Nazarov faollik ko'rsatdi. N.Karimov, U.Normatov, B.Nazarov hammuallifligida maktab o'quvchilari uchun yaratilgan «XX asr o'zbek adabiyoti» darsligi adabiyot faniga yangicha yondashuvning namunalariidan biri bo'lib qoldi. Bir guruh olimlar tomonidan 9-sinf uchun yaratilgan adabiyot darsligining mualliflaridan biri ham B.Nazarovdir.

Tanqidchi uslubi haqidagi mushohadalar. Olimning «O'zbek adabiy tanqidchiligi. G'oyaviylik. Metod. Qahramon» (1979) deb nomlangan yirik monografik tadqiqotida sho'ro davridagi qarashlar, ayrim nazariy cheklanishlar, muammo va badiiy asarga makuraviy yondashuvlar sezilib turadi; lekin sog'lom dunyoqarash asosidagi izlanishlarda o'zbek adabiy tanqidining shakllanishi, taraqqiyoti g'oyaviylik, qahramon, ijodiy metod masalalarini o'rganish aspektida tekshiriladi. O'zbek adabiy tanqidining rivojlanish yo'llari, uning muhim muammolari yaxlit va umumlashgan holda tadqiq etilishi jihatidan mazkur

tadqiqot mohiyat e'tibori bilan adabiyotshunoslik tarixidagi o'z o'rniga egu tadqiqotlardan biridir.

B.Nazarov o'z ijodida adabiy portret janriga ham diqqatini qaratdi. Adabiy portret nazariyasi haqidagi mulohazalarini to'ldirib, yozuvchi va tanqidchilar haqida adabiy portretlar yaratdi.

Olimning «Olimning madaniyati» adabiy portreti ham samimiy va qiziqarli uslubda yozilganligidan tashqari munaqqid ijodining tahlili shaxsiyati bilan bog'lab tadqiq etilganligi jihatidan kitobxon diqqatini jalb etadi. Olim H.Yoqubov ijodiga xos bosiqlik, izchil mantiqqa suyanish, prinsipiiallik, chuqur samimiyatning sirini uning shaxsiyatidan izlaydi. H. Yoqubovni inson va olim sifatidagi qiyofasini tasvirlar ekan, hikoyanavisning sodda, ravon uslubiga o'xshash bayon uslubidan foydalanadi. Natijada ko'z oldimizda o'zbek olimlari karvonboshilaridan birining yorqin va sidqidildan chizilgan obrazi yaratiladi. Umuman, ikkala asarda ham tanqidchining bir butun to'liq qiyofasini yaratishga harakat qilinganki, shu jihatdan ular adabiy portret janri talablariga javob beradi.

«She'rlari — oq to'shli qaldirg'och», «Mehr mavjlari», «Olmalar besabab to'kilmaydi», «Shukronalik» nomli maqola va taqrizlarida O'zbekiston xalq shoiri Shukrullo ijodining nozik qirralari, poetik obraz yaratish san'ati tahlil etildi. «Mehr kuychisi» deb nomlangan ijodiy portretida esa shoir ijodi yaxlit holda tadqiq etildi. Ijodiy portret o'ziga xos kirish so'zlari bilan boshlanadiki, ular, birinchidan, obrazlilik bilan kitobxon diqqatini o'ziga tortadi. Ikkinchidan, shoir Shukrullo ijodiga qiziqishni oshiradi. Samimiyat, beoromlik, o'zgalar dardiga befarq, loqayd qaray olmaslik, tanigan va tanimagan zamon-doshining hasratu quvonchlarini chuqur his qila bilish shaxs sifatidagi Shukrulloning tabiatidan ijodkor sifatidagi Shukrullo asarlariga nur bo'lib o'tishini olim ehtirom bilan yozadi.

Umuman olganda, asarda shoir ijodiga, asarlari va shaxsiga katta hurmat bilan qarash tuyg'usi ijodiy portretning bosh mohiyatini tashkil etgan. Ijodiy portretning ahamiyati shundaki, unda shoir Shukrulloning ijodi bilan o'quvchi chuqur tanishish imkoniga ega bo'ladi. Asarning yozilishi uslubi kitobxonni o'ziga torta oladi. Bu iste'dodli olimning ijodiy portret yaratish mahoratini yorqin namoyon eta olgan tadqiqotlardan biridir.

Munaqqid va adabiy jarayon. Tanqidchi B.Nazarov adabiy jarayonni muttasil kuzatib borishga harakat qiladi. Bu yo'nalishdagi dastlabki izlanishlari Rauf Parfi ijodiga bag'ishlandi. 60-yillar oxirida uning

«Aks-sado» to'plamiga taqriz yozdi. Shoirning «Sabr daraxti» to'plami haqidagi mulohazalari ko'pchilik e'tiborini tortdi.

B.Nazarovning adabiy jarayon bilan aloqador tadqiqotlari, bir jihatdan, jarayondagi asosiy tamoyillarni ochadi, ikkinchi tomondan, shu tamoyilni shakllantirishga hissa qo'shayotgan ijodkor asarlari talqin etiladi, uchinchi, aniq yozuvchi yoki tanqidchining bu jarayondagi ijodi muayyan darajada umumlashtiriladi.

Xususan, «XX asr o'zbek adabiyotida Erkin Vohidov ijodining o'rni va ahamiyati», «Ozod Sharafiddinov ijodi va hozirgi o'zbek tanqidchiligining ilmiy-nazariy masalalari», «XX asrda Oybek ijodi o'rganilishining metodologik muammolari» hamda «G'afur G'ulom va XX asr» singari maqolalar ana shunday xarakterga ega.

Bu maqolalar adabiy jarayon masalalari bilan mustahkam bog'lansa-da, ularning har biri, ayni vaqtda, muayyan bir muammo atrofida uyg'unlashadi.

Masalan, yuqoridagi maqolalarning birinchisida E.Vohidov asarlari tufayli o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyatida paydo bo'lgan yangiliklar ko'rsatilsa, ikkinchisida, O.Sharafiddinov tadqiqotlarining ahamiyati, undagi ilg'or an'analar hamda o'zbek tanqidchiligining ilmiy-nazariy ahvoli tahlil etiladi.

Uchinchi maqola esa, Oybek ijodiga munosabat orqali yangilanayotgan o'zbek tanqidchiligining metodologik muammolari tadqiq etiladi va, nihoyat, to'rtinchi maqolada nainki XX asrning G'.G'ulom ijodiga, balki buyuk o'zbek shoiri G'.G'ulomning XX asr jahon adabiyoti, jahon madaniyati va tafakkuriga o'tkazgan ta'sirini ko'rsatishga harakat qilindi.

Kezi kelganda, olimning davra suhbatlari ishtirokchisi sifatida matbuotda e'lon qilingan maqolalari haqida ikki og'iz to'xtab o'tish o'rinli bo'lar edi. Bu borada uning «Zamonaviylik va mahorat», «Tanqid madaniyati: xollilik, dadillik, teranlik», «Tanqid va she'riyat», «Badiiy asar qalbi va tanqidchi dunyosi» kabi muammolarga bag'ishlab o'tkazilgan davra suhbatlari, ularning samaralari sifatida matbuotda e'lon qilingan materiallar aniq masalalarini ko'tarib chiqishi, jarayondagi yutuq va kamchiliklarning yorqin ko'rsatilishi bilan e'tiborni tortadi.

Bu xususiyat munaqqid faoliyatining boshlanishidan tortib, shu kunlargaacha davom etib kelayotganini ta'kidlash o'rinlidir. Xususan, «Mustaqillik davri nasri: tahlil va talqinlar», «Mustaqillik davri she'riyati: tahlil va talqinlar» mavzuida bo'lib o'tgan suhbat-

larni (2005) hamda ular asosida e'lon qilingan materiallar uning adabiy jarayonga faol munosabat bildirishga intilib kelayotganini ko'rsatadi.

Olimning bu yo'nalishdagi P.Qodirovning «Akromjonning saguzashtlari» kitobi haqidagi «Rang-baranglik», «Shu kunning badiiy ko'zguisi» va «Davr bilan hamnafas» (O.Yoqubov ijodi haqida), «Xalq mehrini qozongan adib» (O'.Hoshimov haqida), «Ko'ngil yorug'ligi» (S.Siyoyev haqida), «Adash Karvon iztiroblari» (X.Sulton) so'zboshi, taqriz va maqolalar; A.Oripov bilan suhbat samarasi sifatida e'lon qilingan. «Sevinch – dardim, bari – Vatanim» deb nomlangan material B.Nazarovning adabiy jarayonni nainki kuzatib, balki uning ichida turib faoliyat ko'rsatayotganini yana bir karra tasdiqlaydi.

B.Nazarov — ijodiy ufqi keng munaqqid. Uning ilmiy diapazoni faqat o'zbek munaqqidlari va adiblari ijodi bilangina chegaralanib qolmay, muayyan darajada jahon adabiy tanqidchilari va san'atkorlari ijodiga murojaat etishi bilan ham ajralib turadi. Olimning Sofokl ijodiga, Shekspir asarlariga, «Qutadg'u bilig»ning jahon estetik tafakkuri rivojida tutgan o'rniga bag'ishlangan maqolalari o'zbek tanqidiy tafakkuri kengliklaridan ma'lum darajada darak beradi.

B.Nazarovning XX asr ikkinchi yarmidan hozirgacha bo'lgan o'zbek tanqidchilari bosib o'tgan yo'lni chuqur tadqiq etgan ilmiy-nazariy izlanishlarning tanqid taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati salmoqlidir.

Bundan yigirma yil avval Slovakiya Fanlar akademiyasi hamda uning mashhur a'zolaridan biri Dyurishin bilan hamkorlikda; AQSHdagi Indiana universiteti professori Denis Shinar bilan hamkorlikda slovak va ingliz tillarida bu mamlakat olimlari bilan o'zbek adabiyotshunoslari hamkorligida tadqiqotlari chop etilishiga B.Nazarovning bosh-qosh bo'lgani, har ikkala to'plamda o'z maqolalari bilan ishtirok etgani uning qiyofasiga yana bir chizgi bo'la oladi.

Mustaqillik yillarida B. Nazarov yangi davrning yangi metodologik mezonlari muammosiga doir turkum tadqiqotlar e'lon qildi. Olim bu ishlarida o'zbek adabiyoti namunalariga umumbashariy mezonlar va Mustaqillik g'oyasi asosida yangicha yondashuv namunalarini ko'rsatdi. Bunday ishlar orasida «G'afur G'ulom olami» (2004) monografiyasi alohida o'rin tutadi. 2003-yilda G'.G'ulom tavalludining 100 yilligi munosabati bilan tanqidchining «XX asr va G'afur G'ulom» maqolasi nashr etilgan va unda haqli ravishda shoir she'riyatining bugungi kundagi o'rni ilmiy asoslangan edi.

«Gʻafur Gʻulom olami» tadqiqotida shoirning nafaqat sheʼriyati, balki xalqchil nasri, hajvi zukko olim nigohidan yangicha mafkura nuqtayi nazaridan oʻtkaziladi.

Yetmish besh yildirki, oʻzbek adabiyotshunosligi va tanqidi Gʻafur Gʻulom hayoti va ijodi haqida uzluksiz ilmiy izlanishlar olib boradi. Shoir ijodi turkiy xalqlar, sobiq shoʻro tarkibidagi yurtlar, oʻzga ellar adabiyotshunosligida oʻrganildi. Darvoqe, Gʻafur Gʻulom haqida ilk maqolani fransuz adibi Pol Vayyan Kutuyurye (1931), sal keyinroq Anri Barbyus yozgan (1935) edi.

Oʻzbek adabiyotshunosligi, tanqidida songa qoʻshilgan olim, munaqqid borki, Gʻafur Gʻulom haqida oʻz gapini aytgan. Masalan, Gʻafur Gʻulom ijodining nozikfahm tadqiqotchisi S.Mamajonov ilmiy faoliyatining eng katta qismini akademik shoir hayoti va ijodi haqida yozgan oʻnlab maqolalari va monografik kitoblari tashkil qiladi. Toʻgʻri, S.Mamajonov ishlariga qadar Gʻ. Gʻulom ijodi haqida oʻnlab maqolalar, adabiy-tanqidiy ocherk va monografiyalar bosilgan. Bu borada atoqli olim H.Yoqubovning qator ishlarini eslashning oʻzi kifoya. Adabiyotshunoslar H.Yoqubovdan keyin bu sohada salmoqli va hammaga maʼqul keladigan ish qilish qiyinligini qayta-qayta taʼkidlashgan. Ammo olim Gʻafur Gʻulom ijodini oʻrganish va keng tadqiq etishga kirishar ekan, shoir ijodining hali oʻrganilmagan nuqtalaridan kelib chiqib ish koʻrishga intildi. Shoir ijodi haqida qator ana shunday ilmiy baquvvat, yetuk tadqiqotlar yaratilgan boʻlsa-da, adabiyotshunoslikda B. Nazarov Gʻafur Gʻulom ijodi, uning badiiy olami haqida oʻzining ohorli soʻzini ayta oldi. «Gʻafur Gʻulom olami» kitobidagi konsepsiya, talqin, tahlil, baholashda oʻziga xoslik bor. Bu yangi tadqiqoti bilan Gʻafur Gʻulom badiiy olamining bir qancha betakror fazilatlarini namoyon eta oldi.

«Olam ichra olam. Bu mashhur soʻzlarni eslashimga akademik Baxtiyor Nazarovning «Gʻafur Gʻulom olami» nomli yangi kitobi sabab boʻldi, — deb yozadi S.Sodiq. — Kitobda muallif Gʻafur Gʻulom ijodini, shoir ruhiyati, shaxsiyatini mutlaqo boʻyalnagan, yaltiratilmagan shaklda ochib berishga intilgan. Mavzuni toʻliq va yaxlit qamrab olmoq uchun tanqidchi shoirning hayot hamda ijod yoʻlini, sheʼriyati, dostonchiligi, nasri, adabiyotshunosligiyu muarrixligini oʻzaro bogʻliqlikda yoritishga harakat qilgan»¹. B.Nazarov asarining yangiligi shundaki, unda Gʻafur Gʻulom olamining yuqorida

¹Sanjar Sodiq. Olam ichra olam // OʻzAS, 2004, 16-iyul.

munoh o'tilgan deyarli barcha qirralari yuzasidan avvalgilardan farqli kuzatishlar, fikr mulohazalar va umumlashmalar iigari surilgan.

Mustaqillik davrida yaratilgan maqolalari olimning ilmiy diapazoni yanada kengayganini ko'rsatadi. «Ruhyatni shakllantirish vositasi» (2002), «XX asrda Oybekni o'rganish o'zi bir ilm» (2005), «Abdulla Qahhor badiiy haqiqati» (2007), «Tanqidchi shaxsi va ijodiy o'ziga xoslik» (2008), «Hamid Olimjon ijodi va o'zbek tanqidchiligi metodologiyasining ba'zi masalalari» (2009) kabi ilmiy tadqiqotlar fikrimizga dalil bo'la oladi.

Yoinki, «Istiqlol davri o'zbek she'riyatining manzaralari» deb nomlangan obzor maqolasida (2005) istiqloq davri adabiyotining ba'zi qirralariga, xususan, she'riyatda kechgan jarayonlarga, uning ayrim manzaralariga nazar tashlaydi.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning «nihoyatda go'zal va ulug'vor» «Vatanim» she'rini tahlil qilar ekan, shunday yozadi: «Bu she'rning ko'tarinki, teran ma'no va g'oyasidan tashqari, obrazlaridagi topqirlik kashfiyot darajasidadir desak, mubolag'a bo'lmas:

*G'ichir-g'ichir tishimdagi
So'lig'imsan, Vatanim...*

Jahon she'riyatida Vatanning so'liqqa qiyos qilinishi uchramasa kerag-ov. Mazkur obraz she'rning butun strukturasi barmisoli uzukka ko'z qo'ygandek bo'lib tushadi...». Olimning talqinlari, she'rdan chiqargan xulosalari uning iqtidorli she'rshunos ekanligini yana bir bor ko'rsatadi.

Istiqlol olimga yangi-yangi imkoniyatlar baxsh etdi. U taniqli adabiyotshunoslar haqida salmoqli portret-maqolalar yarata boshladi. 2002-yilda yaratilgan «Nozikta'b adabiyotshunos» portret-maqolasida atoqli olim Naim Karimovning hayoti va ijodi tadqiq etilgan bo'lsa, «Tanqidchining ruhiy dunyosi»da (2004) iste'dodli olim N. Rahimjonov portretiga chizgilar beradi. «Atoqli adabiyotshunos va fan tashkilotchisi» maqolasida yirik olim M.K. Nurmuhammedov siymosi gavdalan-tirildi. «Tanqidchi shaxsi va ijodiy o'ziga xoslik» (2008) portret-maqolasi M. Qo'shjonovning olim va inson sifatidagi yorqin qiyofasi aks ettirilgan.

Olim bugungi kunda ham hormay-tolmay izlanishlar olib bormoqda.



ABDUG'AFUR RASULOV. 1937-yili Toshkent shahrida tug'ilgan olim SAGU (hozirgi O'zMU)ning filologiya fakultetida o'qidi (1954–1959), o'zi tahsil olgan fakultet aspiranturasida tahsil oldi (1961–1964).

«Hozirgi o'zbek qissalarida yoshlar xarakteri» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi (1966). Olim yuzlab maqola, taqriz va o'nlab kitoblari bilan tanqidchilar orasida o'ziga xos o'rin egallaydi. «Yangi zamon-yangi qahramon», «O'zbek prozasi kamoli», «Olim va tarjimon» (O. Sharafiddinov bilan hammualliflikda), «Ilmi g'aribani qo'msab», «Iste'dod va e'tiqod», «Ardoqli adib», «Sharafli Sharafiddinovlar», «Betakror o'zlik» va boshqa kitoblari ana shunday izlanishlar mahsulidir. «Hozirgi o'zbek tanqidchiligida talqin va tahlil muammosi» (2002) mavzuida filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilgan olim «O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi» (2003), «O'zbekiston Respublikasi fan arbobi» (2007) unvonlariga sazovor bo'ldi. 2004- yildan O'zMU o'zbek filologiyasi fakulteti «Jahon adabiyoti va nazariya» kafedrasining professori sifatida talabalarga saboq berib kelmoqda.

A.Rasulov sinchkov tanqidchidir. Sinchkovlik, har bir narsaga e'tibor bilan qarash uning tabiiy, tug'ma xususiyatlaridan hisoblanadi. Sinchkovlik, adabiy hodisalarga teran e'tibor bilan qarash, tushunish, tahlil qilish, doim ijodiy jarayonlar ichida bo'lish – adabiy tanqidchining yetakchi xususiyatlaridan.

Munaqqid qalamini taqrizda sinab ko'rishi, qayrashi ma'lum. A.Rasulov ham taqriz janrida faol ijod qilib, iste'dodlarning birinchi kitoblariga taqrizlar yozib, ularni katta ijodga yo'lladi. Olim dastlabki taqrizlardan tortib, 70 yosh bo'sag'asida yozganlarigacha, tanqidchilikning mana shu ixcham janrida katta mehnat qildi, yuzlab go'zal taqrizlar yaratdi. Taqriz qay yo'sinda yozilmasin, qanday maqsadni ilgari surmasin, undan murod asarni tushunish, baholash, tushunganlarini kitobxonlar ommasiga yetkazish ekanini munaqqid yaxshi anglaydi va har bir taqrizni yozayotganda badiiy matnga ana shu azaliy va porloq talab bilan yondashadi. U asarni dastlab o'qish, uqish, tushunish, o'zlashtirish, badiiy idrok etish lozimligini ilmiy ijodiy jarayon sifatida qabul qiladi va bu jarayonda o'zini ham kitobxon,

ham mutaxassis deb biladi. Asarning yozilishidan to uning kitobxonlar tomonidan qabul qilinishigacha bo'lgan bosqich-tanqidchining bu jarayondagi dolzarb faoliyati qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini u olimona anglaydi.

Ko'rinadiki, taqriznavislik munaqqiddan hissiy tayyorgarlik, adabiy fahmlilik va ifoda salohiyati talab qiladigan ilmiy ijodiy jarayondir. «Abdug'afur Rasulovning ixcham taqrizlari asarni ommaga tanitibgina qo'ymay, uning qatida yotgan pinhoniylar ma'nolarni imkon qadar ochishga yo'naltirilgan bo'ladi»¹. Haqiqatan, taqriz yozish uchun iste'dod, sinchkovlik va bilim zarur. Olimning taqrizlari shuning uchun ham o'qishli, u tavsiya etayotgan asarni kitobxon darhol topish, o'qishga kirishadi. Asarni chuqurroq tushunishida tanqidchi taqrizlari yo'l boshchilik qiladi, desak adashmaymiz. Shu bilan birga, taqriz qilinayotgan asarni yozgan adibning yoki shoirning avvalgi asarlarini yaxshi biladigan munaqqidgina uning yangi asari shu adib ijodida qanday o'rin tutishini belgilay oladi. Uni adabiy jarayondagi shu xildagi boshqa asarlar bilan qiyoslagandagina asarning milliy adabiyotimizdagi o'rnini ko'rsatib berish imkoni tug'iladi. A. Rasulov ana shu imkoniyatlarning mohir ustasi ekani uning deyarli har bir taqrizidan yaqqol sezilib turadi.

Tanqid nazariyasi sohasidagi tadqiqotlar. Olimning «Tanqidchilik ufoqlari» (1985) nomli adabiy-tanqidiy maqolalar to'plamida XX asrning 70-yillarida faoliyat yuritgan munaqqidlar hamda tanqidchilik nazariyasi haqidagi atroflicha qarashlar e'tiborni tortadi. U adabiy tanqid muammolarini adabiyotshunoslik, badiiy ijod, falsafa, estetika bilan mustahkam aloqadorlikda tekshiradi va tafakkur yo'siniga ko'ra uning o'ziga xos mustaqil xislatlarini ochib beradi.

A. Rasulovning «Ilmi g'aribani qo'rsab...» nomli mo'jazzgina risolasi o'zbek adabiyotshunosligida hali o'rganilmagan muammolarni, ayniqsa, mumtoz adabiyotshunoslikdagi tanqidiy tafakkurning xosliklarini, talqin masalasidagi mumtoz nazokatlarini o'rganishga qaratilgan. Ilmi g'ariba kitobxonni hayratga solish darajasida tasvirlash, san'atini tushunish, his qilish ilmidir. Sharq mutafakkirlari so'z san'atida ifodalangan ichki ma'nolar tizimiga alohida e'tibor berganlar. Bir bayt qatlariga bir qancha ma'no va lafziy san'atlarni singdirib yuborganlar. Bunday go'zal ifodalarni tushunish uchun o'zbek mumtoz

¹ *Boltaboyev H.* Tanqidning tadqiqiy yo'li / Adabiyotga sadoqat. — T.: 2007. 35-bet.

adabiyotshunosligidagi ilmi qofiya, ilmi bade', ilmi sharh kabi ilmi g'ariba madrasalarda maxsus ilm sifatida o'rgatilgan. **Afsuski, sho'rolar davrida «san'at san'at uchun» g'oyasiga qarshi kurash, xalqchilik niqobi ostida bunday go'zal san'atlar unutilayozdi, noyob badiiy to'z jo'nlashtirildi, siyqalashtirildi.** A.Rasulov hozirgi tanqidchilikni mumtoz adabiyotda katta e'tiborda bo'lgan «ilmi g'ariba», «ilmi dark» bilan bog'laydi. G'arbdagi germenevtika, aksiologiya tahlili mumtoz sharq adabiyotshunosligidagi tafsir, sharh ilmi bilan yaqin jihatlarni asosli tadqiq etadi.

Bu kitobga atoqli o'zbek adibi P.Qodirovning yuqori baho bergani hech emas. Asarning ahamiyati shundaki, muallif mumtoz tanqidchiligimiz qa'riga chuqur kira olgan, o'tmishning Rabg'uziy, Sayfi Saroyi, Alisher Navoiy, Voiz Koshifiy, Atoullloh Husayniy kabi ulug' ijodkorlari tanqidiy qarashlarini o'ziga xos tadqiq etgan va hozirgi zamon adabiy tanqidchiligi bilan bog'lagan.

Olim «Tanqid, tahlil, baholash» deb nomlangan monografiyasida o'zbek tanqidi bosib o'tgan yo'lni teran tahlil qildi. Tanqidning talqin va tushunish bilan bog'liq keng sohalarini jahon tanqidshunosligining bugungi darajasidan kelib chiqib yoritdi. Aksiologiya, semiotika, interpretatsiya, strukturalizm, baholash, modern adabiyoti to'g'risida kuzatishlarni o'zbek tanqidchiligiga olib kirdi. Tanqid ham endi o'z e'tiqodlari, tushunchalari, qarashlarini o'zgartirishi, yangilashi, dunyoda kezayotgan g'oyalar bilan hamohang bo'lishi zarur, degan fikrni ilgari suradi munaqqid.

A.Rasulov adabiy-badiiy tanqidagi baholash tabiati va fazilatini uning bosh vazifasi deb tushunadi, lekin baholash madhiyabozlikka aylanmasligi lozimiigini to'g'ri ta'kidlaydi. Uning baholash faqat matn yuzasidan emas, badiiy asarning butun borlig'idan kelib chiqishi, ya'ni baholasida asardan tashqari, yozuvchi shaxsiyati, butun ijod yo'li va adabiy jarayon yaxlitligi ham hisobga olinishi lozimligi haqidagi fikrlari, ayniqsa, e'tiborlidir. Olimning ushbu tadqiqotli so'nggi davr o'zbek adabiyotshunosligining jiddiy yutuqlaridan biri sifatida baholanishga loyiqdir.

Unda ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar, dolzarb muammolar o'zbek adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidining metodologik asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiy portret ustasi. XX asrning 80–90-yillarida adabiy portretnavislik rivoji birmuncha sustlashdi. Bu davrda yoshi elliklar atrofidagi ijodkorlar u yoqda tursin, 50–70 yoshga borgan, salmoqli asarlar

yozib, adabiyotda o'z o'rniga ega ijodkorlar haqida, ularning hayoti va ijodini umumlashtiruvchi tanqidiy-biografik asarlar yozishga e'tibor kumaydi. Masalan, mashhur shoir A.Oripov haqida faqatgina 2000 yilgagina kelib, M.Qo'shjonov va S.Melilarning adabiy portreti yaratildi. E.Vohidov, Sh.Xolmirzayev, Rauf Parfi, Jamol Kamol, O'.Hoshimov va boshqa adiblar haqida, afsuski, salmoqli adabiy portretlar hanuzgacha yaratilmay kelayotir. Holbuki, tanqidiy-biografik yo'nalishda asarlar yaratish vaqti allaqachon yetib kelgan.

Bu kemptiklikni to'ldirish harakati boshlanib, janrning keyingi taraqqiyoti uning ham shakli, ham mazmun jihatidan mukammallik sari intilayotganini tanqidchi A.Rasulovning tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Ularda avval kuzatilgan ba'zi nuqsonlar takrorlanmaydi, jonli xotiralardan umumli foydalanish, obyekt – adib yoki tanqidchining o'z iqrorlari – barchasi jamlanib, tirik insonning yaxlit obrazi yaratiladi. Natijada adib siymosidagi individuallik, boy ma'naviy qiyofasi bilan o'quvchi qalbida mahkam o'rtnashadi.

«Iste'dod va e'tiqod» asarida adabiyotshunos O.Sharafiddinovning yaxlit portretini yaratish asosiy maqsad qilib olingan. Aslida «Ozod Sharafiddinov» portreti 1980-yilda yozilgan, unda munaqqidning ilmiy-ijodiy qiyofasini yaratishga urg'u berilgan edi. Oradan yigirma yil o'tib, 2000-yilda yaratilgan bu adabiy portret oldingisidan mohiyati, mazmuni, olim qiyofasini to'liq, har taraflama chizish xususiyatining ustunligi bilan ajralib turadi.

Adabiy portret, erkin, sodda va ravon bir uslubda yozilganligi bilan diqqatni tortadi. Unda nainki qiyofasi chizilayotgan munaqqidning, balki ayni vaqtda u haqda mulohaza yuritayotgan muallifning ham qiyofasi gavdalanib turadi, fikr taraqqiyotida umumiylikdan xususiylikka qarab borish ustuvor. Adabiy portret qismlarining nomlanishidayoq masala mohiyati ochila boradi. Ustoz yashagan va shakllangan adabiy muhit haqida so'z borar ekan, olimning o'z xotiralariidan umumli foydalanish asarni yanada jozibali qiladi. Kompozitsiyada ham o'ziga xoslikka intilish seziladi: bolalik, oila haqida, boshqa portretlarda kuzatilganidek, asar boshida emas, uchinchi qismda fikr yuritiladi.

O'.Hoshimovga bag'ishlangan «Ardoqli adib» adabiy portreti esa tabiat tasviridan keyin adibning shajarasi tarixiga sayohat bilan boshlanadi. Ko'pchilik adabiy portretlarda boshda tarjimayi hol ba'zan juda qisqa beriladi, ba'zisida esa xotiralardan keyin tarjimayi hol beriladi, so'ng ijod tahliliga o'tiladi, tarjimayi holga umuman

qaytilmaydi. Bu usul asarning yorqin, to'laqonli chiqishiga to'sqinlik qiladi. Shu o'rinda boshqa adabiy portretlarda kuzatilmaydigan yana bir xususiyatga e'tibor berish o'rinli: tanqidchi portreti yaratilayotgan nan'atkor hayoti haqidagi tafsilotlarni e'tibordan qochirmaydi, bizda ko'pda oshkora qilaverish urf bo'lmagan, jahon adabiyotshunosligida esa, aksincha, adabiy portretlar yaratishda ana shunday kamyob voqeahodisa, dalillarga real ko'z bilan qarash, «mayda-chuyda» tafsilotlargacha e'tibor berish mavjud. A.Rasulov ana shunday an'analarni o'zbek tanqidchiligiga olib kirishga intildi. Bunday yondashuv shaxsning turli qirralarini tutashtirib, yaxlitlik sari yo'naltiradi.

Masalan, adib otasi bilan aloqador lavhalar jonli tarzda beriladi. Ularning jonli va tabiiy chiqishiga omil bo'lgan yana bir xususiyat — portretnavis o'z ko'zi bilan ko'rgan, shohidi bo'lgan voqealarga ham o'rin ajratadi. Munaqqid oilasi, farzandlari haqida tanqidchi ilmiy usulda emas, roviylik yo'lidan borib, erkin mulohaza yuritadi. A.Rasulov «Iste'dod va e'tiqod» asarida ustoz olim qiyofasini yaratish jarayonida, uning ijodi haqida yuqori pafos, ehtiros bilan so'zlasada, munaqqid ijodidagi ba'zi qusur, yetishmovchiliklarni ham ko'rsatib o'tadi. O.Sharafiddinov inson va olim sifatida birdek haqgo'y, haqiqat uchun tolmas kurashchi, go'zallikni sevadigan zukko munaqqid, oilaparvar shaxs edi. Adabiy portretda olimning ilmiy, ijodiy, ma'naviy jihatdan yaxlit qiyofasi yorqin tasvirlanadi va bu tasvir o'quvchida olimning shaxsi haqida aniq, yaxlit tasavvur uyg'otadi.

Adabiy portretni o'qishli qilgan fazilatlardan biri muallifning portreti tasvirlanayotgan shaxsni yaxshi bilishi, yaqindan tanishi, u bilan ko'p yillar birga bo'lganligidir. Shu bois bunday xususiyatga ega portretlarning aksariyati samimiy va jonli chiqadi. Tilga olganimiz ikkala portretda ham xuddi shu xususiyat ustuvor. Ularda essega xos xususiyatlar ham yo'q emas. «Ardoqli adib»da buni portretnavis o'zi e'tirof etadi. Shu tariqa tanqidchi adib hayot yo'lini chuqur tahlil qilar ekan, asarlaridan shaxsini, shaxsidan asarlari mohiyatini izlaydi.

Tanqidchi janr talablaridan kelib chiqib, o'z portretlarida xalq e'tiboriga tushgan shaxslarning barkamol obrazini, shu bilan birga maxsus, ichki tartibga ega adabiy portretning yorqin namunalarini yarata oldi.

Portretnavislik bevosita dalillar bilan bog'liq. Portret janrining o'ziga xosligi shaxs olami, ruhiy dunyosi va qiyofasini bir maxrajda mujassam eta bilishda. Portretnavisning vazifasi qahramon hayotida bir marta kechgan hodisani aytib berish yoki o'zi shohidi bo'lgan

voqeari tu'kidlashgina emas, balki ular vositasi va yordamida tasvir-
lanayotgan shaxsning e'tiborga loyiq qirralarini tovlantirib, aniq
qiyofasini chizishdan iborat.

Masalan, «Ardoqli adib»da yozuvchi xarakteridagi soddalik,
samimiylilik, tabiiylilikni ko'rsatish uchun munaqqid adibning qiz
chiqarishi marosimidagi lavhalargacha tasvirga kiritadi va nazarimizda
to'g'ri qiladi.

Ko'rinadiki, tanqidchi janr talablarini chuqur tushungan holda
o'z portretlarida o'zbek olimi, munaqqidi va xalq sevgan yozuvchining
barkamol obrazlarini yarata olgan, aytish murnkinki, tanqidchi maxsus,
ichki tartibga ega bo'lgan o'ziga xos janrning yorqin namunalarini
yaratdi.

A.Rasulov mustaqillik davri adabiy tanqidining faollaridan biri
sifatida o'z tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga ko'p to'xtaldi.
Uning «Badiiylik — bezavol yangilik» (2007) kitobidan «Abdulla
Qahhor va yoshlar» deb nomlangan ikki qismdan iborat tadqiqot
o'rin olgan bo'lib, unda yozuvchi asarlarida yoshlar obrazi hamda
ustoz va shogirdlar haqida so'z yuritildi.

Munaqqid yozuvchi asarlaridagi yoshlar obrazi haqida gapirar
ekan, avvalo, adib haqidagi xotiralarni keltiradi va uning yoshlarga
munosabati haqida fikr yuritadi.

Olimning «Betakor o'zlik» kitobiga ham adib haqidagi yangi
qarashlardan iborat bo'lgan maqolalar kiritilgan. «Abdulla Qahhor
universiteti»da adibning so'z zargari sifatida o'nlaracha betakror, o'z
mohiyatiga ega timsollarni yaratganligi haqida gapirar ekan, olim
ularni: «Abdulla Qahhor yaratgan xarakter, timsol, uvoq qiyofalarni
ruhimizdagi saralagich vositasida guruhlashtiramiz», — deb yangicha
tasniflaydi. «Sarob»ni «saralar sanog'idagi roman» deya baholaydi,
qaysidir ma'noda «mozaika san'atini» yodga solishi, hozirgi yoshlarning
asarga munosabati haqida fikr yuritadi: «...yangi avlod kitobxonlari bilan
«Sarob»dagi estetik roviy aro kontakt-munosabat boshlandi. «Sa-
rob»dagi roviy, yashirin kitobxon, estetik o'quvchi o'z funksiyasini,
albatta, bajaradi».

Bu mulohazalar o'quvchida romanga nisbatan qiziqish uyg'otishiga
ishonamiz. V.Belinskiy ijodida turkum (sikl) maqolalar ko'p uchraydi.
Bunday maqolalarda izchillik, ma'lum bir g'oyani rivojlantirib borish
xususiyati ustuvor bo'ladi. A.Rasulov ijodida ham ana shunday turkum
maqolalar yaratish an'anasi istiqloq yillarida kuchaydi.



HOTAM UMUROV 1942-yil 10-yanvarda Jizzax viloyati Jizzax tumanidagi «Toshkentlik» mahallasida xizmatchi oilasida tavallud topgan. Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetini 1964-yilda a'lo baholarga tugatgach, O'zFA Til va adabiyot institutining aspiranturasiga qabul qilinadi.

1968-yildan SamDU o'zbek adabiyoti kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlay boshladi.

1971-yildan 1993-yilgacha Sadridin Ayniy nomidagi Samarqand davlat pedagogika institutida o'qituvchi, o'zbek adabiyoti kafedrasida

mudiri (1971–1991), dotsenti (1973–1986), o'zbek filologiyasi va chet tillar fakulteti dekani (1991–1993) lavozimlarida ishladi.

1993–1998- yillarda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kafedrasining professori, 1999-yildan hozirgacha kafedra mudiri vazifalarida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

H.Umurovning ilmiy faoliyatida o'zbek adabiyotida psixologizm muammosini, xususan, o'zbek romanlarida psixologizm masalasini o'rganish markaziy o'rin tutadi. Adabiy qahramonlar ruhiy olamini ochib berishning yo'llari va vositalari muammosini tekshirish ustidagi mehnatlari natijasida A.Qodiriyning «O'tkan kunlar», Oybekning «Qutlug' qon», A.Qahorning «Sarob» romanlarida yozuvchilarning turli psixologik holatlarni tasvirlashdagi mahoratini ilk marotaba atroflicha yoritib berdi.

Olimning ilmiy faoliyatini to'rt yo'nalishga bo'lish mumkin.

Birinchidan, uning o'nlab ilmiy tadqiqotlari adabiy tanqid masalalariga, badiiy mahorat va o'zbek romanchiligida psixologik tasvir muammolariga bag'ishlangan. Bulardan «Tahlil san'ati» (Toshkent, G'. G'ulom nomidagi adabiy-badiiy nashriyoti, 1978; monografiya), «O'zbek romanchiligida psixologizm» (Toshkent, «O'qituvchi», 1982; nazariy qo'llanma), «Stanovleniye psixologizma i psixologicheskogo analiza v uzbekskom romane» (Toshkent, «O'qituvchi», 1982; Posobiye dlya studentov filologicheskix fakultetov), «Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi» (Toshkent, «Fan», 1983; monografiya), «Qahramonning ma'naviy olami va epiklik» (Toshkent, «Fan», 1995; monografiya), «Ma'naviyat va badiiyat» (Samarqand, «Sug'diyona» nashriyoti, 1998; Adabiy-tanqidiy maqolalar to'plami), «Adabiyotshu-

noʻllikka kirish» (Samarqand, 2000; qoʻllanma), «Badiiy ijod asoslari» (Toshkent, «Oʻzbekiston», 2001; darslik) «Adabiyot nazariyasi» (Toshkent, «Sharq», 2002; darslik), «Adabiyot qoidalari» (Toshkent, «Oʻqituvchi», 2002, 2004, 2010, 2011; Akademik litseylar uchun oʻquv qoʻllanma), «Adabiyotshunoslik nazariyasi» (Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004; darslik), «Vaqt» sheʼrining poetikasi» (Samarqand, SamDU nashri, 2003; oʻquv qoʻllanma), «Saylanma» (Toshkent, «Fan», 2007–2011, besh jildlik) kabi asarlari xarakterlidir.

Ikkinchidan, oʻnlab tadqiqotlari oʻquv-uslubiy yoʻnalishga bagʻishlangar.. «Studentlarni ilmiy tadqiqot ishlariga oʻrgatish» (Samarqand, 1980), «Adabiy tanqid nazariyasi» (Samarqand, 1988), «Adabiyot va muzika birlashganda» (Samarqand, 1989), «Oliy taʼlimda leksiya» (Samarqand, 1996), «Ilmiy asar va uning janrlari alifbosi» (Samarqand, 1997), «Adabiy saboqlar» (Samarqand, 2004), «Ilmiy tadqiqot asoslari» (Samarqand, 2005), «Talabaning hikmat kitobi» (Samarqand, 2008) kabilar shular jumlasidandir.

Uchinchidan esa, oʻtgan ulugʻ olimlar, fan va sanʼat fidoyilari, davlat arboblari bagʻishlangan oʻnlab kitob va maqolalari mavjud. Bunga, «Shoir, olim, pedagog» (Toshkent, 1977), «Orifjon Ikromov zamondoshlari xotirasida» (Samarqand, 1991), «Ota» (Toshkent, 1994), «Akamlardan qolgan meros» (Samarqand, 1996), «Umrboqiyalar» (Samarqand, 2000), «Uygʻoq daryolar» (Samarqand, 2001), «Hayot va adabiyot nur sochganda...» (Samarqand, 2003), «Sheʼriyat malikasi bilan gʻoyibona suhbatlar» (Samarqand, 2004), «Sirlar uchini sir ochar» (Toshkent, 2006) kabi oʻnlab risola va esselarini misol keltirish mumkin.

Bundan tashqari bir qancha maqola va badihalar, butun-butun tadqiqotlar Hamid Olimjon, Zulfiya ijodiga tegishlidir. «Qadrdon shoir siymosini yaratish yoʻlida» (Toshkent, 1979), «Shoir qalbining sehri» (Toshkent, 1980), «Qoʻsh qanot sehri» (Toshkent, 1982), «Badiiy ijod moʻjizalari» (Samarqand, 1992), «Sheʼriyat malikasi» (Samarqand, 1996), «Qalblar qoʻshigʻiga aylangan umr» (Samarqand, 2009) va hokazolarni aytishimiz mumkin.

Unda oʻzbek adabiyotida oʻchmas iz qoldirgan ikki ijodkorning hayoti va ijodi asosida adabiyotning umumiy masalalari haqida koʻlamli fikrlar yuritiladi, ijodiy hamkorlik, ijodkorlarning bir-biriga taʼsiri, ularning zamonaviyligi va abadiyligi hamda baʼzi asarlarining tugʻilishi haqida qimmatli maʼlumotlar beradi.

IBROHIM HAQQULOVI (1949). O'zbek adabiyotshunoligi va tanqidi rivojiga munosib ulush qo'shib, sermahsul ijod etib, ko'plab monografik tadqiqotlar, ilmiy-tanqidiy asarlar, kitoblar, maqolalar yaratayotgan Ibrohim Haqqulov filologiya fanlari doktori, professor sifatida samarali ijod etib kelmoqda. Ibrohim Choriyevich Haqqulov 1949-yilda Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi Taliya qishlog'ida, ziyoli xonadonda tug'ilgan.

Uning adabiyotga qiziqishi oila muhitidan boshlangan, buvisidan Navoiy, So'fi Olloyor g'azallari, Yassaviy hikmatlarini eshitib ulg'aygan olim o'rta maktabda a'lo baholar bilan o'qidi. 1970-yilda Buxoro Davlat pedagogika instituti filologiya fakultetini tugatgan olim hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va Adabiyot institutida bo'lim boshlig'i bo'lib ishlab kelmoqda.

Olimning «O'zbek adabiyotida ruboiy», «Uvaysiy she'riyati», «Badiiy so'z shukhi», «Zanjirband sher qoshida», «She'riyat – ruhiy munosabat», «Tasavvuf va she'riyat», «Abadiyat farzandlari», «Irfon va idrok», «Tasavvuf saboqlari», «Ahmad Yassaviy», «Kim nimaga tayanadi?» «E'tiqod va ijod», «Navoiyga qaytish», «Taqdir va tafakkur», «Meros va mohiyat» kabi yigirmaga yaqin kitoblari chop etilgan. 1997-yilda olim Xalqaro Ahmad Yassaviy mukofoti bilan taqdirlangan.

Olim mumtoz adabiyot tarixi, tasavvuf she'riyati, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlari orqali yirik va zukko adabiyotshunos sifatida tanildi. Adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik faoliyatining eng muhim fazilatlaridan biri – uning tadqiqotlarida mumtoz adabiyot vakillari ijodi va hozirgi zamonaviy adabiyotning ma'naviyatimiz taraqqiyotidagi o'rni o'rganiladi, umumlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarilishidir. Olimning, ayniqsa, o'zbek she'riyati taraqqiyoti haqidagi, uning yetakchi tamoyillari xususidagi umumlashtiruvchi ilmiy-nazariy fikrlari adabiyot ilmi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Adabiy tanqid har bir tanqidchining o'zi qiziqadigan sohasi bo'lishi bilan ajralib turadi. Masalan, H.Yoqubov Oybek ijodi, L. Qayumov Hamza hayoti va ijodi, Izzat Sulton realizm masalalari, M.Qo'shjonov nasr, H. Abdusamatov hajviyot, Komil Yashin ijodining umumiy masalalari va dramaturgiya muammolari, S. Mamajonov she'riyat, G'afur G'ulom ijodi, U. Normatov hikoya va roman, O.Sharafiddinov va I.G'afurov she'riyatda mahorat masalalari bilan ko'proq shug'ul-

landilur va hokazo. Har bir yirik tanqidchi o'zi tanlagan sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib qoldi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, I. Haqqulov mumtoz adabiyot tarixining, tasavvuf ilmining bilimdoni, yunsaviyshunosdir. Olinning aksariyat tadqiqotlari shu mavzuda. Shu bilan birga u hozirgi adabiy jarayonning sergak kuzatuvchisi, Cho'lpon, Oybek va A. Qahhor haqida cho'lponshunos, oybekshunos va qahhorshunos olimlar orasida o'z so'zini ayta oladigan tanqidchilardan hisoblanadi.

I. Haqqulov Cho'lpon ijodi bilan alohida shug'ullanmagan bo'lsa-da, mustaqillik yillarida o'zbek olimlaridan birinchilardan bo'lib, shoirning she'rlarini to'plab, «Bahorni sog'indim» (1988) nomi bilan chop ettirdi. Cho'lpon ijodi haqidagi bahsu munozaralarga faol ishtirok etib, ayrim maqolalari bilan cho'lponshunoslikni boyitishga xizmat qildi. Uning maqolalari o'zining salmog'i, mazmun-mohiyati, qo'yilgan muammoning yechilishi va ahamiyati bilan kitobxon diqqatini tortadi. «Qutulish yulduzi yo'qlikka kirmas» deb nomlangan maqola Cho'lponning «Baljivon» she'ri tahlili va talqiniga bag'ishlangan.

Bu yirik maqolaga Cho'lponning «Ket, yo'qol, ko'zimdan haqiqat, yo'qol...» misralari epigraf qilib olingan. «Cho'lponning din va millat hurriyati yo'lida jihodga kirishgan vatanparvarlar harakatiga katta umid bog'laganligini isbotlovchi eng xarakterli dalillaridan biri «Baljivon» nomli she'ri hisoblanadi», — deb yozgan munaqqid bu she'r shoirning hech qaysi to'plamiga kirmaganligi, bizning matbuotimizda ham hech qachon chop etilmaganligi, o'zbek adabiyotshunosligida deyarli tilga olinmay kelinganligini ta'kidlaydi. Buning ustiga tanqidchi Cho'lponning «Go'zal Turkiston», «Go'zal Farg'ona» kabi she'rlari singari yaratilgan kunidanoq qo'ldan qo'lga o'tib, «turku kabi» sevib o'qilgan, o'zbek she'riyati tarixida mazmun-mohiyati, maslak murosasizligi jihatidan «Baljivon»ga o'xshash yoki yaqin keladigan ikkinchi bir she'r yozilmagan. Shuning uchun ham «Baljivon» Anvar Poshoning jasur siymosini gavdalantiruvchi so'zdan yaralgan she'riy bir haykal desa aslo mubolag'a bo'lmaydi, deb hisoblaydi.

Tanqidchi «Eng so'nggi umidin qonga bo'yagan, Oh, qanday xayrsiz zamonlar kelgan!» deb o'z she'rida faryod qilgan Cho'lponning intiqom va og'ir harorat tuyg'usini anglagan holda qalam tebratadi shu bois mazkur maqola cho'lponshunoslikda ayricha sahifa ocha olgan, Cho'lpon ijodining muhim qirrasini yoritib bergan tadqiqot sifatida katta ahamiyatga ega.

I.Haqqul adabiy suhbat va obzor maqola janrlarining yetuk namunalarini yaratib, badiiy asar, ayniqsa, she'riy asarlarning nozik tahlilchisiga aylanganini taniqli adabiyotshunos, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning unga yo'llagan ochiq maktubidagi quyidagi e'tirof ham yaqqol tasdiqlaydi.

«Avvalo, shuni aytmog'im kerakki, men birinchi qadamlaringizdan oq ijodingizni juda katta qiziqish bilan kuzatib kelaman. Meni maqolalaringiz va kitoblaringizdagi teranlik, mulohazalar hamda xulosalarning chuqur bilimga asoslanganligi, har bir sahifadan barq urib turadigan samimiyat o'ziga jalb qilardi. Ayniqsa, Alisher Navoiy haqidagi tadqiqotlaringiz, uning bir qator g'azallariga bergan tahlillaringiz, tasavvuf borasidagi izlanishlaringiz sizni adabiyotshunosligimiz sohasida oldingi o'rinlardan biriga olib chiqdi. Siz xalqimiz o'rtasida mumtoz adabiyotimizning yetuk va barkamol tadqiqotchisi hamda targ'ibotchisi sifatida taniladingiz»¹.

Haqiqatan ham bugungi kunda o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi Ibrohim Haqqul siymosida u yoxud bu adabiy hodisani umuminsoniy qadriyat sifatida umumjahoniy falsafiy-estetik mezonlarda tahlil qila oladigan yorqin iste'dod voyaga yetganligidan faxrlana oladi.

Shu munosabat bilan yana O.Sharafiddinovning Ibrohim Haqqulga yo'llagan xatida ta'kidlangan ikki nuqtaga e'tiborni qaratishga to'g'ri keladi: Birinchisi — «mutaxassislarimizning intellektual darajasini ko'tarish» va ikkinchisi — «istiqlol adabiyotshunosligini yaratish va rivojlantirish uchun...ijod erkinligi, tafakkur erkinligi»ga erishmoq shart. Shu mantiqdan Ibrohim Haqqul ijodiy qiyofasiga nazar solinsa, har ikkala shart ham o'zaro uyg'unlashgan holda uning ijodkorlik iste'dodi va salohiyati asoslarini belgilab kelayotganligiga qanoat hosil qilish mumkin. Bunda I.Haqqulning ilmiy jasaratiga asoslangan erkin fikrlay olish iste'dodi jilolanib turibdi.

Ayni choqda, uning Jamol Kamol fors-tojik tilidan muvaffaqiyat bilan o'zbekchaga o'g'irgan Mavlono Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma'naviy»siga yozgan so'ng so'zi, bir qancha so'zboshilari, mumtoz adabiyot tarixiga bag'ishlangan maqolalari, shuningdek, «Navoiyga qaytish», «Taqdir va tafakkur», «E'tiqod va ijod», «Abdulla Qahhor jasarati» kabi qator kitoblari baland did va teran tafakkur bilan yozilgan. Bu silsilaga uning «Ahmad kalla», «Ustod», «Oybek shaxsiyati

¹ Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. — T.: 2006.

va she'riyatiga doir» singari o'nlab maqolalarini ham kiritmoq lozim. Ular betakror mushohadalarga boyligi bilan nainki o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidida, ayni zamonda xorijdagi adabiyotshunoslikdagi estetik qarashlardan qolishmaydigan mulohaza va muhokamalarga to'yintirilganligi bilan ham diqqatni tortib turadi.

Ularda I.Haqqulning fikrlash tarzi va bayon etish uslubi ham o'zgacha, erkin mantiqiy tafakkurga asoslangan, mushohadalarni aniq va tiniq ifodalashga bo'ysundirilgan.

I.Haqqulning adabiyotshunos va tanqidchi sifatidagi ijodiga xos bu xususiyatlarni ustoz O.Sharafiddinov o'z vaqtidayoq teran anglaganidan uni «ham mumtoz adabiyotimizni, ham zamonaviy adabiyotimizni, ham g'arb, ham sharq adabiyotini puxta» bilgani tufayli «fikrlari tor mahalliy hududlarni yorib chiqib, yorug' jahon bo'ylab» taralishga yuz burayotganidan bashorat etgan edi. Aslida-chi, bu bashoratning bugungi kunda haqiqatga aylanganini mamnuniyat bilan tan olmoq-hozirgi o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi erishayotgan darajalarni xolisona e'tirof etishga yo'l ochgan bo'lar edi.

O'zbek adabiyotshunosligida tanqidchining mumtoz adabiyot masalalari bilan shug'ullanuvchi olimlar bilan suhbatlari ko'p uchraydi. Uning yorqin namunalarini taniqli adabiyotshunos olim I.Haqqulov ijodida ham ko'rish mumkin. «G'azal gulshani» deb nomlangan kitob janrini muallifning o'zi ham «adabiy suhbatlar» deb belgilagan. Kitobning «risola adabiy suhbat, tahlil-mushohada shaklida» yozilganligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Suhbatlar o'zbek mumtoz adabiyoti vakillari ijodi haqidagi kuzatish va yangicha qarashlarga boyligi bilan e'tiborni tortadi.

Ularning o'ziga xosligi shundaki, suhbatni tashkil etuvchi bilan suhbatdosh erkin fikr yuritishadi. Adabiy suhbat orqali suhbatdoshlarning qiyofasi, suhbat obyekti bo'lgan ijodkorga simpatiyasi, ular ijodidagi muhim belgilar ochiladi. Ayniqsa, ijodi adabiyotshunoslikda kam o'rganilgan shoirlar haqidagi suhbatning ilmiy-ma'rifiy ahamiyati katta. Bunga mumtoz shoirlar ijodiga bag'ishlangan suhbatlar yorqin misol bo'la oladi.

Bu suhbatlar ular ijodiga mehri, hurmat tuyg'usini uyg'otib, suhbatga qandaydir o'zgacha ohang bag'ishlab turadi, bu tuyg'u kitobxonga ham yuqadi. Suhbatdagi qalb so'zlari kishini to'liqlantirmay qo'ymaydi, ikkinchidan, suhbatda g'azallarning go'zal tahlili, o'zbek adabiyotiga ta'siri haqidagi mulohazalar o'quvchining shoirlar

ijodiga qiziqishini oshiradi. Umuman olganda, suhbatdoshlarning o'ziga xos uslubi, tilining soddaligi uni o'qimishli qilgan, garchand ular mutaxassislar-adabiyotshunos va munaqqidlar tomonidan olib borilsa-da, keng kitobxonlar uchun tushunarli bo'lib, ularni shoir she'riyatiga oshno qila oladi.

Suhbatdoshlar qaysi shoir hayoti, ijodi haqida fikr yuritmasinlar, mavzuga ko'pincha jahon adabiyoti mezonlari asosida yondashishga harakat qiladilar. Muhimi, ijtimoiy-g'oyaviy talqinga ko'p diqqat qilinmaydi, ularda g'azal mohiyatini chuqur, dildan anglash va anglatish ruhi ustuvor.

Olimning «Kim nimaga tayanadi» deb nomlangan kitobi ham adabiy suhbatlardan tashkil topgan. «G'azal gulshani»da suhbatni tashkil etgan suhbatdosh tanqidchining o'zi edi, adabiy suhbatni olib borib, suhbatdoshga savollar berib, adabiyot haqidagi mulohazalarni bir markazga yig'ib, muammolarni o'rtaga tashlagan. Bu kitobda esa I.Haqqulov jurnalist va yosh olimlar tashkil etgan suhbatlarning asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. Bu suhbatlar ikki yo'nalishda: mumtoz adabiyot tarixi va hozirgi adabiy jarayonga bag'ishlangan holda olib borilgan.

Kitobda 18 ta suhbat berilgan. Shundan ko'pchiligi mumtoz adabiyot, tasavvuf masalalariga bag'ishlangan, beshtasi hozirgi adabiy jarayon bilan bog'liq. Aniqrog'i, adabiy suhbatlarning to'rttasi Oybek ijodi, she'riyati haqida. «Oybek haqida suhbatlar» 4 qismdan iborat. Birinchi suhbat «Bir o'lkaki, sal ko'rmasa quyosh sog'inar» deb nomlangan. Munaqqid «ko'ngil yo'li bilan Oybekka yaqinlashgan odam o'zini yangidan tug'ilganday yoki his-tuyg'ulari tozarib, yangilanganday tasavvur qiladi. Ko'ngli qattiq, hislari kirlanib, mog'orlanib yotgan kimsa Oybek dunyosiga oshno bo'lgandan so'ng ham ich-ichidan bir pushaymonlik sezmasa, undan odamiylik kutmaslik lozim», deb hisoblaydi.

Tanqidchi agar bugun birov mendan: «Sen qiyomatda nima bilan faxr etgaysan?», — deb so'rasa, ishoning, «Oybekday sodiqlarning ko'ngli bilan», — deb javob bergan bo'lardim, deydi. Oybekning ko'ngli — chin go'zallik va sevgi chashmasi, mehr va shafqat gulshani, ijod va ilhom ummoni. Lekin u haqda qancha gapirmang, baribir ta'rifu tavsifga sig'dirib bo'lmaydi uni. O'zini «So'nggi darvesh» sanagan Oybek hali to'la kashf etilmagan Sir ekanligini, «Oybek quyosh va oy sog'inchiga sohib muazzam bir O'ika» ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Oybek ijodiga bag'ishlangan bu suhbatlarni o'qir ekan,

kitabxon XX asr o'zbek adabiyotining chinorlaridan biri bo'lgan shoir va adib haqida yangicha qarashlarga, talqinlarga ega bo'ladi, Oybekni o'zi uchun qayta kashf etadi.

Olimning «E'tiqod va ijod» deb nomlangan kitobi ham suhbatlardan tashkil topgan. Har bir suhbatda olimning katta bilim va mahoratga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Suhbatlardagi tahlillar sermazmunligi, o'ziga xos qarashlar va mushohadalarga boyligi bilan o'quvchi e'tiborini tortadi. Bu haqda professor To'ra Mirzayev shunday yozadi: «Taniqli adabiyotshunos olimning barcha suhbatlari bir joyga yig'ilib, yaxlit kitob holiga keltirilganligining o'zi alohida ahamiyatga ega. Zero, suhbat shunday bir janrki, unda ijodkorning, olimning o'ziga xos qiyofasi yanada yorqinroq namoyon bo'ladi». Haqiqatan ham adabiy-tanqidiy suhbat muloqotning eng ixcham shakllaridan biri bo'lganligi uchun adabiyot rivojida, badiiy asarning yuksakligi uchun kurashishda muayyan darajada ahamiyatga ega. Adabiy-tanqidiy suhbat suhbatdoshlar — ijodkorlarning kimligini, qalbi va ijodiy qiyofasini chuqurroq anglab olish uchun kitobxonga yordam beradi. Shu bois ikki shaxsning — yozuvchi va tanqidchi yoki ijodkor bilan ijodkorning badiiy ijod sirlari, adabiyot muammolari haqidagi erkin muloqotidan iborat bu janr keng rivojlanib bormoqda, uni taraqqiy ettirishda olim suhbatlarining alohida o'ringa egaligini ta'kidlash lozim.

I.Haqqulovning hozirgi o'zbek adabiyoti vakillari ijodiga bag'ishlangan suhbatlaridan biri «Qani, she'r, so'yla abadiyatdan» deb nomlangan bo'lib, u shoir Rauf Parfi bilan olib borilgan muloqotga asoslangan. Oybekni yigirmanchi asr adabiyoti olamidagi muqaddas bir tog'ga o'xshatgan suhbatdoshlar uning ijodning murakkab va mashaqqatli yo'llarini bosib o'tgan shoir ekanligini faxr bilan ta'kidlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, I.Haqqulov — adabiy suhbatlarni tashkil etuvchi faol tanqidchi va ziyrak suhbatdosh. Shu bilan birga I.Haqqulov jurnalistning savollariga ilmiy-nazariy jihatdan asosli javob beradigan, hozirgi adabiy jarayonni, XX asr o'zbek adabiyotini juda chuqur bilgan tanqidchilardan biri sifatida ham ko'rinadi. Bu adabiy-tanqidiy suhbatlar o'quvchini adabiyotning nazariy masalalari, yozuvchi ijodi bilan yaqindan tanishtirishda shoir, yozuvchilarning hayoti va ijodini o'rganishda, ularning ijod sirlarini tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimning «Abdulla Qahhor jasorati» essesi shunday so'zlar bilan boshlanadi: «Adabiyot taqdiri yurt va millat taqdiridan ayri bir narsa

emas. Adabiyotda millat ruhi butun murakkabligi va ziddiyatlari bilan aks etadi. Adabiyot millatning qalb dardlariga malham topadi». Tanqidchi shu jihatdan o'z oldiga bir necha savollar qo'yadi va ularga A.Qahhorning so'zlari bilan javob beradi.

Munaqqid asar mohiyatidan kelib chiqib, asosiy diqqatini A.Qahhorning jasorati, shijoatini tahlil qilishga qaratib, adibning «Yoshlar bilan suhbat» kitobidan Said Ahmadning «Tortiq» nomli hikoyalar to'plamiga bag'ishlangan maqolasiga to'xtaldi. A.Qahhor o'sha maqolada yozuvchining vazifasi faqat yaxshi asarlar yozish bilan cheklanmasligi, «adabiyotni har qanday balo-qazodan qo'riqlash, adabiyotning sergak, jasur posboni bo'lish» uning vazifasiga kirishi haqida gapirgan ekan.

Munaqqid A.Qahhorning hayotda ham, badiiy ijodda ham o'z haqiqatlarini topgan, shu haqiqatlar uchun sabot bilan kurashgan san'atkor ekanligini ta'kidlaydi. «Barcha buyuk yozuvchilardek, Abdulla Qahhorning ham shaxsi – ijodiga, ijodi – shaxsiga bir ko'zgu. Adib ijodini sevgan, albatta, shaxsiga maftun bo'ladi, shaxsini bilgan – uning ijodidan ajralolmaydi. Haq va haqiqat qarshisida tili qisqa, yuzi shuvut bo'lmagan yozuvchi borki, ularning bari o'z so'zi va erkiga hokim. Abdulla Qahhor shunday benazir yozuvchi edi»¹.

I.Haqqulov A.Qahhorning inson va yozuvchi sifatidagi qirralarini tadqiq etar ekan, yozuvchi ijodini chuqur o'rgangan rus olimasi I.Borolina, O.Sharafiddinov, K.Simonov, Sh.Xolmirzayevning fikrlaridan misollar keltiradi.

Ularning qalb so'zlari adib qiyofasini ochishda katta yordam beradi. Tanqidchi yozuvchining realistikligi, obraz yaratishda sun'iylik va soxtakorlikka toqat qilolmaganligini ta'kidlar ekan, bugungi kunda adabiyotimizda yo'l qo'yilayotgan nuqsonlarga ham to'xtab o'tadi. Adabiyotga «o'g'ri mushukday tuynukdan kiradigan»lar dastidan bugungi kitobxonning saviyasi tushib ketganligi munaqqidni tashvishlantiradi.

U o'z-o'ziga savol beradi: «Shunday ahvolga Abdulla Qahhor chidarmidi? Loqayd qaray olarmidi? Dushman orttirish yoki qandaydir imtiyozlardan ayrilib qolishdan cho'chirmidi?» Shu o'rinda olim adibning o'limi oldidan shogirdi Shuhratga aytgan so'zlarini keltiradiki, ular tanqidchining savollariga javob bera oladi.

¹ Haqqulov I. Shaxsiyat va shijoat // O'TA, 2004, № 4. 11-bet.

Munaqqid adibning «Sarob» romaniga ham toʻxtalib, unda sirli-
shahri bir ruh borligiga diqqatini qaratadi. Ilk oʻqishda romanning
tub mohiyatiga yetarli darajada tushunmaganligini tan oladi, ammo
Suidiy ham, Munixon ham unga yoqqan. Oimning asar haqidagi
fikrlari ohorliliigi bilan kishi diqqatini oʻziga tortadi.

Munaqqidning vazifasi faqat yoshlarning ijodiga emas, balki
nomdor yoki kekxa yozuvchilar asarlariga ham xayrixohlik bilan
munosabat bildirishdan iboratdir.

Shundan kelib chiqib, I.Haqqulov talabchan tanqidchi sifatida
A.Qahhorning adabiy tanqidga munosabatiga ham diqqatini qaratdi.
Oʻzbek tanqidida «noqislik tamali nima deyilsa, ikki soʻz bilan javob
bersa boʻladi: «saviya va jurʻat».

Abdulla Qahhor esa munaqqid saviyasi va jurʻati masalasida jon
kuydirib soʻzlaganligini taʻkidlaydi. Dardsiz, ehtirossiz yozilgan asar-
larni maqtaydigan saviyasiz tanqidchilar haqida aytgan: «Bu toifa
tanqidchilar oʻqib boʻlmaydigan, badiiy jihatdan gʻoyatda gʻarib boʻlsa
ham, roʻy-rost gʻoyaviy xatosi» yoʻq kitoblarni axtarib yurib, ular
toʻgʻrisida madhiyalar yozib oʻrgangan, shuni kasb qilib olgan» degan
soʻzlarini keltiradi.

Haqiqatan ham bu fikrlar bugun ham eskirmagan va bugun ham
xuddi shunday tanqidchilar toʻlib yotgan davrda ogohlikka chaqir-
ganday boʻladiki, munaqqid I.Haqqulov ham behudaga bu masalaga
diqqatini qaratmagan boʻlib chiqadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, I.Haqqulov qahhorshunoslikda
Abdulla Qahhor haqida yangi gap aytishga intilgan va buni muvaf-
faqiyat bilan amalga oshirgan munaqqidlardan biri hisoblanadi. U
tilga olganimiz esseda A.Qahhorning shijoati, jasurligini dalillar bilan
ochib bera olganki, bu uning oʻz soʻziga ega munaqqid ekanligini
yana bir bor isbotlaydi.

Tayanch tushunchalar: tanqid tadqiqotchisi, milliy uygʻonish, qatagʻon,
xolis bahio, yangilanayotgan tanqid, tanqidiy asarning tili, kom-
pozitsiyasi, erkin fikrlash, mahorat qirralari, adabiy tanqid tadriji,
adabiy-tanqidiy jarayon;ilmiy-nazariy qarashlar uygʻunligi, adabiy
suhbatlar, erkin tafakkur, uslub qirralari, tanqidchiga maktub, mikroa-
naliz, matn tahlili.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *A.Rasulov, B.Nazarov, I.Haqqulovlarning oʻzbek tanqidi rivojida
tutgan oʻrni qanday?*

2. Olimlar tanqidchi mahorati masalasini qanday tushuntiradilar?
3. B.Nazarovning adabiy jarayonga munosabati haqida so'zlang.
4. Tanqidchi uslubi deganda nimani tushunasiz?
5. Munacqidning o'zbek adabiy tanqidining tabiatiga oid tadqiqotlari haqida so'zlang.
6. «G'afur G'ulom olami» asari haqida gapiring.
7. A.Qahhorning badiiy haqiqati deganda nimani tushunasiz?
8. Ilmi g'ariba deganda nimani tushunasiz?
9. A.Rasulovning ontologik yondashuv haqidagi mulohazalarini tizohlang.
10. «Tanqid, talqin, baholash» asari haqida gapiring.
11. Olimning hayot yo'li haqida nimalar bilasiz?
13. A.Rasulovning adabiy jarayonga munosabati haqida so'zlang.
14. Tanqidchi jasorati deganda nimani tushunasiz?
15. I.Haqqulovning oybekshunoslikka qo'shgan hissasi nimadan iborat?
16. I.Haqqulov A.Qahhor haqida qanday asar yaratdi?
17. Olimning adabiy suhbatlari haqida gapiring.

123

ADABIY TANQIDDA TAHLIL VA TALQIN MUAMMOLARI

REJA:

1. Adabiy matnni o'qish, o'zlashtirish muammosi.
2. Talqiniy yondashuvlar yoxud maqsadli tahlil.
3. Talqiniy jarayon: tahlil yo'llari, maqsad va vazifalari.

1. Adabiy matnni o'qish, o'zlashtirish muammosi. O'zbekiston mustaqilligi tufayli qo'lga kiritilgan haq-huquqlar, imkoniyatlar, yutuqlar sarhisob qilinmoqda. Ijtimoiy fanlar, xususan, adabiyotshunoslik va tanqidchilik sohasida qadriyatlarini, ma'naviy-adabiy boyliklarini, falsafiy, tarixiy asarlarni o'rganish, izchil tahlil, talqin etish, baholash imkoniyati paydo bo'ldi. Hech qanday tuzurn talqin, tahlilni inkor etmaydi. Lekin aksariyat ijtimoiy-siyosiy-mafkuraviy munosabatlar xolis va teran talqinga imkon bermaydi.

Mustaqil O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'naviy vaziyat o'tmishni haqqoniy o'rganish, muqaddas, o'lmas asarlarni xolis, ishonarli, ilmiy talqin etish imkonini berdi. Qur'oni Karimning bir necha izohli tarjimasi, Jaloliddin Rumiy «Masnaviy»sining sharhli tarjimasi, olamga taniqli mumtoz olimlarimiz, adiblarimiz asarlarining izoh-sharhlar bilan chop etilishi yigirma yillik tariximizning bebaho yutuqlaridir. Mustaqillik tufayli so'z san'atkorlari hamda olimlarning asarlari mukammal holda chop etila boshladi.

Mukammal asarlar — talqinning mustahkam poydevori. Alisher Navoiyning 20 jiidlik mukammal asarlari, «Boburnoma» to'liq nashr qilindi. 2001-yil Mustaqil O'zbekistonda haqli ravishda Navoiy yili bo'lib qoldi. Mustaqillikning 10 yilligi arafasida Navoiy shahrida Navoiyning yodgorlik majmui ochildi. Prezident Islom Karimov shu tantanali marosimda so'zlagan nutqida bunday dedi: «Hazrat Navoiy shunday buyuk zot ekan, uning tafakkur durdonalari bo'lmish boqiy asarlari zamonlar osha yashab kelayotgan ekan, bu ulug' merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, ma'naviyatni yuksaklikka ko'tarishda, insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz. Ayni paytda bu vazifa, ilgari ham aytganimdek, har birimizni Navoiyni

yunada yaxshiroq o'qishga, Navoiyni yanada teranroq o'rganishga, uning umr daftaridan ibrat va saboqlar olib yashashga da'vat etadi»¹. Qadriyatlarni qadrlab, mangu barhayot asarlarni tushunib, his qilib, talqin etish, yaratilayotgan ko'plab asarlarning sarasini bexato ajrata bilish fikrlovchi, sinchkov insonlarning murakkab yumushidir. Mustaqillik yillarida kishilarimizdagi mushohadakorlik, talqin qila bilish uquvi o'sdi. Milliy mafkura, istiqloq g'oyasining ilm-fan, xususan, o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga singib borishi badiiy asarlar — adabiy matnning mukammal, ilmiy tahlil va talqinida namoyon bo'ladi. Tahlil va talqin nafaqat hozirgi o'zbek adabiyoti, balki mumtoz adabiyotimiz, jahon adabiyoti noyob namunalarining asosli tahlil, teran talqini orqali milliy mafkura, istiqloq g'oyasini yoritib berishi mumkin. Tahlil va talqinlar — badiiy asar bahosini belgilashdagi bosh mezon. Ayni vaqtda ular adabiy tanqidning muhim tarkibiy asoslari. Adabiy tanqid esa — adabiyotshunoslikni tutib turadigan mustahkam uch ustunning biri. U badiiy asar vositasida hayot, insonlar haqida mushohada yuritadi; badiiy asarning ijtimoiy-madaniy munosabatlardagi o'rni, vazifasi, milliy-mafkuraviy, umuminsoniy mohiyatini yoritadi; badiiy asarning falsafiy-estetik mohiyatini, tarixiy-madaniy qatlamdagi o'rnini belgilaydi; adabiy matn tahlil orqali badiiyatga doir kamchilik, yetishmovchiliklarni ochadi yoxud tanqidning saralovchilik vazifasini amalda isbotlaydi; badiiy asarga singdirilgan, uning «joni»ga aylanib ketgan go'zalliklarni nozik kashf etadigan, ilmiy-mantiqiy xulosalarga asoslangan talqin vositasida ularni yuzaga chiqaradi; adabiy talqinning xulosa, natijalarini badiiy asar bahosini belgilashga yo'naltiradi.

Adabiy tanqid, xususan, talqin haqidagi qarashlarning asosiy manbayi o'zlashtirish nafosatshunosligi (retseptiv estetika)dir. Madaniyatli inson borki, qadriyatlarni e'zozlash, o'rganish, o'zlashtirish yo'lidan boradi. Bu — murakkab jarayon, ruhiy-ma'naviy holat. Qadriyatlarni o'zlashtirish, anglab yetish retseptiv estetika predmetidir. O'zlashtirish nafosatshunosligi qadriyat, xususan, badiiy ijod namunlarini qabul qilish, ruh-ongga singdirish jarayonini yoritisa, adabiy talqin o'zlashtirilgan qadriyat, go'zallikning hayotga qaytarilishi, boyitilgan qadriyat sifatida qayta tug'ilish holatidir.

Shunday qarash mavjudki, adabiy matn, tahlil, talqin jarayonidan keyingina yo badiiy asar maqomini oladi, yo yaroqsiz matoh sifatida

¹ «Xalq so'zi» gazetasi. 2001-yil, 25-avgust, 3-sahifa.

inkor otiladi. Tahlil va talqin ichki va tashqi jarayon sifatida kechadi. Adabiy matn yaratuvchisi, ayni paytning o'zida ichki, yashirin talqinchi hamdir. Matn yaratuvchining iste'dodi yuksak bo'lsa, uning talqinchi, tanqidchi sifatidagi talabchanligi ham shunchalik jiddiy, shafqatsiz bo'ladi.

Adabiy tanqid—keng qamrovli soha. Sharoit, vaziyat adabiy tanqidning goh u, goh bu yo'nalishda rivojlanishini taqozo etadi. XX asr o'zbek tanqidchiligi murakkab holatlarni boshidan kechirdi. Asr boshlaridagi, yangi shakllangan adabiy tanqid ruhida millatparvarlik, xolis adabiy talqinga intilish tamoyili yetakchi edi. Sobiq sho'ro davrida adabiy tanqid asl, xolislik xislatini yo'qotdi, kommunistik mafkura dastyoriga aylandi. 80-yillardan e'tiboran adabiy tanqidda oshkoralik, shiddatkorlik sezila boshlandi.

Mustaqillik davridan e'tiboran xolis talqinlar tanqid asosiga aylana bordi. Bu tanqidda anglash, qiziqish, tushunib yetish tamoyili ko'zga darhol tashlanadi. Hozirgi paytda o'zbek tanqidchiligi «milliy g'oyani tarannum etishga, istiqloq mafkurasiga zid g'oyalarning zararli mohiyatini ochib berishga, ayniqsa, e'tiborni kuchaytirish zarur. Hayot va ijoddagi mahdudlik va fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara, tanqid va tahlillar orqali mafkuraviy muhitning sog'lom bo'lishiga erishish»¹ asosiy masala bo'lib turibdi.

XX asrning 80-yillari, xususan, O'zbekiston mustaqilligidan boshlab, tanqidchilikda talqinga, badiiy asarlarni ich-ichidan xolis yoritib berishga, ma'nolar qatini ochishga, tahlillar har xilligiga e'tibor ortdi. Badiiy asarga biografik, ijtimoiy-genetik, ontologik, tarixiy-funksional yondashuv yoxud maqsadli tahlil qilish tamoyili kuchaydi. Adabiy talqin badiiy asarni ich-ichidan, tuzilishi-yu tarkibi ruhidan yoritishdir. Tahlilning strukturali, semiotik, ijtimoiy, uslubiy, intonatsiyaga ko'ra botinidan boqib, ichdan tekshirib (mikroanaliz) tahlil qilish yo'sinlari mavjud. Ohang, uslub tahlili tanqidchilikka endi-endi kirib kelayapti. Adabiy tanqidning asl mohiyati tahlil va talqinlarda namoyon bo'lishini ko'rsatish dolzarbdir. Tahlillar izchil, ishonarli; talqin asosli bo'lsa, badiiy asarning asl qimmatini, qadriyatlik asosi anglashilaveradi.

Haqiqiy adabiy-badiiy matn-o'ziga xos, betakror qurilma. Unda adib uslubi, iste'dodi, intellektual darajasi aks etadi. Chin adabiy

¹ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. — T.: O'zbekiston, 2000, 65-bet.

matn-ma'nolar xazinasi, pishiq-puxta to'qilgan mato misoli. Matn bir qancha qatlamlardan iboratki, kitobxon, talqinchi o'z imkoniyati darajasida shu qatlamlarni zabt etadi. Asrlar davomida ahli donish, ahli ilmlar matn murakkabliklari, mukammalliklari maftuni bo'lib kelganlar. Matn harf, bo'g'in, so'z, birikma, gap, parcha va boblar jamuljamidir. Umri boqiy, xalq dilidan, madaniyat tarixidan joy olgan matn (asar) haqida: «Bu asar (matn) falon zamonda, falon siymo tomonidan yaratilgan», deymiz. «Yaratilish» bilan «yozish» orasida farq bor.

O'lmas asarlarning yaratilishi tarixi haqida rivoyatlar ko'p. Kitobxon, mantiqqa asoslangan, ijodkor yozgan asarni-harflarni, gaplarni, bo'limu boblarni ma'lum muddat davomida ko'radi. Lekin hech kim, hech qachon asarni ko'rib chiqdim demaydi, o'qidim, uqdim, o'zlashtirdim deydi. O'qish, xususan, uqish o'ziga xos ijoddir. Kitobxon-badiiy matn unga xoh yoqsin — xoh yoqmagan bo'lsa-da, his-hayajonga beriladi, u haqda o'ylay boshlaydi. Kitobxon ijodining bu bosqichida badiiy matn yo badiiy asar sifatida qabul qilinadi, yo badiiylikka aloqasiz matoh sifatida inkor etiladi.

O'qish, uqish jarayonidagi ijodda aql yetakchilik qiladi. Aniqrog'i, kitobxon, bus-butun holda qabul qiluvchi, o'zlashtiruvchiga aylanadi. Asarni o'qish, aslida, o'zi uchun ijro etishdir. Kitobxon voqealarga aralashadi, qahramonlarni joylashtiradi, ularning gap-so'zlarini eshitadi, ruhiy holatlarini yurakdan his etadi. B. Tomashevskiy angla-shicha, «kitobni o'qib», biz uni «ichki nutq» shakliga o'giramiz yoxud uni gapirtiramiz, ovoz holiga keltiramiz. Kitobxon qalbi asar ijro etilayotgan sahnaga aylandimi, demak, qahramonlar ham kitobxon ixtiyoriga o'tgan bo'ladi.

Yozuvchi Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar»ni yozar ekan, o'quvchi sifatida yozganlarini uqib bordi. Natijada, Kumushning o'limiga ilk bor ko'z yoshi to'kkan kitobxon Qodiriyning o'zi bo'ldi. Romandagi Otabekka kitobxon Qodiriy havas bilan qaradi. «Bordiyu, «O'tkan kunlar» romani asosida kino olinsa, Otabek rolida o'zim o'ynagan bo'lardim», deya orzu qildi Qodiriy.

Kitobxon asarni o'zlashtirib, o'ziniki qilib olganining misollari ko'p. A. Qodiriy asarlari qahramonlari haqida ko'plab she'rlar yozildi.

Bu holat shuni tasdiqlaydiki, kitobxon badiiy asarni o'zlashtirmas, qahramonlarini jonli kishilar sifatida ko'rmas ekan, ular haqida jo'shib gapira olmaydi, ular to'g'risida badiiy asar yozolmaydi.

Badiiy adabiyotda mashhur yozuvchilar, ularning asarlari, qahramonlari, san'atkorlar haqida yozilgan she'rlar ko'p¹. Badiiy asarlardan ilhomlanib yozilgan she'r, poema, nasr yana bir ruhiy holatni tasdiqlaydi: asar o'qilayotganda vaqt tushunchasi unutiladi. Bizning kunlarda, shoir yozganiday Kumushga oshiq yigitlar, Otabekka maftun qizlar ko'p. O'ylab ko'rilsa, «O'tkan kunlar»dagi Kumush hozirgi yigitlarning buvisining buvisidan ham qari. Otabek ham shunday. Lekin insoniy xususiyatlar, odam tabiatiga xos belgilar hamma davrlarda bir xil bo'lgan. Buni badiiy asarni uqishning ruhiy-tabiiy tomoni deyiladi. Badiiy matnni anglash, o'qish, his etish kitobxon - talqinchining badiiy olamga kirib borishi jarayonidir. O'qish-olam haqida emas, olamning ichida turib fikrlashdir, deydi M.Baxtin. O'qish talqinchining kechinmadoshlik jarayonidir. Boshqacha aytganda, yozuvchining fikr, tuyg'u, maqsadlari kitobxon (talqinchi) tomonidan qayta boshdan kechirilmas ekan, o'qish, anglash, idrok etish maromiga etmagan bo'ladi.

Estetikaning germeneytika sohasi anglash, o'qishdagi tartib, uzviy bog'liqlikni ta'kidlaydi. Uqish, tushunish bilimning bir halqasi, xolos. U hali bilimning to'la mazmunini tasdiqlay olmaganiday, inkor ham qilolmaydi. Tushunish-matn muallifi ijod jarayonida kechirgan ruhiy holatlarni qayta his etish, ma'noni o'zlashtirish, xolos.

Shunday ham bo'ladiki, o'quvchi uqtiruvchidan ko'proq bilib olishi mumkin. A. Potebnya fikricha, «Tinglovchi gapiruvchiga nisbatan so'zlar zaminiga yashiringan ma'nolarni ko'proq ilg'aydi, kitobxon shoirga nisbatan asarga kengroq miqyosida yondashadi».

Martin Xaydegger matnni anglashda samia-eshitish sezgisiga alohida urg'u beradi. Eshitish anglash bosqichida asosiy nuqta hisoblanadi. Tinglayotgan odam biron gapni eshitmay qolsa, «qaytaring, tushunmadim», deydi. Eshitish akustikaga asoslangandir. Akustik anglash tushunishdagi muhim markaz hisoblanadi. M. Xaydegger eshituvchi va sokin odam gapiruvchiga ko'ra ko'p narsa anglashini ta'kidlaydi². Musulmon dunyosining aksariyat aholisi eski arab-Qur'oni karim tilini tushunmaydi. Ammo bu muqaddas kitob shunchalik ixlos,

¹ A. Oripov. «Mo'min Mirzo», X. Davron «Oybek», H. Xudoyberdiyeva «Kumushning o'limi», M. Yusuf «Said Ahmad», «Kumush», «Usmon Nosir», «Shukur Burhon» singari she'rlar nazarda tutiladi.

² Xайдеггер Мартин. Разговор на проселочной дороге. — М.: 1991. — С. 175.

e'tibor bilan eshitaladiki, tinglovchi o'zi sezmaganda holda ma'nini, fikr nima haqida borayotganini anglaydi.

Badiiy asarning eng muhim ahamiyati shundaki, u inson qalbini mayinlashtiradi, tuyg'ularini o'tkirlashtiradi, ma'naviy-ruhiy barkamollikni tarbiyalaydi. Oddiy o'quvchi bilan tanqidchi orasidagi farq qachon, qanday vaziyatlarda ko'rinadi? V. Belinskiy deyarli har bir yangi asar chuqur o'ziga cho'ndirishini, sermulohazakorlikka undashini ta'kidlaydi. Buyuk tanqidchi o'z asarlarida kirish gap cho'zilib ketishi, o'y-mulohazalarga keng o'rin berilishi sababini shundan deb biladi. «Tanqidchi ham yangi asarni o'qish paytida dono bir kitobxonga aylanib, undan mumkin qadar to'liq va xolis taassurot olishi, o'qiyotgan asarini kitobxonlik shuuri bilan fikran qayta yaratib chiqishi kerak, — deb yozadi Pirinqul Qodirov U.Normatov bilan suhbatda. — Shundan keyingi bosqichda kitobxon eplolmaydigan ishni bajarishi — asardagi g'oyaviy-badiiy ma'nolarning mag'zini ilmiy-tanqidiy tafakkur yordamida chaqib berishi kerak. P.Qodirov mulohazasi to'g'ri, lekin u tanqidchi vazifasini belgilashda muhim bir nuqtani alohida ta'kidlamayapti.

Ehtimol, I.G'afurov tanqidchi vazifasini mukammalroq tasvirlar: «Bu g'oyatda maroqli hunar. Maroqlisi shundaki, yaxshi she'rmi gapirib berib bo'lmaydi. Undagi hislar to'liqini nozik o'yli ruhshunos kabi talqin va tahlil qilish kerak.»

V.G.Belinskiy tanqidchi uchun nihoyatda zarur bo'lgan bir xususiyatga diqqatni jalb etadi: «Shoirni tushunib yetish uchun ma'lum fursat uning ruhiga singish: ko'zi bilan ko'rish, qulog'i bilan eshitish, tili bilan so'zlash joiz. Butun borliq bilan bayronchi bo'lmasdan turib, Bayronni o'rganish mumkin emas. Shu gapni Gyote, Shiller haqida ham aytish mumkin

Albatta, o'zining ta'siriga ixtiyoriy berilish hall bosiq, izchil, chin tushunishmas, jo'shqin, haroratli qiziqish, xolos. Tuyg'ular to'liqining aql chig'irig'ldan obdon o'tgan tushunchaga aylanishi shoir ijodini o'rganish tomon tashlangan sobit qadamdir». Tuyg'ularni jilovlash, tafakkur bilan ish ko'rish tanqidchining hayotiy tajribasiga, go'zallik tuyg'usiga, ilmi va mahoratiga bog'liq.

Munaqqid tanqidchilik ilmini, undagi konkret metodlarni, tahlil yo'llarini o'qib-o'rganishi, siyosiy-ijtimoiy qarashlarini o'stirishi mumkin, ammo unda iste'dod va did bo'lmasa, barcha xatti-harakatlar zoyedir. Badiiy ijoddagiday, tanqid ham tirishqoqlik bilan yozilmagan taqrizu maqolalardagi fikrlarda jo'shqinlik, harorat, nur

bo'lmaydi: yuksak parvoz qilolmaydi, qalblardan qalblarga o'tib yurolmaydi. Tanqidda, badiiy ijod, umuman san'atdagiday, iste'dod, dahollik o'ta noyob hodisa. Adabiy jarayon faqat iste'dodli daholardan iborat bo'lishi mumkin emas. Qobiliyatli ijodkor, tanqidchilar jarayonni jonlashtirishga, uyushtirishga xizmat qiladilar.

Adabiy talqin asarni chuqur his etish, anglashni, yozuvchi «dunyoga teran kirib borishni» taqozo etadi. Adabiy tanqidagi kechirilmas gunohlardan biri asarni subyektiv, uning mohiyatiga yaqinlashmasdan «talqin» qilishdir. Oybek «Tanqid sohasida savodsizlik va ur-yiqit-chilikka qarshi o't ochaylik» maqolasida A.Sa'diyning «To'rt she'rlar to'plami to'g'risida» sharh-taqriziga munosabat bildirib, jumladan, mana bu fikrni ta'kidlaydi: «Tanqidchi asarlarni konkret analiz qilish natijasida o'z hukmlarini chiqarishi kerak. Sa'diyning hukmlari asarning analizidan kelib chiqmaydi. Ko'pincha faktlar, shoirning qarashlari, fikrlari «qiyshiq oyna» orqali ko'rsatiladi. She'rlarga tanqidchi o'z kayfiga yarasha, o'zi istagancha ma'nolar tiqishga tirishadiki, bu bilan tanqid obyektiv ahamiyatdan mahrum etiladi». Vulgar sotsiologizm «nazariyasi», sovet adabiyotining xalq hayoti bilan aloqasi susaygan yillar — shaxsga sig'inishning oqibatlari tufayli badiiy asarni subyektiv, noto'g'ri talqin qilish hollari uchradi. U paytlarda yozuvchiga jiddiy aybnomalar qo'yilar, do'q-po'pisa qilinardi. Besh qo'l barobar emas degan gap bor.

Sovet adabiyotshunosligida ham talqin masalasiga teran yondashilgan tadqiqotlar mavjud. Chunonchi, mashhur olim M.M.Baxtin «So'z san'ati estetikasi» asarida talqinchi adabiyotshunos faoliyatidagi muhim nuqta-talqin qilinayotgan asar va yozuvchi mohiyatiga chuqur singib borish ekanligini alohida ta'kidlaydi. Talqinchi ijodkorning mohiyatini, asar yaratishiga sabab bo'lgan asosini teran anglab olgandagina, tahlil va talqinda qiynalmaydi. Anig'i, talqinchi bilan talqin qilinayotgan asar muallifi orasida moslik, mutanosiblik paydo bo'ladi. Boshqacha aytganda, buloqlar, jilg'alarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishi daryo mohiyatini tez angelaydi. Adabiy-tanqidiy asardagi mantiqiy izchillik, tanqidchi qalamining erkin harakati, muhimi, tanqidagi joziba mohiyatini teran anglashga, yozuvchini qalam olishga undagan sababni aniq va ravshan ko'ra olishlikka bog'liq. Yana ham aniqlashtirib aytganda, yozuvchi ham, tanqidchi ham san'at mohiyatini teran anglamog'i joiz.

Aristotelning «Poetika» asarida katarsis va kaolokogot ta'limoti haqida ma'lumot mavjud. Katarsis — ruhiy poklanuv ta'limoti,

kaolokogot — ma'naviy ta'sirga berilgan shaxsdagi ruhly-estetik o'zgarishlarni uqish ilmidir. Aristotel san'atning insonga ta'siri muammosini tragediya asarlari tahlili orqali ko'rsatgan. Inson qalbi nozik, eng ta'sirchan, billurday pokizadir. Qalbga ta'sir etuvchi vosita yana ham nozik, yana ham pokiza, olmosday serjilo-serqirra, bebaho bo'lmog'i lozim. Xalqda «achchiqni achchiq kesadi», degan naql bor. A'zoyi badanga tikan kirsas, uni (tikandan-da qattiq) igna bilan chiqaradilar. Eng qattiq jismlar olmos (qattiqlarning qattig'i) bilan qirqiladi. Nozik, ta'sirchan qalbga yana ham nafis, pokiza san'at ta'sir etishi mumkin. Aristotel yaratgan katarsis ta'limotining eng yorqin talqinlaridan biri Cho'lponning «Adabiyot nadur» maqolasidir.

O.Sharafiddinov «Cho'lponning adabiy-tanqidiy qarashlariga doir» radqiqotida Cho'lpon maqolasidagi o'zak masalani har tomonlama talqin qilishga intiladi. Olimning uqitirishicha, yosh Cho'lpon badiiy adabiyotgina xalqning o'z-o'zini anglashida asosiy kuch ekanligini alohida ta'kidlaydi. XX asr boshlarida O'rta Osiyo, xususan, o'zbek xalqi o'zligini yo'qotayozgan edi. «Shuning uchun yosh munaqqid kornil ishonch bilan hatto millatning yashashini adabiyotning yashashiga bog'liq qilib qo'yadi. Ehtimol, Cho'lpon bu o'rinda biroz ehtirosga berilgandir. Biroz mubolag'aga yo'l qo'ygandir, lekin hech shubha yo'qki, XX asr boshlaridagi Turkiston sharoitida «adabiyot yashasa millat yashar» degan formula to'g'ri va samarali formula edi»¹.

O.Sharafiddinov Cho'lpon maqolasida ko'tarilgan katarsis masalasini adabiyotning spesifikasi, ya'ni obrazli tabiati deb anglaydi. Bu masala adabiy tanqid, adabiyotshunoslikning doimiy muammosi bo'lgan. XX asr boshlarida Cho'lpon adabiyotining asosiy vazifasini to'g'ri angladi: «hech to'xtamasdan harakat qilib turg'on vujudimizga, tanimizga suv-havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa--millat yashar. Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishtirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Buni inkor qilib bo'lmas. Inkor qilg'on millat o'zini inqirozda ekanun bildirur.

Bizdan boshqa millatlarga ko'z solsak ko'ramizki, ularning olti yoshidan olmish yashar qarilariga qadar adabiyotdan bari lazzat oluv,

¹ Sharafiddinov O. Cho'lpon. Adabiyot nadur? — T.: 1993. — 8-bet.

oxir umriga qadar adabiyot o'qib eshitmakni vazifai milliyasidan hisob qilur. Mana shuning uchundirki, Ovrupaning har shahar va qishloqlarida, har kun, har hafta adabiyot kechalari qilinur, adabiyot o'qilur, nutq so'ylanib xalq ko'b kirib ta'sirlanurlar». Cho'lpon ruhiy poklanuvning birdan bir vositasi san'at, xususan, badiiy adabiyot deb biladi. Afsuski, Cho'lponni badiiy adabiyotimizdagi o'sish-o'zgarishlar qoniqtirmadi. U hamisha o'zga xalqlar adabiyoti, san'atidagi o'zgarishlarga havas bilan qaradi, ularning eng yorqinlarini tarjima qilishga intildi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, adabiyotning katarsis- poklovchi vazifasini chuqur his etgan tanqidchilar o'zbek adabiyotshunosligida hamisha bo'ldilar. Aks holda, o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi o'zini tamoman yo'qotgan bo'lardi. XX asrda o'zbek tanqidchiligi tazyiqlarga uchradi, quyushqonga solindi, lekin u baribir o'zligini yo'qotmadi. O'zbek adabiyoti yashaganiday, o'zbek tanqidi ham ro'y berayotgan ijtimoiy-adabiy hodisalarni teran idrok etib bordi.

Aristotelning katarsis, kaolokogot ta'limotini ko'p jihatdan nemis faylasufi Immanuel Kant estetikasida davom ettiradi. Kantning uqtirishicha, badiiy asarniig estetik mohiyati o'zlashtirish jarayonida — madaniy kontekst holatida namoyon bo'ladi. Kant estetikasida badiiy matnni o'zlashtiruvchining go'zallikni his qilishi, didi muhim ahamiyatga egaligi uqtiriladi.

Badiiy matn ahli kitobxonsiz nokerakdir, ahli darksiz beqadrdir. Matnning badiiy asarlarga aylanishi san'atkor va ahli dark mehnati omuxtalashuvidir. Matn kitobxonsiz ahamiyatsiz bo'lganiday, kitobxon ham badiiy adabiyotsiz g'aribu benavodir. Omma badiiy adabiyotni tushunib yetmaganligi sababli unga qarshi isyon ko'taradi. «Ommaga tarki odat amri maholdir: u odatlangan narsalarinigina eng rost, eng odil, eng nafli deb biladi... U bundan yuz, hatto undan-da ozroq muddat ilgari yangilik bo'lgani uchun jon-jahdi bilan inkor etgan narsalarini bugun eskilikka aylanganida ham shu alfozda himoya qiladi», deb yozadi V.G. Belinskiy.

Badiiy asarni dark etish masalasida ijodkor va kitobxon aro hamisha ziddiyat paydo bo'laveradi. Lekin, baribir, adabiyotning joni xaloyiq orasidadir. «Tinglayotgan so'zlayotganga nisbatan so'zlar zaminidagi ma'noni teranroq anglaydi, kitobxon ijodkorga nisbatan asar mohiyatini chuqurroq tushunadi. Asarning qimmatini, muallif g'oyasi-

¹ *Потемкина А. Эстетика и поэтика. — М.: 1976, — С. 330.*

damas, uning o'quvchiga qay darajada ta'sir o'tkazishidadir¹, deydi A. Potebnya. Kitobxon asarni dark etaverar, undan zavq-shavq olaverar ekan, demak, o'sha asar tabiatida ontologiya — mangu yashash ildizi bor.

Kitobxon va yozuvchi aro bog'liqlikda ham g'alati munosabatlar bor. Ahli dark badiiy asarning, deylik, o'ndan to'qqiz qismini ongli o'zlashtiradi, undan bir qismini g'ayri shuuriy anglaydi. Shu jarayon yozuvchida teskari nisbatda ro'y berishi mumkin: ijodda savqi tabiiylik yetakchilik qiladi-yu, ongli tasvir, hisob-kitobli yozish kam bo'ladi. Haqiqiy san'atkorlar o'z asarlarini ahli dark sifatida o'qiganlarida ruhiy qoniqish hosil qiladilar.

Yoxud aksariyat san'atkorlar ahli dark mulohazalarini tinglab hayron qoladilar, o'z asarlarini o'zicha yangidan kashf etadilar. San'atkorlar ahli darkka hurmat bilan boqqanlar, hatto ularni orif deya ulug'laganlar.

*To musaxxar ayladim so'z birla ma'no kishvarin,
Shohmen, ey Munis, ahli donishu idrok aro¹.*

Haqiqiy san'atkor o'zi yaratgan badiiy boyligi qimmatini anglaydi. U soxta kamtarlikni yig'ishtirib o'z qadr-qimmatini lo'nda belgilaydi.

Sharq-musulmon adabiyoti, falsafasida ruhiy-ma'naviy poklanuv masalalar masalasidir. Abu Nasr Forobiy Aristotel asarlarini, xususan, «Poetika» asarida ta'riflangan trag'o'ziyo, kumuziya, dramoto, saturo singari tur, janrlarni sharhlar ekan, ruhiy poklanuvning sababiga diqqatini qaratadi. U mashhur asarlardagi so'z, fikr, qarashlar tirik, jonli ekanligini ta'kidlaydi. Tirik matngina turlanadi, toblanadi, yashaydi, o'zini turli ko'rinishda namoyon etadi.

Demak, ruhiy poklanuv sababchisi matnning tirikligi, harakatdaligidir. Matn tirik jonli, so'zlar serjilva bo'lmasa, ular kitobxonni rom etmaydilar, yangi-yangi ma'no qatlamlarini ifodalamaydilar. Aniq ma'lumotlarning dalolat berishicha, Aristotelning «Tabiat uyg'unligi» ni Forobiy 40 bor, «Ritorika» sini 200 bor mutolaa qilgan. Tirik bo'lmagan, fikrlar hayoti barq urib turmagan matnni shuncha bor o'qib bo'ladimi? Aniqrog'i, jonli matngina sharh, tafsir, ta'vil, talqinga yo'l ochadi. Demak, talqin — tirik, jonli, ruhiy poklovchilik xususiyatiga ega bo'lgan matnning mevasidir. Sharq-musulmon falsafasi, adabiyotida badiiy matnga alohida e'tibor

¹ *Munis*. Saylanma. 1980, 201-bet.

berilishining, tafsir, ta'vil, talqinning jalb etuvchi soha sifatida ulug'lanishining boisi shundadir.

Katarsis ta'limoti Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy qarashlarida ham o'z aksini topgan. Sharq-musulmon olamining ulug' donishmandi Zayniddin Muhammad G'azzoliy «Dil ajoyibotlarining sharhi» asarida nafs, jon, dil, aql lafzlari ma'nolarini ifodalaydi. Donishmandni mazkur tushunchalarning ruhoniyligi tomonlari qiziqtiradi.

O'zbek mumtoz adabiyotida ahli dark, ahli idrok, zurafo singari istilohlar bot-bot uchraydiki, ular san'atsevarlarni, badiiyat olamidani huzur-halovat oluvchilarni nazarda tutadi. Ahli dark deganda san'atni teran o'zlashtirganlardan tortib, badiiyat sir-asrorlarini chuqur anglovchi mutaxassisgacha tushunilgan. Ahli dark zurafo orasida manman degan talqinchilar, uslubshunoslar, qilni qirq yoruvchi usiozi komillar bo'lgan.

*Sabt o'lmasa Navoiy oti nazmi zaylida
Fahm aylar ahli dark kamoli adosidin.*

Dark nazokati, idrok nafosati, zurafolik mushkulliklari xususida Imom G'azzoliy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Immanuel Kant, Xeorg Xegel asarlarida ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar aytilgan. Ahli dark, zurafo haqida aytilgan gaplar tanqidchilik haqidagi mulohazalar ekanligi yaqin-yaqinlargacha ko'pchilikning xayoliga kelmagan.

Ahli dark badiiy asarni o'zlashtirar ekan, zavq-shavq oladi, huzur qiladi. Ahli dark orasida shundaylari borki, ular badiiy asarni baholash sharafini ham zimmlariga olganlar. Bunday toifadagi dark ahli bilan mahak ila yaqinlik bor. Haydar Xorazmiy «Mahzan ul-asror» dostonida saralovchi yoxud ahli naqdni «mahaki imtihon»ga qiyoslaydi.

Har kasb-korning o'z sir-sinoati bo'lganiday, qadimda oltin, kumush singari qimmatbaho qorishmalarni izlovchilar mahaktoshdan foydalanar ekanlar. Mahak toshlar ma'danlar uyumidan oltinu kumushlarni bexato ajratib berarkan. Professor A. Hayitmetov XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Shayx Ahmad ibn Xudaydod Taroziy, uning «Fununun-balog'a» asari haqida to'xtalinib, «U inson hayotida badiiy so'zning, she'rning o'rnini yaxshi tushungan. Uning fikricha, kimning ko'ngli gap-so'zga va shirinso'z bo'lishga moyil bo'lmasa, uni inson deb atash qiyin: «Netongkim... insonning doirasindin tashqaridur», deydi.

Ahli dark, zurafolarning yuksak maqomdagilari oriflar (urafo) nomini olgan bo'lib, Qur'on, hadis, falsafiy asarlarni tafsir, ta'vil

etganlar. Bular badiiy ijod namunalari ham talqin qilganlar. Ahli darkning yetuk, iste'dodli qatlamini biz munaqqid, tanqidchi deymiz. Haqiqiy badiiy matnni o'qiganida iste'dodli tanqidchi jo'shib ketadi, ilhom bilan ijod qilishga tutinadi. Tanqidchidagi iste'dod kuchli bo'lsa, yozuvchi ijodining mevasi — badiiy matn shunchalik ochilib ketadi, uning tarkibi kitobxon — tanqidchi ijodining samarasidan boyiydi, to'yinadi. Adabiy tanqidchi asar haqida asar yaratadi yoki yozuvchi ijodining mahsuliga ijtimoiy munosabatni, tarixiylik mohiyatini, ko'pchilik nazarini singdiradi. Ijtimoiy munosabat, tarixan aniq qarashning yorqin ifodalanishi, tanqidchi ijodi, intellektuallik darajasiga bog'liq. Munaqqiddagi joziba, shiddat, muhabbat yoxud nafrat kitobxonga tez yuqadi. Tanqidchi iste'dodi fikrining izchil, qat'iyligi, ifoda tarzidagi ramziylik, uslubdagi betakrorlikda ko'zga tashlanadi.

Yozuvchi ijod jarayonida g'ayrihuuriy tarzda yozadi yoxud asarini yaratadi: obrazlarning qilmishi, xatti-harakati, voqealar yechimi ijodkor inon-ixtiyoriga bo'ysunmay qoladi. Adabiy tanqidchi ijodida, aksincha, ongli yondashuv-asardagi g'ayrihuuriy ifodalangan o'rinlar mazmun-mohiyatini ochish yetakchilik qiladi. Boshqacha aytganda, tanqidchi ijodi yozuvchi asarini ijtimoiy mazmun, tarixiy munosabat bilan boyitadi. Ko'pchilik yozuvchilar tanqidiy asarlarni o'qimasliklarini, o'z asarlari haqidagi maqolalarga e'tibor bermasliklarini aytadilar. Bunday bo'lishi deyarli mumkin emas, aksincha, sinchkov yozuvchilar o'z asarlari to'g'risida yozilgan maqolalarni kuzatadilar. Asarida o'zi sezmagani, g'ayrihuuriy tarzda ifodalagan o'rinlar tanqidchi tomonidan topilgani, aniq ifodalanganidan zavqlanadi. Munaqqid ijodining birinchi bosqichini asarga ijtimoiy-tarixiy munosabat bildirish, matndagi umumiy kamchiliklarni ko'rsatish tashkil qiladi. Tanqidchi ijodining ikkinchi bosqichida turlicha tahlil yo'llari, yondashuv usullari orqali talqin jarayoni boshlanadi. Talqin esa, tabiiyki, badiiy asarning xolis bahosini chiqarish yo'lidir.

Aristotelning «Germenevtika» asari talqin, uning nazariyasi haqidagi ilk ilmiy asar. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqa olimlar Aristotel ta'sirida talqin fani rivojiga hissalarini qo'shdilar. Sharqda, G'arbda, qadimda va hozir talqin haqida ko'plab asarlar yaratilmoqda. Shunday qilib, talqin adabiy tanqidning o'zak masalalaridan biri, germenevtikaning amaliyotidagi ko'rinishidir.

Germenevtika tarixi talqinnig ikki turini alohida ta'kidlaydi. Shundan asarlar, muqaddas kitoblar bo'lganki, ular turlicha sharhlangan,

talqinchi talqin obyektidan yuqori ko'tarilishni, unga zid ma'no chiqarishini xayoliga keltirmagan. Bu faqat diniy, muqaddas kitoblarga nisbatan qo'llangan tartibot emas, o'tmishning mashhur yozuvchilari, donishmandlari Gomer, Arastu, Aflotun asarlari ham faqat bilish, o'rganish maqsadida talqin qilingan. Buyuk shaxs, ijodkorlar ruhiga shakkoklik keltirish odobsizlik hisoblangan.

Talqinnig ikkinchi turi asarni talqin qilish, unga o'z munosabatini bildirish, to'g'rirog'i, shaxsiy qarashlarini ifodalashdagi vosita deb anglashni taqozo etgan. Talqinchi o'z zamonining farzandi. Talqin jarayonida talqinchining tushunchasi, estetik qarashi, tashqi muhit ta'sirida shakllangan didi aks etishi tabiiy. A.Frans talqin san'ati uzoq tarixga ega bo'lgan jamiyatdagina rivojlana olishligini ta'kidlagan. Uchinchi, san'atning boy an'anasi talqinni keltirib chiqaradi. Haqiqiy talqinlarda matndagi timsollar, tushunchalar, ma'nolar, so'z o'yinlari fono-grammatik -semantik yaxlitlikni vujudga keltiradi. Bu hol ko'proq she'riyat talqinida, xususan, mumtoz adabiyot namunalari talqinida ko'zga tashlanadi. Adabiy talqinda sistemali-semantik yondashuv yetakchilik qiladi. Talqinchi asarni yaxlit holda oladi, ma'nolarini to'liq qamrash maqsadida ishga kirishadi.

Adabiy talqin sohasida kamchiliklar uchraydimi, agar uchrasa, eng asosiylari qaysilar? Talqinda tadqiqotchiga mutlaq erkinlik beriladi: u o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanish huquqiga ega. Ba'zan shu yerkinlik suiiste'mol qilinadi: talqinchi bilag'onligini ko'rsatish uchun gapni aylantiraveradi, ilmiy atamalardan o'ta unumli foydalanadi. Buni talqin ilmida intellektual dendizm deyiladi. Bunday «ilmiy oliftagarchalik» misollari ko'plab topiladi. Talqinning shunday ko'rinishlari borki, talqinchi o'ta nazokat, o'ta silliqlik bilan asar sujetini qaytadan aytib beradi. Bunday hol qadimgi, mumtoz asarlar talqinida ko'zga tashlanadi.

Shunday talqinlar borki, ularni talqindan talqin deyish joiz. Talqinchi o'zigacha qilingan talqinlardan xabardor-u, ammo o'z ishida o'sha talqinlarni bilmaganday tutadi o'zini. Bunday talqindan ko'chirmachilikning nafasi ufurib turadi. Mumtoz asarlar talqinida qayta baholanayotgan zamondagi ijtimoiy-ruhiy holatlar, albatta, hisobga olinadi. Aks holda, talqinda eklektika ko'rinishlari paydo bo'ladi. Eklektika, ma'lumki, birlik, asoslilik, tayanchning yo'qligi, qorishililigidir.

Talqinda yana shunday holatlar bo'ladi, talqinchi o'zidan avvalgi talqinchi qarashlarini ko'r-ko'rona qabul qiladi yoxud ijtimoiy-siyosiy

muhit shunday yoʻi tutishni taqozo etadi. Masalan, Abdulla Qodiriy asarlari talqinida ilk yoʻsinlar (M. Sheverdin, Sotti Husayn qarashlari) yetmishinchi yillarning oʻrtalarigacha davom etdi. Yana bir misol shuki, Shekspirning «Gamlet»i talqin qilina-qilina shunga olib keldiki, Gamlet xushbichim, aqlli, oʻta dono-ideal qahramon tusiga, ruhiga kirdi. Vaholanki, Gamlet ancha toʻla, pishillab qolgan, ruhiy iztirob iskanjasiga tushgan odam edi. Shekspir, tabiiyki, uning tashqi koʻrinishi bilan ichki olami orasidagi allaqanday bogʻliqliklarga ishora qilgan. Sanʼatdagi talqinlar badiiy adabiyotdagi talqinlarga koʻra tez-tez oʻzgarib, yangilanib turadi. Baribir, talqindagi matndan yiroqlashish oʻzini sira oqlamaydi.

Shunday qilib, badiiy asarni oʻzlashtirish, uni tushunib yetish murakkab jarayondir. Ahli dark, zurafo, urafo, tanqidchi, talqinchi badiiy matn (asar)ni anglash, tushunish, tanqidiy his etish, talqin qilishda turli usul, uslublardan foydalanadi. Shuning uchun Sharq, Gʻarb adabiyotshunosligida talqinning tahlil yoʻllari, yondashuv usullari juda koʻp boʻlgan.

Mumtoz adabiyotshunoslikda badiiy matn haqida asar yaratishni ilmi gʻariba deyilgan. Qadimgi yunon faylasuflari ilmiy dunyosini oʻzlashtirish sharq musulmon olamida sharh, talqin ilmni keltirib chiqardi. Sharh, tafsir (talqin) Qurʼoni Karim, hadisi shariflarni oʻzlashtirish, hayotga yaqinlashtirishda qoʻi keldi. Madrasalarda ilmi sharh asosiy fanga aylandi. Sharh, talqin bora-bora badiiyat, xususan, adabiy tanqid sohasiga koʻchdi.

Ilmi gʻariba talqin fani bilan bevosita bogʻliq. Ilmi gʻariba matndagi asosiy nutqlarni, ich-ichidagi maʼnilarni anglash sanʼatidir. Gʻariba ilmi mavjud fanlarni sinchiklab oʻrganish orqali kashfiyot darajasida xulosa chiqarishgacha yetish, ajoyibot nuqtasi qadar koʻtarilishdir. Ilmi gʻariba soʻzning qadrini, eʼtiborini orttiradi. Ilmi gʻariba sanʼatkordan, olimdan soʻz ustida qunt bilan ish olib borishni taqozo qiladi. U soʻz tarkibidagi barcha maʼnolarni yuzaga chiqarish sanʼatiga asoslangandir.

XX asr oʻzbek adabiyotshunosligida ilmi gʻariba darajasidagi asarlar kam yaratildi. Buning ikkita jiddiy sababi bor: badiiy asarlarda ham, adabiyotshunoslik tadqiqotlarida ham yolgʻon koʻpayib ketdi. Ikkinchidan, badiiy asaru adabiy-tanqidiy ishlarda koʻpsoʻzlilik, ezmalik avj oldi. Sobiq shoʻro adabiyotida soʻz qadrsizlandi, soʻz oʻzligidan yiroqlashdi. Mumtoz adabiyotda ham bir soʻz yetti oʻlchab bir qoʻllanilgan, bitta soʻz tarkibi, maʼnosi bilan bogʻliq janrlar boʻlgan.

San'atkorlar kam so'z ishlatib, ko'p ma'noni anglatishni burch-san'at deb unglaganlar. Alisher Navoiy chin so'z, muxtasar kalomni ulug'laydi:

*Kishi chin so'z desa, zebo durur,
Necha muxtasar bo'lsa, avlo durur.*

Haqiqatan ham, g'ariba fani haqiqiy san'at asarlari talqinida paydo bo'ladi. Sho'ro adabiyotida esa siyosat, mafkura, targ'ibotu tashviqot qorishib ketdi. Adabiy tanqid badiiy adabiyotga nisbatan-da mafkuralashdi, siyosiylashdi. U badiiy adabiyot sohasida firqaning ko'zi, qulog'i, ovozig'a aylandi.

XX asrda ilmi g'aribaga manba bo'ladigan asarlarni A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Oybek, A.Qahhor, O.Yoqubov, P.Qodirov, E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi kabi iste'dodlar yaratdilar. T.Murodning qissalari va romanlari g'ariba fani uchun bebaho material bo'ldi. Afsuski, XX asrning 80–90-yillarigacha mashhur asarlarning san'atkorona sir-asrorlari haqida maqola, tadqiqotlar kam yaratildi. Avvalo, sobiq tuzum adabiy siyosati ilmi g'ariba yo'lidagi bosh to'siq bo'ldi. Qolaversa, tanqidchilarda mahorat masalalarini yoritish, asar go'zaliklari xususida fikr yuritishdan ko'ra zamonasozlik tuyg'usi-asarning dolzarbligi, mafkuraga monandligi, ijtimoiy-siyosiy ahamiyati haqida gapirish kuchaydi¹.

G'ariba ilmida san'atkor va tadqiqotchining o'zaro munosabati diqqatni jalb etadi. San'atkor aytmoqchi bo'lgan fikrini nozik yashira olsa, katta ma'noning biron qirasiga ishora qilish bilan cheklansa, fikrni lo'nda aytsa-yu, his-tuyg'uni jilovlay olsa yoxud asarni davom ettirish imkonini yaratasa, g'ariba fani uchun maydon yaratiladi.

Ilmi g'ariba namunasi joriy adabiyot, endigina yaratilgan badiiy asar haqida ham, boqiy asarlarni qayta baholashda ham paydo bo'lishi mumkin. Muhimi, shunday madaniy-ijtimoiy muhit paydo bo'ladiki, g'aroyib talqin, tadqiqotlar ko'plab yaratiladi. XX asr 80-yillari o'rtalaridan, ayniqsa, Milliy Mustaqillikka erishilgandan keyin o'zbek tanqidida g'aroyib talqinlar ko'plab yaratildiki, ilmi g'ariba qayta jonlanayotganligi darhol sezildi.

Talqiniy yondashuvlar yoxud maqsadli tahlil. Adabiy talqin matnni irik mavjudot sifatida qabul qilish, anglashdir. Badiiy matnga qanday maqsad bilan yondashilsa, o'sha maqsadga erishiladi. Ko'pincha badiiy

¹ Bu haqda qarang: *Rasulov A.* Ilmi g'aribani qo'msab. — T.: Ma'naviyat. 1998.

matn orqali yozuvchi taqdirini, asarning milliy-madaniy adabiy qutlamdagi o'rnini, matnda aks etgan voqelikning qay darajada hayotiy, haqqoniy ekanligini bilishga intiladi. Tanqidda hozirgacha ijtimoiy yondashuv, mantiqiy anglash yetakchilik qildiki, u asarning hayotiyligi, haqqoniyligini yoritishga xizmat etdi.

Badiiy matnda yozuvchi taqdiri (ruhiyati, kayfiyati, qay darajada erkinligi) biografik, ijodiy-genetik yondashuv orqali namoyon bo'ladi. Sho'ro adabiyotshunosligida bunday yondashuv rivojlantirilmadi.

Inson hayoti, taqdiri, huquqi, sog'ligi, ijtimoiy siyosiy, ma'naviy adabiy faoliyati bilan bog'liq soha borki, biografiya-tarjimayi holga murojaat qiladi. Adabiyotshunoslik fanida biografik yondashuv, badiiy adabiyotda biografik janr bor. Jahon adabiyotida mashhur siymolar xarakterini yoritish orqali tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari, jamiyatning ma'naviy-ruhiy holati, o'sish-o'zgarishlari jarayoni ishonarli ko'rsatib berilgan asarlar talaygina.

Sharq mumtoz adabiyotida payg'ambarlar, avliyo, mashoyix, hakimlar, ulamolar, yozuvchilar, davlat arboblari-shohlar, sultonlar, amirlar haqida bitilgan asarlar ko'p. Sharq adabiyotshunosligida tazkira, manonqib-holot asarlar ham ancha.

O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidida XX asrning 50-90-yillarida yuzdan ortiq tanqidiy-biografik ocherklar, adabiy portret, adabiy lavha, esselar yaratildi. Ammo bu asarlarning nazariyasi, muammolari ilmiy adabiyotda mukammal yoritilmadi. V.Belinskiy M.Lomonosov haqidagi biografik asar haqida shunday yozadi: «Siz shunchaki asar o'qimaysiz, dalillar uyumi qarshisida turib qolmaysiz, jonli, to'laqonli hayot ichida suzasiz...Bu aslida na roman, na biografiya. U aql va jozibali xayolot mahsuli, u ham ilm, ham san'atga taalluqli: u tamomila betakror, ohorli turdir».

Badiiy asar tahlil, talqin qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiy holati, kayfiyati hisobga olinadi. Adabiyotshunoslikda badiiy asarni talqin etishda yozuvchi ruhiyati, kayfiyati – holatini o'rganuvchi soha bor. Uni biografik metod yoxud badiiy asarga yozuvchi holati nuqtayi nazaridan yondashish deyiladi.

Tarjimayi hol qay darajada haqqoniy ekanligini yozuvchi asarlari ro'y-rost ko'rsatadi. Sho'ro davrida nafaqat tarjimayi hol soxialashtirildi, balki mashhur san'atkorlar asarlari hamisha «tahrir» qilindi, qaychilandi. Navoiy, Bobur, A.Qodiriy, Oybek singari san'atkorlar asari zinhor to'liq, asl holida chop etilmadi. Navoiy asarlari, masalan, deyarli «boshsiz» – an'anaviy kirish qismisiz nashr qilindi. 1989-

yltdan boshlab chop etila boshlagan 20 jildli Alisher Navoiy mukammal asarlari to'plarni buyuk san'atkor haqida yaxlit, to'liq ma'lumot beradi.

Xullas, badiiy asar — yozuvchining botiniy holati ko'zgusi. Badiiy asarni anglash, talqin qilish, baholashda yozuvchi tarjimai holi katta ahamiyatga ega. Haqqoniy yozilgan tarjimai hol badiiy matn ruhini, mohiyatini ochishda bebaho manbadir. Tiyrak talqinchi asar orqali yozuvchi holati haqida ko'p narsalarni so'zlab beradi.

Shu bilan birga yozuvchi ruhiyatidagi o'zgarishlar ontologik yondashuvda aniq ko'rinadi. Ontologiya — so'zlar, tasvirlar, urnuman, matn orqali yozuvchi qalbini, simpatiya-antipatiyalarini, iste'dodi darajasini aniqlashdir. Ontologiya matnni tirik holat deb qarashga asoslangandir. U matndagi har bir harakat, holat orqali yozuvchi qalbini anglashga yo'naltirilgan yondashuv.

Badiiy-ruhoniy boyliklar ko'payib, insoniyatga ma'naviy-ruhiy-estetik ta'sir o'tkaza boshlagach, boqiy asarlar haqidagi ilm paydo bo'ldi. Uni qadimdan yunoncha ibora bilan ontologiya (yashash ilmi) deb atadilar. Sharq musulmon adabiyotida, shubhasiz, mangu asarlar haqida ilm paydo bo'lgan. Bu ilmni zurafo, urafolar yaratganlar.

Ontologiya o'ziga xos qonun-qoidalar vositasida badiiy boyliklarning yashovchanlik sababiyatini yoritib beradi. Tibbiyot inson tabiatidagi tiriklik, yashash sabablarini, kasalliklar va ularni davolashni o'rganadi. Ontologiya qadriyat, badiiy boylikning «hayoti», «tirikligi», «uzoq umr ko'rishi» manbalarini yoritadi. «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlarida nurga yo'g'rilgan hayot haqiqatlari aks etgan. Nur va hayot murakkabliklari mazkur asarlardagi mangu ziddiyat ko'rinishidir. «Otamdan qolgan dalalar»dagi shartlilik, majoziylik, umumlashtiruvchilik singari xususiyatlarni anglab yetmasdan, ularni talqin qilish mumkin emas. Romanda konkretlik va umumlashma, simpatiya va antipatiya, ongsizlik va g'urur, soxtalik va samimiylik, sadoqat va nafrat o'zaro qorishib, birlashib ketgan. Roman ruhidagi bunday ziddiyatlar uning ontologik asosini mustahkamlaydi.

Haqiqiy badiiy asarlarning tirikligi, ontologik mohiyati ko'p jihatdan o'quvchiga ham bog'liq. Talqinchi, tanqidchi ham aslida yetuk o'quvchi, his qiluvchidir. Ontologik yondashuv yozuvchining iste'dodi, bilimi, madaniyati, kitobxon ruhiyatiga rahnamolik qila bilishi darajasini ko'rsatadi. Badiiy adabiyotda haqiqiy gumanistik qarash, inson erki, haq-ququqlarini e'zozlash yetakchi bo'lsa, haqiqiy yondashuv, tahlil talqinlar o'zini oqlaydi.

Badiiy asar vositasida yozuvchi taqdiri, iste'dodi darajasi o'rganiladi. Qayta baholash ham erk hukmronligi pallasida chin rivojini topadi. XX asrning 80–90-yillaridan boshlab o'lmas asarlarning insonparvarlik mohiyati teranroq kashf etila bordi.

Haqiqiy adabiy-tanqidiy yondashuvlar vaqt-zamon elagi vazifasini o'tashi anglashilinyapti. Haqiqiy asarlar, iste'dodli yozuvchilar ijodi yondashuvlar vositasida qayta baholanmoqda. Aksincha, iste'dodsiz, sayoz, ijtimoiy-mafkuraviy talablar asosida yozilgan asarlar o'z-o'zidan yo'qolib, qadrsizlanib bormoqda. Yondashuv, tahlil, talqinlar doirasining kengayib borishi o'zbek adabiyotshunosligining o'sib, boyib borayotganligidan dalolatdir.

Talqiniy jarayon: tahlil yo'llari, maqsad va vazifalari. Tahlil-adabiy tanqidiy faoliyatning asosi, talqinning namoyon bo'lishi, qadriyat bahosining zuhurlanishi. Tahlil-matn mohiyatiga kirib borish, ma'no qatlamlarini qunt, ziyraklik bilan o'rganish, so'zlar, hatto ohanglarga yuklangan vazifa-ma'nolarni qalbning nafosat tarzusida o'lchash.

Adabiy matn-jism-struktura(tuzilma). Munaqqid jism (struktura) ni tahlil qilar ekan, uni harakatlantirayotgan, tirikligini ta'minlab turgan asos-«jon»ni ilg'ashga intiladi. Tilshunos ham jismni tahlil qiladi, lekin uning maqsadi tuzilma tartibotini o'rganish. Adabiy tanqidchi strukturani tahlil qilar ekan, asos, ildizni belgilashga intiladi: «jon» belgilanmas ekan, so'zlar-jumlalar ma'nosi yorishmaydi, ular jilvasi, toblanishi sezilmaydi. Strukturali tahlil – adabiy matn mohiyati, «joni»ni belgilash, shu asosda asar «o'zligi», «qadr-qimmatini» haqida baho chiqarishdir.

So'nggi 5–6 yil ichida ijobiy bir hodisa ro'y beryapti. Munaqqid, mutaxassislar asarni sinchiklab o'qiyaptilar. Mukammal badiiy asar, misoli, serhosil bog': u hech kimni quruq qo'l bilan qaytarmaydi. «Kecha va kunduz», «O'tkan kunlar», «Sarob», «Qutlug' qon», «Ko'h-na dunyo» sinchiklab o'qilganligi samarasi o'laroq o'nga yaqin zo'r maqolalar yozildi. Tanqidchi Abdulla Ulug'ov¹ «O'tkan kunlar» matniga chuqur kirgach, «G'addor yoxud tuhmatnomalarni kim bitgan?» («Sharq yalduzi» jurnali, 2011-yil, 3-son, 147–152-betlar)

¹ *Abdulla Ulug'ov* (1960) O'zbekiston Milliy universiteti, «Jahon adabiyoti va nazariyasi» kafedrasida dotsenti, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Sermahsul munaqqid. «Inson ibratga intiladi» (T.: O'zbekiston, 2007), «Asl asarlar sehri» (– T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2007), «Vatan – tan va jon» (– T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2008) singari kitoblar, ikki yuzdan ortiq maqolalar muallifi.

dogun zo'r maqola yozdi. Romanda olti katta-kichik obraz bo'lib, ikkatasining nomi bir marta, Umarbekning nomi ikki bor tilga olingan ekan. Umarbek-Homidga tuhmat ariza, maktublar bitib bergan shaxs. Munaqqid anglaydiki, Homidga ariza, tuhmatlar yozib bergan shaxs zukko, qilni qiriq yoradigan darajada bilimii bo'lgan. Ariza-yu maktublari kishilarga baxtsizlik olib kelayotganini sezgan Umarbek Homid bilan kelisha olmay qoladi. Makkor Homid Sirli mirzosi bilan aloqani tiklab oladi. Demak, Umarbekda hali vijdon, odamgarchilik bor. Shoir Toshqin «Toshkent shoirlari» tazirasida XIX asr oxiri XX asr boshlarida Bedil ijodini sharhlagan bedilxon Mullo Solih oxun, Mullo Boymirzo oxun, shoir Almayi qatori Sag'bon mahallalik domla Umarbek nomini tilga oladi... Shu ma'lumotning o'zi kishini xayolga cho'mdiradi. Ko'rinadiki, strukturali tahlil, yondashuvdan farqli o'laroq, butun asar bo'ylab izlanish, maqsad sari ko'p yo'nalishli harakatdir.

Satrlar ruhiga singish yoxud mikroanaliz imkoniyatlari. Mikroanaliz — qunt bilan o'qish, mag'zini chaqish orqali tahlil qilish. Adabiy matnni sinchiklab o'rganish, birinchidan, undagi uzuq-yuluqlikni, yamoq-yasqoqni, ikkinchidan, matndagi «singan», «majruh bo'lgan» o'rinlarni, uchinchidan, bir uslubning begona uslub bilan almashib qolishini, to'rtinchidan, matnga singishib ketmagan, «bego-naligicha» qolib ketgan obrazlarni, beshinchidan, asar milliy ruhiyati-holatda ro'y bergan o'zgarishlarni bexato ko'rsatadi.

XX asr o'zbek tanqidida sinchiklab o'qib, xolis talqin qilingan asarlar bor. Masalan, Vadud Mahmud Cho'lpon lirikasini sevib o'qigan, mahorat bilan tahlil qilgan. Oybek ham 20-yillarda Cho'lpon lirikasi haqida samimiy qarashlarini ifodalagan. Tanqid 40-yillardayoq A.Qahhor hikoyalarini, H.Olimjon lirikasini sinchiklab o'qish orqali tahlil qilgan. 50–60-yillarda M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov singari munaqqidlar matn tahliliga asoslangan tanqidni rivojlantirdilar. Keyinchalik N.Karimov, B.Qosimov, Sh.Turdiyev, G'.Mo'minov, N. Rahimjonov, B.Do'stqorayev singari adabiyotshunos-tanqidchilar badiiy asarni asl matn asosida tekshirish zarurligi qoidasini asos qilib oldilar. R.Qo'chqor, Y.Qosim, S.Meli, B.Karim singari adabiyotshunos-tanqidchilar asl matnga asoslangan holda xulosa chiqarmoqdalar

Matnning mag'zini chaqish, satrlar siyratiga sinchiklab qarash mashhur asarlar talqinlari orqali ko'rsatilsa, mikroanaliz mohiyati aniq ko'rinadi. XX asr o'zbek adabiyotida «Boy ila xizmatchi» dramasi yarim asrdan mo'ltiq vaqt davomida asosiy, tayanch asar bo'lib

keldi. Bu asar maktab o'quvchilari ongiga chuqur singdirildi, aksariyat o'zbek teatrlari har yilgi mavsumlarini shu asar bilan boshladilar... Hamza qalamiga mansub bu asar 1918-yilda yozilgan, bir qancha vaqt sahnada ko'rsatilgan edi. Lekin asar matni saqlanmagan. Hamzaning 5 jildli mukammal asarlarining 3-jildida (1988) asar matni uch sahifada berilgan. Hamzaning «Boy ila xizmatchi» asari 1939-yilda Komil Yashin tomonidan qayta yozilgan. N.Karimov fikricha, «Boy ila xizmatchi» ni 1939-yilda Komil Yashin «tomonidan tiklangan» emas, balki qayta ishlangan va tahrir etilgan nusxa deb atash to'g'riroq bo'ladi¹. Komil Yashinning e'tiroficha, u dramaning sahnabop variantini yaratgan. Shoir Miraziz A'zamga qolsa, K.Yashin Hamza asarini buzib ko'rsatgan². Adabiyotshunos Suvon Meli «Boy ila xizmatchi» Komil Yashin tomonidan tiklanganligini aytadi³.

Mashhur asarlarning unutilib ketishiga zinhor yo'l qo'yish kerak emas. Lekin shunisi ham borki, haqiqiy asar-mukammal tuzilma (struktura): undagi har so'z, belgi, ibora, kartina yaxlitlikni, bir butunlikni tasdiqlaydi. Adabiy matn nuqtayi nazaridan qaraganda, K.Yashin tomonidan qayta tiklangan «Boy ila xizmatchi» konglomerat, yamoq-yasqoq asar. Unda Hamza, Yashin, Cho'lpon, Fitratlarning uslubi, qorishig'i bor. Ikkinchidan, Hamza yaratgan dramadagi Solih-boy, Jamila, G'ofirlar qatoriga bir qancha obrazlar qo'shilganki, ular matn birligi, uyg'unligi nuqtayi nazaridan asarga singishib ketmagan. «Boy ila xizmatchi»ning tiklangan nusxasi g'oyaviy-mafkuraviy asar sifatida sobiq sho'ro tuzumiga xizmat qildi. Lekin ma'naviy-estetik bir butunlik, yaxlitlik sifatida mashhur bo'lishi mumkin emasdi. Sho'ro hukumati tugatilgach, uning g'oyaviy- mafkuraviy tirkaklariga ham zarurat qolmadi. Bu gap «Boy ila xizmatchi»ning tiklangan nusxasiga ham bevosita taalluqlidir.

Istiqlol arafalarida A.Qahhor asarlari matniga munosabat ham turlicha kechdiki, bu tanqidchilikda rang-barang tahlil yo'sinlarining ko'payib borayotganligini ko'rsatadi. O.Otaxonov, S.Meli, D. Quronovlarning «O'g'ri» hikoyasi munosabati bilan yozilgan bahs-maqolalari, shu bilan birga «Sarob», «Qo'shchinor chiroqlari» romanlari, «Sinchalak», «O'tmishdan ertaklar» qissalari bo'yicha davom etayotgan bahslar, turli talqinlar ham fikrimizni tasdiqlaydi.

¹ Hamza Hakimzoda ijodi problemalari. — T.: 1988. — 62-bet.

² «O'zbek tili va adabiyoti». 1989, № 1, — 18-bet.

³ Suvon Meli. «Boy ila xizmatchi» yoki tiklangan nusxa muammosi// Yoshlik, 1989, № 11, — 68–72-betlar.

M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, R.Qo'chqorov «Inqari peshqadam munaqqidlar kitoblari, tadqiqotlarida A.Qahhorning asosiy asarlarini talqin, tahlil qildilar. Bunda biografik, ijodiy-genetik, ontologik yondashuvlar, tahlilning strukturali (tuzilishiga ko'ra), semiotik (imo-ishora, so'zlardagi serma'nolilikka ko'ra), uslubiy va ohangga ko'ra ko'rinishlari o'zaro birlashib ketadi. A.Qahhor asarlari 80–90-yillarda jiddiy talqin va tahlil qilindiki, u mana shu davr tanqidchiligining asosiy voqeasiga aylandi. Mazkur talqin va tahlillar XX asr pirovardida o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidining darajasi, imkoniyatlarini, cheklangan tomonlarini namoyon etdi. Ikkinchidan, san'at asarlari «imtihoni» zinhor oson, tekis kechmasligini ko'rsatdi. Uchinchidan, A.Qahhor asarlari talqin va tahlili Oybek, G.G'ulom, Mirtemir, Shayxzoda, H.Olimjon, Uyg'un singari ijodkorlar asarlarini ham shunday o'rganish lozimligini ko'rsatdi. XXI asr o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida A.Qahhor asarlari yana jiddiy talqin va tahlil qilinishiga shubha yo'q. Chunki mikroanaliz adabiy matnni teran o'rganuvchi, uning botinidagi holatlardan xabar beruvchi tahlil yo'sinidir.

Imo-ishoralar ma'nosi yoxud strukturali-semantik tahlil. Adabiyotshunoslikda tuzilma (struktura), belgi, ishoralar (semiotika) tahlil yo'sini mavjud. Mazkur yo'nalishlarning o'z mutaxassislari bor. Lekin strukturali tahlil ko'pincha tilshunoslik tomon og'ib ketadi. Vaholanki, o'zbek adabiyotshunosligi tarixida asarlarni so'z tahlilsiz, imo-ishoralar mazmuni talqinisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek adabiyotida so'zning jamiki ma'no imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga alohida e'tibor berilgan. Alisher Navoiyning so'z ta'rifi haqidagi she'rlarining o'zi alohida to'plam bo'ladi.

Badiiy asar g'oyaning shaklanishiga ko'ra quriladi; kompozitsion qiyofaga kiradi. Tuzilma – adabiy matn strukturasi. Tuzilma misoli tana – struktura, u yaratiladi. Strukturali tahlil aniq tuzilmari, so'zning o'z o'rnida qo'llanishini tekshiradi. XX asr o'zbek adabiyotida shunday asarlar borki, ular turli talqinlarga ega. «Go'zal», «Xalq», «Birinch muhabbatim», «Men nechun sevaman O'zbekistonni», «O'zbekim» singari she'rlar necha bor talqin qilindi. Xususan, A.Oripovning «Tilla baliqcha»si sertalqin she'rlardan biridir. (M.Qo'shjonov, Yashar Qosim, S.Meli talqinlari). Muhimi, mazkur she'r talqinida so'zlarning o'rni, qo'llanishi masalasiga e'tibor berildi.

80–90-yillar tanqididagi talqin ko'rinishlari haqida gap borar ekan, yorqin so'zshunoslardan biri I. Haqqul ijodini chetlab o'tish zinhor

mumkin emas. Munaqqid soʻzdan soʻzning farqini, qimmatini aniq belgilaydi; matndagi soʻzlarning vazifasini, imkoniyatini baholay biladi. U asar «joni»ni, asab rishtalarini, ijodkor konsepsiyasini anglab yetgach. «jon»ga oʻz «joni»ni, konsepsiyaga oʻz qarashlarini payvand etadi. «Badiiy soʻz shukhi» (1987), «Zanjirband sher qoshida» (1990), «Navoiyga qaytish» (2006) singari koʻplab kitoblarini oʻqisangiz, ijodi talqin qilinayotgan shoir (yozuvchi) toʻgʻrisidaginamas, tahlil qilinayotgan asar haqidaginamas, talqinchining oʻz dunyosi, zamon va zamon-doshlarga munosabati, sheʼrni anglash uquvi ham namoyon boʻladi. Eng muhimi, tanqidchi asar bahonasida zarur bir gʻoyani ilgari suradi.

Olinning «Bir bayt talqini» maqolasi tuzilma (strukturali) tahlilning yorqin namunasi. Tadqiqotchi muhim, asosiy soʻzning ildizini, boshqa asarlarda bajargan vazifasini yoritib berishga intiladi. Unda «Qaro koʻzum» gʻazalidagi:

*Takovaringgʻa bagʻir qonidin xino bogʻla,
Itingga gʻamzada jon rishtasin rasan qilgʻil, –*

Shoh bayti talqin obykti sifatida tanlanadi. Baytning avvalgi, hozirgi talqinchilari lirik qahramonning bagʻir qoni maʼshuqa otining tuyoqlariga xino boʻlishni yozganlar. I.Haqqulga bunday talqin yoqmaydi. Misradagi mazmun boshqacha boʻlishi kerak degan tuygʻu-ishonch talqinchini izlanishga undaydi.

I.Haqqul baytni talqin etish uchun koʻp izlanadi. Fuzuliy, Furqat gʻazallariga murojaat qiladi, soʻzlarning maʼnosini qidiradi. Bayt talqini pirovardida shunday yozadi: «Agar biz adashmasak, baytning zohiriy mazmuni bunday: «ey, berahm, bevafo yor, vasling uchun chopib yuguruvchi oshigʻingga bagʻir qonidin xino bogʻla. U sening vafodor itingdurki, bu «it»ning boʻyniga xohlasang Jon rishtasin rasan qilgʻil! Baytdagi «takovar» va «it» ham, «xino» va «rasan» bogʻlash ham ramziydir»¹. Demak, talqinning tuzilma (strukturali), imo-ishora, yigʻiq nuqta (semiotik) tahlil singari yoʻsinlari borki, maʼnoni har tomonlama yoritish, asarni baholashda ularning hissasi kattadir.


Uslub tahlili. Uslub ijodkor siyratining aks etishi. Siyrat-oʻzlik, individuallik, hech kimnikiga oʻxshamaydigan asos. Isteʼdod-individuallikning tiniq koʻrinishi, shaxs betakrorligining yorqin ifodasi.

Maʼlumki, adabiy tanqid ham fan, ham sanʼat. Tanqid tarixida oʻz uslubiga ega, yorqin isteʼdodli munaqqidlar koʻp boʻlgan. XX asrning ikkinchi yarmidagi oʻzbek tanqidida iz qoldirgan betakror

¹ Haqqulov I. Bir bayt talqini. // Sirli olam. 1998, № 5, may soni.

uslubga ega M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov singari tanqidchilar ijodida o'ziga xos xususiyatlar — dadillik, mas'uliyat hissi, keng fikrlik aks etgan. M.Qo'shjonov xarakter mummosini asos qilib olgan holda yarim asrlik o'zbek nasrini o'ziga xos uslubda tahlil va talqin qildi. Munaqqid ijodida ilmiy xolislik bilan kommunistik mafkura yaratgan adabiyotshunoslik ilmi aro zidlikning paydo bo'lganligi izchil tahlilda ko'zga tashlandi. O.Sharafiddinov qalb va poeziya masalasini keng o'rgandi. Uning ijodida yarim asrlik o'zbek poeziyasi xos usulda tahlil va talqin qilingan.

Umuman, tahlilda badiiy asarning barcha imkoniyatlari, kamchiliklari aks etadi. Tahlil, talqinning jozibli bo'lishida betakror uslubning ahamiyati kattadir. Uslub — ijodkorning botiniy, ruhiy suvrati. Uslubda san'atkorning mohiyati, dunyoqarashi, madaniy darajasi, betakrorligi aks etadi. Adabiy tanqidchi- san'atkor, betakror uslubga ega ijodkordir. Uslubiy tahlil talqindagi asosiy vositalardandir. Har bir davr, millat adabiyoti, o'z uslubini namoyon etadi. Uslub tahlil- talqinning bir ko'rinishidir. Xullas, adabiy tanqidning tayanch asosi talqindir. Talqin yondashuvlarda, tahlillarda namoyon bo'ladi. Tahlil va uning ko'rinishlari asar mohiyatini, qadr-qimmatini, imkoniyatlarini yoritib beradi. Milliy adabiyotning asosini yetuk, barhayot asarlar tashkil qiladi. Mangu barhayot asarlarni iste'dod sohiblari yaratadilar. Adabiy tanqidning nufuzi, obro'-e'tibori iste'dodli munaqqidlar faoliyatiga bog'liq. Iste'dod sohibi adabiy matnни talqin, tahlil qilar ekan, haqiqiy san'at namunalarini saralaydi, shuning uchun adabiy tanqidda talqin, tahlillar xolis baho asosidir.



SANJAR SODIQ. Taniqli olim Sanjar Sodiq o'zbek adabiyotshunos — (1940) ligiga Abdulla Qahhor ijodining tadqiqotchisi sifatida kirib keldi. 1940-yil 21-iyulda Toshkent shahrida tug'ilgan olim Y.Oxunboboyev nomli ko'zi ojiz bolalar maktab-internatida o'qidi. Toshkent Davlat universiteti filologiya fakulteti va aspiranturasida tahsil oldi. Hozirgi vaqtda O'zMU va O'zDJTUda yoshiarga ta'lim bermoqda. Shu paytga qadar olimning 200ga yaqin adabiy-tanqidiy maqolalari, bir

necha kitoblari o'quvchilar qo'liga yetib bordi. 2004-yilda olimga «Respublikada xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi» unvoni berildi.

«Abdulla Qahhor ijodi va adabiy tanqid» mavzuidagi (1997) doktorlik dissertatsiyasi adibning adabiy -tanqidiy qarashlari tahlili va tadqiqiga bag'ishlandi.

Uning «So'z san'ati jozibasi» kitobidagi aksariyat maqolalar A.Qahhor ijodi va faoliyatining bir necha qirralari, xususan, adibning badiiy-estetik qarashlari aks etgan adabiy-tanqidiy maqolalari, qahhorshunoslikning o'ziga xos tarixi, turli xil bahs-munozaralarda yozuvchining ayrim asarlariga doir fikr-mulohazalarga munosabati yoritilgan.

Muhimi, olim o'z qarashlarida A.Qahhor ijodiy merosiga adabiy-madaniy qadriyat sifatida yondashadi va yozuvchi asarlari zamiridagi jozibani qadrlashga, undan bahramand bo'lishga da'vat etadi.

O'zining tahlil va talqinlarida S.Sodiq bugungi adabiy jarayon, tanqidchilikning dolzarb muammolari, yetakchi tamoyillarini nazarda tutadi; o'z qarashlari, xulosalari bilan uning taraqqiyotiga munosib ulush qo'shadi.

Olimning «Ijodning o'ttiz lahzasi» (2005) kitobi ham adabiy-tanqidiy maqolalardan tashkil topgan bo'lib, unda muallifning so'nggi yillarda yozgan o'ttizta maqolasi jamlangan. To'plam o'ziga xos kompozitsiyaga ega: undagi maqolalar mazmuniga ko'ra uch guruhga bo'lingan.

Birinchi guruhga mansub maqolalarda hozirgi romanchilik taraqqiyotining yetakchi tamoyillari, asosiy g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, shakliy va uslubiy rang-barangligi tadqiq etildi. Masalan, ulardan biriga to'xtalib o'tsak. Aslida bu «Samiranda isyoni» nomi bilan O'zASda chop etilgan 2004-yilning eng yaxshi taqrizlaridan biri hisoblanadi.

Unda adiba Salomat Vafoning «Tilsim saltanati» romani tahlil va talqin etilgan. Keyinchalik olimning ushbu kitobiga «Xamir uchidan patir» nomi bilan kiritilgan, unda asarga baho berilib, yutuq va kamchiliklari ochib berilgan.

Taqrizda adiba roman yaratish mahoratiga xos belgilar quyidagilarda namoyon bo'lgani ko'rsatiladi: 1) kitobxonni larzaga soladigan voqeani gavdalantirish so'ngra uning qahramonlar psixologiyasida yasagan o'zgarishlarini mahliyo qilish; 2) qizlar ruhiy olamidagi yangilanishlar qanday xatti-harakatlar tug'dirganini o'zaro bog'liklikda aks ettira borishi natijasida muallif voqelikning romanga xos badiiy

talqinini yumtadi; 3) muallifning yana bir mahorati gunohkorni qoziqqa o'tkuzish, mo'rchaga qamash, qullarni bichish singari qadimiy jazo usullarini jonlantiradi.

Tanqidchi odatdagi taqrizlarga nisbatdan romanni kengroq mahliyo qilishiga intilgan. Shuning uchun asar bosh qahramoni tahliliga keng o'rin bergan.

Qirq qizlarning jang mashqlari ot ustida turib, bir-birlari bilan kurashishlari asar bosh qahramoni Samiranda ongi, qarashlari, xarakteri shakllangan sharoitni yaqqol gavdalantirishga xizmat qilishi haqida fikr yuritiladi.

Tanqidchi o'z taqrizida yozuvchining Samiranda qalbida isyon tuyg'usi tobora kuchaya borganiga ishontirish uchun ta'sirchan dalillar, misollar, voqealar topganligini ko'rsatadi.


Taqrizchi romanning ijobiy xususiyatlarini ta'kidlar ekan, shu bilan birga asarning hali tugallanmagandek tuyulishini ham to'g'ri topib aytgan. Muallif uni davom ettirishi mumkinligiga ko'p ishoralar qilingan. Shu tufayli hozir romanda ko'zga tashlangan ayrim kamchiliklarni kuzatib ketish imkoniyati borligini qayd etadi.

Ikkinchi guruhdagi maqolalar bugungi o'zbek tanqidi va adabiyotshunosligining umidbaxsh fazilatlarini hamda rivojiga xalaqit berayotgan illatlarni aniqlashga bag'ishlangan. «Jilolar jozibasi» maqolasida O.Sharafiddinovning portretnavislik sohasida erishgan mahorati tahlil etilsa, «Olam ichra olam yaralmish» maqolasida akademik B.Nazarovning «G'afur G'ulom olami» deb nomlangan yangi tadqiqotiga baho beriladi.

Muhimi, S.Sodiq qaysi bir kitob haqida gapirmasin, uning nuqsonlarini odillik bilan to'g'ri ko'rsatib o'tadi («Fitratshunoslikning yangi sahifalari» maqolasi). Ba'zan esa talabchan munaqqidning tanqid tig'ini keskinlashtirganligi, mualliflarni tanqid qilaverishga moyilligini ham aytib o'tish kerak. Buni sarlavhasidanoq kinoya ruhi sezilib turgan «Jazava», «Taajjub», «Hayrona bo'ldim, naylayin» maqolalarida ko'rish mumkin.

Uchinchi guruhda esa xalq sevgan san'atkorlarning ijodiy portretlari yaratilgan. Mazkur kitob olimning adabiy jarayondan boxabar, uning sergak kuzatuvchisi ekanligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, S.Sodiqning adabiy-tanqidiy tadqiqotlari o'quvchini sergaklikka, badiiy matn ichiga chuqur kirib borishga undashi jihatidan ahamiyatlidir.





NO'MON RAHIMJONOV, 1944-yili Toshkent viloyatida tug'ilgan olim O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil oldi.

Adabiyotga qiziqishi bois tahsilni davom ettirdi, izlandi, fan nomzodi, fan doktori, professor darajasiga yetishdi.

Hozirgi adabiy jarayonda faol ishtirok etayotgan, maqola, tadqiqot, monografiyalari dolzarb muammolarga bag'ishlangan, izlanuvchan, dadil va o'ktam fikrlari bilan elyurtga tanilib qolgan adabiyotshunoslikning

yangi bir avlodi tanqidchilikka o'tgan asrning 60-yillar oxiri – 70-yillar boshida kirib keldi.

Ular orasida dastlabki maqolalari, risola va tadqiqotlari bilan mutaxassislar e'tiborini tortganlardan biri No'mon Rahimjonov bo'ldi.

N.Rahimjonov mumtoz va zamonaviy adabiyot haqida, adabiyot nazariyasi va metodologik muammolar xususida erkin fikrlaydi, biroq uning tadqiqotlari asosiy yo'nalishini XX asr o'zbek she'riyati va dostonlarini o'rganish tashkil etadi.

U kichik bir maqoladan tortib, yirik monografiyagacha doimo aniq bir muammo atrofida mulohaza yuritadi, yozganda ham, shunchaki, biror gapni aytish uchungina emas, fikr yuritayotgan masala xususida kuyunib, samimiy yozadi.

Olim tadqiqotlarida XX asr o'zbek she'riyati va dostonchiligining taraqqiyot tamoyillari, bu tamoyillarni belgilagan asarlar mohiyati hamda mualliflarning individual uslublari ilmiy jihatdan aniq yoritilgan.

Jumladan, uning «Davr va o'zbek lirikasi» kitobida o'tgan asrning ikkinchi yarmidagi lirik she'riyatimiz yutuq va kamchiliklari o'rganilgan bo'lsa, «O'zbek sovet adabiyotida poema» monografiyasida dostonchilikdagi yutuqlar umumlashtirildi, qator asarlardagi sayozliklarning sabablari ko'rsatildi.

N.Rahimjonovning o'zbek she'riyatidagi katta janrlar, xususan, dostonlarni o'rganishga qo'shgan hissasi salmoqlidir. Uning «Lirik poema» (1975), «O'zbek sovet adabiyotida poema» (1986), «O'zbek sovet poemasining taraqqiyot jarayoni» (1991) kabi tadqiqotlari o'zbek adabiyotshunosligi ravnaqiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Tanqidchi Shukrullo ijodiga bag'ishlangan «Shoir va davr» (1983) monografiyasida

shoirning salkam qirq yillik ijodiga nazar tashladi. Uning sara she'rlarini, dostonlarini to'ldinlanib tahlil etdi.

Olimning H.Xudoyberdiyeva lirikasi tadqiqiga bag'ishlangan kitobi (hammualliflikda) bu hassos shoira ijodining nafis qirralari yaxlit o'rganilgan tadqiqotlardan biri sanaladi.

N.Rahimjonovning yangi ishlaridan biri Asqad Muxtor ijodining so'nggi bosqichlarini o'rganishga bag'ishlandi. Munaqqid o'zbek she'riyatida falsafiylik muammolarini o'rganar ekan, vaqt va umr mohiyati, tiriklik va inson boqiyiligi, haqiqat va go'zallik, riyo va tubanlik kabi insoniyatni azaldan to'ldinlantirib kelgan masalalarga e'tiborni tortadi. Asqad Muxtor she'riyatida ham tanqidchini, asosan, falsafiylik masalalari qiziqtiradi.

Bu ulkan san'atkor ijodini u «Asqad Muxtor poetikasi» (2003) kitobigagina kelib o'rgangani yo'q. Shoir asarlarini u o'tgan asrning 70-yillaridan tadqiq eta boshladi. «Davr va o'zbek lirikasi»da ham unga alohida ahamiyat berdi. Bu ikki kitob o'rtasida salkam yigirma besh yillik muddat yotadi. Har ikki ishdagi kuzatishlarni solishtirish tanqidchining A.Muxtor shaxsi va ijodiga qarashlari izchil rivojlanib borganini ko'rsatadi. Ayniqsa, shoirning falsafiy olamiga kirib borishi asnosida olimning o'z nazariy olami, ruhiy dunyosi, falsafiy mushohadalari ham o'sib borgani ko'rinadi.

Olim ustozlardan o'rgandi, ularga hamkorlik qildi, kezi kelganda, ularning tadqiqotlarini tahlil etdi. Adabiyotshunosligimiz darg'asi I.O.Sultonov bilan birga matbuotda adabiy suhbatlar uyushtirdi, uning hayoti va ijodi haqida kattagina kitob yozdi. «Badiiy asar biografiyasi» (2009) kitobida o'zbek adabiyotshunosligida birinchilardan bo'lib, san'atkor ijodi va mahorati Izzat Sulton hayoti va ijodi misolida uning bevosita ijodiy laboratoriyasiga kirib o'rganildi.

Bu tadqiqot yangicha yo'nalishda yozilganligi bilan diqqatni tortadi. Uning o'ziga xosligi nimada ko'rinadi? Ma'lumki, «biografiya» so'zi tarjimayi hol ma'nosini bildiradi. Shu kungacha adabiyotshunoslikda yozuvchi biografiyasi deb atalgan istiloh keng qo'llanilar va u adibning tarjimayi holi haqida ma'lumot berar edi. Bu tadqiqot esa badiiy asarning tarjimayi holiga bag'ishlangan. Ayni shu jihat uning ilmiy yangiligi va ahamiyatini ko'rsatadi.

Bunday yo'nalishdagi tadqiqotlarda ijodkor laboratoriyasiga kirish, uning ijod jarayoni bilan chuqur tanishish, asar g'oyasining tug'ilishi, yaratilishi, nashr ettirilishi tarixi bilan batafsil tanishish imkoniyati katta ekanligidan xabardor bo'lasiz. Bunda adibning o'z iqrorlari

muhim rol o'ynaydiki, adabiyotshunos N. Rahimjonov tadqiqoti aynan shu tomondan ham qiziqish uyg'otadi. Masalan, I. Sultonning o'zi shunday yozadi: «...Shuning uchun aytadigan gapni aytib qolishga shoshilish kerak. O'ylaymanki, menga o'xshash -- ham inqilobni ko'rgan (yetti yashar edim), ham sho'ro davrini boshdan kechirgan, ham mustaqillik davri voqealariga guvoh bo'lgan kishining hayotiy tajribalari kelajak avlodga saboq bo'lsa kerak»¹.

Tadqiqotda akademik adib, adabiyot ilmining darg'alaridan biri Izzat Sultonning hayoti va ijodi bilan bog'liq lavhalar, tafsilotlar, muhim jihatlar batafsil yoritilgan. Bunda olimning ko'p yillar I. Sulton bilan birga bo'lganligi katta yordam bergan. Uning ta'kidlashicha, Izzat Sultondek bag'ri keng olim, alloma ijodkor bilan birga ishlash, uning maktabida charxlanib, necha yillar hamfikir bo'lish bu asarning yaratilishiga zamin bo'lgan.

Olim ustoz bilan bo'lgan ko'pchilik voqealarni, ish jarayonida va boshqa paytlarda o'tkazilgan suhbatlarni xotira sifatida yozib borgan. Bu esa bugun ana shunday yangicha yo'nalishdagi asarning paydo bo'lishida olimga juda qo'l kelgan va shu bilan birga asarning o'qishli chiqishini ta'minlagan.

Kitobda Izzat Sulton, eng avvalo, bag'ri keng ustoz, bilim qamrovi keng, mushohadakor olim, iste'dodli dramaturg, o'zbek adabiyoti, dramaturgiyasi rivojida muhim o'rin egallagan ijodkor sifatida bo'y ko'rsatadi. Shuning uchun tadqiqotda ko'proq I. Sultonning dramaturglik faoliyatiga keng o'rin berilgan. Bunday yo'nalishdagi asarlarning ahamiyatli jihatlari ko'p: birinchidan, kitobxon mazkur ilmiy-tanqidiy asarni zerikmay, qiziqib o'qiydi, ikkinchidan, yirik olim Izzat Sulton shaxsi, ijodi, u yashagan davr, muhit bilan yanada yaqindan tanishadi, uchinchidan, ijod onlari, har bir asarning tug'inishi, dunyo yuzini ko'rishi murakkab jarayon ekanligini anglab yetadi, to'rtinchidan, kitob muallifining qiyofasi ham bilan chuqurroq tanishadi.

N. Rahimjonovning «Mustaqillik davri she'riyati» kitobi va undagi maqolalar bugungi adabiyotimizdagi o'zgarishlar, yangilanishlar haqida yorqin tasavvur beradi. Olim bugungi kunda ham o'z izlanishlarini davom ettirib, fan nomzodlari va doktorlari yetishtirish yo'lida samarali mehnat qilmoqda.



¹ Rahimjonov N. Badiiy asar biografiyasi. — T.: Fan, 2008. 5-bet.

XURSHID DO'STMUHAMMAD. O'zining sermazmun va sermahsul ijodi bilan hozirgi adabiy jarayonda alohida o'rin egallagan yozuvchi va tanqidchi X.Do'stmuhammad 1951-yilda Toshkentda dunyoga keldi. ToshDUning jurnalistika fakultetida o'qidi (1969–1973). «Fan» nashriyotida, «Fan va turmush» jurnalida, «Qishloq haqiqati» gazetasida ishladi. 1986-yildan «Yosh kuch» jurnalida avval bo'lim mudiri, bosh muharrir o'rinbosari, bosh muharrir sifatida faoliyat ko'rsatdi. Respublika Prezidenti Devonida xizmat qildi.

Adib dastlab hikoya va qissalar yozish bilan adbiy jamoatchilikka tanildi. «Jajman» hikoyasi bilan adib o'zbek modern hikoyachiligini rivojlantirishga munosib hissa qo'shdi, bu yo'nalishda yozilgan «O'zim», «Mehmon» singari hikoyalari ham kitobxonlar e'tiborini qozondi.

Adibning birinchi romani «Bozor» «Ofarin» mukofotiga sazovor bo'ldi, bu asar uning modern yo'nalishda ham mahorat bilan qalam tebratayotganligini yorqin namoyon eta oldi, u ushbu romani orqali bugungi hayotimizga tanqidiy nuqtayi nazardan teran nazar sola oldi.

X.Do'stmuhammad tarjimon sifatida ham faoldir. U yapon adibi Akutagava Ryukoskening «Rasyomon darvozasi» hikoyasi, T.Po'latovning «Yetti huzur-halovat va qirq qayg'u-alam» romanini tarjima qilgan.

Hozirgi zamon o'zbek yozuvchilari ijodiga nazar solinsa, ko'pchiligi adabiy tanqid muammolari bilan kam shug'ullanayotganligi ko'rinadi. P.Qodirov, Sh.Xolmirzayevdan keyin adabiyot maydonida adabiy tanqid bilan shug'ullanadigan ijodkorlar yanada kamaydi. X.Do'stmuhammadning hozirgi adabiy jarayondagi boshqa adib va shoirlardan farqi shundaki, u adabiyotshunoslik sohasida ham qalam tebratib, adabiy jarayondagi muammolarni o'rganib kelmoqda. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qildi, doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlamoqda.

X.Do'stmuhammadning «Ozod iztirob quvonchlari» (2000) kitobida muallif kitobxonni goh adib, goh publitsist, goh adabiyotshunos, goh fikrga tashna ziyoli sifatida ma'rifiy suhbatlarga chorlaydi. Kitobdan o'rin olgan maqolalarda adibning adabiyot va hayot, «hissiyotni tarbiyalaydigan ehtiros», kechikkan hayrat, umuman, falsafiy o'ylar, xotiralar, qalb kechinmalari ifodasi kitobxonni ham befarq qoldirmaydi. «Otabek shuurining oniy surati» maqolasida A.Qodiriyning mahorati haqida yangicha kuzatishlar ifodalanadi. «O'tkan kunlar»ning badiiy asar sifatida umrini uzaytirgan, uning hozirgi

muxlislar nazarida ham qadr-qimmat topganligining bosh omillaridan biri unda kitobxonni o'ylashga, mushohadaga undovchi san'atkorona badiiy tasvir vositalari mavjudligi degan xulosaga keladi tanqidchi.

X.Do'stmuhammad yapon adibi Akutagava Ryunoskening «Bisey sadoqati» hikoyasi bilan Oybek lirikasi o'rtasida g'aroyib ohangdoshlik borligini topadi. «Najot muhabbatdami yo ...nafratda?» maqolasida esa ulkan iste'dod sohiblari yapon Akutagava Ryunoske va o'zbek G'afur G'ulom qalamiga mansub ikki hikoyani qiyoslar ekan, shunday xulosaga keladi: «Bir so'z bilan aytganda, «Rasyomon darvozasi»dagi muhtojlik inson tabiatidagi yovuz maylni qo'zg'atib yuborishi, «Mening o'g'rigina bolam»da esa eng qattol uqubatlar ostida ham inson o'zligini asrab qolishi mumkinligi tasvirlangan. Yapon hikoyasida sharoit insonni muvozanatdan chiqaradi, o'zbek hikoyasida esa ayni shunday holat insonni yanada insoniyroq bo'lishga da'vat etadi»¹. Maqolani o'qigan o'quvchi qalbida G'.G'ulomga va uning qahramonlariga nisbatan samimiy mehr uyg'onganini sezmay qoladi.

X.Do'stmuhammadning «Ijod — ko'ngil munavvarligi» kitobi ham ijodiy portret, ocherk, suhbat, lavha va esselardan tashkil topgan. Ular milliy ma'naviyatimizning, qolaversa, jahon badiiyatining atoqli namoyandalari, yetuk siymolari. Munaqqid har bir ijodkorning ruhiy olami, shaxsi, har bir asarning mazmun-mohiyatini samimiylik bilan o'rganadi. Shu bois badiiy ijodni ko'ngil munavvarligi deb ataydi.

Kitob mundarijasidagi fasllarning nomlanishi ham adibning ilmiy-badiiy tafakkuri yuksakligidan darak beradi. «Vazmin jilvalar»da A.Qodiriy, G'.G'ulom, A.Muxtor, N.Aminov, T.Murod kabi o'zbek yozuvchilari, ularning ijodi haqidagi kuzatishlar, xotiralar o'rin olgan bo'lsa, «Daxlsiz dunyo»da O.Sharafiddinov, U.Normatov, I. G'afurov, M.Sa'diy, O'.O'tayev kabi munaqqidlar haqida samimiylik bilan so'z yuritiladi. «Odam baxtli yashamoq uchun yaratilgan» faslida chet el yozuvchilarining ijod dunyosiga nazar solinadi.

«Ijod — ko'ngil munavvarligi» sizga jahon adabiyoti, madaniyati va san'atining Rembrant, Chaplin, Kafka, J.Joys, Dostoyevskiy kabi mana-man degan vakillari, o'zbek adabiyotining A.Qodiriy, G'.G'ulom, O.Sharafiddinovdan tortib, Mirpo'lat Mirzo va Nazar Eshonqulgacha bo'lgan vakillarining ma'naviy-ma'rifiy dunyosi, inson, hayot, adabiyotga qarashlari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek,

¹X. Do'stmuhammad. Ozod iztirob quvonchlari. — T.: Ma'naviyat. 2000, — 41-bet.

ularning bizga shu vaqtgacha noma'lum bo'lgan ruhiy qirralarini ochadi. X.Do'stmuhammad mustaqillik davri adabiyoti, adabiy jurayonining faol kuzatuvchisi sifatida unga baho bera oladi. Shu bilan birga «XX asr mening hayotim» nomi ostida «Jahon adabiyoti» jurnali savollariga javob berganda, kelgusi asrda o'zbekning bosh fazilati ilmga tashnalik, fikrparvarlik, didi noziklik, tadbirkorlik, topqirlik, jasoratlik, qonunparvarlik, xolislik va bag'rikenglik bo'lishi zurur deb hisoblaydi.

Milliy adabiyot millat mentalitetini, ya'ni xalqning sifat darajasini oshirishi haqidagi fikrlari, umuman, adib va munaqqid X.Do'stmuhammadning adabiy-tanqidiy qarashlari istiqloq davri kitobxonining dunyoqarashini o'zgartirishga yordam bera olishi bilan ahamiyatlidir.



SHUHRAT RIZAYEV (Shuhrat Rizo) 1958-yili Toshkent shahrida tug'ildi. ToshDU (hozirgi Milliy universitet)ning o'zbek filologiyasi fakultetida (1975–1980) o'qidi, so'ng sirdan aspiranturada tahsil olgach, ma'lum muddat talabalarga dars berdi. Oybek uy-muzeyida katta ilmiy xodim (1980–1989) bo'lib ishladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, Vazirlar Mahkamasi, Madaniyat va sport ishlari Vazirligi, Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida mas'ul lavozimlarda ishlab, tashkilotchilik ishlarida katta tajriba orttirdi, respublikadagi qator muhim ma'rifiy, ilmiy

dolzarb tadbirlarning amalga oshirilishida faol ishtirok etdi. Bu lavozimlar Sh.Rizayevning talabalik yillaridayoq boshlangan ilmiy qiziqishlarini susaytirgani yo'q, aksincha, unga izchil va tizimli yo'nalish berdi.

Yosh shoirlar ijodi tahlil etilgan «She'riyat bo'sag'asida ezgu tilak bilan» (1980) nomli dastlabki maqolasi e'lon qilinganda Shuhrat 22 yoshda edi. Shundan buyon uning o'nga yaqin monografiya, risola, maqolalar to'plami, hammualliflikda ko'plab adabiyot darsliklari va qo'llanmalari, yuz ellikka yaqin maqolalari e'lon qilindi.

Sh.Rizayev o'zbek adabiyotshunosligining tarix, nazariya va adabiy tanqid yo'nalishlarida hamda teatr, kino tanqidchiligi sohalarida

tadqiqotlar yaratib kelmoqda. Bular ichida B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, S.Ahmedovlar bilan hamkorlikda oliy o'quv yurtlari uchun yozilgan fundamental «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» (2004) darsligi muhim o'rin tutadi.

Sh.Rizayev deyarli o'ttiz yildan buyon jadid dramaturgiyasi muammolarini o'rganib keladi. Bu yo'nalishda u o'nlab ilmiy maqolalar yozdi. «O'zbek jadid dramaturgiyasining shakllanish manbalari» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. «Jadid dramasi» (1997) monografiyasini e'lon qildi.


Olim, shuningdek, jadid dramaturgiyasi namunalaridan dastlabki sakkiztasini arab alifbosidagi nashr matni asosida tabdii qilib, nashr ettirdi.

M.Behbudiy, A.Avloniy, Siddiqiy Ajziy, Hamza ijodi bilan bog'liq qator yangi fikrlar o'rtaga tashlangan maqolalari, jadid adabiyoti xususida ilgari surgan qarashlari uning «Sahna ma'naviyati» (2000) nomli maqolalar to'plamida aks etgan edi.

Sh.Rizayevning 5-, 6-, 9- sinflar uchun hammualliflikda yaratilgan «Adabiyot» darslik majmualari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalari (2003, 2011) hamda «Boshqaruvning ma'naviy asoslari» (2007, 2009), «Jamiyatni ma'naviy yuksaltirish strategiyasi» (2010) nomli dastur va qo'llanmalari yoshlarga istiqlol ruhini singdirish hamda jamiyatimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlash ishida muhim ahamiyatga ega.

Sh.Rizayevning ijodiy portret va esse janrlaridagi o'zbek adabiyoti va san'ati arboblari O.Sharafiddinov, B.Yo'ldoshev, R.Ibrohimova, R.Ahmedova, M.Yo'lchiyevaga bag'ishlangan ishlari «Surat va siyrat chizgilari» (2010) kitobida o'z ifodasini topdi. Bulardan tashqari u Oybek, Shuhrat, A.Muxtor, O'.Umarbekov, X.Do'stmuhammad, E.A'zam, Usmon Azim kabi adiblar ijodiy portretlariga chizgilar, taqrizlar e'lon qilib, adabiy jarayonda faol ishtirok etib kelmoqda.

Olim badiiy ijod, tarjima sohalarida ham qalam tebratmoqda, «Iskandar», «Diskoteka», «Ona», «Etakchi» kabi sahna asarlari, Kobo Abening «Qumdagi ayol», Fotima Galerning «Malika», Nil Saymoning «97-xona» pyesalari, tarjimalari fikrimizga misol bo'ladi, ular respublikamizning turli teatrlarida qo'yilgan. Ssenariylari asosida yigirmaga yaqin hujjatli filmlar suratga olingan. Pyesalari, adabiyot, teatr, kinoga bag'ishlangan maqolalari «Ma'naviyat manzillari» (2008) kitobida chop etilgan.





DILMUROD QURONOV Keyingi chorak asr mobaynida o'zbek tanqidchiligida faol mehnat qilayotgan, maqolalari va o'tkir fikrlari tufayli katta qiziqish bilan o'qilayotgan va bahslarga sabab bo'layotgan, badiiy asarlarga munosabatda qator yangi qarashlar, yangi mezonlarni ilgari surayotgan munaqqidlardan biridir. D.Quronov 1960-yilda O'shda tug'ildi. Maktabdan so'ng qurilishda ishladi, harbiy xizmatni o'tadi.

Andijon davlat tillar pedagogika intsitutining rus tili va adabiyoti fakultetida o'qidi (1982–1987). Ma'lum muddat shu dargohda

muallimlik qildi. ToshDU aspiranturasida tahsil oldi. «Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida xarakterlar psixologizmi» (1992) mavzuida nomzodlik, «Cho'lpon poetikasi (nasriy asarlari asosida)» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

D.Quronov munaqqidlik faoliyatini ko'p yillardan buyon Andijon davlat universitetida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish bilan birga qo'shib olib boradi. Professor D.Quronov 1998–2009-yillarda filologiya fakulteti dekani bo'ldi. 2009-yildan boshlab, mazkur universitetning «Ilmiy xabarnoma» jurnaliga muharrirlik qilib kelmoqda.

Tanqidchi adabiy jarayonga o'tgan asrning 90-yillaridan kirib keldi. Cho'lpon haqidagi dastlabki maqolalarayoq jamoatchilik e'tiborini tortdi. Uning bu boradagi izlanishlari yangi yo'nalishdagi, Istiqlol davri o'zbek tanqidchiligining dastlabki natijalari qatoridan o'rin egalladi. Shu ma'noda, yangi davr o'zbek tanqidchiligi metodologiyasining shakllanishida, tanqidchilikka yangi mezonlarning kirib kelishida kamtarona bo'lsa-da, munaqqid D.Quronovning ham hissasi bor.

Olim ilmiy ishlarining salmoqli qismi Cho'lpon hayoti va ijodiga bag'ishlangan. U istiqolning dastlabki yillarida O.Sharafiddinov rahbarligida boshlangan Cho'lpon ijodini o'rganishgina emas, ijodiy merosni tiklash, uning namunalarini chop etish va ommalashtirishda faol ishtirok etdi. Adib asarlarining 2- va 3-jildlarini nashrga tayyorladi. Uning «Ruhiy dunyo tahlili» (1995), «Istiqlol dardi. Cho'lponning ijtimoiy-siyosiy qarashlari tadriji» (2000), «Cho'lpon poetikasi» (2004) kabi tadqiqotlarida san'atkorning yangi o'zbek nasri taraqqiyotida tutgan o'rni, asarlari badiiyati masalalari atroflicha tadqiq etildi. Cho'lpon ijodining, ayniqsa, jahon adabiyoti kontekstida o'rganishga

harakat qilinishi, asarlari badiiy-g'oyaviy o'zlikni belgilagan ijtimoiy-psixologik omillar bilan aloqadorlikda ochib berilishi bu tadqiqotlar qadriyatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

D.Quronov ilmiy faoliyatiga xos xususiyatlardan biri, tadqiqotlarida jahon adabiyotshunosligining yangi yutuqlarini o'zbek adabiyotini o'rganishga tadbiiq etaroq yanada rivojlantirish va boyitishga intilishda namoyon bo'ladi. Jumladan, Cho'lpon ijodini o'rganishda u psixoxanaliz, germenevtika ta'limotlariga tayandi, tadqiqotlarida struktural, semiolotik, mikroanalitik tahlil usullarini qo'lladi. Ayni paytda, mazkur usullardan sistem kompleks yondashuv asosida foydalanishga harakat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, Cho'lpon asarlarining betakror poetikasini, undagi nazokat va shiddatlarni ilmiy jihatdan asosli ochib berishga zamin yaratdi.

Asar tadqiqiga yangicha yondashuv D.Quronovning zamonaviy asarlargina emas, adabiy merosga bag'ishlangan ishlarida ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, uning H.Usmonov bilan hammualliflikda yozilgan «Ideal va badiiy yaxlitlik» (1995) maqolasini adabiy asarga yangicha munosabat masalasining nazariy muammolarini yoritishga bag'ishlangan ma'lum ma'nodagi dasturiy izlanish sifatida baholash mumkin. Maqolada ilgari surilgan nazariy fikrlarni muayyan vaqt o'tgach, A.Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, H.Olimjon asarlarining yangicha talqiniga bag'ishlangan turkum ishlarida muallifning o'zi amalda tadbiiq eta boshladi. Ularda ayrim bahsli o'rinlar yo'q emas. Asardagi u yoki bu nuqtani, yozuvchi ijodiy niyatini gipotetik baholash masalasida ba'zan zo'rma-zo'rakilik, ba'zan dalillashning etishmasligi sezilib qoladi. Bunday yondashuvga professor N.Karimov, filologiya fanlari doktori G'.Mo'minov kabi adabiyotshunoslar o'z vaqtida bahsli munosabatlarini bildirdilar. Biroq, bundan qat'i nazar D.Quronovning maqolalari adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Bahs-munozaralar muammoga yanada chuqurroq va aniqroq yondashuvga da'vat etdi. Olimning bu yo'nalishdagi maqolalari yaqin o'tmish, ayniqsa, sobiq sho'ro davrida asarlardagi e'tibordan chetda qolib kelgan ma'no qirralari va tagqatlamlarni ochishga intilishi, davr kontekstidan kelib chiqib, ijodkor ruhiyati va badiiy ijod tabiatiga xos xususiyatlarni anglagan holda amalga oshirishga harakat qilinishi jihatidan ilmiy qimmat kasb etadi.

Ilmiy va pedagogik faoliyatni uyg'unlikda olib borayotgan D.Quronov oliy o'quv yurtlari talabalari uchun «Adabiyotshunoslikka kirish» (2002, 2004, 2007) darsligi, hammualliflikda «G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari» (hammualliflikda, 2008), «Adabiyotshunoslik lug'ati»

(2010) kabi kitoblaridan respublika ta'lim muassasalarida keng foydalanilmoqda. Xususan, G'arb adabiy-tanqidiy tafakkurining ulkan namoyandalari ijodidan qilingan tarjimalar va ularning alohida kitob holida chop etilishi adabiyot, tanqid, estetika bilan qiziquvchi keng kitobxonlar va mutaxassislariga qimmatli manba bo'ldi.



ULUG'BEK HAMDAM. Bugungi o'zbek adabiyoti, tanqididagi eng faol, serqirra, sermahsul yozuvchi, tanqidchi kim deb so'ralsa, Ulug'bek Hamdam (1968) deb javob berish mumkin. Chunki mustaqillik yillarida adib yaratgan she'rlar, hikoyalar, qissa va romanlar, adabiy-tanqidiy ishlar, ilmiy tadqiqotlar shunday javobga asos bo'la oladi.

Haqiqatan ham U. Hamdam bugungi adabiy jarayonda faol ijod etmoqda. Bunday deyishimizning sababi, uning faqat romanlar yozayotganligida emas, balki ustozlar an'anasini davom ettirayotganligidir. XX asrning boshlari adabiy jarayonida Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, keyinroq Oybek, G'afur G'ulom kabi adiblarning ham badiiy ijodda, ham adabiyot ilmi rivojidagi jonkuyarliklari U. Hamdam qiyofasida o'zini yorqin namoyon etib ke'layotganligi e'tiborlidir. Ulug'bek Oybek she'riyatiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan himoya qildi. Hozirda XX asr milliy she'riyatimiz muammolari xususida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda. O'zR FA Til va adabiyot institutida ishlaydi, shu bilan birga «Sharq yulduzi» va «Zvezda Vostoka» jurnallarining bosh muharriri.

Adib shu kungacha bir qancha kitob va to'plamlarini nashr ettirdi. «Tangriga eltuvchi isyon», «Atirgul», «Seni kutdim» she'riy to'plamlarida modernistik ohangni realizmga yo'g'irgan shoir sifatida ko'rinadi. Uning «Yolg'izlik» (1998) to'plami qissa va hikoyalardan iborat bo'lib, samimiyati, nafis sharqona ohangi, yozuvchining nasrdagi o'ziga xos uslubini, bugungi kun adabiyotiga tenglasha oladigan jihatlari va nihoyat falsafiy qamrovdorligi bilan kitobxonlarda chuqur taassurot qoldirgan edi.

O'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin egallagan asarlardan biri «Muvozanat» (2000) yozuvchi va shoir U. Hamdamning birinchi

romani. Ilk romani bo'lsa ham adabiy jarayonda voqea bo'lgan asarlardan biri sifatida tan olindi. Tanqidchi U. Normatov asarni bugungi kunning romani deb atadi. «Isyon va itoat» romani (2003) inson hayotidagi eng muhim hisoblangan e'tiqod, imon kabi masalalar talqiniga bag'ishlangan. Adibning keyingi «Sabo va Samandar» (2006) deb atalgan, inson va uni o'rab turgan muhit ming tusda tovlanib, o'zgarib tursa ham, baribir, ko'ngli muhabbatga talpinishi, ishq bilan o'zini tanishi haqida yozilgan bu roman ham tezda o'z o'quvchilarini topa oldi. «Uzoqdagi Dilnura» (2010) qissa, hikoya va she'rlardan tarkib topgan. «Darvoqe, Ulug'bekning nasri shoirona, she'rlarida esa bu hissiyot yanada kuchliroq. Uning she'rlari yurak hapqirig'i, ichkarining faryodi, ruh qichqirig'i, kechinmalar oqimi: qolipsiz, jilovsiz, jo'shqin, hayajonli», deb yozadi B.Karim¹. Bu fikrlarni adibning adabiy-tanqidiy ishlari haqida ham aytish mumkin. Chunki tanqidchi U.Hamdani Oybek haqida yozganda ana shunday hissiyot bilan, teran tafakkur bilan qalam tebratadi. XX asr o'zbek adabiyotining chinorlaridan biri Oybek haqida «ko'p» va «xo'p» yozildi. Ammo har bir iste'dod o'z so'zini aytadi, jumladan, Ulug'bek ham. Oybekning «Na'matak» she'rini ko'pchilik oybekshunoslar tahlil etganlar, ammo Ulug'bekning talqinlari o'zgacha: «She'r — «yuksakda — shamolning belanchagida chayqalayotgan na'matak. Dard- uning ildizi — «vahshiy tosh». Demak, aslida tosh ham gul kabi go'zal. Axir qoya na'matakning emas. balki gul toshning ijodi, aytish mumkin, siyrati»². Qarang, adabiyotshunos vahshiy toshdan ham go'zallik izlayapti, shoirni xuddi na'matak singari «shafqatsiz dunyoning noyob asariga» mengzayapti. Bu talqinlar kitobxonni Oybekka yanada yaqin qilishga yordam beradi.

«Shoir — «tuzalmas» haqiqatparast» maqolasida millatning iste'dodli shoiri Shavkat Rahmon she'riyatini nozik did bilan talqin etadi: «Shavkat Rahmon shaxslik maqomidagi shoir edi, shaxs-shoir edi. Bunday shoirlarning bo'lsa — qismati tomonidan zimmasiga yuklangan o'z vazifasi bo'ladi. Bunday vazifa shaxsning subyektiv dunyosi bilan chambarchas bog'lanib ketganiga ko'ra, shoir ana shu botiridagini real dunyoga tadbiiq qilmoqqa urinadi....Demak, Shavkat Rahmon

¹ Bahodir Karim. Ulug'bekning dil izhori / Uzoqdagi Dilnura. — T.: 2010, — 7-bet.

² Ulug'bek Hamdam. Badiiy tafakkur tadriji. — T.: Yangi asr avlodi. 2002, 76-bet.

ko'pqirrali shoir: u — tabiat shoiri, u — falsafa so'qiydi, u — ijtimoiy adolat himoyachisi, u — muhabbat kuychisi...»¹. Shu tariqa Ulug'bek keyingi yillarda marhum shoirlar Asqad Muxtor, Sh. Rahmon, M. Yusuf ijodiga oid teran tadqiqotlar yaratdi.

U. Hamdam hozirgi zamon o'zbek she'riyatining taraqqiyotini ham g'oyat sinckovlik bilan kuzatib boradi. «Yangilanish ehtiyoji» kitobining ikkinchi fasli «She'riyat yo'llarida» deb ataladi. Unda aniqlik va izchillik, qiyosiy tahlil orqali ma'lum xulosalarga kelish xususiyati ustuvor.

Istiqlolning dastlabki o'n yilligida an'anaviy she'riyatdan ham ifoda usuliga ko'ra, ham mazmun-mohiyatiga ko'ra yetarlicha farqlanib turuvchi she'riy yo'nalish paydo bo'lganligini qayd etar ekan, tanqidchi uning asosiy xususiyatlarini, tamoyillarini belgilaydi. Voqeabandlikdan, tasvirdan, bayondan deyarli voz kechish va buning o'rniga metafora va detallarga urg'u berish, siqqlik, butun haqida parcha orqali ma'lumot yetkazish, shoir «men»i uchun ko'ngiining, uning holatiyu «dunyoga qarashi»ning birlamchi ekanligi, shaklda o'ziga xoslik, yoki shaklda shaklsizlik. Shu bilan birga u istiqtol davrining serqirra she'riyatini ifoda usuliga, mavzular olamiga ko'ra tasnif qiladi, kechagi she'riyatdan farqli jihatlarini ochib beradi.

U. Hamdam munaqqid U. Normatov bilan suhbatida eksiztensializm adabiyoti, modernizm she'riyati va absurd tushunchasi mohiyati haqida gapirib, «asarning chinakam absurd adabiyot namunasiga ko'tarilishi uchun unda aks etgan absurd voqelik asar muallifi tomonidan to'la idrok etilgan, anglangan bo'lishi shart», deydi. Bugungi modernizm adabiyoti, she'riyati haqidagi qarashlari ham o'quvchida yaxshi taassurot uyg'otishi bilan qimmatlidir. Bu qarashlar uning she'rshunos munaqqid sifatida mahorat qirralarini egallayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga uning ham she'rshunos, ham shoir sifatida bugungi milliy she'riyatimizdagi jarayonlardan, qolaversa, zamonaviy jahon she'riyati, she'riyat ilmi haqidagi yangiliklardan yaxshigina xabardorligini ham ko'rsatib turibdi. Ulug'bek Hamdam o'zining nasriy, nazmiy, adabiy-tanqidiy asarlari bilan, ulardagi teran his-tuyg'ulari, keng falsafiy qarashlari, adabiyot ilmiga foydali mulohazalari bilan, eng muhimi, adabiyotga sadoqati va fidoyiligi bilan adabiyot muxlislarining, ilm ahlining ishonchini qozonib kelmoqda.



¹ O'sha kitob, 101-bet.



BAHODIR KARIMOV (Bahodir Karim) (1966) o'zbek tanqidi va ilmiy-adabiy maktab ana'alarini davom ettirib va boyitishga faol hissa qo'shib kelayotgan adabiyotshunoslardan biridir. U «Nasrdagi nazokat» (1991), «Ingborg Baldauf aytadiki...» (1993), «Vadudning nazari» (1994), «Fikr va muhit ziddiyati» (1995) singari dastlabki tanqidiy maqolalari bilan ilmiy jamoatchilikning e'tiborini qozondi. Bo'lajak tanqidchi ushbu maqolalaridayoq tirishqoqligi, badiiy so'zni nozik tushunishi, xolisligi va rostgo'yiligini ko'rsata oldi.

Karimov Bahodir 1966-yil Turkmanistonning Toshhovuz viloyatida ziyoli oilasida tug'ildi. Maktabni bitirib, harbiy xizmatni o'tadi. ToshDUning o'zbek filologiyasi fakultetida (1986–1991) o'qidi, uning aspiranturasida va doktoranturasida ilmiy chiniqishdan o'tdi. Vadud Mahmud haqida nomzodlik (1995), Abdulla Qodiriy ijodi yuzasidan doktorlik (2002) dissertatsiyalarini himoya qildi. Ilmiy ishni tashkilotchilik faoliyati bilan qo'shib olib bordi. O'zMU, o'zbek filologiyasi fakultetini (2003–2006) boshqardi, kafedraga rahbarlik qildi. Shu dargohdagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi Ixtisoslashgan Kengash raisi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Oliy Adabiyot kursiga yetakchi bo'ldi.

B.Karimov Vadud Mahmud ijodini o'rganar ekan, tanqidchiligidiz tamal toshini qo'yan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, A.Sa'diy, O.Hoshim asarlari va tanqidiy qarashlarini ham tadqiq etdi. Bu yo'nalishdagi izlanishlar «Jadid munaqqidi Vadud Mahmud» (2000) nomli monografiyada aks etdi. Unda V.Mahmudning o'ziga xos tanqidchi ekani, zamonaviy adabiyotga, mumtoz adabiy merosga munosabati yoritildi. O'zbek adabiyotshunosligida ilk bor Vadud Mahmudning «Tanlangan asarlar»ini (2007) to'plab, so'zboshi va izohlar bilan nashr ettirdi.

«XX asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (qodiriyshunoslik misolida)» mavzuidagi doktorlik ishida (2002) tushunish, tushuntirish, talqin, tahlil, tanqid masalalarida respublikadagi adabiyot ilmida birinchilar qatorida jahon adabiyotshunosligidagi ilg'or tadqiqot metodi, jumladan, germenevtika – talqin nazariyasidan unumli foydalandi. Tadqiqotni ijobiy baholagan M.Qo'shjonov bu ilmiy ish yangi yangi tadqiqotlar uchun asos bo'lishini ta'kidladi. O'zimiz va xorijda bundan buyon Qodiriy ijodi haqida fikr yurituvchi mutaxassislar, shubhasiz, olimning bu tadqiqotlaridagi nazariy qarashlariga tayanib,

lah ko'radilar. B.Karimovning ushbu tadqiqoti o'zbek adabiyotshunosligida ilmiy-adabiy talqinning yangi, jahon adabiyotshunosligida sinovdan o'tgan, o'ziga xos milliy talqin yo'nalishini boshlab berdi.

Tadqiqot negizida nashr etilgan «Abduilla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin» (2006) nomli monografiyasida Qur'oni Karim tafsirlari, Hadislardagi sharh, talqinlarga xos xususiyatlar, «sharqona germe-nevtika» sifatida, shuningdek, qodiriyshunos olimlarning talqin usullari yoritildi. G'arb olimlari M.Xaydegger, G.Gadamer, rus olimlari M.Baxtin, Yu.Borevlarning nazariy qarashlari qodiriyshunoslik talqiniga tatbiq etildi.

Qodiriyshunoslik tarixi tizimli o'rganildi. Kitobning maxsus bir bo'limi «Xorijda qodiriyshunoslik»da E.Olvort, N.Tun, E.Nabi, X.Murfi, I.Baldauf, Z.Klaymixel kabi olimlarning asarlariga jiddiy va xolis munosabat bildirildi. B.Karimovning adabiy-tanqidiy qiziqishlari o'zbek jadid adabiyoti va XX asr adabiyoti, jahon tanqidchiligidagi nazariy muammolar, metodologiyaga doir muhim masalalarga qaratilgan. Shu ma'noda «Rivoyat ichida roman», «Taqdir shamoli», «Obraz mohiyati va talqin doirasi», «Daloyil» o'qiyotgan Yusufbek hoji», «Ko'z»ning poetik mohiyati», «Shoirning o'tkir so'zi», «A'zam shoirning o'ktam ovozi» kabi maqolalarini ta'kidlash joiz. Munaqqidning «Qodiriy qadri» (2003) nomli kitobidagi «Kim nimadan kuladi» («Xotira daftar»ini varaqlaganda) maqolasida Kalvak Mahzum obrazi orqali Qodiriyning davr illatlarini hajviy yo'sinda asosli, ishonarli fosh etganini poetik mahorat nuqtayi nazaridan talqin etadi.

B.Karimov ayrim maqolalarida so'zning poetik ko'lami, nasriy asar ohangi, adabiy makon va zamon masalalarini muhokama qiladi.

«Yangilanish sog'inchi» (2004) to'plamida XX asrning 20–30-yillari adabiy tanqidchiligi haqida fikr yuritiladi. «Tarjimon»da bosilgan Cho'lponning Gaspirinskiyga yo'llagan maktubini ilk bor ilmiy muomalaga kiritadi va shoirning matbuotdagi dastlabki chiqishi sifatida talqin etdi. «Cho'lpon va tanqid» kitobida esa Cho'lpon haqidagi tanqidiy maqolalarni jamlab, so'zboshi yozib jamoatchilikka taqdim qildi.


B.Karimov adabiyotshunoslikda tashabbuskor tashkilotchilardan biridir. «XX asr o'zbek she'riyati antologiyasi» (2007), «XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi» (2009), «XX asr adabiyotshunosligi antologiyasi» ruknida bosilgan «O'zbek adabiy tanqidi» antologiyasi (2011) kabi kitoblarning bevosita g'oya muallifi, nashrga tayyorlovchisi hamda so'zboshi muallifidir.

Faol mehnat qilayotgan olimning xalqaro miqyosda dadil qadam tashlayotgani ham quvonarlidir. Uning maqolalari Germaniya, Turkiya, Ukraina, Turkmanistonda bosilgan. Olim Turkiya (Istanbul, 2004, Anqara, 2005), Germaniya (Leypsig, 2005, Berlin, 2008), Xitoy (Pekin, 2005)da o'tkazilgan xalqaro anjumanlar ishtirokchisidir.

Tayanch tushunchalar: tahlil, talqin, semiotika, ontologiya, biografik yondashuv, uslubiy tahlil, mikrotahlil, matn, struktura, tuzilma, makromir, ozod ruh, yangilanish ehtiyoji.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Adabiy matn deganda nimani tushunasiz?
2. Taklilning asosini nima tashkil etadi?
3. O'zbek tanqidchiligida qaysi tahlil asosiy o'rinni egallagan edi?
4. Ontologiya qanday yo'nalish?
5. Mangu asar belgilari nimalarda ko'rinadi?
6. Semiotik tahlil deganda nimani tushunasiz?
7. Tanqidchining uslubi nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Istiqlol davri tanqidchilarining ijodi haqida gapiring.
9. S.Sodiq ijodining o'ziga xos tomonlarini yoriting.
10. X.Do'stmuhammad ijodi haqida gapiring.
11. U.Hamdanning she'riyatga bag'ishlangan qaysi asarlarini bilasiz?



TO'RTINCHI BO'LIM

O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGINING JANRIY TARKIBI

ADABIY TANQID JANRLARI. TAQRIZ

REJA:

1. O'zbek adabiy tanqidining janriy tasnifi.
2. Taqrizning janriy tabiati, genezisi.
3. Taqriz janrining estetik tafakkur taraqqiyotidagi o'rni va tasnifi.

O'zbek adabiy tanqidchiligining janriy tasnifi. Barcha san'at turlarida bo'lgani kabi adabiy tanqid asarlarining o'z tuzilishi, ilmiy-ma'rifiy xususiyatlari, qo'llanish o'rni va bajaradigan vazifalariga ko'ra muayyan guruhlar va yo'nalishlarni tashkil etadi. Tanqidchilik janrlarini shartli ravishda ikki yo'nalishga — adabiy jarayonni hamda yozuvchi hayoti, ijodi masalalarini yorituvchi yo'nalishlarga ajratish mumkin.

1. Taqriz, obzor va muammoli maqola, adabiy-tanqidiy maktub, adabiy-tanqidiy suhbat janrlari asar qachon, qanday yaratilgan degan savollarga javob berib, hajmi, badiiy asarning yaratilishi va unga baho berish nuqtayi nazaridan bir maydonda birlashadi.

2. Adabiy portret, esse (badia), tanqidiy-biografik ocherk singari janrlar yozuvchi ijodini umumlashtirib o'rganish, baholash, talqin etish, targ'ib qilish jihatidan bir maydonda birlashadi. Ular ijodkor shaxsi, muhiti, iste'dodining shakllanishi, adabiyotda tutgan o'rni singari muammolarga oydinlik kiritadi.

O'zbek tanqidi janrlari yuzaga kelishi, shakllanishi va taraqqiyotidagi muhim omillardan biri vaqtli matbuotning paydo bo'lishidir. XX asr boshlarida yangi adabiyotning tug'ilishiga aloqador holda uni idrok etish, anglash, mohiyatini kitobxonga tezroq yetkazish zaruriyati turli shakllarda ifodalash ehtiyojini keltirib chiqardi.

Masalan, taqriz va maqolalar vaqtli matbuotda e'lon qilinib, yaratilgan badiiy asarlar haqida ma'lumot bera boshlagan. Demak, vaqtli matbuot va milliy uyg'onish davri adabiyotining rang-barangligi xilma-xil ifoda shakllarining yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatgan.

Tanqidchilik janrlaridagi takomil badiiy ijodning o'zidagi rang-baranglashuv bilan ham chambarchas bog'liq, ayni vaqtda, ularning

o'zi badiiy asarlarning yaratilishi, yozilishi, nashri, ommalashuviga ham ma'lum miqdorda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbek tanqidchiligidagi janrlar majmui tarixan vujudga kelgan yaxlit tizim bo'lib, xilma-xil tipdagi tanqidiy asarlarning murakkab va o'ziga xos aloqalari hamda o'zaro ta'siri zahirida bunyodga kelgan. Janrlar tizimining shakllanish jarayoni tanqidiy tafakkur taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi.

Har bir janrning o'z xususiyatlari bo'lishiga qaramay, ularni mushtarak etuvchi jihatlari ham mavjudki, xuddi shu umumiylik ularni yaxlit tizimga birlashtiradi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

– o'zbek adabiy tanqidining barcha janrlari mohiyatan o'zaro mushtarakdirlar. Ularning barchasida adabiyotning rivoji, kamoloti, yuksak badiiyligi uchun kurash, kitobxon estetik ongini yuksaltirish vazifasi asosiy o'rin tutadi. Ular zahirida so'z san'atiga samimiy muhabbat yotadi;

– adabiy tanqid janrlari aro aloqa va uyg'unlik ularning badiiy adabiyot saviyasi uchun kurashdagi ko'pqirrali maqsad va vazifalaridagi mushtaraklikni keltirib chiqaradi: har janr o'zining alohida bir – badiiy asarning, yozuvchi ijodining o'ziga xosliklarini ko'rsatishdan iborat vazifasiga ega; ma'lum bir guruhga oid janriy shakllar badiiy asar yozilishi va nashr etilishiga aloqador tashviqotchilik xarakteriga ega: taqriz, maqola, adabiy maktub kabi janrlar, asosan, ana shunday vazifani bajaradi.

Boshqa bir guruh janrlar yozuvchi hayoti va ijodini umumlashtirish xarakteriga ega: adabiy portret, tanqidiy-biografik ocherk va esse shunday maqsadni ko'zlaydi.

Shu tariqa barcha janrlar bir bo'lib, yaxlit ilmiy-adabiy tafakkur vositasi sifatida adabiyotning ravnaqi uchun kurashadi, ijodkor va uning asari haqida muayyan xulosalar chiqarishga intiladi; mushtarak ilmiy-adabiy tizimni vujudga keltiradi.

Adabiy tanqid asarlari uchun adabiyot va uning nazariyasi estetik tamoyillari asosi umumiydir. Tildagi ommaboplik, ilmiylik sinkretizmi, soddalik, ilmiy-badiiy tafakkur sintezi, mushohada aniqligi, xulosalardagi lo'ndalik, umumlashtirish xarakteridagi ijodiy yondashuv ana shularga xizmat qiladi. Adabiy-tanqidiy asarlarning javhari adabiyotga muhabbat, uni qadrlash tuyg'usidir.

Doimiy taraqqiyotda bo'lgan bu tizim o'zbek adabiyoti, madaniyati, tili, ilmiy-badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni, milliy o'ziga xosliklarni yorqin ifoda etadi. Shu mantiqdan kelib chiqib, hajmi va

oldin qo‘ygan maqsadi hamda vazifasiga ko‘ra adabiy tanqid janrlarini uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. **Ixcham va hozirjavob janrlar.** Bularga taqriz, obzor va muam-moli adabiy-tanqidiy maqolalarni kiritish mumkin.

2. **Yetakchi xususiyatlarini tarixiy-biografik yondashuv belgilovchi janrlar.** Ularga tanqidiy-biografik ocherk, adabiy portret, badia (esse), monografiya kabilar kiradi.

3. **Adabiy muloqotga asoslangan janrlar:** adabiy-tanqidiy maktub va adabiy-tanqidiy suhbatdir.

Ixcham va hozirjavob janrlar. Taqriz: janriy tabiati, genezisi. «Taqriz» so‘zi lug‘atlarda turlicha izohlanadi. Chunonchi H. Homidiy boshchiligidagi mualliflar tuzgan «Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati»da «Retsenziya – (taqriz) adabiy tanqidning bir turi bo‘lib, spektakl, kinofilm va boshqalar haqida yozilgan, ularni tahlil qilgan, ularga baho bergan kichik adabiy tanqidiy asar», deb ta’rif beriladi¹. «Farhangi zaboni tojiki» lug‘atida: «Taqriz – a. Buridan, qat’i kardan; she’r guftan dar madh yo mazammati kase (ya’ni kesmoq, ochib qo‘ymoq; kimnidir madh yoki hajv qilib she’r aytmoq).

– b. Baho dodanborohikatbibanavishtai kase; bahoi musbat dodan ba navishtai kase (ya’ni kimningdir yozganlariga ijobiy yoki salbiy baho bermoq)»², – deya izohlangan. Har ikkala izohda taqriz so‘zi ma’nosining u yoki bu qirrasini ochib beriladi.

Taqriz aniq bir asarni asosli tahlil etuvchi, munaqqid uslubini namoyon qiluvchi, adabiy tanqidning eng kichik janri hisoblanadi. Taqriz – hozirjavob estetik baho; taqriz-badiiyat olamiga «razvedka» vositasi. Uning vazifasi ixcham ommabop tahlil orqali asarning adabiy jarayon va yozuvchi ijodiyotidagi o‘rnini aniqlash, yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatish, isbotlash va baholash, unga kitobxonlar e’tiborini qaratishdan iborat.

U adabiy talqinning lo‘nda, kichik ko‘rinishi deb aytilganlarga qo‘shimcha yana shuni aytish mumkinki, taqriz adabiy tanqidning eng hozirjavob va tezkor janri hisoblanadi. Ayniqsa, shu xususiyati bilan adabiy tanqidning boshqa janrlardan farq qiladi.

Yangi asar yaratilgach, deylik, bir yil o‘tgandan keyin ham, ba’zan e’lon qilingan taqrizlarni kuzatish mumkin. Biroq bunday hollarda uning eng muhim fazilatlaridan biri tezkorlik va hozirjavoblik susayadi.

¹ *Hotamov X.* va boshqalar. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – T.: 1967.

² Farhangi zaboni tojiki. Childi 2. Moskva, 1969, sax.353.

Taqriz aksariyat hollarda yangi badiiy va ilmiy asarlarga munosabat shaklida yoziladi. Qanday asarlarga bag'ishlab yozilganligiga qarab taqrizni ikki guruhga bo'lish mumkin: 1) badiiy asarlarga yozilgan taqrizlar; 2) ilmiy asarlarga yozilgan taqrizlar; bunday taqrizlar tanqidni tanqid xarakterida bo'ladi.

O'zbekistonda vaqtli matbuotning paydo bo'lishi hozirgi tushunchadagi taqriz janrining tug'ilishi orasida aniq bog'liqlik mavjud. Bu XIX asr so'nggi choragi va XX asr avvaliga to'g'ri keladi. Matbuot gazeta va jurnallarda taqriz janrining paydo bo'lishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Dastlabki taqrizlar «Turkiston viloyatining gazetasi» (TVG) ning sahifalarida bosildi. Gazetaning 1885-yil 35-, 42-, 47- sonlaridagi «Farg'ona mamlakatining bo'lib o'tmish podshohlari xususida yangidan bosilgan kitob» sarlavhali maqola yo'nalishi, oldiga qo'yilgan, vazifasi bilan hozirgi tushunchamizdagi taqrizga yaqin keladi. «O'sh shahri xususidagi risola» ham shu gazetada bosilgan dastlabki taqrizlardan biridir. Muallifi ko'rsatilmagan bu taqrizda risolaning yutuq va kamchiligini aytishga harakat qilinadi¹.

Adabiy jarayonda paydo bo'lgan yangi asarni birinchi bo'lib baholaydigan, hozirjavob taqriz janri keng auditoriyaga ega. Chunki taqrizda ilmiy-estetik tahlil va baho ixcham, siqiq shaklda, ommaga tushunarli tarzda o'z ifodasini topadi. Shu bois taqriz ayrim mutaxassislar aytayotganidek, faqat kutib oluvchi janrgina emas. U yangi asar tahlili orqali adabiy jarayondagi yangi tamoyillarni baholay oladigan estetik xususiyatga egadir. Muayyan asar tahlili orqali taqriz ham asar, ham hayot haqiqatini ochib, kitobxonga badiiy asar haqida tasavvur beradi.

Bu janr yana shunisi bilan xarakterliki, keng jamoatchilikning yangi asarni qanday qabul qilishi ham ma'lum jihatdan uni baholagan, tahlil qilgan dastlabki taqrizlarga bog'liq. Haqqoniy taqriz yangi asar haqida jamoatchilik fikri shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Kitobxonning yangi asarni qabul qilishga, yoki qilmaslikka undaydi. Taqrizchi asar mohiyatini ilmiy-estetik tahlil etish orqali u haqdagi kitobxonning tasavvur ko'zini ochadi. Shu o'rinda tanqidchi mas'uliyati degan muhim masala kelib chiqadi. Agar munaqqid ilmiy-estetik jihatdan kuchli bo'lsa, mulohazalari asosli va teran bo'lsa, ilmiy jamoatchilikka

¹ Jalolov A., O'zganboyev X. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o'rni. — T.: 1993. 43-bet.

ham, kitobxonlarga ham, jarayonga ham katta naf keltiradi. Va, aksincha bo'lsa, qimmatli asarni didsizligi tufayli inkor etsa, yoxud bo'sh asarni madh etsa, adabiy jamoatchilikni, kitobxonlarni chalg'itadi. Shu ma'noda taqrizchini tibbiyotdagi tashxis qo'yuvchiga qiyoslasa bo'ladi.

Har bir zamonning, adabiyotning ruhi dastavval taqrizda ko'rinadi. XX asrning 20-yillari boshlarida yozilgan taqrizlarda xolis qarashlar kuzatilsa, 30-yillardan tanqidchilikda, xususan, taqrizlarda vulgar sotsiologik qarashlar kuchaydi. Qanday asar yozilganidan ko'ra, kim tomonidan yaratilganiga ko'proq e'tibor berildi. Ularda taqrizchi, albatta, asarning g'oyaviy asosi, qahramonlarning qaysi sinf vakili ekanligi va boshqa mafkuraviy masalalarga to'xtalishi joiz edi. Bu xususiyat bir necha o'n yillar mobaynida taqrizlarda davom etdi. To'g'ri, ijobiy bahoga munosib taqrizlar ham yo'q emasdi. Lekin, tuzum, ko'pincha, o'z idealiga mos taqrizchilarni «qadrladi».

Tanqid o'zining ilk qadamlarini, asosan, taqrizdan boshladi. Xurshidning «Shohnoma»dan olib inssenirovka qilingan asarga yozilgan «Zahhoki moron», noma'um muallifning H.Jovid qalamiga mansub «Layli va Majnun» kabi sahna asarlariga bag'ishlangan taqrizlar bunga misol bo'la oladi.

Teatr taqrizlarida orttirilgan tajriba asta-sekin alohida badiiy asarlar, to'plamlarga yozilgan taqrizlarda bo'y ko'rsatdi.

20-yillar adabiyoti va adabiy tanqidi qismati murakkab sharoitda kechdi. Bu xususiyat taqrizlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Shunday hollarda ham san'atkor ijodi va asarlarini xolis, to'g'ri baholashga harakat qilindi.

Cho'lponning «Uyg'onish» (1922) to'plami nashr etilishi bilan unga birinchilar qatorida Z.Bashir taqriz yozdi: «Cho'lpon o'rtoq xayolga juda boy bo'lgani holda... uning xayoli tabiatda va kishilik dunyosida bor va bo'lishi mumkin bo'lgan doiralardagina uchadir». Taqrizchining fikricha, shoir asarlari badiiy tasvirga boy, oz so'zlab, ko'p mazmunni ifodalaydi, tili sof o'zbek tilidir...

Ko'rinayotirki, Z.Bashir Cho'lpon ijodini to'g'ri tushunib, odilona baho beradi.Faqat bir o'rinda zamonasozlik qilgani, Cho'lpon «el», «xalq» so'zlarini qancha ko'p yozsa va so'zlasa ham xalq shoiri emas, xalqqa yaqin bo'lgan ziyolilar shoiridir...» degan so'zlarida namoyon bo'ladi. Bunday fikrlar, qarashlar, nuqtayi nazarlar ko'p o'tmay, keyinchalik Cho'lpon ijodiga munosabatda ikki yo'nalish kelib chiqishiga sabab bo'ldi. V.Mahmud, A.Alaviy singari tanqidchilar

o'sha davrlardayoq shoir ijodining asosiy mohiyatini tushunib yetdilar. Ammo Ayn (Olim Sharafuddinov), Usmonxon Eshonxo'jayevlar Cho'lpon ijodiga sinfiy nuqtayi nazardan baho berishga intildilar*.

Mafkuraviylashtirilgan adabiy tanqid va taqriz partiyaviyligi uchun kurashgani bosh muddao sifatida talqin qilish yo'liga o'tdi. Hozirjavob taqriz janridan ham shu narsa talab qilinadi. Shunga qaramay, asarni haqqoniy, san'at namunasi sifatida baholashga intiigan taqrizlar ham bosilib turdi. I.Davronning «Yurak» to'plamiga yozilgan «O'ynoqi she'rlar» (1935), I.Sultonning «Nomus va muhabbat»iga yozilgan shu nomdagi taqrizi (1936), M.Shayxzodaning «Qul bolalar va hur bolalar» (1936), H.Yoqubovning Cho'lponning «Soz»i (1936), T.Jalolovning «Sarob» (1939), Shayxzodaning «Qutlug' qon» haqidagi «Adibning yutug'i» singari taqrizlar o'sha davr adabiyoti va taqrizchiligi haqida tasavvur beradi.

Ikkinchi jahon urushi davrida zamonaviy mavzudagi asarlardan biri- N.Pogodin, S.Abdulla, Uyg'un va H.Olimjonlar hamkorlikda yozgan «O'zbekiston qilichi» dramasi shoir M.Shayxzoda tomonidan yozilgan taqriz o'sha davr taqrizchiligi izlanishlarini ko'rsatadi.

M.Shayxzoda dramadagi xalqchilikka va unga asos bo'lgan an'anaga shu epizodning javhari (ratsional mag'zi)da namoyon bo'luvchi zamonaviylikka alohida e'tibor beradi. Hatto xalqimiz hayoti va adabiyoti tarixidan dramaning shu epizodiga qiyos bo'luvchi misollar keltirishni lozim topadi. Taqriz qimmatini asar zamonaviyligini ochib berishidagina emas, balki taqrizning o'zidagi zamonaviy ruh va pafos teranligida hamdir. Taqriz adabiy jarayonga, san'atkorlarga ko'rsatajakk ilmiy-estetik ta'sir kuchidan tashqari, shu asar tahlili misolida bevosita hayotga, xalqqa, frontdagi jangchilarga ko'rsatajakk ta'sir kuchi bilan ham qimmatli edi.

Bu taqrizchilikdagi faollik, hozirjavoblik, tezkorlik va xolislik hamda hayot va adabiyotga ta'sirning mushtarak ko'rinishlaridan biri edi.

Urush davridagi asarlar tahliliga bag'ishlangan taqrizlardan yana biri Shayxzoda asari haqida Oybek va G'.G'ulom hamkorligidayozilgan «Jaloliddin» dramasi haqida» nomli taqrizdir. Bu taqriz tarixiy janrdagi dramaning qator muhim muammolarini ko'tarib chiqishi jihatidan, nainki urush davri, balki umuman o'zbek tanqidchiligi tarixida muhim ahamiyatga egadir. Unda e'tirof etilishicha,

* Bu haqda to'liq ma'lumot olish uchun qarang: O.Sharafiddinov. Cho'lponni anglash.T.. 1993; Cho'lpon va tanqid. — T.: 2004.

dramada «...Vatan o'g'illarining erk, mustaqillik, nomus va sharaf uchun boshlagan kurashi yorqin ma'nodor drammatizm bilan to'la hayajonli kartinalarda g'aydalanadi».

O'tgan asrning 50-yillariga kelib ba'zi taqrizchilarning bir-birlari bilan munozara qilishga kirishgan hollar ham uchraydi. Jumladan, «Sharq yulduzi» jurnalida G'.G'ulom, Shuhrat, Zulfiya, Mirmuhsin, H. G'ulom, S.Zunnunova, S.Akbary, J.Jabborov poema va to'plamlari haqida taqrizlar e'lon qilingan. Bu taqrizlarda zamonaviy hayot voqealarini aks ettirish kuchayib borayotgani ta'kidlandi. Zamona-viylikni aksar hollarda zamonasozlik sifatida talqin etgan taqrizchilik jiddiy cheklanishga ham yo'l qo'ydi.

50-yillarning o'rtalaridan adabiy tanqidga qator yangi ijodiy kuchlar kelib qo'shildi. 60-yillardan g'oyaviy-estetik tahlilga e'tibor kuchaydi. Davrdagi yangicha ruh munaqqidlar ijodida ham tobora yorqinlashib ko'rina boshladi. «Sinchalak», «Muqaddas», «Qora ko'zlar» singari asarlarga yozilgan taqrizlarda mahorat va uslub tahlili, asarning badiiy-estetik mohiyatini ochish markazga qo'yildi.

Ba'zi tanqidchilarda yuksak did, bilim bilan bir qatorda jur'at yetakchi a'mol sifatida namoyon bo'ldi. «Tobutdan tovush» dramasiga O.Sharafiddinovning munosabati o'zbek taqrizchiligining yaxshi namunalaridan biri sifatida tanqidchilik tarixiga kirib qoldi.

O'zbek adabiyotida «O'tkan kunlar», «Sarob», «Navoiy», «Chinor» «Ulug'bek xazinasi» singari asarlar tilga olinishi bilan ularga birinchilar qatorida munosabat bildirgan, ma'lum ma'noda ularni hatto himoya qilgan tanqidchilarni alohida e'tirof etish to'g'ri bo'ladi. Bu romanlarni teran tahlil etgan, asar jozibasini o'zlaridagi go'zallik tuyg'usi bilan uyg'unlashtirib aytgan M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Majonov, N.Karimov, U. Normatov kabi tanqidchilarning taqrizlari yoshlar uchun mahorat maktabidir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, taqriz ham badiiy asar orqali ilmiy-estetik haqiqat uchun kurashuvchi va shu haqiqatni yaratuvchi vositaga aylana olsagina, davr sinovlariga dosh berib, avloddan avlodga yetib boradi.

Taqriz janrining estetik tafakkur taraqqiyotidagi o'rni. Taqriz — tanqidchi qalamining qayrog'i, «tanqidning tikonli guli» (I. G'afurov) tanqidiy bahoning harakatdagi jonli o'lchovidir. Ana shu mezonlar o'lmas taqrizlar yaratilishiga asos bo'ladi. Bu janrda munaqqid san'atkorligi, o'zligi, didi aniq yuz ocha boshlaydi. Buni M.Qo'shjonovning: «Munaqqid uchun bosh yo'nalish taqriz bo'lishi kerak. Beshta, o'nta

taqriz doim ikkita-uchta jiddiy maqolaga material beradi», degan e'tirofi katta ijodiy tajribadan tug'ilgan xulosadir'.¹

«Navoiy» romaniga birinchilardan bo'lib taqriz e'lon qilgan mashhur sharqshunos olim Ye.E.Bertels asarga yuqori baho berib shunday yozgan edi: «Roman Navoiy davrini ajoyib aks ettirgan va Navoiy obrazini haqqoniy tasvirlagan. Romanning katta muvaffaqiyati shundaki, unga kiritilgan barcha voqealar bizgacha yetib kelgan tarixiy hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Roman katta badiiy qimmatini bilan ajralib turadi». Garchi keyinchalik romanga turli munosabatlar bildirilgan bo'lsa-da, Bertelsning taqrizi adabiy jarayon rivoji va yozuvchi mahoratining e'tirofida katta rol o'ynadi.

✓ Taqriz ham xuddi tanqidning o'zidek — bir xil tekis yo'lni bosib o'tgani yo'q. Sanoqlarga e'tibor berilsa, adabiyotimiz xazinasini go'yo nodir va mo'jiza asarlarga «to'lib ketganday taassurot uyg'onadi». Bu illatning yuzaga kelishida taqrizning o'rni ham oz emas. Taqrizchilikda ofarinbozlik, ko'tar-ko'tarchilik, yuzakichilik, zamonasozlik, mavzuparastlik yetakchilik qilgan holatlar oz bo'lmadi. ²

Ma'lum davrda avj olgan ofarinbozlik sharoitida ham M.Qo'shjonovning «Xayol boshqa, hayot boshqa», O.Sharafiddinovning «Hayotiylik jozibasi, sxematizm inersiyasi», N.Xudoyberganovning «Yaproqlar bor, ildizlar-chi?» singari jiddiy taqrizlari paydo bo'ldi. Bular adabiy tanqid uchun naqadar zarurligini isbotlashga asos bo'la oladi.

✓ **Taqriz tasnifi.** Taqriz muayyan ma'noda iste'dodlarni, badiiy asarni qayta kashf etadi, ham kashf etilgan talantlarning ishonch kuchini mustahkamlaydi. Kitobxonlarda badiiyatni anglash va his etish tuyg'usini tarbiyalaydi.

Taqriz janri son va sifat jihatidan o'zgara boshladi, shu jihatdan, u, asosan, olti xil ichki ko'rinishga ega. Ularning hammasi uchun badiiy asarga baho berish va uni tashviq etish mushtarak xususiyat hisoblanadi. Taqriz o'z oldidagi vazifani bajarishda rang-baranglikka erishish, ta'sir effektidagi turli nuqtalarni jonlantirish hamda yozilish mancrasiga ko'ra xilma-xil ichki ko'rinishlar tasnif etilishi mumkin: ✓

1. Tezkor taqriz asarga lo'nda, qisqa baho beradi, asarning yangiligini nimadan iborat ekanligini ko'rsatadi.

2. Monografik taqriz asarni chuqur va atroflicha o'rganadi, hajm jihatidan yirik.

¹ Jahon adabiyoti, 2001, № 1, 13-bet.

3. Shuhr-taqriz asar mazmunini sharhlab baholaydi.
4. Xabar-taqrizda darak berish ruhi yetakchilik qiladi.
5. Maktub-taqrizda maktubga va taqrizga xos xususiyatlar o'zaro sintezlashadi.

6. Og'zaki taqriz — baho va bayonning og'zaki tarzda ifodalanishi bilan xarakterlanadi.

¶ Taqrizchilikning bunday ichki shakllaridan qay darajada va qanday yo'sinda foydalanish tanqidchi mahoratiga bog'liq. Taqrizchi o'zi yozayotgan ishning mazmun va shakldagi dialektik birligini qay tartibda joylashtira bilishini hisobga o'lmog'i darkor. Taqrizchining badiiy asarga ijtimoiy munosabatidan tashqari o'z shaxsiy munosabati, didi, tuyg'ulari, ta'sirlanish darajasi muhim o'rin tutadi.

Taqriz asarga ijodiy yondashib, uning fazilatleri va qusurlarini kashf etish, bundan tashqari asardan uzoqlashmagan holda o'z fikr-tuyg'ulari bilan uni boyitishdir. Masalan, rassom polotnosi bitta. Uni nazardan o'tkazgan har bir kishi asarning tub mohiyatidan tashqari, uning har bir nuqtasidagi go'zallikni o'zicha kashf etadi va baholaydi hamda ularni o'z taassurotlari bilan yanada boyitadi. Shunday ekan, haqiqiy musavvirning bir rangtasvir asariga hech qachon butkul bir xil baho berib bo'lmaydi. Qancha kishi ko'rsa, unga shuncha rang-barang baho berishi mumkin. Badiiy asarga yoziluvchi taqriz ham, shartli ravishda shunga o'xshab ketadi. Demak, taqriz ijodiy izlanishlar samarasi bo'lmog'i kerak. ^u

Taqrizning quyidagi: asarga tezkorlik bilan baho berish, uning yozuvchi ijodi va adabiy jarayondagi o'rnini ko'rsatish; tashviqiy mohiyatga egalik, kitobxonga yangi asar haqida ma'lumot berish va uning estetik tasavvurini boyitish kabi yetakchi janriy belgilari mavjud. Taqrizda qisqa tahlil orqali asarga va uning mohiyati hamda badiiyatiga berilgan baho yetakchi unsur hisoblanadi. Uning alohida xususiyatlaridan biri — «tanqidning tikanli guli» (I.G'afurov) sifatida asarning kamchiliklarini ochib berishga xizmat qilishidir. ^u

Barcha ijodiy ishda vijdon va mas'uliyat zarur, albatta. Lekin taqrizda uning o'rnini nihoyatda yorqinlik bilan bilinib turadi. Taqrizda ham vijdonan, ham bilimdonlik va mas'uliyat bilan amalga oshirilgan tahlil zarur.

Barcha ijodkorlarga, lekin yosh ijodkorlarning asarlariga taqriz yozish, ayniqsa, mas'uliyatlidir. Yoshlar ijodiga ehtiyotkorlik bilan yondashish talantni avaylash, talabchanlikni susaytirmagan holda unga mehr va tavoze ko'rsatish taqriznavisning burchi bo'lmog'i kerak.

Ayni vaqtda, yoshlar ijodiga ortiqcha baho berish, xushomaddan tiyila bilish ham ana shu burch ichida ekanini yodda tutmoq o'rinlidir. Shu ma'noda yozuvchi A.Qahhorning bir qancha umidli iste'dodlarga munosabatini, ular asarlariga yozgan ixcham taqrizlarini eslash o'rinlidir. Vaqtida Abdulla Qahhor Said Ahmad, O.Sharafiddinov, A.Oripov, Sh.Xolmirzayev, O'. Hoshimov kabi yosh iste'dodlar ijodiga to'g'ri baho bera olgan edi.

Tanqidchi qaysi janrga murojaat etishidan qat'i nazar, uning asari betakror xususiyatlarga ega bo'lishi, unda ham mazmun va shakl uyg'unligi ta'minlanishi zarur. Bu fikr taqrizga ham tegishlidir.

Tayanch tushunchalar: taqrizning lug'aviy ma'nosi, istilohiy ma'nosi taqriz-hozirjavob estetik baho; taqriz-badiiyat olamiga «razvedka» vositasi; taqriz va matbuot munosabati; taqriz-sharh, taqriz-bahs, monografik taqriz.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. «Taqriz» istilohining lug'aviy va istilohiy mazmunini izohlang.
2. Taqrizning janriy tabiatiga xos xususiyatlari nimada?
3. Taqrizchilikning kelib chiqish omillari haqida nimalarni bilasiz?
4. O'zbek taqrizchiligida u yoki bu asarlarga baho berishda qanday tamoyillarga amal qilingan?
5. Taqrizning qanday ko'rinishlari mavjud?
6. Taqrizning shakllanish va rivojlanish jarayoni qanday kechgan?
7. O'zbek taqrizchiligi tasnifoti va ichki turlari haqida nimalarni bilasiz?

REJA:

1. Maqola istilohi haqida, maqola janrining tabiati.
2. Adabiy-tanqidiy maqolaning tasnifi.
3. Adabiy-tanqidiy maqolaning estetik tafakkur taraqqiyotidagi ahamiyati.

Maqola istilohi haqida, maqola janrining tabiati. Adabiy tanqidning faol janrlaridan biri maqola bo'lib, u taqrizga nisbatan hajman kattaligi, tahlil va tadqiqqa tortilgan adiblar, asarlar va muammolar ko'lamining kengligi, zamon va makon masalasidagi xoslik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Maqola asli arabcha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan fikr bildirmoq, aytilgan so'z kabi ma'nolarini bildiradi. Istilohiy jihatdan «Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati»da maqola «Gazeta va jurnallar uchun kundalik muhim ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy hayot masalalari to'g'risida yozilgan publitsistik asar»¹ deb izohlanadi. Bunda maqolaning axborot berishga mo'ljallangan yo'nalishi ko'zda tutilgan. Kundalik matbuotda yoritiluvchi keng ma'nodagi maqolalar ko'pchilikka mo'ljallanib, hammaga tushunarli til va maroqli uslubda yozilishi bilan xarakterlanadi va, asosan, jurnalistik faoliyat hosilasi hisoblanadi.

Arab tilidan o'zbek tiliga kirib, o'zlashib ketgan «maqola» so'zi hozir ham o'zining qadim ma'nosini saqlab qolgan. Lekin endi maqola gazeta va jurnallar, turli xil to'plamlar, kitoblar nashr etish hamda matbuot tarixi bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra gazeta, jurnal, to'plamlarda nashr etiladigan siyosiy, ilmiy, publitsistik, ijtimoiy xarakterdagi va umumlashtiruvchi kuchiga ega asardir.

Shundan kelib chiqib, maqola mavzusi, mazmuni, mohiyati, maqsadiga qarab, siyosiy maqola, ilmiy maqola, publitsistik, adabiy-tanqidiy maqola kabi ichki ko'rinishlarga ega. Siyosiy va publitsistik maqola kundalik matbuotga daxldor siyosiy-ijtimoiy mohiyatga ega bo'lsa, ilmiy maqola fanning turli sohalariga oid tadqiqotlar mazmunini ifodalashi bilan ajralib turadi.

¹ Homidiy H., va b. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. — T.: 1967.

Adabiyot sohasidagi tadqiqotlarga taalluqli maqola adabiy-estetik qarashlarni ifoda etadi. Bunday maqolalarda biror asar yoki adabiy muammo tahlil qilinib, shu jarayonda kelib chiqqan ilmiy-estetik xulosalar yoritiladi. Shu xususiyatiga ko'ra bu xildagi maqolalar adabiy-tanqidiy maqola deb yuritiladi. Har qanday adabiy-tanqidiy maqolada o'rganilayotgan muammo izchil ilmiy mushohadaga, obrazli ruhga, kuchli muayyan pafos va ehtirosga suyanilgan holda tahlil qilinsagina, tanqidchining badiiy asar haqidagi fikrlari yorqinlashib, kitobxonga ta'sir etadigan darajada aniq va o'qimishli bo'ladi.

Adabiy-tanqidiy maqoladan mantiqiy izchilik talab qilinadi, albatta. Biroq, u aniq fanlardagi darajada izchil bo'lmashligi mumkin. Buning sababi, adabiy tanqidning badiiy tafakkur bilan aloqadorligi tufaylidir. Ya'ni, tanqidchi kezi kelganda, o'rniga qarab fikr yuritayotgan muammo va masaladagi haqiqatga zid kelmagan ravishda mushohada va fikrlashda badiiylkdan unumli foydalanishi mumkin. Bu badiiylk, fikr yuritayotgan asar yoki masaladagi o'ziga xoslikka yoxud ular haqidagi munaqqidning o'ziga xos qarashlarini, ichki dunyosi va qiyofasini ochishga bo'ysundirilgan bo'ladi.

O'zbek tanqidchiligidagi XX asrning 20-yillaridan boshlab bu janrni rivojlantirishga Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy kabi ijodkorlar bilan birga A.Sa'diy, O.Sharafuddinov, Vadud Mahmud, Otajon Hoshim, S.Husayn kabi munaqqidlar o'z hissalarini qo'shdilar. Ularning adabiy-tanqidiy maqolalari bu janrga qo'yiladigan qator talablarga javob bera olishi bilan diqqatga sazovor.

Adabiy-tanqidiy maqolaning tasnifi. Badiiy adabiyotdagi barcha janrlarda bo'lganidek, adabiy tanqid janrlarida, jumladan, adabiy-tanqidiy maqolada ham obrazlilik, kompozitsiya muhim rol o'ynaydi. Masalan, Julqunboy «20-yilda kuldirtuvchilarimiz» (1926) maqolasi mazmunini ham, shaklini ham xuddi hajviy-badiiy asar yo'sinida tuzishga harakat qiladi. Usmonxon esa, «Munaqqidning munaqqidi» (1927) maqolasini Oybekning Cho'lpon haqidagi maqolasida ilgari surilgan fikrlar bilan bahsga kirishish asosiga quradi. H.Yoqubov «Oybek va uning she'rlari» (1929) maqolasida ilk bor yosh shoirning shu yillardagi asarlariga obzor berishni maqsad qilib qo'yadi.

Bu maqolalarning hech qaysi biri na kompozitsiyasi, na tuzilishi jihatidan bir-biriga o'xshamaydi, bir-birini takrorlamaydi. O'zbek tanqidchiligi ana shu ijobiy an'analarni o'zlashtirish yo'lidan bordi.

Masalan, M.Qo'shjonovning «Hayot va qahramon» (1979) kitobi adabiy maqolalardan tashkil topgan. Unda «Xarakter evolutsiyasi»

deb nomlangan tadqiqot Oybekning «Qutlug' qon» romani tahliliga bag'ishlangan bo'lib, bir necha qismlardan tashkil topgan. Bu o'zbek tanqidchiligining tajriba ortgani sari maqola janrining murakkab shakl va turlariga murojaat eta boshlaganini ko'rsatadi.

«Yoshlar qalbi» deb nomlangan maqolada O.Yoqubovning «Muqaddas» qissasi tahlil etiladi. Hajman kichik bu maqolada asarning o'ziga xos tomonlari ko'rsatib beriladi. Ko'rinadiki, M.Qo'shjonov deyarli har bir maqolasida maqsaddan kelib chiqib, maqola janrining turli ko'rinish va shakllariga murojaat etadi. «M.Qo'shjonov maqolalari puxta o'ylangan, izchil kompozitsiyaga ega. Unda boshdan oxirigacha davom etuvchi muayyan bosh muddao mavjud bo'lib, muallif ana shu yo'nalishni qiziqarli tahliliy muhokamalar, favqulodda yangi fikrlar bilan asta-sekin rivojlantirib boradi. Bu uslub badiiy asarlar sujeti rivojidadagi «qiziqtiruvchanlik» xususiyatini eslatadi»¹, deganida O.Tog'ayev haqdir. Xuddi shu qiziqtiruvchanlik munaqqidning deyarli barcha maqolalaridagi asosiy xususiyatni tashkil etadi.

O. Sharafiddinovning «Haqiqatga sadoqat» (1989) kitobiga kirgan adabiy-tanqidiy maqolalar ham kompozitsion qurilish jihatdan turli ko'rinishda. Ba'zilar obzor shaklida («She'r ko'p, ammo shoir-chi?»), ba'zilar monografik xarakterda («Ikkinchi cho'qqi»), ba'zilar portretga chizgilar shaklida («Cho'lponning ijodiy yo'li»), ba'zilar esa taqriz xarakterida («Haqqush hikmatlari») kabi.

O'zbek tanqidchiligida adabiy-tanqidiy maqolaning, asosan, uch turi keng tarqalganini ko'rish mumkin:

1. Portret-maqola.
2. Obzor maqola.
3. Muammoli maqola.

1. Portret-maqolaning shakllanishi va tez taraqqiysi XX asr boshlaridagi davr talabi bilan belgilanadi: hayoti va ijodi kam o'rganilgan yozuvchi va shoirlar, ular haqidagi ma'lumotlarning tarqoq holda ekani san'atkor haqida yaxlit va umumlashma xarakterda ma'lumotlar beruvchi u yoki bu janrning ilk namunalari yaratish zaruriyatini keltirib chiqardi.

O'zbek adabiyotshunosligida portret yo'sinidagi maqolalar XX asrning boshlarida paydo bo'ldi. Masalan, Ibrohim Davron «TVG» ning 1908-yil 5-sonida Ibrat taxallusi bilan ijod etgan Is'hoqxon to'raning faoliyatiga bag'ishlab maqola yozadi. Muallif Is'hoqxonning

¹ Tog'ayev O. Ibratli saboqlar. — T.: 1987, 209-bet.

serqirra ijtimoiy faoliyati bilan bir qatorda, adabiy faoliyatiga ham yuqori baho beradi, shu bilan birga ijodkor haqida umumlashtiruvchi ma'lumot berishning o'ziga xosliklari haqida ham gapirib o'tadi.

Portret-maqola namunalari yaratishda Fitrat, Cho'lpon, Vadud Mahmud faollik ko'rsatdilar. Ular hayot yo'li, ijodi umumlashtirilgan holda kam o'rganilgan mumtoz shoirlar va zamondosh ijodkorlar portretini yaratishga e'tibor qaratdilar. Shu tarzda o'zbek tanqidchiligida portret-maqola, keyinchalik ular asosida adabiy portret yaratish an'anaviy tus ola bordi.

Portret-maqola, asosan, ikki xil maqsad bilan yaratiladi:

1. Yozuvchi hayoti va ijodi haqida qisqa bo'lsa-da, tahlil asosidagi umumlashma ma'lumot berish. Bunga Fitratning Turdi, M.Solih, Vadud Mahmudning Navoiy va Fuzuliy, Oybekning G'.G'ulom, H.Olimjon kabi ijodkorlar haqidagi portret-maqolalari misol bo'la oladi.

2. Ijodkor portretiga oid chizgilar berilib, keyinchalik to'liq adabiy portret yaratishga zamin hozirlash. Bunday ijodiy izlanish keyingi davrlarda qaror topib, takomillashayotir. Jumladan, O.Sharafiddinov adabiy portretlarining ko'pchiligi shu tarzda yaratilgan. Shu boisdan adabiyotshunos A.Rasulov O.Sharafiddinovga bag'ishlangan kitobida «maqola-portret», «maqola-eskiz» singari istilohlarni ishlatdi.

O'tgan asrning 20-yillari yaratilgan portret-maqolalar uning jadal sur'atlar o'zlashtira boshlanganini ko'rsatadi. Ularda ilmiylik bilan ma'rifiylik, ehtiros bilan pafos o'zaro sintezlashadi. Portret-maqola shakllanishiga munaqqidlar Vadud Mahmud, Aburahmon Sa'diy qatori adiblar Cho'lpon, Fitrat ham barakali hissa qo'shdilar. Portret-maqolaga asos bo'lgan ijodkor haqidagi ma'lumot, kuzatish, tahlilni yaxlit holda umumlashga intilish yildan yilga takomillashib bordi. Asosiy maqsad: a) qiyofasi yoritilayotgan adib tarjimai holini oydinlashtirish; b) muhit va adib aloqadorligining ijodga ta'sirini ko'rsatish; d) asarlar tadqiqi va tahlilini san'atkor qiyofasi bilan uyg'unlashtirish; e) adabiy jarayondagi o'rnini aniqlash kabi masalalarga urg'u berish.

O'zbek tanqidining keyingi taraqqiyoti XX asr 20-yillaridan shakllangan portret-maqolalar yangi yo'sinlarda takomillasha borganini ko'rsatadi. Ularni yozilish maqsadiga ko'ra turlicha guruhlash mumkin: a) hayot bo'lgan shoir yoki adibning yubileyi munosabati bilan; b) ijodkorning biror kitobi nashr etilishi munosabati bilan so'zboshi shaklida yozilgan portret-maqola; d) shoir yoki adib vafotidan so'ng

muayyan sanalarning nishonlanishi munosabati bilan; e) mukofotlanish yoki taqdirlanish munosabati bilan yozilgan portret-maqola. Janr mohiyati, rivojini Oybekning portret-maqolalari misolida ko'rish mumkin¹.

Tanqidchilikda, ba'zan maqola, portret va tanqidiy-biografik ocherk janrlarini aralashtirib yuborish hollari uchraydi. Chunonchi, L.Qayumovning «Zamondoshlar» kitobiga kirgan «Sadridin Ayniy», «Hamid Olimjon», «Sobir Abdulla», «Uyg'un», «Komil Yashin», «Izzat Sulton», «Erkin Vohidov» kabilar portret-maqola bo'lgani holda boshqa adabiy portretlarning aksari bu shakl namunasi hisoblanmaydi. Chunki ularda shoir yoki yozuvchi ijodi haqida shunchaki ma'lumot berish bilan chegaralanadi, xolos.

Demak, adabiy-tanqidiy maqolaning muayyan turi sanaluvchi portret-maqolaning asosiy belgilari sifatida: a) tarixiy-biografik yondashuv asosidagi hayot va ijod yo'lini muxtasar kuzatuv natijasida yozuvchi qiyofasi yaratilishi; b) qisqacha ravishda bo'lsa-da, yozuvchining ijodiy qiyofasi adabiy-tarixiy davr bilan mustahkam aloqadorlikda o'rganilishi; d) eng muhimi, yuqoridagi xususiyatlar umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lishi lozim.

2. Adabiy-tanqidiy obzor maqolada alohida bir adib yoki bir necha adibning muayyan bosqichdagi ijodi; ma'lum bir adabiy tamoyillar shakllanishi, takomillashuvi; uning sabab-oqibatlari, bu jarayonda muhim rol o'ynagan adiblarning asarlaridagi o'ziga xosliklarni ko'rsatish; adabiy jarayonning o'ziga xosliklarini ochish; maqsadning amalga oshirilishi natijasidagi xulosalarni umumlashtirish; shular asosida muayyan takliflarni o'rtaga tashlash muhim o'rin tutadi.

Adabiy-tanqidiy obzor maqola adabiy tanqidning uzoq tarixga ega va, ayni vaqtda, doimo o'z faolligini namoyish etuvchi shakllardan sanaladi. V.G.Belinskiy yoqtirgan va mohirligi namoyon bo'lgan maqola turlaridan biri adabiy obzor edi.

U «1841-yil rus adabiyoti», «1842-yil rus adabiyoti», «Kitob do'konida eshitib qolingan adabiy gurung» singari qator obzor maqolalarini zavq-shavq bilan yozgan. Uning mahorati shundaki, bunda u xronologik obzor yaratadimi, tematik obzorga qo'l uradimi, o'z oldiga haqiqiy san'at asarlarini kashf etishni maqsad qilib qo'yadi.

¹ Bu haqda qarang : Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi janrlari. – T.: Fan, 2008.

O'zbek tanqidchiligida obzor xarakteriga ega bo'lgan xususiyatlar tarixan turli adabiy gurung va suhbatlarda og'zaki tarzda hukm surganini ta'kidlash o'rinlidir. Adabiy tanqid tarixida A. Zohiriyning «Olti yillik o'zbek adabiyotiga bir qarash» (1924), A. Sa'diyning «Olti yil ichida o'zbek she'riy adabiyoti» (1924) singari maqolalarini hozirgi tushunchadagi dastlabki adabiy-tanqidiy obzor maqolalar sifatida qayd etish mumkin.

Adabiy-tanqidiy obzor maqola qay bir nuqtada taqriz janri xususiyatlarini o'ziga singdirsa-da, xos fazilatlar bilan undan jiddiy farq qiladi. Bu, xususan, unda bir vaqtning o'zida ma'lum bir davrda yozilgan bir qancha asarlar tahlilga tortilishida ayonlashadi. Uni yozish uchun aniq bir davr va o'sha davrda yaratilgan asarlar hisobga olinadi. Bir munaqqid muayyan bir muddat yil, bosqich, davr lirikasini obzor qilsa, boshqasi nasr haqida shunday obzor yozishi mumkin. Yoxud u yoki bu adabiy janr, muammo, mavzu, uslub, qahramon tipining tadrijiga xos xususiyatlar o'rganilib umumlashtirilishi, obzor qilinishi mumkin.

Taqrizda birgina asar xususida gap ketsa, obzor maqolada butun bir yil, bosqich, davr yoki aniq bir janrga mansub asarlarga munosabat bildiriladi. Obzor maqola yozish uchun zamon kategoriyasi zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Chunonchi, M.Qo'shjonovning «Ma'no — mahoratning bosh masalasi» deb nomlangan obzor maqolasida 1972-yilda yaratilgan nasriy asarlar haqidagi mulohazalar umumlashtiriladi.

O.Sharafiddinovning «Yillar va yo'llar» maqolasida sho'ro davridagi o'zbek she'riyatining deyarli yarim asriga obzor berildi. O.Sharafiddinov jahon adabiyoti turkumidagi 200 jildlik majmuaning bosilib chiqishi munosabati bilan yozilgan obzor maqolasi bilan jahon adabiy tanqidchiligidagi obzor maqola tushunchasini yangiladi va uning yangi tipi sifatida adabiy tanqidchilik tarixidan munosib o'rin egalladi.

Obzor maqolada jonli adabiy jarayonni, undagi yangiliklar, kurashlar, holatlar, intilishlarni tahlil qilar ekan, ayni vaqtda, haqiqiy san'at asarlarini kashf etishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Obzorchi ma'lum chegaradagi, doiradagi asarlarni o'rganishidan qat'i nazar, uning xulosalari bu chegara doirasida ancha tashqariga chiqishi bilan ajralib turadi. Obzor yaratishning qiyin tomonlari ham ko'p. Obzorchi, avvalo, jahon adabiyotini, aniqrog'i, dunyodagi rivojlangan adabiyotlarni yaxshi bilishi; ikkinchidan, zamonaviy yo'nalish tamoyillaridan xabardor bo'lishi; uchinchidan, insonning yangi-yangi

qirralarini tasvirlayotgan ulug' ijodkorlar izlanishlarini ziyotlik bilan kuzatib bormog'i va nihoyat, to'rtinchidan, o'z adabiyoti tarixi, hozirgi adabiy jarayonini yaxshi bilishi shart. Shundagina zamonlar o'tishi bilan eskirmaydigan, badiiy ijod qonuniyatlari haqidagi fikrlari bilan kitobxon diqqatini jalb eta oladigan adabiy-tanqidiy obzor maqolalar yaratiladi.

Demak, obzor muallifdan katta va chuqur bilimni talab qiladi. Shuning uchun ham unga har bir, hatto anchagina e'tiborli munaqqidlar ham murojaat etavermaydilar. Faqat sanoq va e'tiroflardan iborat bo'lgan maqola haqiqiy obzor maqola bo'lolmaydi. Uning ham barcha masalalardagi kabi o'z talablari bor. Ana shu talablarga javob bergani obzor maqola sanala oladi.

Obzor maqolaning o'zi ham xarakteri hamda ijtimoiy-estetik tabiatiga ko'ra bir necha xil ekani ko'zga tashlanadi:

A) Xronologik obzor: Bunda ma'lum yillar (davrlar)ga oid adabiy jarayonga xos tamoyillarni umumlashtirish nazarda tutiladi. O'zbek tanqidchiligining keyingi 30—35 yillik taraqqiyotida xronologik xarakterdagi adabiy-tanqidiy obzor maqola yetakchilik qildi. Har yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida nasr, she'riyat, dramaturgiya, bolalar adabiyoti, adabiyotshunoslik va tanqid, tarjima adabiyoti sho'balarining yillik muhokamasi bo'ladi, adabiyotdagi ahvol turli muammolar nuqtayi nazaridan sarhisob qilinadi.

Shunday munaqqidlar borki, yillik obzor munosabati bilan bosib o'tilgan yo'lga nazar tashlaydi; yangiliklarni kitobxon ko'z o'ngida gavalantirishga, adabiyot rivojiga to'sqinlik qilayotgan nuqsonlarni ko'rsatishga intiladi. I.G'afurovning 1973-yil nasri haqidagi «Nasrimizning bugungi tendensiyalari», U.Normatovning «Bugungi adabiyotimizning tahlil va talqini» kabi obzorlarida davr bilan bog'liq ayrim cheklanishlar ko'zga tashlansa-da, muvaffaqiyatli asarlarni chuqur tahlil qilish, yosh ijodkorlar izlanishlaridagi yangiliklar mohiyatini ochishga intilish yaqqol ko'rinib turadi.

B) Ilmiy-nazariy obzor. Bunday obzorlarda ilmiy tahlil, tadqiq etilayotgan asarlarga davrning yetakchi tamoyillari asosida yondashuv, asarga san'at mezonlariga muvofiq baho berish, nazariy xulosalar chiqarish xususiyatlari ustuvorlik qiladi. To'g'ri, har qanday obzorga ham ilmiy-nazariy tahlil va umumlashma chiqarish begona emas, xronologik obzorlarda asosiy e'tibor adabiy jarayonga xronologik yondashuv majburiyatdan kelib chiqilgan, janriy obzorlarda esa janrlar alohida, ayrim asarlardagi ahvol obzori, mavzuviy obzorlarda esa

mavzular ko‘lamidagi rang- baranglikni u yoki bu tipdagi qahramonlar, uslublar obzorida ham, asosan, masalaga shu muammolar asosida yondashib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish yetakchilik qiladi.

O.Sharafiddinovning «Yillar va yo‘llar» asari ilmiy-nazariy xarakterdagi adabiy-tanqidiy obzorning yorqin namunasi. Maqola 1966-yilda yozilib, munaqqid o‘sha paytlar nomlari tilga olinishi mumkin bo‘lmagan Cho‘lpon, U.Nosir kabi ijodkorlar haqida haq gaplarni aytishga intildi. Uyg‘unning o‘sha davrda mashhur bo‘lgan «Brigadir Karim», «Nazir otaning g‘azabi», «Gulasal» she‘rlarini shunchaki tilga olib o‘tib, kitobxon e‘tiborini shoirning tabiat go‘zalligini kuylagan she‘rlariga jalb etdi. Unda bir qancha muammoli masalalar ko‘tarildi va 60-yillar poeziyasi yuksakligida turib, o‘zbek she‘riyatining taraqqiyot yo‘li kuzatiladi.

M.Qo‘shjonovning «Qayta qurish va o‘zbek romani» maqolasi aniq adabiy muammolar yoritilgan ilmiy-nazariy obzorning yorqin namunasi hisoblanadi. Unda xronologiya ham, aniq bir janrda yozilgan asarlar obzori ham uyg‘un kechadi. Obzorda tanqidchi qiyofasi, bilimi, zukkoligi aniq ko‘rinib turadi. Muhimi, munaqqid maqolada turg‘unlik yillaridagi adabiyot va tanqidning nuqsonlarini ochiq ko‘rsatib beradi. Obzor maqola yozuvchi tanqidchining talanti, ayniqsa, davr ruhini aks ettirgan, umuminsoniy va milliy muammolarni ko‘targan asarlarni kashf etishda seziladi. Munaqqid Ya.Qosimovning «Ozodlik orzusi» maqolasini, shu tipdagi maqolalarning yorqin namunasi deb baholash mumkin. Unda o‘zbek she‘riyati yangicha nuqtayi nazardan — Istiqlol estetikasi asosida obzor qilinadi. O‘zbek she‘riyati yangicha tamoyillar, yangi mezonlar asosida tahlil qilingan bu obzor maqola o‘zida o‘zbek tanqidining yangilanayotgan sifatlarini aks ettiradi.

3. Adabiy-tanqidiy muammoli maqola adabiyotshunoslik va adabiyot nazariyasini boyitadigan, ularning takomiliga faol ta’sir ko‘rsatadigan, tanqidchilikning tayanch va yetakchi ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Unda ilmiy-nazariy mohiyat, tadqiqotchining konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoli adabiy-tanqidiy maqola yozuvchi ijodini, adabiy jarayonni, u yoki bu milliy adabiyot ravnaqini, uning bosqichlarini, muayyan bir ilmiy-estetik muammo nuqtayi nazaridan tadqiq etadi, tegishli xulosalar chiqaradi. Oybekning «Tanqid sohasida savodsizlik va ur-yiqitchilikka qarshi o‘t ochaylik» (1933) maqolasi o‘zbek tanqididagi muammoli maqolaning mumtoz namunalaridan biri sanaladi. Birinchidan, u davr adabiy jarayonining muhim masalalaridan biri

tanqidchilikdagi ahvolni tahlil etishga bag'ishlandi. Ikkinchidan, tanqididagi manzara umumiy ruhda emas, shu vaqt tanqidchiligida nihoyatda o'tkir bo'lib turgan: o'ta siyosiy talablardan kelib chiqib, deyarli har qanday asarning tanqid qilinaverishi va natijada, adabiy tanqidda yuzaga kelgan «ur-yiqitchilik» va «do'pposlash»ni keskin fosh etishga alohida e'tibor berildi. Uchinchidan, bu maqolada o'zbek tanqidchiligida deyarli ilk bor tanqidchining fikrlash madaniyati degan muammo ko'tarib chiqildi va unga munaqqidlar e'tibori qaratildi. To'rtinchidan, o'zbek tanqidchiligining metodologik asoslarini to'g'ri yo'lga qo'yish, adabiy jarayonning muhim vazifalardan biri ekanligi ta'kidlandi.

Oybekning yana bir «So'nggi yillar o'zbek poeziyasi» (1934) maqolasida so'nggi bosqich o'zbek she'riyatining taraqqiyot tamoyillari o'rganilar ekan, muallif asosiy e'tiborini san'atkorning hayot bilan mustahkam aloqada bo'lishi, hayotda va inson ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarning uyg'unligi masalasiga qaratadi. Eng asosiysi, shu masalalar talqini asosida o'zbek she'riyatidagi yangilanayotgan obrazlilik muammosini maqola markaziga qo'yadi.

Muammoli adabiy-tanqidiy maqola biror asar poetikasiga bag'ishlanib, ko'zlangan ilmiy hodisani monografik xarakterda, badiiy ijod estetikasi asosida yorituvchi ilmiy-nazariy bahs shaklida ham bo'lishi mumkin. Shu fazilatiga ko'ra, uning ikki ko'rinishda keng tarqalgan.

A) Bahs xarakteridagi muammoli maqola. Buni ixcham «bahs-maqola» tarzida ifodalash an'anaga aylangan. Bunga Oybekning «Cho'lpon. Sho'irni qanday tekshirish kerak?» hamda Usmonxonning «Munaqqidning munaqqidi» nomli maqolalarini misol keltirish mumkin. Bunday maqola ba'zan suhbat shaklida o'tkazilgani uchun «suhbat-maqola» deb ham yuritiladi. Bahs-maqola tadqiqot xarakteridagi ilmiy muammoli maqolalarga nisbatan passivroq. Bahs-maqolalar ko'payishi ilmiy muammoli maqolalar sifatini yanada orttiradi.

B) Tadqiqot xarakteridagi muammoli maqola. Uni ixcham holda «tadqiqot-maqola» tarzida ifodalash an'anaga aylangan.

Izzat Sulton va H.Yoqubovlarning Sotti Husayn va Otajon Hoshim haqidagi maqolalarini ana shunday maqolalar sirasiga kiritish mumkin. M.Osimning «Navoiy va Husayn Boyqaro»(1941), T.Jalolovning «Qora o'tmishning yorug' oynasi» (1941), Shayxzodaning «Bobur va Navoiy» (1944) maqolalari ana shunday tadqiqot maqolaga misol bo'la oladi. Bunday maqolalarda ilmiy muammoni keng va ishonarli yoritish, olimning subyektiv qarashlari va uslubi, adabiyot ilmidagi yangi

qarashlardan xabardorligi diqqatni tortadi. Xususan, M. Qo'shjonovning ham shu xarakterdagi maqolalarida mantiqiy izchillik, ilmiy muammo mohiyatini ochish ko'zga tashlanadi. Muayyan muammo nuqtayi nazaridan asarga yondashar ekan, tanqidchi diqqatidan kichik detal, ko'p ham sezilavermaydigan tafsilot va belgi ham chetda qolmaydi. Chunonchi, uning «Xarakter evolusiyasi» maqolasida san'atkorning qahramon qiyofasini yaratishdagi ijodiy jarayon o'rganiladi.

Ko'plar tomonidan shu vaqtgacha tahlil qilingan «Qutlug' qon» asari yangicha nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Natijada Oybek yaratgan obrazlar, xarakterlar yangidan qolaversa, adib ijodiyoti qaytadan kashf etilayotgandek taassurot qoladi. Munaqqid qahramonlar ongi, hayoti, xatti-harakati, faoliyatlaridagi o'zgarishlarni, xususan, Yo'lchining oddiy, itoatkor, oqu qoraning mohiyatini bilmaydigan omi odamdan qat'iyatli, mard, olijanob inson va isyonkorga aylanishini romanda tasvirlangan voqealarning bevosita o'ziga asoslanib mantiqiy izchillik bilan yoritib beradi. Monografik yo'sindagi maqola munaqqid iste'dodining xarakterli xususiyatlarini namoyish etadi. Tadqiqotchilik tuyg'usiga ham badiiy ijodkorga xos bo'lgan obrazli idrok begona emasligini va hatto zarurligini ko'rsatadi.

O. Sharafiddinovning «Zamonaviylik adabiyotning qalbi» (1959), «Urushdan keyingi o'zbek poemalarining tili va stili» (1957), «Badiiy tarjimaning prinsiplari to'g'risida» (1955) kabi maqolalari aniq asarlar, aniq muammolar asosida tadqiq etilishi bilan ajralib turadi. Uning «Nihollar» maqolasi ham «Zamon-qalb-poeziya» asari singari tadqiqot xarakteriga ega. Har ikkala maqolaning o'z yo'nalishi, maqsadi bor. Masalaga mummodan kelib chiqib yondashish, aniq tahlilgina emas, tadqiq va keng umumlashma chiqarish har ikkala maqola uchun mushtarak xususiyatdir. «Zamon-qalb-poeziya»da tanqidchi kechagi she'riyat bilan bugungi she'riyatni qiyoslash yo'lidan boradi, o'zbek she'riyatining sifati, yangilanishi uchun kurashadi. «Nihollar»da esa yosh shoirlar ijodi o'rganilib, ular orasidan ertangi she'riyatda barg yozajak kurtaklarni izlaydi.

Adabiy-tanqidiy maqolaning estetik tafakkur taraqqiyotidagi ahamiyati. Maqola ham shakl, ham janr, ifoda tarzi, tili va uslubi jihatidan muttasil izlanishlarni boshidan kechirdi. Bu borada A. Kattabekovning o'zbek tarixiy romanlariga oid qator maqolalari o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligi rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Asil Rashidovning «Yangi davr-yangi qahramon», «Olam kirmoq-dadir shoir qalbiga», «Shunchaki yozmoq shoirga o'lim» (Har ikkala maqola hammuallifi N.Karimov) kabi matbuotda e'lon qilingan maqolalari hamda «Chingiz Aytmatovning badiiy olami» kitobiga kirgan «Oq kemanding oydin yo'li», «Jahonda eng go'zal sevgi qissasi yoxud nasrda bitilgan doston», «Chingiz og'a chamani» kabilar o'zbek adabiy-tanqidiy maqolalaridagi estetik tafakkur ravnaqidagi rang-barang izlanishlarni ko'rsatadi.

Bu yo'nalishda P.Mirzaahmedovanning «Epicheskiye i ekzistensialnie sxojdeniya v romane Chingiza Aytmatova «I dol'she veka dlitsya den», «Vzaimodeystviye kak forma obogashcheniya stilevogo razvitiya» maqolalari hamda «Klassika i sovremennost v aspekte vzaimodestviya» nomli kitobi o'zbek tanqidi yuzini xalqaro miqyoslarda ko'rsata oladigan tadqiqotlar sirasiga kiradi.

So'nggi yillarda, umuman, o'zbek tanqidchiligi, xususan, uning adabiy-tanqidiy muammolar yo'nalishi boyishiga, rang-baranglashuviga katta hissa qo'shib kelayotgan munaqqidlardan biri N.Rahimjonovning «Mustaqillik davri she'riyati» kitobi hamda H.Karimovning «Istiqlol davri adabiyoti» nomli tadqiqotiga kirgan maqolalar bugungi adabiyotimizdagi o'zgarishlar, yangilanishlar haqida yorqin tasavvur beradi.

Umuman, badiiy tafakkurdagi yangilanishlar, o'zgarishlar haqida gap borar ekan, bu muammolar tahlili va talqiniga bag'ishlangan M.Sharafiddinova, U.Hamdani, Tohir Shermurod, R.Rahmat kabi munaqqidlar maqolalarini ham ko'rsatib o'tish zarur. XX asr hamda XXI asr o'zbek adabiyotida kechayotgan jarayonlarni jahon adabiyotining shu bosqichdagi dolzarb muammolari bilan bog'lanishda ko'rsatilgan bu maqolalarda badiiy tafakkurdagi siljishlarni ko'rsatish, ularning qonuniyatlarini aniqlash markaziy o'rinni ishg'ol etadi.

O'zbek tanqidida adabiy-tanqidiy maqolaga yondashuv avvalgi bosqichlarda ijodlari batafsil o'rganilgan yozuvchilarga munosabatda ham muayyan darajada yangilanib bormoqda. Bunga misol qilib, yosh olim T.Matyoqubovning G'.G'ulom ijodiga bag'ishlangan qator maqolalarini, shuningdek, «Obraz va talqin», «Peyzaj, poetik idrok va mahorat», «G'afur G'ulom badiiyati» nomli kitob va monografiyalarini ko'rsatish mumkin. G'.G'ulom ijodiga estetik ideal, ijodiy konsepsiya va tasvir mantig'i, adabiy ta'sir va individuallik hamda determinizm va realizm muammolarining shoir poetikasida tutgan o'rnini ko'rsatish jihatidan hozirgi tanqidchilikka muayyan yangiliklar olib kirdi.


Bugungi adabiy-tanqidiy maqolalar bilan 60–70-yillardagi maqolalar o'rtasida sezilarli farq bor. Sobiq sho'ro davri maqolalariga bir tomondan siyosat jazbasi sindirilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular, an'anaviy fikrlash yo'sinidan, «izm»lardan, faqat ilmpazlikdan qutula olmadi. Shakliy izlanishlar ko'p ham sezilmasdi. Hozirgi maqolalar fikriy yo'nalishi jihatidan ancha hurligi, shaklda izlanishlar olib borayotganligi, kompozitsiyasida yangilanishlar borligi, o'zbek adabiyotini, jahon adabiyoti muammolari bilan bog'lashga intilishlar ko'rinib turadi.

Bugun adabiy-tanqidiy maqolalar turli tanqidiy janrlarning o'zaro sintezlashuvi jarayonida yangilanib bormoqda. Zamon va talab, umuman, tanqid, shu jumladan, maqola ham o'zgarimoqda. Bir so'z bilan aytganda, adabiy-tanqidiy maqola janri adabiyotdagi harorat ko'rsatkichiga aylanib boryapti deyish mumkin. U adabiyotning, umuman olganda, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-ilmiy asarlar sifat darajalarini belgilovchi va, ayni vaqtda, ularga ta'sir etuvchi kuchga aylanmoqda.

Tayanch tushunchalar: Maqola, muammoli maqola mundariyasi, maqola qurilishi, adabiy-tanqidiy maqola, axborot maqola, siyosiy maqola, publitsistik maqola, estetik mushohadalar, obzor maqola, tadqiqot maqola, iqtibos, xronologik maqola, bahs-maqola, maqola shakli.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Maqola istilohining mohiyati haqida nimalar bilasiz?*
2. *Adabiy-tanqidiy maqolaning janriy tabiati nimalarda namoyon bo'ladi?*
3. *Adabiy-tanqidiy maqolaning paydo bo'lishi va taraqqiyoti haqida gapirib bering.*
4. *Adabiy-tanqidiy maqolaning turlari va ularning o'ziga xosligi haqida nimalar bilasiz?*
5. *Obzor maqola tabiati va ichki ko'rinishlari haqida so'zlang.*
6. *Muammoli maqola tabiati va ichki ko'rinishlari haqida nima bilasiz?*
7. *Xronologik yondashuv deganda nimani tushunasiz?*
8. *Adabiy-tanqidiy maqolaning estetik tafakkur taraqqiyotidagi ahamiyati nimalarda ko'rinadi?*

— 

TARIXIY-BIOGRAFIK YONDASHUVGA ASOSLANGAN ADABIY TANQID JANRLARI

REJA:

1. Adabiy portret janriining xususiyatlari.
2. Tanqidiy-biografik ocherk.
3. Adabiy-tanqidiy esse janri.

Adabiy portret janriining xususiyatlari. Tarixiy-biografik yondashuv adabiy tanqidning yetakchi yo'nalishlaridan bo'lib, u tanqidchi zimmasiga yozuvchi hayoti va ijodini o'z davri va muhiti bilan uyg'un yoritish vazifasini qo'yadi. Jahon adabiy tanqidchiligi tarixida bu metod XIX asr boshlarida keng tarqaldi. Tarixiy-biografik metod borasida Sh.Sent-Buyov, A.Veselovskiy, A.Morua, M.Baxtin, M.Xrapchenko, L.Timofeyev, V.Shklovskiy, I.Andronnikov singari olimlar barakali mehnat qildilar.

O'zbek tanqidchiligida bu yo'nalishga e'tibor XX asrning 20-yillardan boshlangan esa-da, asosan, 30-yillardan taraqqiyga o'tdi. Bu yondashuvda ijodkorning hayot yo'liga munosabat muhim rol o'ynaydi. Qaysi bir tadqiqotda bu ko'lam tarixiy-biografik ma'lumot soyasida qolib, ayrim tahliliy unsurlarga yedirilsa; qaysi birida ko'lam bir qadar kengayib, biografik dalillar tizimi ustuvorligicha qoladi; ko'lam boshqa bir tadqiqotda bu me'yorni saqlagan holda, biografik asos ijodkor shaxsi, muhit, zamon, asar bilan uyg'unlikda tahlil qilinadi. O'rniga qarab, xotira, sarguzasht, asarning yozilish sababi va tarixiga oid ma'lumotlardan ham unumli foydalaniladi. Asarlar tahliliga alohida e'tibor beriladi. Shu xususiyatlariga ko'ra, tarixiy-biografik yondashuv asosida yozilgan tadqiqotlar uch ko'rinishda keng tarqalgan:

3. Adabiy portret.
4. Tanqidiy-biografik ocherk.
5. Adabiy-tanqidiy esse.

Har uchala ko'rinishda ham ilmiy, tarixiy-biografik usul asos qilib olinadi, bu ularning mushtarak belgisidir.

Adabiy portret istilohiga izoh. Adabiy portret shu yo'nalishga asoslangan ilmiy-biografik tadqiqotning keng tarqalgan janridir. Unda ijodkorning yaxlit qiyofasini yaratishga ahamiyat beriladi.

Portret soʻzi fransuzcha «partrait» — tasvir soʻzidan olingan, lugʻaviy maʼnosi «aslini tasvirlash», — demakdir¹. Istilohiy maʼnoda esa uch hodisani ifodalaydi:

1. Badiiy asarda kishining tashqi koʻrinishi, qiyofasi, kiyim-kechaklari, rangi-roʻyi, feʼl-atvori, oʻzini tutishi va h.k.ni anglatadi. Portret badiiy obraz yaratishning muhim shartlaridan biridir.

2. Ayrim yozuvchi, shoir, jamoat arbobi, sanʼatkor yoki olimning hayoti va faoliyatini ilmiy-estetik jihatdan umumlashtiruvchi asar turini bildiradi.

3. Tasviriy sanʼat, umuman, sanʼat asarida inson qiyofasini aks ettiruvchi mustaqil janr.

Tanqid va adabiyotshunoslikda adabiy portretning genezisi. Adabiy portretning genetik ildizi mumtoz adabiyotshunoslikdagi holot va manonqiblarga borib takaladi. Holot va manonqiblarda ham ijodkorlar, avliyolar, mashhur shaxslar hayoti va faoliyati haqida maʼlumot beriladi. Binobarin, bu janr tadrijiy takomillashuv yoʻlida: a) tazkiralardagi ixcham va loʻnda maʼlumotnomalardan; b) tarjimai hol, holot va manonqiblardan oʻsib chiqqanligini kuzatish mumkin.

Adabiy portret ijodkor tarjimai holini keng qamrovda, batafsil oʻrganadigan ilmiy tadqiqot boʻlib, murojaat etilgan shaxsning jismoniy, maʼnaviy va ruhiy bir butun qiyofasini yaratishga harakat qilinadi yoki sanʼatkor faoliyatining qisqa bir muddat oraligʻidagi maʼno mohiyati, qiyofasi ilmiy-estetik talqin qilinadi, yozuvchining hayoti, qiyofasi, ijodi, butun nazokati-yu, murakkabliklari, ziddiyatlari, ruhiy dramalari bilan qamrab olinadi.

Alisher Navoiyning «Majolisun nafois» asarida qator ixcham portretlarga duch kelamiz. Sulton Husaynning «Xoʻp ashʼori va margʻub hayoti»ga bagʻishlangan 8-majlisni istisno qilganda, Navoiy yetti majlis davomida har bir shoirni 2—3 jumlada taʼriflaydi, feʼlidagi yetakchi belgini eʼtirof etadi, taqdiri haqidagi maʼlumotlarni qayd etib, sheʼriyatidan namuna keltiradi. Mana bir misol: «Mavloni Majnuniy-Balxda boʻlur, faqir kishidir, kitobat bino qila olurki, vajhi maosh hosil qilgʻay, Xoja Ukkarga mozorida sokindur.

Goʻyo sheʼr taxayullik uchun boʻlqaykim vara (magʻlub) kul-hayol murtakibidur, andogʻki, ham magʻlub boʻlgʻon chogʻliqdur. Bu matla aningdurkim

¹ Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati. — T.: Oʻqituvchi. 1979. 238-bet.

*Mohi zobonim isitdi, qildai bag'rimni kabob,
Oy edi, endi haroratim bo'libdur oftob».*

Bu parchada adabiy portretga xos: tilga olinayotgan shoirning ijodi, shaxsi haqida ma'lumot, asarlariga munosabat bildirish kabi belgilar uchraydi.

Adabiy portretning janr xususiyatlari. Adabiy portret adabiy tanqid oldida turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish va targ'ib qilishda qulay, samarali janr hisoblanadi. Adabiy portret tub mohiyati bilan yozuvchi tarjimaiy holiga, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, ijodning ma'rifiy va ma'naviy ahamiyatiga daxl qila oladigan janrdir. Lekin adabiy portretni san'atkor hayoti va ijodining asosiy fazilatlarini aks ettirishdangina iborat deb talqin etish—bu janrning asosiy xususiyatlarini bir yoqlama tushunish bo'lar edi. Binobarin, janr tabiatini belgilashda uning mundarijasidagi ushbu xususiyatlariga e'tibor berish muhimdir. Zero, adabiy portretda: 1) san'atkorning shakllanish jarayoni va bunda davr ham muhitning ta'sirini ochish; davrdagi asosiy yo'nalishlarning ijodkor shakllanishida tutgan o'rnini belgilash va aniqlash; 2) ijodkor qiyofasi va individual uslubini shakllantirgan omillarni ko'rsatish; 3) san'atkorning shaxs sifatidagi fazilatlarini, nuqsonlari va ularning ijodida tutgan o'rnini asoslash;

4) yozuvchi shaxsi va ijodining muhim bosqichlari, bosqichlarga bo'linish sababini ochib, ularning har biriga xos xususiyatlarni umumlashtirish.

Bularning barchasi adabiy jarayondan uzilmagan holda, adabiy jarayonning shu san'atkorga ta'siri, o'z navbatida, ijodkorning jarayonga qo'shgan hissasini belgilashni ham taqozo etadi.

Shunisi e'tiborliki, adabiy portretida ijodiyoti tekshirilayotgan yozuvchi yoki shoirnigina emas, balki uning ijodiy faoliyatini tahlil qilayotgan tanqidchining ham o'ziga xos qiyofasi bo'y ko'rsatib turadi. Biografik metodning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Sent-Byov «Adabiy portretlar», «Dushanba kunlaridagi suhbatlar», «Por-Royal» nomli asarlarida yozuvchining faqat ichki dunyosigina emas, uy-joy sharoitiga ham chuqurroq kirishga intilishi bejiz emas. Uning fikricha, yozuvchining kundalik hayoti va odatlariga biriachi darajali ahamiyat berish lozim. Chunki har qanday yozuvchi, boshqalar kabi oddiy bir inson hamda ijodida uni o'rab turgan odamlar, ularning hayoti muhim ahamiyat kasb etadi. Maishiy sharoit, tasodifiy uchrashuvlar, o'zgaruvchi kayfiyatlar, nihoyat, yozuvchi ruhining xususiyatlari Sent-Byovning

psixologik-biografik portretlarida u yoki bu yozuvchi ijodidagi adabiy-badiiy asarlarning g'oyaviy-badiiy o'ziga xosliklarini tashkil etuvchi omillar sifatida tahlil etiladi.

Shu jihatdan fransuz yozuvchisi va faylasufi, tanqidchi Andre Morua yaratgan portretlar ham tanqidchilik uchun namuna bo'la oladi. Uning Stendalga bag'ishlangan adabiy portretida «Qizil va qora» asrining yozilish sabablari, adibning ichki dunyosi, tuyg'ulari, asaril yozilishga turtki bo'lgan voqea, yozuvchining oilasidagi sharoitigacha birma-bir ochib beriladiki, kitobxon asarni badiiy asardek zavq bilan o'qiydi.

O'zbek tanqidchiligida 20-yillardan «portret xarakteridagi, ma'lum bir ijodkorning shaxsi, yashagan davri va asarlari bilan tanishtiruvchi maqolalar» ko'plab yaratila boshlandi. Bu janr namunalari Fitrat, Vadud Mahmud ijodida ko'zga ko'rina boshladi. O'zbek tanqidchiligida 20-yillarda yaratilgan ilk adabiy portret namunasi sifatida Lutfullo Olimiyning «Unutilmas shoir» asarini ko'rsatish mumkin. Bu adabiy portret ijodi to'ntarishdan oldin boshlangan ma'rifatparvar shoir So'fizoda ga bag'ishlangan. «Iste'dod, qobiliyat, talant degan narsa tabiatning dunyodagi misoli yo'q javharidirki, bu «aksiri a'zam» juda oz kishilargagina muyassar bo'ladir» jumalari bilan boshlanadigan bu adabiy portretda shoirning uzoq yillik hayotiy va ijodiy yo'li kuzatiladi.

30-yillarda adabiy portret qatorida tanqidiy-biografik ocherklar yaratishga e'tibor kuchaydi. 50-yillardan ijodiy portret janri tez rivoj topa boshladi. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti qisqa muddat ichida ko'plab ijodiy portret namunalari e'lon qildi. Bu portretlar ko'pchiligi avvaldan ijodi keng yoritilgan yozuvchilarga bag'ishlandi.

Tanqidchi O.Sharafiddinov o'ndan ortiq yozuvchilar haqida ijodiy portretlar yaratdi. G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor kabi adiblar hayoti va ijodiga oid qator tadqiqotlar yaratilganiga qaramay, O.Sharafiddinovning ular ijodiga oid kuzatishlari, mushohada va tahlillarida boshqalar ko'rmagan, sezmagani nozik nuqtalar ochildi.

60-80-yillarda adabiy portret janrida samarali natijalarga erishildi. Chunobchi, O.Ikromov «Amin Umariy» (1964), O.Tog'ayev «Asqad Muxtor» (1966), Q.Azizov «Mirtemir» (1969), M.Zokirov «Muqsud Shayxzoda» (1969), I.Mirzayev «Rahmat Fayziy» (1970), M.Sharipov «Shukur Sa'dulla» (1971), F.Nasriddinov «Mirmuhsin» (1972), S.Mamajonov «G'ayratiy» (1973), M.Mahmudov va B.Mahmudovlar «Ibrohim Rahim» (1974), L.Qayumov «Zulfiya» (1975), A.Akbarov «Zulfiya» (1975), A.Abdusamatov «Habibiy» (1977), Sh.Otaboyev

•Mirzakalon Ismoiliiy» (1978), S.Sirojiddinov «Abdulhamid Majidiy» (1982) kabi portretlar ana shular sirasiga kiradi.

Albatta, bu portretlarning saviyasi bir xil emas, ular uslub va ifoda jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ayni vaqtda, deyarli barchasi uchun mushtarak quyidagi kamchiliklar ko'rinadi:

1. Yozuvchi, shoir hayoti va ijodidagi voqea, hodisalarni bayon etishi, u yoki bu asar mazmunini aytib berish orqali tahlil etish;

2. Aksar hollarda yozuvchining barcha asarlari yoki hech bo'lmaganda, nisbatan ko'prog'ini tekshirishga harakat qilinadi. Bunda hatto har qanday buyuk yozuvchi ijodida ham barcha asarlar muvaffaqiyatli chiqavermasligi hisobga olinmaydi. Quruq, yuzaki obzorga yo'l qo'yiladi.

3. Adabiy portretlarda ijodkor shaxsi haqidagi ma'lumot bilan asar xususidagi kuzatishlar ustida jiddiy uzilishlar ro'y beradi; o'zaro ehtiyojli bog'lanishlar sezilmaydi. Portretlarning aksarida zerikarli uslub hukmronlik qiladi. Tanqidchi fantaziyasi, tahayyuli deyarli ko'rinmaydi. To'g'ri, portretlar barchasi birdek shunday kamchilikli emas, albatta. Mirtemir, M.Shayxzoda, M.Ismoiliiy, A.Majidiy haqidagi portretlar birmuncha jonli. Tanqidchilik keyingi bosqichlarda ana shu jonlanish yo'lidan bordi.

Adabiy portretning tanqididagi boshqa janrlardan farqi shundaki, unda publitsistik ruh ustuvorlik qiladi. Adabiy portret tili, mohiyatan, izchil ilmiylikdan ko'ra keng xalq ommasiga tushunarli oddiy, sodda til va uslubda bo'lishi kuzatiladi. O'rni-o'rni bilan tahayyulga erk berish, badiiylik unsurlaridan foydalanish, ilmiy yondashuvni cheklamagan holda, erkin talqinga e'tibor portret janrida ijod qiluvchilarning diqqat markazida turadi.

2. Tanqidiy-biografik ocherk janri. Tanqidiy-biografik ocherk janri yozuvchi hayoti, adabiy-ijtimoiy muhiti, asarlarining yaratilish tarixi, mohiyati, xususiyati, asarning adabiy-tarixiy jarayondagi o'rni haqida ma'lumot beradi. Tanqidiy-biografik ocherkda esa dalil va ilmiy xulosalardan ko'ra, ularga tayyorgarlik jarayonlari kuzatiladi, hali uzviy qo'nim topmagan fikrlarni ilgari surish xohishi saqlanadi. Munaqqid hujjatlilikka asoslanib, yozuvchi hayoti, ijodi haqidagi kuzatuvlarni, mulohazalarni mutaxassislar, kitobxonlar nazaridan o'tkazib olish uchun o'rta tashlaydi. Ularda izchillikdan ko'ra fragmentarlik xususiyati kuchliroq bo'ladi, ularni yanada rivojlantirish, takomillashtirish uchun imkon qoldiriladi.

O'zbek tanqidchiligida 30-yillarda Olim Sharafuddinovning «Alisher Navoiy», S. Ayniyning «Shayxur-ra'is Abu Ali ibn Sino» kabi ocherk-

larida ana shunday xususiyatlar aniq ko'rinadi. O'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidida bu tamoyil 40-yillarning ikkinchi yarmidan boshlandi. Ulkan adiblar ijodini xilma-xil hayotiy muammolar asosida monografik yo'sinda tadqiq etishga bo'lgan ehtiyoj natijasida Yusuf Sultonning «Hamza Hakimzoda hayoti va ijodiyoti», I.S.Braginskiyning rus tilida S.Ayniy hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiy ocherklari yuzaga keldi.

50-yillarga kelib, tanqidiy-biografik ocherkiarga e'tibor kuchaydi. Masalan, A.Qayumovning «Maxmur», N.Rahimovning «Sulton Jo'ra», A.Olimjonning «Shoira Zulfiya», «Amin Umariy», N.Vladimirovning «Zafar Diyor», «Oydin ijodi», A.Hayitmetovning «Hasan Po'lat» kabi tanqidiy-biografik ocherklari ana shunday yo'nalishdagi asarlar edi. Ularda tajribasizlik tufayli ko'zga tashlanuvchi yuzakilik, sxematizm, mushohadalardagi jo'nlik kabi kamchiliklar mavjud esada, kitobxonlar ommasiga bu adiblar haqida dastlabki yaxlit ma'lumot berish jihatidan bu ocherklar o'z davridagi vazifani oqlaganini ham unutmash kerak. Bu asarlarning janri aniq belgilanmagan holda, goh risola, goh portret, goh tanqidiy-biografik ocherk deya chop etilaverilganining o'ziyoq bu masalada o'zbek tanqidi izlanish bosqichida bo'lganini ko'rsatadi.

O'zbek tanqidchiligida tanqidiy-biografik janri talablariga javob beradigan asarlar sirasiga H.Yoqubovning «G'afur G'ulom», «Oybek», S.Azimovning «Hamid Olimjon» hayoti va ijodlariga bag'ishlangan asarlarni ko'rsatish mumkin.

80-yillarda nashr etilgan «Adabiyot va zamon», «Hayot ko'zgusi» singari adabiy-tanqidiy maqolalar to'plamida «Adabiy portretlar», «Adabiy portretga chizgilar» rubrikasi ostida tanqidiy-biografik ocherklar bosildi. Tanqidchi M.Qo'shjonovning «Iste'dod qirralari» kitobi ham adabiy portretlardan tashkil topgan. Lekin bu portretlar tanqidiy-biografik ocherkdan unchalik farq qilmaydi, degan qarashlar ham mavjud. Chunki adabiy portret-san'atkor hayoti va ijodining ziddiyatlarini, ruhiy dramalarini ham aks ettiradigan janr. Adabiyotda birorta buyuk san'atkor yo'qki, hayoti ziddiyatlar bilan kechmagan bo'lsin. Shu ma'noda adabiy portretlarda san'atkor hayoti va ijod yo'li, asarlariga munosabat xususidagi ziddiyatlar, murakkabliklarga alohida o'rin beriladi. Tanqidiy-biografik ocherklarda esa bu masalalarni yoritish maqsad qilib qo'yilmaydi. So'nggi bosqichlarda yaratilayotgan Hamza, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Behbudiy, U. Nosir, M.Shayxzoda kabi adiblar hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiy

portretlarda ularning katta ziddiyatlar va fojialarga to'la, og'ir kechgan hayot va ijod yo'llarini bor murakkablikda ko'rsatish, ochish tamoyillari chuqurlashib bormoqdaki, bu adabiy portret janrida o'zbek tanqidchiligi xalqaro miqyosdagi mezonlar talabi yo'nalishida rivojlanib borayotganini bildiradi.

H.Abdusamatovning «Abdulla Qahhor» asari taglavhada «hayoti va ijodi haqida» rukni bilan chop etilgan. Unda adib asarlari tahliligagina keng o'rin berilgan. Yozuvchi hayoti, tarjimai holi haqidagi ma'lumotlar esa, nihoyatda qisqa bo'lib, o'quvchiga yozuvchining hayot yo'li qiyofasini tasavvur etish imkonini bermaydi.

Yozuvchi va shoir hayoti, ijodiy yo'lidagi ayrim asosiy voqea va hodisalarni qayd etish, asarni muayyan bosqich chegarasidan chiqmasdangina tahlil etish bilan chegaralanish kabi kamchiliklar mustaqillik yillariga kelib bartaraf etila boshlandi. Asarlarni ijtimoiy mohiyatdan tashqari sof san'at mezonlari nuqtayi nazaridan baholash tamoyillari kuchayib borayotgani adabiyotshunoslik va tanqidchilikdagi ijobiy hodisalardir. Buni birgina Cho'lpon hayoti va ijodiga bag'ishlangan, turli janrdagi qator tadqiqotlar ko'rsatadi. N.Karimovning «Cho'lpon» nomli salmoqli asari, O.Sharafiddinovning shu nomdagi risolasi bunga misol. D.Quronovning «Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi» asari ham tanqidiy-biografik yondashuv asosida yaratilgan teran tadqiqotlardan biri bo'lib, shoirning hayot yo'li va ijodini yangi mezonlar asosida tadqiq etish jihatidan ahamiyatlidir.

M.Zokirovning «Maqsud Shayxzoda» adabiy-tanqidiy ocherkida, asosan, ijodiy yo'li yoritiladi. Ijodkor tarjimai holiga oid ayrim ma'lumotlar (u ham to'liq emas) berish bilangina cheklaniladi, xolos. Ocherkda Shayxzoda she'riyati, dostonlari, ilmiy asarlari, ularning yozilishi, adabiy jarayondagi o'rniga tizimli ravishda emas, fragmentar baholar beriladi. Xulosaviy, umumlashma fikrlar dastlabki gipotezalar shaklida beriladi. Bu xususiyatlar asarning tanqidiy-biografik ocherk janriga mansub ekanini ko'rsatadi.

Adabiy portretida bo'lgani kabi tanqidiy-biografik ocherklarning saviyasi ham turlichadir. 90-yillargacha yaratilgan tanqidiy-biografik ocherklar yozuvchi hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni yig'ish, shu asosda ularning g'oya va mazmun yo'nalishini bayon qilish, badiiy asarni esa, ko'proq, mavzu jihatidan tekshirish ustuvorlik qildi. Shunga qaramay, tanqidiy-biografik ocherk XX asr o'zbek tanqidchiligida mustaqil janr sifatida shakllanib, qaror topdi. Yozuvchi hayoti va ijodini yaxlit o'rganish, tadqiq etish, umumlashtirish ishiga o'zining

sezilarli ulushini qo'shdi. 90-yillardan boshlab, uning strukturasi adabiy portret tomon siljish jarayonlari ro'y berdi.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy-biografik ocherk adibning hayoti va ijodini ma'lum darajada operativ va fragmentar o'rganuvchi, kelgusidagi salmoqli, izchil, ilmiy umumlashmalar chiqarish uchun zamin tayyorlovchi va o'zida ham muayyan boshlang'ich ravishdagi ana shu xususiyatlarni istifoda qiluvchi janr bo'lsa, adabiy portret san'atkor hayoti va ijodini yaxlit va izchillikda, ma'naviy-ruhiy hayot ziddiyatlari bilan birgalikda, san'atkorni ijodkor va inson uyg'unligida talqin etuvchi janrdir. Tanqidiy-biografik ocherk ham hajman katta bo'lishi mumkinligiga qaramay, adabiy portretga unga nisbatan san'atkor qiyofasi mukammalroq, kengroq va chuqurroq ochiladi va portretnavis imkoniyatlari birmuncha ko'proq bo'ladi. Bu janrlarni ajratishda yuqoridagi xususiyatlar hisobga olinishi zarur.

Adabiy-tanqidiy esse (badia). *Esse atamasi izohi, kelib chiqishi.* Hayot va inson haqida tahayyulni hur qo'yg'an holda erkin mavzu va yo'nalishlarda yozilgan, shuningdek, badiiy ijod va ijodkor, badiiy asar va yozuvchi bilan aloqador mulohaza, xotira va orzularga to'yingan mushohadalar, shularga munosabatdagi muallif iqrornomalari va badiiy publitsistik yo'sindagi qalb e'tiroflari o'z ifodasini topgan, shuningdek, yozilishiga ko'ra bamisoli lirik she'r kabi tezkor ruhda qog'ozga tushib, mangulik holatlari qatori, oniy lahzalarni ham yoritadigan asar esse (badia) deyiladi. Essening turlari ko'p, shu jumladan, adabiy-tanqidiy esse ham mavjud bo'lib, uning obykti, asosan, ijodkor hamda uning u yoki bu asarlari yaratilish tarixidir. Barcha janrlarda bo'lgani kabi esse janrini belgilovchi asosiy xususiyatlar: shakl, maqsad va yo'nalishdan iborat. Adabiy-tanqidiy mavzularda yozilgan, hayot, adabiyot, estetika, falsafa masalalari, erkin talqin qilinadigan adabiy tanqidchilik janrlaridan biri badia (esse)dir. «Esse» lotincha -«exigo» so'ziga daxldor bo'lib,«chamalamoq, mo'ljallamoq» degan ma'nolarini anglatadi.

Tuzilishi erkin, rang-barang mavzu va masalalarga qaratilgan shaxsiy mulohaza va qarashlarni ifodalovchi asar esse hisoblanadi. Esseda muallif, munaqqid o'z shaxsiy qarashlarini dalillashga intiladi, ba'zan o'zidan boshqa hech kimga ma'lum bo'lmagan hayotiy ma'lumotlar bilan o'rtoqlashadi. Essedan adabiyotshunoslik qonun-qoidalarga to'la-to'kis rioya qilish, dalillar ilmiy jihatdan har tomondama isbotlangan bo'lishi talab qilinmaydi. Yanada aniqrog'i, bu xislat esse tabiatining tarkibiy qismini tashkil etadi.

Sharq adabiyotida esse-badianing tarixi qadimdan boshlangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino («Donishnoma»), Mahmud Koshgʻariy ijodida badianing ilk koʻrinishlari uchrasa, Alisher Navoiy va Bobur ijodida uning goʻzal namunalari koʻrinadi. Ular noma, manoqib, holot, xotira shakllarida koʻzga tashlanadi.

Esse erkin fikr yuritish, suhbat, mohiyatan turli xil ilmiy, badiiy shakllarda (yozuvchi va tanqidchi dialogi, qaydlar, badiiy etudlar, kundalik) zuhur topayapti. Bu haqda aytilgan, badiya «adabiyot ilmining yangi rivojlanish bosqichidan (zero, bu kabi hodisa adabiyotshunosligimiz taraqqiyotining avvalgi bosqichlarida kuzatilmaydi), adabiyotshunoslik fikrlari kamolining yangi sifat koʻrinishlaridan shahodat beradi» (N.Rahimjonov) degan fikrlar qanchalik toʻgʻri boʻlmasin, bundagi «adabiyotshunosligimiz taraqqiyotining avvalgi bosqichlarida kuzatilmaydi» degan fikr birmuncha eʼtirozlidir. Negaki, mumtoz adabiyotda yuqoridagi singari shakllar mavjud ekani, qolaversa, uning turli koʻrinishlari kundaliklar, holotlar, «Boburnoma» qaydlar kabi ayrim janrlar tarkibida unsurlar sifatida uchrab turishi shunday deyishga asos beradi. B.Valixoʻjayev oʻzining «Oʻzbek adabiyotshunosligi tarixi» tadqiqotida bu qarashni har taraflama asoslab beradi¹.

Yevropa adabiyotida bu janrning asoschisi fransuz gumanist yozuvchisi, filosof M.Monten boʻlib, uning «Tajribalar» asaridan keyin esse mustaqil adabiy janrlardan biri sifatida namoyon boʻldi.

Rus adabiyotida essega xos alomatlar A.I.Gersenning «Narigi qirgʻoqdan», F.Dostoyevskiyning «Yozuvchi kundaliklari» asarlarida koʻzga tashlanadi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida esse janriga maʼlum maʼnoda murojaat Behbudiy, Ibrat, Choʻlpon, Ayniy maqolalari, qator sayohatnomalarda koʻzga tashlanadi. Bunga Ayniyning «Bir musofir» (1918), Aynning «Samarqand xotiralari», Oqsoq Temur taxallusi ostida yozgan muallifning «Choʻlpon afandiga qulluq» (1919), Botuning «Moskvadan xat» (1922) kabi asarlari misol boʻladi.

Janrning tabiati, oʻziga xos xususiyatlari. Esse koʻp hollarda improvizatsiya (badiha) asosida dunyoga keladigan adabiy-tanqidiy janr boʻlib, adabiyot tarixi, hozirgi adabiy jarayonning muayyan muammolari, adib feʼl-atvori, qismati, maʼnaviy dunyosi, u yoki bu asarning yaratilish tarixi, oʻzaro munosabatlar toʻgʻrisidagi mushohada, muhokama, musohabalar majmui sanaladi. «Badiya-fikrning erkin, tabiiy ifodasi. U qalbdagi his-tuygʻular joʻshganda, fikr pishib

¹ Valixoʻjayev B. Oʻzbek adabiyotshunosligi tarixi. — T.: 1993.

yetilganda bir turtki tufayli qog'ozga «sochiladi». Badiada zamon va zamondoshlar, san'at va adabiyot haqidagi qarashlar aks etadi; burch, sadoqat, tarix oldidagi mas'ullik hissi haqida mulohaza yuritiladi. Umuman, badiia — kishining haqqoniy o'ylari, voqea — odamlarga halol qarashlarni aks ettiruvchi janr»¹.

Essenavis munaqqid asarida muayyan adabiy-badiiy hodisalarga oid o'z taassurot va mulohazalariga, san'atkorning tarjimai holi va badiiy asar qahramonlarining real hayotiga doir qiziq voqealar tasviriga, tabiatning dilbar manzaralariga, turli shaharlar va qishloqlarning badiiy peyzajiga, tahlil etilayotgan mavzu va hodisalar xususida kitobxon bilan bevosita erkin muloqotlar qilishga keng o'rin beradi.

Esselar falsafiy, publitsistik, adabiy-tanqidiy, tarixiy-biografik, sof belleteristik xarakterda bo'lishi mumkin.

Yozuvchining adabiy tanqidi, mulohazalari ko'pincha, esse janri xususiyatlari asosiga quriladi. Unda faqat ijod emas, hayot va ijod tajribasidan kelib chiqqan xulosalar, qarashlar, kuzatishlar aks etadi.

So'nggi yillarda Mirtemir, Zulfiya, Sh.Rashidov, H.G'ulom, Shukurullo kabi atoqli shoir va yozuvchilarning adabiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan badiialari nashr etildi. Bu hol adabiy tanqid rang-baranglashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Adabiy-tanqidiy va estetik tafakkur hosilalari o'quvchilar auditoriyasini kengaytirdi. Bu turkumdagi asarlarda san'atkorlarning o'z ijodi, shaxsiyati, tabiati xususidagi, shuningdek, badiiy adabiyot, adabiy jarayon, milliy madaniyatimiz xazinasini ijodiy boyitgan asarlarning tug'illishi, yozilish jarayoniga doir fikr-mulohazalari keng o'rin olgan. Bunday badiialar san'atkorlarning ijodi, shaxsiyati, tabiati, asarlarining yozilish jarayoniga aloqador noyob ma'lumotlar, fikrlar ifodalanishi bilan qimmatlidir.

Esselar markazida ijodkorning ma'naviy dunyosi turadi, ya'ni ijodkor intellekti badianing bosh qahramoni vazifasini o'taydi deyish mumkin. Unda ijod etuvchi san'atkorning adabiy o'ylari, badiialari adabiylik va emotsionallik bilan chatishib ketgan fikr-mulohazalarining ko'rkam sintezini tashkil etadi.

Mirtemir, A.Muxtor, H.G'ulom, P.Qodirov, O.Yoqubov va boshqa san'atkorlarning 70–80-yillarda maydonga kelgan bir-birlariga aslo o'xshamagan esselarida masalaning tanlanishi va yoritilishi; uslublarining rang-barangligi; ma'naviy-axloqiy, falsafiy-estetik umumlashmalarining salmog'i; ma'lumotlarning go'zalligi, yangiligi, ohorlilik

¹ Rahimjonov N. Badiia haqida // O'TA. 1983, № 5, 19-bet.

jihatidan bir-birlaridan ajralib turadilar. Ular nainki tanqidchilik, ayni vaqtda, badiiy adabiyotimizni ham boyitdilar.

Esseda lirik janrga xos xususiyatlar lirik mohiyati bilan publitsistik ruhning, hujjatlilik bilan badiiylilikning, falsafiy mulohazalar bilan armonli va orzuli kechinmalarning, real hayot bilan fantaziyaning organik uyg'unligida sinkretizmدا zuhur topadi. Shu ma'noda she'riyat, nasr va dramada kuzatilgani kabi badiialarda ham diffuziyalanish jarayoniga tabiiy bir hol deb qaramoq kerak. Lekin shuni ham e'tirof etmoq lozimki, ayrim esselardagi umumlashma xarakterdagi ilmiy- nazariy fikrlar ifodasiga ustuvor ahamiyat berish esse tabiatidagi jozibaga birmuncha putur yetkazadi va uni boshqa janrlardagi «akademizm»ga yaqinlashtirib qo'yadi. Essening o'ziga xos yetakchi fazilatlaridan biri — erkin va hur fikr- mulohaza yuritish tamoyiliga ega bo'la turib, mustaqil sujet yo'nalishi, qurilishi va qahramonga ega ichki konstruksiyalar asosida tarkib topishidir. Badiiy asarda ijodkor uslubi qanchalik aks etsa, esseda ham muallifning betakror qiyofasi aks etib turadi.

Esse tasnifi. Adabiy tanqidning bugungi manzarasini estetik evrilishlarini esselarsiz tasavvur etish qiyin. Esselar ifoda mohiyati, maqsadi, shakli, yo'nalishiga ko'ra turlichadir:

1) Badiiy asosi zalvorli esse. Unga Sh.Xolmirzayev («Binafsha hidlang, amaki», «Bir vujudda ikki jon» va h.k.), Xurshid Davron («Samarqand xayoli» turkumidagi tarixiy va ma'rifiy badiialar, «Bibixonim qissasi yoki tugamagan doston» badiasi) kabi asarlari.

2) Publitsistik ruh kuchli bo'lgan esselar (V.Zohidovning «Bizning yangi yil va inson», «Haqiqiy sevgi va ijodiy bahodirlik taronasi» kabilar).

3) Adabiy-tanqidiy yo'nalish asosidagi esselar. Tarixiy yoki adabiy esselarda tanqidiy unsurlar bo'lishi mumkin, lekin bu ularning adabiy-tanqidiy essegga tengligini anglatmaydi. Adabiy esselar ko'pincha hayot hodisalariga oid ijtimoiy-ruhiy kuzatishlar mag'zini chaqishga yo'naltirilgan bo'ladi. Adabiy-tanqidiy yo'nalish asosidagi esselarda esa ijodkor hayoti, ruhiyati, asarlari bilan aloqador jarayonlar yoritiladi.

O'zbek adabiyotida essening turli shakllari uchraydi: a) adabiy o'ylar, b) esse-roman, d) esse-qissa, e) xotira va hokazo.

Tanqidchi I.G'afurov ilk kitoblarini adabiy o'ylar shaklida kitobxonlarga havola etdi. «Adabiy o'ylar»da so'z jozibasi chuqur kuzatiladi, ayni vaqtda, fikr muayyan konsepsiya atrofida uyg'unlashadi. Taniqli yozuvchi, shoirlar asarlari adabiyot rivojida qanchalik katta o'rin tutsa, ularning adabiy-tanqidiy maqolalari, adabiy o'ylari, qaydlari ham adabiyotshunoslik kamolida o'zining munosib o'rniga ega bo'ladi.

Shoir Mirtemirning turli davrlarda yaratilgan «Tingla hayot» (1974), «Do'stlar davrasida» (1980) majmualari muxtasar bir yaxlitlikda chop etildi. Ularda san'atkorning hayot haqidagi, adabiyotning tabiati haqidagi o'ylari, she'r va she'riyat, mahorat, ijodkor mas'uliyati, talant va mehnat xususidagi qarashlari uzviy qo'shilib ketadi. Muallifning «men»ini belgilagan, shaxsiga xos xususiyatlar, fazilatlar san'atkorning boy hayotiy, ijodiy tajribasidan kelib chiqadiki, ular adabiy esse uchun muhimdir.

A.Muxtorning «Yosh do'stlarimga», P.Qodirovning «O'ylar», A.Oripovning «Ehtiyoj farzandi», E.Vohidovning «Shoiru she'ru shuur», O'.Hoshimovning «Notanish orol» to'plamlarini ham, asosan, shu xildagi esse'lar tashkil qiladi.

Ilmiy va badiiy mushohadalar uyg'unligida shunday bir adabiy-tanqidiy janr borki, uni badia-roman yoki esse-roman deb atash mumkin. Uning asosini badiiylilik tashkil etgan yoxud ilmiylik tashkil etgan turlari bor. Tanqidchi N.Xudoyberganov uni «ilmiy-ommaviy, tanqidiy biografik asar», — deb ataydi. Avvalo, roman bilan esse-roman o'rtasida qanday farq bor? Tom ma'nodagi mumtoz roman yetakchi xususiyatlari shakllangan, o'zgarmas va muqim bo'lgan epik janr. Unda muallif ko'p ham namoyon bo'lavermasligi mumkin. Esse-romanda esa roman janrining yetakchi va muqim xususiyatlari ham ancha jonli, erkin ravishda o'zgarib turishi mumkin. Unda muallif nutqi, nuqtayi nazari va hatto idroki, umuman, romanga nisbatan ancha faoldir.

Roman-essening strukturasi lirik asos aniq holda, kechinma, mushohada, munosabatlar yetakchilik qiladi. Roman-essening yana bir turi borki, unda ilmiy asar bilan badiiy asar o'zaro uyg'unlashgan shaklda namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyotida «Mashhur kishilar hayoti» turkumida yaratilgan qator esse-romanlar mavjudki, ular tarixiy, ilmiy va ma'rifiy ahamiyatga ega. Yevropadagidan farqli o'laroq, bu tipdagi asarlar o'zbek adabiyotida ham ancha ilgari-avliyolar haqidagi manoqiblar shaklida, adiblar va tarixiy shaxslar haqidagi («Makorimul-axloq», «Temurnoma») memuarlar shaklida mavjud edi.

Bu turkumning Rossiyada paydo bo'lishiga M.Gorkiy tashabbus ko'rsatdi. Aslida madaniyat arbobi, ijodkor shaxs haqidagi roman tipi Yevropa adabiyotida bir asr avval shakllangan edi. Unga fransuz yozuvchisi Andre Morua asos soldi. XX asrning 30-yillarida Gorkiy taklifi bilan Rossiyadagi bir qator yozuvchi va olimlar shu tipdagi adabiy tarixiy-biografik romanlar ijod qila boshladilar va ular «Mashhur kishilar hayoti» rukni ostida mashhur bo'ldi. Bu rukndagi asarlar rus

adabiyotida o'smirlar kitobsevarligi shakllanishi va rivojida muhim rol o'ynadi.

O'zbek adabiyotida esse-roman xususiyati ko'rina boshlagan asarlar XX asrning 60-yillar oxirida yuzaga keldi. N.Karimovning «Hamid Olimjon», «Oybek», L.Qayumovning «Hamza», O.Sharafiddinovning «Abdulla Qahhor», Otayorning «Mirtemir», «Men quyoshni ko'rgali keldim» asarlarida ana shu xususiyatlar uch ko'rsatdi. Aziz Qayumov ham bu yo'nalishda Alisher Navoiy ijodi haqida yosh kitobxonlarga mo'ljallangan asarini yaratdi. Lekin unda Navoiy hayotiga doir ziddiyatlar, san'atkor ijodining falsafiy-estetik asoslarini yoritishga unchalik e'tibor berilmaydi.

Bu tipdagi asarlar orasida N.Karimov, O.Sharafiddinov, Otayor asarlarida badiaga xos xususiyatlar sezilib turadi. Biroq, bundan qat'iy nazar, 70–80-yillargacha yaratilgan tanqidiy-biografik asarlarda san'atkor ijodi, asarlari tahliliga e'tibor ko'proq berildi. Asarni yaratgan ijodkor tabiatidagi o'ziga xos xususiyatlar, shaxs va san'atkor sifatida shakllanishga ta'sir ko'rsatgan muhit, ijod va ruhiyat bilan bog'liq masalalarga kam e'tibor berildi. N.Karimov, O.Sharafiddinov, Otayorning Oybek, A.Qahhor, Mirtemir esse-romanlarida bu kamchiliklarni bartaraf etishga dastlabki qadamlar tashlandi.

Mustaqillik davrida N.Karimov esse-roman janri talablarini astoydil o'zlashtirib borayotgan tajribali munaqqid va adib ekanini «Cho'lpon», «Maqsud Shayxzoda» esse-romanlari misolida ko'rsatdi.

XX asrning 70–80-yillaridan boshlab yozuvchi va san'atkorlar haqida ko'plab xotira kitoblar yaratildi. A. Qodiriy, Ayniy, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir, Shuhrat, A.Muxtor, O. Sharafiddinov, Sh.Xolmirzayev, T.Murod haqidagi xotiralar adabiyotimiz boyligiga aylandi. H.Qodiriyning «Otam haqida», (1979), Said Ahmadning «Nazm chorrahasida» (1982, 1993) hamda «Yo'qotganlarim va topganlarim» (2000), K. Qahhorovanning «Chorak asr hamnafas» (1987), Z.Saidnosirovaning «Oybegim mening», N.Karimovning «Oybek va Zarifa» kitoblarida ulkan san'atkorlarning jonli qiyoasi abadiylashtirildi.

Xotiralar qator xususiyatlari bilan essegga yaqin turadi. Shu bois unga essening bir shakli sifatida qarash mumkin. Ammo xotiralarda keltirilgan barcha dalillarni ayni haqiqat deb tan olish va ularni ilmiy muomalaga kiritaverish hamisha ham kutilgan natijani beravermaydi. Xotirada ayrim mualliflar ba'zan o'zsubyektiv qarashlarini ilgari surishlarini nazardan qochirmaslik kerak bo'ladi.

Xotiralar nafaqat san'atkorlar hayoti va ijodi, balki adabiy jarayon xususida qimmatli ma'lumotlar beradi; shuningdek, asarlarning yaratilish asnosidagi ijodkor «ruhiyati iqlimlaridan, kayfiyati manzara-laridan, ijodiy xayoliarining to'liqinidan» (N.Rahimjonov) xabardor qiladi, bu esa ijodkorlar haqida ilmiy-nazariy yo'nalishdagi tadqiqotlar qimmatli manba vazifasini o'taydi.

«Oybek zamondoshlari xotirasida» kitobi chiqqandan keyin xalqimiz adib hayoti, ijodi, inson sifatidagi fazilatlaridan atroflicha xabardor bo'ldi, Z.Saidnosirovaning «Oybegim mening» kitobi orqali bu ulug' san'atkor fe'l-atvori, hayoti va ijodining nozik qirralaridan voqif bo'ldi. Bu kitob adib qiyofasini jamiki porloqligi bilan ochib beruvchi qimmatli manbaga aylandi. Elga taniqli olim, ustoz Oybekning sadoqatli do'sti, oxirgi kunlarigacha hamnafasi bo'lgan Zarifa opa Saidnosir qizi kitobining sarlavhasidanoq mehr va sadoqat ufurib turgan xotiralari samimiy hislarga boyligi bilan ajralib turadi. Asar ichiga chuqurroq kirgan sayin ko'z oldingizda buyuk yozuvchining murakkab hayoti, ilhomi qaynagan go'zal onlar, farzandlariga munosabati yanada yorqinroq gavdalanadi.

70-yillarda o'nlab mualliflarning asosan bir adib haqidagi xotiralari yozilgan bo'lsa, 80-yillarning o'rtalaridan bir muallifning qator yozuvchilar haqidagi xotiralari yuzaga kela boshladi. Said Ahmadning S.Ayniy, Oybek, A.Qahhor, G'.G'ulom, S.Zunnunova haqidagi xotiralarida, bir tarafdin, turli adiblarning rang-barang qiyofasi gavdalan-sa, ikkinchi bir tomondan, ular haqida mushohada yuritayotgan muallifning o'zidagi, xotiralaridagi rang-barang dunyo jilolanadi.

Matbuotda ba'zan biror ijodkor yoki uning asarlari haqida yozilgan kichik bir maqolani badia deb nomlash, hajman kichik qaydlarni, etudlarni ham badia deb nomlash hollari uchraydi. Bunga X.Davronning «Olislarda jimirlardi bir yulduz...» (Shayx Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi oldidan) asari «badia deyilgan («O'z AS» 1995, 4-avgust). Ammo bu asar ko'proq voqeiy hikoyaga o'xshab ketadi.


Vafo Fayzulloning matbuotda e'lon qilingan asarlaridan biri «So'z yo'li» Bedilga badia deyilsa-da (O'z AS 1994, 15-iyul), u buyuk sheir ijodidan ta'sirlanish natijasidagi falsafiy mushohadalardek taas-surot qoldiradi. Shuningdek, jurnalist Z.Ro'ziyevaning mehru oqibat muammolariga bag'ishlab xotira tarzida yozilgan «Daryomidingiz, osmonmidingiz, Buvijon! ...» deb atalgan yodnoma xotirasi ham esse deb berilganki, bunday hollar esseistikada janr tabiati masalalarini

yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ayni vaqtda, esse faqat tanqidchilikning emas, badiiy adabiyot, jurnalistika, falsafaning ham o'rganish obyekti ekanini nazardan qochirmaslik kerak.

Tayanch tushunchalar: tarixiy-biografik yondashuv, adabiy portret, holot, manolib, portretnavis, ijodiy portret, tanqidiy-biografik ocherk, esse, esseistika, badiya, xotira, adabiy o'ylar, esse-roman, Monten, tarixiy badiya, improvizatsiya, esse uslubi, klassisizm, diffuziyalanish, sinkretik, «Mashhur kishilar hayoti» rukni.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. *Portret istilahining ma'nolari haqida gapiring.*
2. *Portret-maqola nima? Adabiy-tanqidiy ocherk-chi?*
3. *Adabiy portret bilan holot va manoliblar orasidagi munosabatni nimalarda ko'rasiz?*
4. *Adabiy portretning janriy belgilari nimalarda ko'rinadi?*
5. *Adabiy portret bilan tanqidiy-biografik ocherk o'rtasidagi farq nimada?*
6. *O'zbek tanqidchiligida adabiy portretlarning rivojlanishi qay darajada?*
7. *«Esse» atamasi qanday ma'noga ega, uni badiya istilahiga munosabati qanday?*
8. *Esse qanday ichki turlarga ega? Essega xos xususiyatlar nimalarda ko'rinadi?*
9. *Xotira nima? Uning essega munosabati nimada?*
10. *Essenavis munaqqidlardan kimlarni va ularning qanday asarlarini bilasiz?*
11. *Yozuvchi va tanqidchilar yaratgan esselar qanday xususiyati bilan ajralib turadi?*



ADABIY MULOQOTGA ASOSLANGAN JANRLAR

REJA:

1. Adabiy-tanqidiy maktub.
2. Adabiy-tanqidiy maktubning ichki shakllari.
3. Adabiy suhbat janrining xususiyatlari.
4. Adabiy-tanqidiy suhbat turlari.

Adabiy-tanqidiy maktubning genezisi, tabiati. Maktub inson kashf etgan muloqotlardan birining tarixda muhrianib qoluvchi go'zal, ta'sirchan va qulay shaklidir. «Maktub, avvalo, fikrlashga, atrofga razm solib qarashga, yaxshi-yomonni tanishga, har narsaga mustaqil baho berishga, o'z fikriga ega bo'lishga, kuzatuvchanlikka o'rgatadi. Shular barobarida maktub yozish inson ijtimoiy faolligining eng yorqin ko'rinishlaridan biridir»¹.

Maktub muayyan ma'noda dil hujjatidir. Unda muallif shaxsiyati, ruhiy holati, kechinmalari aniq va xolisona ifodalanadi. Maktub mohiyatini ma'lumotning o'zi emas, eng avvalo, obyektga munosabat, shu tufayli tug'ilgan shaxsiy fikr-o'ylar, kechinmalar, his-tuyg'ular tashkil etadi. Shu ma'noda maktublar inson hayotida ham, adabiyot tarixida ham ma'lum ahamiyatga ega.

Maktubning janr sifatida tanqidchilikda qachon paydo bo'lganini aniqlash adabiy-tanqidiy tafakkurdagi izlanish, o'sish bosqichlarini aniqlash uchun alohida izlanishni talab etadi.

Shu ma'noda maktubning adabiy-tanqidiy janr sifatida shakllanishi va rivojlanishi ilmiy hodisa sifatida ayricha ahamiyatga ega. Tarixga nazar tashlansa, adabiy xususiyatga ega maktub (noma, xat)ning ildizi «Avesto» va O'rxun-Enasoy obidalariga borib taqalishini kuzatish mumkin.

Alisher Navoiyning Hirot, Samarqand, Astrobod va boshqa shaharlarda yashab turib, turli kishilarga yozgan nasriy maktublaridan tuzilgan «Munshaot» («Xatlar») asari jahon adabiyoti tarixidagi ulkan manbalardan biri hisoblanadi. Unga 88 ta ruq'a (xat) kiritilgan. Bu

¹ G'afurov I. Dil erkinligi. — T.: Ma'naviyat, 1998. 78-bet.

xatlar buyuk adibning turli holat va vaziyatdagi kayfiyatini realistik aks ettirgan tarixiy hujjatlargina emas, balki Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlarining nozik qirralarini ifodalagani bilan ham qimmatlidir. Ayni vaqtda, bu maktublar o'z davridagi adabiyot, san'at, madaniyat rivojiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatgani ham shubhasizdir.

Adabiy xarakterdagi maktubda muallifning adabiyot, badiiy asar haqidagi xolis mulohazalari birinchi o'rinda turadi. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, adabiy-tanqidiy maktubning o'ziga xos janriy belgilari quyidagilarda ko'rinadi:

Adabiy-tanqidiy xarakterdagi maktub yozuvchiga, asar qahramonlariga (shartli), tanqidchiga, kitobxonga murojaat qilib yoziladi. Adabiy tanqidning boshqa janrlaridan farqli o'laroq unda murojaat ruhi, ta'kid ohangi, ba'zan intini mushohadalar yetakchilik qiladi.

Bu janr rivoji va takomilida Fitrat, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, O.Tog'ayev, U.Normatov, I.G'afurov kabi munaqqidlar maktublari muhim o'rin tutadi.

O.Sharafiddinovning I.Haqqulga yozgan ochiq xati misolida o'zbek tanqidchiligidagi maktub janrining sifat jihatdan yangilanish jarayonini kuzatish mumkin. Munaqqid I.Haqqulga mahoratidagi go'zal va nozik nuqtalarni e'tirof etish bahonasida so'nggi bosqich o'zbek tanqidchiligidagi sodir bo'layotgan yangi tamoyillarni ochib beradi, munaqqidlar oldida turgan yangi-yangi vazifalarga e'tibor qaratadi.

Adabiy-tanqidiy maktubning ichki shakllari. Shunisi e'tiborliki, XX asr boshlaridayoq bu janrga murojaat etishda jonlanish seziladi. XX asr mobaynida adabiy-tanqidiy maktubga e'tibor turli bosqichda turli darajada kechdi.

O'zbek tanqidchiligidagi uning O.Sharafiddinov (Salmon Rushdiyga ochiq xat), U.Normatov (Zulfiya Qurolboy qiziga xat), Sh.Xolmirzayev tomonidan yozilgan namunalari misolida yangi ko'rinishlari paydo bo'ldi. O'zbek adabiy tanqidchiligidagi uning quyidagi xillari uchraydi:

1. Tanqidchining yozuvchiga maktubi.
2. Munaqqidning kitobxonga maktubi .
3. Tanqidchining adabiy qahramonlarga xati.
4. Yozuvchining tanqidchiga maktubi.
5. Tanqidchining tanqidchiga maktubi.

Tanqidchining adibga maktubi mohiyatan, ikki ko'rinishga ega:

1. Bunda muvaffaqiyatli chiqqan badiiy asar haqida tanqidchi o'z taassurotlari, quvonch va hayajonlarini yozuvchi bilan baham ko'radi.

Asarning o'ziga xosligi, adabiy jarayonda sezilarli voqea bo'lgani, kitobxon qalbidan o'rin ola bilishiga ishonch natijasida samimiy ruhdagi maktublar yoziladi. Bunga misol tariqasida tanqidchi O.Tog'ayevning yozuvchi Erkin A'zamga yozgan maktubini ko'rsatish mumkin. «Grajdanin — insonning shakllanishi» deb nomlangan bu adabiy-tanqidiy maktub munaqqidning «Prometey olovi» (1985) kitobidan o'rin olgan.

2. Adabiy-tanqidiy maktub badiiy jihatdan bo'sh, sayoz asarlar paydo bo'lganda yoziladi va ko'pincha shiddatli ohang kasb etadi. Unda murojaat ruhi yetakchilik qiladi. Uni yozish zamirida adabiyotga jonkuyarlik, kamchiliklarga befarq qaray olmaslik yotadi. Yuksak san'at asarlari yaratish bunday asarlarning bosh maqsadidir. Tanqidchi yuksak san'at mezonlari nuqtayi nazaridan yozuvchiga asari sayoz ekanini xolis isbot qilib berishga intiladi.

Bu bilan xalqning kitobxonlik darajasini ko'tarishga ham ko'maklashadi. Shunday ochiq xatlardan biri yozuvchi Ibrohim Rahimning «Odam qanday toblandi?» (1976) asari nashr etilishi munosabati bilan M.Qo'shjonov tomonidan yozildi.

Tanqidchi unda asarning o'ta jo'n yozilganini, ayniqsa, N.Ostrovskiyning «Po'lat qanday toblandi» asariga taassub o'zbek adibi asariga muvaffaqiyat o'rniga katta zarar keltirganini ro'y-rost aytadi. Munaqqidni, ayniqsa, asarda badiiylik, go'zallik yo'qligi tashvishlantirdi. Uning fikricha, yozuvchi asarda hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantira olmagan, obrazlarda, ayniqsa, hayotiylik yetishmaydi degan xulosaga keladi.

Bunday ochiq xatlarning ahamiyati shundaki, birinchidan, adabiyotda saviyasi past asarlar yaratilishiga qarshi keskin kurash olib boriladi; ikkinchidan, yozuvchining asarda yo'l qo'ygan kamchiliklari o'ziga ochiq-oydin ko'rsatib beriladi; uchinchidan, bunday ochiq xatlar kitobxon didini o'tmaslashib ketishdan ehtiyot qiladi; to'rtinchidan, adabiy jarayonni sog'lomlashtirib turadi. Qolaversa, ma'lum ma'noda noshirlarning ko'zini ochadi.

Bu xususiyatlarning barchasi, ayniqsa, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoiti uchun ahamiyatlidir. Lekin, afsuski, nihoyatda zarur bo'lgan hozirgi davrda ana shunday ochiq xatlar deyarli yozilmayotir.

Munaqqidning kitobxonga maktubi o'zbek tanqidchiligida kam uchraydi.

Masalan, U.Normatovning «Adabiy o'xshashliklar xususida» deb nomlangan maktubi kitobxonning savoliga javob tarzida bitilgan. Bunday maktublar kitob bilan kitobxon, munaqqid bilan o'quvchi oralaridagi masofani qisqartirishga xizmat qiladi, ular aro jonli muloqot ko'prigini uyushtiradi. Natijada kitobxon bilan tanqidchi bir-birini kuzatadigan, bir-birini quvvatlaydigan bo'lib boradi.

Tanqidchi tanlab olgan asarlar tahlili misolida adabiy o'xshashliklarning tashqi tomoniga emas, balki tub mohiyatiga, yozuvchining ijodiy individualligiga, badiiy konsepsiyasiga ko'proq diqqat qilishi lozim degan xulosaga keladi. Bunday maktubning adabiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati shundaki, u o'quvchi dunyoqarashini chiriqtirishga, hayot haqidagi, badiiy asar haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi. Adabiy-tanqidiy ruhdagi maktub kitobxon bilan adabiy jarayon o'rtasidagi robitani mustahkamlaydi, kitobxonni mustaqil fikrlashga o'rgatadi, badiiy asarga ijobiy munosabatda bo'lish malakasini tarbiyalaydi.

Tanqidchining adabiy qahramonlarga maktubi o'zbek tanqididagi munaqqid izlanishlari, talanti va iqtidoridan darak beruvchi maktubning yangi turlaridan biridir. Uning yorqin namunasi I.G'afurov ijodida uchraydi. O' Umarbekov qissalari qahramonlariga yozilgan xatlar shunday namunalardir.

Maktubda munaqqid qahramonlarning tutgan yo'liga, xatti-harakatlariga baho beradi, ularni oqlamaydi.

Ijodkorning tanqidchiga ochiq xati o'zbek tanqidchiligida kam bo'lsa-da, uchrab turadi. Bunga misol qilib shoir Usmon Azimning tanqidchi U.Normatovga yozgan xatini ko'rsatish mumkin. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati»da (1987, 13.X.) U.Azimning «Aql-zakovat murosami?» — deb nomlangan ochiq xati e'lon qilindi. Gazetaning shu sonida U.Normatovning «Yo'q, adolat-haqiqat yo'li» sarlavhasi ostida javob maktubi berildi. Bunday maktublarning paydo bo'lish tashabbuskori gazeta tahririyati, albatta. Kezi kelganda shuni ta'kidlash o'rinliki, bu gazeta o'zbek tanqidchiligining, umuman, faollashuvi, xususan, yuqoridagi kabi jonli izlanishlarga doimo tashabbuskor bo'lib kelmoqda.

Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktublar qayta qurish davrida yozilgan, shuning uchun ularda zamon ruhi-fikrni, haqiqatni ochiq-oydin, baralla aytish ruhi yaqqol ko'rinib turadi. Bu maktublar, ayni

vaqtda, 80-yillar tanqidchiligida jiddiy izlanishlar va o'zgarishlar bo'lganini ko'rsatadi.

O'zbek tanqidi tarixida munaqqid chiqishlariga shoir yoki yozuvchining javob berishi, u bilan bahsga kirishuvi, boringki, o'zini himoya qilishi kam uchraydigan hodisa. Bu holni ma'lum darajada 20-yillardagi adabiy jarayonda ham kuzatish mumkin edi. Adabiy maktubda munaqqidning munaqqidga maktubi (ko'proq javob tarzida) turi ham bor.

Bu tur 20-yillarda ancha tarqalgan edi. Fitratning «Yopishmagan gajaklar»i bunga misoldir. Ammo bunday asarlarning janriy chegarasi hali aniqlangan emas, ularni ba'zida maqola, ba'zida maktub deb atash hamon davom etmoqda. Xarakteri, ruhi, yozilish sabablaridan kelib chiqib, adabiy-tanqidiy maktub sifatida qarash maqbuldir.

Yuqorida e'tirof etilgan U.Azimning maktubi ham shu ruhda bitilgan. U tanqidchi maqolasini o'qib, 20-yillar an'anasida maktub yozishga azm qilganini aytadi. Uning ochiq xatiga javoban yozilgan tanqidchi maktubida shoir bilan ochiq munozaraga kirishiladi. Tanqidchi shoir da'volariga qarshi o'zining dalillarini keltiradi. Bu maktublarda har ikkala tomon zo'r berib, asosan, o'z fikrini ma'qullash yo'lini tutadiki, bunday tortishuv adabiy jarayonga ko'p ham naf keltirmaydi, chunki ularda xolislikdan ko'ra, tarafkashlikka sezilmagan holda yo'l qo'yiladi.

O'zbek adabiyotida yozuvchilarning maktublari hozirgacha deyarli o'rganilmay kelayotir. Holbuki, S.Ayniy, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor, Said Ahmad, P.Qodirov, O.Yoqubov va boshqa ko'plab ijodkorlar merosi adabiy maktublarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu janrni jonlantirishda Sh.Xolmirzayev faolligini ta'kidlash o'rinli. Maktubning bu turi tanqiddan ko'ra badiiy ijodga tegishli, shu bois ularni alohida o'rganish kerak. Bu maktublar ijodkorlarning yaxlit qiyofasini o'rganish va yaratishda muhim o'rin tutadi.

Keyingi yillarda o'zbek adiblariga kitobxonlar yozgan xatlar ham, o'ziga xos tarzidagi adabiy-madaniy boylik ekani ma'lum bo'lib bormoqda. Bunga shoir Shukurulloga yozilgan yuzlab xatlar asosida tuzilgan «G'oyibona muhabbat»(2011) to'plami misol bo'la oladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, adabiyotga daxldor maktublar adabiy jarayonda ham, ijodkorlar hayotida ham ma'lum o'ringa ega va ularning turli shakllari mavjud. Adabiy-tanqidiy maktublarning tur va ko'rinishlari ularning strukturasi, badiiyligi va publitsistik ruhini,

shakl va mazmun, tili, munaqqid qiyofasi, uslubi kabi muammolarni o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun adabiy-tanqidiy maktubni tadqiq etish, yuksak san'at asarlari yaratish yo'lidagi san'atkor jonbozligini ko'rsatish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy-tanqidiy maktublar kimga atab yozilganidan, qanday xarakterda ekani-dan qat'i nazar, o'zbek adibi va adabiyoti, umuman, adabiy tanqidning badiiy saviyasi o'sishiga, uning rang-barang jilolanishiga xizmat qiladi.

Adabiy-tanqidiy suhbatning o'ziga xos xususiyatlari. Suhbat ikki va undan ortiq shaxsning o'zaro muloqotidir. Muloqot turli xarakter va yo'nalishda bo'lishi mumkin. Adabiyot haqida, san'at haqida ikki kishi (olim va adib, tanqidchi va shoir) aro kechuvchi suhbat tanqidchilikning go'zal va qiziqarli shakllaridan biridir. Suhbatda bir-birini tushunish yoxud prinsipial ravishda bir-biri bilan kelisha olmaslikdan qat'iy nazar, unda mavzuni chuqur idrok va his eta olguvchi mutaxassislar ishtirok etadi.

Yozuvchi bilan tanqidchi, munaqqid bilan shoir, dramaturg bilan olim o'rtasidagi suhbatda adabiyot, ijodning nozik muammolari, bahsli nuqtalari yoritiladi.

Adabiy asar, adabiy jarayon, ijodiy laboratoriya haqida jamoatchilikka, mutaxassislarga yangi ma'lumotlar beriladi, u yoki bu masalaga mustaqil nuqtayi nazar ilgari suriladi.

Suhbat adabiy tanqidning alohida bir janri sanalib, o'ziga xos tabiatga va xususiyatlarga ega. Unda ikki suhbatdosh-yozuvchi va tanqidchining yoxud yozuvchi — yozuvchi, munaqqid — tanqidchi qiyofasi, qalbi, fikrlash tarzi, ma'naviy dunyosi, didi yaqqol ko'rinib turadi.

Muloqotda suhbatdoshlarning adabiyot haqidagi qarashlari, fikrlashlari, badiiy va ilmiy tafakkur tarzi, adabiy jarayonga, badiiy asarga, adabiy muammolarga munosabati, estetik aqidalari yorqin namoyon bo'ladi.

Suhbat jarayonida mujmal tushunmovchiliklarga o'rin qolmaydi, keskin munozaralar haqiqatning ko'zini ochishga yo'naltiriladi. Ba'zida suhbatdoshlarning qarashlari bir-biriga to'g'ri kelmasligi, ular bir-birini rad etishi mumkin.

Lekin, asosiysi, ular suhbat mohiyati yuksak adabiyotga va kitobxon manfaatiga xizmat etadi. Shu bilan birga adabiy-tanqidiy suhbat orqali suhbatdoshlar siymosi, qiyofasi, tabiati, xarakteriga xos muhim belgilar ochiladi.

Adabiy tanqidning qiziqarli sanaluvchi bu janri ko'p asrlik an'analarga ega. Tarixiy ildizlari Suqrot, Aflotun suhbatlari rivojlangan qadimgi yunon adabiyotiga borib taqaladi. Matbuot paydo bo'lguncha, bizda bu janr og'zaki tarzda – bedilxonlik, navoiyxonlik, mashrabxonlik kabi og'zaki shakllarda hukm surib, turli mushoiralarda bo'y ko'rsatgan.

V.G.Belinskiy ham bu janrga tez-tez murojaat qilgani ma'lum. Uning ko'p maqolalari suhbat shaklida yozilgan. Masalan, «Rus adabiyoti 1814-yilda» yillik obzorini yozishda suhbatdan foydalangan. Tanqidchi va shoir Kolsov esa Belinskiyning suhbat shaklidan foydalaniganiga qarshi chiqadi. «Tanqid to'g'ridan to'g'ri bir shaxs tomondan aytilishi kerak va u buyruq kabi ta'sir qilishi lozim», – deb hisoblaydi¹. Shuning ta'siridami, keyinchalik Belinskiy ijodida suhbatga e'tibor susaya borgan.

Ulug' rus shoiri A.S.Pushkin ham suhbatga katta e'tibor bilan qaraydi. Qayerda san'atga muhabbat bo'lmasa, u yerda tanqid ham bo'lmaydi, deb hisoblaydi shoir. Pushkinning «Tanqid haqida suhbat» asari adabiy-tanqidiy suhbat janrining yorqin namunasidir.

Pushkin suhbatdoshlari nomini A va V deb belgilaydi. Suhbat savol-javob bilan boshlanadi.

A. Siz «Galotey»ning oxirgi sonida NN ning tanqidini o'qidingizmi?

V. Yo'q, men rus tanqidini o'qimayman.

A. Behuda qilasiz. Boshqa hech narsa sizga bizning adabiyotdagi ahvol haqida tushuncha berolmaydi.

Shu tariqa o'sha davr tanqidchiligiga baho beriladi. Suhbatdoshlar aro musohib qarashlarini inkor etishi ruhi kuchli.

V. Tanqid bizda hech qanday ovozga ega emas, shubhasiz, yuqori tabaqadagi yozuvchilar rus jurnallarini o'qimaydilar, ularni maqtash yoki so'kishni bilmaydilar...

A. Men nafaqat o'z qoniqishlarim, balki so'z san'ati foydasini olqishlayman».

Ikki taraf bahsi asosiga qurilgan suhbatdan Pushkinning o'sha davr adabiy tanqidchiligiga bergan bahosini aniq bilib olish mumkin. Zamondoshlari fikricha, Pushkinning bu suhbatini tugallanmay qolgan.

Rus mumtoz adabiyotida B.Sumarokov bu janrda faol. XIX asr rus tanqidchiligida suhbat V.Jukovskiy ijodida ham uchraydi. Uning

¹ Егорев В. О мастерстве литературной критики. – Л.: 1980. – С. 176

«Tanqid to'g'risida» maqolasi to'liq dialog-suhbat shaklida yozilgan. Ko'rinayotirki, rus tanqidchiligida yozuvchi va tanqidchilar suhbatiga ko'proq mustaqil fikrlarni ifodalash vositasi sifatida qaralgan.

Ingliz yozuvchisi va tanqidchisi Robert Pen Uorrenning «Kak rabotayet poet?» («Shoir qanday ishlaydi?») kitobi maqolalar, intervyular va suhbatlardan tashkil topgan. Bular «Xarvi Brayt bilan suhbat», «Avtointervyu», «Qochoqlar bilan uchrashuv. Vander Bilt universitetidagi suhbat», «Badiiy nasr san'ati haqida suhbat», «Nyu-York shtatidagi Yunion kolleji talabalari bilan suhbat» va h.k. Bu suhbatlarning o'ziga xosligi shundaki, ularda bitta tanqidchi emas, ikki va undan ortiq tanqidchilar ishtirok etadilar. Masalan, «Qochoqlar uchrashuvi»dagi suhbatda Uorren, Teyt, Renson, Eliotlar qatnashadilar. Suhbatda ko'proq Uorren yetakchilik qiladi.

Yozuvchining «Badiiy nasr san'ati haqida suhbat»ida ham uch tanqidchi qatnashadi.

O'zbek tanqidchiligidagi suhbatlarda ko'proq ikki suhbatdosh muloqoti keng tarqalgan. Bir necha suhbatdoshlar ishtirokidagi davra suhbatlari ham uchraydi.

Bunga so'nggi yillarda U.Normatov, B.Nazarov, I.G'afurov, B.Sarimsoqov, N.Rahimjonov, Q.Yo'ldoshev, S.Meli ishtirokida «Mustaqillik davri she'riyati» hamda P.Qodirov, U.Normatov, A.Rasulov, N.Xudoyberganov, B.Nazarov, D.Alimova ishtirokidagi «Mustaqillik davri nasri» mavzuidagi davra suhbatlarini ko'rsatish mumkin. (O'zAS, 2005, 20-may; 22-avgust).

Adabiy-tanqidiy suhbatlar bir necha ichki ko'rinishlarga ega:

1. Yozuvchi bilan munaqqid suhbat. 2. Tanqidchi bilan adabiyotshunos suhbat. 3. Ijodkor (yozuvchi, shoir) bilan ijodkor suhbat. 4. Munaqqid bilan kitobxon suhbat. 5. Davra suhbat (tanqidchilar guruhini ham shunga kiritish mumkin).

Yozuvchi bilan munaqqid suhbat. Suhbatning bu turi, asosan, 70-yillarda rivojlandi. U ko'proq adabiy jarayondagi muammolarni, ham yozuvchi ijodidagi ayrim masalalarni qamrab olishga harakat qiladi, faolligi bilan ajralib turadi. Bunda yozuvchi ijodiy laboratoriyasiga oid ma'lumotlar, adibning o'z amaliy faoliyatidan chiqargan nazariy xulosalari aks etadi.

Adabiy-tanqidiy suhbatning bu xilini rivojlantirishga S. Mamajonov, U.Normatov, O.Sharafiddinov, I.Haqqulov, N. Xudoyberganov, M. Sa'diy kabi munaqqidlar o'z hissalarini qo'shdilar. Bu borada, ayniqsa, U.Normatov suhbatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Tanqidchi bilan adabiyotshunos suhbatlari. Suhbatning bu turi o'zbek tanqidida keng taraqqiy etmagan bo'lsa-da, so'nggi bosqichda jonlanish seziladi. Adabiyotshunos O.Abdullayevning munaqqid O.Sharafiddinov bilan suhbatlari uning go'zal namunalariidan biridir. Munaqqid ustozga uning nainki, hozirgi katta tajriba orttirgan ijodiy davri, balki yoshlik yillari haqida ham qator savollar beradi.

Suhbatda O.Sharafiddinov o'z bolalik yillari, dastlabki o'qigan badiiy asarlari, maktabdagi tahsil, qatag'on davrining jonli xotirralari haqida so'zlaydi.

Bu ma'lumotlar, birinchidan, o'quvchini munaqqidning hayotiga chuqurroq olib kiradi, qolaversa, uning portretiga chizgilar sifatida qimmatlidir.

Ikki suhbatdoshning adabiy tanqid mohiyati, adabiy jarayondagi o'rni, nuqson va yutuqlar, zamon va adabiyot muammolariga oid qarashlari tanqidning jonli manzaralarini ko'rish va kuzatishda muhim ahamiyatga egadir.

So'nggi yillardagi U.Normatov, H.Boltaboyev, I.G'afurov, Y.Solijonov, U.Hamdani, E.Ochilovlarning bu yo'nalishdagi suhbatlari, adabiy tanqid va adabiy jarayonni yanada jonlantirmoqda. Bu suhbatlar ham adabiyotshunos olimning, ham xalq mehrini qozongan iste'dodli munaqqidning ilmiy, ijodiy qiyofasini, suhbat madaniyatini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, «Sharq yulduzi», «O'zbek tili va adabiyoti» jurnallari sahifalarida tanqidchi va adabiyotshunoslarning o'zaro suhbatlari tez-tez berilyaptiki, demak, ularga qiziqish yildan yilga kuchayib bormoqda.

Ijodkor (yozuvchi, shoir) bilan ijodkor suhbatlari. E.Vohidov, O'.Hoshimov, A.Oripov kabi mashhur yozuvchi va shoirlarning yosh ijodkorlar bilan suhbatlari jamoatchilik tomonidan dolmo katta qiziqish bilan kutib olinadi.

Masalan, yosh ijodkor Safar Olloyorning Shukur Xolmirzayev bilan suhbatlari («O'ZAS», 2002-yil, 22- noyabr)da sarlavhasiga yozuvchi so'zlari chiqarilgan: «Jahonbop asar yoza olaman, lekin...», — deb nomlangan. Bu sarlavhaning o'ziyoq o'quvchini jalb etish xususiyatiga ega, aniqrog'i, unda struktural jihatdan qiziqitiruvchi kod mavjud. Suhbatda adabiyotning dunyoga chiqishida tarjimaning roli haqida fikr yuritiladi. Samimiy, dildan o'rtoqlashish ruhida tashkil etilgan suhbatdan Sh.Xolmirzayevning haqiqatgo'y, adolatparvar va katta orzulari bilan yashagan qiyofasi kitobxon xotirasida saqlanib qoladi.

Munaqqid bilan kitobxon suhbatı o‘zbek tanqidchiligida kam uchraydi. Yuqorida eslatganimiz ingliz adibi va tanqidchisi R.P.Uorrenning «Nyu-York shtati Yunion kolleji talabalari bilan suhbatı» bu janrning yorqin namunasiđir.

Bunday suhbatlarda yozuvchi keng kitobxonlar ommasining suhbatdosh misolidagi vakili bilan yuzma-yuz uchrashish imkoniga ega bo‘ladi.

Ayni vaqtda, oddiy kitobxonning adib bilan, asarlarini o‘zi sevgan (yoki sevmagan) yozuvchi bilan yuzma-yuz uchrashuvi uning kitobxon sifatidagi iqtidori, didi shakllanishi, u yoki bu adabiy-estetik muammolarni oydinlashtirib olishda muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, yozuvchi va kitobxon suhbatining bahs xarakterida kechishi unga salkam badiiy asar tusini beradi hamda bunday suhbatga ishqibozlar auditoriyasining kengayishi sabab bo‘ladi.

Bizning gazeta va jurnallar, tanqidchilar adabiy-tanqidiy suhbatning bu turiga ham e‘tibor qaratishsa, o‘zining go‘zal samaralarini berishi shubhasizdir.

Tanqidchining olimlar bilan suhbatı. Suhbatning bu turi o‘zbek tanqidchiligida ko‘p uchraydi. Uning yorqin namunalari taniqli adabiyotshunos va munaqqid I.Haqqul ijodida kuzatiladi. Olimning «G‘azal gulshani» (1991) nomli kitobidagi suhbatlarni muallifning o‘zi «adabiy suhbatlar» deb ataydi va ular «tahlil-mushohada shaklida» yozilganini ta‘kidlaydi.

Ibrohim Haqqul suhbatlari o‘zining nihoyatda erkinligi bilan diqqatni jalb etadi. Munaqqid ba‘zi suhbatlarda bo‘lgani kabi savollar berib o‘tirmaydi.

Masalan, «G‘oyaviylik va mahorat cho‘qqisi» deb sarlavhalanib, professor A.Hayitmetov bilan olib borilgan suhbat Alisher Navoiy g‘azallari, ulardagi adabiy an‘ana va yangilikning o‘rni kabi masalalarga bag‘ishlangan. Suhbatda Navoiy g‘azallaridagi an‘ana va yangilik xususida fikr yuritiladi.

Suhbatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, suhbatdoshlar qaysi shoir hayoti, ijodi haqida fikr yuritmasinlar, masalaga ko‘pincha jahon adabiyoti, yuksak san‘at mezonlari asosida yondashishga harakat qiladilar.

Davra suhbatı. Nomidan ko‘rinib turganidek, bu bir necha suhbatdoshlardan tashkil topadi. Suhbat ko‘pincha muayyan muammo atrofida uyushtiriladi. Yoki biror ijodkor hayoti, ijodini chuqurroq o‘rganishga bag‘ishlanadi.

Adabiyotshunos S. Mamajonov «Adabiy jarayon va adabiy jurnal-larda adabiy tanqid» maqolasida 1983-yilda «Yoshlik» jurnalida eʼlon qilingan suhbatlar haqida atroflicha fikr yuritadi. «Shakl-tomir, mazmun – qonmi?» degan davra suhbatini oʻquvchini oʻylashga majbur etadigan xususiyatga ega ekanligi koʻrsatiladi. «Yoshlik» jurnali «Literaturnaya uchyoaba» jurnali bilan hamkorlikda ibratli bir eksperiment-tajribasiga jamoatchilik eʼtibori tortildi.

Milliylik, shakl, anʼana va novatorlik, tarjima, til masalalari muho-kama qilinib, A.Muxtor, M.Qoʻshjonov, O.Yoqubov, E.Vohidov, I.Gʻafurov, O.Matjon kabi adib va munaqqidlar ishtirok etgan bu davra suhbatini oʻz vaqtida nainki Oʻzbekiston, balki undan ham kengroq miqyosdagi kitobxonlar eʼtiborini jalb etdi. Koʻtarilgan masalalar, ayniqsa, yoshlar ijodi, ularning buguni va ertasi bilan jips bogʻliqlikda yoritildi. Oʻsha vaqtda tilga olingan qator yosh ijodkorlar keyinchalik, milliy adabiyotimizning peshqadam namoyandalari boʻlib yetishdi.

«Yangilanish umidi» deb nomlangan davra suhbatini oʻzbek ada-biyotshunosligining buguni va kelajagi muammosiga bagʻishlangan. Unda Oʻzbekiston Respublikasi FA Til va adabiyot institutining yosh olimlari qatnashganlar. «Guliston» jurnalida eʼlon etilgan mazkur davra suhbatida adabiyotshunoslikda turgʻunlik davri qoldirgan asoratlarning sabab va oqibatlarini ochishga harakat qilingan.

Tashabbuslarga yoʻl ochish, ilmda sogʻlom ijodiy muhit yaratish, jahon miqyosidagi ilgʻor tajribalarni oʻzlashtirish, iqtidorli yoshlarga eʼtiborni kuchaytirish kabi muhim masalalar kun tartibiga qoʻyilgani ushbu suhbatning ilmiy-nazariy ahamiyatini belgilab beradi.

«Bolalar adabiyoti yuksalish mashaqqatlari» deb nomlangan davra suhbatini («OʻZAS», 2002-yil 24- may)da bolalar adabiyoti muammolari bilan shugʻullanuvchi mutaxassislar, shoir va adiblar qatnashdilar va mustaqillik davri bolalar adabiyotida badiiy baquvvat asarlar yaratish-ning dolzarb muammolari haqida fikr yuritildi.

Tanqidchilar gurungi. Atalishidan koʻrinib turganidek, bu suhbat turida, asosan, mutaxassislar ishtirok etadilar. Mavzu va muammo koʻpincha, adabiy tanqid xususida boʻlsa-da, bunday suhbatlar badiiy adabiyot va ijodiyotning turli yoʻnalishidagi masalalar atrofida ham boʻlishi mumkinligini inkor etmaydi.

Masalan, «Bugungi tanqid haqida qanday fikrdasiz» deb nomlan-gan («OʻZAS», 1984-yil, 4- may) davra suhbatini gazetaning bosh muharriri O.Yoqubov olib bordi. Suhbatda tanqid taraqqiyoti, yutuq

va kamchiliklari, ayniqsa, o'rganilmay kelinayotgan masalalarga e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, adabiy-tanqidiy suhbat janri o'z vazifalari, o'z mohiyati, o'z maqsadiga egadir.

Uning boshqa janrlardan farqli va asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, adabiy jarayon, mutaxassislar va kitobxonlar, bir vaqtning o'zida, u yoki bu muammo xususida, ko'plarni qiziqtirib kelayotgan yechimi yoxud yoritilishi kutilayotgan masala haqida turli qarashlarning guvohi bo'ladi.

Bunday imkoniyatni faqatgina davra suhbatlari berishi mumkin. Ko'plarda yangi fikr uyg'otish, borlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, ayrimlaridan voz kechishda bunday davra suhbatlari muhim ahamiyatga egadir.

Shu ma'noda uning imkoniyatlari boshqa janrlarga nisbatan kengroqdir. Davra suhbatida nima haqda muloqot olib bo'rilmasin, fikrlar charxlanadi, bir-birini to'ldiradi, bir muammo atrofida turlicha nuqtayi nazarlar ilgari suriladi.

Shu fazilati bilan davra suhbatlari adabiy jarayon yo'nalishiga faol va samarali ta'sir ko'rsata oladi.

E.Mejelaytesning «Tungi kapalaklar» kitobidagi tubandagi mulohaza e'tiborni tortadi. «...Birodar, agar sen shaxsiyat haqida fikr yuritmoqchi bo'lsang, eng avvalo, uni yaxshi his qilishing so'ng esa yaxshi tushuna olishing kerak. Eng avvalo, qalb bilan, shundan so'ng esa ong bilan...

Dastlab o'zida yengil va yoqimli shabbodadek Hofiz she'riyatining nash'asini tashuvchi epkinning siypalanishini o'zingda his qilishing kerak, faqat ana shundagina uning muattar bo'yidan qoniqib nafas olasan»¹. Bu fikrlarni tanqidchilikning barcha janrlariga nisbatan-qo'llash mumkin. Tanqidchi yuqoridagi xususiyatlarga amal qilsa, yozgani san'at darajasiga yaqinlashadi.

Umuman, adabiy tanqidning hamma janrlari adabiyotga, adib va badiiy asarga muhabbat samarasining o'ziga xos shakllaridir. San'atga muhabbat bo'lmagan joyda tanqid bo'lmaydi. A.S.Pushkin ta'biri bilan aytganda: «Tanqid san'at va adabiyot asarlarining go'zalligi va nuqsonini ochib beruvchi fandır». Shunday ekan, haqiqiy munaqqid bo'lishni istagan kishidan san'atni sevishi va o'ziga xos iqtidor egasi bo'lish talab qilinadi.

¹ Kamalak. To'plam. 1998.

Tayanch tushunchalar: maktub, xat, ochiq xat, adabiy-tanqidiy maktub, yozuvchiga maktub, kitobxonga maktub, tanqidchining tanqidchiga maktubi, maktubda shaki va mazmun birligi, tanqidchi va yozuvchi suhbat, xat qurilishi, suhbat, muloqot, tanqidchilar gurungi, davra suhbat, tanqidchi iqtidori.

Mavzui mustahkamlash uchun savollar:

1. *Adabiy-tanqidiy maktablarning ildizi haqida gapiring.*
2. *Janriy belgilar deganda nimani tushunasiz?*
3. *Adabiy-tanqidiy maktablarning turli shakllari haqida gapiring.*
4. *Adabiy suhbat janrining o'ziga xosligi nimada?*
5. *Suhbatning qanday ichki turlari mavjud?*
6. *Adabiy-tanqidiy suhbatning boshqa janrlardan farqi nima?*

MUNDARIJA

Mualliflardan.....	3
--------------------	---

BIRINCHI BO'LIM

Adabiy tanqid fan sifatida. Uning ijtimoiy-estetik mohiyati, maqsadi va vazifalari.....	4
Adabiy tanqidning o'ziga xos xususiyatlari.....	26

IKKINCHI BO'LIM

O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

O'zbek adabiy tanqidchiligining shakllanish tamoyillari (1900–1925).....	37
Abdurauf Fitrat (1886–1938).....	72
Cho'lponning adabiy-tanqidiy qarashlari (1897–1938).....	81
Vadud Mahmud (1898–1976).....	90
O'zbek adabiy tanqidi mafkuraviylashtirish va realizm uchun kurash jarayonida (1927–1990).....	100
Oybekning adabiy-tanqidiy qarashlari (1905–1918).....	168
Izzat Sulton (1910–2001).....	177
Homil Yoqubov (1907–1998).....	186
Matyoqub Qo'shjonov (1918–2005).....	192
Salohiddin Mamajonov (1931–2005).....	204
Norboy Xudoyberganov (1938).....	210
Ibrohim G'afurov (1937).....	214

UCHINCHI BO'LIM

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI (XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlari)..... 224 |

Ozod Sharafiddinov (1929–2005).....	282
Naim Karimov (1932).....	293

Umarali Normatov (1931).....	305
Baxtiyor Nazarov (1945).....	314
Abdug'afur Rasulov (1937).....	323
Hotam Umurov (1942).....	329
Ibrohim Haqqulov (1949).....	331
Adabiy tanqidda tahlil va talqin muammolari.....	340

TO'RTINCHI BO'LIM

O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGINING JANRIY TARKIBI

Adabiy tanqid janrlari. Taqriz.....	380
Adabiy-tanqidiy maqola	390
Tarixiy-biografik yondashuvga asoslangan adabiy tanqid janrlari.....	402
Adabiy muloqotga asoslangan janrlar.....	417

**BAXTIYOR NAZAROV,
ABDUG‘AFUR RASULOV,
QURDOSH QAHRAMONOV,
SHOIRA AXMEDOVA**

O‘ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI TARIXI

Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik

*Muharrir Oybek Kanayev
Badiiy muharrir Yasharbek Rahimov
Texnik muharrir Yelena Tolochko
Kompyuterda sahifalovchi Munisa Ismoilova*

Litsenziya raqami AJ № 163. Bosishga ruxsat etildi 06.08.2012. Bichimi 60×84^{1/16},
Tayms TAD garniturası. Shartli b.t. 25,11. Nashr b.t. 25,21. Shartnoma № 45–2012.
500 nusxada. Buyurtma № T-31-10.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho‘lpon nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

«TAFAKKUR-BO‘STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahar,
Chilonzor ko‘chasi, 1.



**Cho'lpon nomidagi
nashriyat-matbaa ijodiy uyi**

ISBN 978-9943-05-515-5



9 789943 055155